

Z.N. TOJIYEVA,
F.A. DO'SMONOV

DEMOGRAFIYA



TOSHKENT

312(07)

T60


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

Z.N. TOJIYEVA, F.A. DO'SMONOV

DEMOGRAFIYA

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan talabalar uchun o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*



TOSHKENT-2020

UO‘K: 31(075.8)

KBK 60.7ya73

T 60

**T 60 Z.N. Tojiyeva, F.A. Do‘smonov. Demografiya –T.:
«Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи»,
2020. 424 bet.**

ISBN 978–9943–6729-3-2

O‘quv qo‘llanmada demografiyaning nazariy asoslari, demografik jarayonlar, aholi soni, tarkibi, mexanik harakati va uni o‘rganish usullari ko‘riladi, shuningdek, dunyoda va O‘zbekistondagi holati tahlil etiladi. Aholi takror barpo bo‘lishi bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik, asosiy demografik jarayonlarning rivojlanishini baholash, jamiyat tarkibida migratsiya, nikoh va oila masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

O‘quv qo‘llanma Oliy o‘quv yurtlari talabalariga, iqtisodiy va noiq-tisodiy yo‘nalishdagi mutaxassislarga, aholishunoslik va demografiya muammolari bilan shug‘ullanuvchi o‘qituvchilar, qator ilmiy xodimlar, tadqiqotchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir: M.R. Bo‘riyeva – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

UO‘K: 31(075.8)

KBK 60.7ya73

Taqrizchilar:

M.Egamberdiyeva – geografiya fanlari nomzodi, dotsent;

O.Ortiqov – iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

ISBN 978–9943–6729-3-2

© «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020.

KIRISH

Demografiya aholi haqidagi xususiy fan bo'lib, aholining mavjudlik qonuniyatlarini, takror barpo bo'lishini ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi. Mazkur o'quv qo'llanmani o'zlashtirish natijasida, bu fanning aholishunoslik fanlar tizimida tutgan o'rnini, demografiya fanlari tizimi, aholi soni va tarkibi, demografik hodisalar vaqti va yoshi, aholi dinamikasi va tarkibining ko'rsatkichlari, nikoh va ajralish, tug'ilish, o'lim va o'rtacha umr ko'rish, aholining takror barpo bo'lishi va uning ko'rsatkichlari, aholi migratsiyasi va demografik jarayonlar haqida mukammal ma'lumotlar olish mumkin.

Demografik nazariy bilimlar iqtisodiyotning turli sohalarida muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Jumladan, davlat boshqaruv organlari (Mehnat, statistika, iqtisodiyot, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimlari), oliy o'quv yurtlari, ilmiy-tadqiqot muassasalarida ushbu soha mutaxassislariga talab katta. Demografiya bo'yicha olingan bilim, ko'nikmalardan turli yo'nalishdagi mutaxassislar aholi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, migratsiya, oila haqidagi bilimlardan o'z o'rnida keng foydalaniladi.

Demografiya o'quv qo'llanmasi aholining rivojlanish qonunlari va qonuniyatlarini, takror barpo bo'lishi, demografik jarayonlarni tahlil qilish metod va ko'rsatkichlari bo'yicha tushunchalar bilan tanishtiradi. Shu boisdan, mazkur kurs jurnalistika (faoliyat turlari), ijtimoiy ish (oilalar va bolalar bilan ishlash), sotsiologiya, iqtisod, tarix yo'nalishlari va mutaxassisliklari uchun "Demografiya" darsi jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan. O'quv qo'llanmada ko'zda tutilgan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarga asosiy demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya) bo'yicha jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, ularning haqiqiy holati, o'z mamlakatidagi demografik muammolarni ilmiy tu shunish, baholash, istiqbolini ko'rsatib berish hamda ijtimoiy oqibatlarini, tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy va boshqa omillar bilan bog'liqligi haqidagi qonuniyatlarni o'rgatishdan iborat.

O'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

-demografiyaning mustaqil fan sifatida rivojlanish tarixi, maqsadi, vazifalari, predmeti, demografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni, ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy fanlar bilan aloqalari haqida bilishi;

-demografik tahlil usullari;

-demografik siyosat masalalarini boshqarish, me'yoriy qonunchilik hujjatlari tizimi;

- aholi tarkibi va demografik jarayonlarni o'rganish manbalari: aholi ro'yxatlari va ularning dasturlari, aholi tabiiy harakatining statistik ko'rsatkichlari, aholi registrlari, demografik jarayonlarni ro'yxatga olib borish, sotsiologik-demografik tadqiqotlar haqida mukammal ***tasavvurga ega bo'lishi***;

-aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlarni umumiy va maxsus koeffitsiyentlarini, aholi takror barpo bo'lishining brutto va netto koeffitsiyentlarini mustaqil hisoblashi va ularni xalqaro miqyosida respublikamiz hududlari bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy axborot texnologiyalari, maxsus adabiyotlarni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;

- demografik ma'lumotlarni ularning birlamchi manbalari (FHDYO, ichki ishlar organlari, statistika bo'limlari)dan to'plash, saralash, tahlil qilish; ijtimoiy demografik so'rovlar anketalarini tuzish, bunday so'rovlar o'tkazishni tashkil qilish va bunday ma'lumotlardan foydalanish, qo'llash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***.

O'quv qo'llanmada demografiyaning nazariy asoslari, demografik jarayonlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik masalalari, demografiyaning nazariy va metodologik jihatlarini zamonaviy dunyodagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda batafsil yoritishga harakat qilingan.

I. BOB. DEMOGRAFIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI: OBYEKTI, PREDMETI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

- 1.1. Demografiyaning obyekti, predmeti, vazifalari, usullari
- 1.2. Aholishunoslik fanlari tizimi
- 1.3. Demografiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari

1.1. Demografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari

Aholi qator ijtimoiy va tabiiy fanlarning o'rganish obyekti hisoblanadi. Masalan, anatomiya inson organizmining tuzilishi va biologik xususiyatlarini o'rgansa, psixologiya fani – inson ruhiyatini talqin etadi, etnografiya alohida millatlarni o'rganar ekan, asosiy etiborni ularning urf-odatlarini, qadriyatlariga qaratadi. Aholi geografiyasi esa, aholi va aholi manzilgohtarining tarkibi, soni va joylashivudagi hududiy farqlarni va bu farqlarning vujudga keltiruvchi omillarni o'rganadi. Shuningdek, aholini o'rganuvchi fanlar jumlasiga sotsiologiya, falsafa, jamiyat shunoslik, tarix, statistika, ekologiya, iqtisod kabi fanlarni kiritish mumkinki, ular hammasi birgalikda aholi-shunoslik fanlari tizimini tashkil etadi. Ana shu fanlar tizimida demografiya alohida ahamiyatga egadir.

“Demografiya” – ikki yunon so'zlarining qo'shilishidan iborat bo'lib, “demos” – xalq, aholi, “grafiya” – tasvirlash, yozish, o'rganish ya'ni, “xalq haqida yozmoq” yoki “aholini sharxlash” ma'nolarini anglatadi. Biroq demografiya fani faqat sharxlash bilan chegaralanib qolmay, balki uning o'rganish doirasi bir muncha keng va chuqurdir.

“Demografiya” tushunchasi 1855-yilda fransuz olimi A. Giyyarning “Inson statistikasi elementlari, yoki taqqoslash (qiyosiy) demografiyasi” kitobida paydo bo'lgan; rasmiy ravishda Xalqaro gigiyena va demografiya kongressida qayd etilgan (1882); XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keng tarqalgan. O'zbek tiliga XIX asrning

60-70-yillarida kirib kelgan. Dastlab aholi statistikasining sinonimi sifatida foydalanilgan. Baʼzan demografiya, deb aholining tarkibi, takror barpo etilishi, sonining taʼrifi va tahlili boʻyicha olib boriladigan faoliyatga aytiladi. “Demografiya” soʻzi “aholining oʻrganishga taalluqli” degan maʼnoda qoʻllaniladi (masalan, demografik adabiyot), shuningdek, “aholiga tegishli” maʼnosida ham (masalan, demografik tarkib). Demografiya oʻz tadqiqotlarini asosan aholini holati (soni, yosh – jinsiy, nikoh va oilaviy tarkibi) va demografik jarayonlar (tugʻilish, oʻlim, nikoh va ajralish) haqidagi statistik maʼlumotlarni tahlil etish yoʻli bilan olib boradi.

Mustaqil ijtimoiy fan sifatida demografiya tugʻilish, oʻlim, nikoh, ajralish, nikoh juftliklari va oilalarning takror barpo boʻlishi, umuman shu jarayonlarning birligi sifatida aholining takror barpo boʻlishi kabilarning qonuniyatlari va ijtimoiy negizlarini oʻrganadi; u aholining yosh – jinsiy, nikoh, oilaviy tarkibidagi oʻzgarishlarni, demografik jarayonlar va aholi tarkibining oʻzaro bogʻliqligi, shuningdek, bir-biriga taʼsir etuvchi aholi va oilalarning umumiy sonlarining oʻzgarish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Demografiya demografik jarayonlar va aholi tarkibini sharxlash, taʼriflash, tahlil va bashorat qilish uslublarini ishlab chiqadi. Demografik jarayon va aholi tarkibining ichki oʻzaro bogʻliqligini oʻrganish, shuningdek, ularga taʼsir etuvchi turmush sharoitlari va demografik jarayonlarning intensivligini belgilab beruvchi ijtimoiy munosabatlarni aniqlashga asoslanib demografiya mazkur tarkib va jarayonlar kechishining umumiy qonuniyatlari, bu qonuniyatlarning alohida aholi guruhlarida, maʼlum vaqt va joylardagi xususiyatlarini aniqlaydi.

Demografiya ijtimoiy fan sifatida 1) aholi soni, tarkibi va uning muayyan hudud boʻyicha taqsimlanishini; 2) aholi soni va tarkibining oʻzgarishi; 3) ushbu oʻzgarishlar komponentlari (tugʻilish, oʻlim va migratsiya); 4) ushbu komponentlarga taʼsir qiluvchi omillarini; va 5) aholi takror barpo boʻlishi, tarkib va taqsimlanishi yoki uning komponentlarining oʻzgarishining oqibatlarini oʻrganadi. Demografiyani tugʻilish, oʻlim va migratsiya natijasida aholi miqdori, tarkibi,

joylashuvi va takror barpo bo'lishini ilmiy tadqiq qiluvchi soha sifatida ham ko'rish mumkin. Demografiya yirik (yoki kichik) aholi takror barpo bo'lishiga aloqador: aholi takror barpo bo'lishi esa yosh, jins, irq, oilaviy holati va boshqa jihatlar; hamda joylashuviga bog'liq (misol uchun shahar va qishloq aholisi). Demografiya shu bilan birga tug'ilish, o'lim va migratsiya natijasida ro'y beradigan vaqt davomida aholi miqdori, tarkibi aholi takror barpo o'zgarishlari bilan ham shug'ullanadi. Kitobning ushbu bobi mazkur mavzularni demografiyaga kirish qismida chuqur tahlil qiladi va sizlarni tanishtiradi¹.

Amaliy tomondan demografik tadqiqotlar doirasiga butun mamlakat yoki uning alohida hududlaridagi aholisi yoki ma'lum aholi guruhlarning demografik vaziyatini ta'riflash, demografik jarayon va omillarini tahlil etish kiradi. Tug'ilish va o'limning turli avlodlar, turli ijtimoiy guruhlar va har xil hududlardagi xususiyatlarini tadqiq etishga asoslanib, demografiya bularning kelgusida kutilayotgan o'zgarishlarining demografik prognozlarni ishlab chiqib, baho beradi. Demografiyaning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, aholishunoslik butun ishlab chiqarishning ijtimoiy jarayonining asosiy obyekti va subyekti sanaladi. Shu bois demografik tadqiqotlar jamiyat to'g'risidagi ilmiy bilimlar tizimining katta qismini tashkil qiladi, insoniyat demografik taraqqiyotining dialektik-materialistik nuqtai nazardan talqin etilishi, bu ilmiy dunyoqarashning ajralmas bir bo'lagidir. Demografiyaga, boshqa ijtimoiy fanlar kabi, tadqiqot obyekti va natijalariga sinfiy yondashuv xosdir. Aholining amaldagi va taxminiy soni, tarkibi haqidagi ma'lumotlar rejalashtirish, xususan, mehnat resurslari va ishlab chiqarish vositalarini joylashtirish, uy-joy qurilishi, sog'liqni saqlash kabilar uchun dastlabki material sifatida xizmat qiladi.

Demografiya aholini biosotsial kategoriya sifatida uning tabiiy va migratsiya harakatlarini birgalikda tadqiq etsa², aholishunoslik nuqtai nazaridan to'loqonli hisoblanadi. Biroq, demografiya

¹POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 3-p.

²Soliyev A.S. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari.-T.,1999.B.48.

doirasida migratsiyani hisobga olmaslik ham xatodir. Sababi, tug‘ilish, o‘lim yoki nikoh va ajralish kabi demografik jarayonlar rivojlanishiga aholining migratsiyasi ma‘lum darajada o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Bu ta‘sir aholining ko‘chib ketgan va kelgan hududlaridagi aholi miqdori, tarkibi, aholining fe‘l-atvori, turmush tarzida yaqqol seziladi.

Mazkur holatlar, demografik jarayonlar o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi muhim omillardan ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, A. Ionsevni ma‘zmun va mohiyatiga ko‘ra, demografiyaga to‘liq ta‘rif bergan deyish mumkin. Uning fikricha, “demografiya aholishunoslik haqidagi fan bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi aholi takror barpo bo‘lish qonuniyatlarini, aholi soni, tarkibi o‘zgarishini va migratsiyasini o‘rganadi”³. Biroq, V.A. Borisov va boshqa ko‘pgina olimlar demografiya o‘rganish predmetiga migratsiyani ham kiritishadi, aslida demografiya fanining predmeti “aholi tabiiy takror barpo bo‘lishini o‘rganishdir”⁴, Bunda keltirilishicha, migratsiya bilan aholi tabiiy takror barpo bo‘lishida sifat jihatdan farqlar mavjud va bu farqlar, unga ta‘sir etuvchi omillar xususiyatiga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi. Xuddi shu keltirilgan fikrlar geodemografiya va demogeografiyada ham asosiy o‘rin tutadi, ammo bu fanlar doirasida demografik jarayonlarga umumiy baho berilishi maqsadga muvofiq. Masalan, geodemografiyaga tegishli tadqiqotlarda sof demografik ko‘rsatkichlar, koeffitsiyentlar, kogort, o‘limda biometrik tahlil, o‘lim, avlodlar jadvallari, perinatal o‘lim, avlodlarda nikoh tuzilish ko‘rsatkichlari, turli yosh va jinsiy guruhlar bo‘yicha nikoh jadvallari tuzilish va hokazo nikoh davomiyligi, kogortda nikoh hamda undagi farzandlar tug‘ilishi kabi ommaviy hodisa va jarayonlarning tahlil etilishi uning o‘rganish predmetidan uzoqlashishiga olib keladi. Chunki, bu ommaviy hodisalar ma‘lum bir davr, vaqt ichidagi odamlar yig‘indisiga tegishli bo‘lganligi bois ham demografiyada batafsil o‘rganiladi. Xolbuki, demografiya avlodlarning tabiiy

³ Ионцева В.А. Экономика народонаселения демография.-М.,2002.С.33.

⁴ Борисов В. А. Демография. — М.: NOTABENE, 1999, 2001. С.5.

almashinuviga, ya'ni tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi⁵.

Ishlab chiqarish va uning tarkibiy qismlari qonuniyatlarini xolisona talqin qilish, ularning tendensiyalari va ijtimoiy determinatsiyasining o'ziga xos xususiyatlarini bilish demografiya uchun demografik siyosatning umumiy yo'nalishlari va aniq tadbirlarini ishlab chiqish imkoniyatlarni beradi, ijtimoiy siyosatning bir qismini tashkil qiladi. Demografiyada asosiy kuzatuv birligi – inson hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma'lumotlilik darajasi, oilaviy holati, kasbi-kori, malakasi, ijtimoiy guruhi, yashash joyi, til bilish kabi imkoniyatlari o'zgarib boradi. Ana shu alohida inson hayotida ro'y bergan o'zgarishlar yig'indisi umuman aholi hayotida ijtimoiy-iqtisodiy va demografik o'zgarishlarga olib keladi. Nikohga kirish natijasida oilalar soni oshib boradi, yolg'izlar, bo'ydoqlar soni esa kamayadi. Nikohning bekor etilishi, ya'ni, ajralish jarayoni esa aholi tarkibida tugalmas oilalarning va bevalar salmog'ining ko'payishiga sabab bo'ladi. Inson dunyoga kelar ekan ma'lum davr yashaydi. Ana shu davr mobaynida u ulg'ayib boradi. Go'daklik davridan bolalikka, o'smirlik, yoshlik, o'rta yoshlik, yetuklik davrlarga o'tiladi. Har bir o'quv yili tugashi bilan aholi tarkibida ma'lumotlilar soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs hayotidagi o'zgarishlar aholi guruhidagi o'zgarishlarga olib keladi. Insonlarning bir hududdan ikkinchi bir hududga ko'chib o'tishi – migratsiya, ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta'sir etadi.

Aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga doimo o'zgarib boradi. Tug'ilish jarayoni aholi sonining ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi kamayib boradi. Ma'lumki, jamiyatda har doim qandaydir sabablarga ko'ra aholining

⁵ Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar vaularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi.- T., 2017. B. 17.

bir qismi hayotdan ko'z yumadi, ya'ni, vafot etadi. Yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiyatdagi o'lgan aholi o'rni yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon aholi takror barpo bo'lishining asosini tashkil etadi. Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining esa zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh – jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum sotsial muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlarga egadir. ***Demografiyaning asosiy predmeti aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili hisoblanadi.***

Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida uning miqdoriy va sifatiiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi. Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (o'sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiiy xususiyatlari esa, ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish muddatida ifodalanadi. Har ikkala jarayon, ya'ni, aholining miqdoriy va sifatiiy rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Masalan, aholi salomatligini yuqori darajada bo'lishi, aholi o'rtasida o'limning kamayishi, o'rtacha umr ko'rish muddatining esa uzayishiga olib keladi. Natijada, aholi soni o'sib boradi. Shuningdek tug'ilishning juda yuqori darajada bo'lishi, ko'p hollarda ona va bola organizmining zaiflashib borishiga va o'lim hollarining ko'payishiga olib keladi. Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat

jihativan muntazam o'zgarib kelgandir. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi.

Aholining takror barpo bo'lishi, keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migratsiya aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, ma'lumot olish, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi.

Demografiya asosiy e'tiborni tabiiy avlodlar alma shuvi – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o'rganish lozim.

Demak, **Demografiya** aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi, omillarini, muammolarini aniqlab, istiqbolini belgilab beradi.

Har bir fanning asosiy vazifasi tabiat va jamiyatning ma'lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o'rganishdir. Lekin shu bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalari ham mavjud. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z vazifalariga egadir. Ushbu vazifalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.⁶

1. Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish.
2. Demografik prognozlarni ishlab chiqish.
3. Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va oila kiradi. Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo, tug'ilish jarayoni natijasida dunyoga keladi. Demografiya tug'ilishni alohida,

⁶ В. А. Борисов. Демография. М. 1999 г. с – 14.

aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy - iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. Shuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi, ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir. Dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining demografik faoliyatini (oilalar qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi.

Oila shakllanishi esa, o'z o'rnida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demografiya nikoh evolyutsiyasi va uning aholining takror barpo bo'lishidagi o'rnini alohida o'rganadi. Ajralish, ya'ni nikohning bekor etilish ham aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi. Demografiya ushbu jarayonni o'rganar ekan, uning mavjudlik darajasiga ta'sir etuvchi qator sabab va oqibatlarini atroflicha tahlil etadi. Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi – migratsiyasini ham o'rganadi. Lekin bu jarayonni o'rganishda, aholi geografiyasidan farqli ravishda, asosiy e'tiborni migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlariga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro'y beradigan hududning demografik holatidagi o'zgarishlarga qaratadi.

Demografiyada oila asosiy ijtimoiy - demografik guruh sifatida o'rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o'rni, evolyutsiyasi, aholining takror barpo bo'lishidagi asosiy faoliyati va uning o'zgarib borish omillari va oqibatlari o'rganilib, kelajak rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi. Ma'lumki, aholi tug'ilish va o'lim jarayoni natijasida mavjud bo'lgan avlodlar almashinuvi yig'indisidir. Inson mavjudligini ta'minlovchi barcha demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish uning hayotidagi ma'lum davrida, ya'ni ma'lum yoshida ro'y beradi. Shuning uchun, yosh demografik jarayonlarni o'rganishda asosiy mezon hisoblanadi. Insonning demografik va ijtimoiy holatida, o'z hayoti davomida yosh va jins asosiy ko'rsatkichdir. Aholining jinsiy tarkibi ham demografik tahlili lozim bo'lgan mezonlardandir.

Demografik prognozlar ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o'rganilayotgan hudud yoki ijtimoiy guruh aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo'lgan munosabatini) atroflicha tahlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi. Demografik siyosat mazmuni va tadbirlarini ishlab chiqish juda mas'uliyatli va murakkab jarayondir. Ushbu yumushni bajarishda demografiya o'rganilayotgan davlat yoki alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, etnik xususiyatlari, urf - odatlari va qadriyatlarini, demografik holatini mukammal o'rganish lozim.

Demografiya mustaqil fan sifatida o'z tadqiqot usullariga egadir. Ular jumlasiga tarixiy taqqoslash, statistika, matematika, kartografik, mantiqiy fikrlash va sotsiologik uslublar kiradi. Demografiyaning tahlil uslubi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash uslubidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifatiy o'zgarishlari ham o'rganiladi. Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'ysunishi tufayli, demografik jarayonlar ham ishlab chiqarish usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish mahsulidir. Shu sababli aholi turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jihatdan demografiya tahlil mavzui siyosiy iqtisod, sotsiologiya, psixologiya, matematika, statistika, sotsial gigiyena, geografiya, tibbiyot, tarix, etnografiya va boshqa fanlar tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, shu fanlarning yutuqlaridan foydalanadi. Ayni vaqtda ularga qimmatli ma'lumotlar beradi.

Demografiya har bir ijtimoiy - iqtisodiy tuzum aholimining ko'payishi va rivojlanish qonunlarini alohida - alohida o'rganadi. Chunki har bir ijtimoiy - iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o'sish qonuni, demografik vaziyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.


1.2. Aholishunoslik fanlari tizimi

Aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlarni o'rganar ekan, demografiya bir qator ilmiy yo'nalishlarga bo'linadi va bu

yoʻnalishlar demografiya fanlar tizimini tashkil etadi. Ularga nazariy demografiya, demografik statistika, tarixiy demografiya, demografiya tarixi, etnik demografiya, iqtisodiy demografiya, hududiy demografiya, tavsifiy demografiya va amaliy demografik tadqiqotlar kiradi.

Nazariy demografiya - aholi takror barpo etilishining harakatlantiruvchi kuchlarini va iqtisodiy, ijtimoiy, psixologik va boshqa omillar bilan bogʻliqligini talqin etadi; takror barpo boʻlishi tartiblari taraqqiyotining, aholining takror barpo etilishi turlarining tarixiy tendensiyalarini (tomonlarini) tushuntiradi; aholining takror barpo boʻlishining mohiyati va buning tarixiy jarayondagi oʻrnini anglash uchun aholining jamiyat taraqqiyotidagi roli va iqtisodiy rivojlanish uchun ahamiyati haqidagi qarashlar alohida oʻrinli boʻlib, ijtimoiy – iqtisodiy nazariyaga taalluqlidir. Aynan nazariy demografiya aholining takror barpo boʻlishi va undagi oʻzgarishlarning, demografik mayl, shuningdek, demografik jarayonlar va aholi holatini oʻzaro bogʻlanishlarini tu shuntiradi. Nazariy demografiya nazariyalarni ishchi gipotezalarni taʼriflashdan boshlab, to toʻplangan axborotni umumlashtirish va tahlil qilish kabi demografik jarayonlarni ilmiy oʻrganilishining barcha bosqichlari uchun asos boʻlib xizmat qiladi, qonuniyatlarni nazariy tahlil qilishga asos yaratadi.

Aholishunoslik haqida ilmiy bilimlar tizimi



Demografiya tarixi – demografiyaning alohida fan sifatida rivojlanish shart - sharoitlari va tarixini oʻrganadi.

Demografik statistika – aholi soni, tarkibi, joylashuvi, takror barpo bo‘lish va demografik jarayonlar haqida statistik uslub yordamida raqamli ma’lumotlar to‘playdi.

Etnik demografiya – turli xalqlar va etnik guruhlar aholisining soni, tarkibi, takror barpo bo‘lishi va demografik jarayonlarini o‘rganadi.

Iqtisodiy demografiya – aholi takror barpo bo‘lishining iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liq holda o‘rganadi; demografik jarayonlar xususiyatlarini iqtisodiy strukturaga muvofiq va muvozanatga ta’sirini tahlil etadi.

Hududiy demografiya – ma’lum hudud, mamlakat, davlatning hududiy bo‘linmasidagi aholi soni, yosh – jinsiy, oilaviy tarkibi demografik jarayonlarining xususiyatlarini o‘rganadi.

Tavsifiy demografiya – demografik hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni, ularni ijtimoiy - iqtisodiy omillar bilan bog‘liqligini maxsus demografik va matematik uslublar yordamida o‘rganadi.

Amaliy demografiya – aholi va demografik jarayonlar haqidagi ma’lumotlarni shaharlar va qishloqlarni, qurilishni, ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirishda, umuman inson hayoti uchun zarur bo‘lgan vositalarni rejalashtirishda ishlatilishi.

Etnografiya – demografiya bilan chambarchas va har tomonlama bog‘liq bo‘lgan fanlar hisoblanadi. Chunki bu fanlar ham bevosita aholi geografiyasi singari aholini o‘rganadi. Lekin bular aholini har qaysisi o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda tadqiq etadilar. Masalan, demografiya aholi soni, takror barpo bo‘lish qonuniyatlari va omillarini o‘rgansa, etnografiya – halqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy tarixiy aloqalarini o‘rganadi. Xalqlarning tarqalishini esa etnogeografiya o‘rganadi. Aholi geografiyasini demografiya bilan aloqasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hududlar aholisini o‘rganishda aholi geografiyasi demografik jarayonlarga murojaat etadi. Bunday tadqiqotlarni geodemografik tadqiqotlar deb, ataladi⁷.

⁷ A. Soliyev, L. Qarshiboyeva. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. T – 1999. 49 – bet.

Antropologiya (grek tilidan – antropos – “inson”) inson organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o‘zgarishlarning kelib chiqish qonuniyatlari, shuningdek, irqning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o‘rganib, u demografiya bilan birgalikda aholi mehnat faoliyati turmush sharoiti va madaniyati hududiy xususiyatlarni o‘rganadi.

1.3. Demografiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi

Aholining takror barpo bo‘lishi va unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar insonlar hayotidagi kelib chiqishi ijtimoiy xarakterga ega turli munosabatlar ta‘sirida kechganligi tufayli demografiya qator ijtimoiy fanlar bilan bog‘liq. Jumladan, bu tarix, iqtisodiy fanlar, sotsiologiya, ijtimoiy psixologik, huquqshunoslik, aholi geografiyasi. Biroq demografiya bu munosabatlarning o‘zini emas, balki ularning aholi takror barpo bo‘lishiga bo‘lgan ta‘sirini o‘rganadi. Aholi takror barpo bo‘lishi qonuniyatlarini tushuntirib berish uchun demografiya shu fanlarning uslublari, ma‘lumotlaridan foydalanadi. Aholi takror barpo bo‘lishining qonuniyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari tobora chuqur o‘rganib borilish demografiyaning boshqa fanlar bilan aloqasini kuchaytirib beradi. Shu asosda ba‘zan demografiya aholi haqidagi yanada kengroq bilimlar tizimining elementi sifatida ko‘riladi.

Ayniqsa, *demografiyaning tarix fani* bilan aloqadorligi katta, chunonchi “tarix, bu alohida avlodlar almashinuvi va ularning har biri oldingi avlodlardan meros bo‘lib o‘tgan kapital, ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanadilar”. Aholi takror barpo etilishini tarixiy jarayon sifatida ko‘rilishi uning ijtimoiy kelib chiqishini to‘laligicha yoritish imkonini beradi. Demografiya tarix fani bilan demografik tarixni o‘rganishda uyg‘unlashadi; mazkur tarix ba‘zan tarix fanining obyekt sifatida ko‘riladi, lekin ayni vaqda demografik tadqiqotlarning bir yo‘nalishi ham sanaladi. *Etnografiya* demografiyaga turli xalqlar madaniyatining ta‘sirini yoritishda yordam beradi; demografiya *arxeologiya* bilan *paleodemografiya* orqali bilvosita bog‘liq

bo'lib, bu fan uzoq o'tmishdagi demografik jarayonlarni yoritib beradi.

Demografiyaning *iqtisodiy fanlar* bilan bog'liqligi demografik jarayonlarga ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, ayniqsa, bandlik masalalari ta'sirining xarakteri orqali ifodalanadi. Aholi takror barpo bo'lishining jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichidagi ijtimoiy institut, ijtimoiy aloqalar va me'yorlar bilan bog'liqligi demografiyaning *sotsiologiya*, jumladan, nikoh va oila sotsiologiyasi bilan o'zaro aloqadorligini ifodalaydi.

Ijtimoiy psixologiya demografiya bilan demografik mayl, uning demografik jarayonlarni ijtimoiy boshqarish mexanizmidagi rolini o'rganish borasida to'qnashadi. Insonlarining xulq - atvori (masalan, nikohga kirish yoki uni bekor qilish) huquqiy me'yorlar bilan ham tartibga solinganligi, demografik siyosat esa qonunchilik bilan mustahkamlangani bois demografiyada *huquqshunoslik* bilan uyg'unla shuvchi tarmoqlar mavjud.

Inson populatsiyasida individlarning biologik xususiyatlari mavjudligi demografiyani ijtimoiy va tabiiy fanlar chegarasida bo'lgan ba'zi fanlar bilan bog'laydi. *Ijtimoiy gigiyenada* inson salomatligi, mehnat sharoitlari, turmush tarzi kabilarning kasallanish va o'lim sabablariga o'tkazgan ta'sirlari borasida olib boriladigan tadqiqotlar demografiyaga o'lim omillarini aniqlashda yordam beradi. Tug'ilish dinamikasi va omillarini o'rganishda ayollar sog'ligining tahlili, jinsiy hayot, saqlanish uslublari, farzandlar tug'ilishining miqdori kabilar muhim ahamiyatga ega. Tibbiy - biologik tadqiqot natijalari, aholining turli guruhlarida va ularning xarakterini tushuntirish uchun xizmat qiladi; ayni vaqtda demografik jarayonlarining tibbiy - biologik omillari ijtimoiy gigiyena tadqiqotlarining muhim yo'nalishi sanaladi. O'limni o'rganish borasida demografiya *gerontologiya* bilan aloqada bo'ladi. Mazkur fan inson qarishining qonuniyatlarini o'rganadi, lekin demografik qarish jarayoni, ya'ni qariyalar salmog'ining oshishi, buning sabablari to'raligicha demografik tadqiqotlar doirasiga kiradi. Demografiyaning *antropologiya, populyasion genetika, inson ekologiyasi, odam*

fiziologiyasi, tibbiy genetika va ruhshunoslik kabi odamni biologik evolyutsiyasi ning mahsuli va obykti sifatida ko'rib o'rganuvchi tabiiy fanlar bilan bog'liqligi demografik jarayonlarning ijtimoiy tavsifini ochib beradi.

O'z navbatida boshqa fanlar, birinchi o'rinda, ijtimoiy fanlar, demografik omil va qonuniyatlardan o'z voq'elik muhitlarini chuqurroq tushunish maqsadida foydalanadi, ayni vaqtda, bir xil demografik-statistika ma'lumotlari turli fanlar uchun dastlabki baza sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, tug'ilish va o'lim qonuniyatlari shuningdek, ularning aholining yosh – jinsiy tarkibiga bo'lgan ta'siri **iqtisodiyotda** mehnat resurslarini taqsimlashda, **etnografiyada** – etnik birliklar dinamikasini o'rganishda, **sotsiologiyada** – ayolning jamiyat va oiladagi ijtimoiy rolini tahlil qilishda o'ta zarur hisoblanadi.

Shunday qilib, aholi takror barpo bo'lishining xususiyatlari demografik tadqiqotlarning asosiy obykti sanalsa - da, boshqa fanlarda ma'lum jarayonlarning omillari sifatida namoyon bo'ladi. Bunday chegaralanish demografiya va boshqa fanlar predmetlari o'rtasida chegaralar belgilash imkonini beradi. Binobarin, mazkur chegaralanish aniq tadqiqot faoliyatida shu kabi cheklanish bo'lishini anglatmaydi. Vaholangki, yirik ijtimoiy - demografik muammolarni ishlab chiqarish zarurati, masalan, aholi o'sishi va atrof - muhit holatining o'zaro bog'likligi, etnik va demografik jarayonlarning aloqasi, sog'liqni saqlashning samaradorligi kabi va boshqa turli fanlar to'qna shuvida olib boriladigan fanlararo tadqiqotlarning salmog'ini oshiradi. Mazkur chegaradagi bilimlarni nisbatan mustaqil ilmiy fanlarga ajratish tendensiyasi ham sezilarli darajada (jumladan, bu holat demografiyaning iqtisodiyot, tarix, etnografiya, ijtimoiy gigiyena bilan chegaralarida yuz bermoqda); shuningdek, turli bilim sohalari mutaxassislarining kompleks ilmiy ishlar olib borish maqsadida birlashishlari ham tez - tez uchraydigan holat bo'lmoqda. Shuningdek, demografiya falsafa, ekologiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanlari bilan ham bog'liqdir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demografiya atamasi qaysi tildan olingan va qanday ma'noni anglatadi?
2. Aholi qaysi fanlarning tadqiqot obyekti hisoblanadi?
3. Demografiya fan sifatida qachon shakllangan?
4. Demografiya fanining asosiy vazifalarini sanab bering.
5. Demografiya fanining predmetini aytib bering.
6. Fanni o'rganishda qanday usullardan foydalaniladi?
7. Demografiya fanining asoschisi kim?
8. Demografiya fanining rivojlanish tarixini aytib bering.
9. O'zbekistonda demografiya fanining rivojlanishiga qaysi olimlar katta hissa qo'shgan?
10. Demografiya fani tarkibiy jihatdan qanday tarmoqlarga ajraladi?
11. Demografiya qaysi fanlar bilan o'zaro aloqador hisoblanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2016. – 56 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга кураамиз. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2017. – 484 б.
3. Абдалова З.Т., Тожиева З.Н. Иқтисодий география. Ўқув қўлланма / Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, ТМИ. – Т.: «ИҚТИСОД МОЛИЯ», 2013. – 212 бет.
4. Абдурахманов Қ.Х., ва бошқалар. Демография. Дарслик. – Т.: «Фан ва технология», 2014. – 368 б.

5. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Аҳоли географияси ва демография асослари. - Т.: “Тафаккур», 2011. – 160 бет.

6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

7. Борисов В.А. Демография. Учебник для вузов.- М., 1999. 2001

GLOSSARIY

Aholi yosh tarkibi – bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Amaliy demografiya – ushbu atama ilmiy adabiyotlarda XX asrning 60-yillarida paydo bo'lgan, fanning asosiy maqsadi aholining ko'payish qonuniyatlarini o'rganishning amaliy asoslarini ko'rsatib berishdan iborat. Fan demografik jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni amalga oshiradi va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, uy-joylarni qurish va rejalashtirish, kommunal xo'jaligi, xizmatlar, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot sohalarida qo'llaniladi.

Aholi soni – muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanadi. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi.

Demografik jarayonlar – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Demografiya – mustaqil ijtimoiy fan sifatida tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish, oilalarning takror barpo bo'lishi, umuman shu jarayonlarning negizi sifatida aholining takror barpo bo'lishi kabilarning qonuniyatlari va ijtimoiy negizlarini tahlil etadi. “Demografiya” ikki yunon so'zining qo'shilishidan iborat bo'lib, “demos” – xalq, aholi, “grafiya” – tasvirlash, sharxlash degan ma'nolarni bildiradi.

Migratsiya – bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud

uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

Aholi o'limi – organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to'xtashi. O'lim qayd etilganidan so'ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralari ham insonni hayotga qaytara olmaydi. O'lim jadvali joriy yilda ayrim yoshlardagi o'lim ko'rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko'rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

Aholi – ma'lum hududda yashaydigan kishilar guruhi tushuniladi. Shu boisdan ilmiy - geografik tadqiqotlarda aholi va aholi manzilgohlarini atrof - muhit va xo'jalik bilan bevosita bog'liq holda tadqiq etishadi.

Demografik portlash – tug'ilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori suratda oshishidir.

Aholi jinsiy tarkibi – aholining erkak va ayollarga taqsimlanishi.

Harbiy demografiya — bu harbiy xizmat va harbiy iqtisodiyotdagi demografik omilning son va sifat xususiyatlarini o'rganuvchi fan. Shuningdek, harbiy demografiyada urushda ishtirok etgan davlatlarning mobillashgan imkoniyatlari, ya'ni zahiralarning mobillashuvini, ularning qurolli kuchlar, iqtisodiyot, urushdagi aholining yo'qotilishi, askarlarning migratsiyasiga, askarlarning aholining takror barpo bo'lishiga ta'sirini va ularning sog'ligini o'rganadi.

Geodemografiya — aholi takror barpo bo'lishining hududiy xususiyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Demografik statistika — demografiyaning eng qadimgi tarmog'i bo'lib, uning predmeti aholini takror barpo bo'lishining statistik qonuniyatlari hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chiqish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lchash, aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish va hayta ishlash kiradi.

Deometriya — (yunoncha «demos» aholi va «metreo» oichayman) matematik usullarni demografiyaga qo'llash orqali demografik jarayonlarni o'lchash.

Iqtisodiy demografiya — aholi va iqtisodiy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini, aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy oqibatlarini, demografik rivojlanishga iqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganadi.

Matematik demografiya — o'z rivojining ma'lum bir pog'onasiga ko'tarilgan bo'lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o'zaro alohadorligini o'rganish uchun matematik usullarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muqim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin.

Paleodemografiya — paleodemografiya (yunoncha «palaios» — hadimgi) qadimgi kishilik jamiyatida sodir bo'lgan demografik jarayonlarni o'rganadigan demografiyaning bo'limi hisoblanadi. Bu fanning ma'lumotlar bazasini hadimgi yozma hujjatlar, epitafiyalar, palcoantropologik (odam suyaklari qazilmalarining tahlil ma'lumotlari), arxeologik (insoniyatni moddiy va madaniy yodgorliklari qazilmalarining tadqiqot natijalari), etnoarxeologik (etnografik kuzatuvlar) ma'lumotlar tashkil etadi.

Sotsiologik demografiya — odamlarning subyektiv va ixtiyoriy demografik harakatlariga ijtimoiy-psixologik va sotsiologik omillarning ta'sirini o'rganadi.

Tibbiy demografiya — aholi salomatligi va uning asosiy ko'rsatkichlari hamda omillarini, kasalliklarning vujudga kelishi, ularning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini o'rganadi.

Etnik demografiya — tarixiy demografiyaga tutash fan hisoblanib, aholi ko'payishining etnik xususiyatlarini, omillarini o'rganadi. Ma'lumki, xalqlar hayoti, turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlarini, an'analari, oilaviy munosabatlarining tuzilmasi tug'ilish darajasiga (oiladagi bolalar soni), salomatlik holatiga va o'rtacha umr ko'rish davomiyligiga, nikoh xususiyatlari va nikohning mustahkamligiga sezilarli darajada ta'sir o'tkazadi.

II BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA AHOLI HAQIDA MA'LUMOTLARNI O'RGANISH MANBALARI

- 2.1. Demografik ma'lumotlar manbalariga umumiy tavsif
- 2.2. Aholi ro'yxati: dasturlari, tamoyillari va vazifalari
- 2.3. Demografik jarayonlarni joriy hisobga olish, maxsus va tanlama tadqiqotlar

2.1. Demografik ma'lumotlar manbalariga umumiy tavsif

Aholi soni, tarkibi va demografik jarayonlarni o'rganishda maxsus ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar demografik ma'lumotlar, deb yuritiladi. Demografik ma'lumotlar quyidagicha: *hududlar bo'yicha* (dunyo, qit'a, alohida davlat, shahar, qishloq, tuman) *turli tarixiy davrlar* uchun (tarixiy, retrospektiv, joriy va prognoz), *miqyosi va milliyliigi* bo'yicha (milliy, xalqaro), *olinish manbasining xususiyatiga* ko'ra (rasmiiy statistik, rasmiiy nashrlar, to'plamlar, ilmiy tadqiqotlar, kitoblar), aholining turli *ijtimoiy guruhlari* (millatlar, ishchilar, xizmatchilar, tadbirkorlar va h.k.) bo'yicha ajratiladi.

Demografik ma'lumotlar birlamchi va ikkilamchi xarakterga egadir. Ularga aholi va demografik jarayonlarga oid nashr etilgan raqamli ma'lumotlar, ilmiy manbalar, maxsus tadqiqot natijalari kiradi. **Birlamchi ma'lumotlar** – demografik jarayonlar haqida to'plangan dastlabki statistik, jadvallar va maxsus ko'rsatkichlar. **Ikkilamchi ma'lumotlar** birlamchi ma'lumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob – kitoblar.

Demografik jarayonlarni o'rganishda juda ko'p ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlarning asosiy manbalari quyidagilar:

- har 10 yilda, ba'zi davlatlarda har 5 yilda muntazam o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati;

- demografik jarayonlarning joriy statistik hisobi (tugʻilish, oʻlim, nikoh va ajralish);
- joriy registrlar va kartotekalar;
- maxsus va tanlama tadqiqotlar.

Koʻpgina davlatlarda demografik maʼlumotlar statistika tashkilotlari tomonidan toʻplanib boriladi. Toʻplangan demografik maʼlumotlar oʻrganilayotgan hududning demografik holatini oʻrganish, demografik jarayonlar bilan bogʻliq ijtimoiy - iqtisodiy muammolarni hal etishda, demografik prognozlarini ishlab chiqishda ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Demografik maʼlumotlarni aholini roʻyxatga oʻtkazish yoki maxsus sotsiologik tadqiqotlar orqali toʻplash uchun har bir davlat, ilmiy tashkilotlar oldindan ilmiy asoslangan dastur tuzadi va ana shu dastur asosida ish olib boradi.



Birlamchi maʼlumotlar — demografik jarayonlar haqida toʻplangan dastlabki statistik maʼlumotlar, jadvallar va maxsus koʻrsatkichlar.

Ikkinchi maʼlumotlar — bu birlamchi maʼlumotlar asosida olib borilgan ilmiy tahlil va hisob-kitoblardir.

2.1 - rasm. Demografik maʼlumotlar manbalari.

Dunyo miqyosida demografik maʼlumotlar toʻplashda esa BMT tashkiloti boshchiligida dastur tuziladi va barcha oʻrganilayotgan dunyo hududlaridan ana shu bitta dastur asosida maʼlumotlar toʻplanadi. Aholi soni, tarkibi, oila va demografik jarayonlar haqida batafsil maʼlumotlar asosan **aholi roʻyxati oʻtkazish** orqali toʻplanadi.

2.2. Aholi ro'yxati: dasturlari, tamoyillari va vazifalari

Aholini ro'yxatdan o'tkazish, bu ma'lum davrda mamlakat yoki alohida bir hududda yashovchi har bir fuqaro haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni to'plash jarayoni, shuningdek aholini ro'yxatdan o'tkazishga mazkur ma'lumotlar haqidagi hisobot, ularni tizimiga tushirish va nashr etish ham kiradi.

BMTning Statistika komissiyasining ta'rificha, **aholini ro'yxatdan o'tkazish** – bu ma'lum vaqt mobaynida mamlakat yoki uning aniq belgilangan bir hududidagi barcha shaxslarga tegishli demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, baholash, tahlil qilish, chop etish yoki boshqa yo'l bilan targ'ibot qilish ishlaridan iborat yaxlit jarayon.

Aholini ro'yxatdan o'tkazishning **maqsadi** – aholi soni va joylashuvi haqida ma'lumotga ega bo'lish, bu esa mamlakatning iqtisodiy hayotini tashkil qilish, qonunchilik muassasalariga kadrlar belgilash va aholini ilmiy o'rganish uchun zarur.

Aholi soni va tarkibi haqidagi ma'lumotlar, bu har vaqtda yo aholini ro'yxatdan o'tkazish, yo ro'yxat natijalaridan qilingan hisobotlardir. Shunday qilib, aholini ro'yxatdan o'tkazish bu aholi to'g'risidagi ma'lumotlarning asosiy manbai hisoblanadi. Aholini ro'yxatdan o'tkazish materiallarini o'rganish borasida aholining turli uyg'unlashgan belgilar bo'yicha guruhlanishlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Masalan, aholini yosh va yashash manbai bo'yicha, yoki turmush qurgan ayollarni – millati va farzandlari bo'yicha. Bunday ma'lumotlarni boshqa manbalardan olib bo'lmaydi, faqat aholini ro'yxatdan o'tkazish bu imkoniyatni beradi, ayniqsa, barcha aholi uchun berishi qimmatlidir.

Aholi ro'yxati o'tkazishda barcha hududiy birliklar miqyosida aholi quyidagi kategoriyalarga ajratilgan holda qayd etiladi. Aholini hisobga olish, uning kategoriyalari, ya'ni belgilari orqali amalga oshiriladi (kategoriya grekcha so'z bo'lib, aytib berish, belgi, degan ma'noni bildiradi). Aholi belgilari ularning mazkur hududda, yoki bir ma'muriy birlikda doimiy yoki vaqtincha yashashlarida ifodalanadi.

Ushbu belgilar asosida aholi uch kategoriyaga ajratiladi: doimiy yashovchi aholi, mavjud aholi va yuridik aholi⁸. Aholini o'rganishda qayd etilgan uch kategoriya barcha hududlar va davlatlar uchun umumiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Doimiy aholi – ma'lum hududning doimiy yashovchi asosiy aholisi hisoblanadi. Doimiy aholi bo'lish uchun har bir davlatning o'z qonunlari bor. Doimiy aholi ma'lum aholi maskani yoki hududda ushbu vaqtda yashovchi asosiy aholini ifodalovchi insonlar yig'indisidir. Doimiy aholini ifodalovchi mezon vaqtlar davomida o'zgargan va davlatlar bo'yicha farq qiladi. Masalan, Rossiyada doimiy aholi bo'lishi uchun 1 yil Rossiyada yashash lozim. Rossiyaga 1-yil va undan ko'p muddatga o'qishga, xizmatga kelgan aholi ham doimiy aholi hisoblanadi. Shuningdek, Rossiyada 1 yildan ko'p yashagan, shu joyda ro'yxatda turgan va boshqa biror joyi bo'lmagan shaxslar doimiy aholi hisoblanadi. O'zbekistonda 1979-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida 16 yanvar kech soat 12 dan 17-yanvar kech soat 12 ga qadar aholi ro'yxati o'tkazilgan ushbu hududda doimiy yashovchi aholi hamda 6 oy muddatga ushbu hududdan vaqtincha ketganlar, hamda 6 oy muddatga mazkur hududga kelganlar doimiy aholi tarkibiga kiritilgan.

Mavjud aholi – aholi ro'yxati o'tkazilgan davrda, ushbu aholi maskanida ro'yxatdan o'tgan yoki o'tmaganligidan qat'iy nazar shu yerda yashovchi aholi guruhidir. Mavjud aholida uning faqat jismoniy mavjudligi emas, balki shu hududda (ishda, mehmonda, o'qishda) bo'lgan aholi ham kiritiladi. Mavjud aholining doimiy aholi guruhiga kirmaydigan qismi bo'lib, bu guruh *vaqtincha yashovchilar* (vaqtincha kelganlar - VK) deyiladi.


Mavjud aholining yana bir qismi doimiy aholiga kiruvchilar, lekin vaqtincha shu maskanda bo'lmaganlar (**vaqtincha bo'lmaganlar** – VB)dir. Doimiy aholi (DA) = Mavjud aholi (MA) – Vaqtincha kelganlar (VK) + Vaqtincha bo'lmaganlar (VB) yoki

$$DA = MA - VK + VB$$

⁸ Демографический энциклопедический словарь.- М., 1985. стр.182.

Yuridik (ro'yxatdan o'tgan) aholi – aholi ro'yxati o'tkazilgan davrda qayerda bo'lishidan qat'iy nazar qadimdan ushbu hududda ro'yxatga olingan, politsiya xodimlari, harbiylar va dengizchilar, elchilar va ularning oilalaridir. Ular alohida yuridik guruh sifatida qadimda ro'yxatga olinar edi. Yuridik aholini ifodalovchi asosiy mezon uning shu hududda yashashini ifodalovchi, ma'muriy qayd etilgan xujjatdir. Yuridik aholini alohida guruh sifatida Rossiyada, shu jumladan, O'zbekistonda ham 1897-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatida qayd etilgan edi. (Ushbu davrda O'zbekiston hududi Chor Rossiyasining koloniyalari tarkibida edi). Keyingi aholini ro'yxatdan o'tkazishlarda yuridik aholi alohida qayd etilmagan. Ma'lum aholi maskanida yashovchi va shu maskan bilan bog'liq aholi guruhining umumiy xususiyatlari aholining yuqoridagi kabi mezonlarga ajratilishi va nomlanishiga olib keladi.

Ma'lumki, ro'yxatga olish jarayonida to'rtta aholi toifasi ajratiladi:



2.2 - rasm. Aholining toifalari

Aholini ro'yxatga olish jarayonida doimiy va mavjud aholi kategoriyalari hisobga olinadi. Shuningdek, aholi ro'yxati davomida har bir aholi yashash joylaridagi doimiy aholi, vaqtincha ketganlar va vaqtincha kelganlar hisobga olinadi. Doimiy yashovchi va vaqtincha ketganlar yig'indisi doimiy aholini, doimiy yashovchi aholi va vaqtincha kelganlar yig'indisi mavjud aholini ifodalaydi.

Umuman doimiy va mavjud aholi sonida katta farq bo‘lmaydi. Ushbu farq aholi maskanlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatlarini bilan bog‘liq. Aksariyat hollarda yirik shaharlarda, aholining dam olish hududlarida mavjud aholi soni doimiy aholi sonidan ko‘proq bo‘ladi. Ba’zi qishloq hududlarida esa aksincha-doimiy aholi soni mavjud aholi sonidan yuqoridir. Masalan, O‘zbekiston shaharlarida istiqomat etayotgan doimiy aholi soni 2003-yili 9340,7 ming kishini, mavjud aholi soni esa 9410,7 ming kishini tashkil etgan.

Aholi ro‘yxati bu biron bir mamlakat yoki uning alohida qismlari mavjud aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma’lumotlarni muayyan vaqt oralig‘ida to‘plash, qayta ishlash va nashr qilishdan iborat. Aholi ro‘yxatining asosiy maqsadi aholi haqidagi ma’lumotlar uning miqdori, tarkibi va hududiy tarkibi haqidagi ma’lumotlarni olishdan iborat. Tipik aholi ro‘yxati o‘z ichiga aholi miqdori va aholi takror barpo bo‘lishining ijtimoiy va geografik jihatlari hamda yosh va jinsiy tarkibi va ma’lumotlilik tarkibini (ma’lumotlilik darajasi va ta’lim sohasida erishgan natijalari va ularning maktabga borish holati) oladi. Ko‘pgina aholi ro‘yxatlari iqtisodiy faol va nafaol aholi haqida, shuningdek ishchilarning sanoatda bandligi va kasbiy tarkibi va iqtisodiy holati (ish haqi va daromadlari) ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Boshqa tipik aholi ro‘yxatlari o‘z ichiga aholi haqidagi mamlakat yoki uning biron mintaqasidagi tug‘ilish, fuqarolik, til, migratsiyaga oid tajribalari, dini va etnik kelib chiqishiga oid ma’lumotlarni oladi.

Amalda aholini ro‘yxatga olishda insonlarni sanashning ikki usulidan foydalaniladi: de-jure de-facto De-yure metodi bilan aholi ro‘yxati o‘tkazishda butun mamlakat hududini qamrab oladi va aholining mamlakatdagi odatiy yoki me‘yorida yashash joyi bo‘yicha olib boriladi. De-fakto metodi butun mamlakatning barcha hududlarini qamrab oladi, ammo aholi takror barpo bo‘lishida qatnashayotganlar aholi ro‘yxati o‘tkazilayotgan vaqtda qaysi hududda bo‘lsa o‘sha hudud bo‘yicha ro‘yxatga olinadi. Misol uchun biron kishi Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida o‘z oilasi bilan yashashsa, aholi ro‘yxati o‘tkazayotgan kuni Toshkent yoki

Samarqand shahriga sayoxatga chiqqan bo'lsa, agar aholi ro'yxati de-yure metodi bilan o'tkazilsa u Surxondaryo viloyatida qayd qilinadi, de-fakto metodi bilan aholi ro'yxati o'tkazilsa Toshkent yoki Samarqand shahrida qayd qilinadi. Kanada va AQSHda, shuningdek, ko'pchilik Yevropa mamlakatlari Avstriya, Belgiya, Xorvatiya, Chexiya, Daniya, Germaniya, Niderlandiya, Norvegiya, Shvetsiya i Shveysariya (United Nations, 1998) kabi davlatlarda aholi ro'yxati de-yure metodi bilan o'tkaziladi. Kolumbiyada esa de-fakto (1963 va 1973-yillar) va de-yure metodlaridan foydalanilgan (1985 yildan). Milliy aholi ro'yxati o'tkazilgan dunyoning 230 dan ortiq davlatida de-fakto metodi de yure metodiga nisbatan kengroq tarqalgan. (Wilmoth, 2004: 65).

Aholini ro'yxatdan o'tkazish mamlakatda yashovchi barcha aholining qamrab oladi, chet elda vaqtincha yashayotgan fuqarolarini ham, shuningdek mamlakat hududidagi vaqtinch yashovchi aholini ham. Odatda aholini ro'yxatdan o'tkazish har bir xonadonga tashrif buyurish va har bir xonadon yashovchisi haqida so'rov yo'li bilan ma'lumot to'plash usulida olib boriladi. Ba'zan bunday ma'lumotlarni, yoki ularning bir qismini pochta orqali jo'natilgan savolnomaga pochta orqali kelgan javoblardan oladilar (AQSH, 1970, 1980) yoki aholi ma'lum vaqtda kelishi lozim bo'lgan qayd etish punktlaridan oladilar (XXR, 1953, 1982).

Aholini ro'yxatdan o'tkazishda quyidagi tamoyillarga asoslaniladi.

- ❖ umumiylik (ma'lum hududni barcha aholini qamrab olinadi).
- ❖ bir vaqtlilik, aholi haqida ma'lumotlar bir vaqtga (ro'yxat o'tkazilgan bir sanaga) tegishli bo'ladi.
- ❖ har bir shaxs bo'yicha ma'lumot yig'ish.
- ❖ o'z – o'zini namoyon etish yoki o'zi haqida ma'lumot berish.
- ❖ konfidensiallik – hisobchi shaxs haqidagi ma'lumotlar sir saqlanadi.
- ❖ bir xil dasturda o'tishi.
- ❖ aholi ro'yhati o'tkazishni markazlashuv (sentralizatsiya) ulubida qat'iy boshqarish.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish chog'ida o'zini - o'zi namoyon qilishi tamoili qabul qilingan, ya'ni ma'lumotlar har doimgidek hujjatlardan emas, balki odamlarning so'zlaridan olinadi. Bu tadbir shu maqsadda qilinadiki, ba'zi jihatlar (xususan, etnik munosiblik) umuman faqat so'ralayotganning o'zi bilan, uning o'zligini bilishiga asoslanib aniqlanishi mumkin; hamma ma'lumotlar ham hujjatlarda tasdiqlanmaydi (ularda, shuningdek, xatolar ham bo'lishi mumkin); yana aholini ro'yxatdan o'tkazishga ishonchni oshirish va bu bilan to'plangan axborotning aniqligini oshirish uchun. Aholini ro'yxatdan o'tkazish XX asr 20 – yillarining oxirlaridan, qisqa muddatda, bir necha kun yoki hafta davomida, odamlar kamroq harakatda bo'ladigan vaqtda (ko'pincha qishda) olib boriladi. Barcha axborotlarni aholining bir kunlik ro'yxatdan tamoyiliga ko'ra, aholini ro'yxatdan o'tkazishning kritik davrida yig'iladi (odatda birinchi ro'yxatdan o'tkazish kuniga o'tar kechasi); ungacha o'lgan va undan keyin tug'ilganlar hisobga olinmaydi.

O'tmishda so'rov vaqtiga qadar aholini ro'yxatdan o'tkazishning kritik davri belgilanmasdi va axborotlar so'rov vaqtiga ko'ra yig'ilardi. XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab aholini ro'yxatdan o'tkazish kritik davrgacha o'tkaziladi, keyingi bir necha kunda o'lganlar va tug'ilganlar yozilardi (Rossiya, 1897). XX asr 60 – yillarining o'rtalaridan so'rov kritik davrdan keyin, qisqa muddatlarda (bir – ikki hafta), odamlar shu vaqtda qayerda bo'lganlarini aniq eshlashlari uchun olib boriladigan bo'ldi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish kuniga o'tar kechasi aholining asosiy qismi o'z uylarida bo'ladi, shu vaqtda ishda xizmat qilayotganlar uydan tashqarida ro'yxatga olinadi. Safardagilar poezd, avtostansiya, aeroport, kemalar va h.k. larda ro'yxatga olinadi. Hech qayerda yashaydiganlarni o'sha vaqda uchragan yerlarida ro'yxatga oladilar (uysizlar, ko'chmanchilar).

Aholini ro'yxatdan o'tkazishning javoblari ro'yxatdan o'tkazish varaqalar yoki yagona namunaviy blanklarda qayd etiladi (odatda bir oilaga bitta blank qog'oz). Bu ishni og'zaki savol - javob mobaynida ro'yxatga oluvchilar (schyotchiki, perepischiki, registratorы) (ba'zi

Yevropa, Osiyo, Lotin Amerikasi mamlakatlarida) yoki aholining *o'zi o'zini – o'zi ro'yxatdan o'tkazish* chog'ida (ko'pchilik Yevropa davlatlari, Avstraliya, AQSh, Yaponiyada) bajaradilar. Yozuvlar so'z bilan yozish yoki grafik uslublarda olib boriladi. Ko'p hollarda so'rovnomada ehtimoliy javoblarning asosiy variatlari ko'rsatilib, ulardan mos kelganini belgilash qoladi xolos.

Hech kim qolib ketmasligi yoki ikki marotaba ro'yxatga olinmasligi choralari ko'riladi. Ro'yxatdan o'tkazishdan tonish yoki ro'yxatdan o'tkazuvchi tomonidan yig'ilgan shaxsiy ma'lumotlarni oshkora qilish ko'p davlatlarda jazolanadi. Ma'lumot to'plash, bu aholini ro'yxatdan o'tkazishning faqatgina dastlabki pog'onasi. Shaxsiy varaqalardagi axborotni bir xil javob qilgan kishilar guruhlariga ajratish lozim. Bu ish ro'yxatdan o'tkazish materiallarini ishlab chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Varaqalar to'liqligi tekshirilganidan keyin yozuvlar kodlanadi (shifrlanadi), ya'ni har bir javob variantiga kod – raqamli belgi qo'yiladi. Masalan, ish joyining nomiga qarab so'rovchi ishlaydigan soha aniqlanadi va kod qo'yiladi. Kodli yozuvlar magnitafon lentasiga yoziladi, yoki perfokartaga tushirilib hisoblash mashinalariga kiritiladi. Ko'p mamlakatlarda kompyuterlarda hisoblanib maxsus jadvallar tuziladi (kasbi, hududi, yoshi, jinsi va boshqa jihatlar bo'yicha). Mazkur jihatlarning uyg'unlashuvi va ularga mos keluvchi guruhlar tizimi hududiy bo'linishda *aholini ro'yxatdan o'tkazish materiallarini ishlab chiqish dasturi* deb ataladi. Jadvallar soni aholi soniga ko'ra o'ndan yuztalargacha, butun davlat uchun esa mingtalab bo'lishi mumkin. Jami aholini ro'yxatdan o'tkazish natijasida bir necha million ko'rsatkich to'planadi.

Eng muhim ko'rsatkichlar tezroq, qolganlari bosqichma - bosqich olinadi. Aholini ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarining to'liq ishlab chiqilishibir necha yillar davomida bajariladi. Jadvallar ko'p jildli nashrlarda chop qilinadi. Bularning hammasi aholini ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarining qimmatligini ko'rsatadi. Shu bois ko'p mamlakatlarda aholini ro'yxatdan o'tkazish har 5 yoki 10 yilda olib boriladi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish odatda umumiy davlat statistika muassasi yoki uning funksiyalarini bajaruvchi tashkilot zimmasida bo'ladi. Aholini ro'yxatdan o'tkazishdan oldin bu haqda qonun yoki boshqa hukumat qarori chiqariladi. Ba'zi davlatlarda aholini ro'yxatdan o'tkazish maxsus qonun bilan konstitutsiyada qayd etilgan, Chunki uning ma'lumotlari ayniqsa, hududlardagi saylovchilar soni haqida axborot keltiradi. Aholini ro'yxatdan o'tkazish rivojlanayotgan mamlakatlarda ham muhim, sababi ularda aholini qayd qilish ishlari yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Aholini ro'yxatdan o'tkazish ishlaridagi qiyinchiliklar aholining katta qismi savodsizligi va malakali ishchilar etishmasligi bilan bog'liq.

Aholi ro'yxati o'tkazish dasturida demografik jihatlar (jinsi, tug'ilgan sanasi, yoshi, holati, farzandlar soni), iqtisodiy jihatlar (mashg'uloti, iqtisodiy faoliyatining tarmog'i yoki turi, daromad manbai, ba'zan maoshi, daromadi, ishsizlar uchun qator savollar), ma'lumotlilik tavsifi (savodi, maktabga borishi, o'qigan yillari, ma'lumot darajasi, kasbi, ba'zan malakasi darajasi), etnik jihatlar (u yoki bu xalq yoki etnik guruhga mansubligi, ona tili, muomila tili, boshqa tillarning bilishi, ba'zan diniy e'tiqodi), boshqa jihatlar (fuqaraligi, jinsi va ruhiy kamchiliklari, urushda ishtirok etgani). Ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligi haqidagi ma'lumotlar ham muhim. Yuqorida sanab o'tilgan barcha ma'lumotlar ma'lum hududlardagi aholining ijtimoiy - demografik tarkibini aniqlash imkonini beradi. Ro'yxatga olish davrida o'z yashash joyida va boshqa yerda yashab turuvchi haqidagi ma'lumotlar odamlarni aholi kategoriyalari (toifalari) bo'yicha tavsiflashga yordam beradi. Bular esa ichki migratsiya haqida tassavur hosil qildiradi. Ko'chib kelgan vaqti va qayerdan kelganligi to'g'risidagi ma'lumotlar – tashqi migratsiya haqida, ish yoki o'qish joy to'g'risidagi – mayatnik migratsiyasi haqida axborot beradi.

Aholining ba'zi guruhlari uchun dastur kengroq bo'ladi, masalan, nikohlanganlarni nikohning soni, qayd etilgan sanasi; nikohda bo'lib chiqqanlarni – nikoh turmush o'rtog'ining o'limi yoki ajralish bilan

tugaganmi; ayollarni – tug‘ilgan, shuningdek, hayot farzandlari haqida so‘raydilar.

Aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning dasturi mamlakatdagi iqtisodiy va demografik vaziyat bilan bog‘liq. Intensiv migratsiyali davlatlarda aholini ro‘yxatdan o‘tkazishda migratsiya batafsilroq o‘rganiladi, aralash etnik tarkibli davlatlarda (mas. Hindiston) – etnik mansublik, nechta til bilishi aniqlanadi; aholi o‘shining past yoki baland ko‘rsatkichli davlatlarda tug‘ilish o‘rganiladi.

Rivojlanayotgan davlatlarda demografik hodisalarni qayd qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan va u yerda aholini ro‘yxatdan o‘tkazish dasturlariga tirik va o‘lik tug‘ilgan chaqaloqlar, ba‘zan yil davomida (aholini ro‘yxatdan o‘tkazishdan oldingi yillar) mazkur oilada umumiy nechta o‘lim yuz bergani haqidagi savollar ham kiritiladi. Aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning ushbu ma‘lumotlari joriy qayd qilishnikiga nisbatan aniqroq sanaladi. Dastur belgilari ro‘yxatdan o‘tkazish varaqasining aniq savollar majmuini belgilab beradi.

Aholini ro‘yxatdan o‘tkazish oilalar, uy xo‘jaliklari bo‘yicha o‘tkaziladi, bunda oilalar tarkibi hisobga olinadi, shu bois so‘ralayotgan odam oila boshlig‘ining yoki ro‘yxat varaqasi birinchi bo‘lib yozilganning kimi bo‘lishi aniqlanadi. Mazkur savol bir oilani boshqasidan ajratib olish, shuningdek, oila (uy xo‘jaligi) haqida umuman ma‘lumot yig‘ish imkonini beradi. Ko‘p mamlakatlarda aholini ro‘yxatdan o‘tkazishda oila istiqomat qilayotgan xonadon, uy haqida ma‘lumotlar to‘playdilar (uyning alohidaligi, xonalar soni, qozon o‘choq mavjudligi), yoki aholi ro‘yxatdan o‘tkazish turar joyni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan birga olib boriladi. Ba‘zan ro‘yxatdan o‘tkazish boshqa turdagi ro‘yxatdan o‘tkazishlar bilan birga olib boriladi (Italiyada – sanoat va savdoni ro‘yxatdan o‘tkazish bilan birga); aholi registrlarini olib boruvchi davlatlarda aholi ro‘yxatdan o‘tkazish shular asosida olib boriladi (mas. Daniya).

Aholini ro‘yxatdan o‘tkazishning dastlabki, oddiy shakllari Osiyo va Afrikaning qadimgi davlatlarida mil. av. 3 – ming yilliklarda bo‘lgani ma‘lum. Misr (mil. av. 2800 -2250-y.), Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy (mil. av. 2238-y.), Yaponiyada harbiy va soliq

yig'ish maqsadlarida aholi ro'yxatga olingan. Aholi ro'yxati maxsus usullarda, belgilar orqali o'tkazilgan. Masalan, harbiylar soni nayza o'q uchlaridan aniqlangan (skiflarda), yoki to'p qilib yig'ilgan toshlar sonidan (Amir Temurda), Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rimda ham aholi qayd etilardi. Masalan, mil. av. IV arsdan Attikada barcha erkaklar qayd qilingan. Qadimgi Rimda mil. av. 435 – yildan boshlab muntazam ravishda har 5 yilda o'tkazilgan. 510-yilda imperator Servi Tull rahbarligida har bir Rim fuqarosi qasamyod qilib saylanayotgan senzlarga o'z ismi, yoshi, oila a'zolarining ismlari va yoshi, o'z mulki to'g'risida ma'lumot yetkazishi lozim edi. Mazkur axborotlar aholini harbiy bo'linmalar bo'yicha bo'lish, Xalq majlisida ovoz berganlarni aniqlash, soliq belgilab, yig'ish uchun zarur edi. Erta feodalizm davrida aholini qayd qilinishi kadastr va maxsus ro'yxat daftarlari bilan bog'liq. Ularda birinchi o'rinda odamlar yoki oilalar emas, balki soliqlar (uy, qozon-o'choq uchun) turgan. Misol uchun 1086-yili Vilgelm Istilochi tomonidan Angliyaning 34 ta grafligida yerlar ro'yxatga olingan. Bu ro'yxat "Dahshatli sud kitobi" nomi bilan mashhurdir. O'rta asrlarda aholini qayd qilish bir qancha shaharlarda olib borilgan (1449-yilda Nyurenbergda, 1473-yilda Strasburgda), keyinchalik boshqa davlatlarda ham qilingan (1567-yil Kanton, Syurix) XVIII asr o'rtalaridan aholini o'rganishga qiziqish oshdi. Uni qator Yevropa davlatlarida (Avstriya, Bavariya, Gollandiya, Daniya, Ispaniya); Osiyo (Yaponiya); Amerikada qayd qila boshladilar. Biroq bu tadbirlar bir necha yilga cho'zilib, jami aholini qamrab olmasdi (ayniqsa yuqori qatlam kishilari olinmagan) yoki faqat erkak aholi o'rganilgan. Hozirgi tushunchadagi aholini ro'yxatdan o'tkazishning boshlanishini odatda 1790 (AQSH), 1800 (Shvetsiya, Finlandiya), 1801 (Angliya, Daniya, Norvegiya, Fransi)-yillardagi aholini ro'yxatdan o'tkazishlar bilan bog'laydilar. Uning paydo bo'lishi va rivojlanishi taraqqiy etayotgan kapitalizmning aholi soni, joylashuvi, tarkibi, va boshqa jihatlari to'g'risidagi axborotlarga ehtiyoj sezganidan kelib chiqqan.

Tarixda aholini ro'yxatdan o'tkazishning uch bosqichini ajratish mumkin. Birinchi bosqichida (XVIII asr oxiri- XIX asr birinchi

yarmi) a.r.oʻning asoslari shakllanib, dasturlari belgilangan. Bu davrda har 10 yilda AQSH va Angliyada, har 5 yilda – Fransiya va Shvetsiyada, har 3-4 yilda Avstriyada muntazam aholini roʻyxatdan oʻtkazishlar olib boriladigan boʻlgan. Mazkur aholini roʻyxatdan oʻtkazishlar maʼlum jihatlarni koʻrib chiqib, butun aholini qamrab olmagan; toʻplangan maʼlumotlarni ishlab chiqish koʻp yillarga choʻzilgan. Shunday qilib, AQSH dagi birinchi aholini roʻyxatdan oʻtkazishda (1970-y.) faqat uy xoʻjaligi boshligʻining ismi, ozod shaxslar, oq tanli ayollar, qullar soni qayd qilingan. Fransiyaning aholini roʻyxatdan oʻtkazishda (1801) uy xoʻjaligi boshligʻining jinsi va mashgʻuloti yozilgan (dehqonchilik, savdo yoki sanoat).

Ikkinchi bosqichda (XIX asr ikkinchi yarmi- XX asr birinchi yarmi) aholini roʻyxatdan oʻtkazish barcha Yevropa va Amerika, baʼzi Osiyo va Afrika davlatlarida oʻtkazila boshlandi. Nazariy tomondan rivojlanib takomillashib bordi. Aholini roʻyxatdan oʻtkazishdagi boʻlimlar koʻpayib, dasturlari kengaydi.

Aholini roʻyxatdan oʻtkazishning keyingi takomillashuvi uchun 1846-yili Belgiyada A.Kettle rahbarligida olib borilgan aholini roʻyxatdan oʻtkazish boʻlib, bu uning hozirgi talqiniga oʻtishdagi toʻntarish sanaladi; ilk bor bir kunlik aholini roʻyxatdan oʻtkazish olib borildi va aniq mavjud aholi qayd qilindi. Yangi maxsus roʻyxatga olish varaqalari vujudga kela boshladi, oʻz-oʻzini hisobga oldirish paydo boʻldi. Varaqalarda jihatlar konkretlashdi, ayniqsa, yosh va mashgʻulotiga tegishli. Shunday qilib, dastlabki 2-3 yillik guruhlar oʻrniga 5-10 yillik guruhlar, XIX asr 40-50-yillarida koʻp davlatlarda yashab oʻtgan umr yillari, soʻng tugʻilgan kun, oy, yil, hisobga olinadigan boʻldi (Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya va b.) Aholini roʻyxatdan oʻtkazishdagi yangi belgilar umumdemografik tavsiflar, savodlilik, maʼlumot darajasi, migratsiya, oʻlim va tugʻilish, aholining ijtimoiy-iqtisodiy tafsif bilan bogʻliq edi. Doimiy aholini qayd etishga, ikkala kategoriyasini bir vaqtda oʻrganib, materiallarni ishlab chiqish yoʻlga qoʻyildi. Aholini roʻyxatdan oʻtkazish tadbirlarining ilmiy asoslanishiga koʻp jihatdan *halqaro*

statistika kongresslari turtki bo'lgan. Aholini ro'yxatdan o'tkazishning asosiy qoidalari kongressning Bryussel sessiyasida (1853) ishlab chiqilgan. Ular keyingi sessiyalarda takomillashtirilib borilgan Peterburg sessiyasida (1872) birlashtirilgan. Kongresslarda aholini ro'yxatdan o'tkazishning asosiy tamoyllari, davriyligi belgilangan, qayd qilinadigan aholi toifalari ko'rib chiqilib, dasturlar qabul qilingan, beriladigan jihatlar tizimi muhokama etilgan. Keyinchalik aholini ro'yxatdan o'tkazishning rejalashtirish va boshqa ishlar bilan Xalqaro Statistika Instituti shug'ullangan.

Mukammal aholi ro'yxatga o'tkazishni o'z milliy qonun-qoidalari bordir. Unda aholi ro'yxati aholining jamiyatni, ya'ni yangi tug'ilgan chaqaloqdan boshlab to eng keksa guruhgacha qamrab olish kerak. Birinchi ana shunday mukammal aholi ro'yxati 1970 yili AQSHda, 1801-yili Fransiya, Daniya, Norvegiyada, Buyuk Britaniyada o'tkazildi. Lekin bu aholi ro'yxatlari ham juda oddiy bo'lgan va uzoq muddat cho'zilgan. Masalan, birinchi Amerika aholi ro'yxati 18 oy cho'zilgan.

XIX asrga kelib aholini o'rganish juda kengaydi. Statistika fan sifatida taraqqiy etdi. Qator Yevropa mamlakatlarida statistik tashkilotlar tuzildi. Aholini ro'yxatga olish ilmiy dasturlari asosida olib borildi. 1870-1879-yillarda dunyoda 48 ta aholi ro'yxati o'tkazilgan. 1880-yillarda esa 74 ta aholi ro'yxati o'tkazildi. XIX asr oxirida dunyo aholisining 21 foizini ro'yxatga olishgan bo'lsa, XX asr boshida – 54 foiz aholi ro'yxatga olindi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyin aholini va uning demografik guruhlarini ro'yxatga olish yana ham rivojlanib ketdi. 1945-1954-yillarda 151 davlatda, 1965-1974-yillarda 179 davlatda aholi ro'yxati o'tkaziladi. Faqat ba'zi bir rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy-siyosiy sabablarga ko'ra aholi ro'yxati o'tkazilmagan. Bugungi kunda barcha davlatlarda demografik guruhlar tarqqiyotini o'rganish uchun statistik ma'lumotlar mavjuddir. Aholi ro'yxatlari ilmiy asoslangan dasturlar orqali juda keng mavzularni qamrab olgan holda har 5-10-yillarda o'tkazilib turiladi. Hozirgi davrda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari shu qadar keng doirada to'planganini ular

asosida aholini va ijtimoiy - demografik guruhlarni faqat miqdorini emas, balki ularning sifatiiy ko'rsatkichlarini, ya'ni ma'lumoti, oilaviy holati, ijtimoiy ahvoli, va boshqa xususiyatlarini ham o'rganish mumkin. Olingan ma'lumotlar kompyuterlar yordamida har bir yo'nalishlar bo'yicha alohida o'rganilib statistik yilnomalar tayyorlab boriladi.

Uchinchi – zamonaviy bosqich. XX asr o'rtalaridan boshlangan, bunga aholi to'g'risidagi ma'lumotlarga talab oshib borishi sabab bo'lgan. Osiyo va Afrikaning qator mamlakatlarida aholi ro'yxati o'tkazishlar olib borilib, ular yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. 70-yillarda ilk bor aholi ro'yxati o'tkazish Omon Arab Respublikasi, Qatar, BAA, Saudiya Arabistoni, Afg'onistonda o'tkazilgan. Aholi ro'yxati o'tkazish dasturlarini o'rganish va ro'yxatdan o'tkazish usullarini, tamoyil va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish borasida, shuningdek, Butunjahon aholi ro'yxati o'tkazish uchun tavsiyalar ishlab chiqishda BMT ning hissasi katta.

1982-yilning 1-yanvariga qadar dunyoda 2 mingtadan ortiq aholi ro'yxati o'tkazish olib borilgan. Terma aholi ro'yxati o'tkazishlar orqali katta hajmdagi axborotlarni olish imkonini berdi. Aholi ro'yxati o'tkazishdan avval aholi toifalari aniqlanadi. Ba'zi mamlakatlarda faqat doimiy aholi (AQSH, Yaponiya, Germaniya, Hindiston, Finlandiya), boshqalarida – faqat mavjud aholi (Buyuk Britaniya, Bruney, Tanzaniya, Turkiya), uchinchilarida – bir vaqtning o'zida ham doimiy, ham mavjud aholi qayd qilinadi (Bolgariya, Vengriya, Italiya). Aholi ro'yxati o'tkazishdagi dasturlarda o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ko'p davlatlarda savodlilik, e'tiqod, jinsiy kamchiliklarni so'rashga ehtiyoj yo'q bo'lgan, biroq aholining ma'lumoti, kasbi, malakasi, iqtisodiy jihatlari, tug'ilish, migratsiyasi haqidagi axborotga talab o'sib bormoqda. Aholi ro'yxati o'tkazish dasturlarida retrospektiv tavsiflarga, aholining hududiy va ishlab chiqaruvchi jihatlariga qiziqish ortmoqda. Masalan, Vengriyadagi 1980-yilgi aholi ro'yxati o'tkazishda faoliyat tarixi o'rganilgan (ilk bor ishga tushgan yil, davrlardagi mehnat faoliyati, tug'ilganida otasining mehnat turi va h.k.).

2.3. Demografik jarayonlarni joriy hisobga olish, maxsus va tanlama tadqiqotlar

Birinchi bobda ta'kidlaganimizdek, o'zlariga ma'lumotlar bazasini yaratish va qayta ishlaydigan boshqa ijtimoiy fanlardagi hamkasblarimizga nisbatan demograflarga ko'proq omad kelgan. Umuman olganda bizga kerakli barcha asosiy ma'lumotlar to'plangan, lekin hamma vaqt emas. Haqiqatda ba'zi demograflar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni to'plab borishadi, bular asosan antropologik perspektivani o'rganayotganlar va etnografik tadqiqotlarda ishtirok etayotganlar (Grinxelg, 1990b, 1994; Riley, 1998; Rayli i Makkarti, 2003). Shunga qaramay, ko'pchiligimiz allaqachon to'plangan va turli tashkilotlar tomonidan qayta ishlangan ma'lumotlardan foydalanamiz. Ushbu bobda uch asosiy demografik jarayonlarning asosiy manbalari ko'rib chiqiladi.

Demografik ma'lumotlarning asosiy manbalari aholi ro'yxatlari, aholi registrlari va so'rovlar natijalaridir. Milliy aholi ro'yxatlari va aholi registrlari shunisi bilan farq qiladiki, aholi ro'yxatlari har o'n yillik (yoki ba'zi davlatlarda har besh yil) asosda o'tkaziladi, aholi registrlari esa nazariy jihatdan uzluksiz olib boriladi. Aslida aholi registri ma'lumotlari qoidaga ko'ra har oyda yoki har yilda to'planadi va nashr qilinadi, ammo ular doimo yig'ilib boriladi. Aholi ro'yxati esa muayyan bir vaqtda aholini suratga olishni, aytaylik, har o'n yilda, va bu suratdan aholi miqdori, uning xususiyatlarini va uning makon bo'ylab joylashuvi haqida ma'lumot olinadi. Boshqa tarafdin olganda, aholi registrlari aholishunoslik sohasida, asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va ba'zida aholi migratsiyasi haqidagi asosiy voqea-hodisalar uzluksiz yig'ib borish sifatida ko'rish mumkin. Inson tug'ilishi va o'lishi bilan u davlat tomonidan ro'yxatga olinadi, ushbu registratsiyalar uzluksiz olib boriladi.

Aholi ro'yxatlari va aholi registrlari butun aholini qamrab olish uchun foydalaniladi. Milliy aholi ro'yxatlarida aholi takror barpo

bo'lishidagi hodisalar hisobga olinishi kerak va aholida kechayotgan barcha demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim va b.) ro'yxatga olinishi shart. So'rovlarda esa aholining ma'lum bir qismigina ko'rinadi. Shunga qaramay ular aholi ro'yxatlariga kiritilgan ko'plab savollarga, kerakli ma'lumotlarni hamda aholi ro'yxatiga kiritilmagan demograflarga qiziq bo'lgan qo'shimcha elementlar bo'yicha ma'lumotlar yig'iladi⁹.

Demografik jarayonlarni to'xtovsiz muntazam, doimiy ro'yxatga olib borish aholini joriy hisobga olishning muhim turlaridan bo'lib, bu jarayon asosan fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari tomonidan bajariladi. Bu tashkilotlar tug'ilish, o'lim, nikoh va ajrimlar holatlarini doimiy ravishda qayd etib, ro'yxatga olib boradilar. O'zbekistonda fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlari tuman, viloyat, shaharlar doirasida tashkil etilgan va ularda tug'ilganlar, o'lganlar, qayd etilgan nikohlar, ajrimlar, ularning aniq sanalari va shaxslari haqida to'la ma'lumotlar doimiy qayd etilib boriladi. Umuman demografik jarayonlarni ro'yxatga olish dasturidagi savollarni ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga jarayonlar manzili, sodir bo'lgan va qayd etilgan vaqti, ikkinchi guruhga esa jarayon o'tgan shaxslar haqidagi savollarni kiritiladi. Masalan, tug'ilishni ro'yxatga olishda-chaqaloqni otasi, onasining millati, yoshi, ish joyi kabi ma'lumotlar ham qayd etiladi.

Nikoh jarayonini ro'yxatga olishda ham nikohga kiruvchilarning millati, yoshi va ijtimoiy holati haqida ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ushbu ma'lumotlar asosida juda ko'p ko'rsatkichli jadvallar tayyorlanadi. Ana shunday jadvallarga tug'ilganlarning onasining millati, yoshi, otasining millati, yoshi bo'yicha taqsimlanishi, vafot etganlarning hududlar, millatlar, yosh guruhlari bo'yicha, nikoh, ajrimlarni ham ana shu holatlar bo'yicha taqsimlanishini misol qilish mumkin.

Aholi migratsiyasi davlatlarning maxsus militsiya organlarida muntazam hisobga olib boriladi. Ularda migratsiyada ishtirok etgan shaxsni demografik va ijtimoiy holatini ifodalovchi ma'lumotlar bilan birga, kelish va ketish sabablari manzillari haqida ham

⁹ POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 15-p.

ma'lumotlar qayd etiladi. Aholini doimiy ro'yxatga olishda ishonchli va to'la ma'lumotlar bo'lishi muhimdir. Chunki ushbu ma'lumotlar asosida har bir hududning demografik holati, rivojlanishi o'rganiladi, qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimi ishlab chiqiladi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni o'z vaqtida qayd etilishi maxsus qonunlar orqali nazorat etiladi.

Aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish, har birini to'ldirib aholi haqida to'la ma'lumot olishga imkon beradi. Lekin ularni farq etuvchi tomonlari ham mavjuddir. Aholi ro'yxati ma'lum muddatlarda (aksariyat holatlar – 10 yilda) maxsus tashkilotlar, mutaxassislar tomonidan va bir vaqtda o'tkaziladi. Aholini doimiy hisobga olishda esa, qonun bo'yicha belgilangan muddatda aholining o'ziga tegishli tashkilotlarga kelib, demografik jarayonlarni qayd ettiradilar.

Aholi soni va tarkibidagi o'zgarishlarni muntazam aniqlab borishda aholi ro'yxati ma'lumotlari asosiy hisoblanadi. Ma'lum yilda aholi ro'yxati o'tkazilib aholi soni va tarkibi haqida aniq ma'lumot olinadi. Undan keyingi yildagi aholi soni va tarkibini aniqlash uchun shu yilda tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini ro'yxatda aniqlangan aholi soniga qo'shib, vafot etganlar va ko'chib ketganlar sonini esa ayirib tashlanadi. Ana shunday uslub bilan navbatdagi aholi ro'yxati o'tkazilgunga qadar har yil uchun aholi soni va tarkibi haqida ma'lumotlar aniqlanadi.

Tanlama sotsiologik-demografik tadqiqotlar ham aholini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotlarda demografik jarayonlar va ularga ta'sir etuvchi omillar, xususiyatlari haqida aholi ro'yxati va aholini doimiy hisobga olish orqali olib bo'lmaydigan ma'lumotlar to'planadi. Mazkur tadqiqotlarda demografik prognozlar uchun juda muhim bo'lgan demografik mayl (aholining demografik jarayonlarga bo'lgan munosabatlari) uning avlodlar bo'yicha xususiyatlarini ham o'rganish mumkin. Maxsus demografik tadqiqotlar sotsiologik uslubda, so'rovnomalarda, suhbatlar yordamida olib boriladi.

Shuningdek demografik jarayonlarni muntazam o'rganib borishda, maxsus tashkilotlar orqali to'planib boriladigan ma'lumotlari ham

asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Tug'ilish, o'lish, nikohga kirish, ajralish (nikohning bekor qilinishi), aholi migratsiyasi kabi demografik jarayonlarni sotsiologik uslub yordamida o'rganish sotsiologik-demografik tadqiqot deyiladi. Bunday tadqiqotlarda demografik jarayonlarning turli avlodlarda, ijtimoiy guruhlarda, millatlarda va hududlarda xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillari mukammal o'rganiladi. Buning uchun o'rganilayotgan demografik jarayonlar va ularning omillarini aniqlashga oid savollardan maxsus so'roq varaqasi (anketa) tuziladi. Ular aholi o'rtasida suhbat o'tkazish, bevosita savol-javob yoki aholining o'ziga tarqatish yo'li bilan to'ldiriladi. Sotsiologik uslub bilan o'tkazilgan bunday tadqiqotlar demografik jarayonlarni o'rganishda, ularning xususiyatlarini to'g'ri aks ettirishda juda qulay hisoblanadi. Demografik jarayonlarni bevosita savol-javob, suhbat usuli yordamida o'rganganda statistik ma'lumotlar ifodalay olmagan jihatlar ham yoritiladi. Demografik jarayonlarni sotsiologik tadqiqotlar yordamida o'rganish sotsiologo-demografik tadqiqotlar deyiladi. Bunday tadqiqotlar o'tkazish uslubi bilan asosan demografik jarayonlarni avlodlar bo'yicha xususiyatlarini, omillarini va muammolarini atroflicha o'rganish mumkin. Sotsiologo-demografik tadqiqotlar, ayniqsa, muntazam aholi ro'yxati o'tkazilmaydigan hududlar demografik holatini o'rganishda katta yordam beradi. Buning uchun demografik jarayonlarni o'rganishga oid mutaxassislar tomonidan maxsus so'rovnomalar tuzilib, o'rganilayotgan hudud aholisiga yoki ijtimoiy guruhlariga tarqatiladi. shuningdek, aholi o'rtasida mutaxassislar so'rovnomaga asosan suhbatlar olib boradilar va kerakli ma'lumotlarni to'playdilar.

Sotsiologik uslub, ayniqsa, O'zbekiston kabi qadimda demografik jarayonlari muntazam statistik ro'yxatga olib borilmagan hududlar uchun yana ham qimmatlidir. Chunki keksa avlodlar o'rtasida maxsus sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazib, qadimda demografik jarayonlar qanday bo'lganligi va ularga ta'sir etgan omillar haqida ma'lumotlar to'plab, birmuncha aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin. O'zbekistonda demografik jarayonlarni sotsiologik-demografik tadqiqotlar yordamida o'rganish 1928-1930-yillardan

boshlangan. 1960-1970-yillardan boshlab esa mukamallashib, rivojlanib bordi.¹⁰ Ushbu tadqiqotlar yordamida respublika shahar va qishloq tumanlarida tug' ilish, o' lim, nikoh va ajralish kabi jarayonlar va ularga aholining bo' lgan munosabatlarini avlodlar bo' yicha alohida o' rganilgan, omillari, xususiyatlari aniqlangan.

Demografik jarayonlarni o' rganishda sotsiologo-demografik tadqiqotlar o' tkazish ham muhim ahamiyatga egadir. Aholini hisobga olishda yana bir muhim manba aholining alohida guruhleri haqidagi ma' lumotlar bo' lib, ular turli tashkilotlar tomonidan to' planadi. Masalan, saylovchilar ro' yxati (O' zbekistonda 18 va undan yuqori yoshdagilar saylash huquqiga ega bo' lib, ularning yoshi, jinsi, ijtimoiy holati haqidagi ma' lumotlar har bir shahar, qishloq saylov okruglar tomonidan to' planadi) harbiy xizmatga loyiq aholi (erkaklarning ma' lum yoshdagilari harbiy ro' yxatga olinadi) reproduktiv yosh (15-49) dagi ayollar (maxsus tibbiy muassasalar ro' yxatida turadi) ro' yxatlari. Shuningdek, mahalla, qishloq fuqarolik kengashlarida oilalar va oila a' zolarining soni, xo' jaliklar haqida ham ma' lumotlar yig' ib boriladi.

Dunyodagi barcha davlatlar qatori O' zbekistonda ham demografik jarayonlarni o' rganish o' z tarixiga va xususiyatlariga egadir. O' zbekistonda demografik jarayonlarni o' rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan tashkil topgan Statistika qo' mitasi, hozirgi kundagi O' zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo' mitasi faoliyati orqali to' plangan fuqarolik holatini qayd etuvchi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga oid ma' lumotlar juda katta ahamiyatga egadir. Qo' mita respublika aholisining soni, tabiiy o' sishi, nikoh va ajralishi, migratsiyasi, salomatligi, ijtimoiy-iqtisodiy holatiga oid statistik yilnomalar tayyorlab, muntazam ravishda chop etib boradi. Ana shu yilnomalar O' zbekistonning demografik holatida ro' y berayotgan o' zgarishlarni aniqlashda, muammolarni belgilab, istiqbolni ishlab chiqishda ilmiy asos bo' lib xizmat iladi.

O' zbekistonda oila va demografik jarayonlarni o' rganishda o' lka hududida o' tkazilgan aholi ro' yxati ma' lumotlari ham katta ahamiyat

¹⁰ М.Р.Буриева. Ўзбекистонда оила демографияси. – Т., 1997., 133-139 бетлар.

kasb etadi. Ilmiy manbalarda ko'rsatilishicha, Respublikada dastlabki aholi ro'yxati 1897-yili o'tkazilgan bo'lib, bu aholi ro'yxati hozirgi O'zbekiston chegarasidagi barcha hududlarni qamrab ololmagan. Shunday bo'lsada, ushbu ro'yxat ma'lumotlari O'zbekistonda XIX asr oxirida istiqomat etgan oilalar, aholining soni, etnik tarkibi, tug'ilish, o'lim kabi demografik jarayonlar haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi. O'zbekistonda keyinchalik 1926, 1939, 1959, 1970, 1979, 1989-yillarda aholi ro'yxatli o'tkazildi. Bu aholi ro'yxatlarida o'lkaning demografik tarixini o'rganishda qimmatli ma'lumotlar mavjuddir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demografik ma'lumotlar va ularning ilmiy, amaliy ahamiyati qanday?.
2. Aholi haqidagi ma'lumotlar manbalari qanday turlarga bo'linadi?
3. Aholi ro'yxati maqsadi va mohiyati nimalardan iborat?
4. Aholi ro'yxati dasturi, o'tkazish usblari va tamoyillari.
5. Muntazam ravishda aholi ro'yxati o'tkazish qachondan boshlangan?
6. Qadimgi va hozirgi aholi ro'yxatlari va ularning farqlari.
7. O'zbekistonda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari.
8. Tanlama tadqiqotlar nima?
9. O'zbekistonda o'tkazilgan tanlama tadqiqotlarning maqsadi nimalardan iborat?
10. Mavjud va doimiy aholi tushunchalariga ta'rif bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b
3. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TMI. – T.: “Iqtisodiy moliya”, 2013. -212 bet.
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
5. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur” 2011. – 160 b.
6. Ата-Мирзаев О.Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т., 2009. – 223 с.
7. Борисов В. А. Демография. – М.:Издательский дом НОТАБЕНЕ, 1999, 2001. – 272 с.
8. Бўриева М.Р. Демография асослари. – Т., 2001.-66 бет.
9. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с.
10. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010 – 442 p.

GLOSSARIY

Aholi registrlari — bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xo‘jaligi haqida axborotga ega bo‘lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari to‘g‘risida ma’lumotlar jamlanadi.

Aholi ro‘yxati — aholi haqidagi muhim axborot manbalaridan biri bo‘lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma’lumotlarni

vig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati – bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

Vaqtinchalik yashovchilar — bu mazkur hududda doimiy yashab qolishni istamagan, lekin bu yerda ro'yxatga olish davrida bo'lgan aholi. Vaqtinchalik ketganlar — bu mazkur hududda doimiy yashaydigan, biroq ro'yxatga olish davrida u yerda bo'lmaganlar.

Doimiy aholi — ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezonini sifatida olti oyga teng davr olinadi.

Yillar to'lgandagi yosh — bu aniq yoshning to'liq sonlarga ega bo'lmagan qismidir, u oxirgi tug'ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo'yicha odatda «yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to'liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

Yosh akkumulyatsiyasi – ba'zi yosh guruhlaridagi aholi sonini o'zidan oldingi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi.

III BOB. AHOLI SONI DINAMIKASI

- 3.1. Aholi soni dinamikasining mutloq ko'rsatkichlari
- 3.2. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari
- 3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar.

3.1. Aholi soni dinamikasining mutloq ko'rsatkichlari

Aholi soni ma'lum bir hudud (yer shari, qit'alar, davlat, viloyat, tuman, hudud, aholi maskani) aholisi miqdorini ifodalaydi. Masalan, 2017-yilda yer shari aholisi soni 7,5 milliard, Afrika qit'asi aholisi 1250 million, O'zbekiston davlati aholisi esa 32,5 million kishini tashkil etgan¹¹. Aholi sonini hisoblaganda o'troq aholi uchun ma'muriy chegara, ko'chmanchi aholi uchun esa areallar asos qilib olinadi. Demografiyada aholi soni, eng umumiy asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir sanaga (1-yanvar, 1-iyul yoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991-yil 1-yanvarda 20708,2 mingni, 2000-yil 1-yanvarda – 24487,7 mingni, 2017-yil 1 yanvarda esa 32120,5 tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1 yanvardan 31-dekabrqa qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi.

O'rganilayotgan hudud yoki davlat aholisi sonining ma'lum davr (2 yil, 5, 10, 15 va undan ko'p yillar) dagi o'zgarishi aholi soni dinamikasida o'z aksini topadi. Aholi soni dinamikasi, uning jami, umumiy (mutloq) soni, o'sish koeffitsiyenti, aholi sonining o'sish sur'ati kabi ko'rsatkichlarda ifodalanadi. Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, yuqorida qayd etilgandek, uni doimiy (shu hududda

¹¹Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

doimiy ro'yxatga olingan) va real (tekshirilayotgan davrda shu hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

Demografik tadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni, hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniladi. Nazariy aholi soni o'zgarmas – stabil aholi sonidir. Stabil aholi soni lotincha stabils so'zidan olingan bo'lib, doimiy, o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Aholining asosiy kategoriyasi mavjud aholidir. Demografik koeffitsiyentlarni hisoblaganda mavjud aholi sonidan foydalaniladi. Shuningdek, mavjud aholi soni aholi ro'yxatlari – orasidagi davr uchun aholi mutloq sonini o'rganishda ham qo'llaniladi.

Aholining mutloq soni uning tabiiy va mexanik harakatlari asosida muntazam o'zgarib turadi. Aholi soni davrlar bo'yicha ko'payib borsa, aholi mutloq soni dinamikasidagi o'zgarishlar ijobiy, kamayib borsa salbiy xususiyatga ega bo'ladi. Masalan, O'zbekiston davlatida aholi soni dinamikasi 1926 - 2009-yillar davomida muntazam ko'payib kelgan. Demak, aholi soni dinamikasi ijobiy xususiyatga ega bo'lgan. Lekin ikkinchi jahon urushi (1941 – 1945 - yillarda) aholi soni bir muncha kamaygan va aholi soni dinamikasida salbiy holat kuzatilgan.

Aholining umumiy mutloq (mutloq) soni – ma'lum hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning ma'lum vaqtdagi miqdoriy ifodasidir. Aholishunoslik fanlari tadqiqotlarida aholining mutloq soni, asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir sanadagi aholi soni haqida ma'lumot beradi. Aholi mutloq sonidagi o'zgarishlar o'sish koeffitsiyenti orqali aniqlanadi. Aholining mutloq o'sish koeffitsiyentini aniqlashda esa quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\Delta t_0 = P_1 - P_0, \text{ bunda}$$

Δt_0 – absolyut (mutloq o'sish) o'sish.

P_0 – o'rganilayotgan davr boshidagi aholi soni.

P_1 – o'rganilayotgan davr oxiridagi aholi soni. Masalan, O'zbekiston aholisini 1991 - 2009 - yillardagi mutloq o'sishini yuqorida qayd etilgan formula yordamida aniqlaymiz.

$P_0 = 1991 - 20,7$ million

$P_1 = 2008 - 27,6$ million

$\Delta t_0 = 1991 - 2009 = 27,6 - 20,7 = 6,9$ million

Demak, 1991 – 2009-yillarda O‘zbekiston aholisining mutloq o‘shishi 6,9 million kishiga teng bo‘lgan yoki qayd etilgan davrda respublika aholisi 6,9 million kishiga ko‘paygan. Ma’lumki, davlat yoki hudud aholisi tug‘ilganlar va immigrantrlarning kelishi hisobiga ko‘payadi, o‘lim va emigrantlarning ketishi hisobiga esa kamayadi.

Demak, aholi mutloq sonining ko‘rsatkichi 4 tarkibiy qismdan iborat:

- 1) tug‘ilganlar soni;
- 2) o‘lganlar soni;
- 3) immigrantrlar soni;
- 4) emigrantlar soni.

Aholi sonidagi o‘zgarishlarni o‘rganishda “balans” tushunchasidan ham foydalaniladi. Tug‘ilganlar va o‘lganlar balansi – aholining tabiiy o‘shidir (ma’lum davrdagi tug‘ilganlar va o‘lganlar soni farqi).

Immigrantlar va emigrantlar balansi – aholining mexanik o‘shidir.

Agar tashqi migratsiya bo‘lmasa – yopiq aholi, tashqi migratsiyaning mavjudligida esa, aksincha, ochiq aholi deyiladi. Aholining tabiiy o‘shishi va migratsiya qoldig‘i ma’lum davrdagi aholi soni o‘zgarishi komponentlaridir. Aholi mutloq soni haqidagi eng aniq ma’lumotlar aholi ro‘yxati o‘tkazish orqali olinadi.

Aholi ro‘yxati esa ma’lum davrlarda (5, 10, 15 va h.k. yillar) o‘tkaziladi. Aholi ro‘yxati oralig‘idagi aholi sonini aniqlashda esa demografik balans usulidan foydalaniladi. Mazkur usul demografik balans tenglamasida o‘z ifodasini topgan:

$$P_1 = P_0 + (B - D) + (M_1 - M_0), \text{ bunda}$$

- P_0 – aholi soni (o‘rganilayotgan davr boshi);
 B – o‘rganilayotgan davrdagi tug‘ilganlar soni;
 D – o‘rganilayotgan davrdagi o‘lganlar soni;
 M_1 – kelganlar (immigrantlar) soni
 M_0 – ketganlar (emigrantlar) soni;

O'zbekiston aholisining 2001 – yil 1- yanvardagi mutloq sonini yuqorida keltirilgan tenglama yordamida aniqlaymiz. 2000 – yil 1 – yanvarda (R0) Respublikada mavjud aholi soni 24582.8 kishini tashkil etgan. 2000 – yil 1 – yanvardan 31 – dekabrgacha bo'lgan davrda 527580 ta chaqaloq (N) tug'ilgan, 135598 nafar kishi hayotdan ko'z yumgan (M). Ana shu davrda respublikaga kelganlar (M1) soni 145880 kishini, Respublikadan ketganlar (D) soni esa 212472 kishini tashkil etgan.

Demak, $P_{2001}=24582,8+(547580-135598)+(145880-212472)=24908,2;$

$P_{2001}=24908,212.$

Aholi dinamikasidagi o'zgarishlarni mutloq ko'rsatkichlarda aniqlashning o'ziga xos kamchiliklari mavjud. O'rganilayotgan davr qancha uzoq bo'lsa aholi sonidagi o'zgarishlarning aniqlik darajasi kamayadi. Shuningdek, o'rtadagi davrlarning xususiyatlari to'la ochilmay qoladi. Bu borada aholi sonidagi o'zgarishlarni nisbiy ko'rsatkichlar orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir. Bunda o'rganilayotgan davr bir nechta kichik-kichik davrlarga bo'lib, ulardagi aholi o'sishi nisbiy aniqlanadi. Shuningdek, aholi soni dinamikasini ilmiy tadbiq etishda aholining davriy va o'rtacha yillik o'sish koeffitsiyentlari ham xizmat qiladi.

3.2. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari

Aholi dinamikasidagi o'zgarishlarni mutloq ko'rsatkichlarda aniqlashni o'ziga xos kamchiliklari mavjud. O'rganilayotgan davr qancha uzoq bo'lsa aholi sonidagi o'zgarishlarni aniqlash darajasining sifati kamayadi. Shuningdek, o'rtadagi davrlarni xususiyatlari to'la ochilmay qoladi. Bu borada aholi sonidagi o'zgarishlarni nisbiy ko'rsatkichlar orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir.

Aholining davriy o'sishi koeffitsiyentlari: Aholining ma'lum bir davrda o'sishini aniqlashda eng oddiy usul o'rganilayotgan davrning

¹²Демографический ежегодник Узбекистана 2002. Ташкент – 2003, 27, 94 va 276 betlar ma'lumotlari asosida hisobladadi

boshidagi aholi soniga nisbatan, o'rganilayotgan davrning oxiridagi aholi sonini necha foiz oshganini aniqlashdir.

$$K_{o'sish} = \frac{P_1}{P_0} \times 100\%$$

Masalan: O'zbekiston aholisi 01. 01. 1989-yilda 19,905 ming kishini tashkil etgan. 01. 01. 2000-yilda esa – 24583 ming kishiga etdi. Ushbu holda 1989-2000 yillardagi aholining o'sish koeffitsiyenti 123,5 % ga tengdir.

$$K_{o'sish}^{1989-2000} = \frac{24583}{19905} \times 100\% = 123,5\%$$

Ikkinchi usuli o'rganilayotgan davrdagi aholi sonining mutloq o'sish sonini o'rganilayotgan davr boshidagi aholi soniga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{o'sish} = \frac{P_1 - P_0}{P_0} \times 100\% = \frac{24383 - 19905}{19905} = 23,5\%$$

Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koeffitsiyentlari: Turli davrlardagi aholi o'sishi sur'atini taqqoslash uchun aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koeffitsiyentlaridan foydalaniladi. Buning uchun o'rganilayotgan davrdagi aholini umumiy o'sishi aniqlanib logarifmlar yordamida tuzilgan maxsus o'sish va kamayish jadvali (Ayrapetov) asosida o'rtacha yillik o'sish sur'ati va o'sish koeffitsiyentlari topiladi. Masalan, 1989-2000-yillarda ya'ni 11 yilda aholining davriy o'sish koeffitsiyenti 123,5 foizni tashkil etgan. Aholining o'rtacha yillik o'sish va kamayishi jadvalidan 11 yil uchun 123,5 foiz o'sganligini ko'ramiz. 11 yilda O'zbekiston aholisining o'rtacha yillik o'sishi 0,4 foizni, o'sishi tashkil etgan ekan.

3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar

Dunyo aholisi soni dinamikasi va hududiy tarqalishi xususiyatlarini o'rganish demografiyaning muhim vazifalaridandir. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yilda dunyo aholisining soni 7,5 milliarddan oshib ketdi. Mutaxassislarning prognozi bo'yicha dunyo aholisining soni 2025 yilda 8 milliardga, 2050-yillarda esa 9,4

milliardga etar ekan. Yer kurrasida insonning paydo bo'lishi va ko'payib borishi haqida ilmiy manbalarda qator ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularda aholining ko'payib borish tabiiy-biologik, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liq bo'lganligi qayd etilgan.

Dastlabki inson ajdodlarining paydo bo'lishi haqida turlicha nazariyalar yaratilgan. Biologlar A.I. Oparin nazariyasiga asoslangan holda hayotning paydo bo'lishini suvga, okeanlarga bog'laydilar. Geologlardan esa akademik V.I. Vernadskiy qarashlariga asoslanib, yer yuzida hayot hamisha bo'lgan, yoki ular yer elementlari bilan birga sodir bo'lganligini e'tirof etadilar. Shuningdek, yer kurrasida hayot va insonning paydo bo'lishini ilohiy va kosmik kuchlarga bog'lovchi qarashlar ham keyingi davr manbalarida uchramoqda.

Ko'pchilik antropolog olimlar fikricha, sayyoramizda bundan 5-7 million yil avval insonning dastlabki ajdodlari (avstralopetiklar) Afrika va Osiyoning tropik va ekvatorial zonalarida yashaganlar. Keyinchalik 2-3 million yil ilgari avstralopetiklardan eng qadimgi insonlar – arxatroplar shakllangan va ular Sharqiy Afrikada istiqomat etganlar. Bundan 600-700 ming yil muqaddam insonning eng qadimgi ajdodi bo'lgan arxantroplar paleontroplarga, pitekantrop-larga va neandyertallarga aylanganlar va Janubi-Sharqiy hamda Janubi-G'arbiy Osiyoga tarqalganlar. Nihoyat, bundan taxminan 40-50 ming yil ilgari insonning ongli (Homo Sapines) ajdodi shakllangan. Ongli insonning paydo bo'lishi mezolit davriga to'g'ri keladi.

Aholi soni haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan oldingi davrda yer sharida bor yo'g'i bir necha yuz ming kishi, bir muncha aniqroq ma'lumotlar bo'yicha esa, eramizdan 7 ming yil oldin yer sharida 10 millionga yaqin aholi yashagan ekan va ular har 1000 yilda taxminan 10-20 % dan ko'payib borgan xolos. Aholini bunday sekin ko'payishi aholi o'rtasida o'lim hollarining yuqoriligi bilan izohlana-nadi. Ushbu davrda aholi o'rtasida o'limning umumiy koeffitsiyenti 50% va undan yuqori bo'lgan, boshqacha qilib aytganda, har 1000 aholidan 50 tasi hayotdan ko'z yumgan. Ayniqsa, bolalar o'limi yuqori bo'lgan. Aholi ochlikdan, kasalliklardan va qabilalararo bo'lib

turgan to'qnashuvlardan ko'proq halok bo'lgan. Aholining o'rtacha umr ko'rish 20 yildan oshmagan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyat tarixida har bir davrda aholining ko'payishi va rivojlanishi, o'sha davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lgan. Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida yer yuzi bo'yicha aholining ko'payishi juda sekin borgan. Aholi sonining ko'payib borishida va joylashuvida qabilalar joylashgan maskanlarning tabiiy sharoitlari, suv resurslari va iqlimi asosiy omil hisoblangan. Turli tabiiy ofatlardan ba'zi qabilalar qirilib ketgan, sovuq iqlimli, qishi uzoq davom etuvchi hududlarda aholi sovuqdan, ocharchilikdan ko'plab halok bo'lgan. Shu bois Yevrosiyoning Shimoliy qismida aholi juda siyrak joylashgan. Amerika va Avstraliyada ham paleolit davrining oxirlarida juda kam aholi istiqomat etgan. Tabiiy sharoiti inson yashashi uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni, O'rta dengiz atroflarida Shimoliy Afrika, Yevrosiyo materigining janublarida esa aholi zichroq joylashgan. Qadimda yer yuzida aholi soni juda sekin ko'paygan. Taxminan bundan 15 ming yil ilgari davrda tug'ilish yuqori – fiziologik darajada bo'lgan. Lekin inson yashash sharoitining og'irligi, turli kasalliklarning tarqalishi, qabilalararo urushlar tufayli aholining o'limi hollari ko'p bo'lgan. Shuningdek ularning umr ko'rish davrlari ham nisbatan qisqa bo'lib, 20 – 25 yoshni tashkil etgan xolos. Bir so'z bilan aytganda, yuqori tug'ilish, aholining yuqori tabiiy ko'payishini ta'minlay olmagan.

Insoniyat tarixida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi oziq-ovqatning ko'payishiga, aholi moddiy turmush sharoitining bir muncha yaxshilanishiga olib keldi. Xususiy mulkning paydo bo'lishi, sinfiy jamiyatga asos soldi. Ibtidoiy jamiyat bag'rida feodal ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Dunyoda sivilizatsiya markazlari paydo bo'ldi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil topa boshladi. Sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholi o'rtasida o'lim hollarining kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish muddatining bir muncha uzayishiga sabab bo'ldi. Natijada dunyo aholisining soni

ko'paya boshladi. Qadimgi Misrda fir'avnlr davrida 7 million, Vavilonida esa 4-5 million aholi yashaganligi ma'lum. Eramizning boshida dunyo aholisi 200-250 millionni tashkil etgan va ularning 50 millioni Rim imperiyasida istiqomat etgan. Aholining yana 40-50 millioni esa Xitoy va Hindiston hududlarida yashagan. Shimoli-G'arbiy Yevropada esa aholi juda kam – 1 million atrofida bo'lganligi qayd etiladi¹³.

O'rta asrlarda ham dunyo aholisining soni ko'payib bordi. Lekin aholining ko'payish sur'ati nisbatan sekin bo'lgan. Birinchi ming yillikning oxirida dunyo aholisining soni 250-300 millionni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi ming yillikning o'rtalarida bu ko'rsatkich 400-500 millionga etgan. Jumladan, Osiyoda – 250 million, Yevropada 65-80 million, Amerikada 30-50 million, sobiq Sovet Ittifoqi hududida esa 15-20 million aholi istiqomat etgan. Ushbu davrda ba'zi davlatlarda bosqinchilik, urushlar, xo'jaliklar izdan chiqishi natijasida aholi sonining kamayib ketganligi ham kuzatiladi.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyatda ishlab chiqarishning mukammalashib borishi, sodir bo'lgan mehnat taqsimotlari, ya'ni chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi alohida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin yaqin Sharq hududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilikka, dehqonchilik qilishga o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zahiralari yaratildi. Natijada aholining o'lim hollari nisbatan kamaydi, lekin turli epidemiyalar, xo'jaliklar orasida mavjud urushlar tufayli o'lim hamon yuqori edi.

Xo'jalik yuritishning yangi formasi sababli, qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga muntazam ko'chib yurishi bir muncha barham topdi. Qabilalar dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi natijasida o'troq hayotga o'ta boshladilar. Bu hol esa ayollar ahvolarining bir oz yaxshilanib, tug'ilishning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tug'ilishning ko'tarilishi esa dunyo aholisi sonining ko'payib borishiga olib keldi. Ushbu davrda erta nikohlar va ko'p bolalilik deyarli

¹³ Yuqorida qayd etilgan manbaa, 7 bet.

barcha aholiga xos bo'lgan. Lekin sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi bilan tug'ilishga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar ham shakllana boshladi. Masalan, quldorlik davrida qullar, askarlar aholining takror barpo bo'lishi jarayonida ishtirok etmasdilar. Shuningdek, ba'zi diniy qarashlar, masalan, buddizm, inson ruhini gunohlardan qutqarish maqsadida, nikohsizlik va farzandsizlik holatlarini qo'llab quvvatlardi.

Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlatlar paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat asta-sekin ibtidoiy tuzumdan quldorlik davriga (sinfiy jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojlana boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholining ibtidoiy tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi – tug'ilishning yuqoriligidir. Tug'ilishning yuqoriligi esa, o'z navbatida, ayollarning erta nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi, hamda ko'pbolalikni xalq, davlat va din tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bilan bog'liq edi. Lekin quldorlik tuzumi davrida aholi o'rtasida o'lim hollari ancha yuqori bo'lgan. Sababi, ko'pgina qishloq va shaharlarda aholining juda zich joylashuvi va gigiyena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli, yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Aholi o'rtasida madaniyatning rivojlanishi, qadimiy sivilizatsiya markazlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu madaniyat markazlari yer kurrasining sug'oriladigan hududlarida (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va boshqa hududlar) shakllandilar. Qadimgi Misrda fir'avnlr davrida 7 million aholi yashagan, deb taxmin etiladi. Dunyo hududlarida umumiy aholi soni eramizdan avvalgi 5 ming yillikda 30 million atrofida bo'lgan. Ana shu davrda yer yuzida aholi joylashuvining hozirgi areallari paydo bo'lgan.

Insonning yashash uchun kurashi borib-borib, jamiyat taraqqiyotida ijobiy (progressiv) o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa dehqonchilik bilan shug'ullanishga o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular mehnat qilib, moddiy mahsulotlar yaratadilar. Hunarmandchilik, savdo rivojlandi va shaharlar

paydo bo'la boshladi. Inson hayotidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning hayot sharoitini yaxshiladi.

3.1-jadval

Dunyo aholisining ko'payishi (mln.kishi hisobida)*

Sana, yillar	Dunyo aholisi	Sana, yillar	Dunyo aholisi
Milodning boshi	252	1920	1811
400	205	1930	2070
800	224	1940	2295
1000	305	1950	2527
1200	400	1960	3060
1500	440	1970	3727
1600	578	1980	4430
1700	680	1993	5510
1750	728	2000	6000
1800	954	2005	6464
1850	1248	2015	7336
1900	1630	2025**	8563
1910	1755	2050	9846

* Алисов Н.В., Хорев Б.С. Экологическая и социальная география мира. – М., 2000. – С.92; Демографический энциклопедический словарь. – М., 1985. – С.72; Народонаселение мира 1998. Фонд ООН в области Народонаселения. Population Reference Bureau. 2005, 2015, 2017. World Population Data Sheet.

** БМТ прогнози.

Sinfy jamiyatning shakllanishi, dunyo hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar, aholi takror barpo bo'lish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi hududlarda yoppasiga tarqalgan epidemiyalar va urushlar oqibatida aholi o'rta-sida o'lim nihoyatda yuqori bo'lgan, qishloqlar aholisiz qolgan.

Ushbu davr uchun aholi takror barpo bo'lishida ibtidoiy jamiyatdagidek, umumiy bir xususiyat – tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolgan edi. Quldorlik tuzumidagidek, ko'p bolalilik nafaqat, urf-odatlar, balki, davlat siyosati, din, ayniqsa, islom va induizm tomonidan ham qo'llab-quvvatlanar edi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixidagi dastlabki “Madaniy-texnik revolyutsiya” ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Bu hol esa o'z navbatida dunyo aholisi sonining ko'payishiga olib keldi. Eramizning boshlarida yer shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Yuqorida qayd etilganidek, aholining asosiy qismi Rim imperiyasi, Xitoy va Hindistonda joylashgan.

XII-XV asrlarda dunyo aholisining ma'lum qismi yuz bergan katta urushlar tufayli qirilib ketdi. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlari aholisi katta talafot ko'rdi. Urushlar nafaqat aholining bevosita qirilib ketishiga, balki, xo'jaliklarni, ishlab chiqarishni izdan chiqarish hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumushlariga olib kelgan. Agar dastlabki 500-yilda (1000-1500-yillar) yer yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750-yillarda yoki 250-yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining o'sishi yanada tezlashdi. Dunyo aholisining 1000-yildan 2005-yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. 1900-1950-yillarda yer shari aholisi har yili o'rtacha 0,90 % dan ko'paygan bo'lsa, 1950-2000-yillarda bu ko'rsatkich 1,75 % ga etdi. XXI asrning dastlabki yillarida esa dunyo aholisi sonining ko'payish sur'ati birmuncha sustlashdi. 2000 – 2009-yillarda dunyo aholisining o'rtacha yillik ko'rsatkichi 1,42 % tashkil etmoqda. Hozirgi davrda (2017 y) yer sharida 7,5 milliarddan ortiq kishi istiqomat qilishmoqda.

Aholi sonining ko'payib borishida dunyo hududlari bo'yicha keskin tafovutlar mavjuddir. Natijada XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlariga kelib, sayyoramizda hududiy xususiyatlarga ega

bo'lgan demografik muammolar vujudga keldi. Ba'zi davlatlarda moddiy boyliklar ishlab chiqarishga nisbatan aholi soni juda tez ko'payib borib, "aholi ko'payishi" muammosini yuzaga keltirgan bo'lsa, ba'zi hududlarda esa aholi tug'ilishining keskin qisqarishi, ya'ni demografik mezondan kamayib ketishi natijasida "*demografik qarish*" muammosi kuzatilmoqda. "*Aholi ko'payishi*" muammolari asosan rivojlanayotgan davlatlarda kuzatiladi. Dunyo aholisining ko'payishi ham deyarli ushbu davlatlar bilan bog'liqdir.

1967-yilda esa yer shari aholisi 65 millionga oshdi. Undan 56 millioni rivojlanayotgan davlatlar aholisining ko'payishi hisobiga ro'y berdi. Dunyo aholisining bunday tez ko'payishini olimlar "*demografik portlash*", deb izohladilar. Rivojlanayotgan davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida aholi sonining ana shunday tez sur'at bilan o'sishi, asosan, uchta demografik omilga bog'liq bo'lgan. Ulardan birinchisi – tug'ilishning yuqori darajada saqlanib qolayotganligi. 1950 - 1966-yillarda dunyodagi iqtisodiy rivojlangan Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlari va Yaponiyada har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 16 - 22 ni tashkil etgan bo'lsa, rivojlanayotgan davlatlarda esa, bu ko'rsatkich 35 – 45, hatto Afrika-dagi ba'zi davlatlarda esa 50 - 60 ni tashkil etdi¹⁴. Tug'ilishning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot darajasi bilan bog'liqdir.

Rivojlanayotgan davlatlarda bir tomondan, feodal va ibtidoiy jamiyat munosabatlarining saqlanib qolishi, ikkinchi tomondan, mustamlaka tuzumining uzoq hukm surishi ularning dunyodagi iqtisodiy jihatdan rivojlanmagan agrar regionlar sifatida saqlanib qolishiga sabab bo'ldi, natijada, sanoat rivojlanmadi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda istiqomat etib kelgan. Qishloq turmush tarzi esa, tug'ilishning yuqori bo'lishiga olib keluvchi asosiy omillardan hisoblanadi. Undan tashqari ayollarning ijtimoiy tengsizligi, aholining savodlilik darajasining nihoyatda pastligi, qator musulmon davlatlarida ko'pbolalikni qo'llab - quvvatlovchi an'analarning mav-

¹⁴Гузеватый Я. Н. Программы контроля над рождаемостью в развивающихся странах. - М.: «Мысль». 1969 с. 4.

judligi, homiladorlikni oldini oluvchi vositalarni va ular haqidagi tushunchalarning keng tarqalmaganligi kabi omillar ham rivojlanayotgan davlatlarda aholi tug‘ilishining yuqori bo‘lishiga olib kelgan.

Rivojlanayotgan davlatlar aholisining ko‘payishiga sabab bo‘luvchi ikkinchi demografik omil – aholi o‘limining keskin kamayishidir. Statistik ma’lumotlar ko‘rsatishicha, rivojlanayotgan davlatlarda 1950-yili har 1000 kishiga nisbatan o‘lganlar soni 15 - 22 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1965-yilda bu ko‘rsatkich 8 - 10 ni tashkil etdi. Ayniqsa, bolalar o‘limi keskin kamaydi. Masalan, 1950-yili har 1000 ta tug‘ilgan bolalardan Venesuellada – 81, Gvatemalada – 107, Ekvadorda – 110, Misrda – 153 ta nobud bo‘lgan bo‘lsa, 1965-yilda bu ko‘rsatkichlar, qayd etilgan tartibda 48; 93; 93 va 118 ni tashkil etdi. Boshqacha qilib aytganda, rivojlanayotgan davlatlarda 1950 – 1965 yillarda aholi o‘limi 1,15 marta kamaygan. Aholi o‘limining bunday qisqa davrda keskin kamayishi, yuqorida qayd etilganidek, asosan rivojlanayotgan davlatlarda BMT va boshqa xayriya tashkilotlari tomonidan aholiga tibbiy yordam berilishi natijasida, turli epidemiya va yuqumli kasalliklarning kamayib ketishi bilan bog‘liqdir.

Rivojlanayotgan davlatlarda aholi sonining ko‘payishiga olib kelgan uchinchi omil – aholining o‘rtacha umr ko‘rish davrining ko‘tarilishidir. Masalan: aholi soni bo‘yicha jahonda ikkinchi o‘rinda turuvchi Hindistonda 1950-yili o‘rtacha umr ko‘rish yoshi ayollarda – 31.7, erkaklarda – 32.4 ni tashkil etgan bo‘lsa, 1960-yili ayollarning umr ko‘rishi salkam 9 yilga uzaydi va 40.5 ni, 2009-yilda esa bu ko‘rsatkich 65 ni tashkil etdi. 1950 – 1960-yillarda erkaklarning umr ko‘rishi esa 9.5 yilga uzaydi va 41.9 ni, 2017-yilda esa 70 yoshni tashkil etdi. Bunday holni Afrikada, Lotin Amerikasi va Osiyodaga qator davlatlarda ham kuzatish mumkin.

Yuqorida qayd etilgan omillar ta’sirida rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni XX asr oxirlarida tez oshib ketdi. Aholining tez sur’at bilan ko‘payib borishi rivojlanayotgan davlatlarda bugungi kunda ham davom etmoqda. “Aholi ko‘payishi” muammosi ayniqsa, Hindiston va Xitoy kabi davlatlar uchun juda tashvishli kechmoqda. Hindistonda XX asrning 90-yillarida aholining ko‘payib borishida

rekord tezlik qayd qilingan. Ushbu davrda Hindiston aholisi 1 yilda 15,6 millionga ko'paygan. XXI asrga kelib bu davlatda aholi soni 1 milliarddan oshdi. Bxarat (hindlar o'z mamlakatlarini shunday ataydilar) garchi iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari bo'yicha dunyoda birinchi o'nlikka kirgan bo'lsa ham, biroq ularning barchasi uzluksiz o'sib borayotgan aholi tomonidan "yeb tashlanmoqda". "Biz uchun eng xavflisi Xitoy yoki Pokiston atom bombasi emas, balki tug'ilish bombasidir!", - degan edi o'z zamonida Radjif Gandi.

Hindiston rahbariyati "tug'ilishni nazorat etish" dasturlarini tuzishga majbur bo'ldilar. Bolalarning ko'payishi oilada baraka timsoli, deb hisoblaydigan odamlar yashovchi mamlakatda tug'ilishning kamaytirilishi oson kechmadi. Qadimda bu yerda xudolarga qilinayotgan iltijolarda odamlar yomg'ir va farzandlar, ayniqsa, o'g'il bolalarni, ularga yuborilishini so'rar edilar. Shu bois 1951-yilda mustaqil Hindistonning birinchi premyer ministri Javoxarla'l Neru "Oilani rejalashtirish dasturi"ni boshlaganda, bu hol hind va musulmon ruhoniylarining keskin qarshiligiga va aholining ko'p qismi tomonidan tushunmovchiliklarga olib keldi.

Shunday bo'lsa - da, Neruning qizi Indra Gandi, 1966-yilda premer ministrlk lavozimini egallab, mazkur dasturni faollashtirishga kirishdi. Biroq Indira Gandining besh yillik (1969 - 1974) rejalarda ko'zda tutilganidek tug'ilishni 35 % dan 32 % ga kamaytirishni iloji bo'lmadi. Lekin keyingi besh yillikda bolalar tug'ilishini 30 % gacha tushirish rejalashtirildi. Davlatda tug'ilishni cheklash, nazorat etish bo'yicha turli harakatlar amalga oshirildi. Lekin bu harakatlar qator qarshiliklarga ham uchradi. 70 - yillar o'rtalarida bo'lib o'tgan siyosiy noroziliklardan so'ng davlatning demografik dasturi "Oilaning farovonligi dasturi", deb ataladigan bo'ldi, uning asosiy maqsadi qilib esa "targ'ibot ishlari" qo'yildi. Ularni amalga oshirish uchun xorijiy mutaxassislar, shuningdek, jamoatchilik tashkilotlari ham taklif etildi.

1980-yili Hind davlati rahbariyati 2000-yilga mo'ljallangan yangi dasturni qabul qildi. Unga ko'ra: har bir oilada o'rtacha bolalar sonini 4,4 dan 2,3 ga kamaytirish, tug'ilishning umumiy

koeffitsiyentini esa 33 % dan 21 % gacha qisqartirish, hech bo‘lmaganda 60 % er-xotinlar doimiy ravishda homiladorlikni oldini oluvchi vositalardan foydalanishi, shuningdek, bolalar o‘limining kamaytirish ko‘zda tutilgan edi. Bugungi kunda Hind sog‘liqni saqlash va oila farovonligi departamenti ma‘lumotlariga ko‘ra, hind oilalarining yarmidan ko‘pi homiladorlikni oldini oluvchi vositalardan foydalanishadi. Tug‘ilish esa har bir oilaga 2,7 bolagacha kamaydi.

Xitoyda ham aholi ko‘payishi muammosi mavjud. Bu holni chuqur anglash uchun demografik omilni va siyosatni hisobga olish lozim. Rasmiy xabarlarga ko‘ra, 2017-yil mamlakat aholisi 1,3 milliarddan oshdi (bu sayyora aholisining 19,5 foizini tashkil etadi). 2025-yilda esa – bu ko‘rsatkich 1,5 milliardga yetadi. Biroq, ko‘p g‘arb analitik markazlari Xitoy aholisini hozirning o‘zidayoq 2,2 milliard, deb hisoblaydilar. Lekin, ko‘p hollarda 1,6 milliard raqami qo‘llanilmoqda. G‘arb mutaxassislari bu borada, Xitoy rahbariyati dunyoni xitoyliklarning haqiqiy soni bilan qo‘rqitib yubormasligi va aholining tabiiy o‘shishini kamaytirish borasidagi o‘z muvaffaqiyatsizliklarini yashirish uchun shunday ma‘lumotlar beradi, deb hisoblaydilar. Biroq rasmiy ma‘lumotlarni hisobga olgan holda ham, Xitoyda xitoyliklarning soni butun jahonda negroid irqiga oid aholidan: Yevropa, Rossiya va AQSh dagi yevropaliklardan ko‘proqdir.

Bu ko‘p sonli aholi atrof – muhitga juda ulkan ta‘sir qiladi: axir har bir inson yeyishi, kiyishi, ta‘lim olishi va mehnat qilishi zarur. Iqtisodiyot ko‘lamlari bo‘yicha Xitoy AQShdan so‘ng ikkinchi o‘rinda turishiga qaramay, yangi milliy daromad borasida (bir kishiga o‘rtacha daromad hisobila) hali ham rivojlanayotgan mamlakatlar qatorida qolayapti. Xitoy aholisining soni shunchalik ko‘pki, dunyo unga boshqa davlatlarga qaraganday munosabatda bo‘la olmaydi. Xitoyni ozuqa bilan ta‘minlash muammosi kundan - kunga keskinlashmoqda. Bugungi Xitoy aholisining ko‘payishi – bu Pekinning ichki iqtisodiy inqirozini susaytirish maqsadida investitsiyalar olish uchun boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarga qilayotgan bosimidir.

Bu hol, shuningdek, Pekinni G'arbning ehtimolidan holi bo'lmagan shubhali harakatlariga qarshiligidir ham: qancha xitoylik ko'p bo'lsa, shuncha Xitoyni "portlatmoqchi" bo'lganlar kamayadi.

1970-yillarning birinchi yarmida Mao Szedunning muallifligidagi "Odamlar to'liqlari" konsepsiyasi natijasida, aholi soni keskin ko'payishi tufayli XXR ning demografik rivojlanishini qayta ko'rib chiqish haqida jiddiy qarashlar boshlandi. 10 yilning ichida (1964 – 1974) Xitoyda aholi soni 700 mln. Dan 900 mln.gacha ko'paydi. Biroq rasmiy siyosat doirasida tug'ilishni nazorat qilish faqatgina 70-yillarning oxirida boshlandi. Ana shu davrda agar Xitoyda aholi soni o'sishini tartibga solmasa mamlakatning taqdiri xavf ostida qolishi mumkin bo'ldi (Xitoyda butun sayyoramiz aholisining 1/5 qismi yashaydi, xaydaladigan yerlarning esa atigi 7 foizi to'g'ri keladi). Biroq, bunday vaziyatda faqat buyruqbozlik va ta'qiqlashlar orqali ta'sir ko'rsatishning o'zi etmasdi. Shu bois ham Xitoyda tushuntirish va zo'rlash usullaridan baravar qo'llanilgan – mamlakatda kech nikohga kirish va kech farzand ko'rish, rag'batlantiriladi. Xitoyda 2016-yilning oxiriga qadar "bir oila – bir farzand" tamoyili tavsiya etilgan edi, 2016-yilning oktyabr oyidan har bir oilada 2 tadan farzand ko'rishga ruxsat berildi. Demografik siyosatning mazkur asosiy qoidalariga rioya etish xitoy fuqarolariga qonun bilan belgilab qo'yilgan – XXR konstitutsiyasining 49-moddasida har bir oila farzandlar tug'ilishini nazorat etishi zarur, deb ta'kidlangan.

Xitoyda tug'ilishni cheklash siyosatining natijalari yaqqol namoyon bo'ldi. Xitoy aholishunoslik jamiyatning vitse-prezidenti so'zlariga ko'ra, tug'ilishni rivojlantirish siyosati olib borilayotgan 20 yil davomida, Xitoy rahbariyati uch ko'rsatkichni: tug'ilish, o'lim, aholining o'sish darajasini pasaytirishga muvaffaq bo'ldi. Agar 1969 yili tug'ilishining koeffitsiyenti har 1000 kishiga 34,1 ni tashkil qilgan bo'lsa, o'ttiz yil o'tgach – 16,0 ga tushdi. O'sha davr (20 yil) mobaynida aholining tabiiy o'sishi deyarli 6 martaga kamaydi. (1000 kishiga 26,1 dan 4,5 kishiga). Shunday qilib, Xitoy qo'shimcha 300 mln. "og'iz" kulfatidan xalos bo'la olgan.

ta davlatida tug‘ilish darajasi oddiy aholi takror barpo bo‘lishi darajasining eng past ko‘rsatkichidan ham kichik bo‘ldi (bitta ayolga 2,1 tadan bola), keyingi avlod vakillari o‘zidan oldingi avlod vakillariga nisbatan kam sonli bo‘lmoqda. Bundan tashqari, Yevropaning 15 ta davlatida qisqargan aholi takror barpo bo‘lishi qayd etildi, yoki demografik inqirozga yuz tutdi¹⁸. Dunyo aholisining soni dinamikasi ko‘rsatishicha, sayyoramizda aholi muntazam ko‘payib kelgan. Aholining eng tez ko‘paygan davri XX asrga to‘g‘ri keladi. 1900 - 1950-yillarda yer shari aholisi har yili o‘rtacha 0,90% dan ko‘paygan bo‘lsa, 1950 – 2000-yillarda bu ko‘rsatkich 1,75% ga yetdi, 2000 – 2009-yillarda esa aholining o‘shish sur‘ati 1,42 foizni tashkil etgan. Sayyoramiz aholisining ko‘payib borishida uning alohida hududlari farq qiladi.

Afrika. Hozirgi davrda (2017-y.) Afrika aholisi 1250 mln. kishiga etgan. Ushbu ko‘rsatkich dunyo aholisining 14,7 foizini tashkil etadi. Qit‘a aholisi har yili 3 foizdan, ba‘zi davlatlarida esa 4.6 foizdan (Mozambik) ko‘payib kelgan. 2000 – 2010-yillarda aholini ko‘payish sur‘ati kamayib, yiliga o‘rtacha 2.65% ni tashkil etmoqda. Amerika qit‘asi aholisi 2017-yilda 1005 million kishini tashkil etgan. Aholining 37,1 foizi Shimoliy Amerikada, 16,5 foizi Markaziy, 41,9 foizi Janubiy Amerikada va qolgan 4,5 foizi esa Karib dengizidagi davlatlarda istiqomat etadilar. Amerika aholisining shakllanishi ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish tarixi bilan bog‘liqdir. 2000-2010 yillarda qit‘a aholisi yillik o‘shish sur‘ati 0,87% ni tashkil etgan. Bugungi kunda dunyo aholisining 13,5 foizi Amerika hissasiga to‘g‘ri keladi.

Osiyo. 2017-yil ma‘lumotiga ko‘ra, qit‘a aholisi soni 4494 million kishiga yetgan. Bu qit‘ada sayyoramiz aholisining eng ko‘p qismi – 60,5 foizi istiqomat etadi. Osiyo aholisining 32,3 foizini Xitoy va 28,4 foizini Hindiston aholisi tashkil etadi. Hozirgi davrda qit‘a aholisi faqat tabiiy o‘shish hisobiga (1,2 %) ko‘payib bormoqda. Aholining tabiiy o‘shishi Iroq, Iordaniya, Palastin, Pokiston, Nepal,

¹⁸Z.N. Tojiyeva. O‘zbekiston Respublikasi demografik jarayonlari va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi.T., 2017. B. 46.

Tojikiston, Fillipin va Sharqiy Timor davlatlarida yuqori bo‘lib 2,1 – 3,1 foizni tashkil etadi. Yevropada aholi soni 2017-yili 745 millonga teng. Bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 10,8 foiziga tengdir. Yevropa dunyo qit‘alari ichida aholisi nisbatan sekin ko‘payib kelgan hududdir. Mutaxassislar XX asr oxirida Yevropa aholisining ko‘payish sur‘ati deyarli to‘xtashi (0,3%) haqida prognoz etgandilar. Darhaqiqat, XXI asr boshida Yevropada aholining tabiiy o‘sishi 0.0 % ga tushib qolgan. Yuqorida qayd etilganidek, Yevropaning qator davlatlari demografik inqirozga yuz tutgan.

Avstraliya va Okeaniya – aholisi hozirgi kunda 42 millionga (2017-y.) yetdi. Bu ko‘rsatkich dunyo aholisining 0,5 foiziga teng demakdir. Mazkur hudud aholisi tabiiy o‘shish hisobiga 1,1 %, migratsion o‘shish hisobiga esa 7 foizdan ko‘payib kelmoqda. Avstraliya va Okeaniya hozirgi kunda dunyo bo‘yicha migratsion o‘shish eng yuqori hudud hisoblanmoqda. Ushbu jarayon ayniqsa, Avstraliya davlatining o‘zida yuqori bo‘lib, 12 % ni tashkil etmoqda. Qit‘a aholisining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 2000 - 2009-yillarda 2.31% ga teng bo‘lib asosiy qismi migrantlar hisobiga to‘g‘ri keladi.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi soni nimani anglatadi?
2. Aholi sonining o‘zgarishiga ta’sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
3. “Tabiiy o‘shish” va “migratsion o‘shish” orasidagi farq nimada?
4. Promille tushunchasi nimani anglatadi?
5. Hayotiylik indeksi qanday aniqlanadi?
6. Aholining o‘rtacha soni qanday aniqlanadi?
7. “Statsionar aholi” tushunchasiga ta’rif bering.
8. Aholining sifati deganda nimani tushunasiz?
9. Aholining sifat ko‘rsatkichlarini tushuntirib bering.

10. Aholi soni shiddat bilan o‘shib borayotgan davlatlarni sanab bering.
11. Aholining absolyut o‘shish ko‘rsatkichlarini tushuntiring.
12. Aholi dinamikasi deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 B.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.–T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
4. Айрапетов А.М. Таблицы исчисления и среднегодовых темпов роста, прироста и снижения (2-е дополненное издание). – М.: Статистика, 1967. – 158 с.
5. Бўриева М.Р., Тожиева З.Н., Зокиров С.С. Ахоли географияси ва Демография асослари. - Тошкент., “Тафаккур», 2011. – 160 бет.
6. Бўриева М.Р. Демография асослари.- Тошкент, 2001. - 66 бет.
7. Борисов В. А. Демография. – М.:Издательский дом НОТАБЕНЕ, 1999, 2001. – 272 с.
8. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с.
9. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2017. – 224 b.

GLOSSARIY

Aholining jins tarkibi — aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

Aholining yosh tarkibi — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholi soni — muayyan bir hududda yashovchi aholining umumiy miqdori hisoblanadi. Aholi soni tug'ilish va o'lim natijasida muntazam o'zgarib turadi, muayyan bir hududlar uchun esa aholi migratsiyasi natijasida o'zgaradi.

Aholining takror barpo bo'lishi — aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlarni to'ldirishi orhali yangilanishidir.

Demografik statistika — demografiyaning eng qadimgi tarmog'i bo'lib, uning predmeti aholini takror barpo bo'lishining statistik qonuniyatlari hisoblanadi. Demografik statistika fanining asosiy vazifalariga statistik kuzatuv usullarini ishlab chihish, demografik hodisalar va jarayonlarni o'lchash, aholining takror barpo bo'lishi to'g'risidagi birlamchi statistik ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash kiradi.

Doimiy aholi — ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vaqtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezoni sifatida olti oyga teng davr olinadi.

yosh kontingenti — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo'yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir.

IV BOB. AHOLINING TARKIBI. AHOLINING YOSH – JINSIY TARKIBI

- 4.1. Aholi tarkibi va tuzilishining mohiyati, ma'zmuni
- 4.2. Aholi yosh tarkibi xususiyatlari
- 4.3. Aholining jins tarkibi va uning shakllanishidagi omillar

4.1. Aholi tarkibi va tuzilishining mohiyati, ma'zmuni

Aholini ijtimoiy-demografik jihatdan o'rganishda uning demografik tarkibini tahlil qilish muhimdir. Aholining demografik tuzilishi ko'p jihatdan uning takror barpo bo'lish ko'rsatkichlarida, bolalar, mehnat resurslari, nafaqaxo'rlar sonini hisobga olishda, ular uchun zaruriy ijtimoiy mahsulotlar ishlab chiqarish, ijtimoiy himoya masalalarini hal etish hamda mamlakat kelajak dasturlarini yaratishda dolzarb hisoblanadi.

Aholi tarkibi deganda aholining ma'lum ijtimoiy - iqtisodiy va demografik belgilar asosida taqsimlanishi tushuniladi. Aholi asosan quyidagi belgilar asosida taqsimlanadi:

- Biologik xususiyatga ega bo'lgan belgilar: (askriptiv) jinsi, yoshi, irqi, etnik guruhi;
- Sotsial xususiyatga ega bo'lgan belgilar: nikoh statusi (nikohda turishi) savodliligi va ma'lumotlilik darajasi), kelib chiqishi, tili, fuqaroligi, professional tayyorgarligi;
- Iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan belgilar: kasbi, bandligi, bandlik soxasi, daromad manbai;
- Migratsion xususiyatga ega bo'lgan belgilar: tug'ilgan joyi, mazkur aholi maskanida necha yildan beri yashab kelishi va h.k.;
- Demografik belgilar: tug'ilish va o'lim, nikoh va ajralish, nikohga kirish yoshi, homiladorliklar soni, farzandlar soni, o'lim soni va h.k.;

- Oilaviy tarkibi bo'yicha belgilar: oila yoki uy xo'jaligi, oila turlari va h.k.

Demografik tadqiqotlarda asosan aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi aholi tarkibi ahamiyatlidir. Ularga aholining demografik tarkibi yoki aholining jins, yosh, nikohda turishi, oilaviy statusi, demografik hodisalar bo'yicha tarkibi kiradi. Tug'ilishni o'rganishda aholining oilaviy tarkibi ham muhim ahamiyatga ega. Ularni orasidagi munosabat ijtimoiy - iqtisodiy holatiga bevosita bog'liq. Afroamerikaliklar, oq tanlilar, osiyoliklar va lotinamerikaliklar o'ziga xos hayot tarziga ega, shu boisdan bu holat ularning asosiy demografik jarayonlarida bevosita aks etadi. Bundan tashqari aholining ma'lumotlilik darajasi bo'yicha tarkibi ham o'ta muhimdir. Umuman olganda ma'lumotlilik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, tug'ilish va o'lim darajasi shuncha past bo'ladi.

Aholining demografik tarkibini o'rganishda asosiy ko'rsatkichlar – aholining jins va yosh tarkibi ko'rsatkichlaridir. Aholining demografik tarkibida yosh-jinsiy tuzilishi kechagi demografik jarayonlar, tug'ilish va o'lim hodisalarining natijasi, kelgusi aholi takror barpo bo'lishining asosiy manbaidir. Chunki, aholining yosh tarkibi jamiyatning demografik holati, ya'ni aholining nikohga kirishi va nikohning bekor etilishi (ajralish), tug'ilish, o'lim kabi jarayonlarda va ijtimoiy ahvolda (urishlar, migratsiya) shakllanadi hamda rivojlanadi. Shuningdek, mazkur tarkibdagi o'zaro mutanosiblik bu jarayonlar borishiga salmoqli ta'sir etgan holda, aholining ko'payishida muhim demografik zamin bo'lib hizmat qiladi.

Yosh va jins tarkib demografiyada yagona muhim o'zgarishlarga jiddiy sabab bo'luvchi omillardan emas. Boshqa omillar ham demografik jarayonlar bilan chambarchas aloqador.

4.2.Aholi yosh tarkibi xususiyatlari

Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish obyektidir. Aholi sifatida kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin: a) alohida yosh guruhlari

va ularni nisbatlarini statistik tahlili; b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatlari va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni; d) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholining yosh tarkibi ijtimoiy - iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo'linishidir. Aholi yosh guruhlari va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0 – 9, 10 – 19, 20 – 29 yoshida) salmog'ining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi. Ayni paytda tug'ilish yuqori bo'lgan hollarda hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. Demografik nuqtai nazardan yondashganda aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Aholi yosh tarkibini o'rganganda aholining alohida har bir yoshlarga (0,1,2,3,4,5...100 va undan yuqori) besh yillik yosh guruhlariga (10 – 14, 15 – 19...) va uch yirik – yirik guruhlariga (0 – 14, 15 – 60, 60 va undan yuqori) ajratiladi.

Yosh akkumulyatsiyasi – ba'zi yosh guruhlaridagi aholi sonini o'zidan oldingi yosh guruhidagi aholi sonidan oshib ketishi. Bu vaziyat ko'p hollarda aholi o'zini yoshini yaxlitlab aytishi sababli sodir bo'ladi. Ko'proq 60 yoshdan keyin keksalar yoshlarini ko'paytirib aytadilar. Natijada ba'zi yoshdagi aholi soni o'zidan oldingi yoshdan oshib ketadi. Masalan, 1897-y. aholi ro'yxatlarining tahlilidan 70 yosh erkaklar, 75 yosh ayollar soni 69,74 yoshdagi aholi sonidan oshib ketgan.

Yosh akkumulyatsiyasini Meyer va Uipla indeksleri yordamida o'lchanadi.

Uipla (J_{ω})

$$J_{\omega} = \frac{\sum_{P=5}^{12} P_{5k}}{\frac{1}{5} \sum_{23}^{62} P_t} \times 100\%$$

$P_{5k} = P_{25}, \dots, P_{60} - 25, 30, \dots, 60$ yoshdagi aholi soni

$P_x - 23 - 62$ yoshdagi aholi soni

Ushbu indeks qancha kichik bo'lsa yosh akkumulyatsiyasi ham kichik bo'ladi. Masalan, Rossiyada indeks Uipla 1897-y – 125, 1989-y – 98 ga teng bo'lgan (Medkov V.M. Demografiya, s. 129)

4.1-jadval

Yosh klassifikatsiyasi*

Kalendar yosh	Inson hayoti davrlari
1 – 7 kunlik	Yangi tug'ilgan chaqaloq
7 kun – bir yosh	Chaqaloq
1 – 3 yosh	Erta bolalik
4 – 7 yosh	Birinchi bolalik
8 – 12 (o'g'il bolalar)	Ikkinchi bolalik
8 – 11 (qiz bolalar)	
13 -16 (o'g'il bolalar)	
12 – 15 (qiz bolalar)	O'smirlar
17 – 21	Yigitlar
16 – 20	Qizlar
22 – 35 (erkaklar)	I – yetuklik davri
21 – 35 (ayollar)	
36 – 60 (erkaklar)	II – yetuklik davri
35 – 55 (ayollar)	
61 – 74 (erkaklar)	Keksa odamlar
56 – 74 (ayollar)	
75 – 90 yosh	Qari odamlar
90 dan yuqori yoshdagilar	Uzoq yashovchilar


Manba: * Народонаселение: Энциклопедический словарь. - М., 1994, с. 461.

Yosh – inson tug'ilganidan hayotining ma'lum nuqtasigacha bo'lgan davr. Biologik va kalendar yoshlar mavjud. Hozirgi davrda aholining yosh strukturasi bo'yicha quyidagi klassifikatsiyasi berilgan.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasining nisbatan pastligi va aholi umumiy tarkibida bolalar salmog'ining kamligi bilan xarakterlangan. Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda tug'ilish nisbatan yuqori va aholi tarkibida bolalar salmog'ining yuqoriligi bilan tavsifli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

Aholi takror barpo bo'lish bilan yosh tarkib o'zaro chambarchas bog'liqdir. Bu bog'liqlik V.A. Borisov tomonidan juda yaxshi ko'rsatib berilgan. Unda aholi takror barpo bo'lishining uchta ko'rinishi: progressiv, statsionar va regressiv tiplari keltiriladi (4.2-rasm)¹⁹.

Aholining tarkibi



4.1- rasm. Aholining tarkibi.

I. Birinchi progressiv tip uchun tug'ilish va o'lim yuqori bo'ladi. Bunda aholi yosh tarkibida bolalar salmog'i ko'p, keksa yoshdagilar kam sonli bo'ladi. *Progressiv* – yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida bolalar (0-14 yoshdagi) salmog'i qariyalarga (65 yosh va undan yuqori) qaraganda yuqori bo'lgan hududlarda kuzatilib

¹⁹ Борисов В. А. Демография — М.: NOTABENE, 2001. С.55-56.

ularning aholisi muntazam ko'payib boradi. Bu yosh tarkibiga Afrika va Osiyo davlatlarini kiritisa bo'ladi. Dunyo bo'yicha 15 yoshdan kichiklar jami aholining 30 foizini (2003-yil) tashkil qilsa, Afrikada 42 foizni, Osiyoda 30 foiz, Yevropada 17 foizga teng. Bizning respublikamiz aholisi yosh tarkibida aynan shu yoshdagilar dunyo ko'rsatkichidan balandligi (38 foiz) bilan tafsiflanadi. Tug'ilish va o'lim darajalari pasayadi, aholi o'sishi sekinlashadi va keyinchalik hatto to'xtaydi. Aholi yosh tarkibining ikkinchi statsionar tipi vujudga keladi, oqibatda, aholi harakati turg'un, o'zgarishsiz qoladi. Shu boisdan ham bu qo'ng'iroq shaklda ifodalanadi.

2. *Statsionar* – yosh tarkibida aholi umumiy miqdorida qariyalar salmog'i yoshlar bilan tengdir. Statsionar yosh tarkibida aholi soni bir xil miqdorda turadi. Aholining tez kamayishi yoki ko'payishishi kuzatilmaydi.

3. *Regressiv tip* – uchun o'lim ma'lum bir sharoitda o'zining eng quyi nuqtasiga etadi, tug'ilish ko'rsatkichi pasayishda davom etadi, natijada depopulyasiya jarayoni boshlanadi. Aholi yosh tarkibida qariyalar ko'payib, yoshlar kamayib ketadi, aholi qariy boshlaydi. Bunday holda esa aholi soni asta-sekin kamayib boradi va "*depopulyatsiya*" holati yuz beradi. Dunyo aholisining atigi 7 foizi (2017 yil) 64 yoshdan kattalarga to'g'ri keladi. AQSH (13%), Kanada (13%), Yevropa (15%), Okeaniya (10%) davlatlarining aksariyatida 64 yoshdan katta yoshdagilar salmog'i dunyo aholisining aynan shu yosh tarkibi bo'yicha umumiy ko'rsatkichidan ustunligi kuzatiladi.





4.2- rasm. Aholi yosh tarkibi tiplari.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi respublika aholisini yosh guruhlarga ajratishda uning fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda yosh kontingentlariga ajratadi. Bunda aholi yoshi, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa belgilariga ko‘ra guruhlantiriladi, ya‘ni 0-2 yoshgacha go‘daklik va bolalik, 3-5 yoshgacha bog‘cha davri, 6-7 yoshgacha maktabgacha va 8-15 yoshgacha maktab davri, 16 yoshdan katta yoshdagilar, 60 yoshgacha bo‘lganlar mehnatga layoqatli yosh va h.k.


E. Nabiev va A. Qayumovlar aholi yoshini beshta guruhga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etishadi. Bunda, aholi yosh tarkibi 0-14 yosh bolalar, 15-24 yosh o‘smir yoshlar, 25-60 yosh mehnatga qobiliyatli aholi, 60-70 yosh nafaqa yoshidagilar, 70 yosh va undan kattalar tarzda ajratiladi²⁰. Demak, mamlakat aholisining yosh-jinsiy tarkibini dastavval uning biologik tipi bo‘yicha tadqiq etish alohida ahamiyatga ega, chunki har qanday demografik jarayonlar aholining u yoki bu yoshida albatta ro‘y beradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, mustaqil davlatlar hamdo‘stligiga kiruvchi ayrim mamlakatlar orasida bolalar salmog‘i ko‘pligi bo‘yicha O‘zbekiston Tojikiston Respublikasidan keyin ikkinchi o‘rinda joylashgan. Jumladan, Tojikistonda 15 yoshgacha bo‘lganlar jami aholining 38 foizini, 65 yoshdan kattalar esa, atigi 4 foizni tashkil etadi. Ayrim keltirilgan davlatlarda 0-14 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlar miqdori kamayib, aksincha, 65 yoshdan oshganlar ulushi ko‘payib borayotganligini kuzatiladi. Masalan, 1999-2009-yillarda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston davlatlarida 0-14 yoshgacha bo‘lganlarning jami aholidagi salmog‘i 1,3-1,2 barobarga qisqardi.

²⁰ Nabiyev E., Qayumov A. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati. –T.: “Akademiya”, 2000. b.42.



Statsionar tip



Regressiv tip

4.3-rasm. Aholi takror barpo bo'lish tartibiga mos keluvchi yosh tuzilishi tiplari (Borisov V.A, 2001).

O'tish davrida demografik jarayonlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar aholining yosh tarkibiga o'z ta'sirini ko'rsatganligi ba'zi yosh guruhlari miqdori kamayishi yoki ko'payishida yaqqol ko'rinmoqda. Aholining yosh tarkibi aholining tabiiy harakati ko'rsatkichi bilan bevosita bog'langan. Sababi, qaysi davlatlarda aholining tabiiy harakatini ifodalovchi ko'rsatkich yuqori bo'lsa o'sha davlatdagi aholining yosh tarkibida bolalar va o'smirlar salmog'i, mehnatga layoqatli yoshdagi kishilar hissasi yuqori bo'ladi. Bunday holat dunyo miqyosida rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol kuzatiladi. Aksincha, rivojlangan, iqtisodiy jihatdan etuk davlatlar aholisining yosh tartibida katta yoshlilar va qariyalar ulushi ko'p bo'lishi bilan birga, bolalar kam sonni tashkil qilmoqda.

Bularga misol qilib, Xorijiy Yevropa davlatlarini, Rossiyani keltirish mumkin. Mazkur davlatlarning mehnat yoshidagi yetishmayotgan aholisining o'rnini yuqoridagi rivojlanayotgan davlatlardan kelib ishlovchilar ya'ni, migrantlar to'ldiradi. Demak, aholining yosh tarkibida migratsiya jarayoni qaysidir tarzda muhim ahamiyat kasb etadi. Insonning iqtisodiy, biologik va kalendar yoshlari mavjud bo'lib, ular o'z ilmiy ta'riflari va xususiyatlariga egadir. Demografik nuqtai-nazardan inson umri turli davrlarga bo'linadi (go'daklik, bolalik, yoshlik, yetuklik, mehnatga qobiliyatlilik davri va qariyalik). Umuman dunyo miqyosida aholi yosh tarkibi bo'yicha uchta demografik guruhlariga ajratiladi. Bularga 0-14 yosh (bolalar), 15-64 yosh (mehnat yoshidagi aholi), 65 yosh va undan yuqorilar (qariyalar) kiritiladi.

Aholining yosh tarkibi juda qadimdan mavjud bo'lib kelayotgan demografik holat, ya'ni demografik evolyutsiyaning natijasi bo'lib u ayni paytga kelajakdagi demografik vaziyatning zamini bo'lib xizmat qiladi. Dunyo aholisi yosh tarkibi bo'yicha hududiy xususiyatlarga ham egadir. Jumladan, yer shari aholisi yosh tarkibida 1970-yillardagi ahvolni ko'rib chiqilganda 15 yoshgacha bo'lganlar miqdori va undan yuqori yoshdagilar ko'p sonni tashkil etganligi jadval ma'lumotlari ham tasdiqlaydi. Yevropa o'sha yillarda ham undan keyingi vaqtda ham 65 va undan katta yoshdagilar soni yuqoriligi bilan ajralib kelmoqda. Ikkinchi o'rinni (qariyalar salmog'i bo'yicha) Okeaniya va Amerika davlatlari egallaydi. Ushbu tahlildan aholi yosh tarkibini ikkita asosiy tipga ajratish mumkin.

Birinchi tipda (tug'ilish va o'lim yuqori bo'lib, o'rtacha umr ko'rish davri qisqa bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar) bolalar, o'smirlar miqdori ustun, qariyalar hissasi uncha katta emas.

Ikkinchi tipda Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga xos (tug'ilish kam, o'lim past ko'rsatkichga ega, uzoq umr ko'ruvchilar ko'p sonli) bolalar va o'smirlar soni qisqarib, qariyalar ulushi oshib boradi.

Geografik mintaqalar doirasida taqqoslaganda O'zbekiston birinchi tipga xos davlat sanaladi. Respublikamizda bolalar salmog'i yuqori. Bunga o'zbek oilalarida tug'ilish sur'atining balandligidir.

1970-yili 0-14 yoshdagi bolalar jami aholining 45 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2004-yilda ushbu ko'rsatkich 38 foizni tashkil qilgan. Ikkinchi o'rinni 15-64 yoshdagilar egallaydi. Ushbu yoshdagi aholi jami aholining teng yarmiga teng (58 foiz). Qariyalar soni kamchilik bo'lib atiga 10 foizga teng.

4.3. Aholining jins tarkibi va uning shakllanishidagi omillar

Aholining jinsiy tarkibi deganda, ularning erkak va ayollarga taqsimlanishi tushuniladi. Odatda aholi jinsiy tarkibida ayollar har 100 ta yoki har 1000 ta erkak kishiga nisbatan hamda erkaklar har 100 ta yoki har 1000 ta ayolga nisbatan hisoblanadi va bu foizda ifodalanadi. Bundan tashqari har ikkala jins vakillari jami aholiga nisbatan ham ulushi aniqlanadi.

Aholining jinsiy tarkibi, asosan uchta omil ta'sirida shakllanadi: bular, yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat; o'limdagi jinsiy farq; hamda aholi migratsiyasidagi jinsiy farq; Statistik ma'lumotlar va ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha dunyo bo'yicha qiz bolalarga nisbatan o'g'il bolalar ko'proq tug'ilar ekan. Ma'lumotlar ko'rsatishicha, dunyoda har 100 ta qiz bolaga nisbatan tug'ilgan o'g'il bolalar soni o'rtacha 104-107 tani tashkil etadi. Bundan tashqari har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqdan 512 tasi o'g'il bolalar 488 tasi qiz bolalar bo'ladi. O'g'il bolalar salmog'ining qiz bolalarga nisbatan yuqoriligi ko'p hollarda 15-20 yoshlarga qadar saqlanib boradi. Asosan 20-24 yoshlarda jinslar nisbatan tenglashadi. Undan keyin esa, asta-sekin jami aholi tarkibidagi erkaklarga qaraganda ayollar salmog'i ortib boradi. Bu hol qator omillar bilan bog'liqdir. Ularga bolalik davrida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq xastalanishi, baxtsiz hodisalar va erkaklarning o'ziga xos turmush tarzi kabilarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda erkak va ayollar miqdorining hududiy xususiyatlari (2017 yil, kishi)

4.3 -jadval

	Har 1000 ta ayolga to'g'ri kelgan erkaklar ulushi		
	Jami aholi	Shahar aholisi	Qishloq aholisi
O'zbekiston Respublikasi	1007	999	1015
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1006	1000	1011
<i>Viloyatlar:</i>			
Andijon	1019	1019	1020
Buxoro	998	1012	990
Jizzax	1008	998	1018
Qashqadaryo	1018	1020	1016
Navoiy	1029	1058	1001
Namangan	1028	1031	1022
Samarqand	1006	990	1016
Surxondaryo	1018	1006	1025
Sirdaryo	1009	1008	1011
Toshkent	999	983	1013
Farg'ona	1012	997	1032
Xorazm	998	998	997
Toshkent sh.	950	950	

Manba: Jadval O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuningdek, erkaklarning ko'p qismi yoshlik va o'rta yoshlik davrida og'ir mehnat bilan mashg'ul bo'lib, inson salomatligi uchun zararli bo'lgan alkogolizm, chekish kabi odatlar bilan shug'ullanadilar. Yuqorida keltirilgan turmush tarziga xos omillar hamda

xalqlar orasida, davlatlar orasida ro‘y berib turadigan urushlar erkaklarning hayotdan barvaqt ko‘z yumishiga olib keladi²¹. Shunday bo‘lsada aholi jinsiy tarkibining shakllanishi dunyo hududlarining har birida o‘ziga xos xususiyatga egadir. Ushbu xususiyatlar, yuqorida qayd etilganidek, ana shu hududning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari bilan ifodalanadi

Hozirgi davrda (XXI asr boshlari) sayyoramiz aholisining jinsiy mutanosibliyi yosh guruhleri bo‘yicha keskin farq qiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, dunyodagi barcha davlatlarda ham 0–14 yosh guruhlarida o‘g‘il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko‘proq ekan. Bu hol yuqorida ta’kidlaganimizdek, o‘g‘il bolalarning ko‘proq tug‘ilishi bilan bog‘liqdir. 15–64 yosh guruhlarida esa, ayollar va erkaklar salmog‘i dunyo bo‘yicha bir muncha tenglashadi va har ming ayolga 1020 erkak to‘g‘ri keladi. Lekin bu nisbiylik hamma qit‘alarda ham bir xil emas. Yevropada – 1000 ta, Osiyoda ta – 1049 ta, Afrikada – 979 ta, Amerikada – 990 ta, Okeaniyada – 1039 ta to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston uchun mazkur ko‘rsatkich 996 tani tashkil etadi. 65 yosh va undan yuqori yosh guruhlaridagi ayollarga yer yuzida 742 ta, Yevropada 649 ta, Osiyoda 879 ta, Afrikada 889 ta, Amerikada 741 ta, Okeaniyada 818 ta, MDH tarkibiga kirgan davlatlarda 444 ta erkak to‘g‘ri keladi. O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 580 tani tashkil etadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, ikkinchi jahon urushida Yevropagi qator davlatlar, ayniqsa, sobiq Sovet Ittifoqida juda ko‘p erkaklar halok bo‘lgan. Shuning uchun ham XX asrning oxiriga qadar aholi tarkibida ayollar nisbatan eng yuqori bo‘lgan davlat sobiq Sovet Ittifoqi hisoblanar edi. Chunonchi 1989 yilda bu davlatda har 1000 ayolga 891 ta erkak to‘g‘ri kelgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha dunyo aholisining umumiy tarkibida erkaklar ayollarga nisbatan bir muncha ko‘proq bo‘lib, ya’ni har 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 1009 ni tashkil etar ekan. Ayollarga nisbatan erkaklarning ko‘pligi asosan Osiyo davlatlarida (1000 ayolga 1042 ta erkak) kuzatilsa, Yevropa


²¹ Asanov G.R Aholi geografiyasi.-T., 1978. – 75 b.; Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T., 1987. – 57 b.

davlatlarida esa aksincha – ayollar salmog‘i yuqoriligi kuzatiladi. Ayollarning erkaklarga nisbatan ko‘pligi ayniqsa, Rossiya davlatida yuqoridir (1000 ayolga 890 erkak)²².

O‘zbekistonda ham aholining jinsiy tarkibi hududning ijtimoiy-iqtisodiy holati va demografik jarayonlari ta‘sirida shakllanib, kelgan. Respublika hududida XIX asrning ikkinchi yarmi hamda XX asrning boshlarida ayollar salmog‘i ancha past bo‘lib, har 1000 erkakka 856-859 ni tashkil etgan. XX asrning 60-yillaridan boshlab ayollar salmog‘i oshib borgan. Hozirgi davrda O‘zbekistonda aholining jinsiy tarkibi deyarli tenglashib, qulay demografik rivojlanishga asos bo‘lmoqda 2008-yil O‘zbekistonda 1000 ayolga nisbatan erkaklar soni 999,8 ni tashkil etgan.

Aholining jinsiy tarkibida migratsiyaning o‘rni ahamiyatlidir. Aholi migratsiyasida erkaklar ishtiroki yuqori bo‘lganligi sababli migratsion oqim yuqori bo‘lgan ba‘zi yirik shaharlarda, o‘zlashtirilayotgan hududlarda aholi tarkibida erkaklar salmog‘i ko‘p bo‘ladi. Masalan Toshkent shahrida jami aholining 51 foizini erkaklar tashkil etadi. Demografik jarayonlardan birining o‘zgarishi aholi takror barpo bo‘lishi, uning tarkibi to‘g‘risida muhim ma‘lumot beradi. Aholi haqidagi eng muhim jihatlar biri bu uning yosh va jinsiy tarkibidir. Bu ikki jihat demografiya va demografik jarayonlarni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha demografik jarayonlarning aholining yosh-jins tarkibi bilan qanday bog‘langanligini ko‘rib chiqamiz. Masalan, farzandlar tug‘ilish jarayoniga to‘xtalsak, odatda tug‘ilgan chaqaloqlarda o‘g‘il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko‘proq tug‘iladi, taxminan 105 ta o‘g‘il bolaga 100 ta qiz bolaga to‘g‘ri keladi. Pushtlilik, ya‘ni farzandlarni dunyoga keltirish jins bo‘yicha o‘zgaradi, ayniqsa, ayollar farzand ko‘rish yoshi 15-49 yosh oralig‘ida, erkaklarda esa 15-79 yosh oralig‘iga to‘g‘ri keladi (Poston, 2005).

²² В.А. Капылов. География населения. - М., 1999, с. 34.



4.3 - rasm. Aholi jinsiy tarkibi shakllanishidagi omillar.

Aholi o'limi jarayoniga kelsak, ularning tebranishi, ya'ni aholi takror barpo bo'lishida har bir yosh guruhida ayollarda o'lim erkaklarga nisbatan pastroq darajada bo'ladi. Hayotning dastlabki yillarida o'lim ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi, so'ngra ular juda past darajagacha pasayib ketadi. O'lim jarayoni ham aholi jinsiy tarkibiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Ayniqsa, keksa aholi guruhida (65 va undan yuqori yoshlarda) ayollarga nisbatan erkaklar o'limining yuqori bo'lishi, ushbu yoshlarda erkaklar salmog'ining pasayib ketishiga sabab bo'lgan. Masalan, O'zbekistonda 2015-yilda 70 yosh va undan yuqori yoshdagilarda har 1000 ayolga nisbatan 704 erkak to'g'ri kelgan. Hozirgi aholi takror barpo bo'lish jarayonida o'lim dastlabki birinchi yildagi ko'rsatkich 50 - 60 yoshlarda yana shu ko'rsatkichga yetadi. Shu bilan birga o'lim sabalari asosan yosh bilan bog'liq. Masalan bolalar, otalar va suitsidlar, yosh va jinsga bog'liq. Ikki mashhur demograf olimlar Jacob Siegel i Genri Shryocklar fikriga ko'ra o'limni tahlil qilishda uning yosh bilan aloqadorligi muhim ahamiyatga ega".

Migratsiya ham yosh va jinsga ko'ra farqlanadi. Odatda ayollar va erkaklar muayayn joyda bir xil miqdorda ko'chishmaydi. Bunga ko'ra migratsiya harakatchanligi erkaklarda yuqori, ammo uzoq masofaga migratsiya harakati ayollarda yuqoridir, bu holat rivojlanayotgan mamlakatlarda namoyan bo'ladi. Shunga qaramay jamiyatda ayollarning mavqe'i oshib borishi bilan migratsiyada ishtirok etish darajasi erkaklar bilan tenglashadi. Haqiqatda hozirgi vaqtda

halqaro migratsiyada ishtirok etayotgan aholining deyarli yarmi ayollardir, AQSHga kelgan qonuniy immigrantlarning yarmidan ko'pi ham ayollardir. Migratsiya aholi yoshiga qarab ham o'zgaradi, migrantlarning asosiy qismi o'smirlardir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholi yosh jins piramidasining ahamiyati nimalardan iborat?
3. Aholi yosh tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.
4. Aholining jinsiy tarkibiga ta'sir qiluvchi omillarni sanab bering.
5. yosh kontingenti tushunchasiga ta'rif bering.
6. Progressiv yosh tarkib nima?
7. Regressiv yosh tarkib nima?
8. Statsionar yosh tarkib nima?
9. yosh akkumulyatsiyasi nima?
10. Demografik yuk koeffitsiyenti deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b
3. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O'quv qo'llanma / O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, TMI. – T.: “Iqtisodiy moliya”, 2013. -212 bet.
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.

5. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. -T., 2001. -66 b.
6. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur” 2011. – 160 b.
7. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
8. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.
9. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: “Фан ва технология” 2010. – 276 б.
10. Народонаселение. Энциклопедический словарь. – М., 1994.

GLOSSARIY

Akkumulyatsiya jarayoni — bu ketma-ketlikdagi amallarga bo'lingan tug'ilishning yig'indi koeffitsiyentining hisoblanishidir, shu sababli 50 yoshga qadar yig'ilgan tug'ilishlar soni berilgan shartli avlodning tug'ilishning yig'indi koeffitsiyentiga teng bo'ladi.

Aniq yosh — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o'Ichangan, tug'ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo'lgan davr oralig'iga tengdir. Masalan, insonni tug'ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 minut 28 sekundga teng.

Aholining jins tarkibi — aholining erkak va ayollarga taqsimlanishidir.

Aholining yosh tarkibi — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo'yicha taqsimotidir.

Aholining keksayishi — aholi umumiy sonida ulug' yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog'ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o'rta yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi.

Yosh — bu insonning tug‘ilishidan to uning hayotidagi u yoki bu daqiqasigacha oqib o‘tgan vaqtdir. Yosh yillarda, oylarda (hayotning birinchi yillarida), haftalarda (hayotning birinchi oylarida), kunlarda va soatlarda hisoblanadi.

Yosh akkumulyatsiyasi — bu aholining ma’lum bir yoshlaridagi sonining qo‘shnilariga nisbatan ko‘proq yig‘ilib qo‘yilishidir. Yosh akkumulyatsiyasi odamlarning psixologik ta’sir ostida sonli o‘zgaruvchilarni yaxlitlab yuborishga moyilligi ostida vujudga kelib, ular aniq sonlar o‘rniga yaxlitlangan, yaqin bo‘lgan kattaliklarni aytishadi.

Yosh-jins piramidasi — ikki tomonlama chiziqli diagrammani o‘zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo‘yicha birgalikda taqsimlangan, bunda grafikning bir tomonida (o‘ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o‘qi yosh shkalasini o‘zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo‘linib, 0 yildan boshlanadi va yuqori yosh yoki ochiq yosh intervali bilan tugallanadi.

Yosh kontingenti — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo‘yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir.

Yillar to‘lgandagi yosh — bu aniq yoshning to‘liq sonlarga ega bo‘lmagan qismidir, u oxirgi tug‘ilgan kundagi aniq yoshiga tengdir. Aynan shu yosh bo‘yicha odatda «yoshingiz nechada?» degan savolga javob beriladi. Matematik jihatdan bu pastga qarab to‘liq songacha qoldiq qismlar kattaligini hisobga olmasdan yaxlitlab yuborilishini anglatadi.

V BOB: AHOLINING QARISHI

- 5.1. Aholining qarishi va uning demografik omillari
- 5.2. Demografik qarish shkalasi (J. Boje – Rarne – E. Rosset)
- 5.3. Dunyo aholisi qarishining hududiy xususiyatlari

5.1. Aholining qarishi va uning demografik omillari

Aholining qarishi – aholi tarkibida keksa va qari aholi guruhining oshib borishidir. Aholining qarishi demografik omillarga bog‘liq. Asosiy demografik omil aholining takror barpo bo‘lish xususiyatidir. Tug‘ilishning yuqori, o‘lim darajasining pastligi aholi tarkibida bolalar salmog‘ining yuqori bo‘lishiga sababdir. Aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining muntazam oshib borishi esa, o‘limning kamayishi, aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayishi bilan ham chambarchas bog‘liq.

Aholining qarishi turli mamlakatlarda turlicha tezlikda kechmoqda. Ammo shunga qaramasdan, bugungi kunda bu dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan yana bir demografik muammolardan biridir. Aholi qarishi darajasini baholash uchun aniq bir belgilangan ko‘rsatkich yoki mezonlar bo‘lishi zarur. Masalan, qariyalar, keksalik darajasini belgilashda turlicha qabul qilingan mezonlar mavjud. Jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti keksalikni 60 yosh emas 65 yoshdan belgilaydi va umumiy aholida 65 yoshdan oshganlar 4 foiz bo‘ladigan bo‘lsa, aholi “yosh”, 4-7 foiz “keksalik ostonasida”, 7 foizdan baland “keksalik” hisoblanadi. Bu ma’lumotlardan farqli ravishda J. Bojyo-Garne va E. Rosset o‘zlarining demografik qarilik shkalasini tavsiya etishadi. Bunda 60 yosh va undan kattalar 8 foizgacha bo‘lsa “*demografik yoshlik*”, 8-10 foiz “*keksalikning birinchi ostonasi*”, 10-12 foiz “*keksalik ostonasi*”da, 12 foizdan yuqori “*demografik qarish*” va hokazo qarilikning o‘zini yana bir

necha bosqichlarga ajratishadi²³. Xuddi shunday aholining keksayish darajasini ko'rsatib berishda fransuz demografi A.Sovi shkalasi ham mavjud. Bunda, uning shkalasi J. Bojyo-Garne va E. Rosset shkalalari bilan deyarli o'xshash. Respublika aholisining yosh tarkibini J. Bojyo-Garne va E. Rosset hamda A. Sovi shkalasi asosida guruhlash maqsadga muvofiqdir. Chunki, O'zbekistonda aholining ijtimoiy-demografik rivojlanishidan kelib chiqqan holda, keksalikning boshlanishini ayollarda 55 yosh, erkaklarda 60 yoshdan, deb qabul qilingan.

Aholining qarishi juda uzoq davom etgan demografik o'zgarishlarning natijasidir. Ayniqsa, tug'ilish, o'lim aholi qarishiga olib keluvchi asosiy demografik omillardir. Aholi migratsiyasi ham aholi qarishiga o'ziga xos ta'sir etadi. Aholi qarishi 2 turda namoyon bo'ladi:

1. Tug'ilishning qisqarishi hisobiga qarish ("*quyidan qarish*");
2. Tug'ilishning qisqarishi sharoitida aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va o'limning kamayishi hisobiga ("*yuqoridan qarish*").

Aholini qarish jarayoniga demografiya va statistika tomonidan XIX asr oxirida e'tibor berila boshlandi. Aholini qarishi bo'yicha sobiq Sovet Ittifoqida A.YA. Boyarskiy, J. Burjua – Pица, A. Sovi – Fransiyada, AQSHda E.Koul va boshqalar shug'ullandilar. Aholining qarish darajasini aniqlash uchun Rossiya va boshqa qator davlatlarda aholining yosh chegarasi – 60 yoshdan boshlandi. Qator g'arb mamlakatlarida va xalqaro miqyosda – 65 yoshdan boshlab qarilar guruhiga kiritiladi.

5.2. Demografik qarish shkalasi (J. Boj'e – Garne, E. Rosset)

Sayyoramizda aholining qarishi 1870-yillardan boshlangan. 1870 – 1937-yillarda Fransiya, Shvetsiya, Germaniya va Buyuk Britaniya aholisi tarkibida 60 yoshdan yuqori guruhdagilar salmog'i 12 foizdan oshgan. Demografik ma'lumotlar guvohlik berishicha,

²³ Медков В.М. Демография: Учебник.-М.: 2004.С. 132.

XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida dunyo aholisining yosh tarkibida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lgan. Avvalo, XX asr sayyoramizda aholi sonining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davri bo'ldi. Bu davrda dunyo aholisi 1,656 milliondan 6 milliardga etdi, yoki deyarli 4 barobarga oshdi. Bu jarayonda 65 yosh va undan katta bo'lgan qariyalar hissassi ham anchaginadir. Dunyo aholisi tarkibida XX asrda bolalar salmog'i kamayib, qariyalar salmog'i esa ortib bordi. Masalan, 1980-yilda dunyo aholisi tarkibida bolalar (0 – 14 yosh) 35 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2001-yilga kelib esa bu ko'rsatkich 30 foizni tashkil etdi. Ana shu davrda qariyalar salmog'i esa 6 foizdan 7 foizga yetdi²⁴. Bunday jarayonni dunyoning barcha hududlarida ham kuzatish mumkin. Aholi tarkibida bolalar salmog'ining oshib borishi, yuqorida qayd etilganidek, demografik holatning o'zgarishi, avvalo, tug'ilishning kamayib borishi, aholining umr ko'rish muddatining uzayishi bilan bog'liqdir. Jumladan, dunyo aholisi XX asrning boshlarida o'rtacha 50 yil atrofida umr ko'rgan bo'lsalar, hozirgi davrga kelib aholining o'rtacha umr ko'rish 68 yilga yetdi²⁵. Aholining yosh tarkibi dunyo hududlari bo'ylab keskin farq qiladi.

Demografik qarish natijasida qariyalar salmog'ining oshib borishi ma'lum darajada aholining ijtimoiy faolligini pasaytiradi, iqtisodiyotda yoshlar salmog'i kamayadi, nafaqa ajratish bilan bog'liq muammolar ko'payadi; qariyalarga tibbiy hizmatni ko'paytirish sog'liqni saqlash tizimiga o'zgartishlar kiritilishini taqozo etadi. Nihoyat hali ishlashni xohlovchi "*yosh qariyalarni*" ish bilan ta'minlash ham o'ziga xos muammolarni keltirib chiqaradi.

Aholining qarishi moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi, chunki qariyalarning talablariga ko'ra tovar va hizmat ko'rsatish turlarini o'zgartishi lozim bo'ladi. Ba'zi texnologik operatsiyalarni bajarish, mashina va jihozlarni qariyalar talabiga moslashtirishga to'g'ri keladi. Ular talablariga transport vositalari ham javob berishi kerak.

²⁴ Демографический – энциклопедический словарь. - М., 1985, с. 278., Населения и общества. Информацион бюллетень РАН. - М., 2001, № 56.

²⁵ Yuqorida qayd etilgan manbalar

Qarilik darajasini o‘lchash uchun J. Bojyo – Garne, E. Rosset tomonidan quyidagicha shkala taklif etilgan.

5.1-jadval

J. Bojyo – Garne, E. Rossetning demografik qarish shkalasi*

Guruhlar	60 yosh va undan kattalarning jami aholi tarkibidani salmog‘i	Qarilik bosqichlari va aholining qarish darajasi
1	< 8	Demografik yosh
2	8 – 12	Qarilikning dastlabki bosqichi
3	10 – 12	Qarish bosqichi
4	12 dan yuqori	Demografik qarish
	14 – 16	Demografik qarishning o‘rtacha darajasi
	16 – 18	Demografik qarishning yuqori darajasi
	18 va undan yuqori	Juda yuqori qarish darajasi

*Manba: * Медков В.М. Демография. С. 132.*

“*Qariyalar buni*” asta-sekin butun dunyoni qamrab olayapti va yuqoridagi kabi qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Insoniyat bu muammolarning naqadar muhimligini tushunib etishi lozim. Ko‘p davlatlarda (birinchi navbatda Yevropa davlatlarida) qariyalarning hayotini yaxshilash borasida ancha ishlar qilinmoqda. Biroq demografik qarish bilan bog‘liq barcha muammolar, mazkur jarayonga yuz tutgan hamma davlatlarda ham davlat siyosati darajasiga ko‘tarilish va takomillashuvi lozim.

5.3. Dunyo aholisi qarishining hududiy xususiyatlari

Dunyo hududlari bo‘ylab aholi yosh tarkibidagi farq har bir hududning demografik holatiga, hamda migratsiya jarayoniga

bog‘liqdir. Tug‘ilish darajasi past bo‘lgan Yevropa davlatlari aholisi tarkibida bolalar va qariyalar salmog‘i deyarli tengdir. Hozirgi davrda (2017 y.) dunyoda aholisi eng qari davlat G‘arbiy Yevropadagi Monako davlati bo‘lib, bu yerda aholi tarkibida qariyalar jami aholining 26 foizini, bolalar esa 13 foizni, Osiyoda Yaponiya bo‘lib, unda qariyalar 28 foiz, Xitoy Makaosida 28 foizni tashkil etadi. Jahondagi aholisi eng yosh davlat G‘arbiy Afrikadagi Niger davlatidir. Bu davlatda jami aholi tarkibida bolalar 50 foizni, qariyalar esa faqat 2 foizni tashkil etmoqda.

5.2-jadval

Dunyo aholisining yosh tarkibi* %

Hududlar	0 – 14 yosh		15 – 64 yosh		65 yosh va undan yuqori	
	2001-yil	2017-yil	2001-yil	2017-yil	2001-yil	2017-yil
Dunyo bo‘yicha	30	26	63	65	7	9
Afrika	43	41	54	66	3	3
Amerika**	28	19	64	66	8	15
Yevropa	18	16	67	66	15	18
Osiyo	30	24	64	68	6	8
Avstraliya va Okeaniya	25	23	65	65	10	12

*Jadval Населения и общества. Информацион бюллетень РАН. - М., 2001, № 56.

va BMTning «**Population Reference Bureau. World Population Data 2017**» ma’lumotlari asosida tuzildi.

**2017-yil Shimoliy Amerika uchun.

Umuman, keyingi 20 – 30 yillik davrda dunyodagi aksariyat davlatlarda qariyalar salmog‘i ko‘payib bordi. Hozirgi davrda dunyo bo‘yicha 65 yosh va undan katta bo‘lgan aholi salmog‘i ko‘payib

bordi. Yoki aholining yillik o'sishida qariyalar hissasi 10 foizni tashkil etmoqda. Mutaxassislar prognozlaricha, yaqin kelajakda, dunyoning barcha hududlarida ham turli ijtimoiy – iqtisodiy, demografik omillar ta'sirida qariyalar salmog'i ortib borar ekan. 2050 yilga borib jami aholi tarkibida qariyalar salmog'i rivojlangan davlatlarda 25 – 30 foizga, rivojlanayotgan davlatlarda esa 8 – 10 foizga yetishi kutilmoqda. 1998-yil ma'lumotiga qaraganda dunyo bo'yicha 65 yosh va undan yuqori yoshdagilar jami aholining 7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda o'sish sur'ati davom etganligi bois ular ulushi 9 foizga etdi.

BMT ma'lumotiga qaraganda 1990 yilda aholini qarish jarayoni bo'yicha aholini qarish jarayoni bo'yicha davlatlar quyidagicha taqsimlangan:

- 61 davlat (1,200 mln.kishi) aholisi qari davlatlar hisoblangan;
- 58 davlat (2700 mln. aholi) qarilik bo'sag'asida;
- 73 davlat (980 mln.aholi) demografik yosh;
- 23 davlatdan esa aholi qarishi bo'yicha ma'lumot bo'lmagan.

Hozirgi davrga kelib esa demografik qari davlatlar soni ko'payganligi tabiiy.

Dunyo davlatlaridan qit'alar bo'yicha Osiyoda Armaniston, Kipr, Gretsiya, Isroil, Livan, Qozog'iston, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Tayvan davlatlarida, Afrikadagi Yashil Burun, Seyshel orollari davlatlari aholisining yarmidan ko'prog'i demografik qarish muammosini boshidan kechirmoqda. Lekin bu muammo Yevropa davlatlarida allaqachonlar qator sotsial-iqtisodiy oqibatlarini keltirib chiqarish darajasiga etgan. Ammo Osiyo davlatlari ichida ham aholi qarishi davlat darajasidagi muammoga aylangan davlatlar mavjud. Bularga yuqorida ta'kidlaganidek Yaponiya, Xitoy davlatlarini yaqqol misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Xitoy dunyoda aholi soni bo'yicha eng yirik davlat sanaladi, uning aholisi 1,3 mlrd kishidan ham ko'proq. Amerika Qo'shma Shtatlari 300 milliondan ortiq aholisi bilan Xitoy va Hindistondan keyingi uchinchi davlatdir. Xitoy yer maydoni Amerika Qo'shma Shtatlaridan salgina

kichikroqdir (Xitoy maydoni 9,6 million kv. km, AQSHniki esa 9,8 kv.km), ammo aholisi AQSHdan 4,4 barobardan ortiqroqdir.

Bu yerda Xitoy va Amerika Qo'shma Shtatlarida keksa va uzoq umr ko'ruvchilar ham katta qiziqish yg'otadi. Ularni hisoblashda AQSH aholi ro'yxati Byurosi ma'lumotlaridan namuna olishimiz mumkin, 60 va undan kattalar, keksalar, 80 va undan kattalar esa eng qarilar hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab 2000 yil 606 milliondan ortiq keksalar va 69 milliondan ortiq eng qarilar mavjudligi qayd etilgan. 2000-yil dunyodagi barcha keksalarning 21 foizi (yoki deyarli 129 milliondan ortig'i) Xitoyda yashagan, AQSh bilan solishtirsak 7,6 foiz (yoki deyarli 46 million) bu yerda yashagan²⁶. Agar 2000-yilgi Xitoydagi barcha keksa insonlarni bir mamlakat sifatida qaralsa, u dunyodagi aholi soni bo'yicha sakkizinchi mamlakat, ya'ni Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziya, Braziliya, Rossiya va Pokistondan keyingi davlat bo'lar edi (United Nations, 2003). Dunyodagi barcha 69 million qarilarning 16 foizi 2000 yil Xitoyda yashagan, AQSH bilan solishtirganda u 13,1 foizni tashkil etgan.

1970-yillarning boshlarida Hitoy aholi soni jadallik bilan o'sib ketishini oldini olishga qaratilgan siyosat olib borishni boshladi, buning uchun butun mamlakat bo'ylab tug'ilishni nazoratga oldi, farzandlar tug'ilishi orasidagi uzoq intervalni belgilab berdi, nikohga kirishni kechiktiruvchi sabablar ishlab chiqdi, farzandlar soni kamaydi shunga qaramay, 1960-yillarda Xitoyda tug'ilgan bolalarning miqdori ko'pligi, Xitoy xukumatini 1970-yillar oxirida aholi soni o'sishiga demografik impuls berishidan xavotirga soldi. shu yo'l bilan 1979-yili oilada farzandlar sonini kamaytirish, bir boladan ortiq farzandi bo'lmasligini qo'llab - quvvatlash tadbirlari, ayniqsa, shahar joylarda kuchaytirish natijasida bir oilaga bir bola kompaniyasi ishni boshlashdilar. Ushbu tadbirlar tufayli ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish fonida 1950-yillardagi har bir ayolga o'rtacha oltita farzand to'g'ri kelishidan, 1990-yillar oxiriga kelib u deyarli ikki barobarga pasaytirishiga yerishildi.

²⁶ POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 256-p.

Amerika Qo'shma Shtatlarida ham tug'ilish darajasi tushib borar edi, ammo bu jarayon Xitoyda kechganidek kuzatilmadi. Tug'ilishning ushbu pasayishi yuqoridagi boblarda ko'rib o'tilgan. Ta'kidlanganidek AQSHda tug'ilish darajasi o'n to'qqizinchi asrdayoq tushishni boshlagan edi. Tug'ilishning umumiy darajasi (oq tanli aholida) 1870-yilda 4,5 da 1900-yilda 3,5 gacha pasaygan (AQSH aholi ro'yxati byurosi 1975-yil). 1920-yilga kelib, aynan birinchi jahon urushidan keyin bu ko'rsatkichlar 3,2 gacha pasaygan. 1950-yillar oxirida bebi bum davrida, bu ko'rsatkich o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan, ya'ni 3,7ni tashkil etgan. shuni alohida qayd etish kerakki, 2000-yildagi Xitoy va AQSHdagi keksa kishilar va uzoq umr ko'ruvchilar tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari pasaygan demografik rejim paytidagi ko'rsatkichlardir. Ushbu o'tish bosqichlarining oqibatlarini, ayniqsa, Xitoyda uzoqni o'ylab ishlab chiqilmaganligi, yangi asrning bir necha o'n yilliklarida ham kuzatiladi²⁷.

Prognozlariga ko'ra, 2020-yilda dunyoda 1 mlrd.dan ko'proq keksa kishilar mavjud bo'lishada, ularning aksariyati, ya'ni chorak qismi (240 mln.) Xitoyga va 7 foizdan ko'prog'i AQSHga to'g'ri keladi. 2020-yilda taxminlarga ko'ra 137 million uzoq umr ko'ruvchilar mavjud bo'lib, ularning 17 foizi Xitoyda va 9 foizi AQSHda yashaydilar.

Yangi asrning o'rtalariga kelib (2050-yil) prognoz qilinayotgan yer yuzidagi 9,4 milliard kishidan deyarli 2 mlrd. keksalarni tashkil qiladi. Uning 424 millioni (21 foizdan ortig'i) Xitoyda va deyarli 100 millioni (5 foiz) Amerika Qo'shma Shtatlarida istiqomat qilishlari kutilmoqda. Prognoz qilinayotgan 424 millionni tashkil etayotgan keksa kishilarning miqdori juda katta. 2050-yilda Xitoyda mavjud bo'lishi prognoz qilinayotgan keksa kishilarning miqdori 2000-yilda dunyoda mavjud bo'lgan (591 million) keksalarda bor yo'g'i 167 millionga kamroq bo'ladi.

Dunyo bo'yicha 2050 yilga aholi prognozlariga ko'ra 399 milliondan ortiq uzoq umr ko'ruvchi erkaklarning 23 foizi Xitoy va 7

²⁷ POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 257-p.

foizdan ortig'i Amerika Qo'shma Shtatlariga to'g'ri keladi. 2000-yilda yer sharida mavjud bo'lgan 68,2 million uzoq umr ko'ruvchilarga nisbatan 2050-yilda Xitoyda 1,4 barobar ko'proq, ya'ni 92,5 million uzoq umr ko'ruvchilar yashashi taxmin qilinmoqda. Katta miqdordagi keksa kishilarning aholi tarkibida mavjud bo'lishi muammo bo'lmas edi, agar aholi o'rtasida tug'ilish darajasi yuqori bo'lganida. Aholi tarkibida keksalarning yoshlarga nisbatining yuqori bo'lishi bu albatta turli xil iqtisodiy, ijtimoiy va ularga bog'liq muammolarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xitoy va AQSHda yaqin yillar ichida aholi qarishining boshqa muammolarga qanchalik bog'liqligini vaqtning o'zi ko'rsatadi²⁸.

O'zbekistonda 2017-yil 1-yanvarda aholining umumiy soni 32,5 milliondan oshdi.²⁹ Agar respublika aholisini yosh tarkibi bo'yicha tahlil etilsa, hozir (2017-y.) O'zbekistonda 0-14 yoshli aholi jami aholining 28,0 foizini, 15-64 yoshli aholi-68,0 foizni, 65 yosh va undan katta yoshdagi aholi 4,0 foizni tashkil etmoqda. Demak, qarish shkalasi bo'yicha O'zbekiston jahondagi aholisi "yosh" davlatlar qatoriga kiradi. Shunday bo'lsada respublikada qariyalar soni bir muncha oshib bormoqda. Bu hol esa o'z navbatida, O'zbekistonda ham qariyalarning ijtimoiy-demografik guruh sifatidagi mavqe'i oshib borishini hamda ularga alohida ijtimoiy-iqtisodiy e'tibor lozimligini taqozo etadi. E'tiborga molik jihati shundaki, O'zbekistonda mehnat yoshi erkaklar uchun 16-59 yosh, ayollar uchun esa 16-54 yosh etib belgilangan. Mehnat yoshidan yuqori, ya'ni 55 va undan katta ayollar, 60 va undan katta erkaklar soni 1991-2017-yillarda 20,7 foizga oshdi. Ko'pchilik Markaziy va Osiyo davlatlari qatori O'zbekiston ham aholisi nisbatan yosh davlatlar guruhiga kiradi. O'zbekistonda 2017 yil jami aholining 28 foizini bolalar va 4 foizini qariyalar (65 va undan kattalar) tashkil etgan. Lekin keyingi yillarda respublika aholisining yosh tarkibi birmuncha o'zgargan. Jami aholi tarkibida bolalar salmog'ining keskin kamayib borishi kuzatilmoqda. 1991 – 2002-yillarda O'zbekistonda bolalar salmog'i 4,4 foizga

²⁸ POPULATION AND SOCIETY: An Introduction to Demography Dudley L. Poston, Jr. 259-p.

²⁹ Статистическое обозрение Узбекистана. - Ташкент-2005. стр. 46.

qisqargan. Bu hol birinchi navbatda Respublikada tug‘ilishning keskin kamayishi bilan bog‘liqdir. 1991-yilda O‘zbekistonda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti 34,5 ‰ ni tashkil etgan bo‘lsa, 2001-yilda bu ko‘rsatkich 20,4 ‰ ni tashkil etdi. Tug‘ilish qisqa davr ichida deyarli 14 ‰ ga kamaydi. Ma‘lumki, 1985 – 1990-yillarga qadar O‘zbekistonda tug‘ilish yuqori darajada bo‘lgan. Ana shu davrda tug‘ilgan ko‘plab bolalar 1995-yildan boshlab mehnat yoshiga qadam qo‘ygan. Natijada jami aholi tarkibida mehnat yoshidagi aholi salmog‘i ortib bormoqda. Shu sababli aholi tarkibida qariyalar salmog‘i biroz kamaygan. Mehnat yoshidagi aholi salmog‘ining ortib borishi respublikada 2005 – 2010-yillarga qadar davom etishi mumkin. Keyinchalik esa aholi tarkibida qariyalar salmog‘i oshib borishi ehtimoli bor.

O‘zbekistonda nafaqa yoshiga etganlar ham o‘z xohishlari bilan, salomatliklari yo‘l qo‘ysa, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishlari mumkin. Hozirgi kunda respublikamiz iqtisodiyotida band aholining ma‘lum qismini nafaqa yoshidagi aholi tashkil etmoqda. O‘zbekiston davlati nafaqa yoshidagi aholiga, qariyalarga alohida e‘tibor bilan qaraydi. 2002-yilni “Qariyalarni qadrlash yili”, deb e‘lon qilinishi ham so‘zimizni isbotlaydi. Qariyalarni e‘zozlash, ularga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish bo‘yicha respublikada juda ko‘p chora-tadbirlar amalga oshirilmog‘da. Respublikada qariyalar va nogironlar uchun maxsus g‘amxo‘rlik uylari mavjud. Hozirgi kunga kelib bunday muassasalar soni respublikamizda 29 taga yetgan va ularda 6 mingga yaqin qariyalarga g‘amxo‘rlik qilinmog‘da.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholining qarishi va qarish turlari.
2. Qarish shkalasi nima?
3. Aholi qarishining dunyo hududlari bo‘ylab farqi va uning omillari.

4. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibidagi o‘zgarishlar.
5. “Quyidan qarish” tushunchasiga izoh bering.
6. “Yuqoridan qarish” tushunchasiga izoh bering.
7. Qariyalarning asosiy qismi qaysi davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi?
8. Aholi keksayish shkalasiga ta’rif bering.
9. Qarish indeksiga ta’rif bering.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
4. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur” 2011. – 160 b.
5. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с.
6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
7. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.
8. BMT Aholishunoslik Fondi ma’lumotlari.
9. Медков В.М. Демография. – М., 2004.
10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya” 2010. – 276 b.

GLOSSARIY

Aholining keksayishi — aholi umumiy sonida ulug‘ yoshdagilar ulushining ortishi, yoshlar salmog‘ining kamayishi, shu

bilan bir vaqtda o'рта yoshdagi aholi sonining ko'payishida o'z ifodasini topadi. Ta'kidlash joizki, aholining keksayishi deganda, nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tu shuniladi.

Aholi tarkibi — bu aholining muayyan bir alomatlarga ko'ra taqsimlanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda qandaydir o'zgaruvchilarga asoslangan laqsimotdir. Masalan, aholining yosh tarkibi, jins tarkibi.

Gerontodemografiya — aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o'rganuvchi fan sanaladi.

Demografik inqiroz — aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar tufayii sodir bo'ladigan jarayon. Demografiya tarixida XIX asrning oxiriga qadar demografik inqirozga ocharchilik, epidemiya va urushlar sabab bo'lgan. Bu omillarga tayangan holda aholining o'limi ortgan va o'z-o'zidan aholi sonining kamayishiga, dunyoning ba'zi mamlakat va mintaqalarida, alohida hududlarda umuman odamlarning qirilib ketishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish sonining keskin pasayishi aholi mutlaq sonining kamayishiga, ya'ni demografik inqirozga olib keldi.

Depopulyatsiya — tug'ilishning darajasining pasayishi, o'limning ko'payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayishjara-yonidir.

Jismoniy salomatlik — barcha a'zolar va butun organizmning to'kis ishlab turgan tabiiy holati.

Yuqoridan keksayish — bu tug'ilishning kamayishi sharoitida keksa yoshdagi aholi o'rtasida o'limning qisqarishi, tug'ilganda kutilayotgan hayot davomiyligining uzayishi hisobiga qariyalar salmog'ining ortib borishidir.

Quyidan keksayish — bu tug'ilishning qisqarib borishi natijasida aholining yosh tarkibida bolalar salmog'ining kamayib, qariyalar salmog'ining esa ortib borishidir.

VI BOB. AHOLINING OILAVIY TARKIBI

- 6.1. Oila va uning turlar, aholining oilaviy holati
- 6.2. Aholining oilaviy tarkibi va aholining oilalar bo'yicha taqsimlanishi (O'zbekiston misolida)
- 6.3. Aholining uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishi

6.1. Oila va uning turlari, aholining oilaviy holati

Oila jamiyat taraqqiyotining mahsuli sifatida o'zining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga ega. Oilaning dastlabki shakli ibtidoiy jamoa tuzumining birinchi bosqichida insonlar to'da - to'da bo'lib yashaganlar. Ular orasidagi jinsiy munosabatlar tartib - qoidaga ega bo'lmagan. Bir nechta erkak va bir nechta ayol farzandlari bilan bir oila bo'lib yashaganlar, o'zaro turmush kechirishgan. Oilaning bunday shakli fanda "*Poligamiya*" – ko'p nikohlilik, deb ataladi.

Quldorlik davrida esa jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar asosan, xususiy mulkning paydo bo'lishi natijasida, oilaning tarkibi ham, shakli ham o'zgardi. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarishda erkaklar qadrini oshirdi, moddiy mahsulotlar yaratishda erkaklar ulushi yuqori bo'la boshladi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi.

Endi bir erkak oila boshlig'i bo'lib, u xotinlari, farzandlari va qullari bilan oila bo'lib yashardilar. Bunday oilalar ko'pxotinlik, ya'ni "*poliginiya*" asosida tashkil bo'lgan poligamiya oila shakli bilan monogam – bir nikohli oila o'rtasidagi oraliq oilalarni tashkil etganlar. Quldorlik davridan feodalizmga o'tish hamda feodalizm ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi oilaning "*monogam*", ya'ni yakka nikohlilik ko'rinishining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Ushbu davrda xo'jalik yuritishda ota-ona farzandlari, nabirachevaralari bilan birga ishtirok etishgan. Ular birgalikda ekin ekib,

hosil yig'ib, moddiy boylik yaratishgan. Ushbu davrda ota-ona, o'g'il-qiz, kelin-kuyov, nabiralari bilan birga bir nechta bo'g'inli oila bo'lib yashashgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida esa, yirik – yirik sanoat korxonalarining paydo bo'lishi natijasida, mayda dehqon xo'jaliklar, mayda hunarmand oilalar inqirozga uchradi. Bolalarning mehnatidan foydalanish, ularga ishchi kuchi sifatidagi talab asta - sekin kamayib boradi. Ko'p bo'g'inli katta oila bo'lib yashash hollari yo'qola boshladi va oilaning yangi tuzilishi – er – xotin va bolalardan iborat bo'lgan nuklear - yadro oila yuzaga keldi³⁰.

Oila paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaning tashkil bo'lishida asosiy omil – nikoh va qarindoshlik munosabatlari bo'lib, bu hol oilaga berilgan ilmiy ta'rifda o'z ifodasini topgan³¹.

Oila – insonlarning tabiiy, biologik, nikoh-qon qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, an'anaviy munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langan ijtimoiy guruhidir.

Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, ma'naviy huquqiy, psixologik munosabatlar va o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zosining o'z ijtimoiy o'rni bordir. Oila asosini er-xotin tashkil etadi. Lekin oilada er-xotin uning farzandlari, ota-onasi, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindosh-urug'lar ham yashashlari mumkin. Demak, oila turli mezonlar asosida tashkil topar ekan, ushbu mezonlarni o'z mazmuniga ko'ra, shartli ravishda demografik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarga ajratish mumkin.

Oilaning demografik mezonlarga ko'ra turlari:

1. Ma'lumki, oila tashkil bo'lishiga avvalo, erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi asos bo'ladi. Ana shu nikoh birligiga asosan oila ikki turga bo'linadi.

³⁰ Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T.: "Universitet", 1997. - b. 7.

³¹ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985 г

Poligam – ko‘p nikohli oilalar, bunday oilalar yuqorida qayd etilganidek, bir erkak, bir nechta ayol bilan nikohda turishi, oila qurishi mumkin.

Monogam – bir nikohli oilalar, ya‘ni bir erkak bar ayol bilan nikohda turadi, oila quradi.

Qayta tuzilgan – ikkinchi nikohli oilalar.

2. Oila unda istiqomat etuvchi oila a‘zolarining tarkibiga qarab ham turlarga bo‘linadi:

Oddiy (nuklear) oila, unda er – xotin nikohga kirmagan, ya‘ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Bunday oilalar turlari eng ko‘p tarqalgandir.

Murakkab (ko‘p bo‘g‘inli) oilalar, bunday oilalarda ikki yoki undan ortiq avlod vakillari istiqomat etishadi. Masalan, ota-ona oila qurgan farzandi va nabiralari bilan yoki bobo, buvi, ota-ona va farzand o‘z bolalari bilan istiqomat etishadi.

3. Oila yadrosini tashkil etgan er – xotin hayotligiga, shu oilada birga yashash va yashamasligiga qarab ham oilalar turlicha bo‘ladi.

–Tugal (to‘liq) oilalar, er-xotin hayot bo‘lgan birga yashagan oilalar

– Tugalmas (noto‘liq) oila. Bunday oilalarda oila asosini tashkil etgan er-xotinning biri hayot emas, yoki shu oilada yashamaydi.

4. Oilada istiqomat etuvchi oila a‘zolarining miqdoriga ko‘ra:

Kichik oilalar (2-4 kishilik);

O‘rta oilalar (5-6 kishilik);

Katta oilalar (7-8 va undan ko‘p kishilik);

5. Bolalar soniga ko‘ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o‘rtacha, va ko‘p bolali oilalar (davlatlarda, turli davrlarda ushbu mezonlar turlichadir).

Oila jamiyatda tutgan ijtimoiy o‘rniga, ya‘ni er-xotinning ijtimoiy sinfiga, guruhiga qarab ham turlarga bo‘linadi. Oilaning bunday ijtimoiy turlari turli ishlab chiqarish usuli xukmron jamiyatda turlicha bo‘lgan. Masalan, sobiq sovet hokimiyatida sotsialistik ishlab chiqarish usuli xukmron edi. Ushbu davrda jamiyatda asosan 3 ta ijtimoiy sinf qayd etilar edi. Ular – ishchi, xizmatchi va kolxozchi

sinflar bo'lgan. Bunday sharoitda ba'zi oilalarda er-xotin bir xil ijtimoiy sinfga, guruhga mansub bo'lsa, (eri ham, xotini ham ishchi, ziyoli yoki kolxozchi), ba'zi oilalarda esa er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub (eri ishchi, xotini ziyoli, eri kolxozchi, xotini ishchi va h.k.) bo'lgan. Shu bois, oilalarni ijtimoiy holatiga ko'ra 2 guruhga bo'lish mumkin.

1. Er-xotin bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar (ishchi oilalar, xizmatchi oilalar, dehqon, tadbirkor, savdogar, olimlar, san'atkor, hunarmand oilalar).

2. Er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

3. Er-xotinning ma'lumotlariga ko'ra turlari: o'rta ma'lumotli; o'rta-maxsus yordamchi maktab ma'lumoti va oliy ma'lumotga ega bo'lgan oilalar; ma'lumotsiz (savodsiz) oilalar.

4. Oilaning "yoshiga" ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3 – 5 yillik, 6 – 10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar); o'rta yoshdagi oila; yetuk oila.

5. Oilaning hududiy jihatlariga ko'ra: shahar; qishloq va aralash tipdagi oilalar.

6. Oiladagi er-xotin va boshqa oila a'zolarining tutgan o'rniga qarab: avtoritar oila (oiladagi hamma muammoni bir kishi – er yoki xotin, qaynota yoki qaynona hal etadi); demokratik oila – (oiladagi har qanday muammolarni ko'pchilik bilan kelishilgan holda hal etiladi). Hamma aralash tipdagi oilalar.

7. Er – xotinning millatiga ko'ra: bir millatli (er-xotin bir xil millatga mansub) va baynalminal (er-xotin turli millatga mansub) oilalar

8. Oilaning yuridik xususiyatiga ko'ra turlari: rasmiy oila (nikohdagi oila) va norasmiy oila (nikohga kirmagan, nikohdan tashqari).


Oilalar paydo bo'lgandan to hozirgi davrga qadar u bajarib kelgan vazifalar chuqur ilmiy tahlil etilsa, ularni asosan uch yo'nalishda ifodalash mumkin. Bu yo'nalishlar farzandlarning tug'ilishi, ularni tarbiyalash va moddiy ehtiyojini qondirishdir. Shuning uchun ham oilalar vazifalarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

- ✓ Oilaning demografik vazifasi.
- ✓ Oilaning ijtimoiy vazifasi.

✓ Oilaning iqtisodiy vazifasi.

Oilaning demografik vazifasiga – uning demografik faoliyati, ya'ni oilada farzandlarning tug'ilishi, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi – avlod yaratish kiradi.

Oilaning ijtimoiy vazifasiga – oilada farzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolotga etkazish, ularning tabiatga, jamiyatga va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi³². Oilaning iqtisodiy vazifasiga oila a'zolarini oziq – ovqat, kiyim – kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan moddiy vositalar bilan ta'minlash kiradi. Oilaning mavjudligi yashash jarayoni, uning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liqdir. Agar oila o'zining demografik vazifalarini bajarmas ekan, ya'ni oilada farzandlar tug'ilmasa, yangi oilalar bo'lmaydi, oila davom etmaydi. Oila davom etishi, yangi oilalar paydo bo'lishi uchun esa oilada tug'ilgan farzandlarni boqish, tarbiyalash, kamolga etkazish, inson sifatida shakllantirish lozim. Demak, oila o'z mavjudligini saqlab qolishi uchun o'zining barcha vazifalarini bajarishi shart.



6.1 - rasm. Oilaning vazifalari.

Oila vazifalarini bajarilishi bir-biri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Masalan, oilada farzandlarning sog' - salomat tug'ilishi ona salomatligiga, ona salomatligi va tug'ilgan farzandning sog'-salomat o'sishi esa oilaning iqtisodiy vazifasining bajarilish darajasiga, ya'ni

³² Bo'riyeva M.R. O'zbekiston oila demografiyasi. – T.: "Universitet", 1997. – b. 12.

moddiy ta'minlash darajasiga nihoyatda bog'liqdir. Oilada tug'ilgan farzandning yetuk inson bo'lib shakllanishi bolaning ta'lim tarbiyasiga, bola dunyoqarashini shakllantirilishi ya'ni oilaning ijtimoiy vazifalarini bajarilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, oilada farzandlar miqdorining oshib borishi ham oilaning iqtisodiy vazifalarini bajarilish darajasiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, oilada istiqomat qilayotgan oila a'zolarini ko'payib borishi oilaning moddiy imkoniyatini ko'tarishni, ya'ni oilaning iqtisodiy vazifasini bajarish darajasini tezlashtirishni talab etadi. Yoki oilaning ijtimoiy vazifasini olib ko'raylik. Oilada farzandga berilgan ta'lim tarbiya uning dunyoqarashining shakllanishida, hayotga, yashashga bo'lgan munosabatlarida asosiy omildir.

Farzand oila muhitida katta bo'lar ekan, uning barcha xulq atvori atrof-muhitga, oilaga bo'lgan munosabati, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandlar ko'rishi haqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota – onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandalarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi avlodning oila qurishida, yangi oilaning shakllanishida oiladagi ijtimoiy vazifalarning bajarilishi asosiy omillardan bo'lib xizmat qiladi. Oilaning mohiyati vazifalari dunyodagi barcha xalqlar uchun bir xildir, lekin uning bajarilish darajasi ana shu xalqlar yashagan, yashab kelayotgan davrdagi ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarga, turmush tarziga, ularning urf-odatları, dini, qadriyatlariga bog'liqdir.

Oilalari jamiyat mahsuli sifatida tashkil topib, rivojlanib borar ekan, uning jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatlari ham oshib boradi. Bu mas'uliyat oila zimmasiga yuqorida aytilganidek, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, ularni tarbiyalash, kamolga etkazishdek vazifalarni yuklaydi. Oila ushbu vazifalarni bajarar ekan, o'zi ham ma'lum ma'noda taraqqiy etib boradi. Oilaning taraqqiy etishini u bajarayotgan vazifalar mohiyatiga binoan uch yo'nalishda belgilash maqsadga muvofiqdir.

✓ Oilaning demografik taraqqiyoti.

- ✓ Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti.
- ✓ Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavq'ei, salomatligi borasidagi hamda ularning ta'lim - tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlarining takomillashib borishidir.

Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarib borishi, uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi. Oilaning demografik taraqqiyoti deganda, esa oilaning tashkil topishi, miqdori, demografik tarkibi va faoliyatining ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi. Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotining turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator ijtimoiy fanlarning o'rganish mavzusidir.

Demografiya oilani o'rganar ekan, asosiy e'tiborni uning avlod yaratuvchilik, jamiyatni davom ettiruvchilik faoliyatiga qaratadi. Oilaning demografik taraqqiyoti, asosan statistik ma'lumotlar yordamida o'rganiladi. Bunday ma'lumotlar esa, oilani muntazam ro'yxatga olib borish va aholi o'rtasida sotsiologo-demografik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Oila haqidagi statistik ma'lumotlar, ularning tuzilish tizimi jahondagi hamma davlatlarda ham aynan bir xil emas. U har bir davlat statistikasi uchun qayd etilgan oilaning statistik tushunchasiga va o'tkazilayotgan aholi ro'yxati dasturiga bog'liqdir. Dastur tuzishda aholining oilaviy tarkibi, oilaviy yashash turlari asos qilib olinadi. Qator iqtisodiy rivojlangan davlatlarda oiladagi farzandlar kamolot yoshiga etib oila qurgach, ular iqtisodiy jihatdan mustaqil yashaydilar va alohida oila hisoblanadilar. Ba'zi davlatlarda esa 20 yoshdan har bir yigit va qiz oila qurmasa ham, o'zi alohida oila hisoblanadi, yana boshqa davlat statistikasida turmush qurib ota-onasi oilasiga qaytib kelsa ham ularni alohida oila yoki yolg'iz yashovchilar qatorida hisoblanadi. Ba'zi hollarda qarindosh, qondosh bo'lmagan begona kishilar ham bir oila bo'lib yashaydilar.

6.2. Aholining oilaviy tarkibi va aholining oilalar bo'yicha taqsimlanishi (O'zbekiston misolida)

Ma'lumki, jamiyatda insonlar oila muhitida oila a'zosi bo'lib, turli guruhlardan guruh a'zosi bo'lib bo'lib yoki o'zlari alohida, yolg'iz holda yashaydilar. Aholining bunday guruhlarga bo'linib yashashi uning oilaviy holatini bildiradi. Aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Sobiq sovet statistikasida aholi oilaviy holati bo'yicha uch guruhga ajratilgan va aholi ro'yxati dasturiga kiritilgan:

1. Oila bilan birga oila a'zo bo'lib yashovchilar;
2. Oiladan alohida, lekin oila bilan muntazam aloqani saqlab qolgan holda yashovchilar;
3. Yolg'iz yashovchilar.

O'zbekistonda aholining oilaviy holatiga oid to'laroq statistik ma'lumotlar 1939-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlaridan mavjuddir. Ushbu ma'lumotlar ko'rsatishicha, 1939-yili O'zbekiston aholisi 93,3 foizi oila bilan birga, qolgan 6,7 foizi esa oiladan alohida yashaganlar. Agar bu ko'rsatkichlarni 1989-yil o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari bilan solishtirilsa, respublika aholisining oilaviy tarkibida katta ijobiy o'zgarishlar bo'lgani ma'lum bo'ladi. Chunki, 1939-1989-yillarda aholining oila a'zosi bo'lib oila muhitida yashovchi qismi 2 foizga ko'paydi va jami aholining 95,3 foizini tashkil etdi. Yolg'iz yashovchi aholi salmog'i esa deyarli ikki martaga kamaydi. Ana shunday ijobiy o'zgarish O'zbekistonning shahar aholisida ham, qishloq aholisida ham kuzatiladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, yolg'iz yashovchi kishilar salmog'i shahar aholisi tarkibida qishloq aholisiga qaraganda bir muncha yuqoridir.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublika shahar aholisining 91,8 foizi oilada oila a'zosi bo'lib yashasa, qolgan 8,2 foizi esa oiladan alohida, yolg'iz holda yashovchilar tashkil etgan. Buning sababi eng avvalo, shahar aholisining etnik tarkibiga bog'liqdir. 1989-yil aholi ro'yxati ma'lumotlariga qaraganda, respublika shahar aholisining 27,5 foizi rus, ukrain, belarus kabi

Yevropa millalariga mansub xalqlar tashkil etadi. Ma'lumki, rus, ukrain, belorus singari Yevropa millatlariga mansub xalqlarda, Boltiqbo'yi xalqlarida oiladan alohida yolg'iz holda yashash xollari ko'proq uchraydi. Bu albatta ushbu xalqlarning oila shakllanishidagi va rivojlanishidagi urf-odatlariga, oilada ota-ona, farzandlarga bo'lgan munosabatlariga bog'liqdir. Masalan, rus oilalarini olaylik. Oilada farzand voyaga yetib oila qurgach, asosan ota-onasidan alohida mustaqil ravishda yashashga harakat etishadi. Ko'pchilik rus oilalarida faqat 1-2 ta farzandlar bo'lgani tufayli, ota yoki ona yolg'iz qoladi. Yoki bo'lmasa farzandlar katta bo'lgach boshqa shaharlarga o'qish yoki ishlash maqsadida ota-ona uyidan butunlay ketib qolishi natijasida ham ota-ona, ota yoki ona yolg'iz qolish hollari ko'plab uchraydi. Undan tashqari, ko'plab rus oilalarida er-xotin nikohdan ajralib ketish natijasida ham yolg'iz yashovchi kishilar salmog'i yuqoridir.

1989-yil o'tkazilgan aholi ro'yxati ko'rsatishicha, Latviyada aholining 84,8 foizi oilada oila a'zosi bo'lib qolgan 15,2 foizi, alohida yolg'iz holda yashaydi. Bu ko'rsatkich Estoniyada – 83,2 foizni, 16,8 foizni, Ukrainada- 87,3 foizni, 12,7 foizni, Belorussiyada – 87,1 foizni, 12,9 foizni, Moldova- 88,9 foizni, 11,1 foizni, Gruziyada- 87,4 foizni, 12,6 foizni, O'rta Osiyo respublikalarida esa 95 va 5 foizni tashkil etgan. Buning sababi asosan O'rta Osiyo xalqlarida, jumladan, o'zbek xalqida oila mustahkamligiga, uning muqaddasligiga omil bo'layotgan ota-onalar bilan farzandlarni, qarindosh-urug'larni bog'lab turuvchi qadriyatlarining ko'proq saqlanib qolganligidir.

Aholining oilaviy tarkibi deganda, oila a'zosi bo'lib yashovchi aholining oila turlari bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi³³. Aholining oilaviy tarkibini ifodalovchi ana shunday ko'rsatkichlardan biri aholining oila kattaliklari, ya'ni oilada yashovchi kishilar miqdoriga qarab taqsimlanishidir. Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda 1959-1979-yillarda 7-10 va undan ortiq kishilar yashovchi- katta oilalarda istiqomat etuvchi aholi salmog'i ortib borgan. Ular 1959-yili Respublikadagi jami oilalarda

³³ Демографический энциклопедический словарь. – М., 1985 г. 394-395 бетлар; Население мира. М., 1989 г. 159-160 бетлар.

yashovchi aholining 28,7 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1970-yili bu ko'rsatkich 47,2, 1979-yili esa- 51,7 foizni tashkil etdi. Ushbu davrda katta oilalarda yashovchi aholi salmog'ining ortib borishining sababi, O'zbekistonda urushdan keyingi davrda aholi o'limining, ayniqsa, bolalar o'limining keskin qisqarishi natijasida, 5-6 va undan ortiq bolali oilalarning ko'payib borishidir.

6.1-jadval

O'zbekiston aholisining oilaviy holati (foiz hisobida)

	1939	1959	1970	1979	1989
	y	y	y	y	y
<i>Jami aholi</i>	100	100	100	100	100
Jumladan: Oila bilan birga yashovchi oila a'zolari	93,3	95,1	95,8	94,3	95,3
Oiladan alohida yashovchi oila a'zolari	4,4	2,7	1,9	4,1	3,4
Yolg'iz yashovchilar	2,3	2,2	2,3	1,6	1,3
<i>Shahar aholisi</i>	100	100	100	100	100
Jumladan: Oila bilan birga yashovchi oila a'zolari	85,7	91,0	91,6	90,0	91,8
Oiladan alohida yashovchi oila a'zolari	9,6	4,9	3,8	7,3	5,7
<i>Oishloq aholisi</i>	100	100	100	100	100
Jumladan: Oila bilan birga yashovchi oila a'zolari	95,5	97,1	98,2	97,1	97,6
Oiladan alohida yashovchi oila a'zolari	2,9	1,6	0,8	2,0	1,9
Yolg'iz yashovchilar	1,6	1,3	1,0	0,9	0,5

*Jadval 1939, 1959, 1959, 1970, 1979 va 1989-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuni alohida aytish kerakki, 1979-1989-yillarda, ya'ni keyingi 10-15 yil mobaynida, O'zbekistonda katta oilalarda yashovchi aholi

salmog'i 2,8 foizga kamaygan va 48,9 foizni tashkil etgan. Bu bir tomondan, o'zbek oilalarida tug'ilishning kamayib borish jarayoni natijasida ko'p bolali oilalar miqdorining keskin qisqarishi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ko'plab yosh oilalarning paydo bo'lishi va ularning jami oilalardagi salmog'ining ortib borishi bilan bog'liqdir.

O'zbekiston aholisining deyarli yarmi katta oilalarda istiqomat etishadi. Buning asosiy 2 ta sabablari mavjuddir. Ularning bir o'zbek oilalarida tug'ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib kelayotganligi natijasida, ko'p bolali oilalar salmog'ining yuqoriligi bo'lsa, ikkinchisi esa ikki va undan ortiq oddiy oilalar bilan birga yashovchi - murakkab oilalarning ko'p uchrashidir. Bunday hollar, ayniqsa, qishloq sharoitida yashovchi oilalarda ko'proq uchraydi. 1989-yil ma'lumotiga qaraganda, shahar aholisining 34,4 foizi katta oilalarda yashagan bo'lsa, qishloq aholisining esa 58,8 foizi katta oilalarda istiqomat etishgan.

6.2-jadval

Aholining turli kattalikdagi oilalar bo'yicha taqsimlanishi
(foiz hisobida)*

Yillar	Oila bilan birga yashovchi aholi	Jumladan, turli kattalikdagi oilalarda:								
		2 kishi-lik oila	3 kishi-lik oila	4 kishi-lik oila	5 kishi-lik oila	6 kishi-lik oila	7 kishi-lik oila	8 kishi-lik oila	9 kishi-lik oila	10 va undan ortiq
jami aholi										
1959	100	7,2	12,5	16,8	18,1	16,7	11,3	7,3	4,4	5,7
1970	100	4,9	8,5	12,0	13,0	14,4	13,7	12,7	9,4	11,4
1979	100	4,9	7,8	11,9	11,5	12,2	11,9	11,8	9,5	18,5
1989	100	4,3	6,8	12,1	13,5	14,4	13,0	10,5	7,6	17,8
shahar aholisi										
1959	100	10,8	16,9	20,1	17,8	13,6	8,8	5,3	3,1	3,6
1970	100	7,9	13,8	18,9	15,7	12,8	9,6	8,0	5,7	7,6
1979	100	7,8	12,7	18,6	13,9	12,1	9,4	8,3	5,8	11,4
1989	100	7,7	11,3	18,0	15,5	13,1	9,6	7,1	4,7	13,0

qishloq aholisi										
1959	100	5,5	10,5	15,2	18,2	18,1	12,6	8,3	5,0	6,6
1970	100	3,4	5,7	8,3	11,5	15,2	15,9	15,3	11,4	13,3
1979	100	3,2	5,0	8,0	10,4	13,0	14,1	14,6	12,5	19,2
1989	100	2,1	4,0	8,2	12,1	15,1	15,1	12,7	9,4	21,3

Jadval quyidagi statistik yilnomalar ma'lumotlari asosida hisoblangan: "Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 г." М., 1962 г. стр. 1959-161; "Итоги Всесоюзной переписи населения 1970 г." М., 1974 г. VII том., стр. 226-227; "Итоги Всесоюзной переписи населения 1989 г." Ташкент, 1991 г. Часть V, стр. 4-7.

Bu hol qishloq aholisida shahar aholisiga nisbatan tug'ilishning yuqori darajada ekanligi hamda murakkab oilalarni qo'llab-quvvatlovchi qadriyatlarining kuchliroq saqlanib qolganligi bilan bog'liqdir. Masalan, 1979-1989-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlari bo'yicha O'zbekistonda murakkab oilalarda yashovchi aholi miqdori ortib borgan va shahar aholisining 12,1 foizini, qishloq aholisining esa 17 foizini tashkil etgan.

O'zbekistonda aholi oilaviy tarkibining o'ziga xos xususiyatlaridan biri murakkab oilalarda yashovchi aholi salmog'ining o'sib borayotganligidir. Bu jarayon, ayniqsa, respublikaning qishloq joylarida istiqomat etuvchi aholi tarkibida yuqori darajadadir. Respublikada aholining 3-10 foizi tugalmas oilalarda istiqomat etishadi. Bu ko'rsatkich boshqa Yevropa davlatlariga nisbatan ancha kam hisoblanadi. Lekin shahar aholisi tarkibida tugalmas oilalarda yashovchi kishilar salmog'i 1979-1989-yillarda bir muncha oshgan. Bu jarayonga shahar aholisida er-xotin ajralib ketish hollari, kattalar ichida o'lim ko'rsatkichlarining yuqoriligi bilan izohlanadi.

Aholining oilaviy tarkibini ifodalovchi ko'rsatkichlardan yana biri, ularning turli ijtimoiy guruhga mansub oilalar bo'yicha taqsimlanishidir.

1. Er-xotin bolalari bilan yoki bolalarisiz yashaydigan oilalar.

2. Ikki yoki undan ortiq oddiy oila (juft nikohlar) bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining bittasi (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan birga (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar.

3. Ota bolalari bilan, ona bolalari va ota-onalarning biri bilan yashovchi oilalar.

4. Er-xotin bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan birga (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar.

6.3-jadval

Aholining oila ijtimoiy turlari bo'yicha taqsimlanishi
(foiz hisobida)

Yillar	Oila bilan birga yashovchi jami aholi	Jumladan:			
		oddiy oilalarda ¹	murakkab oilalarda ²	tugalmas oilalarda ³	boshqa oilalarda ⁴
jami aholi					
1979	100	61,5	10,3	6,6	21,6
1989	100	57,8	15,0	6,2	21,0
shahar aholisi					
1979	100	59,9	9,0	8,9	22,2
1989	100	57,0	12,1	9,3	21,6
qishloq aholisi					
1979	100	62,7	11,2	4,8	21,3
1989	100	58,5	17,0	3,7	20,8

Manba: "Итоги Всесоюзной переписи населения 1979 г.".- М., 1974 г. VII том., стр. 226-227; "Итоги Всесоюзной переписи населения 1989 г.".- Ташкент, 1991 г. Часть V, стр. 4-7.

1989-yil aholi ro'yxati ma'lumotlari ko'rsatishicha, respublika aholisining 50,5 foizi oila a'zolari turli ijtimoiy guruhga mansub bo'lgan oilalarda, 49,5 foizi esa oila a'zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalarda istiqomat etishar ekan. Ulardan 25,2 foizini ishchi oilalarida, 8,3 foizini xizmatchi va 10,7 foizi kolxozchi oilalarda yashovchi kishilar tashkil etadi. Shunday qilib, O'zbekiston

aholisining oilaviy tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega ekan. Bu o'ziga xoslik, avvalo, o'lka aholisining asosiy qismi oila muhitida, oila a'zosi bo'lib yashashida, oiladan alohida, yolg'iz yashovchi aholi salmog'i nisbatan kamligida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga aholining yarmidan ko'pi 7-10 va undan ko'p kishilar yashovchi katta oilalarda hamda ishchi va kolxozchi oilalarida istiqomat yetishadi.

Shuni atish kerakki, keyingi 5-6 yilda, ayniqsa, O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti davridan boshlab yuz bergan qator iqtisodiy, ijtimoiy o'zgarishlar aholining oilaviy tarkibiga ta'sirini ko'rsatishi tabiiydir. Jumladan, bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan tijorat ishlarida band bo'lgan oilalar, fermer oilalar salmog'i ortib bormoqda. Bunday o'zgarishlar respublikada yangi aholi ro'yxati o'tkazish va aholining oilaviy tarkibida, shu bilan birga oila tarkibida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni o'rganish zarurligini taqozo etadi.

Umuman, yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, dunyodagi barcha davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda aholining asosiy qismini oila muhitida- oila a'zosi bo'lib yashovchilar tashkil etadi. Shuning uchun ham oilani atroflicha o'rganish va uning kelajak istiqbolini belgilash jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga egadir.

6.3. Aholining uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishi

Jahon statistikasida "Oila" tushunchasi bilan birga "uy xo'jaligi" tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar uy xo'jaliklari bo'yicha to'planadi. "Uy xo'jaligi" birga xo'jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni birlashtiruvchi ijtimoiy - iqtisodiy yacheykadir³⁴. Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq qilib, unda faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilargina emas balki, ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar ham, alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kiritiladi.

³⁴ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985 г, с 127.

Uy xo'jaligi tushunchasi hamma davlatlarda ham bir xil emas. U har bir davlatning ijtimoiy - iqtisodiy sharoitiga, unda istiqomat etuvchi xalqning turmush tarziga, urf-odatlariga bog'liqdir. Ba'zi davlatlarda uy xo'jaligi uchun kishilarning birga yashashi asos qilib olinsa, boshqa bir davlatda esa ularning birga ovqat tayyorlashi, birga ovqatlanishi asos qilib olingan. Uy xo'jaligi ikki turga bo'linadi: shaxsiy va jamoa xo'jaligi. Shaxsiy uy xo'jaligida bir uyda yashovchi, birga xo'jalik yurituvchi va o'zlariga o'zlari ovqat tayyorlovchi kishilar guruhi kiradi.

Bunday guruhlarda bir uyda, yoki bir nechta uyda yashovchi yoki uyi bo'lmagan kishilar ham yashashlari mumkin. Bunday uy xo'jaligida, bir uyda yashovchi ota - ona, bola, qarindoshlardan tashqari ikki yoki undan ortiq bir xo'jalikda yashovchi, lekin qarindosh bo'lmagan yolg'iz kishilar, xizmatkorlari bilan yashovchi yolg'iz ayol yoki erkaklar ham kiradi. Qarindosh bo'lmagan ikki yoki undan ko'p kishilar yashovchi shaxsiy uy xo'jaligi 1980-1985-yillarda AQSH dagi uy xo'jaliklarining 15 % ga yaqinini, Kanadada - 5,6 %, Yangi Zelandiyada - 7,5 %, Belgiyada - 3,6 % va Yaponiyada - 0,2 % ni tashkil etgan³⁵. Jamoa xo'jaliklariga bolalar, qariyalar, nogironlar uylari, qamoqxonalar, kazarmalar, surunkali kasallar yashovchi kasalxonalar va shunga o'xshash muassasalar kiradi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, juda ko'p davlatlarda uy xo'jaligining asosiy qismini nikoh va qon - qarindoshlik asosida tashkil topgan oilalar tashkil etadi. Bunday uy xo'jaligi fanda "Oilaviy uy xo'jaligi" deyiladi. Demografiya ana shu oilaviy uy xo'jaligini, aniqrog'i - oilani o'rganadi.

³⁵ Население мира. Демографический справочник. - М., 1989., с. 160.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Oila tushunchasiga ta'rif bering.
2. Oila qanday fanlarning o'rganish obyekti sanaladi?
3. Oilaning jamiyatdagi o'rnini qanday baholaysiz?
4. Oilaning qanday turlari mavjud?
5. Oilaning vazifalari nimalardan iborat?
6. Oilaning demografik xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Uy xo'jaligi va uning turlari qanday?
8. Aholi ro'yxati ma'lumotlari asosida O'zbekistonda oilaning ijtimoiy demografik turlari jadvalini tuzing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b
3. O'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 yil 30 aprel, № 607-1
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
5. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т., 2009. – 223 с.
6. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T .: “Tafakkur” 2011. – 160 b.

7. Bo‘riyeva M.R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.: “Universitet”, 1997. – 157b.

8. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

9. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.

10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2010. – 276 b.

GLOSSARIY

Ajralish — avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir.

Aholining jins tarkibi — aholining erkak va ayollarga tahsmlanishidir.

Aholi tarkibi — bu aholining muayyan bir alomatlariga ko‘ra tahsmlanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda handaydir o‘zgaruvchilarga asoslangan tahsimotdir. Masalan, aholining yosh tarkibi, jins tarkibi.

Mayl — bu subyektning qandaydir obyektga nisbatan ma’lum bir faollik va harakat qilishiga moyilligi, tayyorligidir; reproduktiv mayl xulq-atvorning ruhiy regulyatori, turli harakatlarning muvofiqiligini, ma’lum miqdordagi bolalarning tug‘ilishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni belgilab beruvchi shaxsning moyilligidir.

Nikoh — ayol va erkak o‘rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikoh insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an’anaga binoan nikoh yoshiga yetgan, lekin hali nikohdan o‘tmagan insonlar (erkak va ayol) o‘rtasida tuziladi.

Oila — fiziologik-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishning nikoh asosida tartibga solinadigan tizimi boʻlib, bir-biri bilan ijtimoiy-ruhiy jihatdan qarindosh-urugʻchilik munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mulkiy munosabatlar uygʻunligida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar birikuvidir.

VII BOB. AHOLINING TAKROR BARPO BO'LISHI

7.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar

7.2. Aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi ko'rsatkichlari

7.3. Demografik o'tish konsepsiyasi

7.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, inson avlodining muntazam yangilanib turishidir. Inson dunyoga kelib yashaydi, balog'at yoshiga etib, farzand ko'radi, nasl qoldiradi. Bu uzviy jarayon tufayli, jamiyatda avlodlar almashadi, aholi takror va takror barpo bo'laveradi. Aholining takror barpo bo'lishi jamiyatning mavjudligini, aholi sonini o'sib borishini ta'minlovchi jarayondir. Lekin, u bevosita ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda sodir bo'ladi.

Insonlar o'z hayotlari davomida boshqa insonlarni dunyoga kelishiga omil bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni ijtimoiy muhit uchun ham muhim omil sanaladi. Ayni vaqtda, insonlar o'z hayotlari uchun zarur narsalarni (oziq-ovqat, turar-joy va kiyim-kechak va h.k.) yaratib, ishlab chiqarishni rivojlantiradilar. Bu jarayonda insonning bilim, ilm darajasi, malakasi, hayotga, uzoq umr ko'rishga bo'lgan intilishi, harakati kuchayib boradi. Demak, dunyoga kelgan inson jamiyatda yashashi bilan uning sifatiiy xususiyatlari ham rivojlanadi.

Mutaxassislar aholi takror barpo bo'lishini aholining uch asosiy: tabiiy, hududiy (migratsiya) va sotsial harakatlari yig'indisi sifatida tahlil etadilar. Aholining takror barpo bo'lishida uning tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish va o'lim asosiy omil hisoblanadi. Tug'ilish-

ning yuqori bo'lishi aholi takror barpo bo'lishi jarayonini kuchaytiradi va aholi sonini ko'payib borishiga olib keladi. Avlodlarning almashinuvi, ularning uzoq yashashi esa o'lim jarayoniga bog'liqdir. O'z navbatida, inson hayotida o'limning sodir bo'lishi qator endogen va ekzogen omillar hamda jamiyatdagi sotsial muhit bilan bog'liqdir. Inson hamisha uzoq umr ko'rishga intiladi. Har bir jamiyatda insonning uzoq umr ko'rish, avlodlar salomatligi uchun ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratiladi. Natijada, insonlarning uzoq umr ko'rishiga: o'lim hollarini esa sotsial chora - tadbirlar bilan boshqarishga erishiladi.

Avlodlarni uzoq-umr ko'rish, tashqi muhit bilan uzoq muloqotda bo'lishi uning demografik mayliga ham ta'sir ko'rsatadi. Aholi tez sur'at bilan kamayib borishida ham asosiy omil bo'ladi. Oqibatda, avlodlar o'rtasida tug'ilishni, ya'ni, nasl qoldirishni boshqarish hollari keng tarqala boshlaydi. Demak, aholining takror barpo bo'lishi, uning tabiiy harakatiga bog'liq. Aholi tabiiy harakati esa, o'z navbatida, sotsial muhit ta'sirida o'zgarib boradi.

Ma'lum hudud va davlat aholisining takror barpo bo'lishida aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ya'ni hududiy harakati ham ahamiyatlidir. Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, aholi takror barpo bo'lishining asosi bo'lgan tug'ilish, shahar turmush tarzi ta'sirida kamayib borgan. Aksincha, qishoq turmush tarzi ta'siri tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishga olib kelgan. Aholining shahardan qishloqqa yoki qishloqdan shaharga kelib yashashi bevosita, uning reproduktiv mayliga ta'sir etib, tug'ilishni kamayishi yoki ko'tarilishiga olib keladi. Xuddi shunday aholining sotsial harakati uning ma'lumotlilik darajasini oshib borishi, ilm - malaka talab etgan xizmat doirasida faoliyat ko'rsatishi, tibbiy bilimlardan ko'proq xabardor bo'lishi, uning uzoq umr ko'rishiga, nasl qoldirish-farzandlar ko'rishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Insoniyatning paydo bo'lishi va jamiyatning rivojlanishi davomida aholi takror barpo bo'lishini boshqarish tizimida katta o'zgarishlar kuzatilgan. Aholining takror barpo bo'lishi, tug'ilish va

o‘lim jarayonlarini boshqarish orqali ma‘lum maqsadga yo‘naltiliriladi. Aholining tabiiy harakati, aholi tabiiy o‘sishi ko‘rsatkichlari orqali ifodalanadi. Aholi tabiiy o‘shining absolyut va nisbiy ko‘rsatkichlari mavjuddir. Aholi tabiiy o‘shining absolyut ko‘rsatkichi tug‘ilganlar va o‘lganlar sonidagi farqda ifodalanadi:

$$\Delta K_{\text{tab. o'sish}} = N - M,$$

bunda

N – ma‘lum davrdagi tug‘ilganlar soni;

M – ma‘lum davrdagi o‘lganlar soni. Masalan, O‘zbekiston Respublikasida aholi tabiiy o‘shini 2007-yil uchun yuqorida keltrilgan formula yordamida aniqlaymiz.

N_{2007} - 608,9 ming.

M_{2007} - 137,4 ming.

$\Delta P_{2007} = 608,9 - 137,4 = 471,5$ ming.

Demak, O‘zbekiston aholisi 2007 yilda tabiiy harakat asosida 471,5 mingga ko‘paygan. Aholining absolyut, ya‘ni mutloq tabiiy o‘shini 471,5 ming kishini tashkil etgan. Aholi tabiiy o‘shini dunyo hududlari, davlatlar, alohida viloyat, tumanlar bo‘yicha taqqoslashda uning nisbiy ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Absolyut ko‘rsatkich asosida, hududlarni taqqoslab bo‘lmaydi, Chunki har bir hudud aholisining soni turlicha bo‘lib, ulardagi tug‘ilganlar, o‘lganlar soni ham aholi umumiy soniga bog‘liq bo‘ladi. Aholi tabiiy o‘shining nisbiy ko‘rsatkichi aholi tabiiy o‘sh koefitsiyenti (K) orqali aniqlanadi.

$$K_{\text{tab. o'sish}} = \frac{\Delta P_{\text{tab. o'sish}}}{PT}$$

$\Delta K_{\text{tab. o'sish}}$ – aholi tabiiy o‘shining absolyut miqdoridagi ifodasi.

\bar{P} – ma‘lum davrdagi aholinig o‘rtacha soni¹.

T – davr, sana ifodasi. Mazkur formula yordamida O‘zbekistonda 2007-yilda aholi tabiiy o‘shini koefitsiyentini aniqlaymiz. 2007-yil O‘zbekistonda aholini tabiiy o‘shini ($\Delta P_{\text{tab. o'sish}}$) 471,5 ming kishini, aholining o‘rtacha soni esa (P_{2007}) 26867 ming kishini tashkil etgan.

¹ O‘rtacha aholi sonini aniqlashda o‘rganilayotgan yil va keyingi yil aholisi qo‘shilib ikkiga bo‘linadi. $\bar{P}_{2007} =$

$$K_{2007} = \frac{471,5}{26867} \times 1000 = 17,5 \text{ yoki}$$

$$K_{2007} = 17,5 \text{ ‰}^2$$

Demak, 2007-yil O‘zbekistonda har 1000 kishi hisobiga tabiiy o‘shish koeffitsiyenti 17,5 kishiga teng bo‘lgan. Jamiyatda avlodlar almashinadi, aholi takror barpo bo‘ladi, natijada aholi soni o‘sadi. Aholining takror barpo bo‘lishi har bir hudud tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhiti ta‘sirida ro‘y beradi va taraqqiy etadi. Shu boisdan aholi takror barpo bo‘lish ko‘rsatkichlari turli mamlakatlarda, turli vaqtlarda bir-biridan farqlandi. Bu farqlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda aholi takror barpo bo‘lishini ifodalovchi maxsus ko‘rsatkichlardan foydalanildi. Biologik hodisa hisoblanmish, tug‘ilish va o‘lim asosiy aholi takror barpo bo‘lishidagi ko‘rsatkich ekanligini aytib o‘tgandik. Bu ko‘rsatkich, miqdoriy jihatdan 1000 kishiga hisoblanadi va promilleda ifodalanadi.

Aholi takror barpo bo‘lishiga ko‘plab omillar ta‘sir ko‘rsatadi. Bular quyidagilar:

1. Tabiiy-biologik;
2. Ijtimoiy-iqtisodiy;
3. Ijtimoiy-madaniy;
4. Psixologik;
5. Demografik.

Tabiiy-biologik omil aholi takror barpo bo‘lishida muhim omillardan biri. Yer yuzi aholisi turli tabiiy sharoitda yashaydi, tug‘iladi va o‘ladi. Insonning tug‘ilishi va o‘lishi biologik hodisa ekan, u, tabiiy sharoit bilan uzviy bog‘liqlikdadir.

Jamiyat davomiyligini ta‘minlovchi inson ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy va psixologik omillar ta‘sirida shakllanadi va rivojlanadi. Aholi tabiiy o‘shishi uning jinsiy, yosh tarkibi, nikoh va ajralish jarayonlari ham muhim hisoblanadi. Bularning barchasi demografik omillar sirasiga kiradi. Ma‘lumki, tug‘ilish qanchalik ko‘p bo‘lsa, aholi soni o‘shib boradi, aholi tarkibida bolalar va yoshlar

²Demografik jarayonlarni 1000 aholiga nisbatan aniqlaganda olingan natija yoniga quyidagi belgi – “‰” qo‘yiladi yoki “promille” so‘zi yoziladi. “Promille” – mingdan biri degan ma‘noni anglatadi.

miqdori oshadi yoki aksincha, tug'ilish kamaysa, jinsiy tarkibdagi buzilishlar ro'y bersa, aholi yosh tarkibida qariyalar miqdori oshadi va hokazo. Yuqoridagi omillar aholi takror barpo bo'lishiga bir xil ta'sir etmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy omil aholi tabiiy harakatida muhim rol o'ynaydi. Aholining yashash sharoiti, sog'liqni saqlashning ahvoli, ayollarning jamiyatdagi o'rni, aholining madaniy va ma'lumotlilik darajasi va boshqalar aholi tabiiy harakati darajasini belgilab beradi. Ushbu omillarning tug'ilish va o'limga ta'siri qarama-qarshi ham bo'lishi mumkin. Aholining yashash sharoiti, moddiy ahvoli yaxshilanishi, tibbiy xizmat kabi sohalarning rivojlanishi, o'lim ko'rsatkichini pasaytiradi, aholi o'rtacha umr ko'rish darajasi uzaytiradi. Natijada, aholi tarkibida qariyalar salmog'i ko'payadi va o'z-o'zidan o'lim ko'rsatkichi osha boshlaydi.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda aholining takror barpo bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, rivojlanayotgan yoki iqtisodiy nochor davlatlardagi aholi o'rtasida erta oila qurish, ko'p farzandlilik, ayollar ahvolini yaxshi himoyalannaganligi, ma'lumotlilik darajasining pastligi, sog'liqni saqlash tizimining yetarli yo'lga qo'yilmaganligi, tug'ilishning juda yuqori bo'lishiga, o'lim darajasining, ayniqsa, bolalar va ayollar o'limining ko'pligiga sabab bo'ladi. Mazkur sanab o'tilgan ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida aholining tabiiy harakatini o'rta yoki past, avlodlar almashinishini juda tez, deb baholashimiz mumkin.

Ijtimoiy-madaniy, psixologik omillar ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan birgalikda aholi takror barpo bo'lishiga ta'sir etadi. Aholining turmush darajasi baland, madaniy saviyasi yuqori bo'lgan, aksariyat, rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish darajasining pastligini ko'ramiz. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi eng balandni tashkil etadi. Angliyalik iqtisodchi Semyuel Leng "agar hamma etarli, qulay, yaxshi sharoitda yashaganda edi, hozir dunyo odamsiz qolgan bo'lur edi" deydi. Bundan aholining moddiy ahvoli, ma'naviy turmushi yuksalib borar ekan, o'z navbatida, inson psixologik nuqtai-nazardan ko'p farzand ko'rishni

istaydi, degan fikr tug'iladi. B.S. Urlanis "Moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan oilalarning farzandlari kam sonlidir" deb iqtisodiy omilning demografik omilga ko'rsatayotgan ta'sirini ifodalab beradi. Shuningdek, u moddiy omil bilan ma'naviy omilning avlodlar almashinuviga hamisha bir xil yo'nalishda ta'sir etmasligini ham aytib o'tadi³⁶.

Aholi takror barpo bo'lishida muhim hisoblangan omillarni o'rganar ekanmiz, mintaqalar doirasida aholi takror barpo bo'lishining bir-biridan farq qiluvchi tiplarini kuzatamiz.

Birinchi tip – bu guruhga kiruvchi davlatlarda yashovchi aholi o'z-o'zini qayta tiklamaydi. O'lib ketayotganlar mutloq miqdori hayotga yangi kelayotganlar miqdoridan ortiq. Mazkur guruh davlatlarini "*depopulyasiya*" davlatlari, deb ham atash mumkin. Bularga Yevropa, Boltiqbo'yi davlatlari, Shimoliy Amerikadagi ma'lum bir davlatlarni, Yaponiya, Gruziya, Armaniston, Rossiyaning kiritish mumkin.

Ikkinchi tip – aholining umumiy soni oshmaydi, bu tipdagi davlatlar aholisida tug'ilish bilan o'lim ko'rsatkichi deyarli teng. Aholi soni haddan tashqari ko'payib yoki kamayib ketmaydi. Aholining ma'lum bir miqdori ushlanib turadi. Ushbu tipdagi davlatlar aholi takror barpo bo'lishining oddiy tipiga kiruvchi davlatlar, deb ham ataladi.

Uchinchi tip – davlatlariga tug'ilish miqdori, hayotdan o'tib ketayotganlar miqdoridan ancha katta ko'rsatkichga ega. Aholi tarkibida progressiv yosh tarkibidagilar soni o'sib boradi. Keksa va qariyalar salmog'i kam sonli, bolalar, yoshlar ko'pchilikni tashkil etgan holda, aholi takror barpo bo'lishi ijobiy baholanadi. Aholi takror barpo bo'lishining kengaygan, deb ataluvchi tipiga Afrikaning barcha davlatlari, Xorijiy Osiyo, Janubiy Amerikaning qator davlatlari, Avstraliya va Okeaniya, O'rta Osiyo davlatlarini kiritish mumkin. Mazkur davlatlarga tug'ilish miqdorining ko'pligiga qator omillar sabab bo'lib, u o'z navbatida, bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy

³⁶ Z.N. Tojiyeva. O'zbekiston Respublikasi demografik jarayonlari va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. T., 2017. B. 34.

muammolarni keltirib chiqaradi. Tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari orasidagi katta farqlar aholi takror barpo bo‘lishi ko‘rsatkichlarining bir-biridan keskin ajralishlariga sabab bo‘ladi. Aholi takror barpo bo‘lishining asosiy jarayonlari bo‘lgan tug‘ilish va o‘lim darajasidagi o‘zgarishlar aholi takror barpo bo‘lishida ham sezilmasdan qolmaydi. Natijada, aholi takror barpo bo‘lishida bir turdan, ikkinchi turga o‘tish boshlanadi. Buni fanda “*demografik o‘tish*”, deb nomlanadi.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, aholi takror barpo bo‘lishining dastlabki davrlarida tug‘ilish ham o‘lim ham yuqori bo‘lgan, natijada, tabiiy o‘stish juda past ko‘rsatkichni tashkil etgan. Ikkinchi davri XIX asrlarga borib taqaladi. Bunda tug‘ilish yuqori, o‘lim birmuncha me‘yoriy holatda bo‘lib, aholi tabiiy o‘stishi oldingiga nisbatan baland bo‘lgan.

Aholi takror barpo bo‘lishining kengaygan yana bir uchinchi yangi tipida o‘lim o‘zining eng past ko‘rsatkichiga ega bo‘ladi, tug‘ilish yuqoriligicha saqlanib turadi. Natijada, aholining tezlik bilan o‘stishi kuzatiladi. Rivojlanayotgan davlatlarda kuzatilgan, bu vaziyat 1950-1970-yillarga to‘g‘ri keladi. Xuddi shu 1950-70-yillarda aholi o‘stishi uning geografik joylashuvida ham aks etadi. Yer yuzining barcha mamlakatlarida aholining ko‘payishida o‘stish qayd etildi.

Navbatdagi tipda tug‘ilish ham o‘lim singari kamaya boradi, aholi tarkibida keksalar salmog‘i oshadi. Yuqorida misol qilib keltirilgan Yevropa davlatlari uchun aholi takror barpo bo‘lishining aynan shu oddiy tipi xos. Bu tipdgi davlatlarda aholi o‘rtacha umr ko‘rish yoshi uzayadi, biroq o‘lim borgan sari oshib boradi. Oqibatda, tug‘ilish bilan o‘lim tenglashib, tabiiy ko‘payish jarayoni manfiy tus oladi. Hozirgi vaqtda yer yuzidagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar aholisi takror barpo bo‘lishi bir-biridan keskin farq qilmoqda. Bu esa aholi takror barpo bo‘lishini yirik ikki turga ajratishni zarurligini ko‘rsatmoqda. Qolganlari shu ikkalasi o‘rtasidagi oraliq tur sifatida xizmat qildi.

Insoniyat jamiyati tarixida aholi takror barpo bo‘lishida ma‘lum o‘zgarishlar sodir bo‘lgan va bo‘lmoqda, oqibatda, hozirgi davrda

dunyo aholisining takror barpo etishining quyidagi tiplari paydo bo'ldi:

1) arxetip, 2) an'anaviy 3) zamonaviy.

Arxetipga xos aholining tabiiy o'sishi insoniyatni demografik rivojlanishida uzoq davom etgan davri bo'lib, aholining yuqori darajadagi tug'ilishi yuqori darajadagi o'limi ko'rsatkichlari bilan kuzatiladi. Bunday, tabiiy o'sish hozirgi davrda Afrikaning ko'pgina qoloq mamlakatlariga xos. Turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda aholining takror barpo bo'lishining turli ko'rinishlari mavjud. Jumladan, rivojlanayotgan yoki iqtisodiy nochor davlatlardagi aholi o'rtasida erta oila qurish, ko'p farzandlilik, ayollar ahvolini yaxshi himoyalanganligi, ma'lumotlilik darajasining pastligi, sog'liqni saqlash tizimining yetarli yo'lga qo'yilmaganligi tug'ilishning juda yuqori bo'lishiga, o'lim darajasining, ayniqsa, bolalar va ayollar o'limining ko'pligiga sabab bo'ladi. Aholining turmush darajasi baland, madaniy saviyasi yuqori bo'lgan aksariyat, rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishida tug'ilish darajasining pastligini ko'ramiz. O'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi eng balandni tashkil etadi.

Tadqiqotlardan rivojlanayotgan davlatlarda ham tug'ilish borgan sari kamayayotganligi, o'lim ko'rsatkichini pasaytirishga urinishlar, keyinchalik kengaygan aholi takror barpo bo'lishi o'rnini, oddiy ko'rinishdagisi egallashidan dalolat beradi.

7.2. Aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi ko'rsatkichlari

Aholi takror barpo bo'lish jarayonini tavsiflashda rus olimi V.I. Pokrovskiy, Amerikalik olim R. Pirlning "Hayotiylik koeffitsiyenti³⁷" dan foydalaniladi. Bunda Pokrovskiy-Pirl hayotiylik koeffitsiyenti, $K > 1,0$ dan katta bo'lsa, mamlakat aholisida tabiiy ko'payish ustunligini va aholi soni oshib borishidan dalolat beradi.

Aholining takror barpo bo'lishi va uning hududiy tafovutlarini yanada yaqqol ifodalashda alohida ko'rsatkichlardan foydalanish

³⁷ Статистика населения с основами демографии. Учебник/ Г.С.Кильдишев, Л.Л. Козлова, С.П.Ананьева и др. -М.: Финансы и статистика, 1990. С.248.

maqsadga muvofiqdir. Ushbu ko'rsatkichlar tug'ilishning maxsus va yig'indi koeffitsiyentlari hamda brutto va netto-koeffitsiyentlari bo'lib, ular aholi takror barpo bo'lishini to'loqonli ochib berishga xizmat qiladi. Jumladan, M.Bo'rieva "Agar tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti 2,15 dan kichik bo'lsa, aholi juda sekin o'sib boradi, aholi tarkibida bolalarga nisbatan qariyalar salmog'i yuqori bo'lib, aholining demografik qarish jarayoni yuz beradi. Bu ko'rsatkich 2,15-4,15 bo'lsa tug'ilish darajasi normal hisoblanadi"³⁸ – deb ko'rsatadi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti. Har bir ayolning reproduktiv, ya'ni farzand ko'rish davrida (15-49 yosh) o'rganilayotgan davrdagi tug'ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz farzand ko'rishini mumkinligini aniqlab beradi. Ushbu koeffitsiyent quyidagi formula orqali ifodalanadi.³⁹

$$R = \delta \sum_{15}^{49} f_x$$

R – aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti ifodasi

δ – tug'ilganlarning umumiy sonida qiz bolalar salmog'i (0,488)

$\delta \sum_{15}^{49} f_x$ – ayollar yosh guruhlar bo'yicha tug'ilish koeffitsiyenti yig'indisi.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyentida o'lim hisobga olinmaydi.

Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti. Bu koeffitsiyent, aholi takror barpo bo'lishining sof koeffitsiyenti bo'lib, u avlodlar almashinuv darajasini aniq ifodalaydi, Chunki bu ko'rsatkichda tug'ilgan qiz bolalarni onasini yoshiga etgunga qadar yashab borganlari hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyentida o'lim ehtimoli hisobga olinadi va netto koeffitsiyenti formulasi quyidagicha ifodalanadi.

$$R_o = RL_x$$

R_o – netto koeffitsiyenti ifodasi.

³⁸ Qishloq joylar demografiyasi/. Soliyev A.S. va boshqalar. – T., 2005.B.33.

³⁹Nemis statistic demografi R. Kuchinskiy tomonidan qo'llanilgan.

R – brutto koefitsiyent.

L_x – ona yoshigacha yashagan qizlar. Agar $R_0 > 1$ aholi soni muntazam ko'payib boradi, $R_0 < 1$ bo'lsa esa aksincha kamayadi. Manbalarda keltirilishicha, brutto-netto koefitsiyentlarining 1 ga tenglashishi aholi takror barpo bo'lishining oddiy turiga va undan qisqargan turiga o'tish ehtimolini anlatadi.

Jamiyat taraqqiyoti davomida aholi takror baro bo'lish turlari muntazam o'zgarib kelgan. Hozirgi davrga (XXI asr boshi) kelib mutaxassislar tomonidan aholi takror barpo bo'lishini asosan 2 turi mavjudligi ta'kidlanmoqda.

1 tur- aholi takror barpo bo'lishining qisqargan turi. Bu turdagi avlodlar almashinuvi jarayonida aholi soni ko'paymaydi, chunki tug'ilganlarga nisbatan o'lganlar soni yuqori bo'ladi.

2 tur - aholi takror barpo bo'lishining kengaygan turi, bunda aksincha tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'ladi va natijada keyingi avlod vakillarining soni oldingi avlod vakillari sonidan ko'p bo'ladi. Bunday holda aholi muntazam ko'payib boraveradi.

Tug'ilish, o'lim va aholi tabiiy o'sishi past bo'lgan huddlarda aholi takror barpo bo'lishining 1 turi kuzatiladi. Hozirgi davrga kelib aholi takror barpo bo'lishining 1 turi Yevropa, Shimoliy Amerika davlatlarida kuzatilmoqda. Aholi takror barpo bo'lishining 1 turida har bir oiladagi farzandlarning o'rtacha soni 2,5 tadan kamdir. Ilmiy manbalarda har bir oila o'rtacha 2 tadan farzand ko'rsa o'z ota-onalari o'rnini to'ldiradilar. Agar oilada 3 tadan farzand bo'lsa uchinchi bola turli sabablar (baxtsiz hodisalar, kasalliklar) bilan hayotdan ko'z yumgan bolalar va farzandsiz oilalarni "qoplaydi", ya'ni o'rnini bosadi. Shuning uchun ham aholi sonini bir me'yorda saqlanishi uchun oiladagi farzandlar soni o'rtacha 2,5 bolani (demak, oilalarning yarmi 2 bolali yarmi esa 3 bolali) tashkil etishi lozimdir. Agar oilada farzandlar soni 2,5 dan kamayib borsa, aholi soni kamayadi va demografik inqiroz sodir bo'ladi. Oiladagi farzandlar soni tug'ilishning yig'indi koefitsiyenti (har bir 15-49 yoshdagi ayolga to'g'ri kelgan bolalar soni) yordamida aniqroq ifodalanadi. 2009-yilda tug'ilishning yig'indi koefitsiyenti dunyo bo'yicha 2,6

ni, Afrika qita'sida 4,6, Amerikada 2,2, Osiyoda 2,3, Yevropada 1,5 va Avstraliya va Okeaniyada 2,5 ni tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilganidek, Yevropa davlatlarida oiladagi farzandlar soni demografik mezondan (2,5 ta bola) ancha past bo'lib, ular "demografik inqiroz" holatidadurlar. Yevropa bo'yicha 2009-yilda tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan tug'ilganlar soni) ham 11 promilleni, o'limning umumiy koeffitsiyenti (1000 aholigi nisbatan o'lganlar soni) ham 11 promilleni tashkil etib, aholining tabiiy o'sishi 0,0 ga teng bo'lgan. Qator davlatlarda esa o'lganlar soni tug'ilganlardan yuqori bo'lib, aholi sonini kamayishi, ya'ni aholining qisqargan takror barpo bo'lishi kuzatilmoqda. Bunday davlatlarga Shimoliy Yevropadagi Latviya, Litva, G'arbiy Yevropadagi Germaniya, Sharqiy Yevropadagi Belarussiya, Bolgariya, Vengriya, Moldaviya, Ruminiya, Rossiya, Ukraina, Janubiy Yevropadagi Xorvatiya, Serbiya kabi davlatlar kiradi. Bugungi kunda demografik inqirozning eng yuqori holati Rossiya davlatida kuzatilmoqda. 2017-yil Rossiya tug'ilish 13; o'lim 13; aholining tabiiy o'sishi 0,0 promilleni tashkil etgan.

Demografik inqirozga yuz tutgan, aholi takror barpo bo'lishining 1 turi kuzatilayotgan davlatlarda demografik siyosat "*depopulyasiya*" ya'ni aholi sonini kamayib ketish jarayonini to'xtatishga qaratilmoqchi lozimdir. Bunday siyosatning asosiy maqsadi oilada ikkinchi, uchinchi farzandlarni ko'rish, davlat, jamiyat tashkilotlari tomonidan ham iqtisodiy, ham ma'naviy qo'llab quvvatlashga qaratiladi. Aholi takror barpo bo'lishining 2 turi, aholining tug'ilishi, tabiiy o'sishi juda yuqori, o'limning esa nisbatan kam bo'lgan holatlarida kuzatiladi. Bunday holat Afrika qit'asidagi deyarli barcha davlatlarda, Avstraliya va Okeaniyada, Osiyodagi ba'zi davlatlarda kuzatilmoqda. Aholi takror barpo bo'lishi 2 turi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar G'arbiy Afrikadagi Niger davlatida (tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti-7,4; tug'ilish-53; o'lim-14 va tabiiy o'sish 39 promille) Sharqiy Afrikadagi deyarli barcha davlatlarda (tug'ilish 30-

47 promille; o'lim 3-18 promille, tabiiy o'sish 10-34 promille) kuzatiladi.

Aholi takror barpo bo'lishining 2 turi kuzatilayotgan qator davlatlarda aholining haddan oshib ko'payib borishi, ya'ni "demografik portlash" jarayonini oldini olish muammosi mavjuddir. Ushbu muammoni bartaraf etishda tug'ilishni nazorat etish uslubidan foydalaniladi. Davlat siyosati oilani demografik nuqtai nazaridan rejalashtirishga qaratiladi. Bunday siyosat Xitoy, Hindiston va qator rivojlanayotgan davlatlarda olib borilmoqda.

1. Hayotiylik koeffitsiyenti:

$$K_h = \frac{N}{M} \text{ bu yerda:}$$

K_h – hayotiylik koeffitsiyenti.

T – tug'ilganlar;

O' – o'lganlar. Maskur koeffitsiyent aholining qanchalik tez yangilanishini bildiradi.

2. Tug'ilish koeffitsiyenti (K_t):

$$K_t = \frac{N \times 1000}{P}$$

bu yerda:

K_t – tug'ilish koeffitsiyenti;

T – bir yilda tug'ilganlar soni;

\bar{A} – aholining o'rtacha soni.

3. O'lim koeffitsiyenti (K_o):

$$K_o = \frac{M \times 1000}{P}$$

bu yerda:

K_o – o'lim koeffitsiyenti;

O' – bir yilda o'lganlar soni;

\bar{A} – aholining o'rtacha soni.

4. Mutloq tabiiy ko'payish (ΔTK)

$$\Delta TK = N - M$$

5. Tabiiy o‘rta ko‘rsatkichi (K_{TO}):

$$K_{TO} = \frac{(N - M) \times 1000}{P}$$

$$K_{TO} = K_T - K_O$$

6. Tug‘ilishning maxsus ko‘rsatkichi (K_{MT}):

$$K_{MT} = \frac{N \times 1000}{P_{15-49}}$$

P_{15-49} – 15-49 yoshdagi ayollarning o‘rtacha soni.

7. Maxsus 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi ko‘rsatkichi (K_{BO}):

$$K_{BO} = \frac{N \times 1000}{\frac{2}{3}N_1 + \frac{1}{3}N_0}$$

bu yerda

N – joriy yilda tug‘ilganlar sonidan 1 yoshgacha o‘lganlar soni;
 N_0 va N_1 – o‘tgan va joriy yilda tug‘ilganlar soni.

7.3. Demografik o‘rta ko‘rsatkichlari

“Demografik o‘rta ko‘rsatkich” tushunchasi hozirgi zamon demografiya fanida aholining takror barpo etish turlarining almashinuvini izohlash uchun qo‘llaniladi. Mazkur tushuncha 1945-yilda Amerikalik demograf F. Noutstayn tomonidan taklif qilingan, biroq demografik o‘rta ko‘rsatkichning dastlabki konsepsiyasi 1909 - 1934-yillarda fransuz demografi A. Landri tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “demografik inqilob” terminini qo‘llagan. Yuqorida qayd etilganidek, XIX asr oxiriga kelib shunisi aniq bo‘ldiki, odamlarning tug‘ilish va o‘lish darajalari biologik qonunlar bilan emas, balki, ijtimoiy shart-sharoitlar bilan bog‘liq bo‘lib, ayni vaqtda tarixiy rivojlanish jarayonida aholi takror barpo bo‘lishi turlarining jiddiy sifat o‘zgarishlari sodir bo‘la boshladi.

XIX asrning oxirida aholi tug‘ilishi va o‘lim hollari biologik qonuniyatlarga bog‘liq emas, balki sotsial shart-sharoitlar bilan bog‘liq

holda sodir etilishi qayd etilgan. Jamiyat tarixiy rivojlanishi jarayonida aholi takror barpo bo'lishida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. 1950-yillarga kelib, jamiyatda demografik jarayonlar (nikoh, tug'ilish va o'limni) boshqarish jarayoni keng tarqaldi. Jamiyat taraqqiyotida ro'y bergan yirik ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar, aholining demografik mayliga bevosita ta'sir etdi. Ayniqsa, qator davlatlarda aholining farzandlar soniga bo'lgan munosabati o'zgardi. Ko'p bolalik o'rmini o'rtacha bolalik, kam bolalik egallay boshladi. Oilani ko'p farzandga bo'lgan talabi asta-sekin urbanizatsiya jarayoni, sanoatning rivojlanishi, ayollar bilim darajasini oshib borishi, ijtimoiy hayotdagi o'rmini o'zgarib borishi bilan bog'liq holda kamaya bordi. Shuningdek, jamiyatda ilm-fanning, ayniqsa, tibbiyotning rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmatning keng tarqalishi aholi o'rtasida o'limni keskin kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish davrini esa uzayishiga sabab bo'ldi. Homiladorlikni oldini oluvchi vositalar haqida bilimlar muntazam shakllanib bordi. Bu vositalardan foydalanish esa keng tarqala boshladi. Qator davlatlarda tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi, aholi sonini birdan o'sib borishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon dunyodagi rivojlanayotgan davlatlarda 1960-1970-yillarda keskin tus oldi. Aholi sonining tez suratlar bilan ko'payib borishini aholishunos olimlar “*Demografik revolyutsiya*” yoki “*Demografik portlash*”, deb atadilar. Aholining bunday tez suratlar bilan ko'payib borishi har bir davlat uchun ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirdi. Natijada ko'pgina davlatlar o'sib borayotgan aholi sonini cheklashga harakat qildilar. “Tug'ilishni nazorat etish” dasturi qabul qilindi va tug'ilish jarayoni ekzogen (“tashqi”) omillar ta'sirida boshqarila boshlandi. Aholi takror barpo bo'lishi bir turdan ikkinchi turga o'ta boshladi. Ushbu holni yuqorida qayd etilganidek, “*demografik o'tish*”, deb belgilandi. Demografik o'tish jarayoni bosqichma - bosqich sodir bo'ldi.

Demografik o'tish konsepsiyalarining umumiy elementi bu uchta yirik tarixiy davrlarda o'zlashtiruvchi (agrar va industrial iqtisodiyot mavjud jamiyat) mos ravishda to'g'ri keluvchi demografik

taraqqiyotning davrlashtirilishi. Shu bilan birga demografik o'tish konsepsiyalari o'zining kelib chiqish omillari va tahlil etish uslubiyotlari bilan farqlanadi. Bu hol demografik o'tish sabablari va omillariga, mexanizmiga, yakuniy natija va universalligi darajasiga bo'lgan qarashlarning turliligiga sabab bo'ladi. Ba'zi konsepsiyalarda pozitiv uslub qo'llanilib, bu demografik tarix va hozirgi demografik jarayonlarga oid empirik tadqiqotlarning qarama-qarshiliklarga egaligi sabab bo'ladi.

Ratsionalizm konsepsiyasi (Landri, J. Burjua-Pisha – Fransiya, Noutstayn, D. Kaugill, S. Enke – AQSH) shahar sanoat jamiyatida ongli ravishda farzandlar sonining cheklanishiga agrar jamiyatdagi shaxslarning reproduktiv maylining irratsionalligini qarshi qo'yadi. An'anaviy reproduktiv mayl yuqori o'lim sharoitlarida demografik barpo bo'lishning ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqadi; bu ehtiyojlar yuqori tug'ilishni ijtimoiy sanksiyalash orqali amalga oshiriladi (shu jumladan, kontratsepsiya va abortlarga talab orqali ham); farzandlarning tug'ilishi oldindan belgilangan va individlarga shart, majburiy stereotiplar va ahloq namunalari orqali birlashtirilgan sanaladi. Industrilashtirish o'lim darajasini ancha tushiradi va bu hol ko'p bolalikning ijtimoiy ahamiyatini pasaytirib, tug'ilishning kamayishiga tasir etuvchi omillarni keltirib chiqaradi. Farzandlarning tug'ilishi individning ongli ravishda (ratsional) tanlash jarayoniga aylanib, shaxsning avtomatizatsiyalanishi kam bolalikni taqozo etadi. Mazkur boshlang'ich omillarning qay biriga e'tibor qaratilayotganiga ko'ra tug'ilishni kamaytirishning dastlabki (asosiy) omili tanlanadi va izohlanadi (industrilashtirish, urbanizatsiya, daromadlarning o'sishi, ta'lim darajasining ko'tarilishi, ayollarning emansipatsiyasi va h.k.), shuningdek, mexanizmi sharhlab beriladi (yuqori qatlamlardan quyilarga tarqalishi, shaharlardan qishloqlarga, sanoati rivojlangan davlatlardan qoloq mamlakatlarga). Mazkur konsepsiyaning muhim elementi, bu aholi takror barpo bo'lishining gemostatik tartibga solish haqidagi tushuncha (oxir - oqibatda tug'ilish darajasi o'lim darajasi bilan belgilanadi, bog'liq). Bundan demografik o'tishning universalligi va yagona sxemasi haqida xulosa kelib chiqadi: demografik

o'tishning birinchi bosqichida o'lim turining qayta qurilishi sodir bo'ladi (ekzogen o'lim qisqardi, o'lim hollarining ko'pi bolalar guruhidan katta yosh guruhlarga o'tadi, hayotning o'rtacha davomiyligi uzayadi, aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiyot bilan bog'liqligi oshadi); ikkinchi bosqichda – tug'ilishning turi o'zgaradi. Demografik o'tishning bosqich fazalari orasidagi o'lim va tug'ilish templari mutanosibliklari ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq bo'lib, aholi o'sishi tezla shuvining davomiyligi va masshtablarini belgilab beradi ("*demografik portlash*"). Biroq, sanoati rivojlangan, shuningdek, rivojlanayotgan davlatlarning demografik tarixi demografik o'tish konsepsiyalarining mazkur guruhida asoslangan vaqtinchalik sxemalar va omiliy bog'liqliklardan ko'pincha tanishlar, o'zgacha holatlar mavjudligini ham ko'rsatadi.

Realizm konsepsiyasi – dunyoning turli hududlaridagi demografik o'tishning taraqqiyoti va tugallanishi sxemasining nazariy asosi sanalib, BMTning demografik prognozlarida qo'llaniladi. Mazkur sxema demografik koeffitsiyentlarini – 13,4 % dan ko'rsatadi. Fazalarning ajratilishi umumiy demografik koeffitsiyentlarning dinamikasiga asoslanadi va bu demografik o'tishni nafaqat aholi takror barpo bo'lishi netto-koeffitsiyentining 1 ga yaqinlashishiga qadar balki, undan ham uzoqroq muddatga, ya'ni aholi o'sishi potensialining ta'siri tugab, soni barqarorlashganda ham kuzatish imkonini yaratadi.

Demografik o'tishning birinchi fazasida (XX asr o'rtalariga kelib sanoati taraqqiy etgan davlatlar tomonidan tugatilgan) o'lim koeffitsiyentining pasayishi tug'ilish koeffitsiyentining pasayishidan oldin yuradi (ikkinchisi ba'zan umuman pasaymay, balki, o'sib borishi ham mumkin), natijada aholi tabiiy o'sishining koeffitsiyenti eng yuqori darajagacha ko'tarilishi mumkin.

Ikkinchi fazada o'lim koeffitsiyenti pasayishda davom etib, eng past darajaga etadi, biroq tug'ilish koeffitsiyenti undan ham tezroq pasaygani bois aholining o'sishi asta-sekinlashadi.

Uchinchi fazaga aholi qarishi bilan bog'liq bo'lgan o'lim koeffitsiyentining ko'tarilishi va ayni vaqtda tug'ilishning kamayishi xos.

Uchinchi fazaning oxiriga kelib tug‘ilish koeffitsiyenti aholining oddiy takror barpo bo‘lishi darajasiga yaqinlashadi, o‘lim koeffitsiyenti aholining oddiy takror barpo bo‘lishi darajasiga yaqinlashadi, o‘lim koeffitsiyenti esa bu darajadan pastligicha saqlanib turadi, chunonchi yosh strukturasi hali barqarorlashmagan va past o‘lim xos bo‘lgan yosh guruhlari mavjud.

Nihoyat, to‘rtinchi fazada o‘lim koeffitsiyenti ko‘tariladi, tug‘ilish koeffitsiyentiga yaqinlashadi, demografik barqarorlashish jarayoni tugaydi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlar – 80-yillarda uchinchi fazaning yakunlovchi bosqichida bo‘lsalar, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko‘pchiligi birinchi – ikkinchi fazaning boshlanish bosqichlarida turgani kuzatilgan. Shu sababdan dunyo miqyosida uchinchi fazaning tugatilishi XXI asr o‘rtalaridan avval sodir bo‘lmaydi.

Demografik o‘tishni izohlashdagi boshqa nazariy yo‘nalish homeostatik barqarorlashtirish g‘oyasidan holi turib, tug‘ilish evolyutsiyasi ning o‘lim dinamikasidan nisbatan mustaqilligiga asoslanadi. Amerikalik demograflar K. Devis va Dj. Bleyk 1949 – 1956-yildagi tadqiqotlarida jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy tashkil qilinishi ko‘pbolalikning subyektiv ratsionalizatsiyalashuvini keltirib chiqarishini ko‘rsatdilar. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, tug‘ilish turining qayta qurilishi o‘lim pasayishidan ko‘ra ko‘proq chuqur ijtimoiy – iqtisodiy o‘zgarishlarga bog‘liq, mazkur o‘zgarishlar ijtimoiy ishlab chiqarishning sanoat turini shakllantiradi. Avstraliyalik demograf Dj. Kolduell 1976 – 1978-yillarda demografik o‘tishning quyidagi tezislarga asoslangan konsepsiyasini rivojlantirib, shakllantirdi:

1) tug‘ilishning turi barcha jamiyatlarda iqtisodiy ratsional bo‘lib, oila va oiladagi iqtisodiy munosabatlar tabiati bilan belgilanadi;

2) agrar iqtisodiyot katta oilaga asoslangan bo‘lib, mazkur oilaga o‘zaro iqtisodiy faoliyat va umumiy majburiyatlar bilan bog‘liq yaqin qarindoshlar guruhidir; bunday oilada “daromadning sof yo‘llari” kichik avlodlardan kattalarga tomon yo‘nalgan bo‘lib, bu tug‘ilish darajasining kattalashuviga zamin yaratadi;

3) industrial iqtisodiyot oilani jamiyatning asosiy iqtisodiy bo'g'ini vazifasidan mahrum etadi; oila nuklear oilaga aylanadi, "daromadning sof yo'llari" esa unda yo'nalishlarni o'zgartiradi va bu farzandsizlikning maqsadga muvofiqligini keltiradi;

4) shu bilan birga an'anaviy katta oila unga xos bo'lgan tug'lish turi bilan ijtimoiy ishlab chiqarishning industrial shakllanishiga ham moslashishi mumkin;

5) demak, demografik o'tish nazariy jihatdan universal jarayon emas, uning amaliy umumiyliги esa (Sharqning rivojlanayotgan mamlakatlarida tarqalganligi nazarda tutilmoqda). G'arb mamlakatlarida vujudga kelgan dunyoqarash va turmush tarzining, ijtimoiy tuzilmasining import qilish natijasidir; biroq mazkur ko'chirib olish faqatgina jamiyatning sanoat transformatsiyasining umumiy miqyosida amalga oshirilishi mumkin.

Demografik o'tishga aholi takror barpo bo'lishining tarixiy turlarining ijtimoiy asoslangan almashinuvi sifatida qaralishi – bu demografiya fanidagi muhim nazariy yo'nalishdir. Biroq uzoq muddatli samarali demografik siyosatni ishlab chiqish uchun aholi takror barpo bo'lishining aniq demografik mayli tizimi, sharoitlarini tushuntirib beruvchi umum tan olingan mexanizmni ishlab chiqish lozim.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Dunyo aholisining ko'payib borishi va "demografik revolyusiya" – uni keltirib chiqaruvchi omillar.
2. "Demografik o'tish" haqida qarashlar, nazariyalar.
3. "Demografik o'tish bosqichlari" va ushbu jarayonni dunyo hududlari bo'ylab ahamiyati.
4. Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?
5. Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?

6. Demografik o‘tish konsepsiyasi kim tomonidan yaratilgan?
7. Aholi takror barpo bo‘lishining kengaygan va toraygan turlarini tu shuntiring.
8. Aholi takror barpo bo‘lishiga ta’sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
9. Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?
10. Tug‘ilishning maxsus koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b.
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.
4. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur” 2011. – 160 b.
5. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.
6. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944 с.
7. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.
8. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002. – 160 b.
9. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: “Fan va texnologiya”, 2010. – 276 b.

10. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi. – T., 2017. – 224 b.

GLOSSARIY

Avlod — muayyan bir vaqtda tug'ilgan insonlarga tegishli bo'lib, ko'pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinchi, ularning farzandlari birinchi, nevaralari esa ikkinchi avlod hisoblanadi.

Avlod uzunligi — bu ota-onalar avlodi o'rnini ularning bolalari bosishi uchun kerak bo'ladigan o'rtacha vaqtdir. Ayol aholi uchun avlod uzunligi 30 yil atrofida tebranadi, erkak aholi uchun esa u nisbatan kattaroqdir.

Aholining takror barpo bo'lishi — aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rni to'ldirishi orqali yangilanishidir.

Demografik jarayon — tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Demografik o'tish — aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

Demografik portlash — tug'ilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori sur'atda o'sishidir.

Intergenetik interval — bu birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar tug'ilishi o'rtasidagi vaqt.

Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti — Har bir ayolning reproduktiv, ya'ni farzand ko'rish davrida (15-49 yosh) o'rganilayotgan davrdagi tug'ilish darajasi saqlangan holda, nechta qiz farzand ko'rishini mumkinligini aniqlab beradi.

Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti — bu koeffitsent, aholi takror barpo bo'lishining sof koeffitsiyenti bo'lib, u avlodlar almashinuv darajasini aniq ifodalaydi, Chunki bu ko'rsatkichda tug'ilgan qiz bolalarni onasini yoshiga etgunga qadar yashab borganlari hisobga olinadi. Boshqacha qilib aytganda, aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyentida o'lim ehtimoli hisobga olinadi.

VIII BOB. TUG‘ILISH VA AHOLINING REPRODUKTIV MAYLI

- 8.1. Tug‘ilish va unga ta’sir etuvchi omillar
- 8.2. Tug‘ilish jarayonini ifodalovchi ko‘rsatkichlar
- 8.3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda tug‘ilish jarayoni dagi o‘zgarishlar

8.1. Tug‘ilish va unga ta’sir etuvchi omillar

Tug‘ilish-ma’lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko‘rish jarayonidir. Tug‘ilish-biologik jarayon. Lekin u ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta’sirida o‘zgarib boradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidagi o‘zgarishlar tug‘ilish darajasini belgilaydi.

Tug‘ilishning biologik asosi insonning pushtlilik, (plodovitos) nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir. Erkak bilan ayol, yo‘ni nikoh juftlarining farzand ko‘rishga bo‘lgan biologik qobiliyati pushtlilik, deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko‘proq ayollarga nisbatan qo‘llanilib, har bir ayolning farzand ko‘rish davridagi (o‘rtacha 15-49 yosh) jami homiladorligi bilan belgilanadi. Pushtlilik erkak va ayolning biologik xususiyatlariga, salomatligiga bog‘liqdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sog‘lom ayollar farzand ko‘rish davrida eng ko‘pi 35 tagacha homilador bo‘lishi (egizaklar ham bitta homiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan. Lekin har bir ayol o‘rtacha 10-12 ta tirik farzand ko‘rishi, 10-15 marta homilador bo‘lishi (o‘lik tug‘ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin.

Tug‘ilish-tirik tug‘ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo‘lib, u insonlarning reproduktiv mayli, ya‘ni farzand ko‘rishga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liqdir. Reproktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog‘liq holda o‘zgarib turadi. Natijada, inson o‘z pushtlilikidan, bola ko‘rishga bo‘lgan

biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voyaga yetkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi yoki farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Ma'lum bir ayollar (va erkakalar)da tug'ilishni demografik tadqiq etish mikrofertilnost nomi bilan ma'lum, Chunki u alohida insonga tegishli. Alohida insonlar darajasida tug'ilishni o'rganishning bir qancha turli usullari mavjud:

1) ma'lum bir vaqt oralig'ida tug'ilishlar miqdorini o'rganish, masalan aholi ro'yxatlari vaqtida yoki so'rovlar vaqtida,;

2) qizlar yoki o'gil bolalar tug'ilishini o'rganish;

3) hayot siklining turli bosqichlarida tug'ilish oralig'iga va muddatlariga etibor berish (aytaylik, 25 yoshdan 29 yoshgacha, yoki 45 va 49 yosh oralig'i).

Tug'ilishni o'rganishning boshqa bir turi bu makro darajadagi yondashuvdan foydalanish bo'lib, u ma'lum bir vaqt davomida aholi yoki uning tarkibiy qismida tug'ilish jarayonining kechish tezligini aniqlashda foydalaniladi. Aniq bir shahslarning pushtligigini o'rganish o'rniga, makrofirtalnost butun aholida tug'ilishni o'rganadi (Poston va Frisbi, 2005). Demograflarning tug'ilishni makro darajada o'rganishning sababi, keyinchalik uni o'lim bilan solishtirish va reproduktiv o'zgarishlar tezligini hisoblashdan iborat. Shu bilan birga ular vaqt davomida turli oraliqda kechadigan tug'ilish darajasini solishtiradilar.

Bu bobda biz birinchi konseptualizatsiyasi va tug'ilishni darajasini hisoblashni ko'rib chiqamiz. Ikkinchidan, biz bevosita tug'ilish determinatlarini muhokama qilamiz. Bu asosan biologik omillar bo'lib, bevosita tug'ilishga olib keladi, va o'z-o'zidan unga ijtimoiy omillar ta'sir qiladi. Uchinchidan, nega ba'zi ayollar yoki erkaklar jamiyatga nisbatan ko'proq farzand ko'rishi haqida demograflarning nazariyalarini ko'rib chiqamiz. So'ngra biz dunyoda tug'ilish jarayonida kechayotgan tendensiyalarni va ularning vaqt davomida qanchalik o'zgariganligi, so'ngra AQShda tug'ilish

tendensiyasi va farqlarini ko'rib chiqamiz. Biz yoshlar orasida tug'ilish, erkaklarda fertlnost bilan xulosa qilamiz.⁴⁰

Biologik jarayon bo'lmish tug'ilish jarayoni ko'pgina ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liq. Bularga ayollarning jamiyatdagi mavqe'i, bandligi, bolalar o'limi, moddiy shart-sharoit, davlatning demografik siyosati, aholining tarkibi va hokazolar kiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ichida aholining yashash sharoiti, aholi tug'ilish darjasida geografik farqlarni yaqqol ifodalaydi.

B.S. Urlanis "*qayerda kambag'allik va qashshoqlik bo'lsa, o'sha yerda turmush sharoit, madaniyat past darajada bo'ladi*", deb o'z fikrini bildiradi. Haqiqatan aholining turmush sharoiti, madaniyati yuksalgan sayin uning o'rtacha umr ko'rish davri uzayadi. Aholi tarkibida qariyalar miqdori oshadi, topgan daromadlari bolalari ehtiyojlarini qondirish va o'zlarining yaxshi yashashiga sarflashadi. Demak, aholi madaniy darajasining ko'tarilishi tug'ilish ko'rsatkichining pasayishiga xizmat qiladi, desak hato qilmaymiz.

XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan, XX asrga kelib aksariyat rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta'lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko'tarilishi natijasida, tug'ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug'ilish yuqori, o'lim past bo'lib, aholi takror barpo bo'lishi intensiv holatda bo'lgan bo'lsa, XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtda tug'ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug'ilishga ta'sir etuvchi omillardan yana biri, bu ayollarning jamiyatdagi o'rni. Ayniqsa, ayollarning bilim darajasi va ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tug'ilishga, oiladagi farzandlar soniga ta'sir etadi. Oilada faqat farzand tarbiyasi va uy ishlari bilan band bo'lgan ayolga nisbatan ma'lumotli, biron bir sohada

⁴⁰ Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography. - Cambridge University Press.

ishlaydigan ayolda farzandlar kam bo'ladi. Chunki, bu ayollar kechroq turmush quradi, ularning bilim, madaniyat darajasi, qiziqishlari ko'p bolalikni inkor etadi.

Yuqorida misol keltirgan rivojlangan Yevropa davlatlari aholisi jinsiy tarkibida ayollarning 45-50 foizi xalq xo'jaligida band. Osiyo, Afrika davlatlarida esa bu raqam juda kichik. Afrikada ayollarning atigi 5 foizi ishlab chiqarishda qatnashadi. Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida ishtirok etishi, nafaqat, davlatlar balki, ularning hududiy tarkibida ham bir-biridan keskin farq qiladi. Shu bo'lsa, shahar aholisi va qishloq aholisi o'rtasida tug'ilish darajasi bir xil bo'lmaydi. Turli makon va zamonlarda hamisha qishloq aholisi o'rtasida shahar aholisiga nisbatan tug'ilish darajasi yuqori bo'lib kelgan. Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 foizdan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizatsiya jaryoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi. 1970-yili respublikamiz shahar aholisining tug'ilish ko'rsatkichi har 1000 kishiga 26,7 % ni, qishloq aholisida esa 37,5 % ni tashkil etgan. 1990-yilga kelib shahar aholisi miqdori 2 martaga oshdi, tug'ilish koeffitsiyenti 0,7 % ga kamayganligi kuzatiladi. 2004-yilda tug'ilish darajasi, nafaqat shahar aholisida, umuman mamlakat doirasida ham pasaydi. Shahar aholisi miqdori tobora o'sishda davom etmoqda. Shahar aholisi tug'ilish jarayonida bu yerdagi aholining tarkibi, migratsiyasi ham muhim rol o'ynaydi. Respublikamiz aholisi tug'ilish jarayonining pasayishida ijtimoiy-iqtisodiy omillar yetakchi hisoblanmoqda. Ijtimoiy hayotdagi moddiy shart-sharoit u yoki bu darajada ma'naviy hayotda, oilada, nikoh qurishda, demografik jarayonlarda o'z aksini topmadi. Ma'lumki, bizning davlatimiz ko'p yillardan beri ko'p bolalik an'anasini qo'llab-quvvatlab kelgan mamlakatdir. Bu albatta tug'ilish jarayoniga ijobiy ta'sir etgan. Ammo mustaqillik yillarida ushbu an'anada sal o'zgarishlar ro'y bera boshladiki, oqibatda, tug'ilish darajasi borgan sari pasaya bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tug'ilishga ta'siri har doim bir xil kechmaydi. Ba'zi iqtisodiy nochor, qoloq davlatlarda tug'ilish

ko'rsatkichi haddan tashqari baland. Masalan, Afrikada tug'ilish darajasi 40 ‰ va undan ham yuqorini tashkil etadi. Odatda, nochor, qashshoq oilalarda farzandlar ko'p tug'iladi va o'z navbatida, o'lim darajasi ham yuqori bo'ladi.

Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblandi. Erta nikoh qurish tug'ilish darajasini oshirsa, aksincha, kech nikohga kirish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlaridagi demografik vaziyatni qulay, deb baholash mumkin. Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erda nikohga kiradi. G'arbiy Yevropada esa aksincha. Nikoh qurish jamiyatda avlodlar almashinuvi uchun zamin bo'lib xizmat qilsa, ajralish tug'ilish darajasini sezilarli pasayishiga sabab bo'ladi. Qayerda ajralishlar ko'p bo'lsa, o'sha hududda tug'ilishning pastligini kuzatmiz. Ajralishning oldini olish, tug'ilish darjasini bir me'yorda boshqarish davlat ahamiyatiga ega masala hisoblanadi. Shu boisdan demografik jaryonlarni nazorat qilish, ba'zi hollarda choralar ko'rish, tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir etish maqsadlarida har bir davlat tomonidan "*demografik siyosat*" yuritiladi. Aholining tabiiy o'sishi past bo'lgan geografik hududlarda tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat olib boriladi. Bunda aholi ham moddiy ham ma'naviy rag'batlantiriladi, yosh oilalar uchun sharoitlar yaratiladi, yuqorida keltirilgan ajralishlar davlat tomonidan nazoratga olinadi va hokazo. Hozirda bunday tug'ilishni ko'paytirishga qaratilgan siyosat g'arb davlatlarida yurg'izilmoqda. Aksincha, tug'ilishni cheklash degan siyostni ilgari surayotgan davlatlar ham mavjudki, bular tabiiy ravishda aholisi tezlik bilan ko'payotganligi sabab shunday siyosat olib borishga majbur. Tug'ilishni cheklash siyosati rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga xos va mos. Jumladan, aholisining o'sish sur'ati baland bo'lgan Xitoy, Hindiston, Indoneziya kabi davlatlarda dunyo aholisining 41,0 foizi yashaydi. 2016-yil oxiriga qadar Xitoyda yerta oila qurish, ikkitadan oshiq farzand ko'rish butunlay man etilgan edi. 2016-yil oktyabr oyidan boshlab Xitoy oilalarida endi ikkitadan farzand ko'rishga rasmiy ruxsat berildi.

Tug‘ilishga ta’sir etuvchi omillarning ta’siri turli geografik hududda bir xil emas. Bu esa uning ko‘rsatkichlarining turli joyda xilma-xil bo‘lishiga olib keladi. Demak, aholi takror barpo bo‘lishida, o‘sinh sur‘atining pasayishida yoki ko‘tarilishida tug‘ilish alohida ahamiyat kasb etadi deyish maqsadga muvofiq.

8.2. Tug‘ilish jarayonini ifodalovchi ko‘rsatkichlar

Aholi takror barpo bo‘lishida, ya’ni yangi avlodlarning dunyoga kelib, insoniyat naslini davom etishida tug‘ilish – muhim demografik jarayon hisoblanadi. Demografik jarayonlarni mukammal o‘rganishda, ularni turli aholi guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo‘ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffitsiyentlardan foydalaniladi. Ushbu koeffitsiyentlar yordamida o‘rganilayotgan demografik jarayonning kyerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o‘rganiladi. Ma’lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma’lumotlar orqali bevosita aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni maxsus ko‘rsatkichlar, ya’ni koeffitsiyent yordamida o‘rganiladi. Buning uchun qayd etilgan demografik jarayonning 1000 kishiga nisbatan bo‘lgan miqdori aniqlanadi. Demak, 1000 kishi demografik jarayonlarni o‘rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich yuqorida qayd etilganidek “promille”, deb yuritiladi va quyidagicha - “‰” belgilanadi. Demografik koeffitsiyentlar alohida demografik jarayonlarni ifodalaydi. Demografik koeffitsiyentlar umumiy, maxsus va xususiy jihatlari ega bo‘lgan uchta asosiy tushunchalari mavjud. Aholi takror barpo bo‘lishi tug‘ilishning haqiqiy miqdoridir, ammo u tug‘ilgan qiz bolalarga tegishlidir (faqatgina o‘g‘il bolalar tug‘ilishini ifodalaydigan demografik termin mavjud emas). Serpushtlilik tirik tug‘ilganlarning potensialiga va biologik xususiyatlariga bog‘liqdir.

Tug‘ilishning umumiy, maxsus va xususiy koeffitsiyentlari mavjud bo‘lib, ular asosida tug‘ilish darajasi aniqlanadi. Bulardan, tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti har 1000 aholiga nisbatan

tug‘ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$Kn = \frac{N}{TP} \times 1000,$$

bu yerda

T – o‘rganilayotgan davr (yil).

P – o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni.

N – o‘rganilayotgan davrda tug‘ilgan bolalar soni.

Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti yuqorida qayd etilganidek, promilleda hisoblanadi. Bu koeffitsiyentdan tug‘ilish darajasini ifodalashda ko‘proq foydalaniladi. Uning yordamida ma‘lum hudud yoki avlodlardagi tug‘ilishda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar umumiy tarzda o‘rganilishi mumkin. Lekin tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti tug‘ilish darajasini ifodalashda biroz dag‘alliklarga yo‘l qo‘yadi. Chunki bu ko‘rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta‘sir etadi. Agar o‘rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko‘rish yoshiga yetmagan bolalar (0-14) va farzand ko‘rish yoshidan o‘tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog‘i yuqori bo‘lsa, tug‘ilish umumiy koeffitsiyentining biroz past darajada ifodalanishiga olib keladi.

Demograf olimlar B.S. Urlanis, V.A. Borisovlar tomonidan tug‘ilish darajasini tug‘ilish umumiy koeffitsiyenti yordamida baholash mezonini aniqlangan. Umumiy mezon bo‘yicha o‘rganilayotgan hudud yoki aholi guruhida tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti 16-promilledan kam bo‘lsa, tug‘ilish darajasi past: 16-24 promille bo‘lsa-o‘rta, 25-29 promille bo‘lsa o‘rtadan yuqori, 30-39 promille bo‘lsa yuqori va 40 promilledan baland bo‘lsa tug‘ilish darajasi juda yuqori hisoblanadi⁴¹.

Amerikalik olimlarning manbalarida keltirilishicha, tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti (CBR) tug‘ilishning birinchi ko‘rsatkichidir. Bu har 1000 kishiga nisbatan bir yilda tug‘ilgan chaqaloqlarning shu yildagi aholining o‘rtacha soniga nisbatiga tengdir. U quyidagicha hisoblanadi:

⁴¹Демографический энциклопедический словарь. - М, 1985, с. 209.

$$CBR = \frac{\text{number of births}}{\text{midyear population}} * 1,000$$

2007-yilda dunyo bo'yicha CBR 21/1000 bo'lgan. Bu shuni anglatadiki, 2007-yilda jami aholida har 1000 kishiga nisbatan 21 ta tug'ilish qayd qilingan. Kontinentlar orasida CBR 2007-yilda Afrikada eng yuqori 38 dan eng past Yevropada 10 orasida bo'ldi. 2007-yilda Afrikada har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar Yevropaga nisbatan deyarli to'rt barobar ko'pdir. Shimoliy Amerikada CBR 14 promille (CBR AQSHda ham 14 promille); Lotin Amerikasida 21 promille; Osiyoda 19 promille; Okeaniyada 18 promille (Population Reference Bureau,2007a). 2007-yilda dunyoning aksariyat mamlakatlarida CBR minimum 8 promilledan Makao, Janubiy Koreya, Gyermaniya va Tayvanda ham maksimum 50 promillegacha Libyeriya va Kongo Demokratik Respublikasida 49 promille Angolada tashkil etdi. Qoidaga ko'ra, CBR 30 promilledan baland bo'lsa yuqori, 15 promilledan past bo'lsa past hisoblanadi.

CBR unchalik aniq bo'lmagan ko'rsatkichdir, sababi o'rtacha aholi soni olingan tug'ilish jarayonida ishtirok etmaydigan aholi qismi, yosh ayollar (15 yoshgacha bo'lgan) va tug'ish yoshidan o'tgan ayollar (50 yoshdan yuqori) ham kiritiladi. Bu koeffitsiyentning kamchiligi shundan iboratki, mazkur ko'rsatkichga erkaklar ham qo'shiladi, umuman olganda erkaklar tug'ishda ishtirok etmaydilar. Shunga qaramay, ba'zi demograflar bu jarayonni ham o'rganishadi, biz buni keyinroq ko'rib chiqamiz.

Bulardan tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti (GFR) tug'ilishni hisoblaydigan yana bir ko'rsatkichdir. U CBR dan aniqroq, Chunki, bunda tug'ish yoshidagi ayollargina hisobga olinadi. GFR quyidagicha hisoblanadi:

$$GFR = \frac{\text{births}}{\text{midyear population}_{f,15-49}} * 1,000$$

Tug'ilishning maxsus koeffitsiyentlari tug'ilish darajasidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi, tug'ilishni atroflicha o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu koeffitsiyent alohida erkaklar va ayollar guruhiga

nisbatan hisoblanishi mumkin. Demografik tadqiqotlarda asosan reproduktiv yoshdagi (15-49 yosh) ayollarga nisbatan qoʻllaniladi. Tugʻilishning maxsus koeffitsiyentida har 1000 ta 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan tugʻilgan bolalar soni aniqlanadi va uni yana quyidagicha ham ifodalash mumkin:

$$F_{15-49} = \frac{N_{15-49}}{TW} \times 1000$$

F_{15-49} – tugʻilishning maxsus koeffitsiyenti.

N_{15-49} – oʻrganilayotgan davrda 15-49 yoshni ayollarda tugʻilgan bolalar soni.

T – oʻrganilayotgan davr (yil).

W – reproduktiv yoshdagi ayollarning oʻrtacha soni (15-49 yosh, tugʻilish darajasi past davlatlarda 15-44 yoshdagi ayollar olinadi). Tugʻilishning maxsus koeffitsiyenti erkaklarga nisbatan ham hisoblanadi. U holda har 1000 ta 15-49 (14-54 yoshlar uchun ham hisoblanadi) yoshdagi erkaklarga nisbatan tugʻilgan bolalar soni aniqlanadi. Bu yerda kasr suratida bir yilda tugʻilgan chaqaloqlar boʻlsa, maxrajida 15-49 yoshdagi yaʼni tugʻilish yoshidagi ayollarning oʻrtacha yillik soni.

GFRni aniqlashda biz tugʻruq yoshidagi ayollarni olamiz. Amaliyotda juda oz miqdordagi ayollar 15 yoshgacha va 49 yoshdan soʻng farzand koʻradilar, shuning uchun demograflar odatda farzand koʻrish yoshi chegaralari sifatida 15-49 yosh orasidagi diapazonni, yaʼni oraliqni olishadi. Ammo bu diapazon universal hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarda 44 yoshdan soʻng farzand koʻrish koʻp ham kuzatilmaydi. Shuning uchun GFR baʼzida 15-44 yosh uchun ham hisoblanadi. Albatta ushbu yosh diapazonlarida ham istisnolar mavjud. Misol uchun 2000-yil AQShlarining Texas shtatidagi ayollarga berilgan tugʻilish toʻgʻrisidagi guvohnomada ularning yoshi eng past 11 yoshda, eng yuqori 53 yoshgacha boʻlgan. 2000-yilda Texasda farzand koʻrgan onalarning oʻrtacha yoshi 26,1 yoshni tashkil etgan. Faqatgina farzand koʻrgan ayollarning 0,3 foizi 15 yoshgacha boʻlgan va 40 yosh va undan yuqori yoshdagi onalarning ulushi esa 1,6 foizni tashkil etgan. Texasda farzand koʻrgan ayollarning deyarli yarmidan ortigʻini (55,0 foizi) 20-29 yosh

oralig'idagi onalar va deyarli to'rt dan uch qismi (74,4 foizi) 20-34 yosh oralig'idagi onalar bo'lgan.

2005-yilda AQSHda farzand ko'rgan yosh onalarning salmog'i Texasga nisbatan ancha past. 2005-yilda AQSHda farzandli bo'lgan 10 - 14 yosh oralig'idagilar 0,2 foizdan kamroqni tashkil etadi. AQSHda 2005-yilda farzand ko'rgan ayollarning 2,4 foizdan ko'prog'i 40 yoshdan yuqoridir. Ba'zan 15 yoshgacha yoki 40 yoshdan yuqori yoshdagi ayollar asosan farzand ko'rishadi yoki farzand ko'rishmoqchi. Shu sababli GFRni hisoblash 15 yoshdan boshlanadi, ba'zida esa 15 yoshgacha bo'lgan ayollar ham qo'shiladi.

2008-yil iyul oyida BBS qari bir ayolning farzand ko'rganligi haqida xabar tarqatdi. 2008-yil Shimoliy Hindistonda Omkari Panwar 70 yoshida egizak farzandli bo'ldi. U va uning eri Charam Singx yoshi 70 dan oshgan fermer ikki farzandi bor, ikkalasi ham qiz bola. Ular o'g'il farzandli bo'lishni juda ham xohlaganliklari uchun bepustlilikni davolash uchun bankdan kredit olishdi, natijada, og'irligi taxminan ikki funt keladigan o'g'il va qiz farzandi bo'lishdi (British Broadcasting Korporatsiya News, 2008).

Agar sizda faqatgina *CBRga oid ma'lumotlar bo'lsa-yu, siz GFRni hisoblamoqchi bo'lsangiz, GFR ko'rsatkichi* (15-44 yoshli ayollar uchun) quyidagi formulada aks etadi:

$$GFR = CBR * 4.5$$

Misol uchun 1950-yil va 2005-yillarda AQSHda CBR ko'rsatkichi mos ravishda 24,1 va 14,0 promille bo'lgan. Agar biz GFRga tegishli hech qanday ma'lumotga ega bo'lmasak, bu ikki yildagi CBR qiymatini 4,5 ga ko'paytirib mos ravishda GFRning 1950-yil uchun 108,5 va 2005-yil uchun 63,0 promilleni aniqlar edik.

Ushbu hisoblangan GFR ko'rsatkichi 1950-yildagi 106,2 va 2005-yildagi 66,7 promillelaridan katta farq qilmaydi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, GFR ko'rsatkichi CBR bilan bog'liq muammoni farzand ko'rish yoshidagi ayollar hisobiga hal qilgan edi, ammo muammo oxirigacha yechilgan emas, endi bu GFR ko'rsatkichi bilan. Bu ko'rsatkich farzand ko'rish yoshi, ya'ni 15-49 yosh oralig'ida ayollar bir tempda farzandi bo'lmasligini e'tiborga olmaydi.

Tug'ilish, odatda 15-19 yoshdagi ayollarda past, 20-29 yoshdagi ayollarda esa juda yuqori bo'lib, 30 yoshdan pasaya boradi, 40 yoshda yanada pasayadi. Mazkur faktni ya'ni, tug'ilish yoshga bog'liqligini e'tiborga olish uchun demograflar ma'lum bir yosh guruhlari uchun ishlab chiqishadi, buni Tug'ilishning xususiy koeffitsiyentlari deb yuritiladi.

Tug'ilishning xususiy koeffitsiyentlari – tug'ilishning o'rganishdagi eng aniq koeffitsiyentlar bo'lib, ma'lum yosh guruhlarda tug'ilish darajasini ifodalaydi. Bu koeffitsiyent odatda har 1000 ta 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 va 45-49 yosh guruhidagi ayollarda tug'ilayotgan bolalar sonini aniqlashda qo'llaniladi va quyidagicha ifodalanadi:

$$F_{x/y} = \frac{N_{x/y}}{TW_{x/y}} \times 1000$$

$F_{x/y}$ – tug'ilishning maxsus yosh guruhi bo'yicha koeffitsiyenti.

$N_{x/y}$ – ma'lum yosh guruhidagi onalardan tug'ilgan bolalar soni.

T – o'rganilayotgan davr (yil).

W – o'rganilayotgan yosh guruhidagi ayollarning o'rtacha soni.

Tug'ilishning yig'indisi (summarniy) koeffitsiyenti, tug'ilish darajasini eng aniq ifadolovchi ko'rsatkich bo'lib, unda dunyo hududlari, davlatlar va ma'lum aholi guruhlardagi tug'ilish darajasini ifodalashda qo'llaniladi. Hududlar bo'yicha tug'ilish darajasini taqqoslaganda ham asosan tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti ishlatiladi. Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti ma'lum avlodga tegishli har bir ayolning hayoti davomida (o'lim va yosh tarkibidagi o'zgarishlardan qat'i nazar, har bir yosh guruhidagi tug'ilish darajasi saqlangan holda) tuqqan bolalarining o'rtacha soni. Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti tug'ilishning yosh guruhlari koeffitsiyentlari yig'indisiga teng.

$$F_{yig'indi} = \sum_{15}^{49} y \times F_{x/y}$$

y – yosh guruhlari orasidagi davr (interval).

Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti (ASFR) da asosiy e'tibor ayollarning yosh guruhlariga qaratiladi. Tug'ilishning yosh

koefitsiyenti har 5 yillik guruhlar uchun 15-19, 20-24, 25-29, 30-34, 35-39, 40-44 i 45-49 yosh hisoblanadi. Tug'ilishning yig'indi koefitsiyenti esa (ASFR) quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{ASFR}_{x \text{ to } x+n} = \frac{\text{births}_{x \text{ to } x+n}}{\text{females}_{x \text{ to } x+n}} * 1,000$$

Odatda ko'pchilik demografik tahlillarda tug'ilishning yig'indi koefitsiyentini hisoblashda besh yillik guruhlar hisoblansada, ba'zi hollarda 35 ta bir yillik guruhlar ham olinadi, 15 yoshdagilar guruhi, 16 yoshdagilar guruhi, 17 yoshdagilar guruhi, 49 yoshdan kattalar guruhi. Tug'ilishning yig'indi koefitsiyenti 4,0 dan yuqori bo'lsa - tug'ilish darajasi yuqori 2,15 dan kam bo'lsa, tug'ilish darajasi past 2,15-4,0 bo'lsa o'rtacha hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida tug'ilish tarixiy davrlar va hududlar bo'yicha muntazam o'zgarib kelgan. 18 asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyodagi deyarli barcha davlatlarda tug'ilish yuqori bo'lgan. 20 asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa tug'ilish yer kurrasi bo'ylab kamaya boshladi.

Tug'ilish darajasi jamiyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida ham bir xil bo'lavermagan. Kaptalistik formatsiyagacha mavud bo'lgan davrlarda tug'ilish biologik xarakterga ega bo'lgan, ya'ni cheklanmagan. Ko'pbolalik jamiyat davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlangan. Bu holni hozirgi jamiyat taraqqiyot bosqichida turib tasavvur qilish mushkulroq albatta. Masalaning tub mohiyatiga nazar tashlashga to'g'ri keladi, qaysiki, o'sha o'tmish zamonlardagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog'liqdir. Quldorlik, feodalizm davrida ham ko'p bolalikdan har bir oila va shu bilan birga jamiyat ham manfaatdor edi. Nega shunday?

Eng avval oilada bolaning iqtisodiy roli juda katta edi. Ko'pgina mamlakatlarda oila yumushlarida, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va chorvachilikda bolalar mehnatidan foydalanilgan. Demak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli, jamiyat tomonidan qo'llab - quvvatlangan. Hatto ba'zi davlatlarda, masalan, Rossiyada dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan

ko‘rinib turibdiki, har bir oila bolalar sonini ko‘paytirishdan manfaatdor bo‘lgan.




Figure 3.2. Trends in age-specific fertility, regions of the world: 1970 and 2000-2005. Source: United Nations, 2008a.

8.1-rasm. 1970, 2000-2005-yillardagi dunyoning ba'zi mintaqalaridagi tug‘ilishning yosh va maxsus ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar.

Manba: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, 2008y.

Kapitalistik ishlab chiqarish usulining vujudga kelishi bilan sanoat tez rivojlana boshladi, yangi- yangi shaharlar paydo bo‘ldi. Ko‘pchilik aholi ish qidirib qishloqdan shaharga ko‘chib kela boshladi. Shahar aholisining o‘sib borishi natijasida bir tomondan, shaharlarda turar joy, oziq-ovqat muammolari kelib chiqqan bo‘lsa,

ikkinchi tomondan, fan - texnika taraqqiy etib, ishsizlik vujudga keldi. Uchinchidan, kapitalistik ishlab chiqarishda ayollar va bolalar mehnatiga juda kam haq to'lanar edi. Jamiyatda bunday o'zgarishlar oilada bolalar sonini cheklashga, tug'ilishning qisqarishiga olib keldi. Aholisining asosiy qismi shaharlarja yashovchi Xorijdiy Yevropa mamlakatlarida tug'ilish, ayniqsa, kamayib ketdi. Masalan, Angliyada 1850-yillarda aholining 50 % shaharlarda yashagan va har ming kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni o'rtacha 32,6 ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirgi aholining 80 % ga yaqini shaharlarda yashaydi va har ming kishga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 10 tani tashkil qiladi. Yoki Fransiyaning olib qaraylik. Bu mamlakatda 1850-yildan to hozirgacha shahar aholisi 25,5 dan 74 % gacha ko'paydi. Har ming kishi hisobiga tug'ilgan bolalar soni esa 26,2 dan, 13,7 gacha kamaydi. Germaniya Respublikasida esa aholining 94 % shaharlarda istiqomat qilishadi. Tug'ilish ko'rsatkichi esa 9 % ni tashkil etadi xolos va dunyoda tug'ilish eng kam davlatlardan hisoblanadi.

Yer yuzida tug'ilishning kamayishi asosan 18 asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa davlatlarida boshlanib, keyinchalik, bu qit'aning boshqa mamlakatlariga, undan so'ng esa AQSH, Kanada, Avstraliya va Yaponiyaga tarqaldi. Ayniqsa, iqtisodiy jihatdan taraqqiy etgan davlatlarda tug'ilish tez kamaya boshladi. Ushbu davlatlarda 1750-1800-yillarda har ming kishi hisobiga 38 ta bola tug'ilgan bo'lsa, 1970-1990-yillarda bu ko'rsatkich 16 ni, 2007-yili 12 ni tashkil qildi. Boshqacha qilib aytganda, tug'ilish 3 martadan ko'proq qisqargan. Endi xuddi ana shu davrlar uchun rivojlanayotgan mamlakatlardagi tug'ilishni qiyoslaydigan bo'lsak, boshqacha ahvolni guvohi bo'lamiz. Ularda 1750-1790 yillarda har ming kishi hisobiga 41 tadan bola tug'ilgan va 1970-1990 yillarda esa har 1000 kishi hisobiga tug'ilgan bola 34 ni, 2009-yili esa 22 ni tashkil qilgan. Demak, rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishning kamayishi, nisbatan olib qaralganda, ancha sekin borgan. Hozirgi davrda tug'ilish yer shari bo'yicha bir xil emas. Dunyo kontinentlari bo'ylab eng yuqori tug'ilish Afrikada, eng past esa Yevropa davlatlarida ekan.

Dunyo hududlari bo'yicha tug'ilishning umumiy va yig'indi ko'effitsiyentlari

Dunyo hududlari	Tug'ilishning umumiy ko'effitsiyenti		Tug'ilishning yig'indi ko'effitsiyenti	
	2009-y	2017-y	2009-y	2017-y
Dunyo bo'yicha	20	20	2,6	2,5
Rivojlangan davlatlar	12	11	1,7	1,6
Rivojlanayotgan davlatlar	22	21	2,7	2,6
Afrika	36	35	4,8	4,6
Amerika	17	15	2,2	2,0
Osiyo	24	18	2,3	2,2
Yevropa	8	11	1,5	1,6
Avstraliya va Okeaniya	18	16	2,5	2,3

Manba: Population Reference Bureau. 2009 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet, Population Reference Bureau. World Population Data 2017.

Sayyoramizda tug'ilishning hududlar bo'ylab bunday farq qilishi, avvalo, u davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasiga, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga hamda shu davlat xalqining asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlariga, qolaversa, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari, tug'ilishga aholining jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikohdan o'tish va ajralish kabi qator demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyot rivojlanishi hamda har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir qiladi. Yuqorida qayd etilganidek, keyingi 20-30 yil ichida dunyoning deyarli hamma hududlarida tug'ilishning kamayib borish jarayoni kuzatilmoqda.

1970-2009-yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,7 marta kamaygan). Uning asosiy sabablaridan biri shahar aholisining o'sishi bo'lgan. Masalan, AQSH va Kanadada shahar aholisining 1950-2009-yillarda 64 % dan 75-80 % gacha o'sgan. Bundan tashqari, tug'ilishning kamayishiga ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda qatnashishi ham sabab bo'lgan. Masalan, Kanadada 1931-yil modliy ishlab chiqarishda qatnashuvchi aholining 17 % ayollar bo'lgan bo'lsa, 1980-2009-yillarda esa bu ko'rsatkich 40 % dan oshib ketdi. Shimoliy Amerikada tug'ilishning kamayishiga olib kelgan muhim sabablardan yana biri ajralishning nikohdan ko'pligidir. Hozirgi davrda AQSHda har yili qayd etilgan nikohlarning 50 % ga yaqini buzilganligi ham ma'lum. Tabiiy holki, nikohning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o'z-o'zidan kamayishiga olib keladi. Bundan tashqari, Shimoliy Amerikada ishsizlar sonining tobora ortib borishi, yertangi kunga ishonchsizlik bilan qarash kabi xususiyatlari ham tug'ilishni kamaytiradi. Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari-Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970-yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga, Oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Hindiston tibbiyot assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodxonlik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971-yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli edi. Hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir. Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning uchun Xitoy va

Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi. 1970-2009-yillarda tug'ilish Xorijiy Osiyoda deyarli 2 barobar kamaydi. Ana shu davrda tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti Yevropada 2,1 dan 1,5 ga, Okeaniyada 3,1 da 2,5 ga, afrikada 6,5 dan 4,8 ga kamaygan.

Shunday qilib, biologik jarayon bo'lgan tug'ilish qator ijtimoiy (aholining savodlilik darajasi, ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy mavqei. Oilaning davlatda, jamiyatda tutgan o'rni, urf-odatlar, qadriyatlar, din, etnik tarkibi, urbanizatsiya jarayoni va h.k.) iqtisodiy (aholi bandligi, ayollar bandligi, oila daromadi, ijtimoiy muhofazalar va h.k.) tibbiy (homiladorlikdan saqlanuvichi vositalar, va ular haqidagi bilimlar bilan ayollarni ta'minlanganligi, onalar, bolalar salomatligi) va demografik (aholining yosh jinsiy tarkibi, reproduktiv yoshdagi ayollar salmog'i, nikoh, ajralish o'lim jarayonlari) omillar ta'sirida sodir bo'lar ekan. Agar dunyodagi davlatlarni tug'ilishning bugungi holatiga qarab sharhlamoqchi bo'lsak, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratmog'imiz lozim. Ma'lumki, tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti 2,1 dan past bo'lsa tug'ilish darajasi ham past bo'ladi: 2,1-4,0 bo'lsa tug'ilish darajasi - o'rtacha va 4,1 va undan yuqori bo'lsa tug'ilish darajasi yuqori bo'ladi. Ana shu demografik mezonga asosan dunyo davlatlarini guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruh – tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar: Afrika davlatlari (MSR, Tunis, Moris va Seyshel orollaridan tashqari), Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlar hamda Avstraliya va Okeaniyadagi ba'zi mamlakatlar. Ulardagi oilalarda farzandlar soni o'rtacha 4,1 dan to 7,0 gacha, ba'zi hollarda esa, undan ham yuqori bo'lgan. Tug'ilish eng yuqori sanalgan davlatlardan Afg'oniston, Gvineya-Bisau va Niger bo'lib, ularda tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti 7,1-7,7 ni va Yamanda – 6,7 ni, Mali va Kongoda – 6,2 ni tashkil etadi. Ushbu davlatlardagi oilalarda tug'ilish darajasining bunday yuqori bo'lishiga olib keluvchi qator omillar mavjuddir. Ulardan asosiylari quyidagilar:

yuqorida zikr etilgan davlatlar, asosan, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar bo'lib, ayniqsa, ayollarning ma'lumotlilik nisbatan past;

ko'p bolalikni qo'llab-quvvatlovchi an'analar ko'proq saqlanib qolgan; ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirok etadi;

shahar turmush tarzining shakllanishi sust;

tug'ilishni cheklash haqida tushunchalar va unga kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmagan. Ta'kidlab o'tish lozimki, tug'ilish darajasining yuqoriligi ba'zi demografik oqibatlarni keltirib chiqardi. Jumladan, aholining soni tez ko'paya borib, ko'plab yangi oilalar vujudga keladi, aholi tarkibida bolalar soni yuqori bo'ladi. Bu demografik oqibatlar esa, o'z o'rnida qator ijtimoiy-iqtisodiy muam-molarga sabab bo'ladi.

Tug'ilishi yuqori bo'lgan davlatlarda keyingi 15-20 yil ichida aholi soni yiliga 2,5–3,2 foizdan ko'payib bormoqda. Bugungi kunda 40 dan oshiq davlatda tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti 4,1–7,5 tashkil etmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, keyingi 10 yil ichida dunyodagi tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar soni kamaydi. 1989-yili bunday davlatlar soni 79 ni tashkil etgan bo'lsa, 2005-yili ularning soni 37 taga kamaydi va 42 tani tashkil etdi. Agar 1989-yili ushbu davlatlarda istiqomat etuvchi aholi salmog'i dunyo aholisining 23 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilga kelib, bu ko'rsatkich deyarli 14 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi guruh – oilada tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar, ushbu davlatlarda tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti 2,1–4,0 ni tashkil etadi. 1989–2005-yillarda dunyoda tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar soni 44 tadan 57 taga yetdi, ya'ni 13 taga ko'paydi. 1989-yili O'zbekiston davlati ham tug'ilish yuqori bo'lgan davlatlar guruhiga kirgan bo'lsa, 2005-yilga kelib u tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar guruhidan joy oldi. Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan guruhda istiqomat etuvchi aholi 2005-yilda dunyo aholisining 37,0 foizini tashkil etdi. Mazkur davlatlarda tug'ilishning bunday darajada bo'lishi ularning tarixan tarkib topib kelgan ijti-moiy-iqtisodiy omillari bilan bog'liqdir. Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan joylarda aholining o'sish sur'ati bir tekis saqlanib turadi. Ularda aholining keskin ko'payib ketishi yoki kamayib ketishi hollari

kutilmaydi. Aholi taraqqiyotini boshqarish, iqtisodiyotni rivojlan-tirish borasidagi muammolarni hal etish bir muncha yengil kechadi.

Uchinchi guruh – tug‘ilish darajasi past bo‘lgan davlatlar. Bu davlatlarda aholi yiliga 0,7–0,9 foizga ko‘payib boradi. Oilalarning aksariyat qismida 1 yoki 2 tadan bola bor, xolos. Shuni ta’kidlash lozimki, 1989–2005-yillarda tug‘ilish darajasi kam bo‘lgan davlatlar soni 32 tadan 71 taga ko‘paydi yoki 2 barobardan ziyod o‘ydi. Hozirgi davrda ushbu davlatlarda dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat etmoqda. Demak, XXI asr boshlariga kelib, dunyo aholisining deyarli yarmi kam bolali oilalarda istiqomat etmoqdalar. So‘nggi guruh davlatlarida istiqomat etuvchi oilalarda tug‘ilishning bunday kamayib ketishi, birinchi navbatda, kapitalistik munosabatlar keng tarqalishi bilan bog‘liqdir. Ta’kidlab o‘tganimizdek, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida sanoat rivojlanib, shaharlar sonining o‘sishi va shahar turmush tarzining keng tarqalishi uchinchi guruhga mansub davlatlarda tug‘ilishning qisqarishiga olib keldi. Ayniqsa, aholining asosiy qismi shaharlarda yashovchi Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish juda kamayib ketgan.

Ushbu guruh davlatlarida hozirgi davrda tug‘ilish darajasining kamayib ketishiga olib kelgan navbatdagi omil ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda, yollanma ishlarda ko‘proq qatnashishidir. Iqti-sodiy rivojlangan davlatlarda tug‘ilishning kamayishiga olib kelgan omillardan yana biri, oilaning buzilishi, ya’ni nikohdan chiqish hollarining nihoyatda ko‘pligidir. Yuqorida qayd etilganidek, nikoh-ning qisqa vaqt davom etishi oilada bola sonining o‘z-o‘zidan kama-yishiga olib keladi. Bundan tashqari, barcha iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar qatori, Shimoliy Amerikada ham fan-texnika rivojlanib, ishlab chiqarish sohalariga kirib borishi natijasida aholining tarkibida ishsizlik tobora ko‘payib bormoqda. Ishsiz, boshpanasiz aholining oila qurish va farzand tarbiya qilishiga iqtisodiy imkoniyati bo‘lmaydi. Shunday holatlar ham tug‘ilishning kamayib ketishiga olib keladi. Umuman olganda, kapitalistik munosabatlarning keng tarqalishi va rivojlanishi oilaning farzandlarga bo‘lgan ham iqtisodiy, ham ma’naviy ehtiyojini pasaytirib yuboradi. Fikrimizning dalili

sifatida rivojlangan kapitalistik davlatlardan biri AQSH oilalaridagi tug‘ilish ko‘rsatkichlariga murojaat qilamiz. Agar 1950-yili har bir Amerika oilalarida o‘rtacha 3-4 tadan bola tug‘ilgan bo‘lsa, 1970-yili bu ko‘rsatkich 2-3 taga kamaydi. Keyingi vaqtlarda AQSHda farzandsiz oilalar ko‘payib bormoqda. Bu davlatda o‘tkazilgan tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, ko‘pchilik oilalarda faqat bittadan farzand bo‘lib, ularning 44 % i kutilmaganda, 15 % i esa, xohlamagan holda tug‘ilgan ekan. Mutaxassislar bu ahvolni “Amerika oilasida inqiroz”, deb atashmoqda. Bu inqiroz Amerika Qo‘shma Shtatlari uchun muammomi, yo‘qmi? Uni shu davlat aholisining taraqqiyot tarixidan kelib chiqib aniqlamoq lozim.

Shunday qilib, biz yuqorida jahon mamlakatlarining oilalarida tug‘ilish jarayonidagi o‘zgarishlar bilan tanishib chiqdik. Ma’lum bo‘ldiki, hozirgi paytda yer yuzidagi xalqlarning tug‘ilish jarayoni bir xil emas ekan. Bir toifa mamlakatlarda oilalarning tug‘ilishi juda kamayib ketgan bo‘lsa, ikkinchi bir xilida – juda yuqori. Bu hol, yuqorida aytilganidek, turli ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog‘liq.

8.3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda tug‘ilish jarayonidagi o‘zgarishlar

O‘zbekiston hududida oila, tug‘ilish va aholi ko‘payishiga oid ma’lumotlar, asosan, XIX asrning ikkinchi yarmidan, ya’ni O‘rta Osiyo Chor Rossiyasi tomonidan zabt etilgan davrdan boshlab qayd etilgan. Rus chorizmi o‘lkaning tabiiy boyliklari, xo‘jaligi, aholisi, tarixi va madaniyati bilan qiziqib, ular haqida ma’lumot to‘plashga harakat qilgan. Jumladan, aholi haqidagi dastlabki ma’lumotlar 1872-yili N.A.Maev tahriri ostida chop etilgan “*Statistik yilnoma*”⁴² to‘plamidan o‘rin olgan. Bu “*Statistik yilnoma*”da Turkiston aholisining umumiy soni, milliy tarkibi (Buxoro va Xivadan tashqari) va har bir oilada necha kishi borligi qayd etilgan. Unda yozilishicha, Zarafshon viloyatida (okrug) yashovchi har bir mahalliy xalq oilasi shaharda o‘rtacha 5 tagacha, qishloqda esa 12 tagacha a’zodan iborat.

⁴²Ежегодник. Материалы для статистики Туркестанского края, 1872 г.

Jinslar mutanosibligi jihatidan olib qaraganda, esa, har bir oilaga 7 tadan erkak va 7 tadan ayol to'g'ri kelgan⁴³ deyiladi. Umuman, ushbu "Yilnoma"dagi aholiga tegishli raqamlar, ular uncha to'liq bo'lmasada, ozmi-ko'pmi demografik tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida O'zbekiston oilalarida tug'ilish va aholi ko'payishiga doir dastlabki bir muncha aniq ma'lumotlar sovet davrida olina boshladi. Biroq, malakali kadrlarning etishmasligi tufayli, statistik ma'lumotlarni to'plash juda qiyin edi. O'sha yillarda olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ichida eng muhimi so'rash va suhbat usuli bilan o'tkazilganlari edi. Bunday o'rganish, odatda, "so'roq varaqasi" (anketa) vositasida amalga oshirilgan. Bevosita savol-javob, ya'ni muloqot har holda statistika varaqasiga tushmaydigan jihatlarni ham ochardi va uning natijalari, muttasil ro'yxat qilib borilmagan hududlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgandi. Masalan, tibbiyot olimi A.A. Shoroxova o'sha paytda o'tkazilgan tadqiqot natijalari fan muxlislari tomonidan hozirgacha qadrlanib kelmoqda. Tadqiqotchi XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida tug'ilgan bolalar sonini 44-55 tani tashkil etadi, deb xulosa qilgan. Soddaroq qilib aytganda, har 1000 aholi bir yilda 44-55 tagacha ko'paygan⁴⁴. Bu tug'ilishning yuqori darajasidir. Endi bu ko'rsatkichni hozirgi davr bilan qiyoslasak, dunyo bo'yicha o'rtacha – 26,0; O'zbekistonda – 33,7 ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkichni olimlar yuqori, deb bilishadi. Vaholanki, A.A. Shoroxova tadqiqoti xulosasidagi raqamdan ancha kam. Demak, bir asr muqaddam tug'ilish ancha yuqori bo'lgan ekan. Aholishunos olimlar B.S. Uralnis, M.N. Qorahonov, I.R. Mullajonovlarning ilmiy izlanishlarida ham xuddi shunday xulosa qayd etilgan⁴⁵.

Xo'sh, nega o'tmishda oilalarda farzandlar ko'p tug'ilgan? Avvalo, shuni aytib o'tish kerakki, tug'ilish darajasining yuqoriligi o'sha davrda faqat o'zbek oilalarida emas, balki sobiq Sovet ittifoqi territoriyasidagi boshqa xalqlar (ruslar, ukrainlar, belaruslar, tatarlar, qozoqlar, Kavkaz va O'rta Osiyoning hamma xalqlari) uchun ham

⁴³ Ushbu statistik yilnoma, 12-b

⁴⁴ A.A. Шорохова, Методика изучения плодовитости человека. Ташкент, 1993 г., с. 49

⁴⁵ Б.Ц. Урланис. История одного поколения. М., 1968, с 63;

xos edi. Masalan, 1867-1990-yillarda Rossiyaning Yevropa qismidagi 50 guberniyasida har 1000 ta aholiga nisbatan tug‘ilgan bolalar soni 49-50 tani tashkil qilgan. Boltiqbo‘yi xalqlarida esa, XIX asrning o‘rtalarida har 1000 kishiga tug‘ilgan bolalar soni 40-50 tani tashkil etgan⁴⁶. Lekin bu holat uzoqqa borgani yo‘q. XX asrdan boshlab, Yevropa xalqlari oilalarida tug‘ilish tez suratda kamaya boshladi, ayniqsa, Boltiqbo‘yi xalqlarida 1906-1913-yillarda har 1000 aholiga tug‘ilgan bolalar soni 22-25 ni tashkil qilgan va tug‘ilishning keskin kamayib ketish sababi, asosan, kapitalistik ishlab chiqarish usulining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Kapitalizmning rivojlanishi, shaharlar soni va shahar aholisining ko‘payib borishi Rossiyada ham tug‘ilishning keskin kamayishiga olib keldi; 1861-1865-yillarda har 1000 aholiga o‘rtacha 50-51 bola tug‘ilgan holda, 1911-1913-yillarda bu ko‘rsatkich 43-44 taga tushdi. Birinchi jahon urushi va Oktyabr inqilobi yillarida Rossiyada tug‘ilish yana ham kamayib, 1920-yilda 31 gacha tushdi. Tug‘ilish darajasining kamayishi Oktyabr inqilobidan keyingi davrda sobiq Sovet Ittifoqi tarkibiga kirgan yana bir qancha xalqlarda ham kuzatila boshladi (masalan, Ukraina, Kavkaz, Qozog‘iston aholisida). Yuqoridagi raqamlardan xulosa qiladigan bo‘lsak, u holda sobiq Sovet Ittifoqining Yevropa qismida yashovchi xalqlarda tug‘ilish XX asrning birinchi o‘n yilligidan boshlab kamaya boshlagan. O‘rta Osiyo xalqlarida esa, jumladan, o‘zbek oilalarida bu davrda tug‘ilish yuqori darajada saqlanib qolgan. Bu bir qancha omillar bilan bog‘liqdir. Ulardan birinchisi bu yerdagi mavjud feodal ishlab chiqarish munosabatlari edi.

Umuman olganda, kapitalistik bosqichgacha mavjud, ijtimoiy-iqtisodiy davrlarda tug‘ilish biologik xarakterga ega bo‘lgan, ya‘ni sun‘iy ravishda cheklanmagan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bevosita bog‘liq holda, quldorlik davrida ham, feodalizm davrida ham ko‘pbolalikdan har bir oila ham, jamiyat ham manfaatdor edi. Sababi, oilada bolaning iqtisodiy mavqe‘i (asosan o‘g‘il bolalar) juda yuqori

⁴⁶М.К. Караханов “Воспроизводства населения в Узбекской ССР”, “Народонаселение и экономика” китоби. М., 1975, с. 85; Р.Й. Мулляджанов. Демографическое развитие Узбекской ССР. 1983

turardi. Ko'pgina mamlakatlarda oila yumushlariga, hunarmandchilikda, dehqonchilikda va chorvachilikda bolalar mehnatidan foydalanilgan, oiladagi iqtisodiy daromadning bir qismi bevosita bolalar mehnati orqali hosil qilingan. Demak, bola mehnati milliy daromadning ma'lum ulushini tashkil etgani sababli, u jamiyat tomonidan ham qo'llab - quvvatlandi. Hatto ba'zi davrlarda, masalan, Rossiya-da dehqonlarga ishlash uchun beriladigan yer ham bolalar soniga qarab taqsimlanardi. Bunday sharoitda, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har bir oilada bolalar sonini ko'paytirishdan manfaatdor bo'lingan.

Ikkinchi omil – shahar turmush tarzidir. O'zbekiston Rossiyaga qaram bo'lgan davrda, asosan, xomashyo bazasi hisoblangan, ishlab chiqarish kuchlari, ayniqsa, sanoat yaxshi rivojlanmaganligi uchun shaharlar soni kam bo'lgan, mehnatga yaroqli aholining 80 foizi qishloq xo'jaligida band edi. Qishloq hayot tarzi o'z navbatida, ko'p bolalikni taqozo etadi.

Uchinchi omil – ayollarning jamiyatdagi o'rnidir. 1917-yilgi Oktyabr inqilobiga qadar o'zbek ayollari, asosan, uy ishlari va bola tarbiyasi bilan band bo'lganlar, ayollar ba'zida paxta terimida ishtirok etganlar. Boshqacha qilib aytganda, xalq xo'jaligida juda kam salmoqni tashkil etgan.

To'rtinchi omil – bu islom aqidalarining ta'siri edi. Musulmon xalqlari hayotida, ayniqsa, demografik jarayonlar islom dinida muhim o'rin egallagan. Islom dinida oila qurish, bola ko'rish va tarbiyalash muqaddas burch hisoblanib, homilani turli yo'llar bilan yo'q qilish esa qattiq qoralangan.

Beshinchi omil – o'zbek xalqida mavjud bo'lgan ko'pgina mahalliy urf-odatlarini ko'rsatsa bo'ladi. Jumladan, serfarzand oilalar jamiyatda hurmat-e'tiborga sazovor bo'lganlar. Ko'pbolali onaning o'tirgan o'rnini, kiygan kiyimini “muqaddas”, deb bilishgan va bola ko'rmagan ayollar “*menga ham bola bersin*”, degan yaxshi niyat bilan “muqaddas” ayol o'rnidan turganda uning o'rniga borib o'tirgan. Yangi kelin – kuyovlarga solingan birinchi tun to'shagiga ham dastlab “*muqaddas*” ayollar dumalab-ag'anab tabarruk qilib

berishgan. Farzand ko'rish nasib etmagan oilalar, ko'p hollarda kamsitilgan ham.

Oltinchi omil – o'zbek oilalarida qizlarni erta turmushga berish holati edi. Odatda, to'qqiz yoshga to'lgan qizlar balog'at yoshiga yetgan hisoblanardi. Qizlarni erta turmushga berish farzand ko'rish davrini bir muncha cho'zadi va bunday ayollar, tabiiyki, ko'proq bola ko'radi. Lekin juda erta turmush qurishning salbiy tomonlari ham bor edi. Ma'lumki, hozirgi vaqtda 16-18 yoshga to'lgan yigit-qizlargina balog'at yoshiga yetgan, deb qabul qilingan. Demak, to'qqiz yosh turmush qurish uchun ancha erta. Shu sababdan, balog'atga yetmagan qizlarni erga berish, ularni ham ma'naviy, ham jismoniy tomondan mayib qilib, bu o'z navbatida, ayollar o'limining ko'payishiga olib kelgan. Ko'p hollarda esa balog'at yoshiga yetmay turmush qurish oqibatida, ayollar organizmi zararlanib, uzoq muddat yoki umuman bola ko'rish qobiliyatini yo'qotgan. Shuning uchun ilgari zamonlarda o'zbek ayollari o'rtasida bola ko'rmaslik hollari ko'p edi. Masalan: A.A. Shoroxova ma'lumotiga qaraganda, XX asr boshlarida har 1000 o'zbek oilasidan 29,8 foizi bolasiz oilalar bo'lgan ekan; bu ko'rsatkich o'sha paytda arman oilalarida 29,2 foizni, Yevropa xalqlari oilalarida esa 18,9 foizni va yahudiy oilalarida 17,8 foizni tashkil qilgan⁴⁷.

Yettinchi omil – bu bolalar o'limi edi. Ilgarilari ko'plab go'daklar yuqumli ichak kasalliklaridan nobud bo'lgan ekan. Mutaxassislar ko'rsatishicha, 1914-yili Turkiston o'lkasida har 1000 ta tug'ilgan bolalardan 300 tasi, ba'zi yillarda esa 600-700 ta bola nobud bo'lgan⁴⁸. Bu ko'rsatkichni Rossiyaning markaziy rayonlariga nisbatan olib qaraganda, 65-70 foizga yuqori. O'zbek oilalarida bolalar o'limining yuqori bo'lganligini demografik tadqiqot natijalari ham tasdiqlaydi. Masalan: Toshkent Davlat Universiteti Aholishunoslik laboratoriyasi xodimlari 1976-yili Surxondaryo viloyatida o'tkazgan demografik tadqiqotda shu narsa ma'lum bo'ldiki, 1894-1909-yillarda tug'ilgan ayollarning har biri o'rtacha 9-10 tadan farzand ko'rgan bo'lsalarda, biroq ulardan 5-6 tasi tirik qolgan xolos. Ba'zan

⁴⁷ Акушерство и гинекология. 1930 г., № 2, стр. 133

⁴⁸ Народонаселения и экономика. Стр. 86

o'n beshta farzand ko'rgan ayollarning bor-yo'g'i uchta bolasi omon qolgan hollari ham qayd etilgan. O'zbek oilasida bolalarning ana shunday ko'p nobud bo'lishi tug'ilishning cheklanmasligiga, ya'ni fiziologik imkoniyat darajasida davom etishiga sabab bo'lgan.

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, oilada ko'p bola tug'ilgani, bu hali ko'payadi, degani emas. Tug'ilgan bolalar tirik qolgandagina aholi soni ortadi. Aholi ko'payishining qator omillari bo'lgani bilan uning kamayish sabablari ham ko'p edi. Statistik ma'lumotlar ham ushbu holatni tasdiqlaydi.

8.2-jadval

O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi (1866-1917-yillar)*

Yillar	Har 1000 ta aholiga nisbatan		
	Tug'ilganlar	O'lganlar	Aholining tabiiy o'sishi
1866-1870	49.0	44.0	5.0
1871-1875	48.9	43.8	5.1
1876-1880	48.9	43.9	4.9
1881-1885	49.1	44.2	4.9
1886-1890	48.9	43.9	5.0
1891-1895	49.6	44.7	4.9
1896-1900	49.8	44.8	5.0
1901-1905	49.6	44.1	5.5
1911-1915	47.3	42.6	4.8
1916-1917	49.5	41.9	6.6

*Manba: И.Р. Муллажонов “Демографическое развитие Узбекской ССР”. – Ташкент, 1983 г. стр. 115.

Oktyabr inqilobiga qadar o'zbek mehnatkashlari ham rus chorizmi, ham mahalliy yer-mulk egalari tomonidan ekspluatatsiya qilinardi, hatto mehnat haqlari ham Yevropa xalqlariga

qaraganda ancha past edi. Bitta misol, 1914-yili Turkistonda har bir ishchining oylik maoshi o'rtacha 179 so'm 69 tiyinga barobar bo'lgan paytda, Markaziy Rossiyada 280 so'mni tashkil qilgan. Qishloq joylarida esa dehqon o'zi keltirgan daromadning faqat beshdan bir qismigagina egalik qila olgan, qolgan daromadning asosiy qismi turli soliqlar uchun sarf bo'lgan, birgina Buxoro amirligida soliqning 86 xili mavjud edi. Ish haqining kamligi va soliqlarning ko'pligi ustiga, mahalliy xalqdan turli og'ir. Qora ishlarda foydalanilardi. Ularning yashash sharoiti e'tibordan chetda qolgan, mehnati muhofaza qilinmagan. Buning oqibatida ishchilar juda erta ish qobiliyatini yo'qotganlar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1916-yili Toshkent korxonalarida sodir bo'lgan baxtsiz hodisalarning 5,6 foizi o'lim bilan, 68 foizi butunlay mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan tugallangan ekan. Baxtsiz hodisaga uchrab, ish qobiliyatini yo'qotgan mahalliy ishchilarga juda oz miqdorda nafaqa ajratilgan.

Tibbiyot xizmatining yomonligi, yashash va mehnat qilish sharoitining og'irligi tufayli, aholi o'rtasida vabo, bezgak, rishta, traxoma, moxov va boshqa infeksiyon kasallar keng tarqalgan edi. Masalan: Buxoroda iflos hovuz suvlaridan ichib aholining 20 foizi rishta kasaliga muhtalo bo'lgan. Shifokor YA. M. Finkelshteynning ma'lumotiga ko'ra, Buxoroda bezgak kasalidan o'lish natijasida butun boshli qishloqlar huvillab qolarkan. 1892-yili Toshkentning Eski shahar qismida 1440 kishi vabodan o'lganligi qayd qilingan.

Ayollar o'limi, ayniqsa, yuqori edi. Xotin-qizlar mahalliy feodallar tomonidan qattiq ekspluatatsiya qilinishi bilan birga, mehnat huquqi ham kamsitilardi. Ularning og'ir sharoitda ishlashiga qaramasdan, o'zbek ayol ish haqi erkaklarga va boshqa millat ayollariga qaraganda ancha past edi. Masalan: 1913-yili pillachilik fabrikasida ishlovchi erkaklarga bir kunda 80 tiyin, rus ayollariga 50 tiyin to'lansa, o'zbek ayollariga 45 tiyin haq to'lanardi, xolos⁴⁹. Go'zallik va latofat timsoli bo'lmish ayollarning bevaqt olamdan ko'z yumishiga, asosan, ularning ijtimoiy tengsizligi sabab bo'lgan. Ularning hayotiy masalalari ham,

⁴⁹Мельникова Т.С. Формирование промышленных кадров в Узбекистане. Ташкент, 1956 г., с. 27

jumladan, turmush qurishi o'zlarining xohishsiz hal qilinardi. Qizlar asosan 9-14 yoshlarida yerga berilgan va buning salbiy oqibati haqida yuqorida aytib o'tildi, ya'ni bu hol bir tomondan, ayolning bola ko'rishining uzayishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, hali balog'atga etmagan, ko'p hollarda yosh qiz ham ma'naviy, ham jismonan mayib qilinib, ayollar o'limining ko'payishiga olib kelardi.

Ayollarning ijtimoiy tengsizligini ifodalovchi yana bir necha misolni olib ko'raylik. Deylik, oilada er-xotinning ajralishi masalasi qo'yildi. So'zsiz, bu avvalo er ixtiyori bilan bo'lgan. Manbalarda qayd etilishicha, 1894-yilda 100 ta qotillikdan 29 tasida ayollar o'ldirilgan ekan. Ularning sabablari haqida jumladan, shunday yozilgan: xotin erining joniga tekkan, eridan beso'roq ko'chaga chiqqan, faqat qiz tuqqan va hokazo. Undan tashqari, ayollarga tibbiy yordam ko'rsatish deyarli bo'lmagani uchun ular bola ko'rish davrida hamda bola ko'rishdan qolgan salbiy oqibatlar natijasida ham ko'plab nobud bo'lishgan. Ana shu tarzda ko'plab ayollar nobud bo'lishi natijasida O'zbekistonda aholi o'rtasida o'sha paytlarda ayollar salmog'i kam edi. Aniqroq qilib aytganda, 1897-yil ma'lumotiga ko'ra ayollar mamlakat aholisining 46,4 foizini tashkil qilgan.

O'lkadagi og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning juda kamligi, aholi o'rtasida o'limning (ayniqsa, ayollar va bolalar o'limining) ko'pligi aholining o'rtacha umr ko'rish davrining kamayishiga olib kelgan. O'tmishda O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 32 yosh bo'lgan xolos. O'sha davrda O'zbekistonda tug'ilish yuqori bo'lishiga qaramay, aholi o'rtasida o'limning ko'pligi, o'rtacha umr ko'rish davri juda qisqa bo'lganligi tufayli aholining tabiiy ko'payishi juda sekin borgan. Boshqacha qilib aytganda, yuqori tug'ilish tabiiy o'sishni ta'minlay olmagan. Tug'ilishning "foydalilik" darajasi ancha past edi. Natijada, O'zbekistonda aholi sonining o'sishi sekin borgan. 1885-1917-yillarda, ya'ni 32 yil mobaynida O'zbekiston aholisi 3 mln. 320 mingdan 4 mln. 52 mingga yetdi yoki aholining soni har yili o'rtacha 0,6 foiz atrofida o'sdi. Bu aholi o'sish ko'rsatkichi hozirgi davrga qaraganda 5-6 marta kamdir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Tug‘ilish va aholi takror barpo bo‘lishining o‘zaro farqi deganda nimani tushunasiz?
2. Demografik mayl nima?
3. Tug‘ilish koeffitsiyentlarini tushuntirib bering.
4. Farzandsizlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
5. Urbanizatsiyaning tug‘ilish jarayoniga ta’siri nimalardan iborat?
6. Reproduktiv mayl nima?
7. Tug‘ilish taqvimini nima?
8. XIX asr ohiri va XX asr boshlarida O‘zbekistonda tug‘ilishga oid qanday tadqiqotlarni bilasiz?
9. O‘rganilayotgan davrda O‘zbekistonda tug‘ilish aholi tabiiy o‘sishiga qanday ta’sir etgan?
10. Tug‘ilishga ta’sir etuvchi omillar?
11. O‘lkaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va tug‘ilishning aloqadorligi.
12. Intergenetik interval nima?
13. Protegenetik interval nima?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b
2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b
3. O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 yil 30 aprel, № 607-1

4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. -T.: "Fan va texnologiya", 2014. – 368 b.

5. Ата-Мирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р, Салиев А. Историко-демографическое очерки урбанизации Узбекистана. – Т., 2002. – 125 б.

6. Ата-Мирзаев О. Б. Народо­на­се­ле­ние Узбекистана: история и современность. – Т., 2009. – 223 с.

7. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – Т.: "Tafakkur" 2011. – 160 b.

8. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – Т.: "Fan", 2008. – 156 b.

9. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – Т.: "Universitet", 1997. – 157b.

10. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

11. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.

12. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). – Т.: "Fan va texnologiya" 2010. – 276 b.

GLOSSARIY

Abort — abort (lotincha «abourts» — homilaning tushishi) homiladorlikning 28 haftagacha bo'lgan davrda, homilani hali hayotga moslashmagan davr ichida olib tashlashdir.

Akkumulyatsiya jarayoni — bu ketma-ketlikdagi amallarga bo'lingan tug'ilishning yig'indi koeffitsiyentining hisoblanishidir, shu sababli 50 yoshga qadar yig'ilgan tug'ilishlar soni berilgan shartli avlodning tug'ilishning yig'indi koeffitsiyentiga teng bo'ladi.

Depopulyatsiya — tug'ilishning darajasining pasayishi, o'limning ko'payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayish jarayonidir.

Intergenetik interval — bu birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar tug‘ilishi o‘rtasidagi vaqt.

Mayl — bu subyektning qandaydir obyektga nisbatan ma‘lum bir faollik va harakat qilishiga moyilligi, tayyorligidir; reproduktiv mayl xulq-atvorning ruhiy regulyatori, turli harakatlarning muvofiqligini, ma‘lum miqdordagi bolalarning tug‘ilishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni belgilab beruvchi shaxsning moyilligidir.

Protegenetik interval — nikohga kirgan vaqt bilan birinchi farzand tug‘ilgan vaqt oralig‘idir.

Pushtlilik — aholi tug‘ilishi va takror barpo bo‘lishining asosi bo‘lib, muayyan sondagi farzandlar dunyoga keltirishning biologik qobiliyatidir. An’anaviy ravishda, pushtlilik ayolning dunyoga keltira oladigan farzandlar soni bilan o‘lchanib, er va xotinning irsiy xususiyatlari va salomatligi, shuningdek, ulardagi biologik jihatlarining bir-biriga mos kelishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Reproduktiv mayl — shaxsning farzandning nikohda yoki nikohsiz tug‘ilishi yoki tug‘ilishidan voz kechishiga qaratilgan harakati, munosabati va ruhiy holatlarining yaxlit tizimidir.

Tug‘ilish — bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayonidir. Hozirgi o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitlarda tug‘ilish jarayoni aholi takror barpo bo‘lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

Tug‘ilishni nazorati — tug‘ilishning darajasini pasaytirish va mamlakatda aholi o‘sish sur‘atlarini sekinlashtirish maqsadida davlatning demografik siyosat vositalari bilan aholining tug‘ilishi jarayoniga ta’siri.

Tug‘ilish taqvim — farzand ko‘rish davri yoki nikohda bo‘lish davrida farzand tug‘ilishining vaqt jihatidan taqsimlanishidir.

IX BOB. AHOLI O'LIMI VA O'RTACHA UMR KO'RISH DAVOMIYLIGI

- 9.1. Aholi o'limi va unga ta'sir etuvchi omillar
- 9.2. Aholi o'limining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari
- 9.3. Dunyo mamlakatlarida aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining hududiy xususiyatlari

9.1. Aholi o'limi va unga ta'sir etuvchi omillar

O'lim avlodlar almashinuvidagi asosiy jarayon hisoblaniladi. Aholi o'limi turli sabablar natijasida ro'y beradi. Aholining tabiiy o'sishi hamda kamayishida muhim demografik jarayon bo'lib ishtirok etadi. O'limning ro'y berishida asosan endogen va ekzogen omillarni sabab qilib ko'satildi.

Endogen omillar – organizning ichki rivojlanishi, uning shakllanishi va qarishi, insonning yashash faoliyati qobiliyatining pasayishiga sabab bo'ladigan omillardir. Odatda endogen omillar tufayli, keksa yoshdagi aholi ko'proq o'lim topadi. Buni odatda me'yoriy hodisa, deb baholashadi. Biroq aholining yosh qatlamida ham endogen sabablar tufayli, o'lim hodisasi ro'y beradi. Bularga davosi yo'q irsiy kasalliklar, nojo'ya voqe'a-hodisalar kiradi.

Ekzogen omillar – odamlarda tashqi ta'sir bilan bog'liq paydo bo'ladigan o'limlar bo'lib, bu omillar oqibatida, aholining turli yoshdagi kishilari turli vaqtda turli joyda vafot etadilar. Ushbu omillarga ichki yuqumli kasalliklar, kasb kasalliklari, og'ir mehnat sharoitlari oqibatida yuzaga kelgan kasalliklar, baxtsiz hodisalar, zaharlanish, narkomaniya, alkogolizm va hokazolar kiradi. Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda.

Aholining takror barpo bo'lishida aholi o'limining ahamiyati juda katta. U hoh kattalar, hoh go'daklar yoki onalar o'limi bo'lsada, avlodlar almashinuvining ikkinchi muhim tomoni hisoblanadi. Aholining joylashishi, migratsiyasi ham o'limga ma'lum bir tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholi zich joylashgan joylarda turli xil epidemik kasalliklar tez tarqaladi, migratsiya oqimi yo'nalgan hududlarda migrantlar o'zlari bilan infeksiya, kasalliklarni ham olib yurishadi. Oxir-oqibatda o'lim hodisasining avj olishiga olib keladi. Aholi o'limi ko'rsatkichi har qanday geografik hududdagi aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini belgilaydi.

XX asr 50-yillariga qadar dunyoning barcha hududlarida ham o'lim yuqori darajada edi. Ushbu davrga qadar aholi o'limida ko'proq ekzogen (tashqi muhit ta'siridagi omillar: urushlar, epidemiyalar, baxtsiz hodisalar, tabiiy ofatlar) omillar sabab bo'lgan. Aholi o'limi jamiyat rivojlanishi davomida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'lib kelgan. Moddiy shart-sharoitlarning yaxshilanib borishi o'lim hollarining kamayishiga, aksi esa – ko'payishiga sabab bo'lgan. Sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasining oshib borishi ham o'limga bevosita ta'sir etuvchi omillardandir. Shuningdek, tug'ilish biologik imkoniyat darajasida bo'lganda, ko'p bolalik an'analari rivojlangan davrlarda tug'ilgan farzandlar orasidagi davr, muddat (protogenetik davr: nikohga kirgandan birinchi farzand tug'ilguniga qadar o'tgan vaqt; intergentik davr: birinchi va ikkinchi, ikkinchi va uchinchi, uchinchi va to'rtinchi va h.k. farzandlar tug'ilishi orasidagi davr, yil) qisqa (1,2-2 yil) bo'lgan hollarda ham go'daklar, onalar o'limi yuqori bo'ladi.

O'lim ko'rsatkicha o'rganilayotgan huddagi ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganlik darajasiga, aholining yashash sharoiti va sog'liqni-saqlash tizimining ahvoriga chambarchas bog'liq. Ushbu sohalarning rivojlanganlik darajasi qanchlik baland bo'lsa, o'lim ko'rsatkichi shunchalik past bo'ladi va aksincha. Aksariyat o'lim darajasi yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlarda bularning darajasi past bo'lganligi kuzatiladi. Masalan, Afrika davlatlarida dunyo

bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 %, ba'zi joylarda 25 % ga ham etadi (Nigerda- 24 %). O'lim darajasi baland bo'lgan ikkinchi mintaqa Yevropa hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori.

O'limning umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlamaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy baquvvat bo'lishiga qaramasdan, aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. Shu boisdan, fanda aholi o'limining yosh bo'yicha tahlil i alohida o'rganiladi.

Aholining takror barpo bo'lishida aholi o'limining ahamiyati juda katta. U hoh kattalar, hoh go'daklar yoki onalar o'limi bo'lsada, avlodlar almashinuvining ikkinchi muhim tomoni hisoblanadi. Aholining joylashishi, migratsiyasi ham o'limga ma'lum bir tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Aholi zich joylashgan joylarda turli xil epidemik kasalliklar tez tarqaladi, migratsiya oqimi yo'nalgan hududlarda migrantlar o'zlari bilan infeksiya, kasalliklarni ham olib yurishadi. Oxir-oqibatda o'lim hodisasining avj olishiga olib keladi. Aholi o'limi ko'rsatkichi har qanday geografik hududdagi aholining o'rtacha umr ko'rish darajasini belgilaydi. Hammamizga ma'lum yuqori aholi o'limi kuzatilayotgan davlatlarda o'rtacha umr ko'rish past ko'rsatkichni tashkil qiladi. Inson dunyoga kelib, ma'lum davr yashab, hayotdan ko'z yumadi.

Inson dunyoga kelib yashagan davri hayot davomiyligi yoki umr ko'rish muddati deb, o'rganiladi. Insonning hayot davomiyligi birinchi navbatda o'lim jarayoni bilan bog'liq. O'lim esa yuqorida qayd etilganidek, turli omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Demak, o'limga ta'sir etuvchi omillar, o'lim jarayoni orqali hayot davomiyligiga ham ta'sir etadi. Hayot davomiyligi mutaxassislar tomonidan, dunyo va uning alohida hududlari, erkaklar va ayollar uchun maxsus

demografik uslublarda hisoblanadi. Odatda kutilayotgan umr ko'rish muddati aniqlanadi. Unda yangi tug'ilgan chaqaloqlar qancha umr ko'rish mumkinligi hisoblab chiqiladi. Bu holda tug'ilgan bolalarni ulg'ayib borishida yoki bir yosh guruhidan ikkinchi yosh guruhiga o'tishda shu yosh guruhlarida o'rganilayotgan davrdagi o'lim holati hisobga olinadi. Olingan natija aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini nazariy hisobi bo'lib xizmat qiladi.

O'zimizni bu sayyorada aktyorlar sifatida tasavvur qiladigan bo'lsak, bizning yerdagi oxirgi manzilimiz bu o'limdir. Agar bu demografik hodisa sodir bo'lsa, bizning nomimiz kamida ikkinchi marta biron bir mahalliy gazetada e'lon qilinishi mumkin. Birinchisi esa balki biz tug'ilganimizda, ota va onamizning nomlari bilan qayd etilar. Biz tug'ilganimizda ko'p narsa xabar qilinmaydi. Ammo biz vafot etsak, bizning hayot yo'limizni shonli ta'zianomada aks ettirishlari mumkin. Biz haqimizdagi bu hikoyada bizning qachon va qayerda tug'ilganimiz, tirik oila a'zolarimiz, yoki tirikligimizdagi kasbimiz va o'qish jarayonimiz kabi ma'lumotlar keltirilishi mumkin.

“Ta'zianoma” so'zi “o'lim haqida e'lon qilish, ko'pincha marhumning qisqa biografiyasi bilan (biron gazetada)” ma'nosini anglatadi. Boshqa qaysi payt siz haqingizdagi qisqa biografiya boshqalarga o'qish uchun nashr etiladi? Menimcha, hech qachon. Bizning o'limimiz haqiqatdan ham hayotimizdagi eng muhim voqealardan biridir. Hammamiz tug'ilganimiz va har birimiz o'lamiz. Bu haqiqat. Hech kim o'limdan qochib qutula olmaydi. Barcha mavjudotlar ham tug'iladi va o'ladi. Ammo biz insonlar o'lim haqida o'ylab, fikr yuritadigan yagona mavjudotlarmiz.

O'lim hammaga bir paytda kelmaydi. Ba'zilarimiz ba'zilarimizga qaraganda ertaroq, yoki kechroq o'lamiz. O'rtacha hisobda, ayollarga qaraganda erkaklar va aholini ko'pchilik qismini tashkil etuvchi etnik guruh a'zolariga qaraganda ozchilikni tashkil etuvchi etnik guruh vakillari tezroq vafot etishadi. O'lish darajasining qisqarishi bir qancha ijtimoiy va iqtisodiy foydali jihatlari bor. Sog'lomroq kishilar yaxshiroq va uzoqroq ishlay olishadi, shuning uchun ishchilarning samaradorligi va ishlab chiqarish salohiyati

ancha oshdi. Ko'plab tirik qolayotgan bolalar endi ancha potensial va ishchan ishchilarga aylanishmoqda. Bolalar tirik qolishidagi ancha yutuqlar va bolalar o'limining qisqarishi jamiyatni bola tarbiya qilishdagi ko'plab tashvishlardan xalos etdi. Shu paytning o'zida o'lim darajasining tushishi aholi o'sish darajasining oshishi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq, albatta tug'ilish darajasi ham tushmasa; shunday qilib, o'limning qisqarishi aholi tarkibi va tuzilishiga ham ta'sir qiladi. Bu ijtimoiy, iqtisodiy va demografik natijalar tufayli kelajakda kutiladigan o'lim darajalari haqida ko'plab muhokamalar mavjud.

Yevropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichi yosh bo'yicha qaralganda, bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda aksincha, juda baland. Aholi yosh tarkibida keksalar ko'pligini inobatga olsak, tabiiy ravishda, bu umumiy o'lim ko'rsatkichiga ta'sir etishini aniqlaymiz. Bundan tashqari, Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi. Tug'ilish darajasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi, aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqaradi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shu holat oddiy aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda, ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda. Taqqoslash uchun tanlab olgan qit'amiz Afrikada esa ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi qoloqlik, sog'liqni saqlash sohasining yetarli rivojlanmaganligi, tug'ilayotgan farzandlar sonining haddan tashqari ko'pligi va ular o'rtasida o'limning yuqoriligi, umumiy o'lim ko'rsatkichining balandligiga olib kelmoqda.

Tarix davomida o'limning asosiy sabablarida katta o'zgarishlar bo'lgan. Odamlar asosan yuqumli va parazitik kasalliklardan o'lgan paytlar ham bo'lgan, ammo bugungi kundagi rivojlangan mamlakatlardagi o'limlarning asosiy sababi bu yurak kasalliklari, huruji va saratondir. Bugungi kunda, shuningdek, o'lim sabablari rivojlangan va qoloq davlatlar o'rtasida ham bir xil emas. Bu mavzu ham keyinroq muhokama etiladi.

Bizning Sanoat inqilobidan oldingi o'lim darajalari va sharoitlari to'g'risidagi bilimlarimiz juda oz u paytlarda o'lim darajasi baland

bo'lganligini bilamiz. Ammo o'lim to'g'risidagi ma'lumotning aniqligi va mavjudligi ko'plab ochiq savollarga javob topgan bo'lar edi. Urushning o'lim bilan bog'liq bo'lgan natijalari hisoblash uchun ancha qiyin masala. Birinchi qiyin ishlardan biri bu ta'riflash masalasidir. Urush nima? Ba'zi harbiy tarixchilar va arxeologlar kamida ikki qatnashuvchi orasida bo'ladigan har qanday konfliktlarni urush, deb ta'riflashadi. Ammo bu haqiqatdan yiroq yondashuv. Hozirda olimlar urushni o'limlar soniga ko'ra ta'riflashmoqda. Devid Uilkinson 1820-yildan beri sodir bo'lgan, qurbonlar soni 300 dan ortiq bo'lgan 315 to'qnashuvni aniqlab chiqqan. Harbiy harakatlar paytida to'g'ridan-to'g'ri dushman kuchlari tomonidan sodir etilgan o'limlarga qo'shimcha ravishda bu yerda urush natijasida sodir bo'luvchi aholi yo'qotishlar, shu jumladan, soldatlar tomonidan tarqatilgan kasalliklar, talon taroj paytidagi o'limlar, dehqonchilik dalalarini vayron etilishi natijasidagi ocharchiliklar tufayli o'limlar, va nihoyat iqtisodiy va ijtimoiy beqarorlik sababli yuzaga keladigan qiyinchilik paytlaridagi o'limlar ham hisobga olinishi kerak. Qachon o'lishimizni hal etishda bizning o'zimiz muhim rol o'ynaymiz. Biz qayerda va qachon tug'ilish ustidan umuman, hech qanday nazorat yurita olmaymiz. Bizning tug'ilishimiz ota-onalarimizning qarorlaridir. Ammo bizda farzandlar dunyoga keltirish yoki keltirmaslik bo'yicha, agar keltirmoqchi bo'lsak, qayerda va qachon dunyoga keltirish bo'yicha ancha nazoratga egamiz. Bizning o'lishimiz bu bir demografik rolga o'xshaydi. Biz umrimizni qisqartirish yoki uzaytirish bo'yicha ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lishimiz ham, ega bo'lmasligimiz ham mumkin. O'lim haq bo'lganiga qaramasdan, umrimiz miqdori ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi; ba'zilar ustidan nazorat qila olmaymiz (masalan: jinsimiz va irqimiz), ammo boshqalari ustidan ancha nazoratga egamiz. Undan tashqari, biz shunchaki o'limimizning vaqti va xususiyatlaridan tashqari boshqalarning o'limiga ham ta'sir o'tkaza olamiz. O'lim ta'siri ijtimoiy va geografik xususiyatlarga qarab ancha farqlanadi. Yuqori tabaqa vakillari quyi tabaqa vakillariga qaraganda ko'proq yashashadi. Turmush qurgan insonlar yakka yoki ajrashganlarga qaraganda ko'proq yashashadi. Bish bular haqida keyinroq to'xtalamiz.

9.2. Aholi o'limining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari

O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarida, avlodlarda, davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo'ladi. O'lim jarayonini tahlil etishda mutloq va nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Birinchisi mutloq raqamlar bu jami o'limlar sonidir. Ikkinchisi nisbiy ko'rsatkichlar yani koeffitsiyentlardir.

O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffitsiyentlardan foydalaniladi. O'limning umumiy koeffitsiyenti:

$$K_m = \frac{M}{TP} \times 1000,$$

bunda

K_m – o'lim umumiy koeffitsiyenti (promilleda ifodalanadi).

M – o'rganilayotgan davrdagi o'lganlar soni.

T – davr

P – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

O'limning umumiy koeffitsiyentiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ko'pligi o'limning umumiy koeffitsiyentini ko'tarilishiga olib keladi.

9.1-jadval

O'lim umumiy koeffitsiyentining shkalasi

O'limning umumiy koeffitsiyenti,	O'lim darajasini baholash
	O'rta
	O'ta baland

O'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq o'rganishda uning maxsus koeffitsiyentlari orqali (yosh guruhleri va jinslar bo'yicha alohida ifodalanadi) aniqlanadi. O'limning yosh guruhleri bo'yicha koeffitsiyenti alohida yoshlar (1,2,3,4,5,...) yoki yosh guruhleri (1-4, 5-9, 10-14...) bo'yicha hisoblanib, har 1000 ta o'rganilayotgan yoshdagi aholiga nisbatan shu yoshdagi o'lganlarning o'rtacha sonini aniqlaydi va promilleda (‰) ifodalanadi.

$$m_{x/x+z} = \frac{M_{x/x+z}}{TP_{x/x+z}} \times 1000$$

bu yerda,

$m_{x/x+z}$ – o'limning yosh guruhleri bo'yicha koeffitsiyenti ifodasi.

T – o'rganilayotgan davr, yil.

$M_{x/x+z}$ – o'rganilayotgan yosh guruhidagi jami o'lganlar soni.

$P_{x/x+z}$ – o'rganilayotgan yosh guruhidagi aholining o'rtacha soni.

O'limning yosh guruhleri bo'yicha koeffitsiyenti yordamida har bir yosh guruhida sodir bo'layotgan o'lim hollari va omillari o'rganiladi va o'lim jadvali tuzishda foydalaniladi.

Umuman bolalar o'limi ikkiga (ya'ni, 0 oydan 12 oygacha) go'daklar o'limi va (0 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan) **bolalar o'limiga** ajratiladi.

Aholi guruhidagi o'lim jarayonini o'rganishda go'daklar o'limi, ya'ni bir yoshgacha (0-12 oy) bo'lgan bolalar o'limi ham juda ahamiyatlidir. Chunki, ko'p hollarda go'daklar o'limi birmuncha ko'proq bo'lib, aholi o'limining umumiy koeffitsiyentining yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham go'daklar o'limi alohida hisoblanadi. Go'daklar o'limi har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan, shu yoshda o'lgan go'daklarning sonini bildiradi va promilleda ifodalanadi.

$$m'_0 = \frac{M'_0}{N'} \times 1000$$

yoki quyidagicha ifodalanadi

$$\frac{\text{bir yoshgacha o'lgan jami bolalar soni}}{\text{o'rganilayotgan davrdagi bir yoshgacha bo'lgan tirik tug'ilgan bolalar soni}} \cdot 1000$$

O‘lim hodisasining katta yoki kichik ko‘rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi bilan bevosita bog‘liq. Har 1000 ta tug‘ilgan chaqaloqqa to‘g‘ri keladigan go‘daklar o‘limi dunyo bo‘yicha 32 tani tashkil etadi. Shundan Afrikada bu raqam 51 ta, Yevropada 4 ta, Okeaniyada 20 ta, Osiyoda 28 ta va Amerikada eng kam 14 taga teng (2017-yil). Ma‘lumki, bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi bu birinchi yil bolalar hayotida ro‘y beradigan o‘lim hodisasidir. Go‘daklar o‘limini qiyoslash borasida maxsus shkaladan foydalaniladi.

BMT ma‘lumotlarining tahliliga ko‘ra, go‘daklar o‘limi ba‘zi Osiyo davlatlarida 1-1,5 hatto 2 martaga oshganligi kuzatiladi. Go‘daklar o‘limi koeffitsiyentining pasayishi aholi umumiy o‘lim darajasining qisqarishida muhim rol o‘ynaydi.

Go‘daklar o‘limi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, aholining demografik holatini, tibbiy xizmat sifatini, ko‘rsatuvchi asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bir yoshgacha bo‘lgan o‘lim ko‘rsatkichlarining aksariyati boshqa yosh guruhlari o‘limidan yuqori bo‘ladi. Go‘daklar o‘limi onalar o‘limi darajasi bilan bir qatorda u reproduktiv salomatlik holatini hamda pediatriya va boshqa xizmatlar sifatini ham ko‘rsatadi.

9.2-jadval

Go‘daklar o‘limi koeffitsiyentining shkalasi

Go‘daklar o‘limi koeffitsiyenti, % da	Go‘daklar o‘limi darajasi
20 gacha	juda past
20-34	Past
35-49	o‘rta
50-64	Baland
65 va undan yuqori	o‘ta baland

Go‘daklar o‘limi quyidagi uch davrga ajratilib o‘rganiladi: **perinatal davr; neonatal davr; postneonatal davr** bu davrda o‘lim ehtimoli yuqori buladi.

1. Perinatal davr — homilaning 28 haftadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Perinatal davr homila va yangi tug‘ilgan chaqaloq hayotida o‘lim ehtimoli yuqori bo‘ladi. Ushbu davrga hayotning birinchi yilidagi o‘limining 70 foizi to‘g‘ri keladi. Mazkur davrga homila rivojlanishidagi sharoit va mexanizmlarning kompleks ta‘siri, uning tug‘ilish va hayotning dastlabki 7 sutkasi (168 soat) sharoitlari, shuningdek, uning tug‘ilishiga, tug‘ilayotganida yoki tug‘ilishi bilan oq o‘lishi ehtimolini nazarda tutuvchi *perinatal o‘lim* tushunchasi va ko‘rsatkichiga xosdir.

«Perinatal o‘lim» tushunchasi birinchi marta S. Pefler (1948 y.) *tomonidan qollanllgan* bo‘lib, «tug‘ruq atrofidagi yo‘qotish», degan ma‘noni anglatadi.

Perinatal o‘lim dinamikasi, chaqaloqlar o‘limining statistik qayd etilishidagi noaniqliklarni aks ettirishi mumkin, chunki ushbu davrdagi o‘lganlar soni ham tirik, ham o‘lik tug‘ilganlarning umumiy soni bilan taqqoslanadi.

$$p = \frac{r + l}{l} \times 1000 \quad (7.8)$$

Bu yerda r — perinatal o‘lim koeffitsiyenti; r — o‘lik tug‘ilganlar soni; l — hayotining birinchi 7 kunigacha o‘lganlar soni; l — barcha tug‘ilganlar soni (tirik va o‘lik).

2. Neonatal davr bolaning tug‘ilganidan to 28 kunigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘rsatkich go‘daklar o‘limining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, chaqaloqlarning shu davrga to‘g‘ri keladigan o‘lim salmog‘i qancha baland bo‘lsa, go‘daklar o‘limining darajasi shunchalik past bo‘ladi.

Neonatal o‘lim quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$n = \frac{y}{l} \times 1000 \quad (7.9)$$

bu yerda n — neonatal o‘lim koeffitsiyenti; y — 0-27 kunlik davrida olgan chaqaloqlar soni; l — tirik tug‘ilgan bolalar soni.

3. **Postneonatal davr.** Bu neonatal davrdan keyingi davr bo'lib (28 kundan 1 yoshga to'lgunga qadar), shu davrda o'lgan bolalar sonini ifodalaydi.

Endogen omillar bilan ko'proq bog'langan, ya'ni ona salomatligi va homiladorligi davridagi hayot tarzi bilan belgilanuvchi neonatal o'limdan farqli ravishda, postneonatal davrda bola salomatligiga tashqi omillarning ta'siri ortib boradi. Bular jumlasiga parvarish qilish, ovqatlanirish, pediatr xizmatining sifati va h.k.lami kiritish mumkin.

Aholi o'lim darajasini o'rganishda onalar o'limini mukammal o'rganib borish zarurdir. Onalar o'lim tug'ilish darajasi yuqori, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi nisbatan sust davlatlarda baland bo'lib, u umumiy aholi o'lim ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir etadi. Onalar o'limiga homiladorlikning oxirgi (28 haftadan keyin) hamda farzand tug'ilgandan keyingi (6 hafta) davrida sodir bo'lgan ayollar o'limi kiritiladi. Onalar o'limi har 1000 ta tuqqan ayollarga yoki har 1000 ta tirik tug'ilgan bolalarga nisbatan hisoblanadi.

9.3. Dunyo mamlakatlarida aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining hududiy xususiyatlari

Aholining juda ko'p qismi, ayniqsa, Osiyo, Afrika hududlarida yuqumli infeksiyon kasalliklardan bolalik davrida ko'z yumishgan. Qadimda yer sharida go'daklar va ayollar o'limi ayniqsa, yuqori bo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrlarida turli kasalliklar ayniqsa qon yo'qotish tufayli halok bo'lganlar. Markaziy Osiyo davlatlarida XIX asr oxiri – XX asr boshlarida har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqlardan bir yoshgacha bo'lgan davrda 300-400 tasi, ba'zi davrlarda esa, 500-600 tasi nobud bo'lgan. Qadimda aholi o'limining yuqoriligi, qayd etilganidek, aholining turmush darajasiga, tibbiy xizmatlarning etishmasligiga, aholining ma'lumotlik darajasining pastligiga, farzandlar tug'ilishining yuqoriligi va farzandlar tug'ilishi orasidagi davrning nisbatan qisqaligi kabi omillar bilan bog'liq edi.

Dunyo hududlarida aholi o'limi dinamikasi
(1000 aholiga nisbatan o'lganlar soni)*

Hududlar	1958-1962-y.	2001-y.	2010-y.	2017-y.
Dunyo bo'yicha	17	9	8	8
Yevropa	10	11	11	11
Osiyo	20	8	7	7
Afrika	23	14	12	9
Shimoliy Amerika	13	8	8	8
Lotin Amerikasi	-	-	6	6
Avstraliya va Okeaniya	8	7	7	7

* Население мира. М., 1965. С 12; Население и общество. (Информбюллетен РАН. М., 2001 № 56. Population Reference Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

Hozirgi davrda dunyo bo'yicha aholi o'lim ko'rsatkichlari Osiyo, Afrika, Amerika, Okeaniya hududlarida kamayib, Yevropa hududida esa, ortib borayotganligi kuzatiladi. Umuman, sayyoramiz aholisida o'lim jarayoni XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida 2-2,5 marta kamaygan. Hozirgi davrda o'limga ekzogen omillar (organizmning qarishi va uning kasallanishi tufayli sodir bo'lgan ichki muhit omillari) sabab bo'lmoqda. Bu hol, albatta jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, turmush tarzining yaxshilanishi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning oshib borishi bilan bog'liq. Lekin Yevropa davlatlarida aholi o'lim ko'rsatkichlarining birmuncha ko'tarilishiga demografik omil, ya'ni aholi tarkibida qariyalar (60-65 yosh va undan yuqori) salmog'ining ortib borishi ta'sir etgan. Ma'lumki, aholi o'limining umumiy koeffitsienti aholining yosh tarkibiga bevosita bog'liq. Agar aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) va yoshlar (16-29 yosh) salmog'i yuqori bo'lsa, o'lim koeffitsiyenti kamayadi. Dunyoning juda ko'p davlatlarida XX asr boshlarida aholi o'rtacha 35-40 yil umr ko'rgan bo'lsa, hozirgi vaqtda – o'rtacha 63-68 yosh umr ko'rishi kuzatiladi. Yevropada esa, bu ko'rsatkich 70-79

yoshga etdi. Mazkur hududda tug‘ilishning keskin kamayishi aholi tarkibida bolalar va yoshlar salmog‘ining keskin kamayishiga olib kelgan bo‘lsa, aholining umr ko‘rish muddatini uzayganligi qariyalar salmog‘ining oshib borishiga olib keldi. Natijada, Yevropada o‘lim ko‘rsatkichlari ko‘tarildi.

9.3-jadval

Dunyo hududlarida aholining tug‘ilganda kutilayotgan umr ko‘rish yoshi*

Hududlar	Yerkaklar		ayollar		Jami	
	2010 y.	2017 y.	2010 y.	2017 y.	2010 y.	2017 y.
Dunyo bo‘yicha	67	70	71	74	69	71
Afrika	53	61	56	64	55	63
Amerika	72	74	78	80	75	77
Osiyo	68	71	71	74	69	72
Yevropa	72	75	80	81	76	78
Avstraliya va Okeaniya	74	75	78	79	76	77

*Population Refyerence Bureau. 2010, 2017 World Population Data Sheet.

Hammamizga ma‘lum yuqori aholi o‘limi kuzatilayotgan davlatlarda o‘rtacha umr ko‘rish past ko‘rsatkichni tashkil qiladi. 2017-yil eng uzoq umr ko‘rsatkichi Yaponiya (84 yosh). Xitoy-Gonkong (84 yosh), Xitoy-Makao (83 yosh), Singapur (82 yosh), Islandiya (82 yosh), Finlyandiya (81 yosh), G‘arbiy Yevropa davlatlarida (79-82 yosh), Kosta-Rika, Gvadelupa davlatlarida (80 yosh) kuzatilmoqda. Eng qisqa umr ko‘rish esa Markaziy Afrika Respublikalari (45 yosh), Angola (46 yosh), Nigeriya (47 yosh), S‘yerra-Leona (48 yosh) va Burundi (49 yosh) davlatlarida qayd etilgan. Statistik ma‘lumotlar tahlilidan 2017-yilda aholining o‘rtacha umr ko‘rish ko‘rsatkichi dunyoda erkaklarda 70 yosh, ayollarda 74 yoshga teng bo‘ldi. Rivojlangan davlatlar bu borada yetakchi, ya‘ni, eng baland aholi o‘rtacha umr ko‘rishi, aynan shu davlatlarga to‘g‘ri keladi (erkaklar- 76, ayollar- 82 yosh). Mazkur yilda o‘rtacha umr

ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani, aksariyat ayollarda kuzatilmoqda. Erkaklarda deyarli bunday ko'rsatkich qayd etilmaydi.

Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya- 87, Gonkong- 86, Koreya Respublikasi – 85 yosh, Kanada-84 yosh, AQSH -81 yosh, Isroil - 84 yosh va barcha G'arbiy hamda Shimoliy Yevropa (81.7) davlatlari aholisini yoshi 80 yoshdan baland. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Uzoq umr ko'rish yoshiga erishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga, sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi erishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Aholining o'rtacha umr ko'rish muddatini aniqlashda, ayniqsa, go'daklar o'limi alohida ahamiyatga egadir. Go'daklar o'limining yuqori bo'lishi aholi o'rtacha umr ko'rish muddatini ko'rsatkichlarini qisqarishiga olib keladi. Masalan, Rossiyada 1993-yil o'g'il bolalar uchun go'daklar o'limi 20,0 % edi. Demak, tug'ilgan 1000 ta o'g'il boladan 20 tasi 1 yoshgacha yashamaydi. Ikki yoshli o'g'il bolalarda esa, shu yili o'lim ehtimoli 6 kishini tashkil etgan. Ko'rinib turibdiki, 1000 ta tug'ilgan boladan 1 yoshga 980 tasi, 2 yoshgacha esa, 974 tasi o'tadi. Ana shunday usul bilan avlodning oxirigacha umr ko'rish ehtimoli hisoblab chiqiladi. Yuqorida qayd etilganidek, oldingi asrda aholi o'rtacha 30-35 yil umr ko'rgan. Hozir esa bu ko'rsatkich ikki barobarga oshgan. 2010-yilda aholi umr ko'rish bo'yicha eng past ko'rsatkichlar Markaziy va Janubiy Afrika davlatlarida kuzatilmoqda (erkaklar 42-44, ayollar 45-46 yosh). Agar biz AQSHda yashasak va oq irqli ayol jinsiga mansub bo'lsak, biz o'rtacha hisobda eng uzoq yashaymiz; bordi-yu afrikan-amerikan irqli erkak jinsiga mansub bo'lsak eng qisqa umrga ega bo'lamiz. Bu yangi XXI asr boshlari hisobida AQShdagi oq ayol o'rtacha 80.2 yil, qora erkaklar esa 68.6 yil yashashlari aniqlangan.

O'lish va uning ta'sirlari jamiyatda chuqur muhokamada bo'ladi. Demograflar ko'pincha barcha shaxslarni yakka jamiyat a'zolari sifatida ko'rishadi va ularning yoshlarining farqlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ustida tadqiqot olib borishadi. Misol uchun,

2006-yilda Yaponiyada tug'ilgan chaqaloq 82 yil va Shvetsiyada tug'ilgan chaqaloq 81 yil yashashi kutilgan. AQSHda 2006-yilda tug'ilgan chaqaloqlarning o'rtacha umr uzoqligi 78 atrofida bo'lgan. Bunday xavas qilarli natijalarni 2006-yilda Botsvana yoki Lesotoda tug'ilgan chaqaloqlar bilan solishtiring: bu mamlakatlarda ko'rsatkich mos ravishda 34 va 36 yilni tashkil etadi. Nega Botsvana yoki Lesotoda tug'ilgan bolalar Yaponiya yoki Shvetsiyada tug'ilgan bolalarga qaraganda juda kam umr ko'rishadi? Bunga rivojlanish darajasi, tibbiy sharoitlar va boshqa faktorlar aralashadi va biz bularga keyinroq to'xtalamiz. Biz Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mamlakatlar past umr ko'rish ko'rsatkichiga ega bo'lgan yagona mamlakatlardir degan taassurot qoldirmoqchi emasmiz. Afg'onistonda bu ko'rsatkich 43 yosh va Gaiti hamda Iroqda esa 58 yosh, ya'ni yuqoridagilardan ozgina yuqoriroq va bu mamlakatlar Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mintaqasida joylashmagan. BMT ma'lumotlarining tahliliga ko'ra, go'daklar o'limi ba'zi Osiyo davlatlarida 1-1,5 hatto 2 marta oshganligi kuzatiladi. Bularga misol tariqasida quyidagi jadvalni keltirish o'rinlidir. Statistik ma'lumotlar tahlilidan aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunyoda erkaklarda 70 yosh, ayollarda 74 yoshga teng (2017-yil). Rivojlangan davlatlar bu borada yetakchi, ya'ni, eng baland aholi o'rtacha umr ko'rish, aynan shu davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar- 72.1, ayollar- 79.4 yosh).

O'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani aksariyat ayollarda kuzatilmogda. Erkaklarda deyarli bunday ko'rsatkich qayd etilmaydi. Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya- 81.9, Gonkong- 82.8, Finlyandiya- 81.5, Shvetsiya- 82.6, Norvegiya- 81.9, Gretsiya- 80.9, Italiya- 81.9 va G'arbiy Yevropa (81.7) davlatlarining hammasi kiradi. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Uzoq umr ko'rish yoshiga yerishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi yerishgan yutuqlari bilan belgilanadi.

Qadimgi Gretsiyadan topilgan hayot lavhachasi tug'ilishdan boshlab umr miqdorini 30 yosh, deb belgilagan. Rim Misri Senzusida keltirilgan ma'lumotlarda Misrda o'sha paytlarda o'rtacha umr miqdori 22-25 yosh bo'lib, bu ma'lumot Rim Shimoliy Afrikasidagi qabrtoshlaridagi yozuvlar orqali tasdiqlangan. Jon Gront tomonidan ishlab chiqilgan hayot jadvali shuni ko'rsatadiki, XVII-asrda Londonda tug'ilgan bolalarning 35 %i 6 yoshgacha yetib borishmagan. 2005-yil uchun AQSH hayot jadvali shuni ko'rsatadiki, AQSHda tug'ilgan qizchalarning 1% dan kamrog'i 6 yoshgacha vafot etgan.

XVIII asrda AQSH va Yevropaning ko'pgina qismida hayot ko'rish darajasi bor yo'g'i 30-40 yil bo'lgan. 1901-yilda esa AQSH erkaklari 47.9 yil ayollari esa 50.7 yil umr ko'rishgan. Shuningdek, u paytlardagi o'lim darajasi yildan yilga o'zgarib turgan. Onda-sonda bo'ladigan epidemilayar, kasalliklar urushlar tufayli tushib kelturuvchi hayot darajalari bunday o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Bular Maltus tili bilan aytganda o'lim darajasini yuqori ushlab turuvchi "ijobiy o'lchovlar"dir. Shaharlaridagi yomon yashash sharoitlari ham yuqori o'lim darajalariga sabab bo'lgan. Ocharchilik dastlab o'limga olib keladi, deb hisoblangan. Preindustrial davrlarda aholi o'z oziq-ovqatlari ustidan biz hozirda ega bo'lgandek nazoratga ega bo'lishmagan. Qishloq xo'jaligi hosillari ko'p jihatdan qo'l mehnati samarasizligi, kemiruvchilar va hasharotlar bosqini va o'simlik kasalliklari tufayli cheklangan edi. Mo'l ko'l oziq-ovqat zahiralari noqobil saqlash sharoitlari tufayli isrof etilar edi. Transport texnologiyasi va yo'llar rivojlantirilmagan edi, shu sababli oziq-ovqat tanqisligiga uchragan hududlar boshqa joylardan zahira sifatida foydalana olmas edilar. Shunday qilib, ocharchilik katta muammo edi. Ocharchiliklarning demografik oqibatlari ko'pincha halokatli bo'lar edi. Ocharchilik ko'pincha aholining qishloqlarda yashovchi va kambag'al qismida ro'y bergani uchun, uning aniq zararini aniqlash qiyin. 1315-1317-yillardagi ocharchilik davomida Yevropaning ko'plab hududlarida aholi soni qisqargan. 1690-yillarda Shvetsiyadagi hosilsizliklar tufayli Shvetsiyaning bir necha viloyatlarida aholi soni 1/6 gacha qisqargan. 1846-1851-yillarda

Irlandiyada ro'y bergan, Buyuk Ocharchilik, deb nom qoldirgan Irland Kartoshka ocharchiligi 1 million, ba'zi manbalarga ko'ra 1,5 million odam umriga zomin bo'lgan. Agar 1840-yillar boshida Irlandiya aholisi 8,2 million bo'lganini hisobga oladigan bo'lsak, bu juda katta raqam. O'sha kunlarni ko'rgan bir Irland rohibi aytganidek: "O'lim va xonavayronlik farishtasi Irlandiya ustidan g'olibona hukm yurgizmoqda". Biz shuni ham unutmasligimiz kerakki, bu Britaniyadagi ko'zdan panada qolgan boshqa o'limlarni hisobga olmagandagi natija.

Yevropadagi so'nggi katta ocharchilik bu 1868-yilgi Fin Ocharchiligi edi. Shuningdek, Hindistonda 19 millionga yaqin odam 1891-1910-yillarda ro'y bergan ocharchilik tufayli qirilib ketishan. Dunyodagi eng halokatli ocharchiliklardan biri 1958-1861-yillar oralig'ida Xitoyda yuz bergan. Sanoat va don mahsulotlari ishlab chiqarilishi past darajalarga tushib ketishi bilan umumiy yashash sharoiti og'irlashdi va tug'ilish darajalari deyarli to'xtab qolay dedi. Dastlab oziq-ovqat tanqisligi keyin ocharchilik yuz berdi, va buning ustiga chetdan eksport qilinuvchi oziq-ovqatlar ham qisqarib ketdi. Hisob-kitoblar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ocharchilik natijasida Xitoyda 30 million aholi qirilib ketgan va o'n yoshgacha bo'lganlar o'limi soni 12 millionga chiqqan. Bu ocharchilikning asosiy sababi Mao Szedun tomonidan 1958-yilda ilgari surilgan, "*kollektiv iqtisod afzalliklarini maksimallashtirish orqali qishloq xo'jaligining buyuk potensialini tushunish uchun tabiatga qarshi inqilobiy to'qna shuvni o'z ichiga oluvchi*", tushunarsiz, amalga oshirib bo'lmaydigan "Katta Oldinga Sakrash" dastur edi. Bu iqtisodiy inqiroz va ocharchilik toshqinlar, o'simlik kasalliklari, qurg'oqchilik kabi tabiiy ofatlar va shuningdek, byurokratik samarasizlik va noto'g'ri menejment tufayli ro'y bergan edi. Insoniyat tarixi davomida, ko'pincha ocharchiliklar kichik kichik aholi guruhlarida sodir bo'lsada, katta zarar ko'rsatganlari ham uchrab turadi. Xitoydai ocharchilik shunchalik dahshatli ediki, u mamlakat aholisining 2-3 % ini qirib yubordi. Irlandiyada ham kamdan kam uchraydigan yirik natija – ocharchilik

natijasida aholining 12-18 % i qirilib ketishi kuzatilgan edi. Endi biz epidemic kasalliklar muhokamasiga o'tamiz.

Epidemik kasalliklar. Kasalliklar endemik yoki epidemik bo'ladi. Epidemik kasalliklar yoki epidemiyalar biron bir hududda infeksiyali kasalliklarning tezda tarqalishi, ko'plab o'limlarga sabab bo'lishi keyin yo'qolib ketishidir. Ko'plab yuqumli kasalliklar epidemiyalarga aylanishi mumkin. Bularga qizilcha, cho'chqa grippi, qizamiq, gripp, shamollash, isitma va boshqalar kiradi. Agar kasallik yetarli darajada barqaror saqlansa bu kasallik endemik deyiladi. Epidemiyali kasalliklar "paydo bo'ladi, cho'qqiga chiqadi va yo'qolib ketadi; endemik kasalliklar esa ma'lum bir vaqt davomida barqaror miqdorda kasallik va o'limlarga sabab bo'lib turadi". Epidemiyalar asosan mahalliy darajada boshlanadi va keyin yaqin hududlarga tarqaladi. Agar epidemiya bir necha davlat yoki qit'alargacha tarqalsa, bu "Pandemiya" deyiladi. Pandemiya iqtisodiy, demografik va ijtimoiy jihatdan epidemiyalarga qaraganda ancha vayronkorroq. Jon Kaldvel epidemiyalar zamonaviy demografiya uchun muhim edi Chunki o'limlarning izidan tu shush zarur va muhim tadqiqotga aylandi, deb yozgan edi. Masalan, Ispan gripp epidemiyasi millatlar ligasi tomonidan O'sish Nazorati tizimining tashkil etilishiga sabab bo'lgan edi. Yevropadagi eng dahshatli epidemiyalardan biri bu Qora O'lat nomi bilan tanilgan virusli kasallik tarqalishi bo'lib, u qayerdadir Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan, Ipak Yo'li orqali O'rta Yer dengiziga tarqalgan va kemalardagi kalamushlar vositasida 1347-1352-yillarda Yevropaga tarqalgan. Va nihoyat Shimoliy Yevropagacha tarqalgan bu epidemiya qit'aning 1/3 ga yaqin aholisini qirib yuborgan. Tez-tez yuz beruvchi epidemiyalar shunchalik ko'p ediki, aholi yarmigacha qisqarib ketdi va bu aholining tiklanishiga keyingi ikki asr davomidagina erishildi. 1660-yillardagi Londonda yuz bergan Buyuk O'lat keyin bir necha yillar davomida takrorlanib turdi, ammo uning miqyosi yuqoridagi Qora O'latchalik emas edi. Dastlab buni bubonik o'lat deb jo'ylashgan ammo hozirda buni ko'pchilik virusli isitmaga o'xshash kasallik, deb

hisoblashmoqda. Jon Grontning “O’lim Billi” ham shu paytlarda ishlab chqilgan.

XIX-asrda Britaniya to’rt marotaba vaboga uchragan. Va ayni shu paytlarda oddiy vrach Jon Snou vaboning tarqalish sirini yechdi va uning kashfiyoti Britaniya va G’arb dunyosini vabodan ozod qilinishiga sabab bo’ldi. Snou shuni ko’rsatib berdiki, muayyan quduqlar o’zida zararli suvni saqlaydi va vabodan o’layotganlar ham aynan shu suvlardan ichganlardir. U bugungi kunda ba’zilar fan tarixidagi eng mashhur hujjatlardan biri, deb hisoblaydigan, quduqlar va Londonning vabo tarqalgan joylarining xaritasini chizdi. Bu Geografik Axborot Tizimlari (GAT) muayyan quduqlarning yopili-shiga olib kelgan siyosatni belgilagan eng dastlabkilaridan biri edi. Stiven Jonsonning “Arvoh Xarita” (2006) kitobi Snou harakatlarining ajoyib, qiziqarli va ta’sirlanarli jihatlari ta’riflangan tengsiz asardir.

Yaqin muddat oldin sodir bo’lgan epidemiyalardan biri bu Ispan gripp epidemiyasi bo’lib, Ispaniya bundan zararlangan dastlabki Yevropa davlati bo’lganligi uchun shunday atalgan. U 1918-yilda Yevropa bo’ylab, keyin esa butun dunyoga tarqaldi. Epidemiologlar Nayal Jonson va Yurgen Myullerlar ta’kidlashicha, epidemiya 50 millionga yaqin inson umriga zomin bo’lgan; Ba’zilar esa undan ham yuqori natijani ko’rsatishadi. Ispan grippi o’sha paytda yer sharining yarmiga teng bo’lgan 1 milliard insonni zararlagani aniq. Ba’zilar ko’plab grippdan o’lganlar kam rivojlangan mamlakatlarda hisobga olinmay ketilgan, deb taxmin qilishadi. Epidemiya Shimoliy Amerikaga tarqalgan paytda, AQShda 700000 ga yaqin kishi o’lgan va Kanadada esa 50000 kishi. Kvebek va Labradorning ba’zi kichik qishloqlari butunlay qirilib ketgan. Bu epidemiyaning asosiy qurbonlari 20 va 40 yosh o’rtasidagi yosh insonlar bo’lishgan. Agar AQShdagi 1911-1917 va 1918-yil uchun maxsus-oylik o’lim darajalarini tekshiradigan bo’lsangiz, grippning ta’siri 1918-yilning so’nggi choragida, aniqrog’i, oktyabr oyida bo’lganiga guvoh bo’lasiz. 1918-yilda San-Fransiskoda fuqarolardan ko’chaga chiq-qanlarida va jamoat joylarida bo’lganlarida niqob taqishlarini talab qiluvchi qonun qabul qilingan. Shahar Sog’liqni Saqlash

Depatramenti tomonidan “*Niqob taqing va hayotingizni saqlab qoling! Bir Niqob Grippga qarshi 100% himoya!*” nomli shior tarqatilgan. Shunga qaramasdan, San-Fransisko va yaqin atroflarda 3500 kishi, shu jumladan, AQShdagi demografiya kitobining muallifi Dadli Postonning bir xolasi va uch bobo va buvilari ushbu grippdan vafot etishgan. Postonning onasi, Ketrin Kara ham 1918-yilda gripp bilan kasallangan va xayriyatki omon qolgan va 1936-yilda Dadli Postonga turmushga chiqqan va 1940-yilda Dadli Poston Kichik (muallif) va Katlin (singlisi)ni dunyoga keltirgan. 1979-yilda vafot etgan Ketrin Kara Poston o‘z farzandlar va nabiralari hayotida ulkan o‘ringa ega edi. Bu o‘rinning shunchalik kattaligidan, Dadli Poston Kichikning qizi Nensi o‘z qizchasini katta buvisi sharafiga Kara, deb nomladi. Agar Ketrin Kara ham o‘z oila a‘zolari va singli bilan bu epidemiyada vafot etganida yuqorida sanalgan odamlarning ko‘pchiligi dunyoga kelmas edi.

WRITE PLAINLY WITH UNFADING INK THIS IS A PERMANENT RECORD
 All items of information should be carefully checked. Each entry should be typed EXACTLY. Physicians should state CAUSE OF DEATH in plain terms, but it may be properly classified. Use abbreviations of OCCUPATION in very important. See instructions on back of certificate.

City and County of SAN FRANCISCO		State Index No. 0627
FULL NAME Enni Karani		Local Registered No. 560 Bartlett
PERSONAL AND STATISTICAL PARTICULARS SEX Female RACE White BIRTH 1877 PLACE OF BIRTH San Francisco, Cal. OCCUPATION Housewife RESIDENCE 560 Bartlett St. MARITAL STATUS Married MARRIAGE DATE 1900 PLACE OF MARRIAGE San Francisco, Cal. PLACE OF BIRTH San Francisco, Cal. PLACE OF DEATH San Francisco, Cal. PLACE OF BURIAL San Francisco, Cal. DATE OF BURIAL Dec 2 1918		MEDICAL CERTIFICATE OF DEATH I, the undersigned, being a duly licensed physician, certify that I last saw the above-named person on Dec 2 1918 and that death occurred on the day stated above with influenza as the cause of death. The cause of death was as follows: Influenza
SIGNATURE OF PHYSICIAN Patrick J. Conroy Irishland Catharine J. Gannon Irishland		SIGNATURE OF REGISTRAR John J. Gannon Irishland

9.1-rasm. 1918-yilda San-Fransiskoda kuzatilgan Gripp epidemiyasining qurboni Enni Karaning O‘lim To‘g‘risidagi Guvohnomasi.

Bugun yer sharini bir epidemiya,yani OITS/OIV epidemiyasi larzaga solmoqda. Dunyo 25 yildan beri OITS/OIV epidemiyasi bilan zararlanib kelmoqda. Oritirilgan Immunitet Tanqisligi Sindromi (OITS) AQSHda dastlab 1981-yilda bir jinsli nikoh tarafdorlari bo'lgan erkak (gey)lar orasida kuzatilgan.

OITSning gemofil xususiyatlari 1982-yilda ma'lum bo'lgan. Oritirilgan Immunotanqislik virusi (OIV) ilk bor 1983-yilda Parijdagi Paster Institutida ajratilgan va uning OITSni keltirib chiqarilishi aniqlangan. 1980-yillar oxiri va 1990-yillarda OITS dunyoning hamma mintaqasida aniqlangan. OIV insondan insonga tana suyuqligi aloqasi orqali yuqadi. Basia Zaba yozishicha: "bu jinsiy aloqa paytida, ona va bola aloqasida, homiladorlik paytida, dunyoga keltirish paytida, yoki emizish paytida yuqishi mumkin. Shuningdek bu sterillanmagan teri osti ignalari va jarrohlik uskunalari orqali ham tarqaladi".

2006-yilda UNAIDS, BMT OITS/OIV bo'yicha Qo'shma Dasturi hisobiga ko'ra virus aniqlangan 1981-yildan beri dunyo bo'yicha 65 million kishi zararlangan va 25 million kishi vafot etgan. 2006-yildagi OIV bilan yashayotgan barcha insonlarning uchdan ikki qismi Afrika-Janubiy Sahroi Kabir mintaqasidadri va u yerda OIV asosan qarama-qarshi jinsiy aloqa orqali bu virus tarqalgan. OIV ning aynan bu hududda yuqori darajada tarqalganligi sabablaridan biri bu erkak va ayolning bir paytning o'zida bir partnyordan ortiq miqdordagi kishilar bilan aloqa qilishidadir. Masalan, bir erkak bir paytning o'zida xotinga va bir yoki bir nechta o'ynashlarga ega bo'lishi mumkin. Bu xususiyat virus tarqalishini bir necha barobar ko'paytiradi. Markaziy Afrika bu virusdan eng ko'p zararlangan hudud bo'lishiga qaramasdan, Markaziy Osiyo va Sharqiy Yevropada ham bu ancha tarqalgan. Bu hududlarda 2005-yilning o'zida 220000 kishi zararlangan. Xitoyda ommaviu OITS/OIV epidemiyasi tarqalishi xavfi bo'lib, 30 milliondan ortiq bolakaylar uylanish huquqidan mahrum bo'lishgan. Shunisi aniqki, OITS/OIV epidemiyasi insoniyatga ta'sir qilgan, qilmoqda va qilib keladi ham. Yuqorida


aytilganidek, 25 million kishi allaqachon OITSDan vafot etgan va yana 40 million kishi bu kasallik bilan yashab kelishmoqda. BMT o'zining 2006-yildagi Dunyo Aholisi Istiqbollari nomli ma'lumot-nomasida shuni keltiradiki, OIV virusi mavjudligi darajasi bu virus tarqalgan 58 mamlakat aholisi orasida 1 % gachani tashkil etadi. OIV mavjudligi darajasi 1 % dan kam bo'lgan 4 yirik mamlakat: Braziliya, Xitoy, Hindiston va AQSH ham hisobga olinishi kerak, Chunki ulardagi aholi soni bu virus ta shuvchilarning ancha ko'pligini ko'rsatadi. Bu mamlakatlar bilan, bizning ro'yxatimiz 62 mamlakatni tashkil etadi. Bu mamlakatlardan 40 tasi Markaziy Afrikada, 11 tasi Lotin Amerikasida va 5 tasi Osiyoda joylashgan. Bu mamlakatlar bir guruh sifatida butun dunyo bo'yicha bu virus bilan zararlangan 40 million aholidan 35 millionini yoki 90 % ini o'z ichiga oladi. Afrika Qit'asi bu mintaqalar orasida eng birinchi o'rinda turadi.

Afrikadagi 8 mamlakatda OIV virusi aniqlanganlik darajasi hayron qoldirarlik darajada yuqori. Svazilendda 15-49 yoshdagi aholining 33,8 foizi OIV virusi bilan zararlangan. Botsvanada bu ko'rsatkich 24,4 %, Lesotoda 23,1 %, Zimbabvedda 20,0 %, Namibiyada 19,7 %, Janubiy Afrikada 18,9 %, Mozambikda 16, %, va Zambiyada 16,9 %. Afrikadan tashqari, hech qaysi davlatda Gaitidagi 3,8 % ko'rsatkichga teng natija yo'q. BMT ma'lumotiga qaraganda, epidemiya tarqalishda davom etadi va ba'zi mamlakatlar kelajakda ko'p yillar davomida o'z aholisi tarkibida OIV infeksiyasi bilan zararlanganlar soni ortishiga guvoh bo'lishadi. OITS haqiqatda ham aholining kasallanishi, o'lim darajasi va soni qisqarishiga juda ham katta sabab bo'lmoqda: Bu virusdan jiddiy zarar ko'rgan mamlakatlarda o'rtacha umr ko'rish uzoqligi shiddatli qisqarishlarga uchrarmoqda. 2005-yilda virusga egalar foizi 24%, deb hisoblangan Botsvanada o'rtacha umr ko'rish muddati 1985-1990-yillardagi 64 yildan, 2000-2005-yillarda 47 yoshga tushib qoldi. 2005-2010-yillargacha umr ko'rish yoshi OIV bilan kasallanishning qisqarishi va anti-retrovirus terapiyasi imkoniyatlari kengayishi natijasida yana 51 yoshga ko'tarilishi kuzatilmoqda. Janubiy Afrikada esa bu epidemiyadan eng katta zarar ko'rgan mamlakatlar joylashgan bo'lib,

bu yerda aholi o'rtacha yoshi 20 yil davomida 61 dan 49 yoshga tushib qolgan. Janubiy Afrikadagi ta'sir kutilmagan bo'lishiga qaramasdan, bu hududdagi katta zarar ko'rgan mamlakatlarning ko'pchiligi yaqin yillarda umr davomiyligida ancha qisqarishlarni boshlaridan o'tkazishdi. Kelinglar, o'limning kelajakda kutilayotgan holatlarini hayot davomiyligi jihatidan ko'rib chiqamiz. Inson hayot darajasi yuqori limitini yoqllovchi asosiy shaxs bu Jeyms Frays bo'lib, u 1980-yilda insonlar maksimal hisobda o'rtacha 85 yilgacha yashashlari mumkin deb bashorat qilgan edi. U 2000-yilda e'lon qilingan bir ishida insonlar o'rtacha umr yoshi 1980-yildan beri oshganini va bu oshish kelajakda 85 yoshdan ozgina ammo ko'p oshmasligini ta'kidladi. Jey Olshenski va Bryus Kerns (2001) Fraysning fikrlarini ma'qullab, barcha tirik organizmlar "biologik kafolat"ga ega degan fikrni bildirganlar. O'rtacha 100 yil umrga qarshi o'z fikrlarini bildirib, ular ta'kidlashdiki, "agar ko'pchilik insonlar 100 yil yashash qobiliyatiga ega bo'lishsa, 80 yoshdan keyin keladigan funksional va patologik pasayishlarning qandaydir bir sababi bo'lishi kerak". Ular fikricha, ammo bunday sabab yo'q. Haqiqatdan ham, "80 yoshdan keyin insonlar tanasidagi barcha biologik tizimlarida qisqarishlar sodir bo'la boshlaydi". Ularning so'zlariga qaraganda, AQSHda XXI asrning har qanday paytida ham odamlar o'rtacha 90 yil yashashlari qiyin.

Boshqa tarafdin, o'limlarning qisqarishi va o'rtacha umr uzayishini taxmin qilayotganlarning asosiy vakili bu mashhur demograf Jeyms Vopeldir. Uning tekshirishicha qachon maksimum o'rtacha umr miqdori yuqori natijaga ko'tarilganida, bu natija ham ortda qoldirilgan. U va uning shogirdlari fikricha, insonlar va boshqa mavjudotlarning o'lim darajalari oshib bormaydi va aksincha, yosh o'tib borgan sari o'lim xavfi sekinlashib, kamayib boradi. Vopel va uning hamkasbi Jim Oppen o'zlarining gapi bo'yicha "eng zo'r umr ko'rish mashg'uloti" ma'lumotini tekshirib ko'rishdi. Ular umr ko'rish ko'rsatkichi eng uzun bo'lgan 6 mamlakat: Avstraliya, Islandiya,


Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiyadagi 1840-yildan 2000-yilgacha bo'lgan har yillik ma'lumotni yig'ib grafiklashtirishdi.



9.2-rasm. Dunyoning OIV infeksiyasidan zarar ko'rgan mintaqalarida 1986-2004-yillarda zararlanganlar sonining o'sishi.

Oppen va Vopelning fikricha, biron mamlakatdagi o'rtacha daraja va rekord daraja orasidagi farq bu o'sha mamlakatning o'sha paytdagi bilimlardan amalda foydalana olganligini ko'rsatadi. Ayon bo'lishicha, ayollar o'rtacha yashash uzoqligi to'g'ri chiziq bo'ylab yiliga 3 oydan oshib borgan. Oppel va Vopel bundan shuni keltirib chiqarishmoqdaki, agar o'sish shu chiziq bo'ylab o'sishda davom etsa, ayollar 2060-yilgacha bemaolol 100 yoshgacha yashay ola boshlashadi.


Biz Fraysdan ko‘ra ko‘proq Vopel tarafida turishni ma‘qul ko‘ramiz. Bizning dalillarni ko‘rib chiqishimiz natijalari bizning o‘zgarmas biologik yosh tushunchasiga qarshi turishga undaydi. Biz o‘rtacha yosh o‘sishi shu asrning o‘zidayoq bir necha yoshga yuqorilaydi, deb hisoblaymiz. Ayollar o‘rtacha yoshi 2060-yilgacha 100 yoshgacha yetadimi yo‘qmi buning ahamiyati yo‘q, shunisi ahamiyatliki, bu ko‘rsatkich 85 yoshda qotib qolmaydi. Yuqori daromadli 16 mamlakatda o‘tkazilgan empiriktajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, “yaqin yillardagi aholi o‘rtacha umr yoshining muntazam o‘sishi optimistlarning yaqin yillarda umr chegarasiga hali yaqinlaashmasligimizni ko‘rsatmoqda”. Ammo bu fikrni aytgan Bongaarts shuni ogohlantirish sifatida aytdiki, bu o‘sish Oppen va Vopel ta’kidlaganidek, yuqori bo‘lmaydi.



9.3-rasm. Avstraliya, Islandiya, Yaponiya, Yangi Zelandiya, Norvegiya va Shvetsiyadagi ayollarning o‘rtacha umr ko‘rish yoshi.

Rivojlanayotgan dunyoda o‘rtacha umrda albatta o‘sish bo‘ladi. Ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar o‘limi, umumiy o‘lim darajasi va onalar o‘limi hali ham yuqori. Ularning ko‘plarida yuqumli kasalliklar ko‘plab o‘limlarga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy

tibbiy va ijtimoiy salomatlik texnikalari ularning ko'plariga joriy qilinsa, umr ko'rish uzoqligi anchagacha oshishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlar juda yosh aholi tarkiblariga ega bo'lib, bu yoshlar, qarilarga qaraganda joriy etiladigan tibbiy imtiyozlardan ko'proq foyda ola oladilar. Natijada, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim darajasining qisqarilishiga erishilishi mumkin. Biz bu bashorat bilan birga shuni tushunishimiz kerakki ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda o'lim qisqarishi jarayoni to'xtab qolgan va hattoki orqaga ketish jarayoni ham bo'lgan. Bu o'limning qaytarilishi jarayoni demografiyada yangi hodisadir. Biz, 1970-yillarda talabalarda demografiyadan saboq berayotganimizda, bu hodisa hali noma'lum edi. Demografik qaytarilish nazariyasi ilgari surilgan edi, va bir kun kelib muayyan mamlakatda o'lim darajalari tusha boshlashi va hech qachon yo'nalishini o'zgartirib, o'sishi kuzatilmashligiga o'sha paytlarda ko'pchilik ishongan edi.



9.4-rasm. OIV/OITS dan katta zarar ko'rgan bir davlatlarning 2015-yilga kelib aholining OIV bilan zararlangan va zararlanmagan qismining nisbati.

9.4-rasmda OIV/OITS dan katta zarar ko'rgan bir davlatning 2015-yilga kelib aholining OIV bilan zararlangan va zararlanmagan qismining nisbati va aholining jins nisbati keltiriladi. Bu davlat

Janubiy Afrika bo'lib, bu davlat aholisining deyarli 19 %i OIV bilan zararlangan. Bu diagramma aholining OIV emas qismi va deyarli shunga yaqin natija ko'rsatilishi kuzatilayotgan OIV zararlangan qismi haqida ma'lumot keltiradi. BMT ma'lumotiga ko'ra: 2015-yilda mavjud bo'lishi kuzatiladigan 15 yoshdan yuqori bo'lgan voyaga yetgan aholi miqdori OIV infeksiyasi bo'lmaganidagi natijaga qaraganda kamroqni tashkil etmoqda (taxminan 16 million). Bu yosh qatlamning qisqarib ketishi sabablari dunyoga keltirish yoshidagi ayollarning OIV virusi sababli bevaqt nobud bo'lishlari va zararlanib tug'ilgan chaqaloqlarning yashab ketishga noqobilliklaridir. 2015-yilda Janubiy Afrika aholisi 50,3 millionni tashkil qilishi kutilgan edi. Bu esa agar OIV virusi mavjud bo'lmaganida natija 14 foiz yuqoriroq bo'lar edi deganidir. Endi biz Maltus aytib o'tgan so'nggi ijobiy cheklovlardan biri *urushlar* muhokamasiga to'xtalamiz.

Urushlar natijasida kelib chiqqan o'limlarni qayd etish va ro'yxatga olish ishlari XX asrda har qachongidan ham ko'ra ancha batafsil olib borilgan. O'limlarning eng katta miqdori, hech shubhasiz, XX asrning birinchi yarmida ro'y berdi. Birinchi Jahon Urushidagi harbiy va fuqaro qurbonlari soni 8,5 million bo'lgan bo'lsa, bu natija II Jahon Urushida 40 millionga yetdi. Ko'pincha oddiy aholi orasidagi qurbonlar soni harbiylar orasidagi qurbonlardan ortiqroq bo'ladi. Ma'lumot uchun, Rossiyadagi II Jahon Urushi qurbonlarining 60 %i fuqaro vakillari edi.


AQSHda Fuqarolar Urushida berilgan qurbonlar soniga teng qurbonlarni Amerika bundan oldin ham keyin ham bermagan edi. Urushning 1861-dan 1865-yilgacha bo'lgan 4 yil davom etgan muddatida 620000 qurbon, yarmi Shimoldan, yarmi Janubdan berilgan. Bu degani AQShning Mustaqillik Urushidan to Koreya urushigacha bergan qurbonlari soniga teng degani. Qurbon berilgan 620000 kishini o'sha paytdagi AQSHning 31 million aholisiga solishtiradigan bo'lsak; aholining o'sha paytdagi 2 %i halok bo'lgan. Bu degani hozirgi 6 million AQSH aholisiga tengdir. Ammo, 1980-yillardan beri biz Sharqiy Yevropa va Afrika mintaqalarida o'limning

qaytarilishi jarayoniga ko'pdan ko'p hollarda duch kela boshladik. Rossiya va ko'plab Sobiq Sovet ittifoqi mamlakatlarida 1980-1990-yillarda o'limning qaytarilishi jarayonlari yuz bera boshladi. 2000-yilda Rossiyada o'rtacha umr miqdori 59 yosh bo'lib, 1950-yillardagi 60 yosh natijasidan ham past edi. Shu orada, boshqa G'arb mamlakatlari o'zlarining natijalarini o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida oshirib borishdi. AQSHdagi o'rtacha umr miqdori 1960-yillardagi 70 yoshdan, 2000-yilda 77 yoshgacha ko'tarildi. Sharqiy Yevropadagi o'lim qaytarilishi jarayonlariga nima sabab bo'lmoqda? Taxminiy omillar quyidagilar bo'lishi mumkin: kasallikning oldini olish dasturlari va muqobil tibbiy xismatlarning tanqisligi; chekish va ichkilikbozlik; va shaxsiy sog'liqqa umumiy e'tiborsizlik. Bular "sobiq Kommunist rejimi nazorati ostida hayotiy tanlovlardan mahrumlik, shuningdek ishsizlik, nisbiy qashshoqlik, va Kommunistik rejimdan keyingi iqtisodiy og'ir vaziyatlardagi moliyaviy qiyinchiliklar bilan chiqisha olmaslik". 1980-yillarning o'rtalarida ko'plab Sahroi Kabirdan janubda joylashgan Afrika mamlakatlarida o'lim darajasining shiddatli oshib ketishi va uning natijasida o'rtacha umr uzoqligining ham tushib ketishlari sodir bo'ldi. 1980-yillarning boshlaridagi Lesoto, Namibiya, Janubiy Afrika, Svazilend va Zimbabve mamlakatlaridagi 5 yoshgacha bo'lgan har 1000 bolada kuzatilayotgan o'limlar soni va OITS/OIV bo'lmaganidagi bo'lishi mumkin bo'lgan natija keltirilgan. Farqlar juda katta. Bolalar o'limi agar OIV bo'lmaganida ancha past bo'lar edi. Svazilendda hozirgi daraja 143, ammo OIV bo'lmaganida bu daraja 73 bo'lar edi. Lesotoda bu natija 1000 bolaga 123 o'limni tashkil etadi, ammo OIV bo'lmaganida edi bu 71 bo'lar edi. Sahroi Kabirdan Janubdagi Afrikada "OIV infeksiyasi bilan tug'ilgan bolalar (tug'ilish paytida onasi orqali yuqtirib olganlar)ning 1/3 qismi o'zining birinchi tug'ilgan kuniga qadar vafot etishadi, va 60 %i 5 yoshga yetmasdan dunyodan ko'z yumadi".

OITS epidemiyasi ko'plab Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika mamlakatlaridagi umrni uzaytirish borasida erishilgan natijalarni barbod qildi. "Masalan, 2005-yilda aholisining ¼ qismi OIV/OITS bilan yashayotgan Lesotoda 1990-1995-yillarda o'rtacha umr

uzoqligi 60 yosh edi, ammo bu ko'rsatkich 2005-2010-yillarga kelib 34 ga tushib qolishi kutilmoqda, buning asosiy sababi OITSDan o'lishdir". Agar Lesotoda OITS bo'lmaganida bu davlatda o'rtacha umr miqdori yaqin o'n yil ichida 69 yoshga yetar edi. Uning o'rniga Lesotoning o'rtacha umr miqdori 50 % ga kam natijani tashkil etishi kutilmoqda. Epidemiya bu mamlakatlarga judayam katta talafotlar olib keldi.

Hozirdagi dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi asosiy o'limlar sabablaridan biri bu degenerativ kasalliklardir. Bu kasalliklarni davolashning yangi usullari kelayotgan o'n yilliklarida ishlab chiqilishi kuzatilmoqda. Ammo, faqatgina qarish fiziologik bosqichidagi inqilobiy kashfiyotgina hozirda rivojlangan mamlakatlar aholisini umrini ozgina uzaytirishi mumkin. Hattoki biron bir degenerativ kasallik, masalan, yurak kasalligi yoki saratonning butunlay davosi topilsa ham bu umumiy hayot miqdorida unchalik katta o'zgarishlarga sabab bo'lishi qiyin.



9.5-rasm. OITSning bolalar o'limiga ta'siri, tanlangan mamlakatlar, 2002-2005-y.

Biron degenerativ kasallikning davolanish usullarining topilishi unchalik katta o'zgarishlarga olib kelmaydi, chunki bu kasalliklar asosan katta yoshdagi insonlarda uchraydi. Biron degenerativ kasallikning yo'ldan olib tashlanishi shunchaki o'lim sababini boshqa degenerativ kasallikka o'tishiga sabab bo'ladi, va umumiy hayot uzunligini bir yoki ikki yilga uzaytirishi mumkin. Yuqorida

ta'kidlaganimizdek, rivojlangan mamlakatlardagi o'limning asosiy sabablaridan biri – bu yurak-ishemik kasalliklari va saraton. Agar AQShda yurak kasalliklari o'limga olib keluvchi kasalliklar safidan chiqarilishiga erishilsa, umumir umr davomiyligini bor-yo'g'i 5 yilga uzaytirilishiga erishish mumkin. Agar saraton olib tashlansa umr uzoqligi 3 yilga uzayadi.

Shunga qaramasdan, bu odamlar uzoqroq yashamaydi, degani emas. Ular yangi tibbiy kashfiyotlar joriy etilib amalga qo'llanilganisari uzoqroq yashashda davom etadilar. Ammo saratonga qarshi davo ham umr uzoqligini 3 yilda ortiq cho'za olmaydi. Buning sababi demografiyada Tyober Paradoksi, deb nom olgan paradox bilan bog'liq. Bu paradox ko'p yillar oldin "agar bir degenerativ kasallik davosi topilsa bu shunchaki o'lim uchun boshqa bir degenerativ kasallik orqali o'zini namoyon etishiga imkon yaratadi", deb izoh qoldirgan demograf Konrad Tyober nomiga qo'yilgan. Yoki demograf Neyten Keyfits so'zi bilan aytganda: "Hamma ertami-kechmi baribir o'ladi, shuning uchun, saraton sabablari ochib tashlanib, uning davosi topilgani bilan, xuddi shu miqdordagi o'limlar sodir bo'laveradi, bundan yagona naf saratonning o'rniga yurak va boshqalarning kasalliklari kelishi bo'ladi. Saratonning davosi odamga faqatgina yurak kasalligidan o'lish imkoniyatini beradi xolos. Shunday qilib, muayyan tibbiy innovatsiyalarning bor yo'g'i qo'lidan kelgani tanlash imkoniyatlarini vujudga keltirishidir: siz saraton o'rniga yurak kasalligidan o'lishni tanlashingiz mumkin".

Ba'zi demograflar kelajakda hayot davomiyligini uzaytirishning boshqa imkoniyatlari bo'lmaydi. Bundan tashqari bizda Sharqiy Yevropa va Sahroi Kabir Janubidagi Afrika kabi muvaffaqqiyatsizliklar bor. Umid qilamizki, ular uzoq davom etmaydi. Bizningcha, savol o'lim darajasini pasaytirib bo'ladimi yo'qmi degan masalada emas, balki, u qanchaga pasayadi, va qaysi yosh, jins, irqiy-etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va geografik guruhlar bundan eng katta foyda olishidadir. Xulosa o'rnida, sog'lom aholi hamrohligida sog'lom turmushdagi, tibbiy texnikalardagi va umumiy hayot sifatidagi davomiy o'zgarishlar porloq kelajak va'da qilmoqda.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi o'limi nima?
2. O'lim jarayoniga ta'sir omillar nimalardan iborat?
3. Epidemiologik o'tish deganda nimani tushunasiz?
4. O'limning umumiy koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
5. O'limning yosh koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?
6. O'lim sabablarining dastlabki ro'yxati kim tomonidan tuzilgan?
7. Go'jaklar o'limi qanday hisoblanadi?
8. Perinatal davr nima?
9. Neonatal davr nima?
10. O'rtacha umr davomiyligi deganda nimani tushunasiz?
11. O'lim jadvali qanday tuziladi?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b

2. Mirziyoyev Sh.M Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 484 b

3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik.- T.: “Fan va texnologiya”, 2014. – 368 b.

4. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur” 2011. – 160 b.

5. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: “Fan”, 2008. – 156 b.

6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

7. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.— М.: 1999. — 124 с.

8. Либанова Э.М. Продолжительность жизни населения: (Опыт комплексного регионального исследования). — Киев.: Наукова Думка, 1991. — 200 с.

9. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. — T., 2002. — 160 b.

10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). — T.: “Fan va texnologiya”, 2010. — 276 b.

11. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. — М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. — 944 с.

GLOSSARIY

Gerontodemografiya — aholining keksayishi, uning shakllanishini, turlarini, omillarini va demografik, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini o‘rganuvchi fan sanaladi.

Depopulyatsiya — tug‘ilishning darajasining pasayishi, o‘limning ko‘payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayish jarayonidir.

Neonatal davr — bolaning tug‘ilganidan to 28 kunigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘rsatkich go‘daklar o‘limining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, chaqaloqlarning shu davrga to‘g‘ri keladigan o‘lim salmog‘i qancha baland bo‘lsa, go‘daklar o‘limining darajasi shunchalik past bo‘ladi.

Perinatal davr — homilaning 28 haftadan boshlab, chaqaloq hayotining dastlabki 7 sutkasigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. «*Perinatal o‘lim*» tushunchasi birinchi marta S.Pefler (1948 y) tomonidan qo‘llanilgan bo‘lib, tarjima qilinganda «tug‘ruq atrofidagi yo‘qotish» degan ma‘noni anglatadi.

Postneonatal davr — neonatal davrdan keyingi davr bo‘lib, 28 kundan 1 yoshga to‘lgunga qadar bo‘lgan oraliqni o‘z ichiga oladi.

To‘liq o‘lim jadvali — bu bir yillik koeffitsiyentlar asosida hisoblab chiqariladigan o‘lim jadvali. Mazkur holda o‘lim jadvali

qadami 1 ga teng bo'ladi. Odatda, ular 0 dan 100 gacha bo'lgan yosh davrini qamrab oladi.

O'lik tug'ilish — homiladorlik 28 haftadan yuqori bo'lganda o'lik homilaning ona tanasidan ayirish. Ayrilgan homila hech qanday faoliyat ko'rsatmaydi, u ayrilganda uning mustaqil nafas olish yo'llari ishlamaydi.

O'lim — organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to'xtashi. O'lim qayd etilgandan so'ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralari ham insonni hayotga qaytara olmaydi. O'lim jadvali joriy yilda ayrim yoshlardagi o'lim ko'rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko'rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

X BOB. NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARI

- 10.1. Nikoh – sotsiologik va demografik kategoriya sifatida
- 10.2. Aholining nikoh-oila tarkibi va nikoh yoshi
- 10.3. Nikoh va ajralishni qayd etish va uning koeffitsiyentlari

10.1. Nikoh-sotsiologik va demografik kategoriya sifatida

Nikoh – bu erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlarning, ularning bir-biriga va o‘z bolalariga nisbatan huquqlari va majburiyatlarining jamiyat tomonidan qayd etiladigan va boshqariladigan shaklidir. Nikoh tarixan ko‘p asrlik uzoq taraqqiyot yo‘lini va ma‘lum bir shakllarning boshqa shakllar bilan almashinuvini bosib o‘tgan. Bu tarixiy o‘zgarishlar ana shu soha bilan bog‘liq maxsus tarixiy etnografik va tarixiy sotsiologik ilmiy adabiyotda yaxshi yoritilgan.

Nikoh haqida so‘z borar ekan uning huquqiy va boshqa turli ijtimoiy fanlarda turlicha talqin qilinishini ta‘kidlash lozim. Deylik, huquqiy nuqtai nazardan, nikoh bu erkak va ayol o‘rtasida erkin, ixtiyoriy, teng huquqli asosda tuzilgan ittifoq bo‘lib, unda qonun talablariga rioya qilish va er-xotin o‘rtasida shaxsiy hamda mulkiy qonunlar va majburiyatlarga so‘zsiz bo‘ysunish ta‘kidlanadi. O‘zbekistonda nikoh fuqarolik holati qayd etiladigan tashkilotlarda ro‘yxatdan o‘tkazilgandan keyingina qonuniy hisoblanadi va bu hozirgi vaqtda qabul qilingan oila kodeksi bo‘yicha tartibga solib turiladi. Nikoh jarayonini aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi qator fanlar o‘z maqsadlariga mos ravishda tahlil etadilar, o‘rganadilar.

Demografiya nuqtai-nazaridan esa nikoh deganda oila qurish va bolalar tug‘ilishi hamda tug‘ilish va o‘lim omillari, ularning o‘zgarish qonuniyatlari va xususiyatlari nazarda tutiladi. Boshqacha qilib

aytganda, demografiya nikohning erkak va ayol o'rtasidagi ittifoqning qonuniylashtirilgan yuridik shaklidan ko'ra amaldagi nikoh, ya'ni nikohga kiruvchilarning munosabatlariga e'tibor beradi. Buning uchun nikoh ma'lum biror bir davlat qonun-qoidolari asosida qayd etilishi shart emas. Umuman olganda, demografiyada nikohning yuridik shakli ham muhim ahamiyat kasb etadi va shu asosda nikohsiz tug'ilish, degan tushuncha ham bor.

Sotsiologik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, nikoh munosabatlarining rasmiy qayd etilgani yoki etilmagani, ularning yuridik tomondan rasmiylashtirilgani oila holatining sotsial institut sifatida eng muhim belgisi sanaladi. Keyingi yillarda nikohsiz yashash holatlari sodir bo'layotgani oila tushunchasi uchun inqiroziy holat hisoblanadi va bu o'z navbatida, jamiyatda ijtimoiy holat keskinlashgani, sotsial axloqiy me'yorlarning salbiylashuvidan darak beradi. Bunday paytda oila tushunchasida, ayniqsa, bolalar masalalarida sotsial muammolar kelib chiqadi. Mazkur imkoniyat boshqa tomondan huquqiy nikoh va oila birga yashashning yagona mezoniy shakli ekanligiga ham putur yetkazadi. Endi nikoh va nikoh munosabatlariga kelsak, bu yerda fanda bir muncha chalkashlik bor. Aniqrog'i, nikohning yuridik, demografik va sotsiologik jihatlari aniq ishlab chiqilmagan. Shu sababdan bo'lsa kerak, turli nashrlarda rasmiy nikoh tushunchasiga va qayd etilgan nikoh tushunchasiga turlicha baho buyurishadi. Ba'zan esa qayd etilmagan nikohlarni "*fuqarolik nikohi*", deb atashadi. Bu chalkashlikdan qutulish uchun fuqarolik nikohi, deganda qayd etilgan nikohni tu shunish kerak. "Amaldagi nikoh" masalasiga kelsak, uning huquqiy jihatlaridan qat'iy nazar, haqiqiy nikoh munosobatlari bo'lganligi e'tiborga olinishi lozim. Umuman olganda, amaldagi nikohni qayd etilgan nikohga qarama-qarshi qo'yish ma'lum noaniqliklarga asoslangan; zero, huquqiy nikoh shaklining borligi, o'z navbatida amaldagi nikoh munosobatlari borligini inkor qilmaydi va aksincha, amaldagi nikoh bo'lishi uning huquqiy shakllarini inkor qilmaydi.

Nikohning turlari – qayd qilgan va amaldagi – bir-birini inkor qilmaydi. Aksariyat qayd qilingan nikohlar ayni paytda amaldagidir,

shuningdek, amaldagi nikohlarining ko'pchiligi esa – qayd qilinganlardir. Nikohlar ichida yolg'on nikohlar ham mavjud, ular qonuniy jihatdan rasmiylashtirilgan bo'lsada, aslida bunda oila qurish emas balki uy-joy olish, mol-dunyoga ega bo'lish va shunga o'xshash huquqlar uchundir. Ayrim qayd qilingan nikohlar amalda tarqab ketgan bo'lsada, biroq ajralish rasmiylashtirilmagani sababli davom etadi. Shunday hollar ham bo'ladiki kimdir bir kishi bilan nikohdan o'tib boshqasi bilan yashaydi. Shuning uchun qayd qilingan va qayd qilinmagan nikohlar mavjud deyish mumkin.

Nikohning xillari yoki shakllari deganda nikohga kiradigan yoki kirgan erkak va ayollarning nikoh ittifoqlari nazarda tutiladi. Nikoh xillari deganda monogamiya (bir nikohlilik) va poligamiya (ko'p nikohlilik) tushuniladi.

Monogamiya yoki monogam nikoh – bu bir erkakning bir ayol bilan nikohidir, poligamiya yoki poligam nikoh – bu bir erkakning bir necha ayol bilan nikohidir (ko'pxotinlilik), yoki bir ayolning bir necha erkak bilan nikohidir (ko'perlilik). Tarixiy etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarixda poligamiya monogamiyaga qaraganda ko'proq tarqalgan. Ayniqsa, islom diniga e'tiqod qiluvchi mamlakatlarda.

Poliandriya yoki ko'p erlilik nikoh shakli juda kam uchraydi; Hindiston va Tibetning ba'zi xalqlaridagina bor, u ham bo'lsa bitta ayolning bir nechta aka-ukalar bilan nikohda bo'lishi shaklidan iborat. Hozirgi vaqtda borgan sari poligamiya miqdori kamayib monogamiya ko'payib bormoqda. Hatto islom qoidalari poliginiya (ko'p xotinlilik)ni yo'l qo'ygan bo'lsada, biroq qonun bilan taqiqlangan. Ammo shunga qaramasdan, seriyali monogamiya, ya'ni takroriy, asosan erkak va ayollarning ajralgandan so'ng nikoh qurish hollari ko'payib bormoqda. Bu hodisa shunday keng tarqalmoqdaki, hatto ko'pgina tadqiqotchilar, ayniqsa, jurnalistlar va siyosatchilar nikohni erkak va ayol o'rtasidagi umrbod ittifoq demay qo'yishdi. Aksincha, uni vaqtincha birlashuv, deb hisoblaydilar, uni xohlagan paytda xohlagan tomonning istagiga ko'ra bekor qilish mumkin deyishadi. Seriyali monogamiya va unga bo'lgan xayrixohlik

oilaning institut sifatida inqirozga olib keladi va hozirgi demografik jarayonlarga o'ta salbiy ta'sir qiladi.

Nikohni qayd etish, bu nikoh tanlovining natijasi, so'nggi bosqichi hisoblanadi. Nikoh tanlovi, deganda nikohga kirish mumkin bo'lgan bir qancha shaxslar o'rtasida boradigan jarayon tushuniladi. Bunday paytda u yoki bu usul bilan konkret biror holatda yagona nikohga kiruvchi kishi (erkak yoki ayol) tanlanadi va u er (xotin) bo'ladi hamda ular yashaydilar. Buni oila doirasi deyiladi. Oila doirasi – bu nikohga kiruvchilarning guruhidan iborat.

Nikoh tanlovi jarayoni tarixan aniq jarayon hisoblanadi, u jamiyatda mavjud demografik, iqtisodiy, sotsial, sotsial - madaniy va boshqa sharoitlar bilan bog'liq. Nikoh tanlovi jarayonining asosiy xususiyatlari turli xilda namoyon bo'ladi: turli madaniyatlarda va turlicha tarixiy taraqqiyot bosqichlarida har xil shaklda, boshqacha qilib aytganda, nikohga kiruvchilar va nikohga kirish uchun tanlov imkoniyatlari va erkinligi xilma-xildir. Nikohga kirish imkoniyati deganda turli xil nikohga kiruvchilarning tarqalishi ko'zda tutilgan. Bunday holatda ularning qayta nikohga kirishi mumkinligi ehtimoli muhim ahamiyatga ega. Hozirgi zamon tadqiqotlaridan shu narsa ma'lum bo'lmoqdaki, nikohga kirmoqchi bo'lganlar, erkaklar orasida ham ayollar orasida ham, jamiyatning asosiy strukturalariga, shu jumladan, sotsial, madaniy, iqtisodiy va psixologik elementlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Erkak va ayollar o'rtasidagi nikohga kirish imkoniyati mavjudligining buzilishi ularning faoliyati va hukmronligiga jinsiy, ahloqiy holatiga, nikoh koeffitsienti dinamikasiga, oila va tug'ilishning bir tekis borishiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Agar qayta nikohga kirish ta'qiqlanadigan bo'lsa, ya'ni shaxs sotsial-madaniy, axloqiy va huquqiy ta'qiqlar ta'sirida monogamiya holati hukmron bo'lsa, bunday paytda nikohga kiruvchilar faqatgina hali nikohga kirmaganlardan iborat bo'lib qoladi.

Agar qayta nikohga kirish mumkin bo'lsa, ya'ni seriyali monogamiyaga yo'l qo'yilsa, bunday holatda nikohga kiruvchilarda tanlov imkoniyati kengayadi va unda nikohga kirganlar ham, kirmaganlar ham bo'laveradi. Bunday paytda asosiy qoida, har bir kishi, u xoh erkak, xoh ayol bo'lsin nikohda bo'lgan va bo'lmaganligidan

qat'iy nazar nikohga kirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, nikohga kiruvchilar imkoniyati kengayadi.

10.2. Aholining nikoh-oila tarkibi va nikoh yoshi

Nikoh yoshi – bu qonun yoki odat nikohga kirishga ruxsat beradigan eng kichik yoshidir. Ko'pchilik mamlakatlarda nikoh yoshi qonun tomonidan nikohga kiruvchilarning jinsiy yetukligi, psixologik va sotsial yetukligi, shuningdek, an'analar, urf-odatlar va shunga o'xshash sharoitlarga qarab qonun tomonidan belgilanadi. Nikohga kirish uchun individual tanlov masalasiga kelsak, bunda ham turli jamoalar o'rtasida katta farq bor. O'tmishda ba'zi madaniyat vakillarida ko'pincha nikoh ota-onalar, qarindoshlar yoki homiylar tomonidan tashkil qilingan. Boshqa bir guruh vakillarida esa nikohga kirish "erkin" tanlov asosiy o'rinda turgan, ya'ni, bu masalani nikohga kiruvchilarning o'zlari hal qilganlar. Biroq har qanday holatda ham nikohga kirish va tanlash erkin holat emas. Nikohga kiruvchilar ma'lum bir madaniy, sotsial, psixologik va hatto sotsial biologik xarakterdagi omillar ta'siriga bo'ysunadilar. Sotsiologik nuqtai nazardan nikohga kirish o'z navbatida, har bir odamda sotsial status o'zgarishini anglatadi, ya'ni bunday paytda nikoh statusi almashuvi yoki nikoh holati almashuvi yuz beradi. Demografiya aholining takror barpo etilishi haqidagi fan sifatida nikohga kirish (ajralish) holati bo'yicha umumiy jarayonlar shakllanishini, ya'ni nikoh statuslari almashuvlari umumiy jarayonlari-nikohga kirish, ajralish, beva qolish holatlari bilan birga, aholining nikoh statuslariga aniqrog'i nikoh strukturasi qarang taqsimlanishini o'rganadi.

Nikoh holati va nikoh strukturasi. Nikoh holati (statusi) deganda individning nikoh institutiga nisbatan holati tushuniladi; mazkur holat u yoki bu mamlakatning urf-odatlari va huquqiy normalariga muvofiq belgilanadi. Hozirgi vaqtda aksariyat mamlakatlarning statistik idoralari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistik komissiyasi tavsiyanomalariga muvofiq nikoh statusi qoidalarini belgilashga harakat qiladilar. Bunga ko'ra, nikoh holati yoki nikoh statusining quyidagi kategoriyalari nazarda tutilgan: nikohda bo'lmagan

shaxslar; nikohda bo'lgan va birga yashovchi shaxslar; bevalar qolib yangi nikohga kirmaganlar; ajralib yangi nikohga kirmaganlar; nikohda bo'lib birga yashamaydiganlar; u yoki bu kategoriyaga kiritishning iloji bo'lmaganlar. Bu olti kategoriya nikoh holatining asosiy kategoriyalari bo'lib, jahonning ko'pgina mamlakatlaridagi demografik statistika tomonidan hisobga olinadi. Yuqorida sanab o'tilgan asosiy nikoh statuslaridan tashqari ayrim mamlakatlarning statistikasida uning boshqa xillarini ham uchratish mumkin. Masalan, ba'zan qayd qilingan va qayd qilinmagan nikohdagilarni alohida ajratib ko'rsatishadi va keyingi vaqtda bu ikki kategoriyaga, nikohsiz tug'ilganlarning soni ortib borishi bilan, qiziqish ko'paymoqda.

Ayrim mamlakatlarda mahalliy nikoh qonuni va urf-odatlardan kelib chiqib u yoki bu shakldagi nikohlar xususida boshqa statuslar ham belgilangan. Masalan, Afrikadagi bir qator mamlakatlarda aholi ro'yxati chog'ida statistika quyidagi nikoh statuslarini hisobga oladi: nikohga kirmaganlar; monogam nikohda turuvchilar; huquqiy, diniy qoidalar va xalq urf-odatlariga muvofiq tuzilgan nikohlar; huquqiy yoki erkin tarzda poligam, ya'ni ikkita xotin bilan yashovchilar; huquqiy yoki erkin tarzda birga yashovchi poligam, ya'ni uchta xotinliklar; poligam to'rtta va undan ortiq xotin bilan qonuniy yoki erkin tarzda birga yashovchilar; monogam yorqin tarzda bir oydan kam bo'lmagan muddatga birga yashovchilar; huquqiy nikoh bekor qilinishi natijasida ajralganlar; nikohdagilarning birortasi o'lishi natijasida beva qolib huquqiy jihatdan qayd etilganlar; yorqin nikoh ittifoqining bekor qilinishi natijasida ajralganlar; klassifikatsiyaga kiritib bo'lmaydigan holatlar. Odamlar nikohga kirib, ajralib yoki beva qolib, o'zlarning nikoh statuslarini o'zgartiradilar, ya'ni bir nikoh holtidan boshqasiga o'tadilar. Mazkur o'zgarishlar jami aholi bo'yicha olib qaraganda, ularning majmuasi nikoh strukturasi qayta barpo etilishini bildiradi.

Nikoh strukturasi – bu aholining nikoh holatlari (statuslari) bo'yicha taqsimlanishidir. Nikoh strukturasi aholini ro'yxatga olish yoki mikro ro'yhatga olish ma'lumotlari bo'yicha belgilanadi. Bunda odatda nikoh holatiga qarab jinsi, yoshi bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Natijada, aholining turli jins va yoshdagi nikoh strukturasi

hosil bo'ladi. Bunday ishni aholi ro'yxatlari oralig'ida qilib bo'lmaydi, zero, nikoh holati haqida ma'lumotlar yig'ish ancha mushkul. Aholining nikoh strukturasi bilish oilaning shakllanishi va buzilishi, tug'ilish tendensiyasining o'zgarishi, o'lish, aholining qayta barpo etilishi tendensiyalarining o'zgarishini bilish nuqtai - nazaridan zarurdir. Shu asosda demografik jarayonlarning o'tmishdagi dinamikasi va kelajakdagi o'zgarishlarini aniqlashga yordam beradi.

Nikohda bo'lishni aniqlash. "Nikoh" aslida sotsial institut hisoblanadi, "nikohga kirish" esa individual qayd bo'lib erkak va ayol o'rtasidagi ittifoqni anglatadi. "Nikohda bo'lish" tushunchasi esa aholi tarkibida nikohga kiruvchi juftlar shakllanishining yalpi jarayonini anglatadi. Va bu hodisa avlodlar doirasida yoki bir avloddagi jamoalar orasida yuz beradi. Demografiyada "nikohda bo'lish" keng tushuncha bo'lib, nikohdagi juftlarning ommaviy shakllanish jarayonini aholi nikoh strukturasi shakllanish jarayonini anglatadi. Ana shu keng tushunchada nikohda bo'lish ajralish va beva qolish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Nikohda bo'lishni o'rganish nikohning qaytalanishi bilan yoki erkak va ayol o'rtasidagi ittifoq bilan bog'liq. Ularni o'zaro ma'lum bir qonun va majburiyat shakllantiradilar va o'z navbatida, qonunlar yoki odatlarda qayd etilgan bo'ladi. Kengroq tushunchada olib qaraganda, zarurat tug'ilgan hollarda mazkur tushuncha boshqa turli xil qonunda qayd etilmagan nikohlarni ham qamrab oladi.

Nikohda bo'lish – bu aholi tarkibida nikohdagi juftlar tashkil bo'lish jarayonidan iborat va o'z tarkibiga birinchi va qayta nikohlarni qamrab oladi. Beva qolish va ajralish jarayonlarini qo'shib hisoblaganda nikohda bo'lish aholining nikohda bo'lish strukturasi takror barpo bo'lishini anglatadi. Nikoh tushunchasi bitta juft erkak va ayolga tegishli. Nikohni qayd etishning yalpi jarayoni nikohda bo'lish deb ataladi. Biroq demografik adabiyotlarda "nikohda bo'lish" kengroq tushuncha: nikohda bo'lish deb nikohga kirish va nikohdan chiqish, ya'ni ajralish yoki o'lim tufayli jarayonlarning majmuasini anglatadi (bunda "nikohda bo'lish" atamasi ajralish va beva qolish jarayonlarini ham qamrab oladi).

Nikohning soni aholi soni va demografik strukturasi shu jumladan, aholi nikoh strukturasi mutanosibliklarga bog'liq.

Nikohga kirishning o'rtacha yoshi. Nikohda bo'lishning muhim ko'rsatkichi bu nikohga kirishdir. Mazkur holat tug'ilishdan boshlab nikoh qayd etilgan vaqt oralig'idan kelib chiqib hisoblanadi. Aholi ro'yhati, maxsus sotsial demografik tadqiqotlar, demografik holatlarning muntazam hisob-kitoblari nikohga kirish yoshi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Demografik tahlillarda nikohga kirish yoshi alohida individlar yoki aholining ma'lum bir davrdagi yoki butun boshli bir avlodning umri davomidagi holati uchun muhim ko'rsatkich sanaladi. Nikohga kirish o'rtacha yoshini aniqlashda turli uslublar qo'llaniladi: nikohga kiruvchilarning yoshini turli yoshdagi nikohga kiruvchilar umumiy soniga taqsimlash asosida; aholining nikoh statusiga ko'ra ro'yhatga olingan ma'lumotlari asosida; real va gipotetik avlodlar uchun tuzilgan nikohda bo'lish jadvallari asosida. Odatda o'rtacha nikoh yoshi nikohga kirganlarning u yoki bu yoshda mutloq soniga qarab hisoblanadi. Tug'ilishning o'zgarib turishi ta'sirida nikohga kiruvchilar soni erkaklar va ayollar o'rtasida ko'payib yoki ozayib turishi mumkin.

Qayd qilinmaydigan nikohlar yoki shunchaki birga yashash. Ilgari aytib o'tilganidek, demografiya uchun nikohning yuridik shakli bilan bir qatorda, uning realdagi va effektivligi ham ahamiyatlidir. Demografik tahlillarda qayd qilinmaydigan nikohda bo'lish muhim o'rin egallaydi. Sababi, bunday nikohlar birinchi navbatda bola tug'ilishi bilan bog'liq. Shu asosda nikohsiz tug'ilish darajasi o'sib boradi. Shunchaki birga yashash deganda ma'lum bir mamlakatning nikoh qonuni orqali rasmiylashtirilmagan jinsiy ittifoq nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, shunchaki birga yashash, bu noqonuniy nikoh bo'lib, nikoh qonunchiligi vositasida rasmiylashtirilmagan jinsiy ittifoqning g'ayri ilmiy atalishidir. yana bir fikrga ko'ra, shunchaki birga yashash deganda, bitta xo'jalikda ikkita voyaga etgan shaxsning yashashi tushuniladi, ular nikohda bo'lmaydilar va qarindosh ham emaslar, biroq jinsiy aloqada bo'ladilar.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dunyodagi barcha xalqlarda nikoh turlari uning qayd etilishi, maqsadi va vazifalari

o'zoro juda yaqin bo'lsada, lekin nikoh yoshi, yosh guruhlari, jinslar bo'yicha nikohda turuvchilar salmog'i, ya'ni nikohlilik darajasi turlichadir.

10.3. Nikoh va ajralishni qayd etish va uning koeffitsiyentlari

Demografiyada nikohda bo'lish butun boshli bir ko'rsatkichlar tizimi bilan o'lchanadi, ular uning shakllanish va o'zgarish tendensiyalarini izohlab keladi. Ularning aksariyati uchun nikohni qayd etish holati umumiy ko'rsatkich hisoblanadi va shu sababdan faqat legal, yuridik rasmiylashtirilgan nikohlar nazarda tutiladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur holat ayniqsa, birga yashash hollari ko'p bo'lgan paytlarda nikohda bo'lishni to'la real ko'rsata olmaydi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan nikohda bo'lish ko'rsatkichlari, umumiy koeffitsiyentdan tashqari yana erkaklar va ayollar uchun alohida nikohda bo'lishni ham anglatadi. Nikohda bo'lish potentsiali maksimal nikoh sonidan kelib chiqib hisoblanadi va nazariy jihatdan u yoki bu davrda amalga oshishi mumkin. Mazkur raqam o'z navbatida, aholini erkak va ayollar soniga va yosh strukturasi, nikohda bo'lmaganlar hissasiga, ehtimoldagi kelin va kuyovlarning mavjud yosh nisbatiga qarab belgilanadi. Potensial nikohda bo'lishning muhim tomoni shundaki, ular kuzatib borilayotgan nikohda bo'lish statistikasining shakllanishida nikoh holati rolini dastlabki baholash uchun zarurdir. Ulardan birinchisi nikohda bo'lishning umumiy potentsial koeffitsiyenti, aholining o'rtacha yillik nikohlar soni maksimal ehtimolidan kelib chiqib hisoblanadi. Ikkinchi ko'rsatkich-nikohda bo'lish qo'shimcha potentsialining realizatsiya darajasi, amaldagi nikohda bo'lish koeffitsiyentini potentsial koeffitsiyentga bo'lish orqali topiladi.

Demografiyada nikoh aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik jarayon sifatida, o'z o'rganish uslubi, koeffitsiyentlari yordamida tahlil etiladi. Aholi guruhidagi nikohlilik darajasini nikoh koeffitsiyentlari yordamida aniq o'rganiladi. Nikoh koeffitsiyentlari – aholini (erkaklar va ayollarning) nikohda bo'lishini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u ma'lum davrda qayd etilgan

nikohlar sonini nikoh yoshidagi aholiga (16 yoshdan yuqori) nisbati bilan o'lchanadi.

Nikohning umumiy yosh guruhleri va yig'indi koeffitsiyentlari mavjuddir. Nikohning umumiy koeffitsiyenti – ma'lum hududda ma'lum davrda nikohga kirganlar sonining shu hudud aholisining o'rtacha soniga nisbatan ifodalaydi.


$$R = \frac{B}{P_{16+}} \times 1000$$

Bu yerda B – bir yilda nikohga kirganlar soni.

P_{16+} – 16 yosh va undan yuqori nikoh yoshidagi aholi.

Nikohning umumiy koeffitsiyenti orqali ma'lum davlat yoki aholi guruhi nikoh dinamikasidagi o'zgarishlar, nikohga ijtimoiy – iqtisodiy omillar ta'sirini o'rganish mumkin. Lekin, nikohning umumiy koeffitsiyenti ham tug'ulish va o'limning umumiy koeffitsiyentlari kabi aholining yosh jinsiy tarkibiga bog'liqdir. Aholining nikoh holatini o'rganishdan nikohning yosh guruhleri koeffitsiyenti aniq ko'rsatkich hisoblanadi. Bu koeffitsiyent yordamida ma'lum yosh guruhlardagi (16-19, 20-24, 25-29...) erkaklar, ayollar, bo'ydoqlar, ajralganlar, bevalarga nisbatan nikohda turganlar soni aniqlanadi.

Nikohning yosh guruhleri koeffitsiyenti ma'lum yoshda nikohga kirganlar sonini shu yoshdagi aholi soniga nisbatan ifodalaydi.



10.1-rasm. O'zbekistonda nikoh jarayonidagi o'zgarishlar, promilleda

Nikohning yig'indi koeffitsiyenti – nikohning yosh guruhlari (16-69 yoshdagi erkaklar va ayollar) koeffitsiyentining yig'indisi bo'lib, o'rganilayotgan avlodning hayoti davomidagi nikohlar sonini ifodalaydi. Ushbu koeffitsiyentda o'lim hollari va avlod soniga ta'sir etuvchi omillar hisobga olinmaydi. Odatda nikohning yig'indi koeffitsiyenti bir kishiga nisbatan hisoblanadi va ma'lum avlodning nikohda bo'lish holatini ifodalaydi. Shuningdek, mazkur koeffitsiyent orqali o'rganilayotgan avlodda birinchi, ikkinchi nikohga kirish va nikohsizlik holatlari ham o'rganiladi.

Ajralish – er-xotinning hayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish-murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf odatlar, alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining turlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo'ladi. Ajralish jarayonini o'rganishda qator koeffitsiyentlardan foydalaniladi.

Ajralishning umumiy koeffitsiyenti – ma'lum davrdagi ajralish sonini shu davrdagi aholini o'rtacha soniga nisbatini ifodalaydi va promilleda belgilanadi.

$$Ka = \frac{A}{P} \times 1000$$

A – ma'lum davrdagi ajralish soni.

P – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni.

Masalan, O'zbekistonda 2003-yil uchun ajralishning umumiy koeffitsiyentini topamiz:

A (ajralganlar soni, 2003-yil) - 17,6 ming

P_{2003} - 25115,8

P_{2004} – 25707,4

\bar{P} (2003-yil uchun o'rtacha aholi soni)

\bar{P} ni topamiz:

$\bar{P} = 25411,6$

$$a = \frac{A}{P} \times 1000 = \frac{17600}{25411,6} \times 1000 = 0,7$$

Shuningdek, ajralishning yosh guruhlari koeffitsiyenti (ma'lum yosh guruhlari erkaklar va ayollarda sodir bo'lgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi jami erkaklar va ayollarga nisbatan); ajralishning maxsus koeffitsiyenti (ma'lum yosh guruhida erkaklar yoki ayollarda sodir bo'lgan jami ajralishlar sonini shu yosh guruhidagi oilali erkaklar va ayollarga nisbatan) va nikoh davomiyligi bo'yicha ajralishning maxsus koeffitsiyentlari (nikohda turishning ma'lum davrida ajralganlar sonining ana shu davr boshida qayd etilgan jami nikohlar soniga nisbati) ham mavjud bo'lib, ular orqali ajralish jarayonidagi o'zgarishlar mukammal o'rganiladi.

O'zbekistonda ajralish jarayoni haqidagi batafsilroq statistik ma'lumotlar 1940-yildan boshlab mavjuddir. Ushbu ma'lumotlar guvohlik berishicha o'lkada oilalarning buzilish hollari Rossiya, Ukraina, Boltiqbo'yi kabi davlatlarga qaraganda 3-4 barobar kam uchraydi. Masalan, 1995 yili O'zbekistonda ajralishning umumiy koeffitsiyenti, ya'ni har 1000 kishi hisobiga ajralganlar soni 0,9 ni tashkil etgan bo'lsa, Rossiyada bu ko'rsatkich 4,5 ni tashkil etgan¹. O'zbekistonda ajralish hollarining nisbatan kamligi aholining oilaga bo'lgan e'tiborini yuksakligi, oilani muqaddas dargoh sifatida qadrlanishi bilan bog'liqdir. Shunisi e'tiborliki, 1991-yildan boshlab, respublikaning mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tish davrida oilalarning ajralish hollari yana ham kamayib bormoqda. Ajralishning kamayishiga olib kelgan asosiy omil, davlat, din va xalq faollari tomonidan oilaga katta e'tibor berilishidir.

Ma'lumki, qadimdan musulmon xalqlarida oila juda muqaddas hisoblangan, oila qurish, farzandlar ko'rish har bir oilaning burchi, deb qaralgan. Oiladagi barcha munosabatlarni hamisha pok tutishga, to'g'ri yo'naltirishga harakat qilingan. Bu sifatlar Qur'oni Karim suralarida ham, xadislarda ham, tarixiy, badiiy va ilmiy manbalarda ham o'z ifodasini topgan.

¹ Естественное движение населения Республики Узбекистан за 1995 год. Ташкент-1996, стр. 17; Население России 1998, Москва 1999, стр.33.

**O'zbekistonda ajralishning umumiy koeffitsiyenti
(har 1000 kishi hisobiga ajrashganlar soni)**

Yillar	Jami aholi	Jumladan	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1950	0,1	0,3	0,0
1970	1,1	2,4	0,3
1990	1,5	2,6	0,7
1999	0,9	1,6	0,5
2000	0,8	1,3	0,5
2003	0,7	1,2	0,4
2005	0,8	1,3	0,5
2010	0,9	1,4	0,5
2015	0,9	1,4	0,5

* М.Р. Буриева. Ўзбекистонда оила демографияси. Тошкент, 1997. 85-б.; Демографический ежегодник Узбекистана-2003. Ташкент-2004. 132-133 стр.

Ajralish jarayonidagi omillar orasida asosiy o'rin demografik va ijtimoiy-iqtisodiy determinantlarga tegishli. Masalan, bu jarayonda er-xotinlarning yoshi katta rol o'ynaydi. Mazkur demografik o'zgaruvchanlik uch xil turli modifikatsiyada namoyon bo'ladi: nikohga kirish yoshi, ajralish davridagi yoshi, ayol va erkak yoshi orasidagi farq.

Birinchisi, ya'ni nikohga kirish yoshiga kelsak, tadqiqotlardan aniq bo'ladiki, mazkur o'zgaruvchidan bo'ladigan ajrimlar ehtimoli quyidagicha: dastlab u yosh nikohlardagi pasayib keladi, so'ng yana kattaroq yoshda tuzilgan nikohlarda ko'tariladi. Ajralishning eng kam ehtimoli maksimal nikohlilik yoshida tuzilgan nikohlarda mavjud. Ajralish davridagi yosh haqida so'z yuritsak, ajralish 20-30 yoshlar orasida maksimal ko'rsatkichga ega, so'ng asta-sekin kamayib 50 yoshdan katta yoshdagilar orasida eng past darajaga etadi. Bunda ayollarda ajralishning maksimal yoshi ehtimoli erkaklarnikidan pastroq. Er va xotin yoshi orasidagi katta farq ajralish ehtimolini oshiradi,

bunda ayniqsa, xotin erdan kattaroq bo'lsa, ajrimlar ko'proq uchraydi.

Ajralishning yana bir omili, bu nikohning davomiyligidir. Mazkur bog'liqlik ham qo'ng'iroqsimon xarakterga ega: dastlab ajralish ehtimoli oshib boradi va bunda maksimum nikohning birinchi va ikkinchi besh yilliklari chegarasiga to'g'ri keladi, so'ng ajralish ehtimolligi pasayib boradi. Ajralishlar ko'pligini determinatsiya qilishda nikohning tartib raqami alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur savolga doir ma'lumotlar kam bo'lsa-da, o'tkazilgan tadqiqotlar takror nikohlar o'rtasida ajralishlar ko'pligi yuqoriroq ekanini ko'rsatadi.

Ajralishning muhim omili, bu ajralayotgan er-xotinlarning farzandlari soni. Demografik statistika ma'lumotlariga qaraganda, ajralishlar farzandsiz va bir bolali oilalarga nisbatan yuqoriroq. V.A. Borisov va A.B. Sinelnikovlarning baho berishlariga ko'ra, 1988-89 va 1993-94-yillarda har ming oilaga hisoblaganda ajralish koeffitsiyentlari mos ravishda quyidagilarga teng bo'lgan: barcha oilalarda - 16,8 va 17,3 %, bir bolali oilalarda - 27,5 va 30,4 %, ikki va undan ko'p bolali oilalarda - 38 va 14,3 %. Biroq keltirilgan dalillar boshqa xususiyatni ham ko'rsatmoqda: farzandlar sonining ajralish omili sifatidagi roli kamayib bormoqda. Biroq 1989-1994-yillarda ajralish barcha xil oilalarda (farzandlar soniga ko'ra) ko'paygan bo'lsa-da, eng tez ravishda ikki va undan ko'p bolali oilalarda mazkur ko'rsatkich ko'tarilgan: mos ravishda 1,15; 1,03; 1,11 va 1,46 martaga. Qayd etilmagan, ya'ni "sinov" nikohlar o'rtasidagi ajralish determinatsiyasi qiziqarli. Bunday juftliklar a'zolari o'z munosabatlarini qonuniylashtirilmayotganining sababi sifatida o'zini tekshirish va shu tarzda nikohni yanada mustahkamroq qilishni ko'rsatsalar ham amalda bunday emas. Bunday sinov hayotdan so'ng tuzilgan nikohlar nisbatan mustahkam emas va odatiy me'yordagi nikohlardan ko'ra tezroq tarqatilishi aniqlangan.

Nikohga kirgunga qadar birga yashaganlar orasida nikohning dastlabki 10 yili mobaynida ajralish nikohgacha birga yashab ko'r-maganlarnikiga nisbatan 1/3 ga ko'proq – 36 % 27 % ga qarshi. Buning sabablari nikohga bo'lgan qarashlarning sustroqligida va

a'zolarining o'zini, bir-birini noto'g'ri tushunganida. Nikoh tuzilgunga qadar bu kabi "oila"larda tomonlar o'zlarining eng yaxshi jihatlari namoyon qilishlari mumkin. Nikoh tuzilganidan so'ng esa bularning "asl" shaxsiyati namoyon bo'lishi va bu bir-birida yaxshi taassurot qoldirmasligi mumkin. Mazkur holat, avvalgi munosabatlarining buzilishi va natijada, ajralishga olib kelishi ehtimoli yuqoriroq bo'lishiga zamin yaratadi.

Shvetsiyalik ayollardan 4966 tasi so'rov qilinganida nikohgacha birga yashaganlar orasida ajralish koeffitsiyenti nikohgacha birga yashamaganlarnikidan taxminan 80 % yuqoriligi ayon bo'ldi. Nikohgacha birga yashagan shaxslar nikoh mustahkamligiga ishonmay yoki umuman nikoh institutini inkor etib kelganlar va aftidan, nikohni katta bosim ta'sirida tuzganlar. Shuningdek, qonuniy nikohga kirish albatta keyinchalik tomonlarning rollari o'zgarishi bilan bog'liq. Masalan, ikki tomon teng bo'lishi to'g'risidagi tasavvurlar nikoh tuzilganidan keyin an'anaviy tomonga o'zgarishi mumkin. Yoki er-xotinlar erkinlik sharoitida birga yashagan hayotdagi o'zaro munosabatlar nikoh bilan o'rnatiladigan ijtimoiy va qonuniy cheklanishga umuman to'g'ri kelmasligiga duch keladilar.

Nihoyat, nikohgacha birga yashash, bu ijtimoiy me'yorlarni buzish, degan dunyoqarash ham ahamiyatli bo'lib, hozircha ularda "pasportdagi muhr" mavjudligi talab qilinadi. Nikohgacha birga yashovchilar, bu ijtimoiy me'yorlarni buzuvchi shaxslar. Ular nikohgacha birga yashamagan shaxslarga nisbatan nikoh majburiyatlarida ma'suliyatni kamroq his etadilar. Statistik ma'lumotlar va olimlarning izlanishlariga ko'ra, ko'payib borayotgan "sinov" nikohlar, ehtimol, nikohning mustahkamligini buzuvchi va ajralishlarni ko'paytiruvchi omil sifatida o'z rolini oshirib boradi.

O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmiga qadar ajralish juda kam uchraydigan holat bo'lgan. Gap faqat o'sha davr ajralish ahloqiga to'g'ri kelmasligidamas, balki, amalda bo'lgan qonunchilik ajralish ehtimolini cheklagan, faqatgina tomonlarning birining iltimosiga ko'ra, agar quyidagi uch sababdan biri mavjud bo'lsa: er yoki xotinning turmush o'rtog'iga nisbatan xoinligi, xiyonati isbotlansa; erning barcha mulkidan mahrum etib sudlashsa yoki

Sibirga surgun qilinsa, tomonlardan birining noma'lum sabablarga ko'ra g'oyib bo'lishi ajralish uchun yetarli bo'lgan. O'zaro rozilik bilan qilinayotgan ajralishning hech bir turiga yo'l qo'yilmagan. Masalan, 1897-yilda Rossiya pravoslaviya dinidagilar orasida 1132 ta ajralish qayd etilgan edi. Ikkinchi tomondan, ma'lum bo'lishicha, 1960-yillarning ikkinchi yarmida sobiq Sho'rolar Ittifoqida ajralishlar son keskin oshgan: agar 1965-yilda ajralishlarning mutloq soni va ajralishning umumiy koeffitsiyenti mos ravishda 360,7 ming va 1,6% ning bo'lsa, 1966-yil 646,1 ming va 2,6% ni tashkil qilib, deyarli ikki marotaba oshgan. Ajralishlarning keltirilgan soni bu ikki yilda 161 dan 290 %o ko'paygan, "me'yoriy" sharoitlarda bunday bo'lmaydi. Darhaqiqat, bunday keskin sakrashning sababi ajrim jarayonini soddalashtiruvchi qonunchilikning amal qilinishida. 1965-yilgi farmon kuchga kirgach amaldagi ajrimlarni minglab kishilar rasmiylashtirdilar.

Ajralishning muhim omillaridan biri, bu ajralish va uning sabablari haqidagi jamoatchilik fikri. Mazkur omilning ahamiyati so'nggi vaqtlarda oshib bormoqda. Maxsus sotsiologik izlanishlarning ko'rsatishicha, jamiyatning ajrimga nisbatan xolisligi o'sib, sabablar tarkibi ham o'zgarimoqda va bularga muvofiq ajralish jarayoni nafaqat ehtimoliy, balki shart bo'lgan hodisa, deb tu shunilmoqda. Sabablar o'zgarayotgan yo'nalish, bu "ajralish faqatgina aniq uzrli sabablarga ko'ra (bepushtlik, bevafoqlik va h.k.) sodir bo'lishi mumkinligini" tan olgan fikrdan "er va xotin o'rtasida muhabbat yo'qligidan yuz buyurishi ehtimoli ham mavjud", degan xulosalarga kelib ajrashishga ahd qilishdir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Nikoh nima?
2. Nikoh aylanasi tushunchasiga ta'rif bering.
3. Nikoh bozori tushunchasiga ta'rif bering.

4. Nikoh davomiyligi nima?
5. Nikoh tanlovi nima?
6. Nikohga kirishning o'rtacha yoshiga ta'rif bering.
7. Ajralishga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
8. Nikohning yosh guruhlar koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?
9. Nikohning umumiy koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?
10. Nikoh strukturasi ta'rif bering.
11. Ajralishning umumiy koeffitsiyenti qanday hisoblanadi?
12. O'zbekiston shahar va qishloq aholisi uchun ajralishning umumiy koeffitsiyentlaridagi farqlarning sabablari nimalardan iborat?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 yil 30 aprel, № 607-1.
4. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.
5. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т.: 2009. – 223 с.
6. Bo'riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. – T.: “Tafakkur», 2011. – 160 bet.
7. Bo'riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o'quv qo'llanma). – T.: “Fan”, 2008. – 156 b.
8. Bo'riyeva M. R. O'zbekistonda oila demografiyasi. – T., Universitet, 1997. -157b.

9. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

10. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944с.

GLOSSARIY

Ajralish — avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu er va xotinning hayot vaqtidagi nikohning bekor qilinishidir.

Nikoh — ayol va erkak oʻrtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qoʻllab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikoh insonlar populyatsiyasida er-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki anʼanaga binoan nikoh yoshiga etgan, lekin hali nikohdan oʻtmagan insonlar (erkak va ayol) oʻrtasida tuziladi.

Nikoh aylanasi — nikohdagi juftliklar yigʻindisidan iborat boʻlib, jamiyatdagi qonunchilik, maʼnaviy-etnik meʼyorlar, juftliklarning shaxsiy sifatlari va ijtimoiy-iqtisodiy holatlari bilan belgilanadi.

Nikoh bozori — bu nikohga layoqatli aholining turli guruhlaridagi nisbatlar tizimini koʻrsatuvchi shartli belgidir. Mazkur bozordagi holat nikohga kirish ehtimoligiga, muayyan hudud aholisining jinsiy tarkibiga va nikohga layoqatli aholi tarkibidagi salohiyatli nikoh juftliklarining miqdoriga bogʻliq.

Nikoh davomiyligi — nikoh boshlanishidan toʻ tugatilishigacha boʻlgan davrni tavsiflovchi koʻrsatkich, odatda nikoh davomiyligi yillarda, kamdan kam hollarda oylarda oʻlchanadi. Nikoh davomiyligi real, gipotetik yoki kogort sifatida koʻrib chiqiladi.

Nikoh tanlovi — berilgan nikoh aylanasi ichida nikoh juftliklarini tanlashdan iborat boʻlib, unga ijtimoiy-iqtisodiy,

madaniy, psixologik va antropologik mezonlar ta'sir o'tkazadi hamda ularning har birining ta'siri vaqt davomida o'zgarib turadi.

Oila — fiziologik-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishning nikoh asosida tartibga solinadigan tizimi bo'lib, bir-biri bilan ijtimoiy-ruhiy jihatdan qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mulkiy munosabatlar uyg'unligida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar birikuvidir.

XI BOB. AHOLI MIGRATSIYASINING MOHIYATI VA UNI O'RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI

11.1. Aholi migratsiyasining mohiyati, omillari, turlari va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar

11.2. Migratsiya qonunlari (E. Ravenshtayn)

11.3. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondoshuv, nazariya va tamoyillar

11.4. Xalqaro migratsiya jarayoni va undagi o'zgarishlar

11.1. Aholi migratsiyasining mohiyati, omillari, turlari va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar

Migratsiya (lotin tilidagi *migration* so'zidan olingan bo'lib, ko'chish, ko'chib o'tish ma'nolarini anglatadi) – kishilarning o'z doimiy yashash joylarini doimiy yoki uzoqroq muddatga ma'muriy chegarani kesib o'tgan holda o'zgartirishdir.² Bu aholi migratsiyasiga sobiq Ittifoq davlatlarida berilgan ta'rifdir. Jahonda aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ta'rifga ko'ra migratsiya kishilarning muayyan chegaradan doimiy yashash joylarini o'zgartirish maqsadida kesib o'tishi tushuniladi.³ Bulardan tashqari migratsiya atamasiga turli olimlar o'z tadqiqotlari doirasida turlicha yondoshib, o'z ta'riflarni berishgan. Jumladan, B.YA. Goldfarb aholi migratsiyasiga ijtimoiy-geografik nuqtai - nazardan yondoshib, bu jarayonni *"kishilarning yashash, ishlash yoki o'qish joyini ma'muriy chegaradan o'tgan holda o'zgartirish qobiliyatini amalga oshirish bo'yicha murakkab tarixiy, geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayon"*⁴ deb tu shuntiradi.

L.YA. Ribakovskiy migratsiya tushunchasini talqin etishda bu tushunchaning keng va tor ma'nodagi mohiyatidan kelib chiqadi. Tor

² Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985., 251- бет.

³ Руководства по народонаселению 4-изд. Астана, 2003, 63-бет.

⁴ Б. Я. Гольдфарб. Миграция населения. 1981, 3-бет.

ma'nodagi migratsiya aholining yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan ko'chishi bo'lsa, keng ma'noda esa kishilarning turli maqsad bilan va turli vaqtga hududiy siljishlarini tushunadilar.⁵

V.I. Prevedensevning fikricha ham, migratsiya, deb keng ma'noda kishilarning turlicha joy o'zgartirishlarini, tor ma'noda esa bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi, ya'ni doimiyga yoki ma'lum muddatga yashash joyini o'zgartirishi bilan bog'liq bo'lgan siljishini nomlasa bo'ladilar.⁶

L.P. Maksakova, B.S. Xorev, L.A. Ribakovskiy, V.A. Ionsev va boshqalar migratsiyani kishilarning nafaqat yashash joyini o'zgartirishi, balki ish joyini ham o'zgartirishi munosabati bilan bir hududdan ikkinchi bir hududga qatnashi bilan bog'laydilar.⁷

N.N. Filipova va V.A. Sukov migratsion jarayonga iqtisodiyot, aniqrog'i aholini mehnat bilan ta'minlash nuqtai nazaridan yondoshib, migratsiya so'zini tom ma'noda aholining sohalari, hududlar bo'yicha kasbiy va ijtimoiy bo'lishini tu shunadilar.⁸

E.D. Baranov va B.D. Breev ham migratsiyaga huddi shu nuqtai-nazardan yondoshib, aholi migratsiyasi, deb kishilarning mehnat faoliyati, joyi va turi, shuningdek, mehnat sarflash sohasini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday hududiy siljishlarni ataydilar.⁹ Yuqoridagi ta'riflarning barchasida kishilarning o'z turar joylarini o'zgartirishiga urg'u berilgan. ya'ni, ular bergan ta'riflarda aholi migratsiyasining muhim tarkibiy yo'nalishi bo'lgan tebranma (mayatniksimon) migratsiya nazardan chetda qolib ketgan. Chunki tebranma migratsiya natijasida kishilarning doimiy turar joylari o'zgarmaydi. Aholi migratsiyasi atamasiga yuqorida tilga olingan va shunga o'xshash yondoshishlarni tahlil etgan holda tushunchani quyidagicha ta'rifladik:

Aholi migratsiyasi – bu kishilarning turli sabab va omillar natijasida o'z yashash va ish joylarini ma'muriy chegaradan o'tgan holda o'zgartirishlaridir. Ma'lumki, migratsiya kishilarning

⁵Л.А. Рыбаковский. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. 1987., 5-бет.

⁶Преведенцев В.И., 1975, 4-бет.

⁷Рыбаковский Л.А. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. - 1987, 5-бет.

⁸Филипова Н.Н., Суков В.А., 1972, 107-бет.

⁹Баранов Э.Д., Бреев Б.Д., 1979, 50-бет.

doimiy va vaqtincha o'z yashash yoki ish joylarini o'zgartirishlari natijasidagi bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishlaridir. Tabiiyki aholi migratsiyasi qator omillar ta'sirida vujudga keladi. Bu omillarni shartli ravishda iqtisodiy, demografik, siyosiy, ijtimoiy va ekologik omillarga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Iqtisodiy omillar. Aholi migratsiyasiga ta'sir etuvchi omillar orasida iqtisodiy omillar eng muhimi hisoblanadi, chunki qolgan barcha omillar pirovardida iqtisodiy muammolarga aylanadi yoki iqtisodiy oqibatlariga olib keladi. Iqtisodiy omillar deganda har bir davlat iqtisodiy tizimining mustahkamligi, uning o'sish darajasi va rivojlanish ko'lami tushuniladi. Dunyoning turli mintaqalarida iqtisodiy imkoniyatlar, mehnat sharoitlari va ish haqi o'rtasida yuzaga kelgan sezilarli farq ishchi kuchlarini mamlakatlararo ko'chib yurishiga sabab bo'luvchi muhim omil hisoblanadi. Masalan, AQSH va Meksikadagi daromadlarning taxminan 10 barobarga farq qilishi mexikalik ishchilarni AQSH ga ish qidirib o'tishlarining asosiy sababi hisoblanadi. Shunday qilib, yer yuzida rivojlangan boy va rivojlanayotgan iqtisodiy imkoniyatlari cheklangan mamlakatlarning mavjudligi xalqaro migratsiya va jahon mehnat bozorining amal qilishini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.¹⁰

Demografik omillar. Aholining o'sish sur'ati, aholi sonining ko'payishi yoki qisqarishi bilan bog'liq bo'lgan omillar demografik omillar bo'lib sanaladi. Bunday omillar qatoriga birinchi navbatda aholining tabiiy o'sish darajasini kiritish mumkin, chunki tabiiy o'sish migratsion jarayonga ta'sir etishi bilan birgalikda migratsion jarayonning jadalla shuvi ham o'z navbatida, tabiiy o'sishga sabab bo'lishi mumkin. Tabiiy o'sish natijasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholi etishib chiqishiga, ya'ni migratsiya qilishi mumkin bo'lgan aholi ko'payishiga zamin yaratiladi. Shu o'rinda demografik omillarning iqtisodiy omillar bilan uzviy bog'liqligini alohida ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Jumladan, iqtisodiy o'sish bilan tabiiy o'sish o'rtasidagi farqning ortishi ham migratsiyaga katta ta'sir etadi. ya'ni, tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan yuqoriroq bo'lsa mamlakatda ishsizlar sonining ortishiga va kishilarning chet

¹⁰Hakimova M. Va boshq. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: 1997. 140-b.

elga ish izlab chiqishlariga sabab bo'ladi. Tabiiy o'sish sur'atlari iqtisodiy o'sish sur'atlaridan past bo'lsa mamlakatda ishchi kuchiga bo'lgan talab ko'tariladi va chet ellik ishchilarning ish izlab kelishlari ortadi. Misol uchun, 90 - yillarning o'rtalarigacha Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti mamlakatlarida (AQSH, Yaponiya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Islandiya, Turkiya, Shveysariya va Yevropa Ittifoqi davlatlari) iqtisodiy faol aholi yiliga o'rtacha 0,8 foiz ko'paygan, yalpi ichki milliy mahsulot hajmi esa 3 foizga oshgan.¹¹

Siyosiy omillar. Ayrim mamlakatlardagi, siyosiy vaziyatning baror emasligi, ularning iqtisodiy ahvoriga ta'sir etib, mamlakat ishchi kuchining chetga oqimini keskin kuchaytiradi. Shu jumladan, turli siyosiy inqiroz va urushlar natijasida majburiy migrantlar (qochoqlar, deportatsiya qilinganlar) sonining ko'payishiga olib keladi. Sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi natijasida, nafaqat, Ittifoq tarkibidagi davlatlarda, balki unga qo'shni bo'lgan sotsialistik lager tarkibidagi davlatlarda siyosiy beqarorlik hollarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Uning natijasida majburiy migrantlar soni ko'paydi. Ekspertlarning ma'lumotiga ko'ra MDH davlatlarida ayni paytda (2003-y.) 1,8 mln. qochoqlar va majburiy migrantlar mavjud.¹²

Ijtimoiy omillar. Aholi migratsiyasini keltirib chiqaruvchi omillar ichida ijtimoiy omillar ham kattagina ahamiyat kasb etadi. L.L. Riybakovskiy migratsiyaning ijtimoiy omillari deganda, migratsion jarayonga ma'naviy omillarning ta'sirini tu shunadi.¹³ M.Q. Qoraxonov migratsion jarayondagi ijtimoiy omillarni kishilarning malakasi va ma'umoti qanchalik yuqori darajada bo'lsa, uning migratsion harakatchanligi (mobilligi) shunchalik tez va u ongli ravishda malakasidan samarali foydalanish mumkin bo'lgan joyni qidiradi.¹⁴ shu jumladan, o'qish va kasbiy malakani oshirish maqsadlari ham ko'plab kishilarni, ayniqsa, yoshlarni migratsiya qilishlariga sabab bo'ladi.

¹¹ Yuqoridagi manba, 141-b.

¹² Internet ma'lumoti - www.FromUzCom - сайт Эмигрантов из Узбекистана.

¹³ Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. М.; 1987.

¹⁴ Караханов М.К. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. Т., 1982.

Ijtimoiy omillar ichida etnik omillar ham o'ziga xos mavq'ega ega. Etnik omillarga – aholining an'analari, urf-odatlari, tili, turmush tarzi kabilarni kiritish mumkin. Ularning har biri migratsiya jarayonini jadallashtirishi yoki sekinlashtirish mumkin. Jumladan, o'zbek xalqining tarixan o'troqligi, o'z tug'ilgan va o'sgan joyiga bog'liqligi, o'rgangan qadriyatlar va turmush tarzini o'zgartirishga moyil emasligi tufayli, sobiq Ittifoqdagi boshqa xalqlar ichida eng sust migratsion harakatchanligi bilan ajralib turadi. Biroq so'nggi bir necha yil ichida migrantlar tarkibida o'zbeklar salmog'ining tobora ortib borayotganligini ko'rish mumkin. Til omili ham migratsiyaga sezilarli ta'sir etadi. Kishilarning til bilish bilmasligi ham ularning migratsiya qilishiga yoki migratsiyadan tiyilib turishiga sabab bo'ladi. Misol uchun 1989-yilda o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomining berilishi va davlat rasmiy idoralarida o'zbek tilida ish yuritishning lozimligi ta'minlanishi natijasida o'zbek tilini o'rganishni xohlamagan yoki o'rganmagan kishilarning boshqa hududlarga migratsiya qilishlariga sabab bo'ldi.

MIGRASIAYNING MAQSADIGA KŪRA TURLARI

1. **Doimiy migratsiya** – aholining biron hududga doimiy ravishda ko'chib ketishi.
1. **Mavsumiy migratsiya** – aholining ma'lum davrga biron hududga ko'chib ketishi.
2. **Tebnanma migratsiya** – aholining o'qish, ishlash maqsadida bir joydan ikkinchi joyga har kungi yoki har haftalik harakati.
3. **Sirkulyar migratsiya** – aholining qisqa davr davomida ma'lum maqsad sababli yuz beradigan harakati.

11.1-rasm. Migratsiyaning turlari

Ekologik omillar. XX asrning o'rtalaridan migratsiya omillari qatoriga ekologik omillar ham qo'shildi va borgan sari uning ko'lami

tobora ortib bormoqda. Ekologik jihatdan o'z hayotlariga havf tug'iladigan joylardan kishilarning ko'chib ketishi tabiiy holdir. Misol uchun, O'zbekistonda ikkita yirik ekologik xavf o'chog'i mavjud. Bular Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik xavf o'chog'i va Surxondaryo viloyatining Tojikiston bilan chegara hududlari (Tursunzoda alyuminiy zavodi atmosferaga chiqindilarni chiqarishi natijasida) bo'lib, bu yerlardagi kishilar o'zlarining va avlodlarining kelajak taqdirini o'ylab boshqa ekologik jihatdan xavfsizroq hududlarga ko'chib ketmoqdalar. Birgina O'zbekistonning Orolbo'yi hududlaridan 90-yillarda Qozog'istonga – qariyb 30 ming, Turkmanistonga – 4 ming va O'zbekistonning boshqa hududlariga qariyb 20 ming kishi ko'chib ketishga majbur bo'lishgan.¹⁵

Migratsiya juda keng qamrovli va murakkab jarayon bo'lib, uning turli jihatlariga ko'ra: hududiy yo'nalishiga, muddatiga, tashkil etilgan yoki etilmaganiga, qonuniy yoki noqonuniyligiga qarab turlari mavjud.

Hududiy yo'nalishiga ko'ra migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

Ichki migratsiya – biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida, to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa.

Tashqi migratsiya – aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan, qo'shni mamlakatlar yoki chet elga ko'chib ketishi yoki u yerdan ko'chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qit'alararo va qit'alar ichidagi turlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin. Tashqi migratsiya to'g'risida gap ketar ekan emigratsiya, immigratsiya va reemigratsiya tushunchalariga qisqacha ta'rif buyurib o'tish lozim bo'ladi. «Immigratsiya – bu mamlakatga xorijiy fuqarolarning doimiy yashash yoki ishlash maqsadlarida kelishi bo'lsa, emmigratsiya esa bu jarayonning teskarisidir, ya'ni biror mamlakat fuqarolarining doimiy yashash yoki ishlash maqsadlarida xorijga chiqib

¹⁵Alikhan Aman, Population migration in Uzbekistan (1998-1999). - T., 2000. 84-ber.

ketishlaridir. Reemigratsiya va reimmigratsiya esa ko‘chib kelgan yoki ko‘chib ketganlarning kaytib kelishi va qaytib ketishidir. Immigratsiyada qatnashgan fuqarolar immigrantlar, emmigratsiya jarayonida ishtirok etuvchilar emmigrantlar, deb ataladi. Shuni alohida qayd etish lozimki, “Emmigrant” va “Immigrant” tushunchalari uchun xalqaro yagona ta’rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo‘yicha har bir davlatning o‘z mezonlari bor. Masalan, Bolgariyada “immigrant” shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar; “emmigrant” esa Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Polshada oldin xorijda, ya’ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy fuqarolik uchun kelganlar – “immigrantlar”, Polshani butunlay tashlab ketganlar esa “emmigrantlar”, deb ataladi. Rossiyada – Rossiyaga ishlash yoki o‘qish maqsadida 1,5 yildan ko‘p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari “immigrantlar”, o‘qish yoki ishlash uchun 1,5 oydan ko‘p muhlatga boshqa davlatga ketganlar “emigrantlar”, deb ataladi. AQSH da qonuniy asosda boshqa davlatlardan doimiy yashash maqsadida AQSH ga kelganlar “immigrantlar”, deb ataladi. “Emmigrantlar” ga esa ta’rif buyurilmagan.»¹⁶


Muddatiga ko‘ra – migratsiyaning doimiy vaqtincha (mavsumiy) va tebranuvchi (mayatniksimon) turlari ajratiladi.

Doimiy migratsiya – bu aholining ko‘chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so‘ng ko‘chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir. Vaqtinchalik migratsiyaning eng muhim yo‘nalishi mavsumiy migratsiya bo‘lib, kishilarning yilning muayyan bir faslida chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy migratsiya asosan mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo‘lib, aholi bandligida katta tebranishlar bo‘ladigan va ishchi kuchiga talab katta bo‘ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi. Mavsumiy migratsiya ko‘proq qishloq xo‘jaligi, mehmonxona xo‘jaligi singari ishchi kuchini ko‘p talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun yoz oylarida Turkiya, Shveysariya kabi

¹⁶Bo‘riyeva M.R. Demografiya asoslari. - T., 2002.

davlatlarga xorijlik sayyohlarning ko‘plab kelishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talab keskin ortadi. Bu esa daromad topish darajasi nisbatan pastroq bo‘lgan davlatlardan ko‘plab ishchilarning oqib kelishiga sabab bo‘ladi.¹⁷

Migratsiyaning yana bir turi tebranuvchi (mayatniksimon) migratsiya bo‘lib, aholining bir aholi punktidan ikkinchi bir aholi puktiga o‘qish, ishlash va boshqa sabablarga ko‘ra har kunlik qatnashidir. Bu tur migratsiya ko‘proq ichki migratsiyaga xos bo‘lib, xalqaro migratsiya doirasida davlatlararo yaxshi qo‘shnichilik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan chegaraoldi hududlarigagina xosdir.



- Migratsiya miqyosi (masshtabi) - migratsiyaning hududiy tavsifini beradi va miqyosiga ko‘ra tashqi (xalqaro) hamda ichki (rayonlararo) migratsiyalar ajratiladi. Tashqi migratsiya qit‘alararo va qit‘a ichida mamlakatlارo sodir bo‘ladi. Ichki migratsiya esa rayonlararo, rayon ichida shuningdek shahar va qishloq o‘rtasida sodir bo‘lishi mumkin.

11.2-rasm. Migratsiyaning masshtabi.

Migratsiya jarayoni tashkil etilish nuqtai nazaridan tashkil etilgan va tashkil etilmagan turlarga ajratiladi. Tashkil etilmagan migratsiya aholining o‘z xohishi va ixtiyorlari bilan avvaldan rejalashtirilmasdan, stixiyali tarzda bo‘lishi bo‘lsa, tashkil etilgan migratsiya ijtimoiy zaruriyat tufayli davlat tomonidan rejalashtirilgan tarzda sodir bo‘ladi. Misol uchun, hozirgi kunda juda ko‘p O‘zbekiston fuqarolari

¹⁷ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985., 243-244- стр.


Janubiy Koreya Respublikasida tashkillashtirilgan holda mehnat qilmoqdalar.

Soʻnggi yillarda migratsiyada, xususan xalqaro migratsiya jarayonlarida qonuniy va noqonuniy migratsiya turlari alohida ajratib koʻrsatilmoqda.

Qonuniy migratsiya – bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab oʻtmagan holda, davlat organlari tomonidan roʻyxatdan oʻtkazilgan va tegishli ruxsatnomalari boʻlgan holdagi koʻchishlaridir.

Noqonuniy migratsiya esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab oʻtgan va davlat organlari tomonidan roʻyxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy hujjat va ruxsat boʻlmagan holdagi koʻchishidir.

Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining maʼlum bir tarixiy davrlarida va turli ijtimoiy guruhlardagi migratsion harakatni oʻrganishda migratsiya koʻrsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa, migratsiya jarayonini demografik nuqtai nazardan oʻrganilganda uning koʻrsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.



11.3 - rasm. Migratsiya koʻrsatkichlari

Migratsiya koʻrsatkichlari:

1. Migratsiyaning absolyut va nisbiy son maʼlumotlari;

2. Migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsiyenti (ma'lum hududda, har 100 yoki 1000 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni);

3. Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan aholining ayirmasiga). Migratsiya saldosi manfiy yoki musbat bo'ladi va u absolyut (masalan, yiliga 3000 kishi)da nisbiy ko'rsatkichlarda (100 va 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi. Masalan, O'zbekistonga 2007-yilda 151172 kishi kelgan, va shu yili 214310 kishi O'zbekistondan ketgan. 2007-yil Respublikadagi migratsiya o'sish (migratsiya saldosi) topish uchun yuqorida qayd etilganidek, kelganlar sonidan ketganlar sonini ayiramiz: $151172 - 214310 = -63138$. Demak, O'zbekistonda 2007-yil kelganlardan ketganlar soni yuqori bo'lgani uchun migratsion o'sish -63138 kishini tashkil etdi. Ushbu yili migratsiya saldosi manfiy xususiyatga ega bo'lgan. Agar ketganlar sonidan kelganlar soni ko'p bo'lsa migratsiya saldosi musbat xususiyatga ega bo'lar edi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar migratsiyaning absolyut ko'rsatkichlarini ifodalaydi.

Migratsiyaning nisbiy ko'rsatkichlari ma'lum davrda, ma'lum hududga kelganlar va ketganlarni shu hudud aholisining 1000 tasi yoki 100 tasiga nisbatida ifodalanadi. Nisbiy ko'rsatkichlarni kelganlar va ketganlar intensivligi koeffitsiyenti orqali hisoblanadi. Ketganlar M_i intensivligi koeffitsiyenti quyidagi formulada o'z ifodasini topgan:

$$K_{ket} = \frac{M_i}{\bar{P}} \times 1000$$

bu yerda M_i – ketgandar soni; \bar{P} – o'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni; 1000 aholiga nisbatan (promille). 2007-yil O'zbekistonda ketganlar intensivligi koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$K_{2007} = \frac{214310}{26867997} \times 1000 = 7,97$$

Demak, 2007-yil Respublikadan 1000 aholiga nisbatan 7,97 ta kishi ketgan, yoki ketganlar intensivligi koeffitsiyenti 7,97 promillega teng. Kelganlar intensivligi koeffitsiyenti:

$$K_{\text{kel}} = \frac{M_j}{\bar{P}} \times 1000$$

M_j – kelgandar soni; \bar{P} – o‘rganilayotgan davrdagi aholining o‘rtacha soni;

$$^1 K_{2007} = \frac{151172}{26867997} \times 1000 = 5,62$$

2007-yil O‘zbekistonga kelganlar intensivligi koeffitsiyenti 5,62 %o ga teng bo‘lgan, yoki har 1000 kishiga nisbatan o‘rtacha 5,62 ta kishi kelgan. Demak, O‘zbekistonda 2007-yili aholining migratsion o‘sishi (5,62 – 7,97) – 2,35 kishini tashkil etgan. Yoki migratsion o‘sish koeffitsiyenti – 2,35 %o ga teng bo‘lgan.

11.2. Migratsiya qonunlari (E. Ravenshtayn)

Aholi migratsiyasini o‘rganish hamma vaqtlarda ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, g‘arbda aholi migratsiyasining nazariy jihatlarini o‘rganishga katta e‘tibor berilgan. Aholi migratsiyasining nazariy asoslarini o‘rganish bo‘yicha ilk ishlar G‘arbiy Yevropa adabiyotlarida E.Ravenshtayn ishlari bilan bog‘liq. U Buyuk Britaniyada 1871-1881-yillarda o‘tkazilgan aholi ro‘yxati ma‘lumotlari va boshqa davlatlar ma‘lumotlaridan kishilarning tug‘ilgan joylarini o‘rganish natijasida quyidagi yetti qonunni ilgari surgan va ularni “*migratsiya qonunlari*”, deb atagan.¹⁸ Bular quyidagilar:

1. Migratsiya va masofa. Aksariyat migrantlar imkon qadar qisqaroq masofaga va odatda katta shaharlarga o‘rnashishga harakat qiladi. Bu hol ko‘proq ichki migratsiyaga tegishli bo‘lsada, tashqi (xalqaro) migratsiyada ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bunga birgina misol qilib, O‘zbekiston aholisining asosan MDH davlatlariga migratsiyasini keltirish mumkin.

¹ Демографический энциклопедический словарь. - М., 1985, С. 207 – 208

¹⁸Монсенко В.М. “Внутренняя миграция населения”. - М.: 2004 г. Стр. 160.

2. Bosqichli migratsiya. Biror hududdan aholining ikkinchi bir hududga ko'chib ketishi va o'z navbatida, boshqa uchinchi bir hudud aholisining ikkinchi hududga kelib o'rnamashidir. Buni tashqi migratsiyaga bog'liq holda quyidagicha tushuntirish mumkin. ya'ni, xalqaro migratsiyaga moyilligi kuchliroq bo'lgan shahar aholisi xorijga migratsiya qiladigan bo'lsa, ularning o'rni boshqa kichikroq shahar yoki qishloqlardan kelganlar to'ldiradi.

3. Oqim va qarshi oqim. Biror bir hududdan ikkinchi bir hududga aholi oqimi yo'nalgan bo'lsa, o'z navbatida, ikkinchi hududdan birinchi hududga ham aholi migratsiyasi sodir bo'ladi. Buning oqibatida i hududdan j hududga bo'lgan sof migratsiya har doim ikkala hudud o'rtasidagi yalpi migratsiyadan kam bo'ladi.

4. Migratsion moyillikning shahar va qishloq joylarda turlichaligi, ya'ni, shaharda tug'ilgan va yashovchilarning migratsiyaga moyilligi hamisha yuqori bo'lib kelgan.

5. Jinsga ko'ra migrantlar tarkibi. Ayollar hamma vaqt ham erkaklarga nisbatan migratsiyaga moyilroq bo'ladi. Bu ayniqsa, ichki migratsiyada ko'proq namoyon bo'ladi.


6. Texnologiya, kommunikatsiya va migratsiya. Migratsion oqimning o'sish yoki kamayish tendensiyasi sanoat, savdo va taraqqiyot vositalarining rivojlanishi natijasidir.

7. Iqtisodiy motivlarning ustuvorligi. Noqulay maishiy turmush tarzi, og'ir soliqlar kabilar migratsiyani keltirib chiqaruvchi sabablardandir. Lekin migrantlarning asosiy oqimi o'z moddiy ta'minlanganlik darajasini yaxshilash maqsadida doimiy turar joylarini o'zgartirishadi. E.Ravenshtaynning fikricha, migratsiyaga uni keltirib chiqaruvchi omillar ichida iqtisodiy omillar hamisha oldingi o'rinda turadi.¹⁹ Hozirgi kunda bu qonunlar qatoriga demokratiya va inson huquqlarining ta'minlanishini kiritish kerak degan fikrdaman. Zero, demokratiya va shaxs erkinligi ta'minlangan hududlarda kishilarning migratsiyaga moyilligi hamisha yuqori bo'ladi.

¹⁹Юкоридаги манба -181 бет.

11.3. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondoshuv, nazariya va konsepsiyalar

G'arbda aholi migratsiyasining nazariy jihatlarini o'rganishga katta e'tibor buyurilgan va bu borada juda ko'p ishlar qilingan. Aholi migratsiyasini o'rganish borasida migratsiyaga iqtisodiy, demografik, migratsion va metodologik yondo shuvlar vujudga kelgan. Shu jumladan, bunday yondo shuvlar asosida turli konsepsiya va qarashlar tizimi ham shakllangan bo'lib, ularning har biriga alohida to'xtalib o'tishga qaror qilindi.²⁰



11.4-rasm. Migratsiya funksiyalari

Merkantallictlar (T.Man, Kolber va boshqalar). Ular migratsiyaga iqtisodiy jihatdan yondoshadilar va xalqaro migratsiya ularning asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi hamda asosiy urg'uni mehnat migratsiyasiga buyurgan holda migratsiyaning barcha turlariga e'tibor qaratishadi. Ularning konsepsiyasi g'arbda aholining xalqaro migratsiyasini tadqiq qilishni ham o'z ichiga oluvchi ilk ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ularning fikricha, pulga (oltin) ega bo'lish va aholining o'sishi davlatning (millatning) qudrati, gullab yashnashining asosiy manbai sifatida

²⁰ Экономика народонаселения и демография Учебно-методические материалы. Под ред. В.А. Ионцева. - М., 2002. 69-79 бетлар.

qaraladi va xorijdan ishchi kuchini (ayniqsa, hunarmandlarni) jalb etishga asosiy e'tibor qaratiladi hamda o'z fuqarolarining emigratsiyasini cheklashga alohida urg'u buyuriladi.

Klassiklar (A.Smit, Gurvich, Lann, Karr-Saunders va boshqalar). bu konsepsiya vakillari ham migratsiyaga iqtisodiy jihatdan yondoshishadi va xalqaro migratsiya bilan birgalikda ichki migratsiya ham ularning o'rganish doirasiga kiradi. Ularning tadqiqotlarida faqatgina mehnat migratsiyasiga e'tibor buyurilganligini ko'rish mumkin. Ularning bosh qoidasi: "ishchi kuchi va sarmoya eksporti o'zaro ta'sirda bo'ladi va bir-birini to'ldiradi". Bunda A. Smit sarmoyaning, tovarlarning va ishchi kuchining hech qanday to'siqsiz xalqaro harakatini yoqlaydi. Shunday bo'lgan taqdirda "bozor kuchi ta'sirida maksimal darajada iqtisodiy taraqqiyotga va kambag'allikning qisqarishiga erishish mumkin", deb hisoblaydi.

Maltuschilar (T. Maltus, Batesti, Volf, Fayrgald, Ferens va boshqalar). Bu konsepsiyada ham migratsiyaga iqtisodiy jihatdan yondoshiladi va bu xalqaro hamda ichki migratsiyaga taluqli bo'lib, ular ham asosiy urg'uni mehnat migratsiyasiga beradilar. Ular migratsiyani makro miqyosda tahlil qilishadi. Mazkur olimlarning ishlarida birinchi navbatda aholi migratsiyasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borishga asos bo'luvchi "optimal aholi"ga erishish konsepsiyasi haqida gap ketadi.

Marksistlar (K. Marks, F. Engels, V. Lenin, Kastles va boshqalar). Bu konsepsiya tarafdorlari Marksning aholining kapitalistik qonuni, Leninning aholi harakatining o'sishi qonunlariga asoslanadi. Ular xalqaro migratsiya bilan birgalikda ichki migratsiyaga ham katta ahamiyat buyurishadi. Asosan mehnat migratsiyasiga asosiy urg'u beradilar.

Neoklassiklar (Xarris, Todaro, Stark, Olin, Yang va boshqalar). Asosiy ustuvorlik buyuriladigan migratsiya tipi: xalqaro, ichki migratsiya. Migratsiya turi: mehnat migratsiyasi. Makrodarajada xalqaro migratsiyani turli mamlakatlarda ish haqi darajasi o'rtasidagi farq va yuqori ish haq mamlakatlarga ishchi kuchlarining harakatlanishi va sarmoyaning teskari harakatlanishi, deb

tushuntiriladi. Mikrodarajada esa birmuncha boshqacharoq yondoshiladi. ya'ni, aholi migratsiyasiga kishilarning muayyan maqsadlarga erishish vositasi, deb hisoblanadi. Unda migratsiyaning afzalligi (yoki noafzalligi) kishining individual darajada buyuradigan sof foydasi bilan o'lchanadi. Bunday yondo shuv asosan ichki migratsiyaga xos bo'lib, odatda xalqaro migratsiyani ifodalashda foydalanilmaydi.

Keynschilar (Keyns, Polak, S.Kuznets va boshqalar). Mazkur nazariyaning klassik va neoklassik yo'nalishlardan eng katta farqi "bozor iqtisodiyotining o'z-o'zidan boshqarilishini inkor etish" bilan xulosalanadi va asosiy e'tiborni "mehnat harakatining mukammal-masligi"ga qaratiladi hamda ishsizlik migratsiyani keltirib chiqaradi, deb tushuntiriladi. Jahon xo'jaligiga aholini to'liq bandlik bilan ta'minlash uchun kura shuvchi davlat va boshqaruv tizimlarining majmui, deb qarashadi. Keynschilar jahon bozorini, birinchi navbatda jahon mehnat bozori ishchi kuchlarining xalqaro harakati natijasida shakllanadi va o'zaro qarama-qarshi bo'lgan milliy manfaatlar to'qnashadigan maydon, deb qaraydilar.

Iqtisodiy siklning "qaytariluvchi aloqa" nazariyasi (B. Tomas, Isterlin). Bu nazariya vakillari xalqaro mehnat migratsiyasini makro darajada (mamlakat va umumjamiyat) o'rganishga katta e'tibor beradilar. Mazkur nazariyaga ko'ra bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchi migratsiyasining yo'nalishi iqtisodiy rivojlanish siklik davrining qayta sodir bo'lishi bilan belgilanadi.

"Inson kapitali" nazariyasi (Bekker, Sjaastad, Klark). Mazkur nazariya xalqaro migratsiya bilan birga ichki migratsiyaga ham xos bo'lib, majburiy migratsiyadan tashqari barcha migratsiya turlariga talluqlidir. Bu nazariya vakillari migratsiyaga ta'lim darajasi, daromadlarni va boshqa shunga o'xshash kishilarning sifatiiy rivojlanish ko'rsatkichlarini yuksaltirishga yo'naltirilgan investitsiya sifatida qaraydilar.

Migratsiyaning yangi iqtisodiy nazariyasi (Stark, Teylor, Adelman, Arnold, Masey). Mazkur nazariya vakillar asosan xalqaro migratsiyaning shuningdek, ichki migratsiyani, ham iqtisodiy jihatdan tahlil etadilar. Yuqoridagi konsepsiyalardagi kabi ular ham

asosiy urg'uni mehnat migratsiyasiga qaratishadi. Ushbu nazariyaga ko'ra migratsiya alohida individning (shaxsning) qarori bo'lmay, balki oila yoki uy xo'jaligi a'zolarining umumiy kelishuvi natijasi bo'lib, nafaqat, kutilayotgan daromadni maksimallashtirishga (ishlovchi migrantlarning pul jo'natmalari hisobiga), balki mehnat bozoridagi turli yo'qotishlar bilan bog'liq tavakkalni minimallashtirishga ham qaratilgan bo'ladi. Bu yerda mavjud ish haqi o'rtasidagi farq tavakkalni minimallashtirish yo'lida oilaning xalqaro migratsiyadagi bosh rag'batlantiruvchi omilidir. Mazkur nazariyada migratsiyani mamalga oshirishga qilingan qaror uy xo'jaliklarining o'z oila a'zolarini xorijga o'zlarining daromadlarini mutloq darajada oshirish, daromadlarining boshqa uy xo'jaliklariga nisbatan yuqoriroq bo'lishlariga intilishlaridan kelib chiqadi. Yangi iqtisodiy nazariya migratsiyaga qaror qilishning mikroiqtisodiy jihatlarini to'liqroq tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oila migratsiyasi iqtisodiyoti (Minser, Borjas). Bu nazariya vakillari yuqoridagi nazariya va konsepsiyalardan farqli o'laroq, asosiy e'tiborni ichki migratsiyaga, ayniqsa, ichki mehnat migratsiyasiga qaratadilar. Bu nazariyaning asosiy xususiyati migratsiya jarayonlarini mikroiqtisodiy jihatdan oila va oilaviy juftlik miqyosida tahlil qilishlaridir. Ularning fikricha oilaning katta yoshli a'zolari migratsiya natijasida olishlari mumkin bo'lgan daromadni va tavakkalni taxminiy xom – cho't qilib chiqadilar va shundan so'nggina migratsiyaga qaror qiladilar. Bundan tashqari, migrantlarga bog'liq bo'lgan kishilarning paydo bo'lishiga ham alohida urg'u beriladi. Ularning fikricha, migratsiya er-xotinning migratsiya natijasida olinishi mumkin bo'lgan daromad miqdoriga bog'liq bo'lgan qarori natijasidir.

Mehnat bozorining segmentatsiyalashuvi (Pior, Portes, Bax, Dikens, Solou, Logan). Bu nazariya bilan asosan xalqaro mehnat migratsiyasi makro darajada tahlil etiladi. Ularning ta'kidlashlarich, xalqaro migratsiya xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan doimiy talabning natijasi bo'lib, ko'proq iqtisodiy rivojlangan davlatlar uchun xarakterlidir. Xususan, ishchi kuchining qiymati migratsiya yo'nalishini belgilab buyuradi. Bu nazariyaga ko'ra industrial davlatlardagi

va butun dunyodagi rivojlanish darajasi migratsiya oqimining qay darajada bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu nazariya ustida olib borilgan so'nggi ishlar (1994-y.) natijasida rivojlangan mamlakatlar mehnat bozorini uch sektorga ajratilgan:

- birinchi darajali (asosan mahalliy fuqarolar band bo'lgan yuqori malakali va yaxshi haq to'lanadigan ishlar);

- ikkinchi darajali, asosan xorijiy ishchilar ishlovchi past ish haqili va mehnat sharoitlari yomon bo'lgan ishlar;

- yopiq (anklav) immigrantlarning xo'jayinlari xo'jaliklarida ishlashi bilan bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda ular mustaqil ravishda ish tanlay olmaydilar.

Jahon mehnat bozori (Pletnev, Jonston, Svilev). Mazkur nazariya ham asosan xalqaro mehnat migratsiyasini makro darajada, ya'ni, xalqaro va davlat miqyosida tahlil etadi. Mazkur nazariya vakillarining ta'kidlashlaricha, jahon mehnat bozori aniq belgilangan hududiy chegaraga ega bo'lmagan holda ishchi kuchini eksport va import qilish natijasida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi. Uning amalga oshishi nafaqat, dunyoning u yoki bu hududidagi xorijiy ishchi kuchiga bo'lgan talab va ish haqi darajasi bilan belgilanadi, balki siyosiy, demografik va boshqa jarayonlarning jahondagi dinamikasiga ham bog'liqdir.

Yangi xalqaro iqtisodiy tartib (Bxagvati, Byoning). Ushbu nazariyada ham asosiy urg'u xalqaro, xususan, xalqaro mehnat migratsiyasiga qaratiladi. Mazkur konsepsiyaning mohiyati rivojlangan mamlakatlar tomonidan xorijiy ishchi kuchidan, birinchi navbatda yuqori malakali kadrlar mehnatidan foydalanganligi uchun rivojlanayotgan emigratsiya mamlakatlariga "to'laroq va odilona konsepsiya" mexanizmlarini ishlab chiqish bilan xulosalanadi. Xususan, mazkur konsepsiya ilgargi shu kabi urinishlardan jahon mehnat bozorida talabning ustuvorligiga asoslanganligi va urg'u asosan xorijiy ishchi kuchidan foydalanish va uni joylashnishi bilan bog'liq bo'lgan hamma chiqimlar o'rnini, hattoki, u vaqtinchalik mehnat migratsiyasi bo'lsa ham to'ldirish lozim ekanligi bilan ahamiyatlidir.

“Gullab yashnash” yoki “texnologik taraqqiyot” nazariyasi (J. Saymon). Aholi sonining o‘sishi mamlakatning va butun insoniyatning rivojlanishi uchun foydali, deb hisoblanadi. Imigratsiyaga esa iqtisodiy va demografik rivojlanishning muhim ijobiy elementi sifatida qaraladi.

Migratsiyaning iqtisodiy nazariyasi (Todaroning migratsion modeli). Ushbu nazariyaning asoschisi M.Todarodir. Bunda yuqoridagi nazariya va konsepsiyalardan farqli o‘laroq, asosiy urg‘u ichki migratsiyaga, xususan, mehnat migratsiyasiga qaratiladi. Mazkur nazariya ichki migratsiyani mikro darajada, ya’ni muayyan individ miqyosida tushuntirishga mo‘ljallangan. Ushbu nazariya rivojlanayotgan mamlakatlardagi qishloq aholisining ommaviy ravishda shaharlarga ko‘chishini tushuntiradi. Shaharlarda ishsizlikning o‘rib borishiga qaramasdan, migratsiya muayyan shaxsning qarori natijasi va u iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Agarda shaharda olinishi kutilayotgan daromad mavjud daromaddan yuqoriroq bo‘lsagina, bu jarayon yuz buyuradi. Raqobatli modeldan farqli ravishda migratsiya natijasida shahar va qishloqdagi ish haqi o‘rtasidagi farq kamaya boradi. Todaroning ushbu modeli migratsiyaning shahar va qishloqdagi kutilayotgan daromadning tenglashib borishidagi ahamiyatini ko‘rsatib beradi.

Yuqoridagi nazariya va konsepsiyalar migratsiya jarayonlariga iqtisodiy jihatdan yondo shuv natijasi bo‘lsa, quyidagi nazariyalarda esa aholi migratsiyasiga demografik jihatdan yondoshiladi.

Aholishunoslikning umumiy nazariyasi (Sovi, Valentey, Kvasha, Zvereva). Ushbu nazariyaning asosida aholi migratsiyasiga kompleks, fanlararo yondoshish yotadi va aholi migratsiyasi bir tomondan aholi takror barpo bo‘lishiga bevosita ta’sir etuvchi sof demografik hodisa, deb hisoblanadi hamda uning natijasida aholining yosh-jinsiy tarkibida va boshqa demografik ko‘rsatkichlarda turli o‘zgarishlar kuzatilishi ta’kidlanadi. Boshqa tomondan esa, aholi migratsiyasi ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy, geografik va boshqa jihatlariga ega bo‘lib jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni hisobga olgan holda demografik rivojlanishga bilvosita ta’sir etadi.

Demografik o'tish (Devis, Taba, Zelinskiy, Eppleyard, Kayfits). Mazkur ilmiy yondo shuv tug'ilish va o'lim jarayonlariga katta e'tibor berib unda migratsiyaning rolini cheklaydigan Landri, Noustayn va boshqalarning "demografik o'tish" konsepsiyasiga asoslangan holda migratsiyaning boshqa demografik jarayonlar bilan o'zaro aloqadorlikda va bog'liqlikdaligi, shu bilan birgalikda sanoatlashuvning rivojlanib, bir bosqichdan ikkinchi bir bosqichga o'tgani sari o'zgarib borishi ta'kidlanadi. Ko'rinib turibdiki, bunday holda mazkur konsepsiyaga muayyan vaqtda va makonda demografik rivojlanish evolyutsiyasi natijasida sodir bo'ladigan demografik o'tish nazariyasi singari qaraladi.

Migratsiyaning nolli saldosi. Asosiy mualliflari: Buve, Poston, Rodjerslar bo'lib, mazkur konsepsiyada migratsiyaga muhim demografik jarayon sifatida qaraladi va migratsiyaning demografik rivojlanishga to'g'ridan-to'g'ri, bevosita va negativ ta'sir etishi ta'kidlanadi. Xususan, mazkur konsepsiya doirasida xalqaro migratsiyaga aholining barqaror va doimiy rivojlanishi omili sifatida yondoshiladi. Navbatdagi konsepsiya va nazariyalar aholi migratsiyasiga migratsion yondo shuv natijasida shakllangandir.

Mobil o'tish. Zelinskiy va Djonlar ushbu konsepsiyaning asosiy mualliflari hisoblanadi. Demografik o'tish nazariyasining elementi hisoblanadigan mazkur konsepsiyaning asosiy g'oyasi bosqichmabosqich sodir bo'luvchi hududiy mobillikning oshib borishining aniq ifodalangan qonuniyatlari va bu qonuniyatlarning mavjud modernizatsiya (zamonaviylashish) jarayonining elementi ekanligi bilan xulosalanadi. Bunda hududiy mobillikni, barcha turli-tuman hududiy harakatlarning masofa va vaqtga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'lishi tu shuniladi.

Migratsion o'tish (Shene, Martin). Mobil o'tishning xususiy holi hisoblanilgan migratsion o'tish konsepsiyasida asosiy e'tibor xalqaro qaytib kelinmaydigan migratsiyaga va uning natijasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish borasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarga hamda agrar jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish turli bosqichlarida demografik rivojlanishning ahamiyatiga ajratiladi. Bu nazariyaning turli-tumanligi xalqaro mehnat migratsiyasidagi o'zgarishlarni

tushuntirishga urinish natijasidir. Agar mamlakat tezlashtirilgan iqtisodiy o'sish yo'lida bo'lsa, ishchi kuchi migratsiyasining vaqtinchalik kengayishi ta'kidlanadi. Bu tomonidan yondoshiladigan bo'linsa mazkur nazariya iqtisodiy yondo shuv doirasida ham ko'rilishi mumkin.

Migratsiologiya (Xorev, Ionsev, Denisenko). Mazkur ilmiy yo'nalishning bosh g'oyasida aholining migratsion harakatchanlik nazariyasini ishlab chiqish va uni o'rganishga aholining harakatchanlik qonuni asosida kompleks yondoshish yotadi. Unga ko'ra aholining migratsion harakati jamiyat taraqqiyoti nuqtai nazaridan borgan sari ijtimoiy-iqtisodiy zaruriyatga aylanib bormoqda va umuman olganda tobora kuchaymoqda. Shunga ko'ra, migratsion harakat hududiy harakatning barcha turlarining turli omillar va motivlar asosida shakllanuvchi hamda "migratsion-tizim" tushunchasiga asoslanuvchi majmui sifatidagi murakkab hodisa tushuniladi. "Migratsion tizim" konsepsiyasidan farqli o'laroq mazkur tushuncha to'rt blokdan iborat: 1) Umumiy migratsion harakatchanlik (yoki aholining migratsion faolligi); 2) Aholining hududiy qayta taqsimlanishi; 3) Aholining migratsion hulqi (mayli); 4) Ta'sir etish mexanizmi.

Uch bosqichli migratsion jarayon konsepsiyasi (Zaslavskaya, Riybakovskiy, Shamileva). Ushbu konsepsiyaning mohiyati migratsion jarayonni o'zaro aloqadorlikda bo'lgan uch bosqichga ajratilishidir: Birinchi, boshlang'ich, tayyorgarlik bosqichi bo'lib, uning davomida hududiy harakatning shakllanishi boshlanishi va migratsiyaga qaror qilinadi; ikkinchi, asosiy bosqich bo'lib, uning davomida aholining ko'chish jarayoni sodir bo'ladi; uchinchi, yakuniy bosqich, uning davomida migrantlarning yangi joyga, mamlakatga moslashish jarayoni sodir bo'ladi.

Yuqoridagi to'rtta nazariya va konsepsiya aholi migratsiyasiga migratsion yondoshuv natijasidir. Quyida esa migratsiyaga metodologik jihatdan yondoshiladigan nazariya, konsepsiyalar va ularning asosiy mohiyati haqida qisqacha to'xtalib o'tiladi. Mazkur metodologik yondo shuv ustuvor bo'lgan nazariyalar boshqa yondo

shuv, nazariya hamda konsepsiyalarga informatsion-tahliliy baza bo'lishi bilan ham alohida ahamiyatga molikdir.

Migratsiya bo'yicha ma'lumotlar manbai (Oberq, Golini, Teylor, Osinskiy, Chapek). Hozirgi kunda ma'lumotlar manbasining uch asosiy turi ajratib ko'rsatiladi: 1) ma'muriy (aholini ro'yxatga olish, xorijliklarni ro'yxatga olish, viza berish xizmatlaridan, yashash joyidan, ishga ruxsat so'rash blankasini to'ldirish kabi qator boshqa manbalardan axborot olish); 2) tadqiqot (aholi ro'yxati va boshqa turli tadqiqotlar o'tkazish orqali, misol uchun xalqaro migratsiya yo'nalishini, tebranma migratsiyani yoki noqonuniy migratsiyani o'rganish); 3) xalqaro migratsiya bo'yicha chegara statistikasi (chegara nazorati, imigratsion nazorat va shu kabilar).

Tahlil usullari (Krujko, Pulen, Beltramon, Yagelskiy, Zaba, Dinand, Dyurand, Prevedensev, Rybakovskiy, Xorev, Kamenskiy). Hozirgi vaqtda migratsion harakatni ayniqsa, qonuniy doimiy migratsiyaga bo'lgan munosabatni tahlil etadigan yetarlicha metodlar ishlab chiqilgan. Ular qatorida quyidagi asosiy yo'nalishlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Migratsion oqimning miqdori va hajmini tahlil etish;
2. Migratsion oqimning intensivligi tahlili;
3. Migratsiyaning asosiy yo'nalishlarini aniqlash;
4. Migratsion maylni va unga bo'lgan munosabatni aniqlash usullari.

Zaruriy axborotlarning mavjudligiga ko'ra ikki guruh usullar ajratiladi:

- birinchi guruh migratsion oqimni joriy ro'yxatga olishga tayanuvchi to'g'ridan-to'g'ri metodlarga asoslanadi va mohiyati migratsion hodisalarni bevosita ro'yxatga olish bilan xulosalanadi;

- ikkinchi guruh metodlar keng tarqalgan usullardan bo'lib aksariyat hollarda, hisob-kitob xarakteriga egadir va aholi ro'yxati hamda tanlama tadqiqotlarga asoslanadi. Ikkinchi guruh usullari qatorida xalqaro migratsiyani tadqiq qilishda keng qo'llaniladigan balans usuli, komponentlarni tahlil qilish usuli (Dyurand metodi), o'lim jadvalini ishlab chiqish usuli kabi usullarni alohida ajratib ko'rsatib o'tish mumkin. Noqonuniy immigratsiya, mavsumiy va

tebranma migratsiyani tahlil etishda bilvosita usullar alohida ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda rivojlanayotgan usullar qatoriga Krujkoning biografiya usulini alohida ko'rsatib o'tish mumkin. Bunda o'rganish obyekti bo'lib alohida individ emas, balki, butun jamiyat tizimi (oilalar, uy xo'jaligi yoki uni o'rab turuvchilar – "entourage") bo'lib hisoblanadi. Shu o'rinda migratsiyani tadqiq qilishda statistik va matematik usullar qatorida sotsiologik, takroriy tadqiqot usullari ham tobora keng tarqalmoqda.

Matematik modellashtirish (Stoufer, Zipfa, Roy, Xegerstrand, Styuart, Lauri, Rodjers, Alonso, Todaro, SHax, Zaslavskaya, Staroverov, Ribakovskiy, Soboleva, Nozdrina, Matlin, Denisenko). Matematik modellashtirish hozirgi vaqtda migratsiyani o'rganishdagi asosiy usullardan biri bo'lib butun bir ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Shu o'rinda migratsion harakatni o'rganishning yagona tizimi mavjud emasligini ham ta'kidlab o'tish lozim. Migratsion harakatni matematik modellashtirish XIX asrdayoq paydo bo'lgan bo'lsada, Stoufer (1940), Zipfa (1946), Roya (1951), Xegerstrand (1957), Rodjers (1968) va boshqalarning makro darajadagi (I,II) va mikro darajadagi (III) modellarning paydo bo'lishi bilan asosiy birinchi o'ringa chiqdi:

I. Migratsion oqim modeli: 1) interaksion yoki makoniy o'zaro ta'sir modellari (Alonsoning "oralik imkoniyat" gravitatsion modeli); 2) migratsiya omillari modeli (regression modellar); 3) ko'p o'lchamli (maltuschilik) o'lim jadvali, Rodjersning aholi takror barpo bo'lishining multi mavq'eli modeli, barqaror aholi o'sishi nazariyasi; 4) migratsiya yosh koeffitsiyentining egri modeli va ma'lumotlar to'liq bo'lmagan boshqa migratsion o'lchamlarni baholash modellari.

II. Asosan aholi mobilligining umumiy markov modelidan kelib chiquvchi tarkib modeli (Markovning bir jinsli zanjiri, "stayer-mover" va boshqa modellar).

III. Mikromodellar: 1) yangiliklarning makoniy diffuziyasi nazariyasiga asoslanuvchi modellar (immitatsion difuziya modeli); 2) insoniy kapitalga asoslanuvchi mikroiqtsodiy modellar. Shunday qilib, jahon migratsiya jarayonlariga turli xil yondoshishlar va

baholash mezonlari mavjud bo‘lib, ular alohida mamlakatlar davlat siyosatini ishlab chiqishda hisobga olinadi.²¹

Xalqaro migratsiya nazariyalarining ko‘p qismi erkin migratsiyani tashkil qiladi. Bu yerda xarajatlar individual bo‘ladi va olingan daromad maksimal darajada bo‘lib xalqaro harakatga egadir (Massey va boshqalar., 1994). Oylik maoshi pas darajadagi mamlakatlardan ishchilar qabul qilinadi. Oylik ish haqqi baland mamlakatlardan esa chegaralanadi. Xalqaro migratsiyaning iqtisodiy natijasi. Muhojirlarning kelishi soliqlarning ko‘tarilishiga, maktab va kasalxonalarning xizmat xaqqlarini oshishiga va jinoyatchilikning ko‘tarilishiga ta’sir qilmoqda. Bu o‘z o‘rnida Patrik Byukin tomonidan Publishid the, deb nomlangan kitobida nashr etilgan. Muhojirlarning salbiy ta’sirini 2007-yilda mamlakatda ikkinchi marotaba matbuotlarda chop etildi.

Noqonuniy migratsiya bu davring ikkinchi yarmida noqonuniy migratsiya muhokama qilinmoqda. Muhojir davlatga ruhsatsiz yoki qalbaki hujjatlar bilan kirib keladi. Mamlakatda ishsizlar sonini kamaytirmaydi va oylik ish haqqini hajmini ko‘paytirmaydi. 1986-yilda IRCAni qabul qilishga olib keldi. Meksikadan noqonuniy migratsiyani keskin kamaytirishga harakat qilindi (Garcia, 2008, Uirren va Passel 1987). Odatda xalqaro emigrantlar ikki turda ajratiladi: 1) qonuniy; 2) noqonuniy;. Birinchi o‘rinda noqonuniy muhojirlar ko‘rsatiladi. Fuqaroligi bo‘lmagan aholi qabul qilinib mamlakatda doimiy yashab keladi. Lekin uning mavqe’i vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi mumkin. Ba’zi fuqarolariga viza ruhsatlarining shartlarini buzish yoki o‘zgartirish bilan qolib ketish hollari uchraydi. Butun dunyo mamlakatlari ichida AQSS noqonuniy migratsiyai bo‘yicha unikal hisoblanadi (Armbriser, 2003; 512).

11.4. Xalqaro migratsiya jarayoni va undagi o‘zgarishlar

Biz e’tirof aytkanimizdek, xalqaro migratsiya bu odamlarning doimiy mamlakatdan boshqa mamlakatga ko‘chishidir. Odamlarda xalqaro migratsiya 60 ming yil oldin boshlangan. Ular bugungacha

²¹Цонцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. - М., 1999.

davom etmoqda. Xalqaro migratsiya mamlakatlar o'rtasida sodir bo'ladigan migratsiya hisoblanadi. Uning dinamikasi, ya'ni ichki migratsiya mamlakat chegaralari doirasida migratsiyadir. Xalqaro migratsiyani o'rganish biz ishlatadigan ta'riflar va tushunchalar ba'zi hisoblar tomonidan boshlanadi. Vaqt o'tgan sari xalqaro migratsiya modelini birlashtirish holatini muhokama qilish dolzarbdir. Xalqaro migratsiyaning asosiy nazariyalarini ko'rib chiqishimiz sababi, uning salbiy va ijobiy iqtisodiy oqibatlarini ko'rsatib berishdir. Bu yuridik va noqonuniy migratsiyalar bilan namoyon bo'lmoqda. Yakunida xalqaro migratsiyaning *zernet* konsepsiyasi muhokama qilinadi.

Ichki migratsiyani o'rganishda o'xshash sharoitlar *difenetsiy* nomli standart tushunchani demograflar tomonidan xalqaro migratsiyani o'rganishda keltirib chiqardilar.

Emmigratsiya va immigratsiya o'rtasidagi birinchi farq. Immigratsiya bu odamlarning boshqa yangi mamlakatga doimiy yashash uchun borishi; Immigrant bu boshqa yangi davlatga yashash uchun kirayotganda xalqaro chegaradan o'tadi. Bu *analno-termin* tushunchasi migratsiyada ichki migratsiyani o'rganishda ishlatiladi. Boshqa tarafdin emmigratsiya bu odamlarning mamlakatdan ketishi tu shuniladi (196-bet). Immigratsiyada muhim rol o'ynaydigan savollardan biri muddatidir. Uzoq muddatli immigrantlar soni dunyoda oxirgi 10 yil mobaynida juda ko'paydi. Immigrantlar soni 1965 - yilda 75 milliondan, 1990- yilga 120 million, 2006- yilga 190 millionga ko'tarildi. Taxminan dunyo aholisining 3% i uzoq muddatli immigrantlarni tashkil etdi. Bu foiz kichkina bo'lgani bilan juda katta sonly hajmdir.

Remigrant xalqaro migratsiyani kelib chiqarish davlatiga teskari xolati. Remigrant - qandaydir ma'lum bir vaqt mobaynidin keyin xalqaro migratsiyada o'zining birlamchi mamlakatiga qaytib keladi. Xalqaro migrantlarning turistlardan farqi, bu ularning qaytib kelib doimiy yashash joyi aniqmasligi. Odamlar boshqa davlatga turist yoki ma'lum muddat uchun ishga (diplomatlar) borganlarda xalqaro migrantlar xisoblanmaydi (Mom ipg. 2003).

XX asrning immigrantlari 4 guruhga bo'linadi:

1. Qochoqlar;

2. Boshpana qidiruvchilar;
3. Sobiq koloniyadagi migrantlar;
4. Irqiy migrantlar.

Oxirgi vaqtlarda AQSHga immigrantlarning ko'p qismi Xitoydan keldi. Xitoyning geografik joylashuvi AQSHdan uzoqligi migratsiyani qiyin va qimmatga aylantiradi. 2000 va 2005-yillarda AQSH immigrantlar tomonidan 2,8 million kishilik yutuqqa ega bo'ldi. O'z o'rnida Meksika eng katta 4 million kishilik zararga ega bo'ldi. Xitoy esa zarar bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab 1,9 million kishilik zarar ko'rdi. Ruqsatsiz immigratsiya huquqiy tomondan ta'qib qilinadi. Xalqaro migratsiyani o'rganish uchun demografik tushunchalar va ta'riflar standart majmuini ishlab chiqildi. Bir mamlakatdan boshqasiga odamlar harakati xalqaro migratsiya doimiy ekanligi ta'kiidlandi. Sayyohlar sifatida xorijiy mamlakatga ko'chish yoki qisqa ishlash uchun borish, diplomatlar va xalqaro muhojirlar sifatida qaralmaydi. XX asr asosiy jahon davlatlariga boradigan muhojirlar (ya'ni, Amerika Qo'shma Shtatlari, Ispaniya, Italiya, Kanada, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Avstraliya). Mahalliy xalqlar sobiq mustamlaka mamlakatlardan ko'chib, yaxshiroq sharoitda xayot tarzi uchun ularni mustamlaka qilgan Yevropa davlatlariga doimiy qolish uchun siyosiy boshbana so'rashadi.

1850-yillarda hukumdorlikni saqlab qolish uchun Irish muhojirlari asosan katoliklari Anglo-sakson protestantlar tashkilotini tashkil qilishdi. Meksika aholisi mavsumiy ishlar bilan AQSHga migratsiya oqimi kelib chiqdi. Bracero dasturi 1964- yilda bekor qilingan. Buni natijasida chegara aholisining qariyb yarmi yo'qotgan ish o'rilarini qayta tikladilar. Bir necha migratsiya qoidalarini qayta ko'rib chiqib, tartibga solindi. Noqonuniy migratsiya jarayoni davom etaverdi. Noqonuniy migratsiya AQSHni chegara hududidagi nazoratini susaytirdi. Xalqning ishsizlik nisbatini va daromad tengsizligini salbiy o'zgartirdi. 1987-yilda noqonuniy migratsiya jarayonini to'xtatish uchun muhokama qilidi. Buning natijasi muvaffaqiyatli bo'ldi va hujjatsiz migratsiya oqimi qisqartirildi. Hozirgi vaqtda ko'p davlatlarda bo'layotgan notinchlik xalqqa ruhiy, ma'naviy, salbiy ta'sir qilmoqda. Bolalar ta'limdan qolishi, oziq

ovqat tanqisligi tufayli, xalq talofat ko'rib aziyat chekayotganligi sababli, migratsiya jarayoni tobora ko'payib bormoqda. Eng qiziqarli ma'lumot shuki, muhojirlar noqonuniy aholi hisoblanib, ruxsatsiz farzandlar ko'rmoqda. Deyarli 3.1 million bolalar Amerika Qo'shma Shtatlarida ruxsatsiz tug'ilgan. Bu bolalar ruhsatsiz migrantlar oilasida deyarli 3 dan 2 qismini tashkil qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida ruxsatsiz ishchilar ko'plab kasblarda kam ish haqqiga ishlab kelmoqda. Ruxsatsiz muhojirlardan 4 % qishloq xo'jaligida 19 % qurilishda, 31% xizmat ko'rsatishda ishlab kelishmoqda.

Xalqlarning bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga ko'chishi uzoq tarixlarga borib taqaladi. 35000 yil avval xalqlar Yevropaning oxiri Fransiyadan boshlab Osiyogacha hattoki Avstraliyagacha rivojlanishgan (Gebel, 2007). Eng katta o'zgarishlardan bu xalqlarning tarixida Afrika va Osiyo mamlakatlarini kaloniyalashtirish bilan bog'liq bo'lgan va shu o'rinda 50000 dan 60000 yil avval Afrikadan Janubiy Osiyo, Xitoy va Yevropa mintaqalariga migratsiya bo'lgan. Xozirgi dalillarga ko'ra Shimoliy va Janubiy Amerikaga odamlar 14000 yil avval migratsiya qilishni boshlashgan. Bu jarayon suv kanallari orqali qayiqlarda foydalanilgan. Tinch okeaniga yetib Shimoliy G'arbdan Janubga qarab Chili sohillariga yo'naltirilgan. Yillar davomida quruqliklar va suv orqali davom etgan. Aholining migratsiyasi ko'pincha ularning harbiylarining bostirib olishlari bilan aks ettirilgan. Norvegiyaliklar IX asrlarda Yevropa bo'ylab bostirish reytlarini o'tkazishgan. Lekin bosib olgan yerlaridan daromad (pul) olib o'z mamlakatlariga qaytganlar. Tarixda bunday harakatlardan biri XIV asrda Mangolxonlarning Yevropani bostirib olishidir.

Amerika Qo'shma Shtatlarining hozirgi aholisining 98 % dan ortig'i muhojirlar yoki muhojirlarning avlodlari hisoblanadi. 2000 - yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining 4 million aholisi yoki faqat 1,5 % azaldan Amerika hududida yashab kelishgan. Shunday qilib ular na muhojirlar va na muhojirlar avlodi edi. Bu xalqlar Shimoliy Amerikada muhojirlar kelishidan oldin 1000 yillar davomida yashab kelishgan. Amerikaning 13 foiz aholisi boshqa mamlakatlarda tug'ilgan. Boshqa mamlakatlarga nisbatan bu eng katta ko'rsatkich

hisoblanadi. Dunyodagi eng kichkina davlat bu Vatikan. Uning aholisi 700 dan ortiq. Ularning ko'p qismining kelib chiqishi chet elliklarni tashkil etadi. Ishlayotgan aholiga fuqarolik beriladi. Ishlamasa fuqarolikdan chetlatiladi. Vatikanning egallagan maydoni 0,44 kvadrat kilometr. Uning atrofini Rim shahri o'rab turadi. Mamlakat kichkinaligidan u yerda ko'chaning nomlari ham, manzillari ham yo'q (Purcell, 1995).

Kelinglar endi AQSHning immigratsiya tarixini ko'rib chiqamiz. 1970-yildan boshlab ko'rsatkichlar juda tezkor ko'tarilgan. Xitoy va Meksikadan kelgan muhojirlar eng katta oqim hisoblanadi. Ispaniyaliklar birinchi bo'lib, 1598-yilda kelishgan. Ular kelgach, yerlardan foydalanishgan. Birinchi kelgan muhojirlar asosan Virjiniya Shtatiga joylashishgan (Persella–1995).



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. E. Ravenshtaynning “migratsiya qonunlari” haqida so'zlab bering.
2. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi qanday ilmiy yondoshuv nazariya va konsepsiyalarni bilasiz?
3. Aholi migratsiyasiga iqtisodiy jihatdan yondoshuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
4. Aholi migratsiyasiga demografik jihatdan yondoshuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
5. Aholi migratsiyasiga migratsiologik jihatdan yondoshuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
6. Aholi migratsiyasiga metodologik jihatdan yondoshuvchi nazariya va konsepsiyalarning mohiyati va turlari.
7. Aholi migratsiyasiga ta'sir qiluvchi nimalardan iborat?
8. Aholi migratsiyasi qanday turlarga bo'linadi?
9. Ichki va tashqi migratsiyaga ta'rif bering.
10. Migratsiya saldosi nima?

11. Migratsiyaning demografik omillariga sharh bering.
12. Aholi migratsiyasining hududiy yo'nalishiga ko'ra turlarini ko'rsating.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. – 368 b.
4. Alikhan Aman, Population migration in Uzbekistan (1998-1999). T., 2000.
5. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. – T., 2002.
6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography. – Cambridge University Press, 2010-442 p.
7. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – М., 1999.
8. Международная миграция населения на постсоветском пространстве в эпоху глобализации / Гл.ред.серии В.А. Ионцев. – М.: Издательство Московского университета, 2012. – 88 с.
9. Моисеенко В.М. Внутренняя миграция населения. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. – 285 с.
10. Hakimova M. va boshq. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – T.; 1997
11. Экономика народонаселения и демография Учебно-методические материалы. Под ред В.А. Ионцева. – М., 2002.
12. Рыбаковский Л.Л. Миграция населения: прогнозы, факторы, политика. – М.; 1987.

GLOSSARIY

Aholi migratsiyasi — bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

Mehnat migratsiyasi — mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqa-rishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishidir.

Qonuniy migratsiya — bu kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tmagan holda, davlat organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan va tegishli ruxsatnomalari bo'lgan holdagi ko'chishlaridir.

Noqonuniy migratsiya esa kishilarning mavjud qonunchilikni chetlab o'tgan va davlat organlari tomonidan ro'yxatga olinmagan holdagi hamda zaruriy hujjat, va ruxsat bo'lmagan holdagi ko'chishidir.

Doimiy migratsiya — bu aholining ko'chib ketgan joyida butunlay qolib ketishi yoki uzoqroq muddat qaytib kelmasligidir. Kishilarning nisbatan qisqa muddatdan so'ng ko'chib ketgan joylariga qaytib kelishlari vaqtinchalik migratsiyadir.

Ichki migratsiya deb biror bir mamlakat, viloyat yoki ma'muriy hududiy birlik ichida aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chishidir. Bu xil migratsiya ham o'z navbatida to'rt yo'nalishga bo'linadi: shahardan-shaharga, shahardan-qishloqqa, qishloqdan-shaharga, qishloqdan-qishloqqa.

Tashqi migratsiya deb aholining mamlakat tashqarisiga, jumladan qo'shni mamlakatlar yoki chet elga ko'chib ketishi yoki u yerdan ko'chib kelishidir. Tashqi migratsiyaning qit'alararo va qit'alar ichidagi turlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin.

Vaqtingchalik migratsiyaning — eng muhim yo'nalishi mavsumiy migratsiya bo'lib, kishilarning yilning muayyan bir faslida chetga chiqishi yoki kelishi jarayonidir. Mavsumiy

migratsiya asosan mehnat migratsiyasiga xos jarayon bo'lib aholi bandligida katta tebranishlar bo'ladigan va ishchi kuchiga talab katta bo'ladigan mavsumlarda kishilarning migratsion faolligi bir necha barobar ortib ketadi.

Mavsumiy migratsiya - ko'proq qishloq xo'jaligi, mehmonxona xo'jaligi singari ishchi kuchini ko'p talab etadigan va yuqori malaka talab etilmaydigan ishlar bilan bog'liq bo'ladi.

XI BOB. DEMOGRAFIK PROGNOZLASHTIRISH

- 12.1. Aholi prognozining ahamiyati
- 12.2. Aholi prognozining vazifalari va qo‘llaniladigan usullar
- 12.3. Demografik prognoz va dunyoda demografik rivojlanishning global muammolari

12.1. Aholi prognozining ahamiyati

Xalq xo‘jaligini boshqarish va rejalashtirishning ilmiy darajasini ko‘tarishda aholining kelajakdagi sonini aniqlash juda muhim hisoblanadi. Shu boisdan demografiyaning muhim uchta asosiy vazifalaridan biri ham aholining keyingi yillardagi sonini aniqlab berishdir. Ma‘lumki, aholining ko‘payish istiqbolini belgilashda xilma-xil usullardan foydalaniladi. Ammo, bu usullar orqali bajarilgan hisob-kitoblar barchasi kelgusida shakllanadigan demografik tarkibni aniqlash, hudud miqyosida tabiiy ko‘payish va migratsiya sonini ilmiy taxmin qilish, shahar bilan qishloq aholisi nisbatini oldindan bilish, mehnat resurslari, uning hududiy joylashishi hamda demografik tarkibini oldindan tahlil qilish kabi masalalar yechimini topish mumkin. Bunda har bir hududning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kelgusi 20-30 yil orasini prognoz qila olishdan iboratdir.


Demografik prognoz, deganda ma‘lum hudud, davlat aholisining soni, yosh-jinsiy tarkibi va demografik vaziyati istiqbolini ilmiy asoslagan holda oldindan aniqlash tushuniladi. Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy prognozlar, demografik prognoz zaminida tuziladi. Aholiga xizmat qiluvchi barcha asos iqtisodiy sohalarni rivojlantirish uchun avvalo, kelajakdagi aholi soni, yosh-jinsiy tarkibi, oilalar sonini bilish lozimdir. Ayniqsa, aholining yosh tarkibi bo‘yicha prognozi muhim ahamiyatga egadir. Kelajakda maktabgacha bo‘lgan bolalar muassa-

salari, maktablar, oliy va maxsus o'quv yurtlarini qurilishini rejalashtirish uchun, kelajakda qancha bola maktabgacha muassasalariga qatnashi mumkin, qancha bola maktab yoshiga etishi, qancha bola maktabni tugatib oliy va maxsus o'quv yurtlariga borishi haqidagi ma'lumotlar zarurdir.

Aholini yosh – jinsiy tarkibi haqidagi prognoz tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi yosh-jinsiy tarkibi bo'yicha tuzilgan prognoz asosida, bolalar va ayollar shifokorlari, aholining keksa guruhiga xizmat qiluvchi kardiologlar, onkologlar, nevroptologlar kabi mutaxassislar tayyorlash rejalashtiriladi.

Kelajakda yangi ish o'rinlarini tayyorlash halq xo'jalik sohasini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda esa mehnat yoshidagi aholi haqidagi prognoz ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman iqtisodiyot va aholini ijtimoiy hayoti barcha qirralarining istiqbolini rejalashtirishda shu sotsial jarayonlarning qatnashchilari, iste'molchilari hamda yaratuvchilari bo'lmish aholi guruhlari haqidagi demografik prognoz zarurdir. Aks holda kelajak uchun rejalashtirilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ijobiy natija buyurmaydi.

DEMOGRAFIK PROGNOZ TIPLARI



12.1-rasm. Demografik prognoz tuplari

Demografik prognoz, demografiya fani va demografik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Demografik prognoz – prognoz etilayotgan davrga qarab qisqa muddatli, o‘rta muddatli va uzoq muddatli bo‘ladi.

Qisqa muddatli demografik prognoz – 5 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, turli xo‘jalik va rejalashtirish tashkilotlarida ko‘proq qo‘llaniladi. Qisqa muddatli prognoz aniqlik darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi. Chunki 5 yil davomida aholini o‘limi va tug‘ilish jarayonida ham keskin o‘zgarish ro‘y buyurmeydi. Mehnat resurslari, farzand ko‘rish yoshidagi aholi guruhi, nafaqa yoshidagi aholi guruhlari haqida ma‘lumotlar aniq bo‘ladi. Asosan tug‘iladigan bolalar soni maxsus hisob-kitoblar uslublar orqali hisoblanadi.

O‘rta muddatli demografik prognozlar – 30 yilgacha bo‘lgan davr uchun hisoblanadi. Ushbu prognozda aholini tug‘ilishi va o‘lim jarayonlarida aholi migratsiyasi sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar ilmiy asosda o‘rganiladi va prognoz tuzishda hisobga olinadi.

Uzoq muddatli demografik prognozlar – 30-60 va undan uzoq yilga mo‘ljallanadi. Bunday prognozlar aholi tug‘ilishi va o‘limining kelajakdagi o‘zgarishlari haqidagi gipotezalarga asoslanadi. Uzoq muddatli demografik prognozda aholi migratsiyasini hisobga olish bir muncha murakkab bo‘ladi. Chunki aholi migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan birqatorda jamiyatda, tabiatda yuz bergan tasodifiy jarayonlar bilan ham bog‘liqdir. Shu tufayli uzoq, muddatli demografik prognozlarning aniqlik darajasi nisbatan pastroq bo‘lishi mumkin. Demografik prognoz asosida sayyoramiz aholisining kelajakda kutilayotgan soni haqida ma‘lumotlar ishlab chiqilgan.

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sayyoramiz aholisi XXI asr davomida ham muntazam ko‘payib borar ekan. Lekin dunyo aholisining ko‘payish sur‘ati XX asrga nisbatan ancha past darajada sodir bo‘lishi kutilmoqda. Ma‘lumki, XX asrda dunyoda asosan aholining kengaygan takror barpo bo‘lish turi faoliyat ko‘rsatgan, ya‘ni tug‘ilish yuqori darajada bo‘lib o‘lim esa asta-sekin kamayib borgan. Bu hol 1960 – 1970-yillarda dunyo aholisi juda tez sur‘at bilan o‘sib borishida yuqorida qayd etilganidek, “demografik portlash”ga olib kelgan. XXI asrda esa aholining takror barpo bo‘lishi qisqargan turga

o'tadi. O'limning kamayib borishi davomida tug'ilish ham keskin kamayib ketadi. Farzandlar tug'ilishi deyarli to'la nazorat etiladi.

Dunyo aholisining kelajakdagi soni haqida BMT, Halqaro tizimiy tahlil instituti NASA va dunyo banki kabi nufuzli tashkilotlar tomonidan ma'lumotlar ishlab chiqilgan.

12.1-jadval

Dunyo aholisi sonining prognozi*

Yili	Aholi (mlrd. Kishi)		
	AQSH	BMT	Dunyo banki
2025	8.1 – 9.9	7.9 – 9.1	8.3
2100	9.1 – 16.1	9.0 – 19.2	11.7


*Алисов Н.В., Хореев Б.С. Экологическая и социальная география мира. -М., 2000, с. 130.

Dunyo aholisining prognozi juda keng, atroflicha retrospektiv tahlil asosida yaratilgan. 1950-yildan boshlab dunyo va uning alohida hududlarining demografik holati ilmiy o'rganilgan. Tug'ilish va o'lim jarayonlari aholining demografik mayli, hududning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida kutilayotgan o'zgarishlar ham aholi sonini prognoz etishda asosiy omillar sifatida o'rganilgan va prognozda hisobga olingan. Dunyo aholisining prognozida hududiy xususiyatlar mavjud. Bu xususiyatlar hududning demografik tarixiga mavjud demografik vaziyatga va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqdir.

Sayyoramiz aholisining soni XXI asrning dastlabki 10 yilligida (2009-y) 6,8 millardan oshdi. Bu ko'rsatkich 2025-yilda 8,5 milliardni, 2100 yilda 11,7 milliardni tashkil etishi qayd etilmoqda. Demak yer shari aholisi XXI asrda ham XX asrga nisbatan sustroq bo'lsada ko'payib borar ekan. Lekin aholining ko'payishi kelajakda dunyoning barcha hududlarida ham bir me'yorda kechmaydi. Demografik prognozlar guvohlik buyurishicha, ba'zi hududlarda demografik rivojlanishda progressiv xususiyatlar (aholi sonini muntazam ko'payib borishi) kuzatilsa, ba'zi hududlarda esa regressiv

(aholi sonining kamayib borishi) holatlari sodir bo'lishi kutilmoqda. Afrika aholisi XXI asr boshidan XXI asrning o'rtalariga qadar ikki barobar ko'payishi prognoz etilgan. Afrika hududi aholisi 2009-yili 999 mln. rishini tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilda esa bu ko'rsatkich 1,994 mlnga etar ekan. Ushbu davrda Amerika aholisi 920 mln. kishidan 1205 mln. kishiga, Osiyo aholisi 4117 mlndan, 5461 mlnkishiga, Avstraliya va Okeaniya aholisi 36 mlndan 58 mln kishiga etishi prognoz etilgan. Faqat Yevropa hududida ushbu davrda aholi sonining 738 mlndan 702 mlnga kamayishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.²²

DEMOGRAFIK PROGNOZ TURLARI



12.2. - rasm. Demografik prognoz turlari

Demografik prognoz ma'lumotlari bo'yicha, 2025-yilda dunyo aholisi ko'payishining faqat 5 foizga yaqini Shimoliy yarim sharda joylashgan rivojlangan davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur davlatlarda aholi o'sishi tug'ilish hisobiga emas, balki, aholi o'limining kamayishi hamda aholi umr ko'rish muddatining uzayishi (o'rtacha 73 yoshdan 79 yoshgacha) hisobiga sodir bo'ladi. Tug'ilish juda kamayib borib, har bir ayolning farzand ko'rish davrida (15-49 yosh) ko'rgan bolalari o'rtacha 1,9 ni tashkil etadi. G'arbiy Yevropada esa bu ko'rsatkich 1,5, Sharqiy Yevropada ham tug'ilish

²²Population Reference Bureau. 2008. World Population Data Sheet

o'z tarixidagi eng past darajaga tushadi. Germaniya, Daniya, Shvetsiya, Avstriya davlatlarida kutilayotgan depopulyatsiya (aholining kamayib ketishi) immigratsiya hisobiga bartaraf etilishi kutilmoqda. 2010-2025-yillarda dunyo aholisining o'sib borishining 90-95 foizi Osiyo Afrika va Lotin Amerikasidagi rivojlanayotgan davlatlar xissasiga to'g'ri keladi. Lekin XXI asrning dastlabki choragida rivojlanayotgan davlatlar aholisi ko'payishida juda katta hududiy tafovutlar bo'lishi qayd etilmoqda. Agar Lotin Amerikasi bo'yicha kelajakda aholi sonining o'rtacha yillik o'sib borishi 2,1 foizni tashkil etsa, Urugvayda bu ko'rsatkich 1 foizni, Markaziy Amerikada – 2,3, Paragvayda 3 foizni tashkil etadi. Lotin Amerikasi aholisi 2001- 2025-yillarda 525 million kishidan 760 million kishiga etadi. Ana shunday jarayonni Osiyo hududida ham kuzatish mumkin. Sharqiy Osiyo davlatlarida kelajakda aholi soni har yili o'rtacha 1,3 foizdan ko'payib borsa, Janubiy – Sharqiy Osiyoda aholining yillik o'sishi o'rtacha 1,9 foizni Janubiy Osiyoda – 2,3. G'arbiy Osiyoda esa 2,7 foizni tashkil etadi.

Afrikada kelajakda aholining tez sur'at bilan o'sib borishi yuqorida qayd etildi. 1990-yillarda ham Afrikada aholi sonining o'sishi dunyo bo'yicha eng yuqori bo'lib, yillik o'sishi o'rtacha 3 foizni tashkil etgan edi. yaqin kelajakda Afrika aholisining ko'payib borishi tug'ilishni nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning kamayishi va aholi umr ko'rish muddatining uzayishi xisobi oldingi suratini deyarli saqlab turadi. 2009-2025-yillarda Afrika aholisi 999 miliondan 1385 millionga etishi kutilmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerikada aholining prognozi o'zgacharoq ahvolidan darak beradi. Bu hududlar aholisining salmog'i kelajakda dunyo miqyosida pasayib boradi. 1990-yili dunyo aholisining 32,1 foizini Yevropa va Shimoliy Amerika aholisi tashkil etgan bo'lsa, 2025 yilga kelib bu ko'rsatkich 13,9 foizini tashkil etishi prognoz qilingan.

Hindiston aholisining soni kelajakda ko'payib borib Xitoy aholisi bilan tenglashadi. Hindistonda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar hamda aholi ro'yxati malumotlariga ko'ra, hozirgi davrda har bir hind oilasiga o'rtacha 3 ta dan farzand to'g'ri kelmoqda. Ana shunday

holat kelajakda ham davom etsa, 2050-yili Hindiston aholisi 1,7 milliardga etadi va dunyodagi aholisi eng zich joylashgan davlatga aylanadi.

Xitoyda olib borilayotgan demografik siyosat aholi kupayib borishini boshqarish mumkinligidan guvohlik buyurmoqda. Bir vaqtlar aniqrog‘i, 2016-yilning oxiriga qadar Xitoyda “bitta oila – bitta bola” siyosati joriy etilgan edi. Ana shu siyosat amaliy faoliyat ko‘rsatib borsa Xitoyda, XXI asrda aholi soni 1,4 milliard atrofida saqlanib turishi prognoz qilingan edi.

Demak, mutaxassislar ma‘lumotlariga qaraganda, yer shari aholisi XXI asrning birinchi yarmida ham muntazam ko‘payib borib, uning miqdori 10 milliardga yaqinlashar ekan. Aholi sonidagi o‘zgarishlar dunyo hududlarida turlicha muammolar olib keladi. Sanoat yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda tug‘ilish darajasi past, aholining o‘rtacha umr ko‘rish davri yuqori bo‘ladi. Ushbu mamlakatlarda mehnat resurslariga bo‘lgan talab, boshqa davlatlardan kelgan mehnat yoshidagi aholi bilan to‘ldiriladi. 2050-yilga kelib Ispaniya, Rossiya, Litva, Ukraina kabi davlatlarda aholi sonining qisqarishi kutilmoqda.

BMT ma‘lumotiga ko‘ra, 2050-yilda sayyoramiz aholisining har beshinchi odami 60 yoshdan katta bo‘ladi. 85 yoshdan oshganlarning soni esa 6 marta ko‘payadi. Tug‘ilish nihoyatda past bo‘lgan Yaponiya, Germaniya, Italiya kabi davlatlarda aholining 40 foizini qariyalar tashkil etishi prognoz etilmoqda. Umuman Yevropa mamlakatlari bugungi kunda “demografik o‘tish” nazariyasi bo‘yicha uchinchi bosqichda turibdi. 2050-yilga borib ushbu davlatlar “demografik o‘tish” ning so‘nggi – to‘rtinchi bosqichiga o‘tadilar. Ya‘ni tug‘ilish va o‘lim tenglashib, aholi o‘sishi deyarli to‘xtaydi. Ma‘lumki, dunyo aholisining asosiy qismi rivojlanayotgan mamlakatlar xissasiga to‘g‘ri keladi. Ilmiy prognozlarning ko‘rsatishicha, ushbu davlatlarda XXI asrning ikkinchi yarmida aholi soni muntazam ko‘payib boradi. Rivojlanayotgan davlatlar aholisi XXI asr boshida 4,8 milliardni tashkil etgan bo‘lsa. Bu ko‘rsatkich 2050-yilda 8,1 milliardga yetadi yoki dunyo aholisining 86 foizini tashkil etadi.

Sayyoramiz aholisi XXI asrning dastlabki yillarda 7 milliardga tenglashdi. Ilmiy prognozlariga qaraganda, dunyo aholisi 2015-yilga qadar har yili 86 million kishidan ko'payib borar ekan. Bu ko'pmi yoki kammi? Agar aholi o'sib borishi haqidagi ushbu ma'lumotni kurrai zamin nuqtai - nazardan umuman qaralganda uncha tashvishli emas. Chunki yuqorida qayd etilganidek hozirgi davrda (2017-y.) dunyo bo'yicha aholi zichligi 1 kv. km.ga o'rtacha 50 kishini tashkil etmoqda. Lekin yer kurrasida shunday hududlar borki 1 kv. km. da 500; 1000; 2000 va undan ortiq kishilar istiqomat etmoqdalar.

Aholining muntazam ko'payib borishi aholisi zich joylashgan hududlarda muammolarga sabab bo'lishi tabiiy, albatta. Demak, aholining ko'payib borishi bilan bog'liq mummolar dunyodagi aholi zich va iqtisodiy rivojlanmagan hududlar uchun keskin global muammolarni chiqarishi mumkin ekan. Ulardan dastlabkisi ko'payib borayotgani aholini oziq-ovqat bilan taminlash muammosidir. Mutaxassislarining xisob-kitoblari qaraganda esa yer yuzida va okeanlarda mavjud resurslar bilan 10 milliardlab aholini ta'mirlash mumkin ekan. Shunday bo'lsa-da, yer kurrasida tinmay o'sib borayotgan aholini oziq - ovqat bilan ta'minlash ba'zi hududlarda muammo bo'lib kelmoqda.

Darhaqiqat, yer yuzida va okeanlarda aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashga qodir resurslar behisobdir. Lekin bu resurslar inson istiqomat etib kelayotgan hududlar bo'yicha bir tekisda taqsimlanmagan. Natijada, aholining o'sishi yuqori va tabiiy resurslari kam, dunyodagi tabiiy resurslardan foydalanish mushkul bo'lgan hududlarda bir qator muammolar kelib chiqmoqda. Bugungi kunda inson va uning faoliyati bilan bog'liq eng xatarli muammo yerni, suvni va o'simlik dunyosining ifloslanishidir. Ba'zi davlatlarda aholiga toza ichimlik suvi mahalliy vinodan ham qimmat turadi. Aholi juda tez o'sib boryotgan, lekin oziq-ovqat muammolari mavjud Afrika kabi hududlarda insoniyat uchun xavfli birqator muammolar: Spid va boshqa yuqumli kasalliklarning tarqalishi, aholi zich hududlarda tuproq hosildorligining kamayib borishi, tabiiy o'rmonlar maydonining qisqarib ketishi, energiya tanqisligi, havo, tuproq, suvning ifloslanishi natijasida, azon teshigining hosil bo'lishi va

aholining kasallanishi darajasi oshib, inson immunitetining kuchsizlanib borishi qayd etilgan muammolardandir.

Dunyo aholisining o'sib borishi va ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash borasida mutaxassislar tomonidan turli fikrlar bildirilgan. Ularning ma'lum guruhi agar, dunyo aholisi XX asrdagidek, yuqori sur'at bilan ko'payib borsa, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash mushkul ahvolda bo'ladi, degan fikr bildirmoqdalar. Yana bir guruh mutaxassis olimlar esa, yer kurrasidagi mavjud tabiiy resurslar bilan milliardlab aholini boqish mumkin, degan xulosaga kelishgan. Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi Umumjahon qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'minoti tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ko'rsatishicha, agar dunyodagi barcha mamlakatlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirishda zamonaviy taraqqiyot etgan uslublardan to'g'ri foydalansa, hosildorlik yanada oshib, oziq-ovqat bilan, nafaqat hozirgi yer shari aholisini balki, undan ikki marta ko'p aholini ta'minlanishi mumkin ekan.

Amerikalik mutaxassis Ravel esa, agar qishloq xo'jaligiga yaroqli barcha yerlarga kerakli ishlov buyurilsa, zarur bo'lganda tartib bilan sug'orilsa yerdan juda yuqori hosil olinishini, bu hosil bilan 100 milliard odamni boqish mumkin, degan fikrni keltiradi. Agrobiolog olimlar ma'lumotlari bo'yicha, qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni, iqlim, qu yosh nurini hisobga olgan holda, atrof muhitni zaharlamaydigan o'g'itlarda foydalanib, ishlov buyurilsa, taxminan 80 milliard odamni oziq-ovqat bilan ta'minlash mumkin ekan. Lekin dunyodagi barcha aholi ham qishloq xo'jaligiga yaroqli, hosildor yerlarda yashamaydilar.

Dunyo aholisining 1 milliarddan ortiqrog'i qishloq xo'jaligi imkoniyatlari past bo'lgan yerlarda istiqomat etishadi. Bunday yerlar Janubiy-G'arbiy Osiyo yerlarini 75% ini; Afrikaning 47 % yerini; Janubi-Sharqiy Osiyoning 35 % ini va Markaziy Osiyoning 35,5% yer maydonlarini egallaydi. Ana shunday nomuvofiqliklar dunyodagi ma'lum davlatlarda oziq-ovqat bilan bog'liq iqtisodiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Umuman olganda, dunyodagi mavjud tabiiy resurslar butun sayyora aholisini oziq-ovqat bilan

ta'minlashga qodir. Har bir davlat o'zida mavjud tabiiy imkoniyatlardan foydalanib, birinchi navbatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishi, yerlardan unumli foydalanishi zarur. Dunyo miqyosida oziq-ovqat etishtirishni, butun aholi ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ilmiy asosda tashkil etish, maxsus tashkilotlar orqali boshqarib borilishi lozim.

Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolarini ijobiy hal etilishi birinchi navbatda moddiy ishlab chiqarishni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu esa o'z navbatida, energiya resursi bilan chambarchas bog'liqdir. Energetika ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishini va kurrai zaminda insoniyatning o'zini mavjudligini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Maxsus hisob - kitoblarga qaraganda, odamzod 1 yilda 9 milliard tonna yoqilg'i ishlatar ekan (neft ekvivalenti bilan hisoblanganda)²³.

Jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi sanoat, qishloq xo'jaligi va transport kabi sohalarning faoliyati ham bevosita energiyaga bog'liqdir. Umuman, insoniyat taqdirida energiya hamisha eng asosiy o'rinni egallab kelgan. Insonning o'tmishi, buguni va kelajagi energiya manbalari bilan chambarchas bog'liqdir. Yer kurrasida energiya buyuruvchi tabiiy manbalar mavjud bo'lib, ularga neft, tabiiy gaz, suv, ko'mir va qu yosh energiyalarini kiritish mumkin. Shuningdek, inson faoliyati bilan bog'liq qator vodorod va boshqa energiya turlari ham mavjuddir. Lekin sayyoramiz aholisining yoqilg'i energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishda 40 % neftdan, 31 % ko'mirdan va 23 % tabiiy gaz zahiralardan foydalanar ekan. Ma'lumki, mazkur zahiralarning aksariyati tog' va tog' oldi hududlarida joylashgandir. Ayniqsa, energetika sohasining rivojlaniishida asosiy manbalaridan bo'lgan toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir zahiralari bo'yicha tog'lar asosiy maskan hisoblanadilar. Bunday tog'lar jumlasiga, Shimoliy Amerikadagi Kordil'era, Yevropadagi Skandinaviya, Pireney, Karpat, Alp, Ural, Osiyo qit'asidagi Tibet, Tyanshan, Pomir kabi tog'lar va tog' oldi mintaqalarini kiritish mumkin. Bu ulug'vor tog'lar juda qadim zamonlardan beri tabiiy resurslari bilan insoniyat mushkulini oson

²³Н.В.Алисов, В.С.Хорев Экономическая, социальная география мира (М., 2002, с-92).

qilib kelmoqda. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab energiya manbasi bo'lgan ko'mir sanoati mustaqil tarmoq sifatida rivojlana boshladi. XIX asrning boshida dunyo bo'yicha 12 million tonna ko'mir qazib olingan bo'lsa, XIX asrning 60-yillarida bu ko'rsatkich 1970 million tonnaga etdi. Hozirgi davrdan (1995-2009 yillar) tog' va tog' oldi mintaqalaridagi mavjud zahiralarda qo'ng'ir ko'mir qazib olish bo'yicha Germaniya, Rossiya, AQSh, Xitoy, Polsha, Chexiya, Gretsiya, Tursiya, Avstraliya va Yugoslaviya davlatlari dunyo bo'yicha etakchilik qilmoqdalar. Toshko'mirni qazib olish va eksport qilish bo'yicha dunyoda Osiyo, Shimoliy Amerika, G'arbiy Yevropa, Avstraliya va Okeaniya davlatlari etakchidir.

O'zbekiston tog'larida va tog' oldi mintaqalarida ham ko'mir zahiralari mavjud bo'lib, aholini, ishlab chiqarishni energiyaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlab kelgan. 1940-yilda Ohangaron vodiysida O'zbekistonda yirik ko'mir koni tashkil topdi va ko'mir sanoatiga asos solindi. Ikkinchi jahon urushi davrida nemis-fashist qo'shinlari vaqtincha Donbass va Moskva atrofidagi ko'mir konlarini bosib olgan paytda Angren ko'mir koni sobiq Sovet Ittifoqi hududidagi mudofaa uchun xizmat qiluvchi zavodlarni yoqilg'i bilan ta'minlashga katta hissa qo'shdi. Angren ko'mir konining geologik zahirasi 2 milliard 32 million tonna bo'lib, O'rta Osiyodagi ko'mir konlar zahirasining 60 foiziga yaqinini tashkil etadi. O'zbekiston aholisining issiqlik energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishda 1958 yilda Surxondaryo viloyatida ishga tushgan Sharg'un konining ham ahamiyati kattadir.

Insoniyat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti tarixi guvohlik berishicha, hamma davrlarda ham energiyaga bo'lgan ehtiyojni ta'minlashda muammolar bo'lgan. Mazkur muammolarni yechishda esa qadimiy tog'lar va tog' oldi mintaqalari resurslaridan foydalanilgan. Lekin insoniyatning kelajagi ham ma'lum ma'noda tog'lar bilan bog'liqdir. yaqin kelajakda yer kurrasida energiya resurslari tugab qoladimi? Odamzod energetika tanqisligiga yuz tutadimi? Degan savol ko'pchilikni tashvishga solmoqda. Bu o'rinli savoldir. Darhaqiqat neft, gaz, ko'mir zahiralari yer sharida cheksiz emas. Chunki, koinotda yer sayyorasining o'zini ma'lum o'lchami,

o'rnini bor. Shunday bo'lgach yerdagi zahiralari ham ma'lum o'lchamga egadir. Ilmiy tahlillarga ko'ra, bugungi kunda yer sharida 140 milliard tonnaga yaqin neft zahiralari yaqin va O'rta Sharq, Markaziy va Janubiy Osiyo hududlarida joylashgandir. Shuningdek, dunyoda gaz zahiralari ham juda ko'p bo'lib, ularning hajmi 145 trilliion m.kubga teng. Bu zahiralari Rossiyada, yaqin va O'rta, G'arbiy Yevropa, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Afrika hududlarida aniqlangandir. Kelajakda insoniyat hayotidagi energiya muammosini hal etishda dunyoning tog' va tog' oldi mintaqalarida aniqlangan toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir zahiralari hissi ham kattadir. Ushbu zahiralarning umumiy hajmi 1543 milliard tonnaga teng bo'lib, ular G'arbiy Yevropa (28,9) Shimoliy Amerika (24%), Osiyo (21%), Afrika, Janubiy Amerika va Avstraliyada (27%) joylashgandir.

Yer sharida atom energetikasi uchun zarur bo'lgan uran, toriy, zahiralari ahamiyati katta. Shuningdek, fiziklar tomonidan termoyader energiyasini olish uchun ham qator nazariy va amaliy ahamiyatga molik ishlar olib borilmoqda. Energiyani rivojlantirishdagi yana bir yo'nalish-to'g'ri qu yosh nurlaridan foydalanishdir. Dunyoda qu yosh energiyasidan unumli foydalanish borasida ham katta ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Sayyoramizda maxsus moslamalar yaratilgan.

Sayyoramizda yerosti issiq suvlari ham mavjud bo'lib, ulardan energiya manbai sifatida foydalaniladi. Ana shunday issiq suvlardan foydalanish Islandiya, Italiya va Kamchatkada yo'lga qo'yilgan. Hozirgi davrda olimlar tomonidan vodoroddan energiya manbai sifatida foydalanish borasida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mutaxassislar fikricha yaqin 2000-yil ichida insoniyatga energiya tanqisligi xavotirga solmas ekan. Aksincha, odamzod taraqqiyotida energiya ortiqchaligi muammosi tug'ilishi ehtimoli kutilmoqda.

12.2. Aholi prognozining vazifalari va qo'llaniladigan usullar

Prognozlar aholining umumiy soni bo'yicha jinsi, yosh va boshqa tarkibi, tabiiy hamda mexanik harakatlari (tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish; kelgan va ketgan aholi) va hokazolarda amalga oshiriladi. Ular qisqa muddatli (1-5 yil), o'rta muddatli (5-25 yil) va uzoq muddatli (25 yildan ortiq) bo'ladi.

Aholini prognozlash quyidagi usullardan foydalangan holda amalga oshiriladi:

1. matematik funksiyalardan foydalanish;
2. aholi takror barpo bo'lishining demografik modeli bo'yicha;
3. tadrijiy o'zgarishga statistik ta'rif;
4. yosh siljitish usuli.

Demografik prognoz metodlari bu ma'lum bir davr orasida qilinayotgan prognozda qo'llaniladigan barcha usullar (uslublar) majmuidir.

Aholi prognozi uchun demografik siyosatning hozirgi vaziyatini va kelajakdagi holatini taxminiy bo'lsada hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Aholi sonini prognozlash bo'yicha turli mamlakatlarda urinishlar XVII asr boshlarida boshlangan. Dastavval angliyalik olimlar D. Graunt va V. Pettilar Angliya aholisini prognoz qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Rossiyada bu sohada XVIII asr oxirlarida rus matematik olimi L.Eyler va mashhur demograf N.German (bu olim birinchi marta Rossiya aholisi sonini prognoz qilgan)lar shug'ullanishgan. 1920-yil akademik S.G. Strumilin birinchi marta 20 yil oldinga prognoz qilgan. Oldingi davrlarda amalga oshirilgan prognozlarda eng muhimi hozirgi holatni o'tgan davr bilan taqqoslashga asoslangan bo'lsa, oxirgi yillarda prognozlash o'ta nozik usullarda amalga oshirishni zarur qilib qo'yimoqda. Kelajakni ko'rish uchun aholiga nafaqat, uning umumiy soniga, balki, barcha alohida-alohida tarkibining elementlariga ta'sir etuvchi omillarni to'liq va har tomonlama o'rganishni talab etadi. Aholining kelgusidagi sonini aniqlashda ko'proq aholining umumiy soni to'g'risida yoki uning har bir yosh guruhi soni bo'yicha so'z yuritiladi.

Aytaylik, aholining umumiy sonini prognozlash zarur. Bunda aholining ma'lum bir vaqtdagi soni olinadi va tug'ilish, o'lim hamda tabiiy o'sish koeffitsiyentlari haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Bu koeffitsiyentlarni kelgusi yillarning ma'lum bir vaqtlarigacha o'zgar-
mas bo'ladi, deb taxmin qilaylik, ya'ni bir xil rejimdagi takror barpo bo'lish asosida aholining umumiy sonini ma'lum bir (t) yilga quyida-
gicha hisoblab aniqlaniladi.

$$S_t = S_0 \left[1 + \frac{K}{C} \right]^t,$$


bu yerda

K – bir yildagi aholi ko'payishining umumiy koeffitsiyenti.

C – hisob-kitobda 100 yoki 1000 ga tenglashtirib olingan:

Masalan, 1990 yilda bir shahar aholisining soni 520 ming kishini, tug'ilish, o'lim va mexanik ko'payish koeffitsiyentlari 20, 12 va 2 tashkil qilgan bo'lsa, aholining soni 5 yildan so'ng qanchaga teng bo'ladi?

$$S_t = 520 \times \left[1 + \frac{20 - 12 + 2}{1000} \right]^5 = 520 \times (1,01)^5 = 546,5 \text{ ming kishi}$$



12.3-rasm. Demografik prognoz usullari.

Bu hisob-kitobda tug'ilish, o'lim va mexanik o'sish koeffit-
siyentlari o'zgar-
mas deb olindi, ammo har doim ham shunday

bo'lmisdan ular turli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Shu boisdan, bu usuldan faqat qisqa muddatli prognozlarda foydalaniladi, uzoq muddatlilarda haqiqatdan ancha yiroq bo'lganligi bois, qo'llash ehtimolligi kamdir. Professor E.A. Akramov va N.M. Soatovlar ham aholining kelajakdagi sonini hisoblashda yuqoridagidek global va yoshning siljitish usulini keltirishadi (1979-y, 191 bet).

$$A_2 = A_1 \left[1 + \frac{K}{1 - \frac{1}{2}K} \right]$$

$$A_2 = 120 \left[1 + \frac{0,0170}{1 - \frac{1}{2}0,0170} \right]$$

$$A_2 = A_1 \left(1 + \frac{K}{1 - \frac{1}{2}K} \right)$$

$$A_2 = 120 \left(1 + \frac{0,0170}{1 - \frac{1}{2}0,0170} \right)$$

Aholining kelajakdagi soni statistik tavsifdan ya'ni o'rtacha, absolyut o'sish va aholining o'rtacha o'sish va ko'payish sur'atlari kabilardan foydalangan holda prognozlanadi. Bularni kelgusida o'zgarmas deb, taxmin qilamizda, aholining kelajakdagi soni quyidagi formula yordamida topamiz:

$$S_t = S_0 + t \bar{\Delta} t$$

$$S_t = S_0 \times \bar{T}_p^t$$

$$S_t = S_0 \left(1 + \bar{T}_{pr}^t \right)^t$$

$$S_t = S_0 + t\bar{\Delta};$$

$$S_t = S_0 \cdot \bar{T}_p^t;$$

$$S_t = S_0(1 + \bar{T}_{np})^t;$$

bu yerda $\bar{\Delta}$ – o‘rtacha mutloq o‘shish;

\bar{T}_p – o‘rtacha o‘shish sur‘ati;

\bar{T}_{np} – o‘rtacha ko‘payish sur‘ati;

S_0 – dastlabki yil boshidagi aholi soni.

Masalan, O‘zbekiston aholisi 1989-yili 19,9 mln. 1999-yilda 24,4 mln. kishini tashkil etgan, umumiy mutloq o‘shish 10 yilda 4,5 mln kishiga etgan. Shundan,

$$\bar{\Delta} = \frac{4.5}{10} = 0.45;$$

$$\bar{T}_p = \sqrt[10]{\frac{24.4}{19.9}} = \sqrt[10]{1.226} = ?$$

$$\bar{T}_{np} =$$

teng bo‘lgan holda, 10 yildan keyin 2009-yilda respublika aholisining soni o‘rtacha mutloq ko‘payish bo‘yicha $S_{2009} = 24,4 + 10 \cdot 0,45 = 28,9$ *mln.*

o‘rtacha o‘shish sur‘ati bo‘yicha $S_{2009} = 24.4()^{10} = \lg S_{2009} = \lg 24.4 + 10 \lg$.

$$\lg S_{2009} =$$

xuddi shunaqa ma‘lumot olamiz. Bundan tashqari, aholining kelajakdagi sonini ma‘lum vaqtdagi dinamik qatorlarni analitik tenglashtirish usuli orqali ham aniqlash mumkin.

Yoshni siljitish usulida aholining kelajakdagi sonini hisoblash quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi.

$$L_t \times P_t = L_{t-1}$$

$$L_x \cdot P_x = L_{x+1},$$

bu yerda

L_{x-x} yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan aholi soni.

P_{x-x+1} yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik,

$L_{x+1-x+1}$ yoshgacha yashashi mumkin bo'lgan aholi soni.

Bunda, har bir yoshdagi aholi soni (L_x) har bir yosh yashashi mumkin bo'lgan ehtimollik koeffitsiyenti (P_x) yordamida bir yoshdan (L_x) ikkinchi yoshga L_{x+1} «siljiriladi». Buni quyidagi jadvalda bajarilgan amallardan ko'rish mumkin:

12.2-jadval

Yosh siljitish usuli yordamida aholi sonini prognozlash

Aholining joriy yil oxiridagi soni	Kelgusi 1-yil boshida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi soni	Kelgusi 2-yil boshida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi soni	Kelgusi 3-yil boshida bo'lishi mumkin bo'lgan aholi soni
L_{17}	$L_{18}qL_{17} \cdot L_{17}$	$L_{19}qL_{18} \cdot L_{18}$	$L_{20}qL_{19} \cdot P_{19}$
L_{18}	$L_{19}qL_{18} \cdot L_{18}$	$L_{20}qL_{19} \cdot P_{19}$	$L_{21}qL_{20} \cdot P_{20}$
L_{19}	$L_{20}qL_{19} \cdot L_{19}$	$L_{21}qL_{20} \cdot P_{20}$	$L_{22}qL_{21}qP_{21}$
$L_{17}QL_{18}QL_{19}$	$L_{18}QL_{19}QL_{20}$	$L_{19}QL_{20}QL_{21}$	$L_{20}QL_{21}QL_{22}$

Bu usulni qo'llash tartibini quyidagi shartli raqamlarda ko'rib chiqamiz (12.2-jadval). shu ma'mumotlarga asoslanib, uch avlodning istiqbolidagi sonini bo'lajak 1, 2 va 3 yillar, ya'ni 1999, 2000 va 2001-yillar uchun aniqlanadi. Yechish uchun jadvalning so'nggi ustunlarini to'ldiramiz. Demak, 1998-yildagi 17 yoshli 3786 kishidan:

- 1999-yilga kelib:

$$J_{18} = J_{17} \cdot P_{17}$$

$$J_{18} = 3786 \cdot 0.99641 = 3772 \text{ киши};$$

- 2000-yilga kelib:

$$J_{19} = J_{18} \cdot P_{18}$$

$$J_{19} = 3772 \cdot 0.99600 = 3757 \text{ киши};$$

- 2001-yilga kelib:

$$J_{20} = J_{19} \cdot P_{19}$$

$$J_{20} = 3757 \cdot 0,99562 = 3740 \text{ киши колар экан;}$$

Shu tariqa boshqa yoshdagi aholi soni ham tegishli yillar uchun hisoblangan. Hisoblashda mexanik o'zgarish koeffitsienti e'tiborsiz qoldirilgan.

12.3-jadval

Yoshni siljitish usulida aholining istiqboldagi sonini hisoblash tartibi

Yosh	Mazkur yoshdagi aholining 1998-yil boshidagi soni	Har bir yosh yashashi mumkin bo'lgan ehti-mollik koeffit-siyenti	Yil boshidagi yoshlar		
			1999-yil	2000-yil	2001-yil
			$J_{x+1} = J_x \cdot P_x$		
16	3786	0,99641	-	-	-
17	3764	0,99600	$3786 \cdot 0,99641 = 377$	-	-
18	3742	0,99562	$3764 \cdot 0,99600 = 374$	$3772 \cdot 0,99600 = 37$	-
19		0,99526	$3742 \cdot 0,99562 = 372$	$3749 \cdot 0,99562 = 37$	$3757 \cdot 0,99526 = 374$
20		0,99503	-	$3726 \cdot 0,99526 = 37$	$3732 \cdot 0,99526 = 371$
21		0,99498	-	-	$3708 \cdot 0,99503 = 368$

Bu usuldagi hisob-kitoblarda mexanik o'zgarish koeffitsiyenti e'tiborsiz qoldirilgan.

12.3. Demografik prognoz va dunyoda demografik rivojlanishning global muammolari

Umid qilamizki, ushbu kitobning boblaridan siz aholi va demografiya haqida ko'plab bilimlarga ega bo'ldingiz. Hozirda, ehtimol

kitobni ilk bor o'qishni boshlaganingizdagidan ko'ra ko'proq ma'lumotga egasiz. Biz uch xil demografik jarayonni, aholining asosiy xususiyatlarini, yani yosh va jins tarkibini, aholi o'sishi va kamayishini muhokama qildik. Ushbu so'nggi bobda aholining o'zi, hozirda va kelajakda shu sayyorada istiqomat etuvchilar soni va bularning yerdagi hayotning boshqa muhim omillari bilan qanday bog'langanini ko'rib chiqamiz. Yer aholisining kelajagini ekologiya, sotsiologiya va falsafa nuqtai nazaridan ko'rib chiqamiz. Shunday qilib, so'nggi bobda demografiyaning o'zi emas, balki, ko'proq boshqa masalalarga to'xtalinadi.

Biz dunyo aholisining sonini 2013-yilda 7 milliard, 2026-yilda 8 milliard va 2046-yilda 9 milliard (BMT,2005) deb taxmin qilgan edik. 2050-yilga kelib esa dunyo aholisi soni 9 milliarddan ziyod bo'lishi kutilmoqda. Bu raqamlar nimadan darak beradi va ularning tub ma'nosi nimada ekan?

Ekologik qarashlar

Biz avval, resurslar, ifloslanish va texnologiyalarni ko'rib chiqamiz. 9 milliard yer shari aholisining ta'siri qanday bo'larkin? Aholi borasida ekologik nuqtai nazaridan mulohaza yuritishimiz kerakmikin? Bobning ushbu birinchi qismida aholishunoslar va inson ekologiyasi bilan shug'ullanuvchilar ekologik kompleks deb ataydigan, yani aholi, tashkilot, atrof -muhit va texnologiyaning o'zaro ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Boshlanishiga aholi tushunchasini qaytadan ko'rib chiqamiz. Avval ta'kidlab o'tganimizdek, hozirda dunyo aholisi 7,5 milliarddan anchagina yuqori bo'lib, 2050- yilga borib, 9 milliarddan yuqori bo'lishi kutilmoqda. Aholining tez sur'atlarda o'sayotgan qismi dunyoning rivojlanayotgan mintaqalarida istiqomat qiladi. 2010-2050-yillarda tahmin qilinayotgan aholi o'sishining 95% dan ortiqrog'i rivojlanayotgan davlatlarda kuzatilishi kutilmoqda. 2050-yilga borib, tahmin qilingan aholi sonining 85 %i rivojlanayotgan davlatlarga to'g'ri keladi. Aholi o'sishi nomutanosib ravishda chegaralangan resurslar va yashash imkoniyatlariga ega, qashshoqlik chegarasidagi insonlarga to'g'ri keladi.

AQSH aholisi hozirda 300 millionni tashkil etib, asr o'rtalariga borib 420 millionga yetish ehtimoli bor. Dunyo aholisi bilan bo'lga-nidek, nomutanosib tarzda o'sayotgan AQSH aholi qatlamlari asosan kamchilik – chegaralangan resurslar va yasash imkoniyatlariga ega bo'lganlarga to'g'ri keladi. Lotin Amerikalik aholi AQSH dagi oxirgi o'nyilliklarda kuzatilgan aholi o'sishining yarmini tashkil etib, 2010-2050-yillardagi milliy aholi o'sishining uchdan ikki qismini tashkil etishi kutilmoqda. Farqli o'laroq, ispanzabon bo'lmagan oq tanli aholi bu davrdagi aholi o'sishining atigi 2% ini tashkil etadi. Taxminlarga ko'ra, 2010-2050-yillar oralig'ida AQSH aholisidagi Lotin Amerikaliklarning ulushi 2010-yildagi 16% dan (har 6 tadan biri) 2050- yilda 30% ga (har 3tadan biri) ko'tariladi.

Endi ushbu raqamlarning resurslar, ifloslanish va texnologiyalar bilan aloqasini ko'rib chiqamiz. Avval resurslarga nazar tashlasak, aniqrog'i, neft va suv. Sotsial sistemadagi istalgan ekologik tafovutni saqlash uchun sistema o'z-o'zini ta'minlay oladigan darajada resurslar zarurdir. Resurs masalasi bo'yicha chuqur mulohaza yuritish bizning maqsadimiz bo'lmasada, bugungi kunda dunyoning neftga qanchalar bog'liqligini takidlab o'tish darkor. "Neft qazib olishning pik cho'qqisi davri" atamasi neftning mavjudligini tushuntirishda ishlatiladi. Bu ishlov berilmagan neft ishlab chiqarilishidagi kutilgan yuqori nuqtaga erishilganligini bildiradi. Bu iboraning muallifi M. King Hubert 1974- yilda agar o'sha vaqtdagi tendentsiya saqlanadigan bo'lsa, "neft qazib olishning pik cho'qqisi davri" 1995-2000-yillarda yuzaga kelishini bashorat qilgan (Deffeyes, 2005) va bunga asosiy sabab sifatida aholi soni o'sishining davom etishini ko'rsatgan. Agar bu taxminlar aniq bo'lsa, issiqlik ta'minoti va neft uchun narxlarning davomiy o'sishi kutiladi. Butunjahon energiya inqirozi aql bovar holatda emas va biz yaqin Sharq va boshqa hududlardagi neftga bo'lgan yuqori talab tufayli oshib borayotgan tanglikdan xabarimiz bor.

Shunga qaramay, ijobiy fikrlashga ham o'rin bor. So'nggi tahlillarga ko'ra "Neft qazib olishning pik cho'qqisi davri" yili 2005-yilda bo'lib o'tgan ("Peak Oil", 2006). Ammo resurslar va zahiralari tushunchalarini farqlab olishda biroz muammo tug'iladi. Biz resurslar

ko'lamini to'g'risida yetarlicha ma'lumotga egamiz. Zahiralar ham ancha ko'p, ammo ularni qazib olish narxining o'ta yuqoriligi iqtisodiyotning bu tashabbusini shubha ostida qoldirmoqda.

Ijobiy fikr uchun sabab sifatida ko'plab davlatlarning neft ishlatishga qo'ygan cheklovlari va muqobil energiya manbaalarini topishga bo'lgan qiziqishlarini ko'rsatish mumkin. Millatlarni atmosferadagi issiqxona effekti gazlarini stabillashtirishga undovchi protokol-Kioto kelishuvi bunga misol bo'la oladi. Kelshuvni 180 ta davlat imzolab, tasdiqlagan bo'lib, AQSh ularning qatorida emas. AQSH protokolni imzolagan bo'lishiga qaramay, hali tasdiqlamagan lekin bekor ham qilmagan. Shu sababli, uning imzosi shunchaki ramziy ma'noni anglatadi. 2009-yilda 2012-yilda yakuniga yetishi rejalashtirilgan Kioto Kelishuvi doirasida 170 ta davlat iqlim O'zgarishi bo'yicha Kopengagen Konferensiyasida boshqa keli shuvni rivojlantirish uchun uchrashgan. Yangi hujjatda iqlim o'zgarishi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri deb tan olingan. Ammo yakuniy hujjat qonunan hech nimaga bog'lanmagan bo'lib, karbonad andgidrid gazi chiqarishni kamaytirish bo'yicha hech bir qonuniy majburiyatga ega emas. Qizig'i shundaki, neft taqchilligi bilan bog'liq muammolarni hal etishga qaratilgan takliflarning hech biri aholi o'sishini mumkin qadar kamaytirishni ko'zda tutmagan. Neft ishlab chiqarilishi borasida tashvishda bo'lgan olimlar aholi o'sishini quyidagicha qabul qilishadi: "Dunyo aholisining o'sishi tufayli jon boshiga neft ishlab chiqarilishi 1970-yilda eng yuqori nuqtaga erishgan (R. Duncan, 2001: 3). Bundan tashqari, dunyo bo'ylab neft ishlab chiqarilishi 2030-yilda 1980-yildagidek bo'lishi kutilmoqda. Bunda, 2030-yildagi aholi soni 1980-yildagidan ikki barobar ko'p bo'lishi kutilib, yanada sanoatlashgan va yanada neftga bog'liq bo'ladi. Oxir oqibatda, dunyo bo'ylab neftga bo'lgan talab, uning ishlab chiqarilishidan keskin o'zib ketadi" ("Life After Oil," 2008).

Nega endi 1980-2030-yillarda dunyo aholisi soni ikki barobar o'sishi taxmin qilinishi kerak? Mashhur fizik Albert Bartlett bunga imkon qadar javob berishga harakat qilgan – "Bazi fiziklarning fikriga ko'ra, jon boshiga neft ishlab chiqarilishidagi yetishmovchilik

aholi sonini nazorat qilishdagi taklifning siyosiy noaniqligi oqibatida hal qilinmagan”. Aniqrog‘i, 2050-yildagi bir milliardga kamroq aholi biz oxir oqibat duch keladigan neft inqirozini kamida ortga surishi mumkin. Hali ham bo‘lsa, shu asr o‘rtalariga borib neft bilan bog‘liq jiddiy muammolarga duch kelishimizning ehtimoli juda yuqori.

Boshqa bir resurs – suv hisoblanadi. Ushbu kitob o‘quvchilarining aksariyatiga suv ehtimol kafolatlangandek bo‘lishi mumkin. Ha, biz ifloslangan suv haqida bilamiz, lekin, umuman olganda, “Muammo nimada?” Birinchidan, suv neftdan ko‘ra ishonchsizroq resurs sanaladi. U hayot, inson uchun nihoyatda zarur bo‘lib, haqiqatan barcha jonzodlar uchun dastlabki shart sanaladi. Ikkinchidan, boshqa energiya turlari bilan almashtirish mumkin bo‘lgan neftdan farqli o‘laroq, uning o‘rnini hech bir narsa bilan bosib bo‘lmaydi. Va nihoyat, suv qayta tiklanadigan resurs bo‘lish bilan birga chegaralangandir. 21-asrda suv tanqisligi global oziq-ovqat ishlab chiqarilishidagi yagona katta tahdid bo‘lishi mumkin.

Suv resurslari bo‘yicha yetakchi mutaxassis, Sandra Postel o‘z kitobida suv va u bilan ta‘minlanganlik borasida quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan:

Biz global tarzda ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan suv taqchilligi davriga kirib kelmoqdamiz. 2015-yilda deyarli 3 milliard odam - taxmin etilgan dunyo aholisining 40 % i aholisini oziq-ovqat, sanoat va ichki ehtiyojlarini qondirish uchun yetarlicha suv bilan ta‘minlashi qiyin yoki ilojisiz bo‘lgan davlatlarda istiqomat qiladi. Millatlarning bu dilemmaga yakka tartibda va kelishgan holda javob izlashlari oziq-ovqat xavfsizligi, suv dunyosi sog‘lomligi va ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka jiddiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Agarda biz 9 milliard aholining ehtiyojlarini iqtisodiyotimiz va butun hayotimiz bog‘liq bo‘lgan suv dunyosi sog‘lomligini saqlagan holda qondirmoqchi bo‘lsak, suvga oid siyosat va boshqaruvga yangicha nazar tashlashimiz darkor (Postel, 1992: 12).

Aholi soni o‘sgan sari, hayot uchun juda muhim bo‘lgan akviferlar - yer ostidagi o‘zida suv saqlovchi qatlamlarning kama-yishiga bosim kuchaymoqda. Akviferlar suv ta‘minoti uchun juda

muhim sanalib, ularni suv saqlovchi katta omborlar sifatida qaraymiz. Yer osti suvlari qayta tiklanadigan resurs bo'lishiga qaramay, zahiralarning sekinlik bilan tiklanadi. Soni ortib borayotgan shaharlar suv tanqisligini qayd etishni boshlamoqda: "San Antonio, El Paso va Feniks kabi shaharlar 10-20 yil ichida suvsiz qolishi mumkin. San Diegodagi suv korxonasi aql bovar qilmaydigan tanlovni amalga oshirishdi, yani hojatkona suvini ichimlik suvi olish uchun qayta ishlashdi" (Rubenstein, 2008/2009: 5).

Bugungi kunda Amerika Qo'shma Shtatlarida, yer osti suvlari tabiiy qayta tiklanishidan ko'ra deyarli to'rt marotaba tezroq ishlatilmoqda. Sakkiz shtat hududini o'z ichiga olgan buyuk Ogallala akviferi asta-sekin kamayib, yaroqsiz bo'lib bormoqda, lekin Buyuk Tekislikning ko'p qismi uchun haligacha asosiy suv manbai bo'lib qolmoqda. Shunisi muhimki, milliardlar tadbirkorlar tomonidan akviferning ko'p qismini sotib olishga qaratilgan sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Yakuniy natija – oddiy foydalanuvchilar uchun qimmatroq suv.

Xuddi neft bilan bo'lgani kabi aholi sonining o'sishi o'zgarmas, deb olingan. O'zining odatiy to'g'ridan-to'g'ri nutqida Benjamin Franklin bunga to'g'ri izoh bergan "Biz suvning qadrini quduq quriganida bilamiz" (Bartlett, 1968). Bu yerda biz avval keltirilgan takidimizni takrorlab o'tamiz, yani 2050-yildagi bir milliardga kamroq aholi biz oxir oqibat duch keladigan suv inqirozini kamida ortga surishi mumkin. Biz sistemaga kirayotganidan ko'ra ko'p suvni undan olmasligimiz lozim, vaholangki, biz shunday qilyapmiz. G'arb filmlaridan mashhur bo'lgan XIX asrning suv uchun urushlari aholi sonining o'sishi kuchsizlanmay davom etadigan bo'lsa, XXI asrda qaytarilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, oziq-ovqat tanqisligi va uchun narxning sezilarli darajada oshishiga olib keladi.

Endi atrof-muhit to'g'risidagi qarashlarga to'xtalib o'tsak. Atrof-muhit deganda aslida nimani nazarda tutamiz? Bu atama juda keng va noaniq sanalib, Amos H. Hovley tarifi ko'ra, bu "kuzatuv ostidagi hodisaga ta'sir o'tkazadigan, tashqi bo'lgan istalgan narsa". Bu bobdagi bizning maqsadlarimizga ko'ra "ijtimoiy muhit" atamasi atrof-muhitga oid masala emas. Shu sababli munozara masalasini

global isish, ifloslanish va chiqindi muammolarini o'z ichiga olgan moddiy muhit doirasida chegaralaymiz.

Global isish Yer sayyorasi haroratining o'sishini ifodalab, bazan iqlim o'zgarishi deb ham ataladi. Olimlar o'rtasida umumiy, lekin, anonim bo'lmagan fikrga ko'ra u kutilganidan ko'ra tezroq sodir bo'lmoqda. Bundan tashqari, "20- asr o'rtalaridan beri eng ko'p kuzatilgan o'rtacha haroratlarning o'sishi antropogen issiqxona gazlari konsentratsiyasining oshishi bilan bog'liqligining ehtimoli katta" (Intergovernmental Panel on Climate Change, 2007: 8).

Ifloslanish global isish bilan uzviy bo'g'liqdir. Uning ko'plab turlari mavjud. Masalan: havo, suv va shovqin. Havo ifloslanishiga to'xtaladigan bo'lsak, bu kimyoviy moddalarning atmosferaga chiqarilishi bilan bog'liq. Karbon monoksid va nitrogen oksidlar bunga misol bo'la oladi. Ikkovi ham sanoat korxonalari va transport vositalari tomonidan chiqariladi. Transport vositalarining ifloslantirishi havo ifloslanishining yetakchi sabablaridan sanaladi. Hududga 1000 ta odamning qo'shilishi, ayniqsa, hozirgi sanoatlashgan vaqtda, taxminan 700 ta transport vositasi qo'shilishiga olib keladi.

Aholi sonining davomiy, jadal o'sishi bilan bog'liq muammolar ichida chiqindidan xalos bo'lish eng ko'rinarlilari qatorida. Hozirda AQSHdagi shaharlar 1960- yildagiga qaraganda ikki barobar ko'proq qattiq chiqindi ishlab chiqarmoqda.

Sayyoramiz yuz tutayotgan atrof-muhit muammolarini umumlashtiradigan bo'lsak, ular – xavf tug'dirayotgan cho'llar, dengiz sathining ko'tarilishi, o'rmonlarning kamaytirilishi, kislorod yomg'irlari, oziq-ovqat manbalarining toksik zaxarlanishi, tuproq oksidlanishi, ozon yemirilishi, issiqxona gazlarining to'planishi va iqlim o'zgarishini o'z ichiga oladi (Rees, 2004: 12). Sayyoramizning ushbu barcha qiyinchiliklariga aholi sonining o'sishi bevosita yoki bilvosita o'z hissasini qo'shadi.

Ijtimoiy qarashlar

Shu vaqtgacha biz aholi soni o'sishining mudhish manzaralari va uning dunyoga ta'sirini e'tiboringizga havola qildik. Ba'zilar bizga hatto dumpster (inqirozni bashoratlovchilar) deb murojaat qilishlari

mumkindir. Vaholanki, ijtimoiy soha olimlari orasida shunday bumsterlar (bozordagi vaziyatni eng cho‘qqi nuqtasiga chiqaruvchilar) borki, ular ba‘zan to‘laqonli futuristlar, deb ataladi. Bu to‘xtamga kelgan ikki iqtisodchi Estyer Bosyerup va Julian Saymon hisoblanadi. Boserup, daniyalik iqtisodchi, aholi o‘shisi ijtimoiy o‘zgarish (1965)lar uchun stimuly bo‘lganligini muhokama qildi. Masalan, qishloq xo‘jaligidan sanoatlashgan jamiyatga o‘tishda aholi o‘shisi o‘z hissani qo‘shgandir. Shuningdek, u shuni yozganki, o‘sayotgan aholi o‘shish cheklangan yoki u mavjud bo‘lmagan jamiyatdan ko‘ra, iqtisodiy o‘shishni tajribadan o‘tkazishga o‘xshaydi (Boserup1981). Saymon, so‘nggi amerikalik iqtisodchi, u ham bumster deb qabul qilinishi mumkin. Siyosiy konservativ bo‘lib, u “aholi o‘shisi neytraldir” deb ataladigan munozara tarafdoridir. Bu esa avvalroq 13-bobda ko‘rib chiqilgan Mexikoda o‘tkazilgan ikkinchi “Jahon aholisi” konferensiyasidagi AQSHning pozitsiyasi uchun asos bo‘lgan. Saymon o‘zining juda qiziqarli va yuqori ta‘sirga ega kitobida - The Ultimate Resource (1981) – aholi o‘shisi va innovatsiyalarga bo‘lgan moyillik birga yuradi. Haqiqatan, maksimal resurs ko‘proq odamga tegishli bo‘ladi. Insonlar yangiliklar qiladilar, qanchalik ko‘p odam bo‘lsa, shuncha ko‘p innovatsiya qilishga imkoniyat tug‘iladi. So‘nggi yillarida Saymon aholi o‘shishiga kamroq, tijorat bozoriga ko‘proq e‘tibor qaratib, aholi o‘shishiga noo‘rin qaratilgan e‘tibor rivojlanayotgan mamlakatga berilgan xatarli va asossiz maslahatlarda o‘z natijasini ko‘rsatdi (1992: xiii). Boserup va Saymon kabi shox olimlarning qarashlari o‘tmish uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa-da, 50 yil ichida ikki marta ko‘payish holatiga ega 6 milliard aholi uchun yetakchi g‘oya bo‘lishi qiyin. Dumsterlar va Bumsterlar kelisha oladigan birgina tarmoq bu texnologiyadir. 20-asrning keyingi yarim yilligida jahondagi texnologik o‘zgarishlar rivojlanishi va rivojlanayotganligi ayniqsa, sezilarli bo‘ldi. Biz darrovda kompyuter va internet haqida o‘ylaymiz. Kompyuter chiplari aloqani aql bovar qilmas holda tezlashtirib yubordi. Nyu-Yorkdagi odam Beijingda turgan odam bilan sekundlar ichida bog‘lana oladi. Bizning avvalgi hukumatlararo muhokama tizimini eslaylik. O‘tmishdagi holatga qaraganda, hozir

AQSHning istalgan joyida bog‘lanish imkoniyatini qanchalar oshirilganiga diqqatimizni qarataylik. Kommunikatsiya sohasida va sayohat qilish ko‘lamida endilikda kattaroq tezlikka egamiz. Kelajak yana nimaarni olib kelarkin? Oxirgi o‘nyilliklarda qo‘lga kiritilgan, hayot tarzimizni o‘zgartiruvchi ta’sirga ega bo‘lgan bu asrda qanday texnologik o‘zgarishlar sodir bo‘larkin?

Agar kimdir texnologiyalardagi so‘nggi yutuqlarni ajablanarli deb o‘ylasa, biz faqatgina boshlanishiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Biz tur sifatida doimiy evolyutsiyadamiz. Bu hech qanday yangilik emas. Sotsiologiyaning otasi hisoblanmish Ougust Kont insoniyatni farazlar va rivojlanishda 3 bosqichda taraqqiy etgan deb hisoblaydi: teologik, metafizik va pozitivistik (1853). Emil Durkgeym jamiyatning o‘zining ta’biri bilan aytganda, “mexanikdan” to “organik”ga bosqichma bosqich o‘tib borganini ko‘rsatib buyurgan. Herbert Spenser u yerda ham turlararo organizmlar, ham turli tizimlararo jamiyatlar holatida tabaqalanish tomon uzluksiz moyillik bor bo‘lishi kerak deb o‘ylaydi.

Yaqindagina Antoni Giddens (2002:7) quyidagilarni ta’kidlab o‘tgandi. Biz deyarli qilayotgan barcha ishlarimizga ta’sir qilayotgan islohotlar davrida yashayapmiz. Yaxshilikkami yoxud aksi, biz hech kim tushunmaydigan global tartibga o‘rnashib bormoqdamiz, lekin u bizga o‘zining ta’sirlarini sezdirmay qo‘ymaydi. Globalizatsiya qisman jozibador yoki nafis bir olam bo‘lmasligi ham mumkin, ammo hech kim bizning istiqbolli maqsadlarimizni tushunishni istasa-da, uni osonlikcha e’tiborsiz qoldirmasligi turgan gap. Bu atamaning global yoyilib borishi aynan o‘sha rivojlanishning dalili hisoblanadi. Bu atama hatto 1980-yillarda ham ishlatilmagan. U har yerda mavjud bo‘lish uchun yo‘q yerdan paydo bo‘ldi.

Tomas Fridmanning so‘nggi *The World Is Flat* (2005) and *Hot, Flat and Crowded* (2008) kitoblari globalla shuv jarayonining shiddatla shuvidan yuzaga kelayotgan keskin o‘zgarishlarga va Fridmanning tezlik bilan Bostondan to Bangalorgacha yoki yana qayerlargachadir o‘zining muloqotda bo‘layotganligiga qo‘shimcha misol bo‘la oladi.

Falsafiy qarashlar

Insoniyat evolyutsiya qilayotir. Biz uni o'zimizning muomalamizda o'zgarib borayotgan faoliyatlarimizda, bilimning globalla shuvida hamda aloqalarda ko'rishimiz mumkin. Qachon biz evolyutsiya qilishni to'xtatamiz? Ruhoniy Jesuit va fizik Teilhard de Chardin (1959, 1969b) muhokama qilishlaricha, noosferaga (yoki Omega nuqtasiga) yetish inson evolyutsiyasining yakuni bo'lishini belgilaydi. Vaholanki, noosfera bu e'tiqodchilarning jannatga erishlari deb osonlikcha ta'rif berilishi mumkin, garchi Teilhard buni tasdiqlamasa-da. boshqalar uchun, ehtimol, Karl Marksning hikmati bo'lmish, har kim o'zining qobiliyatiga qarab o'z ehtiyojini qondiradi deyilishi ijtimoiy tamaddunning poymoli bo'lishini belgilar.

Insoniyat evolyutsiyasi jarayonida bizning ko'rsatkichlar muttasil o'sib boruvchi darajaga chiqib ketdi. Bu esa avvalgi boblarda bir necha marotaba ta'kidlab o'tildi. Keling, endi oldin aytib o'tgan terminni - eksponensial o'sishni - yodga olaylik. Muhimi shuki, unsurlar soni har oshgan vaqtda hajman ikki baravar oshib boradi. Jahon kelajagiga nazar solganimizda eksponensial tushunchalar bizga oid bo'ladi, ya'ni aytaylik, aholi, bu ham bo'lsa, inson eksponentialismi va ma'naviy eksponentialism.

Biz allaqachon aholi eksponensializmi (hosilasini) muhokama qildik; 9-bobda vaqtning ikki baravar oshishi qismida keltirib o'tildi. Masalan, yiliga 2 foizdan o'sganda, aholi har 35 yilda 2 baravar ko'payadi. Biz jahon aholisi sonini ikki baravar o'sishiga bardavom bo'lolmaymiz, resurslar haqidagi dastlabki muhokama "Insoniyat hozirgi paytda biofizik o'sish chegarasini buzmoqda, biroq bu safar global masshtabda. Natijada insoniyatning ajoyib tamaddunini kafolatlaydigan ayni o'sha sifatlar o'zimizga tahdid solmoqda" (Rees, 2004:11).

Eksponensializm inson hayotining har bir jabhasida mavjud. "Fikr" shunday bir soha hisoblanadi. Bizning ilmimiz, xoh u texnik, xoh tibbiy, yo fanga oid bo'lsin, kengayib borayotir. Bu inson fikrlashining natijasi. Bu faqat kompyuter yoki internetga asoslanib emas, balki tibbiyotga bo'lgan e'tibor, geneti loyihalar va ildiz-hujayra tadqiqotlarini hisobga olgan holda yosh avlod tarafidan

rivojlantirilganiga e'tibor qarataylik. Bunda ular avlod davrida (so'nggi 30 yoki 35 yil) o'tgan nasllarga nisbatan ko'proq kengroq sodir bo'ldi. Bu ham o'z navbatida eksponensializmdir.

Shuningdek, biz bu o'rinda 1981-yilda biolog Lyuviz Tomas tomonidan qayd etilgan fikrni keltirib o'tishimiz mumkin: ilmning sermahsul asrining eng katta oddiy ilmiy yutug'i bu bizning tom ma'noda johil ekanligimizning kashf etilishidir, biz tabiat haqida juda oz bilamiz va biz yanada kam tushunchaga egamiz...bu sayyora tabiati dohiyiligidan chek-chegarasi yo'qdek go'yo" (Gellerman dan olingan, 2003:1). Bu shuni taxmin qilishda yordam beradiki, tabiat olamining shu narsalari bilan inson texnologiyalari integratsiyala shuvida e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi. Bu esa intellektual eksponentislizmning qiyin taraflari haqida bizni ogohlantiradi.

Insonlar ajdodlaridan meros bo'lib qolgan va uning ustiga qurilgan bilim-ko'nikmalarga tayanadi. Xo'sh, keyingi nasl uchun nima o'tkaziladi? Bizning aqlan tushunishimiz shuni tasdiqlashi mumkinki, o'sib borishdagi qiyinchiliklar uzra hayratlanarli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bilimning eskponensial o'sib borish imkoniyatlariga insoniyat moslasha olishni istaydimi? Oshib borayotgan murakkabliklarni hisobga olgan holda, biz o'sha tez sur'atlarda o'sish qiyinchiliklariga ko'nika olishga qodirmizmi? Biz allaqachon kompyuter savodxonligida avlodlararo bo'shliqni ko'ryapmiz, ya'ni boshlang'ich maktab bolasining o'z ota-ona yoki buva-buvilariga nisbatan ko'proq kompyuter ilmi asoslarini bilayotganligining o'zi bunga misoldir.

Raqamlar ham fikrlar ham keng qamrovda o'sib borayotir, ijtimoiy o'zaro aloqaga nima bo'ladi? Biz allaqachon yuzma-yuz ko'rishib muomalada bo'lish bo'yicha, ayniqsa, kompyuter va so'nggi e-mail, uyali aloqa vositalari va qo'lda tashib yuriladigan elektron uskunalar natijasida ma'lum darajadagi tushish ko'rsatkichi yuzaga kelayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Pessimistik tarafdan qaralganda bu ijtimoiy munosabatlarning yakunimi? Biz bir-birimiz bilan yuzma-yuz suhbatlashish imkoniyatini qo'ldan boy buyurmayapmizmi? Masalan, kollej professorlar-murabbiylari kompyuterlashtirilgan darslarga almashtirilishi mumkinmi? Optimistik tarafdan

qaralsa, taraqqiy etgan texnologiya vositasida biz sun'iy tarzda virtual muloqot orqali yanada ko'proq odam bilan gaplasha olish imkoniga ega bo'lamizmi? Ehtimolki, biz insoniyat evolyutsion jarayoning to'xtovsiz tarzda, muttasil taraqqiy etuvchi texnologiyalar orqali ijtimoiy munosabatlarga kirishiladigan yangi fazasiga qadam bosayotgandirmiz. Agar shunday bo'lsa, munosabat qilishning yangi paradigmasiga barchamiz baravar o'rganishimiz kerak. Aholi eksponensializmi ham inson taraqqiyotiga bog'liq. Misol uchun, o'sib borayotgan ko'rsatkichlar inson munosabatlariga qanday qilib oid bo'ladi? Ehtimol, ba'zi demograflarni taajjubga solsa-da, Teilhard de Chardin aholi o'sishi haqida jiddiy tashvishlarini keltiradi. Quyida u shunday yozadi:

17-asrgacha sekin o'sish- 400 million yetgandan keyin yer aholisi ogohlantiruvchi darajaga yeta boshladi. 18-asr oxirida 800 millionga oshdi. 1900 larda 1600 million va 1940-yillarda 2000 milliondan oshib ketdi. Joriy o'sish ko'rsatkichlarida urush va ocharchilikka qaramasdan, biz kelasi 25 yil davomida 500 millionga oshishini kutishimiz mumkin bo'lib qoldi. Bu demografik portlash yerdagi sanoat va birla shuvga chambarchas bog'liq bo'lgan rivojlanish bilan bog'langan. Ochiqroq aytadigan bo'lsak, bu ulkan ehtiyojlar va sifat va sondagi muammolarni keltirib chiqadi.

Keyin u so'radi, "Qandoq qilib bu yopiq yer yuzasida biz insoniyatni qiynayotgan har bir raqamdagi o'sish oxharchilik va inqirozga yuz tutishga boshlovchi kritik nuqtaga kelib qolgan narsalarni to'xtatib qola olamiz?"(243-b.)

Teilhard insoniyatning yuqori evolyutsiyasi bilan ayirboshlanuvchi aholi o'sishi haqidagi fikrlarida tiniq edi. U Neo-Maltuslarning bayonlarini oldindan ko'ra bilgan, ba'zilarini biz 9-bobda va kitobning ba'zi joylarida keltirib o'tganmiz. Haqiqatan, demografik portlash atamasidan birinchi bo'lib qo'llangan olim ham uning o'zi bo'lishi mumkin.

Xo'sh, biz hozirda ham evolyutsiya, ham eksponensializmga moslashish qiyinchiligiga duch kelgan holda 2010-yildamiz. Biz bu kichik sayyorada qo'shimcha 3 milliard yashovchini ta'minlay ololaymizmi? Biz duch kelyapgan savollar, eksponensializm

ko‘rinishlari bilan birga keladigan ortib boruvchi murakkablikka dosh beroladigan bo‘lganimizdagina ogoh bo‘lishimiz shart bo‘lgan savollar bor.

Bundan tashqari, ortib boruvchi murakkablik to‘g‘ridan to‘g‘ri ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq bo‘lishi mumkin. 21 asr uchun ijtimoiy munosabatlarning qanday ko‘rinishlari olam nigohida kutilishi mumkin. Virtual holda barcha olimlar shuni ta‘kidlashmoqdalarki, ijtimoiy munosabatlarsiz istalgan guruh yoki millat, shu boisdan ham, qulashga mahkum. 21 asrda yashar ekanmiz, yuzma-yuz inson munosabatlari qisqarib borayotgani oydek ravshan. Bu xavfli qisqarishga elektronik texnologiya yetaklamoqda. Bu lekin uning mutloq foyda keltirmaydi degan fikrga olib bormaydi. Sotsiolog Robert Merton (1968) ko‘p yillar oldin ochiq va yopiq funksiyalar mavjudligi aytib o‘tgandi. Biz texnologiyalarning ochiq funksiyalarini bilamiz, ularning ko‘plari ijobiydir. Lekin yopiq funksiyalar haqiqiy hayotdagi yuzma-yuz munosabatlarning qisqarishini ko‘rsatdi va bu jamiyat ustuvor bo‘lganda sodir bo‘ladi.

Agarda biz o‘zimizda shaxsiyatni asrab qolmoqchi bo‘lsak, barchamiz “o‘zligimiz”ni rivojlantirishimiz shart. Yuz yildan ko‘proq vaqt oldin psixolog Charles Horton Kuley (1902) “ko‘zguda o‘zlikni ko‘rish” atamasini o‘rtaga tashlagandi. Ma‘lum darajada, ijtimoiy munosabatlar orqali bizga boshqalar qanday munosabatda bo‘lishlariga qarab o‘zimizni rivojlantiramiz. Agar ko‘zguga qarash imkoniyatidan mahrum bo‘linsa, qanday qilib o‘zimizni rivojlantiramiz.

Bu to‘xtovsiz davom etayotgan darmonsiz holatimizga nima qilinsa, davo topiladi? Ko‘rinib turibdiki, biz soatni ortga surib qo‘yolmaymiz va yangi texnologiyalarni qotirib ham qo‘yib bo‘lmaydi. Lekin biz do‘stlar, hatto begonalar, hattoinki, dushmanlarimiz bilan ham ko‘proq gaplashishga yanada ko‘proq harakat qilishimiz mumkin. 6 milliardga qaraganda, 9 milliard bilan yashaganda yuzaga keladigan qiyinchiliklar qanday bo‘larkin?

1-bobda biz “demografiya bu taqdiri azal” degan iborani ishlatgandik. Ba tahqiq, buni jurnalistlar ishlataverganda, ba’zi demograflar undan foydalanishga orinadilar. Qisqa vaqt davomida

ta'sirlar doirasida "demografiya bu taqdiri azal" atamasida haqiqat bor bo'lishi mumkin. Jumladan, dunyo aholisi 9 milliard atrofida o'sishi ehtimoldan yiroq emas. Haqiqiy ko'rsatkich esa bu bahodan biroz yiroq bo'lsa-da, yer aholisi o'sib kelyapti. Mana AQSHda biz ko'p sonda chaqaloqlar tug'ilishi bilan bog'liq muammolarni tahmin qilishimiz mumkinki, u hozirda nafaqa yoshiga chiqib ketmoqda. Bu ma'noda demografiya bu taqdirdir. Eng so'nggi nashr etilgan kitob- The Post-American World- qayd etuvchi jurnalist Farida Zakariyo shunday xulosa beradiki, industrial dunyo qarigani sari, Hindiston bir guruh yoshlar deformatsiyasini davom ettiradi, boshqacha so'z bilan aytganda, ishchi guruhini. Xitoy esa birgina bola siyosati sababli yoshlar o'rtasida boshliqqa yuz tutadi; Hindiston esa yoshlarning ko'payib ketishiga, chunki ha bir oila o'z siyosatini yuritadi. Agar demografiya bu taqdir bo'lsa, unda Hindiston kelajagi barkamoldir" (2008:132).

Xulosa qilib, bu yakuniy bobda 21-asrning oxirgi yillari va dunyo aholisi deyarli 9 milliardga yetganda yuzaga keladigan oqibatlar haqida batafsil to'xtalib o'tdik. Hammasi bo'lmasa ham, ba'zi fikrlar o'quvchiga qorong'udek ko'rinishi mumkin. Albatta, ko'p sonli aholi va ekologik muammolarga duch kelamiz; biz texnologiyalar sohasida ulkan yutuqlar guvohimiz. Ham aholi ham intellektual eksponensializm yanda muammoli bo'lib bormoqda. Sanoat revolyutsiyasi erasi juda uzoq davom etdi, hozirda biz informatsion revolyutsiyani boshdan kechirmoqdamiz. Darhaqiqat, biz avval hech tafakkur qilolmagan jiddiy o'zgarishlar boshida turibmiz. Aholi hajmi va o'zgarishlar ishonib bo'lmaydigan hodisalarning qoq o'rtasida bo'lib turibdi. Bu harakatda bo'lgan globalizatsiya erasida biz yana bir savolni ko'ndalang qo'yamiz, "Biz hammasini o'z o'rniga qo'yolamizmi?" Javob esa, bu 21 asrda biz bir-birimizga qanchalar moslasha olishimizga bog'liq bo'ladi.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demografik prognoz nima?
2. Demografik prognozlar qanday turlarga bo‘linadi?
3. Demografik prognozlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tushuntirib bering?
4. Yosh siljitish usulida prognozlashtirish qanday amalga oshiriladi?
5. Aholi o‘limini prognozlashtirishda qanday usullardan foydalaniladi?
6. Aholi sonini prognozlashtirishda qanday usullar qo‘llanadi?
7. Demografik prognozlarni ishlab chiqishda Ekspert baholash usulining ahamiyati qanday?
8. Global va mintaqaviy prognozlarning umumiy va farqli jihatlari nimalardan iborat?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.
3. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.
4. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - Toshkent., “Tafakkur», 2011. – 160 bet.
5. Bo‘riyeva M.R., Egamova DDD.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Fan”, 2008. – 156 b.
6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

7. Tojiyeva Z.N. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T., 2000. – 58 b.

8. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002. – 160 b.

9. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘shishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.

10. Демографическая энциклопедия/ Редкол.: Ткаченко А.А. Аношкин А.В., М.Б. Денисенко и др. – М.: ООО «Издательство «Энциклопедия», 2013. – 944с.

GLOSSARIY

Demografik prognoz — bu aholi harakatining asosiy parametrlarini va istiqboldagi demografik vaziyatni, aholining son va sifat tavsiflarini, yosh-jins va oilaviy tarkibini, tug‘ilish, o‘lim, migratsiya jarayonlarini ilmiy asoslangan holda oldindan ko‘ra bilishdir.

Global prognozlar – dunyo miqyosidagi demografik rivojlantirishning global muammolarini echish imkonini beradi. Prognozlashtirishning mazkur turida aholini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining ko‘plab omillari va parametrlari bilan o‘zaro murakkab aloqadorligini tavsiflovchi modellar qo‘llaniladi.

Mintaqaviy prognozlar – bevosita rejalashtirish bilan bog‘liq, masalan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirayotgandi aholi takror barpo bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari, demografik jarayonlarning tavsiflari hisobga olinadi.

Ekspert baholash usuli – aholining istiqboldagi takror barpo bo‘lishi demografiya bilan shug‘ullanuvchi tajribali mutaxassislar tomonidan aniqlanadi.

O‘lim jadvali – joriy yilda ayrim yoshlardagi o‘lim ko‘rsatkichlariga asoslangan holda aholining hayoti mobaynida kamayib borishini ko‘rsatuvchi va bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatkichlar tizimidan tashkil topgan jadval.

Matematik demografiya — o‘z rivojining ma‘lum bir pog‘onasiga ko‘tarilgan bo‘lib, uning predmetini demografik jarayonlar va hodisalarning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish uchun

matematik usullarni ishlab chihish va ho'llash, ularni modellashtirish va prognozlashtirish tashkil qiladi. Demografik modellar qatoriga – tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish jadvallari, statsionar va muhim aholi modellari, demografik jarayonlarning imitatsion modellari va h.k.larni kiritish mumkin.

Iqtisodiy demografiya — aholi va iqtisodiy rivojlanishning o'zaro aloqadorligini, aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy oqibatlarini, demografik rivojlanishga iqtisodiy omillarning ta'sirini o'rganadi.

XIII BOB. DEMOGRAFIK SIYOSAT

13.1. Demografik siyosatning mazmuni va uni o‘tkazish usullari

13.2. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat

13.3. Migratsion siyosatning mohiyati, migratsion jarayonlarni xalqaro miqyosda boshqarish.

13.1. Demografik siyosatning mazmuni va uni o‘tkazish usullari

Demografik siyosat – bu aholi tabiiy harakatini boshqarish va aniq demografik natijalarga erishish uchun davlat tomonidan olib boriladigan, amalga oshiriladigan choralar tizimi. Demografik siyosat aholishunoslik siyosatining bir qismi hisoblanib, u nafaqat, aholi takror barpo bo‘lishining miqdoriga, balki sifatiga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Demografik siyosatni amalga oshirishda ikkita asosiy vazifalar belgilanadi, bular quyidagilar:

1. Demografik siyosat maqsadi va vazifalarini aniqlash va izohlash;

2. Natijalarga erishish uchun uni qayta ishlash va amalga oshirish vositalari.

Demografik siyosat tarkibiga quyidagilar kiradi:

➤ siyosiy demografik munosabatlar – turli demografik guruhlarining demografik qiziqishlarining namoyon bo‘lish shakli;

➤ siyosiy demografik anglash – siyosiy demografik munosabatlarning jamiyatda aks etishi;

➤ siyosiy demografik faoliyat – davlatning demografik siyosati rivojlanishi va mavjudligi, uning maqsadlarini amalga oshirish;

➤ siyosiy demografik qarashlar aholishunoslik siyosiy demografik maylining ichki anglangan manbalari;

➤ siyosiy demografik institutlar – jamiyat siyosiy tizimining bir qismi bo‘lib, bir vaqtning o‘zida davlatning demografik siyosati

sub'ektlari va siyosiy demografik faoliyat vositalari;

➤ siyosiy demografik va huquqiy me'yorlar-siyosiy demografik munosabatlar tizimi;

Demografik siyosat deganda, hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo'lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimi tushuniladi. Demografik siyosatni o'tkazishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- iqtisodiy;
- ma'muriy-huquqiy;
- ijtimoiy-psixologik.

Iqtisodiy usulda demografik hodisalarni iqtisodiy qo'llab quvvatlash nazarda tutiladi. Jumladan, bunga tug'ilishni ko'paytirish, ko'p farzandli oilalar uchun uy-joy olishga imtiyoz, farzandlarga nafaqa ajratish, maktabgacha tarbiya muassasalari, maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish va. boshqalar kiradi. Shuningdek, ko'chib kelgan hududdagi migrantlar uchun ijtimoiy himoya, ish haqi, ish joyi, uy-joy, madaniy-maishiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish kabilarni iqtisodiy qo'llab quvvatlash ham nazarda tutiladi.

Ma'muriy-huquqiy usulda aholining takror barpo bo'lishi rasmiy qonun hujjatlari asosida boshqariladi (qonunchilik hujjatlari, kontratseptivik vositalarni ishlab chiqish, foydalanish uchun ruxsat yoki taqiq, birinchi nikohga kirish yoshining belgilanishi, harbiy xizmatga chaqirilgan oilali, farzandi bor erkaklarga turli imtiyozlarning belgilanishi va hokazo). Binobarin, bu usulda ijtimoiy fondlardan aholining turli guruhlari uchun aksiyalarning taqsimlanishi, o'qishga qabul qilishdagi imtiyozlarning belgilanishi kabi ishlar o'z ichiga olinadi.

Ijtimoiy-psixologik usulda ommaviy axborot vositalari faol ish olib boradi. Ommaviy axborot vositalari orqali aholining demografik mayliga ta'sir o'tkazish, demografik jarayonlarni boshqarish muhim hisoblanadi. Bu usulni odatda aholini «demografik tarbiyalash», deb ham ataladi. Shu boisdan, demografik siyosatning bu usulidan

foydalanishda ko‘proq ommaviy axborot vositalari orqali jamiyatda, oilalarda oilaga yoshlarni tarbiyalash, turli tarbiya, ta‘lim muassasalarida demografik jarayonlarga bo‘lgan aholining reproduktiv xulqi, madaniyatini tarbiyalash masalalari muhim o‘rin tutadi.

Demografik siyosat to‘rt bosqichga ajratiladi:

- oilaviy demografik siyosat;
- mintaqaviy demografik siyosat;
- davlat demografik siyosati;
- davlatlararo demografik siyosat.

Demografik siyosatning davlatlararo bosqichida xalqaro migratsiya aloqalari, uni amalga oshirishdagi ma‘lumotlarni almashinishi, xalqaro tashkilotlarning dasturlar doirasidagi ishlari qamrab olinadi.

Davlat demografik siyosatining mohiyati mazkur davlatning siyosiy va ishlab chiqarish munosabatlari orqali namoyon bo‘ladi. Davlat o‘z hududida aholi takror barpo bo‘lishini, migratsiya jarayonlarini o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib boshqaradi. Mazkur demografik siyosat bosqichida mamlakat aholisining soni, yosh-jins tarkibi, mehnat resurslarining taqsimlanishi, migratsiya yo‘nalishlarining kelgusidagi sonini baholash ishlari amalga oshiriladi. Olib borilayotgan demografik siyosatning boshqa turlariga ta’siri masalasi aynan davlat darajasidagi demografik siyosat orqali aniqlanadi.

Demografik siyosatning mintaqaviy bosqichi bevosita hududiy jihatlar bilan bog‘langan bo‘lib, u, davlatlar ichida mintaqalar, alohida hududlar, tumanlar, shaharlar yoki qishloqlarda aholi takror barpo bo‘lish jarayonlarini boshqarilishi orqali amalga oshiriladi. Mintaqaviy demografik siyosat davlat demografik siyosatini to‘ldiradi va eng so‘nggi bosqichi hisoblanadi.

Oilani barpo qilish, oilaviy munosabatlarni yaxshilash, oilani saqlab qolish va mustahkamlashga yo‘naltirilgan tadbirlar, farzandlarni tarbiyalash, demografik xulqini shakllantirish, oilada oila a‘zolarining aholi takror barpo bo‘lishidagi ishtiroki masalalari demografik siyosatning oilaviy bosqichida olib boriladi.

Demografik siyosatning o‘ziga xos quyidagi jihatlar mavjud:

- iqtisodiy jihatlari-iqtisodiy rivojlanish bilan aholi takror barpo bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning bir-biriga va o'zaro ta'siri;

- siyosiy jihatlari-mamlakatdagi demografik jarayonlarning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari, yoki aksincha, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarning demografik jarayonlar borishida aks etishi;

- milliy (etnik) jihatlari-aholi takror barpo bo'lishida xalqlarning milliy urf-odatlarini, an'analari, madaniyati, kelib chiqishi xususiyatlarining roli (ayniqsa, tug'ilish, nikoh jarayonlarida);

- tarixiy jihatlari-zamonaviy demografik jarayonlardagi o'zgarishlarga baho berishda, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini tadqiq etib ko'rsatib berish;

- tibbiy jihatlari-salomatlikning aholi takror barpo bo'lishiga demografik omillar bilan bog'langan holda to'g'ridan-to'g'ri ta'siri;

- harbiy jihatlari-demografik siyosatning mamlakat harbiy salohiyatiga ta'siri, inson resurslari umumiy miqdori va dinamikasi bilan harbiy munosabatlarning o'zaro bog'liqligi;

- diniy jihatlari-dinning demografik jarayonlarga ta'siri va bunda davlatning roli.

Demografik siyosat aholi siyosatining uzviy qismi hisoblanib, u har bir demografik jarayonlarga alohida yondo shuvni talab etadi. Shu boisdan davlatlarda olib borilayotgan demografik siyosat orqali tug'ilish, o'lim, migratsiya, oila masalalarida kutilgan, istalgan natijalarga, yutuqlarga erishish muhim vazifalardan hisoblanadi.

13.2. Tug'ilish va oila sohasidagi demografik siyosat

Tug'ilish demografik jarayonlar ichida eng muhim asosiy o'rin egallaydi. Binobarin, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tug'ilishning qisqarib borishi, ba'zilarida esa ko'payib ketishi eng katta muammolardan biriga aylanmoqda. Bu esa aynan shu jarayon holatini tartibga solishni, boshqarishni talab etmoqda. Ko'pgina mamlakatlar bu borada o'ta faol demografik siyosat olib borishadi. Ammo aksariyat davlatlardagi aholi o'rtasidagi urf odatlar,

milliy an'analar, diniy munosabatlar va diniy qarashlar demografik siyosat o'tkazishga, xususan, tug'ilishni nazorat qilishga xalaqit buyuradi.

Sayyoramizda tug'ilishning hududlar bo'ylab farq qilishi, avvalo u davlat aholisining moddiy va madaniy turmush darajasiga, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga hamda shu davlat xalqining asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelayotgan milliy urf-odatlariga, qolaversa, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari, tug'ilishga aholining jins va yosh bo'yicha taqsimlanishi, nikohdan o'tish va ajralish kabi qator demografik omillar, psixologik omillar, tibbiyot rivojlanishi hamda har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir qiladi. Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib kelmoqda. Buni Xorijiy Osiyoning eng yirik davlatlari-Xitoy va Hindiston misolida ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida qayd etilganidek, Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970-yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Bulardan eng muhimi "Bitta oilaga bitta farzand" shiori ostida olib borilgan demografik siyosat natijasida, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi. Mazkur demografik siyosat Xitoyda bitta erkak oltita odamni boqishga olib keldi. Shuningdek, aholining jinsiy tarkibida erkaklar ulushining bir necha barobarga ortib ketishi tufayli, uylanish yoshiga etgan yigitlar uchun qizlar, "kelin" yetishmasligi muammosini ham paydo qildi. Bu esa Xitoylik yigitlarning boshqa davlatlardan uylanishiga hatto chekka hududlardan qizlarning o'g'irlab kelishi kabi jinoyatlarga ham qo'l urishga sabab bo'ldi. Shu kabi qator muammolarning yuzaga kelishi Xitoy xukumatini 2016-yilning oxiriga kelib oilalarda tug'ilish jarayoni bo'yicha demografik siyosatni o'zgartirishga majbur qildi. Endilikda Xitoy oilalarida ikkitadan farzand ko'rishga rasmiy ruxsat berildi.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular

jumlasiga, Oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Hindiston tibbiyot assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlar kiradi. Ammo shunga qaramasdan Hindistonda olib borilayotgan ushbu tug'ilishning kamaytirishga qaratilgan demografik siyosat o'zining sezilarli darajada natijasini ko'rsatmadi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodxonlik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971-yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli edi. Hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir. Ma'lumki, Xorijiy Osiyo aholisining 70% dan ko'prog'ini Xitoy va Hindiston aholisi tashkil etadi. Shuning uchun Xitoy va Hindistonda tug'ilishning nisbatan kamayishi butun Xorijiy Osiyo bo'yicha tug'ilish ko'rsatkichiga ta'sir qildi.

Agar dunyodagi davlatlarni tug'ilishning bugungi holatiga qarab sharxlamog'chi bo'lsak, ularni shartli ravishda uch guruhga ajratmog'imiz lozim. Ma'lumki, tug'ilishning yig'indi koeffitsienti 2,1 dan past bo'lsa tug'ilish darajasi ham past bo'ladi: 2,1-4,0 bo'lsa tug'ilish darajasi o'rtacha va 4,1 va undan yuqori bo'lsa tug'ilish darajasi yuqori bo'ladi. Ana shu demografik mezonga asosan dunyo davlatlarini guruhlariga ajratish mumkin. **Birinchi guruh** – tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan davlatlar: Afrika, Osiyo va Janubiy Amerikadagi qator davlatlar hamda Avstraliya va Okeaniyadagi ba'zi mamlakatlar. Ulardagi oilalarda farzandlar soni o'rtacha 4,1 dan to 7,0 gacha, ba'zi hollarda esa, undan ham yuqori bo'lmoqda. Mazkur davlatlarda tug'ilish darajasini kamaytirish demografik siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq, yuqorida zikr etilgan mintaqalarda joylashgan davlatlar, asosan, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan davlatlar bo'lib, ayniqsa, ayollarning ma'lumotlilikni nisbatan past; ko'p bolalikni qo'llab-quvvatlovchi an'analar ko'proq saqlanib qolgan; ayollar ijtimoiy ishlab chiqarishda kam ishtirok etadi; shahar turmush tarzining shakllanishi sust; tug'ilishni cheklash haqida tushunchalar va unga kerakli tibbiy vositalar keng tarqalmaganligi demografik siyosat natijasini sezilmasligiga olib kelmoqda.

Shu o'rinda keltirish o'rinliki, Afrikaning Efiopiya davlati aholisining sonini ko'paytirishga haddan tashqari katta e'tibor

qaratmoqda. Ushbu davlat demografik siyosatining asosiy maqsadi, aholi qancha qo‘p bo‘lsa, davlat shuncha kuchli bo‘ladi. shuningdek, bu davlat siyosatining qarashlarida ko‘psonli aholisi bo‘lgan mamlakat o‘zining tashqi siyosat masalasidagi qiziqishlarini ham faol olib boradi, deb hisoblaydi. Shu o‘rinda, amerikalik L. Jonsonning so‘zlarini keltirish o‘rinli “Oilani rejalashtirish uchun sarflangan 5 dollar, uchinchi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotini rivojlantirish uchun sarflangan 100 dollardan ko‘p samara buyuradi”.

Ikkinchi guruh – oilada tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar, ushbu davlatlarda tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti 2,1–4,0 ni tashkil etadi. 1989-2005- yillarda dunyoda tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar soni 44 tadan 57 taga yetdi, ya‘ni 13 taga ko‘paydi. Mazkur davlatlarda tug‘ilishning bunday darajada bo‘lishi ularning tarixan tarkib topib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy omillari bilan bog‘liqdir. Tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan joylarda aholining o‘sish sur‘ati bir tekis saqlanib turadi. Ularda aholining keskin ko‘payib ketishi yoki kamayib ketishi hollari kutilmaydi. Aholi taraqqiyotini boshqarish, iqtisodiyotni rivojlantirish borasidagi muammolarni hal etish bir muncha yengil kechadi. Shu boisdan mazkur guruhdagi davlatlar tug‘ilish jarayonini boshqarish bo‘yicha o‘ta keskin, sezilarli demografik siyosat olib borishmaydi.

Uchinchi guruh – tug‘ilish darajasi past bo‘lgan davlatlar. Bu davlatlarda aholi yiliga 0,7–0,9 foizga ko‘payib boradi. Oilalarning aksariyat qismida 1 yoki 2 tadan bola bor, xolos. Hozirgi davrda ushbu davlatlarda dunyo aholisining deyarli yarmi istiqomat etmoqda. Bu davlatlar demografik siyosatida tug‘ilish darajasining kamayib ketishini oldini olish maqsadida qator chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Holbuki, bu guruhdagi ba‘zi davlatlarda ko‘p yillardan beri olib borilayotgan demografik siyosat o‘zining ijobiy samarasini berganicha yo‘q. Tug‘ilish darajasi past bo‘lsada, ammo davlat darajasida uni ko‘paytirish bo‘yicha siyosat yurg‘izish shartmas deb hisoblaydigan mamlakatlar ham yo‘q emas. Jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Italiya, Irlandiya va bir necha boshqa mamlakatlar tug‘ilish darajasini ko‘tarish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqishga jiddiy masala sifatida qarashmaydi. Bu mamlakatlar farzandlar tug‘ilishini

tartibga solish oilaning, oiladagi erkak va ayolning shaxsiy ishi sifatida ko'rsatiladi va buning uchun alohida siyosat yurg'izilmaydi.

Oxirgi yillardagi demografik tadqiqotlar yer sharida aholi ortiqchaligi muammosini keltirib chiqarmasligini ko'rsatmoqda. Reproduktiv yoshdagi ayollarda tug'ilgan bolalarning o'rtacha miqdori 21 asrning boshida 2,7 taga tushdi, bu insoniyat tarixida eng past ko'rsatkich. Mazkur raqam 1985-yilda 4,2 tadan to'g'ri kelgan edi. Bugungi kunda dunyoning 70 ta davlatida tug'ilish darajasi reproduktiv yoshdagi ayollarga to'g'ri keladigan o'rtacha ko'rsatkich 2,2 tadan ham kam. Vaholangki, ushbu dalatlarda yer shari aholisining 45 foizi istiqomat etishadi. Bundan tashqari, dunyoning 30 dan ortiq davlatida aholi soni barqaror saqlanmoqda, ko'p yillardan beri miqdori o'zgarishsiz qolayotir. Umuman olganda xalqaro, davlat miqyosidagi uzoq muddatli majmuali dasturlarni amalga oshirishda, demografik siyosat yuritishda har bir hududning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

13.3. Migratsion siyosatning mohiyati, migratsion jarayonlarni xalqaro miqyosda boshqarish

Migratsion jarayonlarni tartibga solib turish zaruriyati yuqoridagi boblarda ham alohida ta'kidlandi. Migratsion jarayonlarni boshqarish borasidagi chet el va xalqaro tashkilotlar faoliyatlari va tajribalarini taxlil qilish davomida davlat migratsion siyosatining mohiyati, turlari va instrumentlarini ham yoritib o'tishga qaror qilindi.

*Davlat migratsion siyosati*²⁴ — bu davlatning migratsiya jarayonlarini boshqarish, tartibga solish maqsadidagi faoliyatlari majmuidir. Davlatning migratsion jarayonlarni tartibga solishi milliy manfaatlarini ko'zlash va himoya qilish zaruriyatidan kelib chiqadi. Bu borada davlatning ishchi kuchini migratsiyasini tartibga solish asosiy o'rinni egallaydi. Ishchi kuchi migratsiyasini davlat tartibga solishi ishlayotgan migrantlar manfaatlarini himoya qilish

²⁴ Аконова Е.С. и др. Мировая экономика и международные экономические отношения. Издание второе. Ростов-на-Дону. "Феникс" 2001. 335- бет.

shuningdek, ishchi kuchining eksporti hamda importi borasidagi davlatning manfaatlarini ko'zlash natijasidir.

Davlatning migratsion siyosati maqsadiga va tartibga solish metodlariga ko'ra bir-birdan farq qiluvchi emigratsion va immigratsion siyosatga bo'linadi.

*Emigratsion siyosat*²⁵ qulay emigratsion muhit yaratish borasidagi bilvosita usullarni va emigratsion oqim hajmini va tarkibini nazorat qilishga mo'ljallangan bevosita usullarni o'z ichiga oladi.

Bilvosita usullarga quyidagilar kiradi:

1) chetdan valyuta tu shumlarini ko'paytirish maqsadidagi valyuta va bank siyosati; valyuta tushumlariga imtiyozlar joriy etish (ichki tushumlarga nisbatan birmuncha yuqoriroq depozitlar berish, depozitlarni soliqdan ozod qilish, xorijiy valyutadagi o'tkazmalari uchun imtiyozli pochta va telegraf tariflari); ishchi-migrantlarga qimmatbaho qog'ozlarni sotish, soliqlar borasidagi imtiyozlar.

2) bojxona siyosati, qaytayotgan ishlovchi-emigrantlarga bojxona imtiyozlarini joriy etish. Misol uchun, Bangladeshda mamlakatga qaytayotgan ishlovchi-emigrantlarga 40 turdan ortiq (xomashyodan tortib tayyor mahsulotgacha) mahsulotlarni olib kirishlariga imtiyozli tariflar joriy etilgan.

3) qo'shimcha tarzda qator davlatlarda maxsus emigratsion dasturlar qabul qilish. Misol uchun, 1976-yilda Yugoslaviya hukumati "Yugoslaviyalik ishchilarning mamlakatda va chetda ishlashlari va qaytishlari choralarini ko'rish" uzoq muddatli maxsus Dasturini ishlab chiqqan.

Bilvosita usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) vositachi firmalar va ishchi migrantlar singari mehnat migratsiyasi subyektlariga talablar qo'yish;

2) xorijiy mamlakatlardagi mehnat bozorlarini va ishchi joylarini egallashga qaratilgan ekspansion siyosat yuritish. Misol uchun, chetga shunday mutaxassislarni jo'natiladiki ularning mehnati natijasida ushbu mamlakatga eksport qilish hajmi oshadi.

²⁵ юкорндаги манба, 336 -бет.

3) tarkibiy siyosat, asosiy elementlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: xorijiy pasportlarning berilishini limitlashtirish (Birma, Vetnam, Xitoy, Jan. Koreya); b) alohida kategoriyadagi ishchilarning chetga chiqishlarini bekor qilish (bevosita va bilvosita) va emigratsion kvotalar joriy qilish (Koreya, Filippin va Bangladeshda neftchilar, aloqachilar, samolyotlarni ta'mirlovchi texniklar va boshqalarning chetga chiqishlari kvotalangan); v) chetda o'qiyotgan mamlakat fuqarolarining o'qish tugagandan so'ng ma'lum muddat ishlab berish majburiyatlarini joriy etish va hokazolar.

*Davlat immigratsion siyosati*²⁶ davlatni va mahalliy mehnat bozorini nazorat etib bo'lmaydigan migrantlar oqimidan himoya qilish va mamlakat ichki mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadlarida olib boriladi.

Turli immigratsion dasturlarda migrantlar uch kategoriyaga tasniflanadi:

1) oilaviy emigratsiya (yer-xotinlar, ota-onalar, bolalar, aka va ukalar, qariya qarindoshlar, turmush o'rtog'i yoki qaylig'i); kafolat bera oluvchi mamlakat fuqarosi bo'lgan -qarindoshining bo'lishi majburligi

2) iqtisodiy emigratsiya; mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi uchun foydali ta'sir etadigan alohida maxsus malakaning, xususiy tadbirkorlik faoliyatini yurita olish tajribasining bo'lishligi lozimligi. Emigrantlarning to'rt turli kategoriyasi ajratiladi: a) xususiy tadbirkorlik emigratsiyasi (korxonalar barpo etish niyatidagi hamda bu boradagi tajriba va buning uchun etarli bo'lgan sarmoyaning bo'lishligi); b) yaxshi ma'lumotga va malakaga ega bo'lgan shuningdek, ish topa oladigan yoshroq kishilarning emigratsiyasi; v) ish beruvchilar tomonidan ishga taklif qilingan kishilar emigratsiyasi; g) ijod, sport va boshqa yo'nalishlarda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan yutuqlarga erishgan kishilar emigratsiyasi.

3) gumanitar (insonparvarlik) emigratsiya; qochoq maqomini olgan va boshqalar migratsiyasi.

²⁶ Юкоридаги манба, 337-бет.

Immigratsion siyosatning migrantlar toifasiga qarab bir vaqtning o'zida qo'llanishi mumkin bo'lgan uch asosiy turi ajratib ko'rsatiladi:

- immigrantlarning mamlakatda bo'lish sonini va muddatlarini chegaralashga qaratilgan siyosat;

- muayyan bir muddatsiz mamlakatda oila a'zolari bilan yashashlariga ruxsat beruvchi siyosat;

- immigrantlarning mamlakatda doimiy yashashlariga va fuqarolik olishlariga ruxsat beruvchi siyosat.

Immigratsion siyosat quyidagi instrumentlardan tashkil topadi.

1. Xorijiy ishchi kuchiga sifatli talablarning qo'yilishi:

a) ma'lumoti to'g'risidagi sertifikatning mavjudligi. Misol uchun, Birlashgan Arab Amirligida vrachlar va o'rta tibbiyot hodimlarining dipomli bo'lishlari, Avstraliyada esa – kompyuter texnikasi mutaxassislarining oliy ma'lumotli bo'lishlari talab etiladi va hokazolar.

b) mutaxassisliklari bo'yicha mehnat stajining bo'lishligi. Misol uchun, Avstraliyada ishlash uchun 3 yildan kam bo'lmagan stajga ega bo'lish kerak bo'lsa, AQSHda bu senz 5 yilni, Kiprda esa – 2 yilni tashkil etadi.

2. Yosh senzi. Misol uchun, Jazoirda turli mutaxassisliklardagi ishchilarning yoshi 40 yoshdan oshmagan bo'lishi lozim bo'lsa, SHvetsiya va Norvegiyada 20—40 yoshli parmalovchi-neftchilarga katta ehtiyoj sezmoqda.

3. Sog'lig'ining darajasi.

4. Shaxsiy xarakterdagi cheklovlar (sotsial tozalash). Misol uchun, AQSH da kommunistik partiya singari totalitar tipdagi partiyalar a'zolarining kelishlari cheklangan. Irlandiyada esa ilgari 1 yildan ortiq qamalib chiqqan kishilarning mamlakatga kelishlari rad qilinadi.

5. Ishchi kuchi importiga kvota qo'yish. Masalan, Gretsiya korxonalarida xorijiy ishchilar bilan mahalliy ishchilar o'rtasidagi nisbat 1:10 dan oshmasligi kerak.

6. Moliyaviy cheklovlar. Masalan, Slovakiyada oddiy ishchi-migrantlar ishga joylashganliklari uchun to'lov to'lashlari lozim.

Irlandiyada esa, ishga joylashishga ruhsat berilganligi uchun 4 oy davomida 100 irland funti hajmida boj to'lashlari kerak bo'ladi.

7. Vaqt cheklovlari: Zimbabvedda xorijiy fuqarolarga 5 yilgacha ishlash uchun ruhsat berilsa, Polshada – 0,5 yil, Norvegiyada – 1 yilga ruhsat beriladi. Rossiyada esa 1993-yil qabul qilingan “RF ga xorijiy ishchi kuchini jalb etish va undan foydalanish qoidalarini” ga ko'ra ishlash uchun 1 yilgacha ruhsat beriladi va shuncha muddatga uzaytirilishi mumkin.

8. Aniq shakldagi bekor qilishlar, qonunlar qabul qilish orqali namoyon bo'ladi, misol uchun, xorijiy fuqarolarning mashg'ul bo'lishlari ta'qiqlangan kasblar aniqlaniladi va o'sha soha vakillarining kelishlariga cheklovlar o'rnatiladi, bilvosita shaklida esa mamlakatga kirish uchun ustuvor kasblar ro'yxati aniqlanadi.

9. Milliy – geografik ustuvorlik berilishi. Misol uchun, 1924 yilda AQSH Kongresi tomonidan o'rnatilgan immigratsion kvotaga ko'ra Shimoliy-G'arbiy Yevropa davlatlariga aholisiga yengilliklar berilgan. 1965-yilda immigratsion qonunchilikni isloh qilinishi natijasida Osiyo va Lotin Amerikasidan keladiganlarni sonini ham barqarorlashtirish ko'rsatilgan. Birgina, 1990-yilgi yangi immigratsion qonunga ko'ra Yevropa mamlakatlarining malakali mutaxassislarining jalb etilishiga katta ustuvorlik beriladi. Bunga misol qilib, sobiq AQSH prezidenti J.Bushning (1992-yil dekabr) “MDH davlatlaridagi ziyoli oilalarni ko'chib kelishlari uchun mumkin qadar engilliklar berish to'g'risida”gi farmonini ko'rsatish mumkin.²⁷ Hozirgi kunda AQSHda 1995-yildan buyon 650 ming atrofidagi immigrantlarga ruxsat beriladi.

10. Sanksiyalar tizimi, noqonuniy ishlovchi-migrantlarga, ishchi kuchini noqonuniy ravishda import qilish bilan shug'ullanuvchi shaxslarga, ish beruvchilarga qarshi qo'llaniladi. Bu turli moddiy jarimalardan tortib ozodlikdan mahrum qilishgacha boradi.

11. Repatriatsiya dasturlari, ishchi-migrantlarning chetga oqimini barqarorlashtirishga mo'ljallangan bo'ladi. Qoidaga ko'ra uch ko'rinishdagi dasturlardan foydalaniladi:

²⁷ Независимая газета, 1994, 17 ноябрь.

a) moddiy kompensatsiya dasturlari immigrantrlarning o'z mehnat faoliyatlaridan muayyan vaqt chetda qolganligi uchun pul to'lovlari ajratishni nazarda tutadi;

b) professional tayyorlash dasturlari yordamida immigrantrlarning o'z yurtlarida, uylarida ish bilan ta'minlanishlari nazarda tutiladi;

v) ommaviy emigratsiya mintaqalariga iqtisodiy yordam dasturlari.

Umuman olganda, har qaysi davlat migratsion jarayonlarni, boshqarish borasida o'z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Migratsion jarayonlarni boshqarish xarakterini va biror bir yo'nalishga ustuvorlik berish davlat hukumatlari tomonidan belgilanadi.

Yuqoridagilarda migratsion jarayonlarni boshqarishning alohida davlatlar uchun xos bo'lgan xususiyatlari yoritilgan bo'lsa, quyida esa migratsion jarayonlarni xalqaro tashkilotlar tomonidan, dunyo miqyosida boshqarish masalalari yoritiladi.

Migratsion jarayonlarni xalqaro miqyosda tartibga solishga mo'ljallangan bir necha tashkilotlar tuzilgan.

1. Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT)²⁸. 1919-yil tashkil etilgan va 1946- yildan boshlab BMTning ixtisoslashgan tashkilotiga aylantirilgan. 1990-yil 1 yanvargacha XMT ga 150 davlat a'zo bo'lib kirgan. O'zbekiston ham XMT ga 1992 (13.07.)-yildan buyon a'zo.

XMTning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mehnat qiluvchilar uchun ijtimoiy adolatli munosabatni ta'minlashga ko'maklashish;

- ishchilarni hayoti va mehnat sharoitlarini yaxshilashga yo'naltirilgan xalqaro siyosat va dasturlarni ishlab chiqish;

- mahalliy hukumatlarning mehnat standartlari boradagi siyosatlari uchun qo'llanma bo'ladigan xalqaro mehnat standartlarini ko'rib chiqish va shu standartlarga rioya qilishga chaqirish.

- ishchi kuchi tanlovini reglamentlashtirish;

- ishsizlikka qarshi kurashish;

²⁸ Yuqoridagi manba. 340-b.

- yaxshi hayot kechirishni ta'minlovchi ish haqi darajasiga kafolat bo'lish;
- ish jarayonidagi favqulodda hodisalar natijasida yuzaga keladigan kasallanishlardan himoya qilish;
- bolalar va ayollarni himoya qilish;
- ijtimoiy sug'urta va ta'minot masalalarini reglamentlashtirish;
- professional-texnik o'qishni tashkillashtirish. Bu maqsadni amalga oshirish maqsadida XMT ning Jenevada Xalqaro mehnat muammolari Instituti va Turinda Xalqaro texnik va professional tayyorlash markazi markazi faoliyat olib bormoqda.

XMT tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Xalqaro mehnat konferensiyasi — XMT ning qonun chiqarish vazifasini bajaruvchi oliy organi;
- ma'muriy kengash — XMT tarkibidagi turli qo'mita va komissiyalar ishini boshqarish;
- Xalqaro mehnat byurosi — axborot va maslahat organi.

XMT butunjahon tashkilotlar orasida o'zi siyosatini ishlab chiqish borasida a'zolarining teng ovozga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Tashkilotning eng muhim funksiyalaridan biri sifatida ish haqi, ish kuni davomiyligi, mehnat sharoitlari, ishchilarning mehnatiga qarab taqdirlanishlari, ijtimoiy ta'minot, haq to'lanadigan ta'til va mehnat muhofazasi singari xalqaro mehnat standartlarini o'rnatish borasidagi konvensiya va takliflar qabul qilishdir. XMT tashkil etilgan vaqtdan buyon 172 konvensiya va 181 takliflar qabul qilingan.

XMT ning eng so'ngi hujjatlaridan biri sifatida "Xususiy kompaniyalarning ishchi kuchini yollash faoliyatlari to'g'risida"gi Konvensiyasini ko'rsatish mumkin. U qo'shilish uchun barcha davlatlar uchun ochiq. Ayni vaqtda MDH davlatlari ichida Rossiya bu Konvensiyaga qo'shilish jarayonida turibdi.

2. Xalqaro migratsiya masalalari tashkiloti (XMMT)²⁹. Tashkilot 1949- yilda Xalqaro qochoqlar masalalari tashkiloti sifatida (XQMT) tuzilgan. Keyinchalik uning vakolatlari kengayib, 1989- yilda nomi o'zgartirilgan. XMMT tarkibi doimiy ravishda kengayib

²⁹ Yuqoridagi manba. 342-b.

borayotganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, 1966-yil tarkibida 59 davlat a'zo va 42 ta davlat kuzatuvchi bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1998-yilga kelib, 61 va 51 ni tashkil etgan. Bu tashkilot doirasida migratsion oqimlarni boshqarish, migratsiyani tashkil etish masalalariga yordam ko'rsatish, "oqillar ketishi" ning oldini olish, reemigratsiya, ekspert xizmatlarini taklif etish va boshqa masalalar bo'yicha texnik hamkorlik borasidagi uzoq muddatli dasturlar ishlab chiqiladi. Ayni vaqtda XMMT ustaviga ko'ra quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- fuqarolarning rejalashtirilgan va tartibli migratsiyasini amalga oshirishga ko'maklashish;
- malakali ishchi kuchlarini qabul qiluvchi davlatlar rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi oilalari bilan joylashtirish;
- qochoqlar harakatlanishini tashkil etish;
- davlatlarga migratsiya borasida tajriba, fikr almashish va hamkorlik qilishda yordam berish.

Hozirgi vaqtda XMMT migratsiyaning miqdor tomonlarigagina emas, balki sifatiy jihatlariga ham (misol uchun, malakalar kadrlar almashinuvi, iqtidorli mutaxassislarining vatanlariga qaytishlari) katta e'tibor qaratmoqda. Shuningdek, XMMT qochoqlarga yordam berish va potensial qochoqlar muammolarni ko'rib chiqadi.

XMMT xalqaro migratsiyaning asosiy maqsadi sifatida quyidagilarni tan oladi: ishga yollanish; oilalrning birlashuvi; ta'lim olish; qisqa turistik, oilaviy, ish tashriflari (3 oygacha); siyosiy panohtopish (Jeneva konvensiyasiga ko'ra); fuqarolarning vatanlariga, o'z etnik tomirlariga qaytishi; doimiy yashash uchun chiqish.

XMMT — BMT tarkibiga kirmagan, lekin u bilan uzviy hamkorlikdagi va global vakolatga ega bo'lgan yagona tashkilotdir.

O'zbekiston XMMT tarkibiga kirmagan. Hozirgi kunda XMMT ning barcha MDH davlatlarida (O'zbekistondan boshqa) idoralari faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston ham bu tashkilotga qo'shilish yo'lida muayyan qadamlar tashladi. Rossiya Federatsiyasi esa 1992-yildan buyon unda kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi.

3. BMT qoshidagi qochoqlar masalasi bo'yicha Oliy Komissarlik Boshqarmasi (QMOKB) qochoqlarni himoya qilish, uzoq muddatli qarorlar qabul qilish, birinchi navbatda repatriatsiya

masalalari bilan shug'ullunadi. Hozirgi kunda QMOKB juda ko'p davlatlarda o'zining tinchlikparvarlik siyosatini amalga oshirmoqda.

1951-yil BMT hozirgi kunga qadar ham qochoqlar masalalari bo'yicha asos bo'luvchi muhim hujjat - qochoqlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyani qabul qildi.

1951-yilgi Konvensiyaning prinsplari 1967-yilga Protokolda bayon etilgan. Unda Konvensiya boshqa davlatlar qo'shilishi uchun doimo ochiqligi ko'rsatilgan.

Shundan buyon qochoq maqomini berishda mazkur xalqaro hujjatga asoslaniladi. 1951-yilgi Konvensiyaga ko'ra, qochoqlar xalqaro himoya ostida bo'ladi va bo'lib turgan davlatida: ishlash, yashash, ijtimoiy ta'minot, erkin harakatlanish, sudga murojat etish, o'z xususiy korxonalarini ochish, o'z kasbi bo'yicha erkin ishlash, boshlang'ich ta'limni olish, siyosiy bo'lmagan asotsiatsiyalarga birlashish huquqlariga ega bo'ladilar. Ushbu Konvensiyaga ko'ra, unga qo'shilgan a'zo davlatlar o'z hududlarida bo'lib turgan qochoqlarni hayotlariga real xavf mavjud bo'lgan davlatlarga qaytarib yoki o'tkazib yuborishlari mumkin emas (32- modda).

BMT QMOKB ning 115 davlatda 200 dan ortiq idoralari faoliyat yuritmoqda. O'zining 50 yildan ortiq faoliyati davomida QMOKB quyidagi yo'nalishlarda ko'plab dasturlarni amalga oshirgan:

- qochoqlarni havfsiz joylarga ko'chirishga yordam berish va ularning hayotlariga havf mavjud bo'lgan joylarga ko'chirilmasligiga kafolat bo'lish;

- favqulodda holatlar yuz berganda qochoqlarga oziq-ovqat, tibbiy yordam, joy kabi zaruriy yordamlarni berish;

- qochoqlarning o'z yurtlariga erkin qaytib ketishlariga kafolat bo'lish;

- qochoqlarning o'z ona yurtlariga qaytib ketishlari iloj bo'lmagan taqdirda, ularning ushbu davlatga integratsiyala shuviga yordam berish;

- qochoqlarning yaqin qarindoshlariga ko'chishga yordam berish.

Mazkur tashkilotga O‘zbekiston ham a‘zo bo‘lib, Toshkent shahrida doimiy vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

4. **OESR qoshidagi Migratsiyani doimiy kuzati tizimi (MDKT)** milliy immigratsion boshqarmalar faoliyatini muvofiq-lashtirib turadi. Chunki, hozirgi kunda xalqaro mehnat migratsiyasi jahon hayotining va xo‘jaligining birmuncha murakkab bo‘lgan jihatlaridan biridir. Bir tomondan, xalqaro mehnat migratsiyasi mamlakatlar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mehnat resurslarining qayta taqsimlanishini ta‘minlaydi va yangi rayonlarni o‘zlashtirish imkonlarini bersa, ikkinchi tomondan, turli ijtimoiy va iqtisodiy qarama-qarshiliklarga ham olib keladi. O‘zbekiston MDKT ga a‘zo emas.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Demografik siyosatning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Demografik siyosat o‘tkazishdan maqsad nimalardan iborat?
3. Demografik siyosatni o‘tkazishning qanday uslublarini bilasiz?
4. «Demografik tarbiyalash» deganda nimani tushunasiz?
5. Tug‘ilish sohasida demografik siyosatni o‘tkazishdan maqsad nima?
6. Farzandli oilalarga beriladigan yordam choralari qanday guruhlariga ajratiladi?
7. O‘zbekistonda oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida nafaqalarning qanday turlari beriladi?
8. Respublikada yosh oilalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qanday imtiyozlar berilgan?
9. O‘zbekistonda o‘limni kamaytirish va aholi salomatligini yaxshilash borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1998-yil 30 aprel, № 607-1.

4. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISOD MOLIIYA», 2013. -212 bet.

5. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.

6. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т., 2009. – 223 с.

7. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - T., “Tafakkur», 2011. – 160 bet.

8. Bo‘riyeva M.R., Egamova DDD.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.

9. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.

GLOSSARIY

Demografik siyosat — hozirgi davr hamda uzoq muddatli istiqbol uchun aholining takror barpo bo‘lishi va dinamikasi sohasida muayyan bir sifat va miqdorga erishishni nazarda tutuvchi birlashgan vositalar va fikrlar birligining davlat miqyosida qabul qilingan tizimidir.

Demografik o'tish — aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

Demografik portlash — tug'ilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori sur'atda o'sishidir.

Depopulyatsiya — tug'ilishning darajasining pasayishi, o'limning ko'payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayish jarayonidir.

Tug'ilishni nazorati — tug'ilishning darajasini pasaytirish va mamlakatda aholi o'sish sur'atlarini sekinlashtirish maqsadida davlatning demografik siyosat vositalari bilan aholining tug'ilishi jarayoniga ta'siri.

XIV BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING RIVOJLANISHI VA JOYLANISHI

14.1. O‘zbekistonda aholi soni dinamikasi va joylanishi

14.2. Aholining demografik tarkibi

14.3. Respublika aholisining demografik vaziyati

14.1. O‘zbekistonda aholi soni dinamikasi va joylanishi

O‘zbekiston Respublikasi maydoni 448,9 km² ni tashkil etadi. Aholisi 32 120,5 mln kishi bo‘lib, 1 km² ga 70,3 kishi (2017-y) dan to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston aholisi soni bo‘yicha MDHga kirgan mamlakatlar orasida Rossiya va Ukrainadan keyin 3 - o‘rinda turadi. Poytaxti Toshkent shahri (1930-yildan). O‘zbekiston Respublikasi tarkibiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi (1936- yil) va 12 ta viloyat kiradi.

Statistik ma‘lumotlarga qaraganda, O‘zbekistonda aholi soni muntazam ko‘payib kelgan. Masalan, 1865-yili o‘lkada 3320 ming aholi istiqomat etgan bo‘lsa, 1920-yili aholi soni 4470 mingga, 1970-yili - 11800 mingga, 1991-yili - 20708 mingga va 2005-yili 25707 mingga, 2017 yili - 32 120,5 ming kishiga yetdi. Asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar yer shari aholisi 3,4 martaga ko‘paygan bo‘lsa, O‘zbekiston aholisi 6,6 martaga ortdi. Ayniqsa, mustaqillik yillarida, ya‘ni 1990 – 2010-yillarda respublika aholisi soni 8,2 million kishiga yoki 1,4 barobarga ko‘paydi.

O‘zbekistonda aholi soni, tarkibi va demografik xususiyatlariga oid ma‘lumotlar 19 asrning 2 – yarmidan boshlab mavjud bo‘lib kelmoqda. 19 asrga qadar, O‘zbekiston hududida asosan o‘zbeklar va dini, urf-odatları o‘zbeklarga yaqin bo‘lgan tojiklar, qoraqalpoqlar (Amudaryoning quyi qismida va Orol bo‘ylarida), qozoqlar (Shimoliy - g‘arbiy chala cho‘llarda), qirg‘izlar (tog‘lik joylarda-Sharqda), turkmanlar (janubiy-g‘arbiy cho‘llarda) yashaganlar. 20 asr

boshlarida o‘zbeklar uchta yirik etnik guruh: vohalarda yashagan qadimiy o‘troq aholi (20 asr boshlarida ular rus adabiyotida – “sartlar”, deb atalgan); mo‘g‘ullar istilosigacha bu yerda yashagan turkiy xalqlar; mo‘g‘ullar davrida va undan 16 asrda bu yerga kelib o‘rnashgan turkiy qabilalar.

14.1-jadval

O‘zbekistonda aholi soni dinamikasi (1865 – 2017-yy., ming kishi)*

Yillar	Jami aholi	Jumladan	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
1865	3320,0	466	2854
1897	3948,0	743	3205
1920	4470,0	807	3663
1926	4621,0	1012	3609
1939	6347,0	1470	4877
1959	8119,0	2729	5390
1970	1800,0	4322	7478
1979	15391,0	6350	9041
1989	19880,0	8119	11761
1991	20708,0	8366	12342
1995	22562,0	8732	13830
2000	24582,0	9235	15347
2005	25707,0	9381	16326
2010	29123,4	14897,4	14225,9
2015	31022,5	15555,2	15467,3
2017	32120,5	16250,8	15869,7

*Jadval M.K.Karaxanov. Некапиталистический путь развития и проблемы народонаселения. – Ташкент, 1983; “Численность населения Республики Узбекистан”, “Демографический ежегодник Узбекистана – 2003”. – Ташкент, 2004 va O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi joriy ma’lumotlari asosida tuzilgan.

XIX asrning 60-70-yillarida O‘zbekiston hududini Rossiya podsholigi bosib oldi. shu munosabat bilan 19 asr oxiri 20 asr

boshlarida Rossiya aholisining bir qismi, jumladan, dehqonlar ko'chirib keltirildi va Mirzacho'lga joylashtirildi; bu

14.2 - jadval

O'zbekistonda shahar va qishloq aholisining salmog'i (foiz hisobida)*

Ma'muriy – hududiy birliklar	Shahar aholisi			Qishloq aholisi		
	1991 y	2005 y	2015 y	1991 y	2005 y	2015 y
O'zbekiston Respublikasi	40,5	36,5	51,0	59,5	63,5	49
Qoraqalpog'iston Respublikasi	48,2	48,7	49,6	51,8	51,3	50,4
Andijon viloyati	2,2	29,8	52,6	67,8	70,2	47,4
Buxoro viloyati	34,5	30,0	38,3	65,5	70,0	61,7
Jizzax viloyati	28,7	29,9	47,4	71,3	70,1	52,6
Qashqadaryo viloyati	26,3	24,8	43,2	73,7	75,2	56,8
Navoiy viloyati	41,2	39,8	49,7	58,8	60,2	50,3
Namangan viloyati	38,2	37,5	63,6	61,8	62,5	36,4
Samarqand viloyati	30,8	25,9	38,4	69,2	74,1	61,6
Surxondaryo viloyati	19,3	19,4	36,0	80,7	80,6	64
Sirdaryo viloyati	34,9	31,4	49,1	65,1	68,6	50,9
Toshkent viloyati	44,2	39,5	57,2	55,8	60,5	42,8
Farg'ona viloyati	31,2	28,4	32,9	68,8	71,6	67,1
Xorazm viloyati	27,4	22,6	32,9	72,6	77,4	67,1
Toshkent shahri	100	100	100	--	--	0

* Jadval "Демографический ежегодник Узбекистана – 2003". - Ташкент, 2004. – Б.31. statistik to'plam va O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

yerda yangi qazilgan kanal bo'ylab muhojirlar aholi maskanlari (posyolkalari) tashkil topdi. 19 asrda O'zbekiston hududiga Sharqiy Turkistondan (Sinszyan) uyg'urlar ko'chirib keltirildi va ularga Sharqiy qismda tog' vodiylarida yashash uchun joy ajratildi.

1897-yil o'tkazilgan aholi ro'yxatiga muvofiq O'zbekiston hududida 3,9 mln. kishi yashagan; shundan 19 % shahar aholisi bo'lgan. O'sha kezlarda O'zbekistonda aholi takror barpo etilishi, tug'ilish va o'limning yuqori darajasi o'rtacha umr ko'rishning qisqaligi bilan xarakterlanadi. Yosh bolalar o'limi koeffitsiyenti Yevropa va Rossiyadagiga qaraganda 65-70 foizga yuqori bo'lgan. Tub aholining migratsiyasi juda past edi. Ushbu holatlar respublikada aholi soni dinamikasi shakllanishiga ta'sir etdi.

1979-1989-yillarda o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, ushbu yillar oralig'ida respublika aholisi 4,5 million kishiga ko'payib, o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizga teng bo'lgan. 1970-1990-yillarda O'zbekistonda aholining o'sish sur'ati asta-sekin pasayib bordi. Agar 1950-1970-yillarda Respublika aholisi har yili o'rtacha 3,5 foizdan ko'paygan bo'lsa, 1980-1990-yillarda, bu ko'rsatkich 2,7 foizni, 1991-2000-yillarda 1,9 foizni, 2005-2015-yillarda 1,50 foizni tashkil qildi.

Respublikada shahar aholisi 1990-yillarga qadar muntazam ortib bordi, hatto respublika umumiy aholisining o'sish sur'atidan ikki marta yuqori bo'ldi. 1991-2012-yillarda O'zbekistonda shahar aholisining o'sish sur'ati sezilari kamaydi. Buning asosiy sababi shaharlarda tug'ilishning pasayib ketganligi hamda "2009-yil 13-martdagi Vazirlar Mahkamasining 68 sonli Qaroriga binoan 966 ta qishloqlarga shaharcha maqomining berilganligi"³⁰dir. Bu nafaqat, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida, balki aholining demografik rivojlanishida ham muhim o'rin tutadi.

O'zbekistonning demografik taraqqiyotida qishloq aholisining muntazam ravishda o'sib borishi xususiyati xos bo'lib kelgan. Qishloq aholisi sonining o'sishi hozirgi vaqtda ham davom etmoqda. Jumladan, respublika qishloq aholisi salmog'i 1989-yilda jami aholining 59,3 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005-yilda 63,7 foiz, 2015 - yilda 49,8 foizga teng bo'ldi (14.2. -jadvalga qarang). Qishloq joylar aholisida farzandlar ko'p tug'ilishi, o'lim ko'rsatkichlari past,

30 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori.- T., 2009. № 68.

barqaror nikoh munosabatlari va ajralishning kamligi aholi tabiiy ko'payishini yuqori sur'atda bo'lishiga olib kelgan.

O'zbekistonning barcha viloyatlarida ham 1991-2015-yillarda aholining o'sish sur'ati bir muncha kamayganligi kuzatiladi. Eng aholisi zich joylashgan hudud, bu Andijon viloyatidir, keyingi o'rinlarda Farg'ona, Namangan, Samarqand, Toshkent viloyatlari turadi. Aholisi siyrak joylashgan hududlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Sirdaryo viloyatlari kiradi.

14.2. Aholining demografik tarkibi

Aholining demografik rivojlanishida uning milliy, yosh-jins tarkibi alohida o'rin egallaydi. Respublikada 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat etishadi. Jumladan, respublikaning tub joy aholisiga o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, qirg'izlar va qoraqalpoqlar kiradi. O'zbeklar barcha viloyatlarda, obikor yerlarda yashashadi. Qozoqlar asosan Qozog'iston bilan bo'lgan chegara tumanlarida, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida, Buxoro, Navoiy, Toshkent, Sirdaryo viloyatlarining ayrim tumanlarida istiqomat qiladi. Tojiklar esa, Namangan, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo viloyatlarida, qoraqalpoqlar azaldan Amudaryo va Orol dengizi atrofidagi hududlarda yashab kelishadi.

O'zbekistonda mahalliy millatlarning mutloq va nisbiy miqdorida o'sish ro'y bermoqda. 1989-yilda o'zbeklar mamlakat umumiy aholisining 71,4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 83,6 foizga yetdi. Mustaqillik yillari barcha mintaqalar aholisi milliy tarkibida o'zbeklar ulushi muntazam ortib bordi. O'zbeklar respublikaning ilgaridan mavjud shaharlar va sug'orma dehqonchilik qilinadigan yerlarida yashab kelsada, hududlar bo'ylab notekis joylashganligi kuzatiladi. Oxirgi aholi ro'yxati ma'lumotlari, jami o'zbek millatiga mansub kishilarning 35 foizi uchta Andijon, Samarqand va Farg'ona viloyatida yashagan holda, qolgan viloyatlarning har birida ular ulushi 10 foizga yetmaganligini ko'rsatadi.

14.3-jadval


Doimiy aholi soni (2017-y, ming kishi)

Ma'muriy hududiy birliklar	Jami aholi			Shahar aholisi			Qishloq aholisi		
	umumiy	ayollar	erkaklar	umumiy	ayollar	erkaklar	umumiy	ayollar	erkaklar
O'zbekiston Respublikasi	32120.5	15999.5	16121.0	16250.8	8126.5	8124.3	15869.7	7873.0	7996.7
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1817.5	905.7	911.8	894.7	447.1	447.6	922.8	458.6	464.2
<i>Viloyatlar:</i>									
Andijon	2962.5	1466.4	1496.1	1551.7	768.2	783.5	1410.8	698.2	712.6
Buxoro	1843.5	921.8	921.7	692.0	343.7	348.3	1151.5	578.1	573.4
Jizzax	1301.0	647.3	653.7	611.8	306.2	305.6	689.2	341.1	348.1
Qashqadaryo	3088.8	1530.0	1558.8	1326.3	656.1	670.2	1762.5	873.9	888.6
Navoiy	942.8	464.9	477.9	460.9	224.2	236.7	481.9	240.7	241.2
Namangan	2652.4	1307.5	1344.9	1716.6	844.9	871.7	935.8	462.6	473.2
Samarqand	3651.7	1819.5	1832.2	1372.8	689.6	683.2	2278.9	1129.9	1149.0
Surxandaryo	2462.3	1219.8	1242.5	877.6	437.3	440.3	1584.7	782.5	802.2
Sirdaryo	803.1	399.5	403.6	345.9	172.2	173.7	457.2	227.3	229.9
Toshkent	2829.3	1414.3	1415.0	1381.1	695.9	685.2	1448.2	718.4	729.8
Farg'ona	3564.8	1771.2	1793.6	2022.8	1012.2	1010.6	1542.0	759.0	783.0
Xorazm	1776.7	889.1	887.6	572.5	286.4	286.1	1204.2	602.7	601.5
Toshkent sh.	2424.1	1242.5	1181.6	2424.1	1242.5	1181.6	-	-	-

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

O'zbeklardan keyin salmog'i va salohiyatiga ko'ra ikkinchi o'rinni mahalliy millatlardan **tojiklar** egallaydi. Hududiy tarkibiga ko'ra, tojiklarning 66,3 foizi qishloq, qolgan qismi shahar joylarda yashaydi va mintaqalar bo'yicha turlicha taqsimlanadi. 2017 - yilda mamlakatdagi tojik millatiga mansub kishilarning eng katta salmog'i, ya'ni 18,5 foizi Samarqand viloyatiga, 18,9 foizi Surxondaryo

viloyatiga, 14,7 foizi Namangan viloyatiga, 13,2 foizi Farg‘ona viloyatiga, 10,0 foizi Toshkent va 8,5 foizi Qashqadaryo viloyatiga to‘g‘ri keldi. Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy viloyati aholisi milliy tarkibida ularning ulushi juda kichik bo‘lib, har birida atigi, 1,0 foizga ham etmaydi. Ushbu raqamlarni oxirgi aholi ro‘yxati ma‘lumotlari bilan solishtiradigan bo‘lsak, Samarqand, Buxoro viloyatidan boshqa barcha viloyatlar aholisi milliy tarkibida tojiklarning hissasi 1-1,5 barobarga ortganligini ko‘rish mumkin.



14.1-rasm. O‘zR Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida mualliflar tomonidan hisoblandi.

Respublikada yashovchi **ruslar** xuddi tojiklar singari aholi milliy tarkibida alohida o‘rin tutadi. Biroq, mamlakat aholisi milliy tarkibida ularning ulushi tobora qisqarib bormoqda. Oxirgi aholi ro‘yxati davrida respublika jami aholisining 8,3 foizini, 2017-yilda 3,3 foizini tashkil etgan mazkur millatga mansub kishilar O‘zbekistonning barcha mintaqalarida bir xil joylashmagan, ular ko‘proq shahar joylarda va viloyat markazlarida tarqalgan.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi milliy tarkibida mahalliy millatlardan **qozoqlar** soni va salmog‘i jihatdan alohida o‘rin tutadi. Tahlil etilayotgan yillarda, bu millat vakillari ulushi 1,2 martaga qisqardi. Binobarin, 1989-yilda respublikadagi qozoqlarning 72,4 foizi ikkita mintaqaga - Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatiga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2017-yilda bu ko‘rsatkich 77,4 foizni tashkil etgan. Har ikkala mintaqadagi qozoqlar umumiy miqdori tadqiqot davrida 1,1; 1,3 martaga oshgan. Soni jihatdan beshinchi

o'rinda turuvchi **qoraqalpoq** millatining 94,1 foizi nomi bilan bog'liq respublikada, 3,4 foizi Navoiy viloyatida, qolgan qismi esa boshqa viloyatlarda istiqomat qiladi.

14.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi 2017-yil 1-yanvar holatiga shahar va qishloq aholisida ayollar va erkaklarning nisbati (*kishi*)*

	1000 ayolga to'g'ri keladigan erkaklar		
	jami aholi	shahar	Qishloq
O'zbekiston Respublikasi	1004	995	1014
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1002	992	1013
<i>Viloyatlar:</i>			
Andijon	1018	1015	1020
Buhoro	995	1006	988
Jizzax	1006	991	1019
Qashqadaryo	1015	1015	1015
Navoiy	1030	1061	1000
Namangan	1025	1028	1021
Samarqand	1003	983	1015
Surxandaryo	1014	998	1023
Sirdaryo	1010	1004	1014
Toshkent	996	982	1009
Farg'ona	1010	994	1031
Xorazm	996	993	997
Toshkent sh.	949	949	

Manba: *O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblandi

O'zbekiston aholisi shakllanishi va joylanishida uning yosh-jinsiy tarkibi alohida ahamiyatga ega. Aholining yosh tarkibida hamisha yoshlar, mehnat yoshidagi aholi ko'p sonli ekanligi bilan xarakterlanadi.

Aholining jinsiy tarkibida erkaklar va ayollar miqdori o'zaro mutanosib, ya'ni teng (50-50). Bu tenglik ma'lum bir yosh guruhlarigacha saqlanib qolinadi, so'ngra 50-55 yoshlardan boshlab jinsiy tarkibda ayollarning ustunligi kuzatiladi. Aholining jinsiy tarkibida ko'p yillarda ayollarning erkaklarga nisbatan ulushi ortiq bo'lganligi kuzatiladi, ammo oxirgi yillarda bu nomutanosiblik tenglashib bormoqda.

14.3. Respublika aholisining demografik vaziyati

O'zbekiston hududlarida XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida tug'ilish yuqori darajada bo'lgan. Oilada farzandlar tug'ilishi nazorat etilmagan, ya'ni cheklanmagan. Soddaroq qilib aytganda, har 1000 ta aholiga nisbatan bir yilda tug'ilish 45-55 taga teng bo'lgan. O'sha davrlarda respublikada qishloq turmush tarzining keng tarqalganligi (XX asr boshlarida O'zbekiston aholisining 80 foizi qishloqlarda istiqomat etishgan) qizlarning nihoyatda erta turmush qurishi, bolalar (ayniqsa, bir yoshgacha bo'lgan) o'limining yuqoriligi kabi omillar oilalarda farzandlar tug'ilishini cheklanmasligiga olib kelgan.

Mazkur davrlarda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy ahvolning og'irligi sabab, aholi o'limi, ayniqsa, ayollar va bolalar o'limi juda yuqori bo'lgan. Chunki, aholining og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning yetishmasligi, o'limning ko'pligi, aholi o'rtacha umr ko'rish davrining qisqarishiga olib kelgan. O'tmishda O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish davri 32 yosh bo'lgan bo'lsa, 1989-1990-yillarda bu yosh ko'rsatkichi 69,3 yilga, 2015-2017 yillarda 71,1 yilga, shundan, ayollarda bu davr oralig'ida 72,4 yildan 75,1 yilga, erkaklarda esa 66,1 yildan to 70,6 yilga ko'tarildi. Jumladan, 1960-yilda Respublikada har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar soni 39,8 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 1990-yili bu ko'rsatkich 33,7 ni tashkil etdi yoki 6,7 punktga kamaydi. 1991-2017-yillarda

tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti respublika buyicha 34,5 promilledan 22,8 promillega tushdi. O‘zbekistonda tug‘ilish darajasining bunday tez sur‘at bilan kamayishi urushdan keyingi 40-45-yillik davrda kuzatilgan emas. Respublikaning tug‘ilish darajasi doim yuqori bo‘lib kelgan Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida ham ko‘p bolali oilalar salmog‘i keskin kamaygan. Masalan, 1996-yili Qashqadaryo viloyatida har 1000 kishi hisobiga tug‘ilgan bolalar soni 33,1 ni tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yili bu ko‘rsatkich 25,4 promilleni tashkil etdi. Bu davrda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti Surxondaryo viloyatida 34,4 % dan 21,9 % ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 25,1 % dan 21,7 % ga, Xorazm viloyatida 27,4 % dan 22,3 % ga kamaydi.

14.5-jadval

O‘zbekiston aholisining tug‘ilishi, o‘lishi va tabiiy ko‘payishi (1920-2016-yillar)*

Har 1000 aholiga nisbatan			
Yillar	Tug‘ilganlar	O‘lganlar	Aholining tabiiy o‘lishi
1920	44,8	33,8	11,0
1930	38,7	17,1	21,6
1940	33,6	13,2	20,4
1950	30,9	8,8	22,1
1960	39,8	6,0	33,8
1970	33,6	5,5	28,1
1980	33,8	7,4	26,4
1990	33,7	6,1	27,6
1995	30,4	6,5	23,9
2000	21,7	5,6	16,1
2005	20,6	5,3	15,3
2010	21,9	5,1	16,8
2015	21,0	5,0	16,0
2016	22,8	4,9	17,9

*www. stat.uz. Jadval ilmiy manbalardan va statistik to‘plamlarda chop etilgan ma’lumotlar asosida tuzilgan.

Tug‘ilish darajasining kamayib borganligi oilada beshinchi va undan keyingi (oltinchi, yettinchi, sakkizinchi va h.k.) tug‘ilayotgan bolalar salmog‘ining qisqarib borishida ham kuzatiladi. Ular 1970-yilda jami tug‘ilgan bolalarning 43,1 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 1990-yilda 14,3 foizini tashkil etdi yoki uch martaga qisqardi. Umuman 1950-1990-yillarda O‘zbekiston aholisi 6 mln 264 ming kishidan 20 mln 322 ming kishiga yetdi. O‘zbekistonda mustaqillik davrining birinchi bosqichida tug‘ilish darajasining 1970-yillarda boshlangan kamayish jarayoni tezlashdi. Tug‘ilish darajasining kamayishi, yuqorida qayd etilganidek, O‘zbekistonda ro‘y bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir. Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti bo‘yicha, 1990-yillarga qadar O‘zbekiston dunyodagi tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan davlatlar guruhiga kirar edi. Bu ko‘rsatkich 1990-1991-yillardan boshlab kamaya borib, hozirgi davrda esa 2,36 ni (2015-y.) tashkil etgan (shaharda – 2,10, qishloqda – 2,65). Demak, O‘zbekiston bugungi kunda dunyodagi tug‘ilish darajasi o‘rtacha bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olgan. Bu jarayon O‘zbekistonning barcha viloyatlarida ham kuzatiladi.

Umuman 1991-2012-yillar davomida O‘zbekistonning barcha hududlarida tug‘ilishning keskin kamayganligi kuzatilmoqda. Respublikada tug‘ilish darajasidagi shahar va qishloq hududlarida qadimdan mavjud bo‘lib kelgan farq, keyingi yillarda qishloq aholisida tug‘ilishning tez sur‘at bilan kamayish hisobiga sezilarli qisqargan. Respublika demografik vaziyatida aholi o‘limi muhim jarayonlardan biri bo‘lib, aholining o‘lim ko‘rsatkichi har ming kishiga 1990-yilda 6,1 promille bo‘lgan bo‘lsa, 2016-yilda 4,9 promillega teng bo‘ldi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy sohalaridagi eng katta yutug‘i bu aholining barcha qatlamida o‘lim darajasining kamayishiga erishganligidir.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. O'zbekistonda aholi zichligi viloyatlar bo'yicha qanday o'zgarib boradi?
2. Aholi joylashuvidagi geografik farqlar nimalardan iborat?
3. O'zbekiston demografik tarkibiga ta'sir qiluvchi omillar nimalardan iborat?
4. Mustaqillik yillarida Ozbekiston aholisi milliy tarkibida qanday o'zgarishlar yuz berdi?
5. O'zbekistonda aholi soni ko'payib borishiga nimalar ta'sir qilmoqda?
6. Aholi hududiy tarkibi o'zgarib borishiga demografik jarayonlarning ta'siri qanday?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

7. 1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.
8. 2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.
9. 3. O'zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 yil 30 aprel, № 607-1.
10. 4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13 mart 2009 yildagi “O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma'muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” № 68-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009 y., 12-son, 130-modda.
11. 5. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.

12.6. Axmedov E., Saydaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma’lumotnoma. – T.: “O‘zbekiston”, 2006.

13.7. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - Toshkent., “Tafakkur», 2011. – 160 bet.

14.8. Bo‘riyeva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997. -157 b.

15.9. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства / Под общ. ред. В.Г. Глушковой. – М.: КНОРУС, 2005. – 384 с.

16.10. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston aholisi: o‘sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.

GLOSSARIY

Avlod — muayyan bir vaqtda tug‘ilgan insonlarga tegishli bo‘lib, ko‘pincha bir kalendar yiliga teng. Shu bilan birga, demografiyada ota-onalar nolinchi, ularning farzandlari birinchi, nevaralari esa ikkinchi avlod hisoblanadi.

Ajralish — avloddagi nikoh juftliklarining nikohni bekor qilishi natijasida yuzaga keladigan demografik jarayondir. Bu yer va xotinning hayot vahtidagi nikohning bekor qilinishidir.

Aniq yosh — imkoni boricha maksimal aniqlik bilan o‘lchangan, tug‘ilgan vaqtdan joriy daqiqagacha bo‘lgan davr oralig‘iga tengdir. Masalan, insonni tug‘ilgan vaqtini aniq bilgan holda aytish mumkinki, qandaydir vaqtda uning yoshi 31 yil 4 oy 13 kun 7 soat 30 daqiqa 28 soniyaga teng.

Aholining jins tarkibi — aholining erkak va ayollarga tahsimlanishidir.

Aholining yosh tarkibi — bu aholining yosh guruhlari va yosh kontingentlari bo‘yicha tahsimotidir.

Aholining keksayishi — aholi umumiy sonida ulug‘ yoshdagilar o‘lishining ortishi, yoshlar salmog‘ining kamayishi, shu bilan bir vaqtda o‘rta yoshdagi aholi sonining ko‘payishida o‘z ifodasini topadi. Ta’kidlash joizki, aholining keksayishi deganda,

nafaqat bu yosh guruhidagi kishilar salmog'ining, balki mutlaq sonining ham ortishi tushuniladi.

Aholi migratsiyasi — bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki qisqa yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

Aholi registrlari — bu muayyan hududda muntazam yashovchi har bir shaxs yoki uy xo'jaligi haqida axborotga ega bo'lgan kartotekadir. Aholi registrida har bir insonning asosiy ijtimoiy-demografik tavsiflari to'grisida ma'lumotlar jamlanadi.

Aholi ro'yxati — aholi hahidagi muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, aholi soni va uning harakati haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonidir. BMT ta'rifiga ko'ra, aholi ro'yxati - bu ma'lum vaqtda mamlakatda yoki uning cheklangan bir qismida yashovchi jami aholi haqidagi demografik, iqtisodiy va ijtimoiy ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, tahlil qilish va nashr etish jarayonidir.

Aholi tarkibi — bu aholining muayyan bir alomatlarga ko'ra tahsilanishidir yoki demografiya tili bilan aytganda, qandaydir o'zgaruvchilarga asoslangan tahsilotdir. Masalan, aholining yosh tarkibi, jins tarkibi.

Aholining takror barpo bo'lishi — aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rnini to'ldirishi orqali yangilanishidir.

Demografik vaziyat — demografik jarayonlar holati, aholining umumiy rivojlanish yo'nalishlarini belgilovchi jamiyat rivojlanishining obyektiv ijtimoiy-iqtisodiy qonuniyatlarining muayyan tarzda namoyon etilishidir.

Demografik jarayon — tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish bo'lib, demografiyada aholining takror barpo bo'lishi sifatida, tegishli demografik hodisalarning vujudga kelishi natijasida sodir bo'ladi.

Demografik o'tish — aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

Doimiy aholi — ma'lum hududda ro'yxatga olish vaqtida doimiy yashovchi aholi. Shu bilan birga, vahtinchalik safarga ketganlar ham doimiy aholiga kiritiladi. Doimiy yashash mezonini sifatida olti oyga teng davr olinadi.

Yosh-jins piramidasi — ikki tomonlama chiziqli diagrammani o'zida aks ettirib, undagi aholi yosh va jins bo'yicha birgalikda tahsilangan, bunda grafikning bir tomonida (o'ngdan) ayol jinsli aholi, ikkinchi tomonda esa (chap tomonda) erkak jinsli aholi aks ettiriladi. Diagrammaning vertikal o'hi yosh shkalasini o'zida namoyon etib, u bir yoki besh yillik intervallarga bo'linib, 0 yildan boshlanadi va yuhori yosh yoki ochih yosh intervali bilan tugallanadi.

yosh kontingenti — bu umumiy yosh, shuningdek, ayrim demografik, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa alomatlar bo'yicha birlashtirilgan shaxslar guruhidir.

Mayl — bu subyektning handaydir obyektga nisbatan ma'lum bir faollik va harakat qilishiga moyilligi, tayyorligidir; reproduktiv mayl xulh-atvorning ruhiy regulyatori, turli harakatlarning muvofiqligini, ma'lum miqdordagi bolalarning tug'ilishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatlarni belgilab beruvchi shaxsning moyilligidir.

Mehnat migratsiyasi — mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishidir.

Nikoh — ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlangan va jamiyat tomonidan tartibga solinuvchi shaklidir. Nikoh insonlar populyatsiyasida qer-xotin juftligining shakllanish jarayonidir. Nikoh demografik tahlilda real yoki gipotetik avlodga nisbatan qaraladi va u qonun yoki an'anaga binoan nikoh yoshiga etgan, lekin hali nikohdan o'tmagan insonlar (erkak va ayol) o'rtasida tuziladi.

Oila — fiziologik-tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarni qondirishning nikoh asosida tartibga solinadigan tizimi bo'lib, bir-biri bilan ijtimoiy-ruhiy jihatdan qarindosh-urug'chilik munosabatlari asosida iqtisodiy jihatdan mulkiy munosabatlar uyg'unligida birgalikda faoliyat yurituvchi kishilar birikuvidir.

Reproduktiv mayl — shaxsning farzandning nikohda yoki nikohsiz tutilishi yoki tug‘ilishidan voz kechishiga qaratilgan harakati, munosabati va ruhiy holatlarining yaxlit tizimidir.

Tug‘ilish — bir avlod yoki avlodlar guruhini tashkil etuvchi muayyan aholi majmuidagi farzandlarning dunyoga kelish jarayonidir. Hozirgi o‘lim darajasi past bo‘lgan sharoitlarda tug‘ilish jarayoni aholi takror barpo bo‘lishidagi yetakchi omil sanalib, uning tartibi (toraytirilgan, oddiy, kengaytirilgan) va yosh-jinsiy tarkib evolyutsiyasining umumiy yo‘nalishini belgilaydi.

O‘lim — organizm hayot faoliyatining muqarrar qonuniy to‘xtashi. O‘lim hayd etilgandan so‘ng hayot funksiyasini tiklash mumkin emas va har qanday qayta tiriltirish choralari ham insonni hayotga qaytara olmaydi.

XV BOB. DUNYO AHOLISINING RIVOJLANISHI VA JOYLANISHI

- 15.1. Dunyo aholisining soni va dinamikasi
- 15.2. Dunyo aholisining etno-demografik tarkibi
- 15.3. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiyasi
- 15.4. Yer sayyorasi aholisining kelajagi va muammolar

15.1. Dunyo aholisining soni va dinamikasi

Dunyo aholisi qanchalik ko'p va qanchalik tez o'smoqda? AQSH Ro'yxatga Olish Byurosi 2007-yilda dunyo aholisini 6.6 milliarddan ortiq deb topdi. Xomaki tug'ilish hisobi (The crude birth rate- CBR) 21/1,000 atrofida va xomaki o'lim hisobi (CDR) 9/1,000 atrofida edi. Shunday qilib, yillik o'sish hisobi 1.2 foiz atrofida bo'lgan. Deylik, bu tug'ilish va o'lim hisoblari kelajakda davomiy bo'lishi kerak bo'lsa, aholi soni har 58 yilda ikki baravar ortardi (bu bobdagi **ikkilanish davri** masalasini ko'ring). Albatta, bunday yuqori raqamlar yuzaga kelishi ehtimoldan yiroq. Qolaversa, tug'ilish pasayib o'lim oshishi mumkin.

Ko'rishimiz mumkinki, aholi o'sishining yillik hisobi 1950-1951 yildagi 1.5 foizdan 1960-yillarning boshida yuqori hisobdan ikki foizga ortgan. 1970-yillarning boshiga qadar u 2 foizda saqlandi va bir necha yil ichida 1.4 foizga tushishni boshladi va so'ngra o'zining hozirgi 1.2 foiz holiga keldi. Dunyo aholisining o'sishi va tushishi har doim barqaror bo'lib kelmagan. Haqiqatda, dunyo aholisining eng yuqori, 1.3 foizga 1960-yillarda tushib ketishi deyarli butunligicha Xitoy voqealari, ya'ni tabiat ofatlari va falokatli ocharchilik olib kelgan Buyuk Ilgarilash yillarining natijasi bo'lgan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining pasayib ketishiga aloqador edi. Bu "Dunyo aholisi tushunchasi" ishonchli bo'lmasligi mumkinligini ko'rsatadi, Chunki haqiqiy "Dunyo jamiyati" mavjud emas. Dunyoning

demografik xarakteridagi o'zgarishlar va yo'nalishlar dunyoning asosiy hududlaridagi turli demografik xarakterlanish natijasidir.

Dunyoning hozirgi aholi o'sishdagi 1.2 foizlik ko'rsatkichi qanchalik tez yoki qanchalik sekin? Biz bobning birinchi qismida aytib o'tgandek, 1960-yillarda dunyo aholisi 2 foizga ko'tarilgan edi va hozir u tahminan 1.2 foiz atrofida o'smoqda. Bazan demograflar aholining o'sish ko'rsatkichi sekin yoki tezligini aniqlash uchun **Sakson Qoidasini** ishlatadi. Sakson Qonuni qayerdan kelib chiqqan? U nimani anglatadi? Aholi o'sish hisobining ahamiyati yoki aloqasini aniqlashning bir yo'li ikkilanish davri tushunchasi orqalidir. Ya'ni agar aholi hozirgi tug'ilish va o'lish ko'rsatkichlarini yil davomida saqlasa, uning miqdorining ikki baravar ortishi qancha vaqtini oladi? Javob tabiiy logarifmlarini qo'llash orqali kelib chiqishi mumkin.

Dunyoning ikki mamlakatining aholi o'sish hisobini solishtirib ko'raylik ular deyarli bir xil o'sishda. Nigeriya G'arbiy Afrika mamlakatini 14,2 million aholiga ega, tug'lish 48, o'lim 15, o'sish ko'rsatkichi 3.3 foizga teng. Niderlandiya Yevropa mamlakati 16 milliondan ortiq aholiga ega, tug'lish hisobi 11, o'lim esa 8, aholining o'sish ko'rsatkichi 0,3 foiz. 3.3 va 0,3 foizlik bu hisoblar qanday farq qiladi? Ikkisi o'rtasidagi farq faqat 3 foiz deyish mumkin, bu katta emas. Agar aholining ikki baravar oshishi yuzasidan so'ralsa, 3.3 va 0.3 fizlik o'sishda katta farq bor. Agar Nigeriya joriy tug'ilish va o'sish hisobini saqlasa, aholisi 21 yilda ikki baravar ortadi. Agar Niderlandiyada bu kuzatilsa, 231 yilda aholisi ikki baravar ortadi. Ikkilanish davri tushunchasi kelajakni aniq ko'rsatmaydi. Chunki mamlakatning tugi'lish va o'lim ko'rsatkichi yildan yilga bir hil o'tishi qiyin. Ammo bu tushuncha aholi o'zgarishining muayyan foiz ko'rsatkichining ahamiyati va aloqasini baholashga imkon beradi.

Aholining tug'ilish va o'lim ko'rsatkichidagi farq ijobiy emas, salbiy bo'lsa nima bo'ladi? Sakson qonuni hamon o'sish salbiy hisobining ahamiyati va aloqasini tasvirlaydimi? Ha shunday. Masalan, 2007-yilda Rossiya 142 million aholiga ega edi, tug'ilish 10/1,000 va o'lim 15/1,000, - 0,5 foizlik aholi o'zgarishi bilan. Agar bu salbiy foiz hisobini 69,3 ga bo'lsak, javob 136,6. Ya'ni agar

Rossiya shu ko'rsatkichni saqlasa, aholisi 139 yilda bir baravarga pasayadi ya'ni yarimlanadi. Avvalroq aytgandikki, Rossiya chindanda past tug'ilish sabab aholilning tushishini boshidan kechirmoqda.

Dunyodagi aholi o'zgarishining boshqa masalasini ko'rib chiqamiz. Dastlab 1650-yildan oldin va keyin 1650-yildan buyon aholi o'sishini kuzatamiz. Ming yillarda aholinig o'sishi juda sekin bordi. Eramizdan avvalgi 35 minginchi yillarda Homosafines davrida dunyo aholisi 4 million edi. 8000 yilga kelib, 6 million bo'ldi. Bu qishloq xo'jaligi revolyutsiyasi davriga to'g'ri keladi. Qishloq xojaligi va chorvachilik bilan zich aholiga yetish mumkin edi. Harakatsiz o'sish uzoq davom etdi, ya'ni Milodiy davrgacha o'sish bolmadi. Bu davrda dunyo aholisi taxminan 250 million bo'ldi (Biraben 2003). Aholi 1600-yillargacha ikki baravar oshmadi. Yillik o'sish atigi 0,04 edi. Aholi bir necha yilda juda oshib ketdi. Vaholanki, epidemiya va kasalliklar bilan aholi soni tushishi tabiiy edi. Chindan dunyo aholisi soni 1300 va 1400-yillarda aniq tushdi. Jami o'lim ko'rsatkichi yuqori va tug'ilish ham aholi sekin o'ssada yuqori edi. Deyarli nolga teng bo'lgan aholi o'sishining bu harakatsiz ko'rsatkichi tahminan 1650-yilgasha davom etdi. Bunda aholi soni 650 million edi. Ko'plab ming yullar davomida, dunyo aholisi turli Maltuscha tekshirishlar ko'rsatganidek kichik edi.

O'lim ko'rsatkichi ocharchilik, kasallik va kambag'allik sabab ijobiy hisobda yuqori edi. Umuman aholi tug'ilish va o'lim yuqori ko'rsatkichiga ega edi. Dunyo aholisining 1650-yildagi 650 milliondan 1850-yilda 1 milliardaga oshdi. 1927-yilgacha ikki baravar oshish 80 yildan kamroq vaqtni oldi (Pison va Bellok 2005). Qishloq xo'jaligi revolyutsiyasi sanoat revollyutsiyasi ham aholi zichlachichiga olib keldi. Odamlar fermalarini tashlab shaharlarga fabrikalar bor hududlarga ko'chdi. Sanoat revolyutsiyasida urban revolyutsiyasi paydo bo'ldi. Bu ham aholining o'sishiga olib keladi. Industrilizatsiyada yashashning taraqqiy etgan standartlari o'lim ko'rsatkichining tushganini izohlaydi.

Tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori saqlanishi bilan natijada aholi o'ta oshib ketdi. Bu davrdagi yuqori aholi o'sishi G'arbiy Yevropa

uchun cheklangan edi. Boshqa hududlarda sanoat revolyutsiyasi to'la yetib bormagan o'lim tug'ilish kabi yuqori bo'lgan. Keyinroq rivojlanmagan hududlarda o'lim ko'rsatkichi tushib ketdi. Rivojlangan xalqlardagi o'limning tushishi keyinroq tug'ilishning ham tushishiga olib keldi. 1930-yillargacha o'sish yana nolga tushayotgan edi. O'n yettinchi asrda tug'ilish yuqori va o'lim ham yuqori sabab uzoq tarix mobaynida aholi o'sishi juda sekin bordi, bu paytda aholining o'sishi nolga yetdi. Chunki tug'ilish va o'lim past edi. Taqsimlashdagi bunday demografik o'zgarishlar sababli yuzaga keluvchi siyosiy va iqtisodiy qiyinchiliklar katta bo'ldi.

Ta'kidlaganimizdek, sanoat revolyutsiyasi oqibatda sog'lom jamiyatni yuzaga keltirildi. Yaxshi taminot, oziq-ovqat zahiralari bilan rivojlandi va ocharchilik kamroq vujudga keladigan bo'ldi. Amerika va boshqa hududlardagi yangi koloniyalardan yangi oziq-ovqatlar ishlab chiqarildi. Shuningek turar joy sifati oshdi va mo'l ko'l paxta yaxshiroq kiyinish imkonini berdi. 19 asrda odamlarda sanitariyaga bo'lgan e'tibor kuchaydi, va aholi sog'liqni saqlash harakatlari yuzaga keldi. Tibbiy taraqqiyot 19 asrga qadar bu kabi o'lim tushishini kamaytirish uchun xizmat qilmagandi. Quyi rivojlangan hududlarda o'lim ko'rsatkichi yuqoriligicha davom etdi. Yuzaga kelgan hayot uzayishidagi ahamiyatli ko'tarilishlar Ikkinchi Jahon uru shuga qadar mavjud emas edi. Shu tariqa ko'plab hududlarda o'lim ko'rsatkichi tezlik bilan pasayib ketdi. Bu hududlar bir yoki ikki o'n yilliklar mobaynida taraqqiy etgan xalqlardan o'rganilgan bilimlardan ma'nfaat ko'rishdi. Tug'ilishdagi tushish o'limdagi singari tushunarli emas. O'limning pasayishiga kelganda individual qarorlar ahamiyatli emas. Ko'p hollarda ijtimoiy tuzim asosiy sababchi omil bo'ladi. Urbanizatsiya va sanoat yuzaga kela boshlaganda oila ishlab chiqarishning iqtisodiy birligi sifatida ahamiyatini yo'qota boshladi. Ko'p aholi qishloq hududlarida yashayotganda katta oilaning bo'lishi muhim edi. Bolalar o'sgan sari kunlik uy xo'jalik ishlarida ko'mak berardi. Oilalar asosan boshqa hududlarda yashashga intilguniga qadar yana boshqa farzandli bo'lish iqtisodiy jihatdan mumkin edi. Shaharga ko'chish bilan fabrika kabi shaxssiz tizimlar kasblarning taqsimlanishini boshlab

berdi. Fermalardan shaharlarga ko'chayotganlar odatda ijara xonadonlarda yashashni maqul ko'rishardi. Xo'jalik oilalarida arzon mehnat ta'minoti sifatida ko'riladigan farzandlar sanoatlashgan ishchi sinf oilalri uchun foydali emas, deb hisoblanila boshlandi. Bundan tashqri bola mehnati qonunlari tez orada amal qildi va rasmiy ta'lim joriy etildi. Shunday qilib, bolalar bu qonuniy o'zgarishlarning tashabbusi sabab oila iqtisodi uchun hissa qo'sha olmasdi.

Tug'ilish pasayishi jarayonidagi boshqa omil chaqaloq o'limining pasayishi edi. Umumiy o'lim pasayishlari bilan chaqaloqlar uchun ham o'lim pasaydi. Sanoat Revolyutsiyasi oqibatida oilalar tez tez 9, 10 yoki undanda ko'proq farzandli bo'lardi balkim beixtiyor balkim 3 yoki 4 tasi ulg'ayguniga qadar omon qolishini anglashdir. Endigi yechim esa tug'ilishni chegaralash edi. Avvalgi fikrimizga qaytsak, individual qarorlar oila sonini cheklashni keltirib chiqardi. Bu qarorlar qabul qilinishda uzun edi. Asrlar davomida madaniyat ayollarning ko'p farzandli bo'lishining imkoni borligini aytib keldi. Jinsiy xarakterdagi bu ko'chish ushbu juftliklar uchun qanday dramatik bo'lganligini hisobga oling. Namunadagidek bo'lish kichikroq oilalar uchun bir avloddan ko'pini olgani umuman hayratlanarli emas.

Quyi rivojlangan hududlarning aholisi o'rtasidagi tug'ilishning tushishi juda past bo'lib keldi. Tezlik bilan tushib borayotgan o'lim ko'rsatkichi bilan 1960-yillarda boshlangan tug'ilishdagi bu sekin tushish aholi miqdorida katta o'sishlarga olib keldi. O'z navbatida bu aholining oshib ketishi borasida muhokamalarga yetakladi. AQSH va boshqa hududlarning bir qator yirik jamlangan nashrlarida o'rin oldi: Fridirik Osbornning *Bu to'ldirilgan dunyosi* 1960-yilda yozilgan, bunga qo'shimcha Paul, R Yerlihnning 1968-yildagi *Aholi bombasi* eng xaridorgir kitoblardan edi va 1967-yildagi Paul Paddok va Villiamning *Ocharchilik* asari. Bu ilmiy ishlar bazan tus jihatdan tahlikali tuzilgan va Yerni hamda uning xotini juftliklarni kamroq farzandli bo'lishga undashdagi ehtiyojni yoqlashda davom etayotgan **neo-Maltuschilik** sifatida baholanadi.

Shundan beri garchi rivojlanayotgan mamlakatlar orasida bir qator muvaffaqiyatli holatlar bo'ldi. Eng kambag'al mamlakatlardan

biri Bangladeshda 2007-yilgacha tug‘ilish ko‘rsatkichida 6 tadan 3 taga bordi. Shunga qaramay tug‘ilish hisobi ko‘plab Afrika davlatlari uchun asosan G‘arbiy va Sharqiy Afrika uchun har ayolda besh farzanddan yuqori saqlandi va ko‘plab o‘rta Afrika mamlakatlari jumladan Angola, Kongo va Chadda har ayolga 6 ta farzanddan yuqori edi. Tug‘ilish tushishni boshladimi yoki bu mamlakatlarning ba‘zilari o‘lim ko‘rsatkichlarining avvalgi darajalariga qaytadimi?

Kelajakka nazar tashlashdan avval oxirgi o‘n yilliklardagi aholi o‘sishini qayta ko‘rib chiqaylik. Oxirgi yillardagi demografik tarmoqlar revolyutsiya sifatida bo‘rttirilmasdan tasvirlanishi mumkin, butun insoniyat tarixi bilan chinakam davomiy emaslik sifatida ham. 1850-yillarga qadar dunyo aholisi bir milliardga yetgani va hozir 6 milliarddan oshiqiligini anglaganimizda bir qadar aniq bo‘ladiki *Homo sapiens* yerda ro‘y bergan va o‘shish chegarasiz bo‘lgan. Bu bobda biz namoyish qilgan aholi proyektllari demografik muvozanat yer miqdorini hisobga olgan holda so‘ngi darajaga yetgan aholi sifatida yaqin kelajakda zaruriy tarzda yana o‘rin egallashini ko‘rsatadi.

Ko‘p loyihalar realistik bo‘lishga urinadi. Umumiy tahminlar ma‘lum vaqtdagi berilgan nazariyaga ko‘ra nima asosli b‘olishini ko‘rsatadi. Aholi soni tug‘ilish, o‘im va yoki migratsiyadagi harakatlar sabab tushadi va ko‘tariladi. Taxminlar bunday demografik xarakterning kelajak darajalaridan paydo bo‘lgan. Taxmin qilayotganlar harakatning maqsadi borasida ishonchi komil bo‘lishi lozim. Loyiha realistmi yoki biror taxminning bemaniligini ko‘rsatishga qaratilganmi? Ko‘p loyihalar aniqlashtirilgan. Tezkor va oson javoblar qidirib demografik izlanishni yaxshi olib bormaganlar ko‘pincha taxminlarga e‘tibor qaratmaydilar va faqat loyihalarni hisobga oladilar. Demograflar aholining miqdori qanday qilib va nega o‘zgarishi haqida bir qancha nazariyalarni shakllantirgan. Biz dastlab asosiy mutafakkirlarning aholi va aholi o‘zgarishi haqidagi ba‘zi asarlariga to‘xtalamiz.

Aholi va aholi o‘zgarishi haqida yozma manbalar: Demografiya bu insoniyat haqidagi talimotdir. Dunyo aholisi (population) Lotincha *populare* – odamlarni joylashtirmoq va lotincha ot – *population*.

Jefrey MkNikol aytadiki, qadimda *populare* fe'lli umumiy "talamoq, vayron qilmoq, isrof qilmoq" ma'nosini va "*population*" oti "vayron qilish, umidsizlanish" ma'nosini anglatgan (2003:730). XVII asrgacha bu ma'nolar eskirgan. Adolf Lenderga ko'ra (1945) zamonaviy "*population*" so'zi dastlab 1597-yilda Fransis Bakon tomonidan qo'llangan (Mk Nikol. 2003). Aholi o'zgarishi haqida 1848-yilda buyuk ingliz filosofi Jon Stuart Mil yozadi: *Agar yer boyliklarining cheklanmagan o'sishi bilan bog'liq o'z to'kinligining katta qismini yo'qotishi kerak bo'lsa, aholi undan zarar ko'rsa, uning ta'minotidan mahrumlik sababidan xolos, ammo baxtliroq yoki yaxshiroq aholi emas, men dildan umid qilamanki, kelajak uchun ular yozuv qurollari bo'lishdan mamnun bo'lishadi, ularni bunga ehtiyoj majbur qiladi ([1848] 1965, Book 4: 756-757).*

Chindanda aholi borasidagi qiziqishlar Genesisga borib taqaladi, qayerdagi, odamlar ko'payishga va yer yuzini qoplashga kirishgan payt. Bugun, yer qayta to'ldirildi deyish mumkin. Aholi miqdori borasida Plato o'z qarashlariga ega. U ishonadiki, jamiyat 5,040 ta fuqarodan ko'p bo'lmasligi lozim. Aks holda juda ko'p odam yo'qolishga yetaklaydi. O'sha davrdagi ba'zi boshqa yunon faylasuflari va Platoning prognozlarini bugun bizni hayratga soladi. XXI asr sotsiologlarining asosiy xavotiri internet, telefon, Ipad, iFon, va boshqa yangi kashfiyotlar sabab yuzma-yuz muloqotning kamligidir. Biz faqat agar Plato hayot bo'lganda o'zini qanday tutishini tahmin qila olamiz xolos.

Platoning g'oyalari jamiyatning ikki: mexanik va organik turlarini tasvirlagan. XIX asr sotsiologi Emili Durkhamning asarlari bilan yaxshi mos tushadi. Mexanik jamiyat kichik, oddiy mehnat taqsimotiga ega. Organik jamiyat sezilarli darajada katta, keng mehnat taqsimoti va anonimlikning o'sishiga ega. (Durkham, [1893]1984). XIV asr arab faylasufi Ibn Haldun aholi o'sishi bilan qiziqqan. Uning fikricha, jamiyatlar yuksalgan sari aholi o'sishining ma'lum bosqichlaridan o'tadi – ko'pincha individuallarda bo'lganidek: "Aholi zich shaharlarda yashovchilar aholi siyrak hududdagilarga qaraganda ancha yashovchan bo'ladi...buning

asosiy sababi turli joylardagi faoliyat tabiatidagi farqlardir” (Issavi 1987:93).

Aholi o‘sishi haqida yozgan eng mashhur dastlabki olim Tomas Roberty Maltusdir. U 1766-yilda Angliyada tug‘ilgan va Kembrijdagi Esus Universitetida tahsil olgan. 22 yoshida Surreyda keyinchalik Linkonshayrda oilasi yonida bo‘ldi. 1805-yil u Sharqiy Hindiston Univyersiteti, Hailerburiydagi tarix va siyosiy iqtisod professori etib tayinlandi va 1834-yil umrining oxiriga qadar shu lavozimda ishladi (Jeyms, 1979; Piterson, 1964; 1979; Poston 2006b Vinch 1987. 2003). Mahalliy rohib sifatidagi uning dastlabki yillarida u ona yurti Angliyadagi aholi o‘shishiga etibor qaratdi.(1798 yil).

32 yoshida mashhur kitobi *“Aholi prinsiplari haqida essay, uning jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotiga ta’siri, Janob Gudvin, Janob Kondorket va boshqa yozuvchilarning fikrlariga tayanib”*, muallifsiz kitobining dastlabki nashrini chop etdi. Bu nashr “darhol o‘zining noma’lum muallifini muhokamali siymoga aylantirdi” (Piterson 1979:48). Besh yildan keyin, 1803-yili bu safar o‘z ismi ostida Maltus boshqacha sarlavha bilan esseyning ikkinchi nashrini chop etdi, *“Aholi prinsipi haqida essay: yoki uning inson baxtiga o‘tmishdagi va bugundagi ta’siri; u sabab bo‘lgan yovuzlikning kelajakdagi kamayishi yoki yo‘qolishi ko‘rinishlariga ehtiyoj bilan”*. Bu haqiqatda yangi kitob edi. Birinchi nashr 55 mingta so‘zdan iborat “deduktiv kitob” edi, ikkinchi nashr esa nazariyani kengaytirdi va taxminan 200mingta so‘zdan iborat bo‘lib kenggaytirilgan ma’lumot berardi (Piterson, 1979: 52-53). Bir paytdagi nashrlar vafotidan keyin 1872 yilgi sakkizinchi nashr bilan yakunlandi, u asosiy o‘zgarishlarni o‘z ichiga olardi. Eng yaxshi nashr ikkinchi bo‘lib, izohlar berilgan va ikki jildga bo‘lingan edi va Patrisa Jeyms tomonidan nashr qilingandi (Maltus [1803] 1989).

Aholi tamoyillari Maltusga ko‘ra agar nazotratsiz qolsa aholi soni har avlodda ikki barobar oshadi. Yegulik taqchilligi yuzaga keladi. Chunki aholi har avlodda geometric o‘sar ekan (1-2-4-8-16 va shunday) “tirikchilik” arifmetik hisobda o‘sadi (1-2-3-4-5 va shunday). shunday qilib, quyidagi misolga ko‘ra avlod so‘ngiga kelib populyatsiyaning 16 ta birligi bo‘ladi ammo yegulik va

tirikchilikning faqat 5 birligi. Shunga qaramay Maltus aytadiki, aholining o'sishi nazoratning ikki usuli bilan tekshiriladi, **oldini oluvchi va ijobiy nazorat**. U asosiy oldini oluvchi nazoratga "aqliy chegaralash" sifatida ta yanadi. Ya'ni odamlar o'zlarini cheklashga harakat qiladilar, erta jinsiy aloqadan saqlanish va turmush qurishni kechiktirish bilan. (Maltus aytganlarini amalda sinab ko'radi. U 38 yoshida uylangan va 3 farzandli bo'lgan) rohib sifatida u proflaktik nazoratlarning boshqa turlarini qabul qilib bo'lmaydi, deb hisoblagan (masalan: bir jinslilik, kontrasepsiya va abort). Chunki ular "illatlar"dir, deb hisoblagan. Masalan, u "Yaratganning irodasidan tashqari "notabiiy" tajribalar bilan yerdagi tug'ilishni nazorat qilishga qarshi chiqqan". (Vinch 2003:620). Ijobiy nazoratlar urushlar, ocharchilik, zaharlanish va qashshoqlikning boshqa shakllari. Bu nazoratlar o'lim darajasini yuqori saqlaydi va tug'ilish hisobini pasaytiradi.

Yodda tutishimiz lozimki, aqliy cheklanishning Maltuscha ko'rinishi asosan kambag'al aholiga qaratilgan edi: juftliklar ular farzand boqa oladigan darajaga yetmaguncha turmush qurishni kechiktiradi, bu holat boy qatlam uchun amal qilmaydi. Maltusning esseyini tarixiy jihatdan ko'rib chiqilishi lozim bo'ladi. U davrning ikki asosiy faraziga qarshi chiqadi, ya'ni merkantilizm va utopianism hamda insoniyatning mukammallikka umidini shubhaga qo'yadi. Donalt Vinch yozadiki "Maltus altruism va umumiy hukm suruvchi huquqlarda ideal jamiyatni barpo etishga bo'lgan har qanday urinish sezilarli aholi ta'siriga dosh bera olmagan sabab barbod bo'lishini ko'rsatgan" (2003: 619).

Maltusning asarlari Charles Darvin, Hyerbert Spensyer, Devid Rikardo, Jon Maynard Keynes va ko'plab boshqalarning asarlariga ta'sir qilgan. Masalan, Darvin *Autobiografiyasida* yozadiki, ([1887] 1958: 42-43) "Men tizimli izlanishlarimni boshlaganimdan keyin 15 oy o'tib Maltusning aholi haqidagi qarashlariga duch keldim va hamma joyda davom etayotgan o'simlik va hayvonlarning odatlariga uzoq muddatlik e'tiborga tayyor bo'lish uchun, bu darhol meni bu holatlarga duchor qildi natijada ish uchun kerakli nazariyani nihoyat kashf eta oldim".

Iqtisodchi va filosof Karl Marks, aholining oshib ketishi muammosining universal tabiati borasida Maltusning fikriga qo'shilmaydi. Marks Sanoat Inqilobi o'zining cho'qqisiga yetganda yozayotgan edi. U aytadiki, odamlarning ikki xil sinflari mavjud, ya'ni burjuazia (kapitalistlar) va proletariat (ishchilar) (Marks va Engels, [1848]1935:32). Serhosillikka davat qilish burjuazianing yutuqlaridan biri edi. Chunki bu ishchilarning natijalarida ko'ringan. Bunday natijalar ko'plab manfaatlarga, kapitalistlarning maqsadlariga yetaklagan. Maltusning fikricha, aholi **erkin o'zgaruvchan** va kambag'allik kabi falokatlar sabab bo'lgan. Farqli ravishda Marks aytadiki, aholi **bo'g'liq o'zgaruvchan bo'ladi**: "qachondir mehnatning zahira armiyasi muvofiq tarzda joylashtirilgan va ish haqi darajalari hosildorlik qiymati tushgan holda ham oshib boradi, capitalist sinf mehnat unumdorligi oshayotgan bir paytda bosimlarga (masalan: texnik rivojlanish, xorij investitsiyalari va boshqalar) moslashadi. Manfaat hisobiaga bir qator kasblar eskiradi (Gimeniz 1971:4)". Boshqa manbaalarda Marks ishonadiki, Kapitalizm kambag'allikka yakun yasovchi sabab bo'lgan, Maltus esa, aholining yillik o'sishi asosiy sabab, deb ko'rsatgan.

Marks muammoga olib keluvchi aholi o'sishidan xabardor edi. Haqiqatda, uning uzoq vaqtlik do'sti va hamkori Fredrix Engels yozadiki: "Odamlarning miqdorining ularning taraqqiyotini cheklaydigan darajada oshishi albatta abstrakt taxmindir. Ammo bazan communist jamiyatning o'zi odamzod yaratilishini boshqarishga urinadi vaholanki u allaqachon narsalarning ishlab chiqarilishini boshqarmoqda" (Gimine: 1971:4).

Aniq gapirganda aholi guruh yoki birliklar jamlanmasidir. Ammo demograf uchun aholi bu guruh yoki odamlar jamlanmasi. H. Samuel, Preston, Patrik Heyvilin va Mishel Guilot (2001:1) maxsus populyatsiya yoki ma'lum vaqt oraligi'da yashovchi aniq aholi guruhi (masalan: Amerika Qo'shma Shtatlarining 2000-yil 1-apreldagi aholisi) va hatto haqiqiy azolari o'zgarishi mumkin bo'lsa ham vaqt davomida barqaror turuvchi aholi (masalan, Xitoyning o'tgan 4000 yilliklardagi aholisi) o'rtasidagi farqni ko'rsatgan. Lekin Mk Nikol aytib o'tganki, demograflar tomonidan «*population*

(*aholi*)» atamasining umumiyroq qoʻllanilishi zamonaviy ingliz tilida “*aniqlangan koʻrinish, aniq izohlangan aloqalar gʻoyasi*” orqali beriladi (2003: 731), Xitoy respublikasining aniqlangan va 200 roʻyxatda raqamlangan aholisi singari, shunga oʻxshash, Norman B. Rayder (1964: 448) aholini koinot va dunyo jihatdan aniqlangan individuallarning agregati, deb hisoblaydi. Bu jamiyat maʼnosining taraqqiyoti va oʻzaro shaxsiy aloqalarning baʼzi shakllari sotsiologik atamalar uchun kerak boʻlganidek zaruriy guruh emas. Inson populyatsiyasining tahlili azaldan harakatchan, chunki vaqt davomida oʻzgarishlarga eʼtibor qaratiladi. Keyingi qismda koʻrsatilgan **aholini tenglashtirish** bir misol boʻladi.

Raider shuningdek, taʼkidlaydiki, aholi modeli tabiatda ham mikrodinamik, ham makrodinamik boʻladi. Yaʼni unumdorlik, oʻlim miqdori va migratsiyadagi oʻzgarish jarayonlari ham individual ham agregat darajada aniqlanishi mumkin. Farq aholi modelining aynan yuragida koʻrinadi. Chunki u Alfred J. Lotkasning ([1934] 1998) individuallar barqarorligi va agregatlar barqarorligi oʻrtasidagi muhim farqini namoyish qiladi. Barcha insonlar tuʻgiladi, maʼlum vaqt davomida yashaydi, soʻngra oʻladi. Ammo populyatsiya toʻplami dunyoda cheklanmagan, modomiki yetarlicha individuallar populyatsiyaga kirishda davom etar ekan, odatda tugʻilish orqali, bu yuzaga kelishning qaytarilishi; bu maʼnoda aholi oʻlmasdir.

Populyatsiya toʻplamlari miqdor oʻzgarishlari jihatdan ham va ularning yuzaga kelish populyatsiyaga kirish xarakteristikallari jihatdan ham, aholini tashkil qiluvchi individuallarga nisbatan kamayuvchi boʻlmagan oʻzgarishlarni boshdan kechirishi mumkin. Masalan, individuallar populyatsiyaga tugʻilish yoki imigratsiya orqali kirganda ular yoshi kattaroq boʻlish hisobiga “ulgʻayadi”. Ammo populyatsiya toʻplamlari faqat ulgʻaya olmaydi: u shuningdek, yosharadi, modomiki, tugʻilish oʻlimdan oshib ketar ekan va ichki migrantlar tashqilaridan yoshroq boʻladi. Haqiqatda, barcha insoniyat institutlari va tashkilotlari bu jihatdan oʻylanishi mumkin. Shu bilan birga ijtimoiy oʻzgarish oʻrganilishi mumkinki kirish va chiqishlar sabab boʻluvchi tarkibiy oʻzgarishni monitoring qilish orqali. (Rayder, 1964).

Aniq vaqt davomidagi dunyo aholisi miqdoridagi o'zgarishlar tug'ilish va o'limdagi bir xil vaqt oralig'i davomidagi o'zgarishlarga mos keladi (aniq migratsiya dunyo borasida tenglanishni ta'minlay olmaydi). Dunyo ma'lum vaqt oralig'i davomida tug'ilgan shaxslarning qo'shilishi va o'lgan insonlarning ayirilishi natijasida o'z miqdorini o'zgartiradi. Dunyo aholisi o'zgarishlarining dinamikasi shu tariqa aholi tengligining qisqartirilgan shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Aholi o'zgarishining eng keng tarqalgan izohi *demografik o'tish nazariyasi* dir. Insoniyatning ko'payishi jihatdan muhokama qilingan boshqa izohlar *boylik oqimlari nazariyasi*, *inson ekologik nazariya*, va *siyosiy ekonomik nazariya*. Demografik nazariyaning bu umumiy masalasini hisobga olganda, ko'pincha demografiya nazariyadan mahrum bo'lgan shakllanmagan maktablardan kuzatishlar orqali o'ylanib qolamiz. Bu aniq xato faraz. Chindanda demografiyada boshqa ijtimoiy fanlarning ko'pchiligidan ko'ra ko'proq nazariya bor. Biz allaqachon 3-bo'limdagi ko'payish nazariyalari muhokamasida va 5 hamda 8-bo'limdagi barqaror populyatsiyalarning boshqa nazariyalarida (masalan matematik) buni dalillaganmiz. Chunki demograflar miqdor ma'lumotlari analiziga qiyinchilik bilan tayanadi. Ular bazan "qoldiqlar soni" sifatidagina xarakterlanadi xolos.

DO'N dastlab Varren S. Tomson (1929) va Frank V. Notestayn (1945) tomonidan rivojlantirilgan. Nazariya sotsietal modyernizatsiya jarayonida yuzaga keluvchi o'lim va ko'payish jarayonlarining to'rtta bosqichini ko'rsartadi. Birinchi bosqich, *pretranzitional* yoki *prayndustriyal* bosqichi. U dunyo yuqori tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari va aholi o'sishi barqarorligi bilan xarakterlanganda ming yillar davom etgan. U o'limning tebranishi va yuqori tug'ilish ko'rsatkichlarini namoyish qiladi. O'lim ko'rsatkichlarining bog'langan beqarorligi bu bosqich davomida tabiiy o'sishning ba'zi davrlari va bazi tabiiy pasayishlar bo'lganligini anglatadi, ammo uzoqroq vaqt mobaynida aholi miqdorida juda kichik o'zgarishlar bo'lgan. Uning yuqori tug'ilish ko'rsatkichi sabab *yuqori o'sish potentsiali bosqichi*,

deb ham yuritiladi, agar o'lim biror marta ham pasaygan bo'lsa, aholi o'sishi uchun yuqori potensial sababli bu.

Demografik o'tishning klassik bosqichlari. Tabiiy o'sish tug'ilishning o'lim ustidan oshiqligidan paydo bo'ladi. Pretransitional bosqich dastlab transitional bosqich bilan kelgan. Bir qator asoslarga ko'ra o'lim dunyoning ko'plab mamlakatlarida pasaya boshladi. Industrilizatsiya va modernizatsiyaning boshlanishi bilan ko'plab jamiyatlarda o'lim ko'rsatkichlari pasaydi. Asosan bola va ona o'limi kamaydi. Ammo tug'ilish ko'rsatkichlari o'sib bordi, natijada aholi katta tezlik bilan oshdi. shunday qilib, 2 bosqich davomida aholining o'sishi yuqori bo'ldi.

Keyingi bosqich (3 bosqich) past tug'ilish ko'rsatkichlari va aholining pasayishi bilan harakterlanadi. Bu tug'ilishning pasaya boshlagan davriga to'g'ri keladi. 4 bosqichda aholining o'sishi faqat tug'ilishda o'sish bo'lgandagina Ikkinchi Jahon urushidan keyin AQSHdagi chaqaloqlar sonining oshib ketishi singari. Bu bosqichda garchi tug'ilishda sezilmas tebranishlar bo'lgan: shu sabab ham tabiiy o'sish ham tushish bu tebranishlarni namoyish qilgan. *Inspient* atamasi tug'ilish haqiqatda qanday borishini aniqlash ilojisiz bo'lgani sabab ishlatilgan. Oxirgi yillarda ko'plab Yevropa mamlakatlarida va Yaponiyada tug'ilish o'ta pasayib ketdi, o'lim ko'rsatkichi tug'ilishdan oshib ketgan. Buz taklif qilamziki, balkim hali 5-bosqichda yana bir aholi tushishi bo'lishi mumkin. Bu bizni juda yerta bashorat qilishga undaydi.

Demografik o'tish nazariyasi aholi o'zgarishi borasidagi demogarfik nazariyalarning eng mashhuridir. Yevropada va boshqa davlatlarda aholishunoclik nazariyalarining bir qator tajribalari mavjud (Hirschman 1994 Knodel va van de Valle 1979 Mason 1997 Poston 2000). Uning asosiy hissasi aholi o'zgarishining umumiy tarifidan ko'ra bashorat sifatida kamroq ishlatilishidir. Ko'plab rivojlanmagan davlatlardagi demografik o'tish hali tugallangani yo'q. Bir qancha Afrika davlatlari o'tishning uchinchi bosqichida quyi o'lim va yuqori bazan quyi tug'ilish hisobida turibdi. Buni asosan Markaziy Osiyoda ko'ramiz. Lotin amerikasidagi ba'zi

davlatlar insipient tushish tomon bormoqda ammo hali yetgani yo‘q. Bu shuningdek, AQSH uchun ham o‘rinli.

Rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlar o‘rtasidagi demografik o‘tishdagi bu farqlanishlar aholi joylashishi borasida ba‘zi qiziqarli natijalarga olib kelmoqda. 1950-yildan 2050-yilgacha dunyoning rivojlangan va rivojlanmagan mamlakatlarining aholi o‘rishini ko‘rsatadi. Bugun dunyo aholisining taxminan 82 foizi (5.4 milliard) rivojlanmagan davlatlarda yashaydi va atigi 18 foizi (1.2 milliard) rivojlangan mamlakatlarda yashaydi.

Bir asr ilgari bu ko‘rsatkich teskarisi edi, yer shari aholisining asosiy katta qismi rivojlangan mamlakatlarda yashardi: “xulosa aniq: 20 asrda faqatgina aholi soni o‘sayotgani yo‘q, u shuningdek, kambag‘al hududlarning ko‘payishi va jarayonda boyroq qismlarning oshishi bilan aholi joylashishining to‘la aksiga yetaklaydi” (Bouvier va Bertrand 1999; 10). Rivojlanmagan davlatlarda yashayotgan aholi hissasi 21 asr davomida rivojlangan xalqlarga qaraganda juda past tug‘ilish ko‘rsatkichlari bilan yanada o‘sadi. Birlashgan Millatlar malumotlariga (BM) ko‘ra, dunyoning rivojlangan mamlakatlari asosan Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya bilan Yevropa (Rossiya bilan) va Shimoliy Amerika mamlakatlaridir. Quyi rivojlangan yoki rivojlanayotgan davlatlar dunyoning qolgan mamlakatlarining 200 dan ortig‘ini tashkil qiladi.

Jon S. Kaldvel (1976) DO‘Nning qaytarilishiga murojaat qilgan. Uning boylik oqimi nazariyasi oilaning “emotsional” yadrosi quyi tug‘ilishning asosiy sababidir degan qarashga asoslangan. Bu ota-onalar avlodlar, oila qarindoshlari va ularning farzandlari, evaralari va hatto chevaralari bilan kamroq aloqador bo‘lganda yuzaga keladi (Kaldvel, 1976: 322). U aytadiki, haqiqatda jamiyatlarning asosiy ikki turi mavjud: birinchisi “iqtisodiy mantiqiy javob noaniq tarzda bolalarning katta miqdori va ikkinchisi bolalikda yuzaga keladi” (322b). lekin nima uchun, iqtisodiy qarashga ko‘ra juftliklar bolalarining cheklanmagan miqdorini yoki umuman mavjud bo‘lmasligini xohlaydi? Kaldvel izohlaydiki, bu xizmatlar va boylikning avlodlar bo‘ylab oqimi yo‘nalishiga bog‘liq. Agar oqimlar bolalardan ota-onalar tomon borsa, bu butunlay ota-onalarning katta

oilalar bo'lishni istash mantig'ini keltirib chiqaradi. Zamonaviy jamiyatlarda boyluk va xizmatlar oqimi ota-onalardan bolalar tomon boradi, natijada kichik oilalarga talab ortadi. Bugun quyi rivojlangan mamlakatlardagi ota-onalar "beaql". Chunki ular katta oilalarga intilishda davom etmoqda deyish bu jamiyatlarni anglamaslikdir. Kaldvelning qarashiga ko'ra, tug'ilish xarakteri barcha jamiyatlarda haqiqatda mantiqli, ularning rivojlanish darajalariga qaramasdan. (Poston va Terrel 2006).

Dunyo aholisi yiliga 1,2 foizda yuqori o'sib bormoqda. Tahminan 50 yillik yoki shuning atrofidagi 9 milliard bo'luvchi dunyo aholisi ehtimoldan yiroq emas. Bu o'sish bir qancha muammolarga yetaklaydi: yuqori ochlik, tiklanmas resurslarning kamayib ketishi, ko'plab mamlakatlardahayot sifatining tushib ketishi. O'sishni to'xtatish bu muammoni to'la yechmaydi, ammo hal etilishni osonlashtirishi mumkin.

Oqibatda dunyo aholisi o'sishdan to'xtashi lozim Chunki biz chegaralangan borliqda yashaymiz. Yana bir bor Maltusga qaytadigan bo'lsak, yuqori tug'ilishni muvozanatlashtiruvchi yuqori o'lim orqali bu maqsadga yetamiz yoki bu quyi tug'ilish va quyi o'lim bilan erishilishi mumkin. Ikkinchi alternative usul eng maqbul yo'ldir.

15.2. Dunyo aholisining etno-demografik tarkibi

Yer kurrasi aholisi 2015-yilda 7538 milliondan oshdi. BMT ma'lumotlariga qaraganda, dunyo aholisi 2015-yilgacha har yili 80-85 million kishidan ko'payib boradi. Statistik ma'lumotlar ko'rsatishicha, yer shari aholisi asrimiz boshidan to hozirgi davrga qadar 3,5 marta ko'paygan. Aholining tez sur'at bilan ko'payishi XX asrga to'g'ri keldi va bu asosan rivojlanayotgan davlatlar hisobiga bo'lmoqda. Agar 1950-1990-yillarda aholi butun yer sharida yiliga o'rtacha 1,8 % ko'paygan bo'lsa, rivojlangan davlatlarda esa bu ko'rsatkich 0,9 % ni va rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,1 % ni tashkil qiladi. 2000-yil avval yer sharida 200 million kishi yashagan

va uning aksariyati Osiyoda joylashgan. Hozirga kelib, yer yuzida aholi quyidagicha tarqalgan:

- Yevropa (Rossiya Fedaratsiyasining Yevropa qismi bilan birgalikda) 740 mln

- Osiyo (Rossiya Fedaratsiyasining Osiyo qismi bilan birgalikda) 4351 mln

- Afrika 1136 mln

- Amerika 972 mln

- Avstraliya va Okeaniya 39 mln

BMT prognoziga ko'ra dunyo aholisi 2000-yil. - 6 030 mln, va 2005-yil. - 6 550, 2012-yil. - 7058 mln, 2030-yil. - 8444 mln kishiga yetadi.

XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning hamma mintaqasida aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati pasaydi, Xorijiy Yevropada, bu ayniqsa, sezilarli bo'ldi. Faqatgina Afrikada bunday hodisa ro'y bermadi. Mazkur qora mintaqada hamon "demografik portlash" kuzatilmoqda. 2000-2025-yillarda ham Afrikada bu holat saqlanib qoladi (15.1-jadval). Oxirgi 30-40 yil ichida aholisi tez ko'payib borishi xos bo'lgan, rivojlanayotgan davlatlardagi demografik vaziyat qator mutaxassislarni "dunyoda aholi ortiqchaligi paydo bo'ladi" – degan tashvishga ham olib keldi. Rivojlanayotgan davlatlarda aholi ko'payishining asosiy sababi o'limning keskin kamayishi, tug'ilish darajasining yuqoriligi hamda o'rtacha umr ko'rish muddatining oshganligidir. Hozirgi paytda dunyo aholisining deyarli 60 % Xorijiy Osiyoda, 16 % ga yaqini - Afrikada, 13 % - Amerikada, 10 % Xorijiy Yevropada, 0,5 % - Avstraliya va Okeaniyada hamda 6 % - MDH tarkibiga kirgan davlatlarda istiqomat qilishadi. Aholi sonining tez oshib borishi Afrika va Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilib, ularda aholi yiliga 2,5 – 3,0 % dan ko'payib bormoqda.

15.1-jadval

Aholisi eng ko‘p va eng kam bo‘lgan davlatlar (2015-y.)

Aholisi eng ko‘p davlatlar	Aholisi, ming kishi	Aholisi eng kam davlatlar	Aholisi, ming kishi
Xitoy	1364,1	Nauru	0,01
Hindiston	1296,2	Palau	0,02
AQSH	317,7	San-Marino	0,03
Indoneziya	251,5	Monako	0,04
Braziliya	202,8	Grenada	0,1
Pokiston	194,0	Seyshel orollari	0,1
Nigeriya	177,5	Antigua-Barbados	0,1
Bangladesh	158,6	Mayot	0,2
Rossiya	143,7	San-Tome-Prinsipi	0,2
Yaponiya	127,1	Kyurasao	0,2
Meksika	119,1	Beliz	0,3

Manba: Population Referyence Bureau. 2014 World Population Data Sheet.

Hozirda yer shari aholisi tug‘ilish umumiy koeffitsienti har ming kishiga 20 promillega, aholi o‘limi 8 promillega, tabiiy ko‘payish 12 promillega (2012-y) teng bo‘lmoqda. XVIII asr oxirlariga qadar yer yuzining barcha mintaqalarida tug‘ilish ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan, XX asrga kelib, aksariyat, rivojlangan davlatlarda industrlashtirish, urbanizasiya jarayonlarining jadalla shuvi, ayollarning ishlab chiqarishda faolligining avj olishi, fan-ta’lim sohasidagi rivojlanishlar, madaniyatning taraqqiy etishi, nikoh qurish yoshining ko‘tarilishi natijasida, tug‘ilish bir muncha pasaydi. XIX asr oxirida Yevropa davlatlarida tug‘ilish yuqori, o‘lim past bo‘lib, aholi takror barpo bo‘lishi intensiv holatda bo‘lgan bo‘lsa, XX asrda huddi shu ahvol Lotin Amerikasi davlatlarida kuzatilgan. Yevropada bu vaqtda tug‘ilishning pasayishi ahamiyatli tus olgan va hozirgacha bu jarayon davom etmoqda.

Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti dunyo bo‘yicha, 2,5 ga teng (2015-y). Demak, aholi takror barpo bo‘lishda davom etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu raqam 1,6 ga, rivojlanayotgan davlatlarda 3,0 ta, o‘rtacha darajadagi rivojlanayotgan davlatlarda esa 2,6 ga teng (2014-y). Afrikada tug‘ilishning ushbu koeffitsiyenti eng yuqori ko‘rsatkichga ega, ya‘ni 4,7, Amerikada 2,1, AQSHda 1,9, Osiyoda 2,2 va Yevropada 1,6 ni tashkil etadi. Dunyo bo‘yicha Angola, Kamerun, Brunda, Malavi davlatlari (5,7-6,5) aholisi o‘ta yuqori tug‘ilish darajasiga ega. Yevropa aholisi demografik inqirozga yuz tutgan, bironta davlat aholisida tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti 2,0 dan oshmaydi. Bunda, albatta, mamlakatlar aholisining yosh, jinsiy, milliy tarkibi, hududiy joylashuvi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda o‘ta yuqori darajada bandligi kabi xususiyatlari alohida o‘rin tutadi.

15.2-jadval

Aholining takror barpo bo‘lishi ko‘rsatkichlari (har 1000 aholiga nisbatan, promilleda, 2017 yil)

Mintaqalar	Tug‘ilish	O‘lim	Tabiiy ko‘payish	Mexanik ko‘payish
<i>Butun dunyo</i>	20	8	12	-
Afrika	36	10	26	-1
Amerika	16	7	10	0
Osiyo	18	7	11	0
Avstraliya va Okeaniya	18	7	11	4
Yevropa	11	11	00	2
Rossiya	13	13	00	2
<i>O‘zbekiston</i>	21	5	16	-2

Manba: Population Reference Bureau. 2017. World Population Data Sheet.

Yevropa davlatlari aholisi jinsiy tarkibida ayollarning 45-50 foizi xalq xo‘jaligida band. Osiyo, Afrika davlatlarida esa bu raqam juda

kichik. Afrikada ayollarning atigi 5 foizi ishlab chiqarishda qatnashadi. Manbalarda ko'rsatilishicha, agrar davlatlar qishloq joylarida tug'ilish darajasi 30-40 promilledan ham baland. Qishloq aholisining hisobiga shahar aholisi o'sib boradi. Natijada, urbanizatsiya jarayoni tug'ilishga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini o'tkazadi. Tug'ilishga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri nikoh qurish yoshi hisoblanadi. Erta nikoh qurish, ajralishning kamayishi, tug'ilish darajasini ko'taradigan qulay demografik vaziyat hisoblanadi. Qator Osiyo davlatlarida, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlarida yoshlar erda nikohga kiradi, G'arbiy Yevropada esa, aksincha.

XX asrning 50-60 yillari G'arbiy Yevropa davlatlari aholisi uchun nikohning "oltin asri" bo'lgan. Sababi birinchi nikohga kirish yoshi ayollarda 23, erkaklarda 25 yoshni tashkil etgan. Bundan keyingi davrlarda kechroq nikohga kiruvchilar miqdori ortib borgan. Hozirda birinchi nikoh qurish o'rtacha yoshi Angliya, Fransiyada 27 yosh, Shvetsiyada 29 yoshni tashkil etmoqda. Shimoliy va G'arbiy Yevropada tug'ilyotgan farzandlar ota-ona o'rnini ham to'ldirmaydi.

1970-2005-yillar davomida tug'ilishning eng tez kamayishi Shimoliy Amerikaga to'g'ri keladi (shu davr ichida 1,6 marta kamaygan). Uning asosiy sabablardan biri shahar aholisining o'sishidir. Masalan, AQSH va Kanadada shahar aholisining 1950 – 1999 yillarda 64 % dan 75 – 79 % gacha o'sgan. Ba'zi joylarda davlat tomonidan olib borilayotgan tug'ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ham tug'ilishning kamayishiga olib keldi. Buni Xorijiy Osiyoning eng aholisi ko'p davlatlari – Xitoy va Hindiston misolida ham ko'rish mumkin. Xitoyda oiladagi bolalar sonini cheklash davlat dasturiga kiritilgan. 1970-yillardan boshlab aholi o'rtasida tug'ilishni kamaytirish uchun qator tadbirlar qo'llana boshladi. Natijada, Xitoyda tug'ilish keskin kamaydi.

BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1970 -1974-yil har bir ayol o'zining farzand ko'rish davrida o'rtacha 4,8 farzand ko'rgan bo'lsa, 1986-1990-yillarda 2,1 va 1,4 tadan farzand ko'rishgan. Xitoy davlati konstitutsiyasida er-xotin farzand ko'rish rejallashtirishi zarurligi qayd etilgan. Farzandlar tug'ilishini rejallashtirish bo'yicha maxsus

qo'mita tashkil etilgan, oilada ikkinchi farzandlar tug'ilishi uchun hukumatdan rasmiy ruxsat olinishi zarur. Kech nikohga kirish belgilangan, institutda o'qish davomida turmush qurishga ruxsat berilmaydi. Oilani rejalashtirish shiori "Bir oilaga-bitta bola" siyosati hozirda o'z natijasini bermoqda. Ammo, bir vaqtlardagi demografik portlash hisobiga tug'ilganlarning bugungi kunda o'rta va nafaqa yoshiga yetib kelayotganligi, Xitoy demografik siyosatida yana bir katta muammoni keltirib chiqarmoqda. Oqibatda, aholi o'rtasida qariyalar va nafaqaho'rlar soni keskin ortishi, tug'ilayotgan oiladagi bitta bola oltita odamni boqishi kutilmoqda.

Hindistonda ham tug'ilish davlat tomonidan nazorat qilinadi. Oilada bolalar sonini cheklash milliy davlat dasturi 1951-yili qabul qilingan. Bu masala yuzasidan bir qancha tashkilotlar maxsus tadqiqot olib boradilar. Ular jumlasiga oilani rejalashtirish assotsiatsiyasi, Hindiston Qizil yarim oy jamiyati kabi tashkilotlari kiradi. Oilani rejalashtirish milliy davlat dasturi Hindistonda "Biz ikkitamiz-bizga ikkita" shiori ostida ish olib boradi. Bu dasturga binoan nikohga kirish yoshi ko'tarilgan. Natijada, tug'ilish va aholining tabiiy ko'payish darajalari birmuncha pasaydi. Masalan, 1970 – yillardan buyon har bir ayol o'z umri davomida ko'rgan farzandlari soni 5,4 dan 1,7 gacha kamaydi. Ammo shunga qaramasdan, dunyoda tug'ilayotgan har 5 ta chaqaloqning 1 tasi Hindistonga to'g'ri keladi. Hindistonda tug'ilishning kamayishiga aholi savodlilik darajasining oshishi ham ta'sir etmoqda. Masalan, 1971-yili Hindiston aholisining 29,4 % savodli bo'lgan bo'lsa, hozirgi davrda 40 % dan yuqori aholi savodlidir.

Hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, avtomatlashtirish, xalq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida, atrof-muhitning, atmosfera havosining buzilishi, oqar suvlarning ifloslanishi, o'lim hodisasining yanada ko'payishiga sabab bo'lmoqda. O'lim hodisasining katta yoki kichik ko'rsatkichni tashkil etishi bir yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi bilan bevosita bog'liq. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladigan go'daklar o'limi dunyo bo'yicha 56 tani tashkil etadi. Shundan, Afrikada bu raqam 89 ta, Yevropada 9 ta, Okeaniyada 26 ta, Osiyoda 53 taga teng.

Afrika davlatlarida dunyo bo'yicha umumiy o'lim ko'rsatkichi o'ta baland. Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan aholi o'limi 15-20 ‰, ba'zi joylarda 25 ‰ ga ham yetadi (Nigyerda-24 ‰). Aholi o'limi darajasi yuqori bo'lgan ikkinchi mintaqa Yevropa hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, taraqqiyotiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiluvchi bu ikkala geografik hudud o'lim hodisasi ko'pligi bilan bir-biriga o'xshaydi. Yevropaning deyarli barcha qismlarida o'lim tug'ilishga nisbatan yuqori. Aholi o'limining umumiy ko'rsatkichi va mamlakat iqtisodiy rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlik har doim ham o'zini oqlamaydi. Jumladan, Yevropa iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishiga qaramasdan, aholi o'rtasida o'lim ko'pligi bilan ajralib turadi. Buni ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit bilan emas, balki aholi yosh tarkibidagi vaziyat bilan baholash maqsadga muvofiq. Yevropa aholisining umumiy o'lim ko'rsatkichida bolalar va o'rta yoshdagilar o'rtasida o'lim kam uchraydi, keksa yoshdagilarda, erkaklarda, aksincha, juda baland. Bundan tashqari, Yevropa aholisi tarkibida ekzogen omillar tufayli sodir bo'ladigan o'lim hodisasi ko'p uchraydi. Tug'ilish darajasining pastligi, o'limning tug'ilishdan ko'pligi aholining tabiiy kamayishini keltirib chiqardi. Bugungi Yevropa demografik vaziyatida aynan shunday holat tufayli qisqargan aholi takror barpo bo'lishi sodir bo'lmoqda, ya'ni aholi tabiiy ravishda kamaymoqda.

Statistik ma'lumotlar tahlilidan, aholining o'rtacha umr ko'rish ko'rsatkichi dunyoda erkaklarda 68 yosh, ayollarda 72 yoshga tengligi, ya'ni eng baland aholi o'rtacha umr ko'rish rivojlangan davlatlarga to'g'ri keladi (erkaklar-80, ayollar- 86 yosh). O'rtacha umr ko'rish yoshi 80 va undan baland bo'lgani, aksariyat, ayollarda kuzatilmoqda. Ayollar o'rtasida 80 va undan katta umr ko'rish yoshiga ega bo'lgan davlatlarga Yaponiya (86 yil), Gonkong (86), Finlyandiya (85), Shvetsiya (84), Norvegiya (83), Gresiya (82), Italiya (84), Fransiya (85), Kanada (83 yil) kiradi. Aynan mana shu sanab o'tilgan davlatlarda dunyo miqyosida eng kichik go'daklar o'limi kuzatiladi. Keyingi 10–15 yil ichida dunyoning deyarli hamma qismida tug'ilishning kamayib borishi, o'rtacha umr ko'rish yoshining ortishiga sabab bo'ldi.

Uzoq umr ko'rish yoshiga yerishish har bir mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bog'liq bo'lishi bilan birga sog'liqni-saqlash, aholi sog'lom hayot tarzini tashkil etishdagi yerishgan yutuqlari bilan belgilanadi. Jumladan, Yaponiya (aholisi o'rtacha umr ko'rish yoshi 83 yil, ayollarda 86 yil); Shvesiya va Shveysariyada (o'rtacha ko'rsatkich 80-82 yosh); Niderlandiya, Norvegiya, Fransiya, Avstraliya (82 yosh); AQSH, Kanada, Avstriya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Isroil, Finlyandiya (80-82 yosh); O'rtacha umr ko'rish yoshi o'rtacha bo'lgan davlatlar (60-79 yosh) - Xitoy, Ruminiya, Rossiya, Polsha, Hindiston, Meksika, Braziliya, ko'pgina MDH davlatlari; O'rtacha umr ko'rish yoshi past bo'lgan davlatlar (55 yoshdan past) Afriki, janubiy, janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlari kiradi:

BMT tomonidan 1992-yili Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan xalqaro konferensiyada demografik muammoni hal etish har bir davlatning barqaror rivojlanish dasturining asosiy qismi bo'lishi kerakligi ta'kidlangan. Har bir davlat ichki imkoniyatidan kelib chiqib, o'sib borayotgan aholisini boqishi, hayoti uchun zarur shart-sharoit yaratishda o'zining demografik siyosatini, maqsadi va vazifalarini belgilab olishi zarur.

Aholi yosh tarkibini ikkita asosiy tipga ajratish mumkin. Birinchi tipda (tug'ilish va o'lim yuqori bo'lib, o'rtacha umr ko'rish davri qisqa bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar) bolalar, o'smirlar miqdori ustun, qariyalar hissasi uncha katta emas. Ikkinchi tip Shimoliy Amerika, Yevropa, Yaponiya, Avstraliya mamlakatlariga xos (tug'ilish kam, o'lim past ko'rsatkichga ega, uzoq umr ko'ruvchilar ko'p sonli) bolalar va o'smirlar soni qisqarib, qariyalar ulushi oshib boradi. Dunyo aholisining yosh tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa aholi salmog'i ko'payayotgan mintaqalarga Amerika, Yevropa va Avstraliya hamda Okeaniya davlatlari kiradi. Binobarin, 1970-2012 yillarda 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6 dan 26,0 foizga tushdi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog'i esa 57,9 dan 66,0 foizga ko'tarildi, 65 yosh va undan kattalar salmog'i barcha mintaqalarda sezilarli darajada

ortib bormoqda, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich hozirda 8 foizga teng (15.3-jadval).

Aholi jinsiy tarkibiga ko'ra ham farqlanadi, XX asrning 90-yillarida erkaklar soni ayollar sonidan ko'p bo'ldi. Bu ayniqsa, 0-14 yoshgacha bo'lgan o'smirlarda yaqqol kuzatildi. Ushbu yoshdagilarda, har mingta ayolga 1041 erkak to'g'ri keldi. 40-45 yoshdagilarda deyarli teng, 60 yoshdagilarda ayollar soni erkaklarga nisbatan ko'p. Dunyoda davlatlar aholisi jinsiy tarkibi bo'yicha quyidagicha bo'linadi: erkak va ayollar soni teng davlatlar (Ko'pgina Lotin Amerikasi davlatlari, Afrika); ayollar soni erkaklarga nisbatan ko'p bo'lgan davlatlar (Yevropa davlatlari, AQSH, Kanada); erkaklar soni ko'p bo'lgan davlatlar (Osiyo - Xitoy, Hindiston, Afg'onistan, Singapur, Bangladesh va boshqalar).

15.3-jadval

Dunyo aholisining yosh tarkibi. 1970-2017 yillarda, foiz hisobida

Mintaqalar	1970 yil			1985 yil			2017 yil		
	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori	0-14	15-64	65 va undan yuqori
Dunyo bo'yicha	36.6	57.9	5.5	33.7	60.6	5.7	26	66	8
Yevropa	24.9	63.7	11.4	20.9	66.7	12.4	16	68	16
Osiyo	38.9	57.0	4.1	35.0	60.6	4.4	25	68	7
Afrika	44.1	53.0	2.9	45.4	51.5	3.1	41	56	4
Amyerika	36.4	57.2	6.4	31.6	61.2	7.2	25	65	10
Okeaniya	32.2	60.5	7.3	28.6	63.3	8.1	24	65	11
O'zbekiston	45.0	49.2	5.8	40.8	52.8	6.4	29	67	4

Manba: Population Reference Bureau 2017. World Population Data Sheet.

Yer shari aholisining jinsiy tarkibi deyarli teng. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi, xorijiy Yevropa davlatlarida istiqomat etuvchi aholining jinsiy tarkibida ayollar soni ustunligi seziladi. BMT

ma'lumotlarga qaraganda, bu hudud davlatlarida har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to'g'ri kelgan. Lekin dunyodagi barcha mamlakatlarda ham ayollar va erkaklar mutanosibligi bir xil emas. Janubiy mamlakatlar hisoblanmish Osiyo va Afrika davlatlarida erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan bir muncha ko'p. Masalan, Osiyo qit'asidagi aholi tarkibida erkaklar ayollarga qaraganda ancha ortiqdir. Statistik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, 1985-yilda Osiyoda erkaklar ayollarga nisbatan 58 mln ko'p edi. Bunday hol Okeaniyada ham kuzatiladi. Erkaklarning salmog'i yuqori bo'lgan rivojlanayotgan davlatlar va Osiyo qit'asida ayollar o'rtasida o'lim ko'p kuzatiladi. Ayniqsa, Osiyodagi davlatlarda erkaklar salmog'i ayollarga nisbatan ancha yuqori bo'lib, har 1000 ta ayolga 1041 nafar erkak to'g'ri keladi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi geografik farqlar, asosan, aholining yosh-tarkibi bilan bog'langan. Bolalar va ayollar salmog'i qanchalik ko'p bo'lsa, jinslar nisbatining o'rtacha ko'rsatkichi me'yor holatga yaqinlashadi, ba'zi hududlarda bunga aholining mexanik harakati ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo aholisining barqaror rivojlanishida nafaqat uning yosh-jins tarkibi, balki aholining milliy tarkibi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mehnat malakasidagi, xo'jalik yuritish shakllari va aholi manzilgohlarining joylashuvidagi muhim hududiy tafovutlar millatlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan chambarchas bog'liq.

15.3. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiyasi

Aholi yer yuzida notekis joylashgan bo'lib, aholi zichligi o'rtacha 1 km.kv joyga 53 kishidan to'g'ri keladi (2017 yil). Ushbu ko'rsatkich Yevropada — 115 kishi; Osiyoda — 135 kishidan ko'p; Amyerikda — 23 kishi; Afrikada — 36 kishi; Avstraliya va Okeaniyada — 4 kishiga teng. Yer yuzining 10 foiz quruqlik qismida 82 foiz aholi yashaydi. Katta qismi okean, dengiz yirik daryo bo'ylarida, temir va avtomobil yo'llari atrofida tarqalgan.

Aholi zich joylashgan areallar dunyoda alohida ajralib turadi. Bularga birinchi o'rinda Osiyo areali: Sharqiy, janubiy Sharqiy va janubiy. Mazkur mintaqadagi Bangladesh – 1087 ko'p kishi; Koreya

Respublikasi – 505 kishi; Maldiv Respublikasi - 1091 kishidan ko‘p; Yaponiya – 330 kishi va Shri – Lanka - 312 kishidan ortiq har birida; Hindiston, Filippin va Vetnam – 300 kishidan ko‘p (2014 y). Yevropada eng aholisi zich bo‘lgan davlatlar joylashgan.

Aholining notekis joylashishini o‘zaro bog‘liq bo‘lgan tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy omillar belgilaydi. Ushbu omillar ichida ijtimoiy-iqtisodiy omil alohida ahamiyat kasb etmoqda, deb aytishimiz mumkin. Biroq, tabiiy omillarning roli hamma davrlarda ham birlamchi hisoblangan. Jumladan, hududi iqtisodiy nuqtai-nazardan kam o‘zlashtirilgan aksariyat davlatlarda aholi o‘rtacha zichlik ko‘rsatkichi past bo‘lib, bu davlatlar xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hamda ko‘p mehnat talabga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Misol tariqasida, Osiyo mamlakatlarini keltirish mumkin. Aynan shu davlatlar aholisi inson uchun tabiat in‘om etgan eng qulay joylarni tanlashgandir. Bundan tashqari, tabiat boylıklaridan sanoat usulida foydalanish natijasida, yirik-yirik industirlashgan shaharlarning vujudga kelishi, transport tizimining murakkabla shuvi aholi o‘rtacha zichlik ko‘rsatkichining tobora yirikla shuviga olib keldi. Bunga, G‘arbiy Yevropa, AQSH, Osiyoning yirik rivojlangan Singapur, Gonkong davlatlarini misol keltirish mumkin.

Hindistonda aholi asosan Ganga va Braxmaputra daryolari yoqasida hamda okeanga tutash dengiz bo‘ylarida zich joylashgan. Xitoy va Hindiston nafaqat, Osiyoda, balki dunyo miqyosida ham aholisining umumiy soni bo‘yicha yetakchi davlatlardir. Germaniya, Fransiya, Angliya kabi buyuk davlatlarning qulay iqtisodiy geografik o‘ringa ega ekanligi aholisining joylashuvida ham aks etgan. Bu uchala davlatda aholining o‘rtacha zichligi 1 km.kv. joyga 200 kishidan ortadi. Shimoliy Amerikaning Sharqi, Karib havzasining Atlantika okeani qirg‘oqlarida joylashgan davlatlari aholisi xuddi G‘arbiy YEvropaniki singari zich joylashgan. Aynan shu mamlakatlar o‘ta sanoatlashgan, ijtimoiy-iqtisodiy infrastrukturasi yaxshi yo‘lga qo‘yilganligi bilan mashhur.

Dunyodagi barcha aholisi zich davlatlar okean va dengiz bo‘ylarida qulay transport va iqlim mavjud bo‘lgan joylarda o‘rnashgandir. Ammo, Rossiyaning shimoli, Amerika va Afrikaning g‘arbiy

qismlari, Shimoliy Amerikaning shimolidagi okeanga chegaradosh davlatlardagi sovuq okean oqimlari, notekis relief shakllari aholining zich joylashuviga imkon byermaydi. Biroq dunyoning ushbu hududlarida tabiiy boyliklar juda ko'pligiga qaramasdan, aholi yashashi uchun noqulay. shu jihatdan bo'lsa kerak, bu yerlar deyarli kam o'zlashtirilgan. Yer yuzasida aholi zichligi ko'rsatkichi 1 kishiga ham yetmaydigan hududlar yer yuzasining teng yarmini egallaydi. Mazkur joylarga Kanadaning Shimoliy rayonlari, Grenlandiya, Afrikaning cho'llari, Rossiyaning tayga va tundralari, baland-baland tog'liklar kiradi. shuningdek, dunyo maydonining 1/4 qismida aholining zichligi 10 kishigacha bo'lib, bunday hududlar kam o'zlashtirilgan hisoblaniladi. Masalan, Qozog'iston, Rossiya, Kanada, Avstraliya, Mongoliya davlatlari aholisining zichligi 1 dan 10 kishigacha bo'lgan oraliqqa to'g'ri keladi. Bunday mamlakatlar yoki hududlar yer shari quruqligining katta-katta maydonlarini egallaganligi bilan tavsiflanadi.

15.4-jadval

Yer shari mintaqalari aholi zichligi dinamikasi

Mintaqalar	Aholi zichligi, 1 km.kv. ga kishi		
	1978-yil	1999-yil	2015-yil
Dunyo bo'yicha	31	44.6	52
Yevropa	97	98.6	115
Osiyo	89	113.3	135
Afrika	15	25.4	36
Amyerika	14	20.3	23
Avstraliya va Okeaniya	2.6	3.5	4


Manba: Все страны мира//Население и общество, 1999. Population Reference Bureau 2015. World Population Data Sheet.

Aholi joylashuvi, uning zichligi har bir mintaqaga shart – sharoiti, iqlimi, reliefi, geografik joylashgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishi hamda demografik vaziyatiga mos va xos tarzda shakllanadi, taraqqiy etadi. shu boisdan, ham aholi soni va uning zichligi asosan demografik vaziyati ijobiy, aholi soni tez ko'payib borayotgan davlatlarda tezlik bilan o'smoqda.

Yer sharidagi har bir alohida hudud aholi va aholi manzilgohlari tarixiy, tabiiy shart-sharoiti va etnografik jihatdan kelib chiqib, xilma-xil o'ziga xos ko'rinishlarga ega. shu boisdan ham bunday ko'rinishidagi aholi manzilgohlari ikkita – shahar va qishloq aholi manzilgohlariga bo'linadi. Shahar va qishloq aholi manzilgohlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasida aniq chegara o'tkazib bo'lmaydi. Ammo, shunga qaramasdan, shahar va qishloqni bir-biridan ajratuvchi maxsus mezonlar ham borki, bu mezonlar turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Jumladan, dunyo miqyosidagi shaharlarni aholiyilgiga ko'ra maqom berishda aniq chegaralangan bir xil miqdordagi senz mavjud emas. Har bir davlatdagi shaharlar bajaradigan funktsiyasi va aholi manzilgohlarining roolidan kelib chiqqan holda aholi soniga qarab ajratiladi. Masalan, Daniya va Islandiyada aholisi 200 kishi va undan ko'p bo'lgan aholi manzilgohlari shahar, deb ataladi. Bundan tashqari, Yaponiyada – 30 mingdan oshiq, Niderlandiyada – 20 ming aholisi, Turkiyada – 10 ming, Hindiston va Pokistonda – 5 ming, Meksikada – 2,5 ming, Rossiyada – 12 ming, O'zbekistonda esa 7 ming aholisi bor manzilgohlar shahar hisoblanadi. Biroq dunyoda shunday aholi manzilgohlari borki, ular faqat ma'muriy markaz bo'lganligi bois shahar, deb nomlanadi. Chunonchi, ayrim mamlakatlardagi barcha aholi manzilgohlarining ma'muriy markazlari, poytaxtlari shaharlar sirasiga kiritiladi. Masalan, Jazoir, Ekvador shular jumlasidandir. shuningdek, Rossiya shaharlaridagi aholining atigi 15 foizga yaqini qishloq xo'jaligida band bo'lishi mumkin. Hindistonda esa mehnatga layoqatli erkaklarning 4/3 qismi qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi manzilgohlarida yashasa, bunday manzilgohlar shaharlar sifatida qabul qilinadi. Bu mezon ham barcha davlatlarda bir xil emas. Sobiq Ittifoq davridagi shaharlar unda yashovchilar soni va aholining bandligiga ko'ra shahar maqomiga ega bo'lmagan. Mamlakatlar, mintaqalar aholisining hududiy tarkibida shahar aholisining va

shaharlarning o'sib borishi – urbanizatsiya jarayonining rivojlanishiga olib keldi.



15.1-rasm. AQSHning tungi sun'iy yo'ldoshdan olingan surati

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) – shaharlashish, ya'ni shaharlarning o'sishi va ko'payishi. Bu jarayon fan – texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko'payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo'ladi³¹. Dunyoda shahar aholisining soni to'xtovsiz o'sishida davom etmoqda. Jumladan, 1900-yilda shahar aholisi jami aholining 3 foizini, 1960-yilda – 6,4 foizni, 1990-yilda – 19,6 foiz, 1990 yilda 43 foiz, 2005-yilda esa 48 foiz, 2012-yilda 51 foizini tashkil qilgan. Bundan aholining shaharlarda konsentrasiyalashuvi ya'ni, mujassamlashuvi tezlashganini kuzatamiz.

BMT byergan statistik ma'lumotlarda hozirda dunyo aholisining teng yarmi 52 foizi (2014 yil) shaharlarda yashaydi va bu ko'rsatkich 2030-yilda 60 foizni, ya'ni 3 milliarddan 5 milliardgachani tashkil

³¹ G'ulomov P. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. – Toshkent. "O'qituvchi". 1994. 112 bet

etadi. 2000-2030 yillar orasida yer shari shahar aholisi soni yiliga 1,8 foizdan ortib boradi, bu global o'sishdan ikki marta ko'p degani. shuningdek, bugungi kunda dunyoning 20 ta shahrida 10 million kishi yashamoqda (15 tasi rivojlanayotgan davlatlarda) bu jahon aholisining 4 foiziga teng. 2015-yilda shunday liga shaharlar 22 taga etadi va ularda 5 foiz dunyo aholisi yashaydi³². Davlatlar o'rtasida shahar aholisi ustun bo'lgan mintaqalarga rivojlangan davlatlarni kiritish mumkin. Masalan, Yevropa aholisining 71 foizi shaharlarga to'g'ri keladi, Osiyoda bu ko'rsatkich 44 foiz (2014 yil), Yaponiya (86 foiz), Koreya respublikasi (82 foiz), Singapur (100 foiz), Malayziya (64 foiz), Yeron (70 foiz), Quvayt (98 foiz) va qator G'arbiy Osiyo mamlakatlari aholisining hududiy tarkibida shahar aholisi ustun.

Yevropa davlatlari deyarli hammasida shahar aholisi jami aholining 50 foizidan ko'pini tashkil qiladi. Faqatgina, Albaniya, Bosniya va Gyersegovina aholisining 46-50 foizi shahar aholisi hisoblanadi. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yevropa davlatlaridan Islandiya (93 foiz), Daniya (85 foiz), Shvetsiya (84 foiz), Angliya (80 foiz), Gyermaniyani (73 foiz, 2012 yil) to'laligicha urbanistik tavsifga ega deyish mumkin. Aholining yirik shaharlarda to'planishi, o'z navbatida, yirik-katta shaharlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar mayda va o'rta shaharlar hisobiga tobora gigant shaharlarga aylanmoqda.

Ishlab chiqarish madaniy-maishiy, kommunal - xo'jalik aloqalari o'zaro tutashgan holda vujudga kelayotgan shahar aholi manzilgohlarining yangi turi fanda *aglomeratsiya*, deb nomlanadi.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo'shib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o'rtnashgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi³³.

Aglomeratsiya so'zi frantsuz adabiyotlarida uchraydi, inglizlar buni konurbatsiya, Amerikaliklar metropolislar ham, deb atashadi. Dunyoda birinchi aglomeratsiyalar XIX asrning ikkinchi yarmida

³² Население мира 2004 в году.- стр 29-30.

³³ Gulomov P. Jo'g'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati. Toshkent "O'qituvchi" 1994. 7-bet

yirik shaharlar (London, Parij, Nyu-York) yoki unga yaqin joylashgan uncha katta bo‘lmagan shaharlar atrofida shakllangan. Dunyoda eng yirik aglomeratsiyalar 20 dan ortiq bo‘lib, ularning ko‘pi AQSHda (Chikago, Nyu-York, Los-Anjeles), Hindistonda (Dehli, Bombay,

15.5-jadval

Dunyoning yirik megapolislari (prognoz 2025 y.)

Shahar-megapolislar	Mamlakatlar	Aholi soni, mln kishi
Mexiko-siti	Meksika	36,7
Tokio Iokogama	Yaponiya	29,7
Katta Bombay	Hindiston	27,0
Kalkutta	Hindiston	26,4
Jakarta	Indoneziya	23,6
Dakka	Bangladesh	23,6
Tokio	Yaponiya	20,7
Karachi	Pokistan	20,7
Madras	Hindiston	20,6
Bangkok	Tailand	19,8

Manba: Population Refyerence Bureau. 2017 World Population Data Sheet.

Kalkutta), Yaponiyada (Tokio, Osako-Kioto, Kobe), Braziliyada (San-Paulu, Rio-De-Janeyro) joylashgan. Pokiston (Karachi), Buyuk Britaniya (London), Yeron (Tehron), Argentina (Buenos-Ayeros), Fillipin (Manila), Xitoy (Shanxay), Fransiya (Parij), Bangladesh (Dakka), Rossiya (Moskva) kabi davlatlarda aglomeratsiyalar soni atiga bittadan xolos. Amerika davlati uchun aholining urbanizatsiyalashgan hududlarda to‘planishi xos, masalan, AQSHda shahar erlariga 14 mln.ga, transport kommunikasion yerlari 10,8 mln.ga, qishloq aholi punktlari, fyermyerlar 3,2 mln.ga yerni egallashadi. Kanada, AQSH va Meksikada aholi yirik aglomeratsiyalarda to‘planadi. Kanadaning o‘zida 22 ta aglomeratsiyada 12 mln kishi yashaydi.

Shahar aglomeratsiyalari o'z chegarasidan tashqariga chiqishiga sabab bo'ladigan jarayon **suburbanizatsiya**, - deb ataladi. Vaqt o'tishi bilan shahar va shaharchalar, o'zaro hududiy tutashib, qo'shib ketishi urbanizatsiyalashgan hududlar deyiladi. Urbanizatsiyalashgan hududlar 3-5 ta aglomeratsiyalarning birlashmasidan tarkib topadi.

Shahar aglomeratsiyalarining o'zaro qo'shib ketishidan hosil bo'lgan shahar aholi punktlari urbanizatsiyalashgan zonalar yoki **megapolislar**, deb yuritiladi. Hozirda dunyo bo'yicha Shimoliy-Sharqiy Atlanik (AQSh) 40 ta aglomeratsiyani, ichki ko'l atrofi (AQSh, Kanada) 35 ta, Janubiy-G'arbiy, Tinch okean (AQSH, Meksika) 15 ta, Tokaydo (Yaponiya) 20 ta Angliya (Buyuk Britaniya) 30 ta, Reyn (Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Fransiya) 30 tadan aglomeratsiyani o'ziga qamrab olgan yirik megapolislardir. Dunyo olimlarining prognoziga ko'ra, kelgusida, megapolislar o'zaro birlashib yagona Oykumenopolislarni tashkil etadi. Unda yer sharining eng ko'p aholisi yashaydi. Aholi ko'payishi va joylashishida nafaqat uning tabiiy harakati, balki mexanik harakati, ya'ni migratsiyasi ham muhim rol o'ynaydi.

2010-yil jahon banki ma'lumotlari bo'yicha, dunyo aholisining 3,2 foizi yoki 215,8 mln kishi emmigrant sifatida o'z yashash joyini o'zgartirgan. Emmigrantlar tarkibida univyersitet bitiruvchilarining ulushi 20,3 foiz va vrachlarning ulushi 4,2 foiz bo'lgan. Immigrantlarning tarkibida ayollarning ulushi 48,4 foiz bo'lib, 16,3 mln emmigrantlar yoki jami emmigrantlarning 7,6 foizi qochoqlar bo'lgan. Immigrantlarni qabul qilayotgan mamlakatlar AQSH, Rossiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Kanada, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Fransiya, Avstraliya³⁴ hisoblanmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, dunyo aholisining har 33 tasi migratsiyada ishtirok etishmoqda. Bu esa yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarda immigralarga bo'lgan talab borligidan dalolat buyuradi. 1990-yildan 2000-yilgacha bo'lgan davrda har 3/2 migrant Shimoliy

³⁴Xo'jayev H. "Miyalar ko'chishi"ning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari // Демографическое развитие Республики Узбекистан за годы независимости. Материалы республиканской научно-практической конференции, посвященной 20-летию юбилею независимого развития республики. -Т., 2011. Б.271.

Amerikaga to'g'ri kelgan. 1980-yilgacha kam rivojlangan davlatlarda xalqaro migrantlar umumiy sonining har 5/3 tasi o'ta rivojlangan mamlakatlarda joylashgan. Shu boisdan bo'lsa kerak, "migrantlarning eng katta miqdori Yevropada - 64 mln., Osiyoda - 53 mln., Shimoliy Amerikada - 45 mln joylashgan. Deyarli barcha migrantlarning yarmi ayollardir. 2000-2005 yillar davomida o'ta rivojlangan mintaqalar har yili 2,6 mln migrantlarni yoki shu vaqt oralig'ida jami 13,1 mln migrantlarni qabul qildi"³⁵.

Tarixda davlatlar miqyosida yirik migrasion harakatlar ro'y buyurganligi hammaga ma'lum. Jumladan E.L. Shuvalov VII – X asrlarda ommaviy ko'chishlarni Arabiston yarim orolida yashovchi arab qabilalarining Shimoliy Afrika, Pireney yarim oroli, yaqin va O'rta Sharq hududlarini bosib olganligi va bu yerlarda islom dini hamda arab yozuvini keng tatbiq qilib tarqatganligini ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, bu arab qabilalari mazkur hududda Misr va Marokash kabi qator zamonaviy arab qabilalarining tashkil topishida qatnashdilar.

Aholi migratsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadigan davr dunyoda buyuk geografik kashfiyotlar davri hisoblanadi (XV asr oxiri – XVII asr o'rtasi). Bu davr odamlarning almashilishida unchalik ahamiyatli bo'lmasada, keyinchalik ommaviy aholi ko'chishiga zamin bo'lib hizmat qildi. XIX asrda Afrika mintaqasidan Amerikaga ko'plab qora tanli negrlar ko'chirib keltirildi. XV – XVIII asrda avval Ispaniya va Portugaliyadan, keyinchalik Angliya va Fransiyadan Amerikaga odamlar ko'chib borishadi. O'sha vaqtlarda Amerika arzon ishchi kuchiga ehtiyoji balandligi tufayli, bu qit'aga Afrikadan 50 million negr qul sifatida olib ketilgan. Bu qullarning atigi 12-14 millioni Amerikaga yetib borishgan bo'lsa, qolganlari esa yo'lda halok bo'lishgan. Yevropadan Amerikaga XIX asr o'rtalarida aholining ko'chib borishi yanada kuchaydi va bu XX asr o'rtalarigacha davom etdi. Ikkinchi jahon urushigacha ko'chib borganlarning aksariyati, AQShga to'g'ri keladi. Ushbu aholi harakatlarining bosh sababi iqtisodiy omil hisoblanadi.

³⁵Гудушенко Г.И. Миграция в развитии: Мировые тенденции/ Вопросы статистики. Научно-информационный журнал.-М., 2 2008.С.66.



15.2- rasm. Xitoyning tungi sun'iy yo'ldoshdan olingan surati.

Sehrli diyor bo'lmish Amerikaga aholining ko'chib borishi Ikkinchi jahon urushidan keyin ham to'xtagani yo'q. Hatto, sobiq Ittifoq respublikalari alohida davlat bo'lib, mustaqillikka erishganlaridan so'ng bu jarayon yanada jonlanib, tezlashdi. 1993-yili AQSH prezidentining sobiq Ittifoq hududidagi ziyolilar va mutaxassislarining AQSHga ko'chib kelishiga mumkin qadar qulayliklar yaratish to'g'risidagi qarori bu davlatga migrantlar oqimining yanada ko'payishiga turtki bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Va bu jarayonni olimlar fanda "oqillar ketishi" deb nomlashgan. Sobiq Ittifoqning parchalanishi ko'plab matematik, kompyuter dasturchilari, ximik, fizik, biolog singari olimlar va mutaxassislarning Amerikaga ketishiga, o'z navbatida, MDH davlatlaridagi intellektual salohiyatning pasayishiga olib keldi. Yevropadan, Afrikadan, sobiq Ittifoq davlatlaridan Amerikaga ko'chib kelgan aholi soni shu hudud aholisi bilan aralashib mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Qit'a va materiklar o'rtasidagi migratsiya jarayoni nafaqat Yevropa va Amerika balki Yevropa va Afrika, Yevropa va Avstraliya, Xitoy va Koreya davlatlari o'rtasida ham bo'lib o'tgan. Yevropadan Afrikaga odamlarning mexanik harakati Amerikaniki singari XIX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. Manbalarda ko'rsatili-shicha, 1960-yili Afrikada toza Yevropaliklar 6 million kishiga etgan. Yevropaliklar Afrikaning janubiy, Sharqiy hamda Shimoliy hududlariga ko'chib borishgan. Avvalo, ularning ko'chib borgan joylari Afrikaning eng boy qimmatbaho resurslari mavjud bo'lgan yerlaridir. Keyinchalik ko'pgina Afrika davlatlari alohida bo'lib mustaqillikka erishganidan so'ng ko'chib kelgan ba'zi kishilar vataniga qaytib ketishdi.

Rossiya MDH ichida eng yirik, qudratli davlat hisoblanadi, ammo demografik vaziyatni yaxshilash davlat ahamiyatidagi muammolardan biri hisoblanadi. 1990 - yillardan beri tabiiy ko'payishi manfiyga tushgan. Aholisi O'rta Osiyo va boshqa MDH davlatlaridan ko'chib borayotganlar soni bilan o'smoqda va ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojini to'ldirmoqda.

Yer planetasini yoki shunchaki Afrika yo AQShni kuzatayotganimizda butun dunyo bo'ylab aholi teng taqsimlanmaganiga guvoh bo'lamiz. Bu haqda demograf Mark Fosset "yer yuzidagi aholi tarqalishidan hosil bo'lgan belgilar yuqori darajadagi urbanizatsiyalashgan shahar hududlaridan aholi soni siyrak yoki umuman bo'lmagan ovloq manzillargacha bo'lgan demografik holatlarning natijasidir" deb yozgan edi. Ko'pchilik Xitoyning aholisi 1.3 milliarddan ortiqligini va AQSh aholisi esa 300 milliondan ziyodligidan xabardor bo'lsa kerak. Ammo ko'pchilik Xitoy va AQSH geografik hudud jihatidan bir-biriga juda yaqin mamlakatlar ekanligini (Xitoy 9.6 million kv.km hududga ega bo'lsa, AQSH 9.8 million kv.km hududga ega) bilmasliklari mumkin. Har ikki mamlakatda ham aholi bir tekis tarqalmagan. Ikkala mamlakatlarda ham aholi asosan Sharqiy hududlarda yashashadi. 11.1 va 11.2-suratlarda AQSH va Xitoyning sun'iy yo'ldoshdan tushirilgan rasmlarikeltirilgan bo'lib, unda ikkala mamlakatdagi notekis aholi taqsimotiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda aholi shaharlarga nisbatan qishloqlarda ko'proq bo'ladi. Ammo, umuman olganda, butun dunyo bo'ylab urbanizatsiya jarayoni kechmoqda: "hech shubhasiz, AQSh va boshqa rivojlangan mamlakatlardagi aholi taqsimotining eng muhim hususiyatlaridan biri bu aholining urbanizatsiyalashgan, aholisi ko'p shaharlarga to'planishidir" (Fosset, 2005:479). Shu sababli, shaharlarning shakllanish yo'llari ancha qiziqarli fenomen. Bu bobda biz dunyo aholisining yer yuzida qanday tarqalganini va qanday qilib biz xuddi ming yillar oldingidagidek g'orda yashovchilar emas, shaharda yashovchilarga aylanib ketayotganimizni tekshirib ko'ramiz. Yer yuzining bor-yo'g'i 1/3 qismidagina aholi muntazam istiqomat qiladi. Arktika va Antarktika kabi hududlarda va Sahroyi Kabir kabi cho'llarda aholi juda siyrak joylashgan. O'nqir-cho'nqir tog'lar tizmasi aholi yashashi uchun noqulay sharoitlar yaratgan tog'li hududlarda ham shunday vaziyat. Janubiy va Markaziy Osiyo (asosan Hindiston) va Sharqiy Osiyo (asosan Xitoy) hududlari aholisi eng ko'p dunyo mintaqalari hisoblanadi va Okeaniya (asosan Avstraliya) esa eng siyrak aholili hududdir.

Bugungi kunda 4 davlat aholisi 200 milliondan oshadi va ularning boshida Xitoy va Hindiston turadi. 1930-yilda Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Italiya dunyodagi eng katta 10 millatlar orasida edi. O'tgan o'n yilliklardagi o'zgarishlar rivojlanayotgan mamlakatlardagi yuqori o'sishni aks ettirsa, rivojlangan mamlakatlarda sekinlashish, hatto aholi soni qisqarishi ham ro'y berdi. Kelajakka nazar solishga harakat qiladigan bo'lsak, 15.6-jadvalda aytilishicha, Hindiston Xitoyi eng aholisi ko'p millat sifatida ortda qoldiradi va buning asosiy sababi Xitoydagi pastroq tug'ilish darajasi bo'ladi. Aniqroq aytganda, bu o'zib ketish BMT tomonidan taxminan 2025-2030-yillar oralig'ida sodir bo'lishi bashorat qilingan.

2030-yilda Xitoy aholisi soni 1446 million kishi bo'lishi kuzatilgan. Hindistonda esa shu paytda 1449 million kishi (BMT, 2005: 291 va 475) yashashi bashorat qilinadi. E'tiboringiz uchun, 2050-yil ro'yxatiga ikki davlat qo'shilishi kuzatiladi: Kongo (Kongo Demokratik Respublikasi, sobiq Zair) va Efiopiya; Rossiya va

Yaponiya o'rniga. Bu mamlakatlarning top 10 ro'yxatiga kirishi bashorat qilinishining sababi Afrika qit'asidagi katta aholi o'sish ko'rsatkichlari va rivojlangan mamlakatlardagi past tug'ilish ko'rsatkichidir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Xitoy va AQSH hududi hajmi deyarli teng ammo Xitoy AQSHga qaraganda 4 marotaba ko'p aholiga ega. shunday qilib, hududiy yoki milliy aholi soni ko'rsatkichlar joylardagi hudud hajmi bilan mos kelmasligi mumkin. Buni yaxshiroq ta'riflash uchun aholishunoslar aholi zichligi tushunchasini ishlatishadi, ya'ni, har bir kvadrat milga to'g'ri keladigan aholi soni (yoki kvadrat kilometrda, bir mil taxminan 1.6 kilometrdir).

15.6-jadval


Dunyoning aholisi eng ko'p mamlakatlari: 2006 va 2050-yillarda (millionlarda)

2006		2050	
Mamlakat	Aholi soni	Mamlakat	Aholi soni
Xitoy	1311	Hindiston	1628
Hindiston	1122	Xitoy	1437
AQSH	300	AQSH	420
Indoneziya	225	Nigeriya	299
Braziliya	187	Pokiston	295
Pokiston	166	Indoneziya	285
Bangladesh	147	Braziliya	260
Rossiya	142	Bangladesh	231
Nigeriya	135	Kongo	183
Yaponiya	128	Efiopiya	145

Manba: Aholi ma'lumotlari byurosi.

Dunyo aholisi zichligi 1 kv.km uchun 45 kishidir. Ba'zi ko'p aholili mamlakatlar aholi zichligi 1 kv.kmga 250 kishidan ortiqroqdir, masalan, janubiy Koreya 444 kishi, Yaponiya 327 kishi, Hindiston 274 kishi. Zichligi 1 kv.km uchun 500 kishidan 2000 kishigacha bo'lgan davlatlar asosan kichik orollardir, masalan, Bermudada 1189

kishi, Maltada 1152 kishi va Barbados Orollarida 616 kishi. Aholi zichligi 1 kv.km uchun 2000 kishidan yuqori bo'lgan mamlakatlar asosan shahar-davlatlardir; masalan, Monakoda 31000 kishi, Makaoda 21560 kishi va Singapurda 4650 kishi. AQSHda 2000-yilda aholi zichligi 30 kishi edi. G'arbiy Yevropa G'arbiy Osiyoga qaraganda ancha zich aholiga ega, ammo G'arbiy Osiyo aholi soni G'arbiy Yevropanikiga nisbatan ko'proq; va Sharqiy Osiyo dunyoning eng aholisi ko'p va eng zich joylashgan mintaqasidir. Albatta, bir mintaqada joylashgan mamlakatlar aholi zichligida sezilarli farqlar ko'rinib turadi, va hatto undan ham katta farqlar biron-bir Davlatning ichki viloyatlarida kuzatilishi mumkin. AQShda Shimoli-Sharq va G'arbiy Qirg'oq qismlariga nisbatan qarama-qarshi ravishda tog'li shtatlarning katta qismlari siyrak aholiga ega. Hozirgina muhokama qilingan aholi zichligini o'lchash usuli ozgina qo'polroq usul hisoblanadi.



15.3-rasm. Dunyo aholisi zichligi. 2005. Nyu York Shahri Kolumbiya Universiteti Kengashi.

Chunki u ma'lum bir davlat yoki mintaqa aholisi sonini o'sha mintaqa yoki davlat territoriyasidagi kvadrat kilometrlar soniga bo'ladi (yoki kvadrat millar). Yana bir muqobil va ancha aniq o'lchov usuli bu sug'oriladigan yer maydonini ko'rsatkich sifatida (umumiy maydon hajmi o'rni)ga hisoblashdir. Bu o'lchov aholi zichligining fiziologik (yoki ozuqaviy) o'lchovidir. Bu aholi sonini Davlatning sug'oriladigan, ishga yaroqli yer maydoni soniga bo'lish orqali chiqariladi.

Jerom D. Felman, Artur Jetis va Judit Jetis ikki xil aholi zichligi o'lchovlarini ishlatib, Bangladesh va Yaponiyani juda qiziqarli tarzda bir-biriga solishtirishdi. Bangladesh aholisining zichligi 1 kv.km uchun 921 kishi. Yaponiyani esa 334 kishi. Ammo Bangladesh tuprog'i yuqori darajada urbanizatsiyalashgan Yaponiyalikiga nisbatan qishloq xo'jaligiga qulay bo'lganligi uchun, Yaponiyaning fiziologik aholi zichligi 1 kv.km uchun 2688 kishi, Bangladeshniki esa 1292 kishini tashkil etadi. 2000-yilda AQSH aholisining fiziologik zichlik ko'rsatkichi 1 kv.km uchun 145 kishini tashkil etgan.

Aholi taqsimotiga ko'plab omillar sabab bo'ladi. Bularga geografik omillar (iqlim, yer yuzasi va tuproq, tabiiy resurslar); iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar (iqtisodiy faollik turi va ijtimoiy tashkilot shakli); hamda demografik omillar (asosan 3 demografik jarayon bo'lmish tug'ilish, o'lim va ko'chishdagi o'zgarishlarga bog'liq bo'lgan aholi soni o'zgarish darajasi) kiradi. Bu omillar biri ko'p biri kam darajada dunyo aholisining taqsimotiga o'z ta'sirini o'tkazishni davom ettiradi. Quyida kelayotgan mavzularda bu omillardan ba'zilari ko'rib chiqiladi va ularning ta'sirlari yoritiladi.


Aholi taqsimotiga nazar tashlanganda, bu butun dunyo uchun bo'ladmi yoki faqat AQSh uchunmi, demograflar uchun shahar va qishloq aholisining foiz nisbatini aniqlash odat bo'lib qolgan. Bu yerdagi raqamlar shunchaki ahamiyatsiz emas. Qishloq hududlari iqtisodiyoti deyarli butunlay qishloq xo'jaligi mahsulotlariga asoslangan bo'ladi. Shahar hududi iqtisodiyoti esa ko'pincha diversifikatsiyalashgan, va sanoatda asoslangan bo'ladi. Sotsiologlar ancha paytdan beri qishloq va shahar hayot tarsi o'rtasidagi farqlarga

to'xtalib o'tishadi. Masalan, Emil Dyurkgeym bu hayot tarzlari o'rtasidagi farqlarni mexanik va organik deb ta'riflagan, ya'ni qishloq hududidagi munosabatlar ozmi-ko'pmi mexanik qoidalarga asoslanadi. Bu sharoitda roller oz miqdorda va unchalik murakkab emas. Qarama-qarshi tarzda, shahar hududida roller ko'p bo'lib, bu yerda ishchilarning bir qismi "organik" hayot tarziga yetaklaydi, va bu xilma-xillikni va murakkablikni yuzaga keltirayotgan omillarda biridir.

Shuningdek, shahar va qishloq hududlari demografiyasi orasida ham o'tkir farqlar mavjud. Masalan, tug'ilish darajasi qishloq hududlarida doimo shahar hududlariga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Ta'lim darajasi esa pastroq bo'lgan. Ammo sanoatlashgan millatlarda bu farqlar zamonaviy ommaviy axborot vositalari bo'lgan radio, televideniya, internet va mobil telefonlarning keng joriy etilishi sharofati bilan ancha qisqargan. Bu tezkor aloqa vositalari natijasida qishloq va shahar hududlari o'rtasidagi farq xiralashgan. Ammo bu farqlar kam rivojlangan millatlarda hali ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Tarixning ko'p davrlarida odamlar qishloqlarda yashab kelishgan. Hatto agrar inqilobdan keyin ham ko'plab odamlar qishloqlarda yashashar edi. Ular shunchaki oziq-ovqat va boshpana izlab, daydib yurishni bas qilishgan edi. Haqiqiy urbanizatsiya G'arbiy Yevropa va ularning ba'zi koloniyalarida sanoat inqilobidan keyin boshlandi. To'g'ri, ba'zi istisnolar ham bo'lgan, masalan, qadimgi Changan (hozirgi Sian), Rim, Afina va boshqalar. Bularda hukumat va diniy tashkilotlarning markazlari joylashgan edi ammo bu shaharlar hozirgi shahar ma'nosida ishlatilmagan. shunday qilib, keng miqyosdagi urbanizatsiya yoki shahar aholisi foizidagi o'zgarishlar bu zamonaviy rivojlanish. Ammo bu sotsiologik termin bo'lgan urbanizm (hayot tarsi tushunchasi) bilan chalkashtirilmisligi lozim, chunki bu demografik termin.

Xitoy boshqa har qanday davlatdan ham ko'proq shahar an'analari ega bo'lgan davlatdir. Xitoyda shaharlar deyarli ikki ming yil oldin ko'zga tashlana boshladi. Milodiy 100-yilgacha Loyan shahri aholisi deyarli 650 mingga yetib yana bir megapolis bo'lganRimga tenglashdi. Qadimgi Changan (hozirgi Sian) aholisi 700-yilda 1

millionga yetib, Osiyodagi 1-aholisi bir milliondan ko'p shaharga aylandi. Haqiqatdan ham, 600-900-yillar oralig'ida G'arb dunyosidagi hech qaysi poytaxt Changan bilan "hajm va hashamat" da tenglasha olmas edi. 800-1800-yillar oralig'ida Xitoyga hech qaysi davlat shaharlar hajmi va soni bo'icha tenglasha olmagan.



15.4- rasm. AQSH aholisi zichligi, 2000-yil

Urbanizatsiya va shahar rivoji uchun har doim uch sharoit mavjud bo'lishi zarur. Birinchidan, doimo ferma mahsulotlarining ortiqcha zahirasi bo'lishi kerak. Bu degani, fermerlar o'z hayotlarini ta'minlash uchun keragidan ortiq mahsulot ishlab chiqarishlari kerak. Ikkinchidan, bu mahsulotlar shaharlarga tashilib, u yerda oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kabilarga aylantirilishi uchun transport

vositalari bo'lishi lozim. Uchunchidan, ferma mahsulotlarini ishlatish va shahar aholisini ish bilan ta'minlash uchun shahar hududida yetarli darajada rivojlangan texnologiya bo'lishi kerak. Shunday qilib, fermadan kelayotgan mahsulotlar paxtaga, mashinalar va boshqalarga aylantiriladigan shahar hududlarida tegirmonlar va zavodlar shakllangan.

AQSH qanday qilib sanoat inqilobi shaharlar rivojiga ta'sir ko'rsatganiga misol bo'la oladi. Bu yerda biz asosan har yerda hozirunozir transport tizimiga to'xtalamiz. Tasavvur qiling, millatning ferma hududlari shaharlarga eksport qilish uchun yetarli miqdorda mahsulot ishlab chiqarmoqda. Aytaylik, shaharlarda bu mahsulotlarni qayta ishlash uchun tegirmon va zavodlar ham rivojlantirilmogda. Ammo qanday qilib mahsulotlar u yerga yetkaziladi? XIX asr boshlarida bunday yirik transport vazifasini suv bajargan. (ot va aravalar bunday katta miqdordagi materialni tashiy olmas edilar) shu sababli dastlabki katta va muhim shaharlarning hammasi suv yaqinida joylashgan. Masalan: Boston, Nyu York, Baltimor va Charlston kabi. Charlston 1800-yillarda paxta va qullar savdosi rivojlanganligi tufayli millatning eng yirik 10 ta shaharlari orasida edi. Birozdan so'ng Buyuk Ko'llar bo'yida Chikago va Muqaddas Lavrentiy daryosi bo'yida Detroyt shakllandi. Missisipi o'zanida joylashgan yangi Orlean ham eski shaharlardan biri edi. Keyin shaharlar rivojiga yanada keng yo'l ochgan temir yo'l davri keldi (XIX asrda). Atlanta, Denver, Indianapolis va boshqalar asosiy shaharlar sifatida shakllandi. Avtomobil va shtatlararo trakt tizimi ham shaharlar o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Yana bir yangi hissa qo'shgan tizimlardan biri o'z markazlari bilan birga havo tizimidir. Shimoliy Karolinadagi Sharlotta bunday shahar o'sishiga ajoyib misol bo'la oladi. Kichikroq miqyosdagi yana bir misol esa, o'ylab ko'ring, qayerda shtatlararo trakt tizimi kesishsa, fast-fud restoranlari va mehmonxonalar shoxobchalari ochiladi va yana aholi ko'chib keladi; bular ko'p aholini anglatmaydi, ammo, shunga qaramasdan, transport vositalari ortidan o'sish kelishiga yaxshi misol bo'la oladi. Haqiqatdan ham, Joel Garreu shunday "tutash shaharlar" ga urg'u berib o'tgan. Yangi shaharlar asosan metropoliya hududlari

chekklarida joylashganliklariga qaramasdan, katta shaharlarga nisbatan yaxshiroq xizmat ko'rsatish uchun shakllantirilgan.

15.7-jadval

**2005-yildagi dunyoning eng katta shahar agglomeratsiyalari
(millionlarda)**

O'rni	Shahar agglomeratsiyasi	Davlat	Aholi soni
1	Tokio	Yaponiya	35,2
2	Mexiko siti	Meksika	19,4
3	Nyu York- Nyuark	AQSH	18,7
4	San Paulo	Braziliya	18,3
5	Mumbay	Hindiston	18,2
6	Dehli	Hindiston	15,0
7	Shanxay	Xitoy	14,5
8	Kalkutta	Hindiston	14,3
9	Jakarta	Indoneziya	13,2
10	Buenos Ayres	Argentina	12,6
11	Dakka	Bangladesh	12,4
12	Los Anjeles - Long-Bich	AQSH	12,3
13	Karachi	Pokiston	11,6
14	Rio de-Janeiro	Braziliya	11,5
15	Osaka-Kobe	Yaponiya	11,3
16	Qohira	Misr	11,1
17	Lagos	Nigeriya	10,9
18	Pekin	Xitoy	10,7
19	Manila	Fillippin	10,7
20	Moskva	Rossiya	10,7

Manba: BMT, 2005

Jahon urbanizatsiyasi baxsiga qaytadigan bo'lsak, 1800-yili jahon aholisining atigi 3 %i shahar aholisi edi. Keyinroq, texnologik va iqtisodiy siljishlar katta agrar mahsulot zahiralari vujudga keltirishi bilan, odamlar zavodlarga ishga kirish maqsadida shaharlarga ko'chib kela boshladilar. O'z navbatida massiv

urbanizatsiya jarayoni boshlanib ketdi. 1950-yilgacha insoniyatning 29 %i shaharlarda yashashar edi. 2007-yilda esa dunyo aholisining yarmi shahar aholisiga aylandi. Hozir urbanizatsiya jarayoni asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda kuzatilyapti. Ba'zi birlar buni hech qanday ahamiyatga ega bo'lmagan migrantlarning Meksiko Siti yoki Mumbay kabi metropoliyalarning ichi yoki atrofidagi ko'payishi sifatida ko'rishdi. Bu joylarda qishloqlardan kelgan millionlab uysiz migrantlar ish topish ilinjida xarobalarda yashashadi. Bu shuningdek, Nigeriyadagi Lagos va Zimbabvedagi Xarare kabi katta shaharlarga ham taalluqlidir.

Bu fenomen urbanizatsiyami yoki shunchaki urban o'sishmi? Biz bu ikkisini farqlashda ehtiyotkor bo'lishimiz kerak. Yuqorida ta'kidlanganidek, urbanizatsiya bu biron bir mintaqa yoki davlatda shahar aholisi foizi ortishi, urban o'sish esa shahar hududidagi aholi soning o'sishidir. Bu hozirgi kundagi rivojlanayotgan mamlakatlardagi katta shaharlar muammolarini kamaytirish emas, ammo shuni ham hisobga olish kerakki qishloq aholisining ham soni o'smoqda.

Katta shahar hududlarining mislsiz o'sishi bu yangi o'zgarish. Katta shaharlar qadimda ham bo'lgan, biz yuqorida Chamgan, Rim va boshqalarga to'xtalidik. Ammo bunday shaharlar juda kam bo'lgan. 1800-yilda dunyoda faqat 1 shahar London aholisi 1 milliondan ortiq bo'lgan. Ammo 1900-yildan boshlab dunyoning ko'plab qismlarida tezkor urbanizatsiya jarayoni boshlandi. BMT xabar berishicha butun dunyoda shahar aholisining nisbati 1900-yilda 13 foizdan 1950-yilda 29 foizga oshdi. 2005-yilda esa 49 foizga yetdi.

Dunyo urbanizatsiyalashib borgani sari 2030-yilgacha dunyo aholisining 60 %i shaharlarda yashashi kutiladi. Shahar aholisining o'sib boruvchi holatlari bu kabi prognozlariga yo'l ochmoqda: shahar aholisi 1900-yilda 220 milliondan 1950-yilda 950 millionga yetdi va 2005-yilda kelib hisoblarga ko'ra 3.2 milliardga yetdi, ya'ni 4 marotaba ko'paydi. 2030-yilgacha butun 8.2 milliard yer aholisining 4.9 milliard shaharlarda yashashi kuzatiladi. 15.7-jadval dunyodagi eng yirik, har birining aholisi 10 milliondan ortiq bo'lgan shahar agglomeratsiyalari haqida ma'lumot beradi. BMT urban agglomeratsiyasi, deb atrofidagi barcha shahar darajasidagi zichlikda

yashayotgan manzilgohlarni ham qamrab oluvchi, aholisi kamida 1 milliondan ortiq hududni ta'riflagan. 35 million aholi bilan Tokio (2005) shubxashiz dunyodagi eng katta shahar agglomeratsiyasidir. 2005-yilda Tokio 34 million aholisi bo'lgan Keniya davlatidan ham ko'proq aholiga ega edi. Tokiodan keying o'ringa har birida 19 million aholisi bilan Meksiko Shahri va Nyu York-Nyuark shahar agglomeratsiyalari turadi. Undan keyin San Paulo va Mumbay, har birida 18 milliondan ko'proq aholisi bilan keladi. (BMT, 2006).

2005-yildagi aholisi 10 milliondan oshiq bo'lgan 20 ta shahar agglomeratsiyasiga qo'shimcha tarzda, (11.3-jadval), aholisi 5 milliondan 10 milliongacha bo'lgan 30 ta urban agglomeratsiyalari va aholisi 1 milliondan 5 milliongacha bo'lgan 365 ta urban agglomeratsiyalari mavjud edi. Belgilanganidek, bugun dunyo aholisining yarmidan ortig'I shaharlarda yashashadi.


Iqtisodiy taqsimot. Dunyo aholisini taqsimlashning yana bir usuli bu aholi yashayotgan joyning iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'ra klassifikatsiyasidir. Iqtisodit rivojlanganlik konsepsiyasi oson ta'riflanadigan konsepsiya emas. Unda ikki asosiy me'yor bor: 1) jon boshiga daromad va 2) jon boshiga energiya iste'moli. Bularning har biri aholi taqsimotida o'xshash natijaga olib keladi. Dunyoning 20 % dan kamroq aholisi rivojlangan hududlarda yashashadi. Kichik raqam bo'lgan dunyo aholisining 1/5 qismidan kamrog'I iqtisodiy rivojlangan hududlarda yashayotgani kelajakda yana qisqarishi mumkin. 2050-yilgacha bu 15 % dan pastda bo'lishi mumkin. Buning sababi rivojlanayotgan mamlakatlarda tug'ilish darajasi rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan ancha yuqori. Misol uchun, Afrikada tug'ilish va o'lish orqali aholi soni ko'payish darajasi 2.4 foizda. Bu shuni anglatadiki, agar shu o'sish saqlansa, 2007-yildagi 944 million Afrika aholisi 2050-yilgacha 2 milliardga aylanadi. Qarama-qarshi ravishda, agar Yevropa aholisi 2007-2050-yillar oralig'ida past tug'ilish darajasi tufayli 733 milliondan 669 millionga tushib qolishi taxmin qilingan. Bu misollar nega demograflar kelajakda kutilayotgan aholi soni o'zgarishlaridan xavotirda ekanligiga bir izohdir. Rivojlanayotgan mamlakatlardan rivojlanganlariga ommaviy migratsiyalar endi rivojlangan mamlakatlar tomonidan qo'yilgan

siyosiy cheklovlar tufayli ham ehtimoldan yiroq. Ammo, ko'plab cheklovlarga qaramasdan, katta miqdordagi kishilar bir davlatdan ikkinchisiga rasmiy hujjatlarsiz, ko'chib o'tayotgani taxmin qilinmoqda. Bu migrantlar ko'pincha "hujjatsiz", "noto'g'ri", "noqonuniy" yoki "ro'yxatdan o'tmagan", deb yuritiladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'plab noqonuniy migrantlar qoloq mamlakatlardan rivojlangan mamlakatlarga ko'chib o'tishmoqda.

AQSh aholisi taqsimoti. Tarix bo'ylab, AQSH aholi taqsimotini shaklga keltirgan ko'plab o'zgarishlar sodir bo'ldi. Umuman, bu yerda uzoq vaqt G'arbga ko'chish bo'lgan. Fuqarolar urushidan keyin Janubdan ko'chib chiqish ham kuzatilgan. Ammo yaqin kunlarda Janubga qayta ko'chib kirish harakati ham yuz berdi. 1970-yildan beri 30 yil davomida mintaqa aholi soni 60 % ga o'sdi, 2000-yilda esa millat aholisining deyarli 36 % ibu yerda yashagan. Bu ko'rsatkich 1970-yil uchun 31 % dir. 6.1-rasmda ko'rsatilishicha AQSH 4 mintaqa va 9 diviziyaga bo'linadi. Davlat aholisining asosiy qismi mamlakatning Sharqiy 1/3 qismida joylashgan. Katta hududlar aholisi juda siyrak joylashgan. shunga qaramay, uzoq muddatli geografik harakat G'arbga bo'lgan. 11.5 surat AQSH aholi markazining 1790-2000-yillar oralig'idagi har 10 yil uchun joyla shuv o'rnini keltiradi. Aholi markazi bu tasavvurdagi shunday joyki unda tekis, qattiq va vaznsiz AQSH xaritasi va uning ustida barcha AQSH aholisi bir xil vaznga ega bo'lganida va joylashganida o'sha tekis xaritani qayeridan tayancha bilan tirab turilganida muvozanat saqlansa o'sha joy aholi markazi hisoblanadi. 1790-yilda aholi markazi Chesapik ko'rfazi yuqori qismida edi. 1820-yilgacha Missisipi g'arbidagi unumdor yerlar qishloq xo'jaligida foydalaniladigan bo'lganidan keyin, AQShning butun o'rta qismi o'sa boshladi. Sharqda yerlar tanqisligi, G'arbiy chegara ko'chmanchilar uchun qulayligi va ma'danga boy konlarga boyligi tufayli 1850-yildan aholi markazi G'arbga siljishi kuchaydi. 1970-yilda aholi markazi Sent Kleyr, Illinoys edi. U o'z harakatini davom ettirib, 1980-yilda birinchi marta Missisipi daryosini kechib o'tdi.

AQSH aholining o'rtacha markazi: 1790-2000-yillar hududiy kengayishlar bilan.

Xaritada ko'rsatilishicha 2000-yilda aholi markazi Sent Luis va Kansas Sity o'rtasidagi Felps Okrug, Missurida edi. U 1990-yil aholi markazidan 12.1 mil janubga, 32.5 mil g'arbga ko'chdi. 1790-yildagi joydan 2000-yilgacha markaz 1000 milda uzoqroq masofaga ko'chdi. 1790-yilda markaz Chestertaun, Merilend yaqinida edi. Qadimda, AQSH aholisidagi asosiy qo'zgarish mamlakatning bir qismidan boshqa qismiga ko'chish tufayli edi. Tarixan, Janubdan dastlab Sharqqa, keyin O'rta G'arbga va nihoyat Uzoq G'arbga ko'chish bo'lgan.



Yaqin o'n yilliklarda esa odamlar boshqa hududlardan janubga ko'chib kelishmoqda. Ayniqsa, nafaqaxo'rlarning Florida, Arizona

va Texasga ko'chib kelishlari ommaviy tus oldi. Natijada bu shtatlarda qariyalar to'plangan. O'tgan bobda biz Floridadagi Flagler okrugini to'xtalib, tug'ilish o'limga nisbatan past bo'lsa ham okrug mamlakatda o'sish surati bo'yicha 1-o'rinda ekanini aytgan edik. 1970-yillar atroflaridan boshlab AQSHga xalqaro immigrantlar (asosan Lotin Amerikasi va Xitoy) kela boshlashdi. Bu immigrantlarning ko'pchiligi Florida, Kaliforniya, Nyu York va Texas shtatlariga joylashishdi. Bu ham aholi taqsimotidagi o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

Metropolitanizatsiya va mikropolitanizatsiya. G'arbga yoki Janubga bo'lgan ko'chishdan ham muhimroq bo'lgan ko'chish bu aholining tezlik bilan urbanizatsiyala shuvi bo'ldi. Dastavval biz urban hudud AQSHda qanday ta'riflanishini hal qilib olishimiz zarur. AQSHda urban hududning bir turi bu Urbanlashgan Hudud (UH) deb yuritiladi. Bu markazlashgan shaharlashishning umumiy zichlik qoidalariga mos keladigan, aholi soni 50 mingdan ortiq bo'lgan va uning eng kamida 35 mingi harbiy qism hududidan tashqarida yashaydigan joylardir. Qarama qarshi ravishda Urban Klaster tushunchasi ishlatiladi. Bu aholisi zich joylashgan, 2500 dan 50000 kishigacha aholiga ega bo'lgan, agar aholisining 35 mingdan kam harbiy qism joylashgan hududda yashasa, 50000 dan oshiq aholiga ega bo'lgan joyga aytiladi. Qat'iy qilib aytganda, Urban Hudud yoki Urban Klaster bo'lmagan har qanday hudud qishloq hududdir. Keng ta'riflangan bunday urban konsepsiyalar ichidan biz metropolitan hudud tushunchasini ajratib olamiz. AQSH Sensus Byurosida metropolitan hudud ta'rifini tanlashda o'tgan o'n yilliklarda ko'p o'zgarish bo'ldi. 2000-yil Sensusida metropolitan hudud katta aholi yadrosini o'z ichiga olgan, atrofdagi boshqa yaqin markaz bilan aloqaga ega bo'lgan manzilgohlarni ham qamrab oluvchi hudud sifatida ta'riflangan. Metropolitan hududlar uchun okruglar bu binolardan tashkil topgan bloklardir. Ammo ko'plab metropolitan hududlarda kichik qishloq alomatleri bor. 1900-yilda 61 ta shunday ta'rifga mos bo'lgan hududlar bor edi. 1970-yilgacha bu son 202 taga yetdi. Bunday hududlarda yashayotgan AQSH aholisi foizi 1900-yilda 1/3 dan 1970-yilda 2/3 qismga o'sdi. Bu o'sish


birinchidan, aholi sonining ortishi va ikkinchidan, shahar hayot tarzi o'zgarishi bilan bu ta'rifning qayta ta'riflanganligi uchun ham ro'y berdi. 1990-yillargacha AQSHda 331 ta hudud Metropolitan Statistikal Hudud (MSH) deb ta'riflandi va aholining 83 % ini tashkil etdi.

AQSHdagi yana bir tur urban hudud bu mikropoliten statistikal hudud (mikro hudud) dir. Bu konsepsiya 2003-yilda muomalaga kiritildi. Endi metropoliten hudud 50 ming kishidan ko'proq aholiga ega bo'lgan, kamida shahar hududini o'z ichiga olsa, mikropoliten hududi 10000 dan 49999 kishigacha aholisi bo'lgan, kamida 1 ta UK (urban klaster) ni o'z ichiga olishi kerak. Mikropoliten hududlar aholining 10 % ini o'z ichiga oladi. 2007-yil noyabriga ko'ra 1092 okruglari bo'lgan 363 metropoliten hududlari bo'lgan edi (83% aholi), va 694 okrugni o'z ichiga olgan 577 ta mikropoliten hududlari (10 % aholi), va nihoyat 1355 ta qishloq okruglari bor edi (7 % aholi). 11.6-suratda AQSHdagi metro va mikro hududlar keltirilgan. Kulrang hududlar metro, och-kulrang hududlar mikro va oq hududlar qishloq hududlaridir.

1990-2003-yillardagi AQSHning 20 katta megapolislaridagi aholi o'zgarishlari haqida ma'lumot keltiradi. Bu jadvaldan yuqorida ta'kidlangan g'arbga va janubga bo'lgan harakatlar kuzatilish mumkin. Megapolislarning qanday o'sishiga e'tibor bering va shimoli-Sharq va o'rta g'arbning ba'zi megapolislari (mas. Sinsinnati va Pittsburg) nega bu ro'yxatga kiritilmagani haqida o'ylab ko'ring. Agar bu jadval ellik yil oldin tuzilganida ular kiritilgan bo'lishar edi.

AQSHning mikropoliten hududlari haqida nima deya olamiz? Qaysilar eng aholisi ko'p mikro-hududlar va ularning aholisi qanchalik tezlikda o'smoqda? 11.6-jadval AQSHning 20 eng katta mikro-hududlari va ularda 1990-2003-yillar oralig'ida bo'lgan o'zgarishlarni ko'rsatadi. Torrington, Konnektikut mikro-hududi Konnektikut shtatining shimoli-g'arbida joylashgan bo'lib, 188000 aholi bilan AQSH bo'yicha birinchi o'rinda turadi. Aholi soni kamaygan mikro-hududlar quyidagilar: Pottsvil, Pensilvaniya va Jeymstaun-Dyunker-Fredoniya, Nyu York. Katta mikro-

hududlardagi aholi soni o'sishining asosiy sababi ichki migratsiya tufaylidir. Bu katta metropoliyalarga to'g'ri kelmaydi, Chunki ular aholi soni o'sishi manbasi asosan xalqaro migrantlarga bog'liq.



15.5-rasm. AQSH va Puyerto Rikoning Metropolitan va Mikropolitent hududlari xaritasi.

Megalopolis. yangi, megalopolis nomli jamoa shakli yaqin kunlarda shakllanib bormoqda. Bu so'z grekcha "megalo" – katta va "polis" – shahar, ya'ni "katta shahar" ma'nosini anglatadi. Bu geografik termin 1961 yilda fransuz geografi Jan Gottman tomonidan atama sifatida kiritilgan. Umuman, bu termin ikki va undan ortiq shaharni qamrab oluvchi har qanday iqtisodiy va ijtimoiy birlikni anglatadi. Inson bir shahardan boshqa shaharga biron bir uzulish, ochiq joy, dalalarga duch kelmasdan yetib borishi mumkin. Bu megalopolisdir. Bunday cheksiz insonlar, mahsulotlar, va xizmatlar tarmog'i AQSH uchun ulkan bir o'rgimchak to'ridek gap. Bu Shimoliy Amerika qit'asini Atlantika okeani orqali boshqa bozorlar bilan bog'laydi. Qisman, bu termin XX asrning ikkinchi yarmida

AQSH shimoli-g'arbida vujudga kelgan shaharlashgan mintaqani ta'riflash uchun ishlatilgan. "Bosvash" bu eng mashxur megalopolis bo'lib, 55 million aholiga ega.

Shimoli-Sharqda Boston metropoliyasidan janubi-g'arbda vashingtongacha cho'zilgan bu hudud Nyu York, Filadelfiya, Baltimor va Kolumbiya okruglarini o'z ichiga oladi. AQSHda bundan boshqa megalopoliten hududlar ham bor, masalan, "Chi-Pitts" megalopolisi (54 million aholi). Bu Buyuk Ko'llar hududida joylashib, Chikago, Pittsburg, Detroyt, Klivlend, Miluoki, Buffalo va boshqalarni o'z ichiga oladi. Dunyodagi eng katta megalopolis bu Yaponiyadagi Taiheyo Belbog'I bo'lib, 82 million aholisi bor va Tokio, Okayama, Hiroshima, Osaka va boshqa katta shaharlarni qamrab oladi. Orangizdan ba'zilaringiz allaqachon San Fransisko-Los Anjeles-San Diyego, yoki Dallas-Vako-Ostin-San Antonio, yoki hatto Dallas-Vako-Kollej Steyshn-Hyuston megapolislari bo'lishini tasavvou qilgandirsiz. Hozirgi ba'zi geografik to'siqlar va metropoliyalararo aloqa vositalarining tanqisligi bu rejalarni mavjudligiga to'sqinlik qilmoqda.

Kelinglar, Bosvashga diqqat bilan tikilamiz. Bu Nyu Hempshirning janubiga suqilib kirgan Bostonning Shimoliy tomanlaridan boshlanadi. Janubda, Boston tumanlari Rod Aylenddagi Providensning Shimoliy tumanlariga tutashib ketadi. Keyin u Konnektikutdagi Nyu London-Nyu Heyven va boshqa Nyu Yorkkacha tutashib ketgan shaharlarga ulanadi. U Nyu Yorkdan Nyu Jersi, Filadelfiya orqali Baltimor va Vashingtonga tutashadi va undan keyin Virjiniyaning shimolida joylashgan Vashingtonning janubiy tumanlarigacha. Haqiqatdan ham, agar megalopolis o'sishda davom etsa, u Virjiniyadagi Richmond va uning tumanlariga tutashishiga hech kim shubha qilmaydi.

Ammo, megalopolisning haqiqiy jamoa bo'lishi uchun xususiyatlari yetarli? Unda bir xususiyat, ya'ni umumiy geografik maydon bor. Ammo yagona iqtisodiy makon va ijtimoiy jarayonlar kabi xususiyatlar talab qilinadi.

Konsentratsiyalashuvga qarshi o'zgarishlar. Aholining bir markazga to'planishi bilan bir qatorda markaziy shaharlarda

aholining dekonstratsiyalashuvi (tarqalishi) ham ro'y berdi. Suburbanizatsiya vujudga keldi. Bu aholi zich markaziy shaharlardan shahar tashqarisidagi kengroq manzilgohlarga ko'chishda o'z aksini topdi. Dekonstratsiyaning yana bir shakli bu metropoliya hududidan chekka hududlarga ko'chish hisoblanadi.

1900-yildan beri metropolitan hududlarida yashovchi aholi soni o'sib bordi va 2000-yilga kelib 83 % ga chiqdi. Ammo, 1930-yildan beri metropoliyalarning markaziy shaharlarida yashovchi aholi soni tushib bormoqda. Shunday qilib, metropoliya hududlari aholisi soni ortishi asosan shahar chetiga ko'chib keluvchilar hisobiga amalga oshmoqda. Bu metropoliyalarning markaziy shaharlari aholisi kamaydi degani emas, balki uning o'sish darajasi boshqa joylardagiga nisbatan sekinroq kechdi deganidir.

O'tgan o'n yilliklarda ba'zi markaziy shaharlarda kuzatilgan o'sish asosan qo'shni hududlarni anneksiya qilish, ya'ni o'z nazorati ostiga olish orqali kuzatildi. Floridadagi Jeksonvil Dyuvel okrugining barchasini anneksiya qilib oldi, garchi u unchalik shaharlasmagan bo'lsa ham. Undan keyin, Tennesidagi Nashvil Devidson okrugini anneksiya qildi. Texasda ayniqsa, bunday butun harris okrugini anneksiya qilib olgan, sakrashlar orqali juda tez o'sayotgan bir shaharga duch kelishimiz mumkin: "1970-yillarda Hyuston shahri 29 % dan o'sdi. Bu ko'rsatkich butun mamlakat bo'yicha eng yuqorilardan biri edi. Shuningdek, shahar chorak million aholini ham anneksiya qilib oldi. Bu anneksiyalarsiz, shahar hozirgi ko'rinishiga ega bo'lmas edi." G. T. Miller.

O'tgan o'n yilliklarda ba'zi eskiroq AQSh shaharlarida qisqarish kuzatildi. Masalan, Detroytning aholisi 1970-yildan beri 50% ga qisqardi. Bu eski shaharlar atrofdagi yerlarni o'ziga qo'shib olisha olmaydi, Chunki ular allaqachon egallanib bo'lingan. Ammo San Fransisko shahri bunday qo'shib olishlarsiz o'sishga muvaffaq bo'ldi. 1970-yildagi 715000 aholi soni 2000-yilga kelib, 780000 dan oshib ketdi. San Fransisko g'arb, shimol, va Sharqdan suv bilan chegaralangan. Faqat janubigina Dali Siti va Brisbeyn kabi kichik shaharlar bilan chegaradosh. Bu vaziyatga ko'plab Amerika shaharlari tushib qolishgan.

Markaziy shaharlardagi aholi qisqarishining sabablaridan biri bu “oqlar qochishi” deb ham ataladi. Markaziy shaharlarga nochor, oq tanli bo‘lmagan kishilarning ko‘chib kelishi oq tanli o‘rta tabala vakillarining markaziy shaharlardan chekkadagi dala-hovlilarga ko‘chib chiqishlariga sabab bo‘lgan. Qishloq hududlarida o‘rtacha va yaxshi uy joylar II Jahon Urushidan keyin qurildi va bu jarayondan shaharlar chetda qoldi. Albatta, bunga ba’zi insonlarning o‘z bolalarini rangli irq vakillari bilan bir maktablarga yubormaslikka urinishlari ham sabab bo‘lishi mumkin. Ammo dala hovliga, va keng maydonga ega bo‘lish orzusi undan ham chiroyliroq ko‘ringan ba’zi insonlarga. Keying paytlarda o‘rta hol ba’zi oilalar bunday imkoniyatlardan foydalanib qolishmoqda. Haqiqatdan ham, markaziy shaharlar aholisi sonining qisqarishi birgina irqchilikka ham bog‘liq emas. Bu ko‘chishning salbiy ta’siri esa endi shaharlarning aholining quyi va kambag‘al qatlamlariga qoldirilganligi ham bo‘lishi mumkin.

Aholi taqsimoti haqida gapirilganda xalqaro migratsiya ham hisobga olinishi kerak. Yevropadanmi yoki Osiyodanmi, XIX asr oxiri XX asr boshlarida kelgan immigrantlar shaharlarning kambag‘allar yashaydigan markazlariga joylashishgan. Keyinroq, bu immigrantlar va ularning bolalari shahar chetiga ko‘chib chiqq boshlashdi. Immigratsiya to‘lqining hozirgi yangi kuchayishi ko‘plab katta shaharlarning markaziy qismlarida aholining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday ko‘chishlardan aniq qanday ta’sir bo‘lganini aniqlash qiyin, chunki ba’zi hujjatsiz yashovchilar hisob kitoblardan chetda qolishgan. Ammo shunisi aniqki, bu kelgindilar asosan katta shaharlarda bir birlari bilan aloqada bir birlariga yaqinroqqa o‘rnashishadi. Shunga qaramay, ba’zi istisni holatlar ham uchrab turadi. Masalan, ba’zi o‘rta kattalikdagi shaharlar ka mish haqi talab qiladigan hujjatsiz ishchilarni o‘zlariga chorlab, ularga ish taklif qilishadi. Bu shaharlarga Shimoliy karolinadagi Uinston-Seylem va Alabamadagi Hantsvil kabilar misol bo‘la oladi.

Tariximizda shunday paytlar bo‘lganki, ichki migratsiya asosan qishloqdan shaharga yo‘nalishida bo‘lgan. Bu vaziyat hozirda o‘zgardi. Odamlar hozirda bir shaharda boshqa shaharga ko‘chish-yapti. Shahar markaziga yaqin joyda yashovchilar esa ko‘proq shahar

chetiga yoki umuman shahar tashqarisiga ko'chib chiqishni xohlashadi. Bu qarorni qabul qilgan fuqarolar ko'pincha yosh bolali yosh oilalar bo'lishadi. Shunday qilib, hududlar ikki xil tarzda aholi sonini oshirmoqda: 1-ko'chib keluvchilar hisobiga, 2-ko'chib kelganlardan tug'ilgan bolalar hisobiga. 2000-yildagi hisob-kitoblar shahar chegaralaridan tashqaridagi aholi o'sishini qayd etgan. Bular eks-urb, ya'ni shaharlarni o'rab turuvchi va chegara vazifasini bajaruvchi halqa yo'llarida tashqarida joylashgan uy-joylarda istiqomat qiluvchi aholidir. Bir tarafdin, ular biron-bir megalopolisning ichidagi bo'sh joylarni to'ldirayotgandek ko'rinadi. Masalan, Virjiniyaning eng tez o'sayotgan okruglari Vashington va Richmond metropolitan hududlari tashqarisida joylashgan.

AQSHdagi aholi tarqalishi haqidagi muhokamamizni xulosalab shuni aytish mumkinki, ko'chish dastlab qishloq joylardan shaharlarga, so'ng shahar markazlaridan shahar chetlariga va nihoyat shahar tashqarisiga tomon yo'nalgan. Bu o'z navbatida yuqorida keltirilgan "chet shaharlar" rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Milliy Futbol Ligasining (MFL) Nyu Inglend Patriots jamoasi so'nggi dekalalarda bo'layotgan voqealarga aniqlik kiritishi mumkin. Dastlab, ular Boston Patriots deb atalgan. Boston shahri aholisi va bu natijasida muxlislar jamoasi qisqarishi bilan jamoa Foksboro, Massachusettsga ko'chib o'tdi. Ammo Foksboro shunchaki shahar cheti emas balki u Boston, Uorster va Providensdan tashkil topgan uchburchakning markasida joylashgan. Boshqa yangi Angliya shtatlari ham geografik jihatdan bu hududga yaqin joylashganliklari uchun jamoa zukkolik bilan yangi Angliya (New England) nomini tanladi. Bu kabi usul qo'llanilishi yana boshqa MFL jamoalari – Tennessi Taytens (Tennessee Titans), va ikki beysbol jamoalari – Teksas Reynjers (Texas Rangers) va Kolorado Rokkiz (Colorado Rockies) da ham uchraydi.

Aholi taqsimotining natijalari. Biz odamlarning ko'chishlari bilan bog'liq ba'zi bir muammolarda e'tibor qaratishga harakat qilib ko'rdik. Shulardan biri odamlar ko'chishi bilan ba'zi bir iqtisodiy operatsiyalar ham metropoliyalarning chekkalariga ko'chishdi. Bu esa markaziy shahar g'aznasiga tu shuvchi muhim soliqlarning va ish

o'rinlarining ham ko'chib ketishi deganidir. Shuningdek, markaziy shaharlar aholisining tarkibi ham tubdan o'zgardi. Ijtimoiy faol o'rta qatlam vakillari o'rniga ijtimoiy jihatdan qiynalgan, kambag'al, va tajribasiz kishilar keldilar. Bunday ijtimoiy guruhlarning shundoq ham qiyin ahvolda bo'lgan markaziy shaharlarda to'planib qolishi muammolar ko'lamini ikki barobarga ko'paytirdi. Birinchidan, bunday guruhlarning to'planishi sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, pensiya ta'minoti, politsiya nazorati, uy-joy, sanitariya kabi ijtimoiy ishlarni oshirib yubordi. Ikkinchidan, istiqomat qiluvchilarning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi. Chunki ko'chib keluvchilardan ko'ra ko'chib ketuvchilar ko'p bo'ldi va ko'chib kelganlar endi ish izlab kelgan, tajribasiz, kambag'al immigrantlar bo'lib, ular oldingi o'rta qatlamchalik daromadli va iqtisodiyotga foyda keltiruvchi emas edilar. Aholining iqtisodiy ahvoli yomonligi, ko'plab kompaniyalarning ko'chib chiqib ketishi qo'shilib, soliq tu shumlarining qisqarishiga olib keldi. Bu bir kunmas bir kun iqtisodiy va moliyaviy jihatdan nochor ahvolda qolgan markaziy shahar hukumatlarining muhtoj aholiga ijtimoiy himoya ko'rsatish qobiliyatini yanada pasayishiga olib keladi. Shunday qilib, ko'plab markaziy shaharlar, asosan eskilari moliyaviy inqirozga duch kelmoqdalar: soliqqa tortiluvchi resurslar qisqarayotgan bir paytda xizmatlarga bo'lgan talablar ortib bormoqda. Talablarni qondirish uchun markaziy hukumat mol-mulk soliq stavkasini oshirish bilan javob qaytarmoqda va bu yana ham ko'proq istiqomatchilar va tadbirkorlarni shahardan chiqib ketishga majbur qilmoqda. Va yana soliqqa tortiluvchi resurslar kamaymoqda. Bu shunday rasvo sikl!

Yaqin yillarda, yaxshilanish nomi bilan mashhur bo'lgan jarayon, ya'ni o'rta va boy tabaqa vakillarining shaharning kambag'al qismlariga ko'chib kirishlari kuzatilmoqda. Shaharlar yangi imkoniyatlar taklif qilganlari sari odamlar shahar chetlaridan shahar markazlariga ko'chib kelishmoqdalar. Shaharning oldin bo'sh yotgan joylarida yangi- yangi kooperativ uy joylar qurilmoqda. Xarobaga aylanib borayotgan qismlar yangilanmoqda. Biznes egalari shahar markazida bo'lish boshqacha ahamiyatga ekanligini tushunganlari sari yangi yangi osmono'par binolar qad ko'tarmoqda.

Aholi portlashi va aholi yo'qolishi terminlari bir birini inkor etuvchi hisoblanadi. Lekin dunyo bo'ylab hozirda ikkisi ham sodir bo'lmoqda. Biz XX asrda aholi portlashi deb nom olgan o'sishdan allaqachon xabardormiz. Bunda qishloqlar o'z aholilarini yo'qotayotgan bir paytda shaharlar o'sishi mislsiz edi. Demograflar Eyveri Gest va Syuzan Braun bu ikki taraflama fenomenni o'zlarining AQSh aholisi taqsimoti haqidagi juda qiziqarli muhokamalarida tushuntirib berishdi. Ular shunday deb yozishgan edi: "Shimoliy Dakotadagi 53 okrugdan 46 tasi aholisi qisqarishiga guvoh bo'layotgan bir 1980-2000-yillar oralig'ida Las Vegas aholisi soni 3 barobar oshdi." Biz buni XXI asrdagi aholi ko'chishi yo'nalishining butun dunyodagi namunasi sifatida tu shunishimiz kerak, faqatgina Nevada na Shimoliy Dakota shtatlaridagi emas.

Bu bobda biz AQSHning o'zgaruvchan irq va etnik tarkibini, uning ko'rinishlari va natijalari haqida so'z yuritamiz. 10 bobda keltirilgan ma'lumotga qaraganda, AQShning ko'pchilikni tashkil etuvchi aholisi (bu aholi ispan bo'lmagan oqlar yoki "anglo"lar deb yuritiladi) 1980-2000-yillar oralig'ida ispan va boshqa irq vakillariga qaraganda ancha sekin o'sdi. Oqlar 8 % dan o'sdi, boshqa irq soni esa 88% dan o'sdi. 1980-yilda AQSH aholisining ko'pchilikni tashkil etuvchi qismi (oqlar) 80% edi. 2000-yilga kelib esa bor yo'g'1 69 % ga tushib qoldi. Kam sonli aholining bunday tez o'sishi barcha 50 shtatlarda ham kuzatildi. 1980-yilda kamchilikni tashkil qiluvchi aholilar umumiy aholining 10 % dan kamrog'ini tashkil qilgan 21 shtat bor edi. 2000-yilda bu ko'rsatkich 6 taga tushdi. 1980- yilda faqat Gavayi va Kolumbiya okrugida aholining 50 % dan ko'prog'1 birda ortiq irqqa tegishli edi. 2000-yilgacha Kaliforniya va Nyu Meksiko ko'pchilik-kamchilik shtatlari ro'yxatiga qo'shildi.


2000-yilda Texas aholisining 48 % boshqa irq vakillari edi, va bu shtat yuqoridagi ro'yxatga 2004-yilda qo'shildi. Shunday qilib, 2008-yilda 4 shtat va Kolumbiya Okrug1 ko'pchilik-kamchilik shtatlari ro'yxatida edilar. Gavayining 67 % aholisi boshqa irqqa tegishli edi, Nyu Meksikoning esa 58 %i, Kaliforniyaning 58% I, Texasning 53 %i, Kolumbiya okrugining 67 %i boshqa irq vakillari edi.

Arizona, Jorjiya, Merilend, Missisipi va Nyu York shtatlari aholisi tarkibida 40 %dan ko‘proq kamchilik aholi vakillari bo‘lib, bu shtatlar yuqoridagi ro‘yxatga qo‘shilish arafasida turibdilar. 2008-yil 1-iyul ma‘lumotiga ko‘ra AQSHdagi 3142 okruglarning deyarli 10 % I kamchilikni tashkil etuvchi aholilardan iborat ekan. Ulardan 56 tasi 2000-yilda bu maqomga ega bo‘lgan. AQSHdagi aholisi ko‘pligi jihatidan 35-o‘rinda turuvchi Orenj Kaunti, Florida 2008-yilda bu ro‘yxatga qo‘shildi. Bu okrugda Disneyworld va Orlando kabi ko‘ngilochar maskanlar joylashgan. AQSHdagi kamchilik aholi foizining ko‘pligi jihatidan birinchi o‘rinni egallovchi okrug bu Starr Kaunti, Texasdir (98%), undan keyin Meverik Okrug, Texas (97%), va Webb Okrug, Texas (95%) kabi okruglar bor. Bu yerdagi kamchilik aholining asosiy qismi ispan irqiga mansub. Umummillat miqyosida 2008-yilda, 48 ta ispan irqidan tashkil topgan okruglar bo‘lib, ularning eng katta 10 tasi Texasda joylashgan. shuningdek, 77 qora irqqa mansub aholidan tashkil topgan okruglar bo‘lib, ularning barchasi Janubda joylashgan. Kamchilik-ko‘pchilik okruglari orasida osiyo millatlari ko‘pchilikni tashkil etuvchi okrug bu faqat Gonolulu, Gavayiidir. Uning 58 % aholisi Osiyo irqiga mansub. 2008-yilda AQSHda 10 ta Amerika hindu va Alyaska nativ hindularidan tashkil topgan okruglar bo‘lib, ulardan eng yirigi, Janubiy Dakotadagi Shennon okrugidir (88 %).

2050-yilgacha AQSH aholisi 400 milliondan oshishi kutiladi. Aholining Anglo (ispan bo‘lmagan oq) tarkibo 2000-yilda 69 %, 2005-yilda 67%, bo‘lgan bo‘lsa, 2050-yilga borib, 47 %ga tushishi kutiladi. AQSH 2050-yilgacha ko‘pchilik-kamchilik mamlakatiga aylanishi taxmin qilinadi. Ispanlar, o‘sha yilda aholining 29 %ini, qoralar 13 % ini, osiyoliklar esa 9 % ini tashkil etishi taxmin qilinayapti. Deyarli 5 amerikalikdan bittasi chet mamlakatda tug‘ilgan bo‘ladi (19 %). Bu ko‘rsatkich 2005-yilda 12 % ni tashkil qilgan, 1890 va 1910-yillarda esa mos ravishda 14,8 va 14,7 % ni tashkil etgan.

Shunga o‘xshash vaziyat ba‘zi bir Yevropa mamlakatlarida ham kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi immigrantlar sonining ko‘pligi va qabul qiluvchi mamlakat aholisidagi tug‘ilish darajasining

pastligidir. Ammo bu mamlakatlar aholisi bularga qanday javob beradi, qanday qilib aholilar aloqa qiladi, bu etnik o'zgarishlarning natijasi nimaga olib keladi kabi savollar tug'ilishi aniq va biz bu bobda mana shu savollarga javob berishga harakat qilamiz. Bu bob guruh moslashishining ba'zi turlari haqida so'z yuritadi.



Agar bir guruh boshqa guruh tomonidan egallab olingan yerga ko'chib keladigan bo'lsa, ikkala guruh ham yangi sharoitga moslashishiga to'g'ri keladi. Migratsiya bir necha ming yillar oldin boshlanganligi sababli, insoniyat guruh moslashishi muammosi bilan ancha oldin to'qnashgan. AQSHda yoki boshqa biron joyda, agar bir guruh immigratlar kelishsa albatta ba'zi bir moslashishi shakli boshlanadi. Yevropalik immigratlarining XVII va XVIII asrlardagi ko'chib kelishi ularni ham va shuningdek, ularni kutib oluvchi mezbon tub aholini ham moslashishiga majbur etgan. Birinchi immigratlar bu mahalliy hindular bo'lib, ular bu yerga 14 ming yillar oldin kelib qolishgan. Amerikada, ular XVIII asrda yevropaliklar ularni kasalliklar va urush orqali qirib yubormaganlaricha yevropaliklar bilan birga yashashdi. Bu kelishmovchiliklar 1800-yillar oxirlarigacha davom etdi, va bu kelishmovchiliklardan keyin faqat hindularning bir qismigina omon qoldi. Tan olish kerak, bu moslashish shafqatsiz edi, ammo bu ham madaniy moslashishning bi ko'inishidir. Moslashish hali ham davom etmoqda va immigratsiya

davom etar ekan davom etaveradi. Endi biz madaniy moslashish va uning variantlariga to'xtalamiz.

Madaniy adaptatsiya jarayonlari. Biron joyga kelgindilar kelishdimi, bu joyning aholisi ham ,kelgindilar ham yangi sharoitga moslashishlari zarur. Bir tarafda madaniy separatizm (ayirmachilik) turadi. Bunda yangi kelganlar mahalliy aholidan o'z xohishlariga ko'ra yoki mahalliy aholi xohishiga ko'ra ajratilib qo'yiladi. Qul va ozod inson munosabatlari bu turdagi separatizmning yorqin namunasi bo'la oladi. Madaniy separatizmga mutlaqo qarama qarshi kayfiyat bu madaniy qorishishdir. Bu yerda ikki guruhning ommaviy ravishda nikohlar va boshqalar orqali qorishib yagona aralashma hosil qilishidan jamiyat shakllanadi. XIX asrda Lotin Amerikasida ispan kelgindilari va mahalliy aholi chatishishidan metis insonlar paydo bo'lgan. Sal boshqacharoq vaziyat Xitoyda bir necha sulolalar davomida sodir bo'lgan. Begona guruhlar mamlakatning biron qismini bosib olishar edi va o'zaro aralashish va nikohlardan keyin ular ham xitoylik bo'lib ketishar edi. Xitoyda bunday madaniy qorishmaga o'ziga xos izoh berishadi :”qancha suvni dengizga oqizsang u baribi sho'r bo'lib qolganidek, Xitoyga kelgan har qanday odam ham xitoylik bo'lib qoladi.”

Madaniy qorishishning bu ikki qutbi o'rtasida plyuralizm, assimilatsiya, va qaynayotgan qozon kabi tushunchalar bor. Plyuralizmda jamiyat har bir guruh uchun o'z madaniy yahlitligini saqlash va rivojlantirishga ruxsat beradi. Assimilatsiya esa kelayotgan yangi guruhlar oxir oqibat mahalliy aholi qadriyatlarini o'zlashtiradi va o'zlarinikini unutishadi. Sotsiolog Milton Gordon (1964) madaniy assimilatsiya va strukturaviy assimilyatsiya tushunchalarini izohlab ketgan. Qaynayotgan qozon jarayonida esa ikki guruh ham bir birlarining qadriyatlari va odatlarini o'zlashtiradi va buning natijasida yangi jamiyat shakllanadi. Bu jarayon sof assimilyatsiyadan farq qiladi. Qaynayotgan qozon nazariyasining dastlabki ilgari suruvchilari kelgindilarning Amerika jamiyatida assimilyatsiyalashib ketishlarini xohlashgan bo'lishsa ham, jamiyat to'liq anglo-sakson irqidan iborat bo'lishini nazarda tutishmagan.

Assimilyatsiya Plyuralizmga qarshi. XX asr boshlarida anglo ko'pchilik yevropalik immigrantlarning anglo tarkibiga assimilyatsiyalashi ketishlari tarafdori edilar. Bu muayyan imtiyozlilar uchun edi, ha, bu hamma uchun ham emas edi, masalan, meksikaliklar, osiyoliklar va qoralar madaniy ajratilgan holda qolishga buyurilgan edi. Plyularizm, hatto qaynayotgan qozon ham rad etilgan. President Teodor Ruzvelt ham qo'shtirnoq ichidagi "amerikalik" degan so'zdan nafratlanar edi. Keyinchalik Preziden Vudro Vilson "Amerikadagi o'zini qandaydir muayyan guruhga taalluqli inson bor ekan u hali amerikalik emas." deb ommaviy e'lon qilgan edi.

Assimilyatsiya. Amerikalashtirish XX asrning boshlarida rosa modada edi. O'sha paytlarda hamma Yevropaliklarning assimilyatsiyalashtirilib, amerikalikka aylantirilishini kutishar edi. 25 yilcha oldin sotsiolog Neyten Gleyzer shularni yozib qoldirgan: "Amerikalashtirish g'oyasi bu hamma immigrant guruhlarini yagona millatga birlashtirish, etnik taalluqlilik inson ongida kamroq o'rin egallashiga va etnik manfaatlar atrofida guruhlar to'planmasliklari uchun harakat qilish bo'lar edi va "qo'shtirniqli amerikalik" atamasi o'tmishga aylanar edi, va AQSH ham bir paytlar Angliya inglizligi, Fransiya fransuzligi kabi bir millatli Amerikalik bo'lar edi."

Madaniy plyuralizm. To'liq assimilyatsiyaga qarshi chiqqanlardan biri bu madaniy plyuralistlar edilar. Ular to'liq assimilyatsiyaga qarshi chiqib, mamlakatdagi kichik, kichik madaniy guruhlar o'zliklarini saqlab, AQSHda butun dunyo miniaturasini yaratadi deb hisoblashgan. Bu yonda shuvda, immigrantlar Amerika jamiyatiga o'zlarining milliy o'zliklari va o'ziga xos xususiyatlarini unutmagan holda assimilyatsiyalashishar edi. Bu nazariya "Salat tarelkasi", deb nomlanib, bunda har bir ingredient o'z yo'lida zarurligiga urg'i beriladi.

Hores Kellen assimilyatsiya va qaynayotgan qozonga qarshi o'z fikrlarini bildirib, shunday degan edi: "agar plyuralizm ortidan borilsa haqiqiy buyuk demokratik hamjamiyat paydo bo'lishi mumkin. Buning formasi federal respublika bo'lar edi. Buning asosida millatlarning demokratiyasi yotadi"

“Qaynayotgan Qozon”. Qaynayotgan qozon – bu madaniy assimilyatsiya va plyuralizmning bir-biriga yon berishi deb aytilishi mumkin. Bu g‘oyaning dastlabki qayd etilishi 1782-yilda Amerikaga kelgan Hektor Jon de Krevkyor tomonidan ishlatilgan bo‘lib, u Amerika haqida shunday degan: “bu yerda, Amerikada, hamma millatlardan kishilar yeritilib, yangi insonlar irqi yaratiladi”. 1909-yilda Israel Zangvill tomonidan “qaynayotgan qozon” sahna asarining yaratilishi bu termini yanada mashhur bo‘lishiga olib keldi. Ammo tarixchi Frederik Jekson Tyorner 1920-yildagi o‘z konsepsiyasida “chet immigratsiyasi

Eng muhim fakt shu ediki ovoz beruvchi aholi kandidatlarining kelib chiqishi bilan qiziqmas edi. Kim ham Maykl Dyukekis Jorj Bushdan ko‘ra kamroq amerikalik deb aytar edi?

Va nihoyat, Barak Husseyn Obama, II, oldingi Illinoys shtati senatori va hozirgi AQSHning 44-prezidenti. Obama Gavayida Keniyalik otadan va amerikalik onadan tug‘ilgan. U yoshlik va o‘smirlik yillarini gavayida o‘tkazgan.

To‘liqini shu darajada yuqori ko‘tarildiki, o‘sha to‘liqin natijasida shakllangan yangi millat yanada yangi marralarni zabt etish qobiliyatiga ega”. Bir so‘z bilan aytganda qaynayotgan qozon bu Amerika madaniyatini shakllantiruvchi bi assimilatsiya ko‘rinishidir. Shunga qaramay, bu terminning Anglosakson xususiyatlariga unchalik ham katta urg‘u berib yubormaslik haqidagi qarashlari uning amerikalashtirishdan farqlarini izohlaydi. Biz qaynayotgan qozonni “etnik tova”da farqlari keltirilgan Laubeova tomonidan bir manba keltirilgan 12.1 lavhani e‘tiboringizga havola etamiz. Bu terminlar bilan biz har kuni ham duch kelavermaymiz ammo bu terminlar keyingi AQSH va boshqa mamlakatlar tarixi uchun muhim sanaladi.

XX asrni kuzatadigan bo‘lsak, amerikanizatsiya siyosati orqali hammani Anglosaksonlashtirish hamisha ham qo‘ldan kelavermagan. Ko‘pchilik Yevropa millatlari yangi sharoitlarga moslashish bilan bir qatorda, o‘z etnik o‘ziga xosliklarini ham saqlab qolishdi. Shuningdek bu millatlar orasida, ba‘zi bir a‘zolarining o‘zliklarini saqlab qolishga chaqirishlariga qaramasdan,

Va plyuralizmdagidek o'ziga xos xususiyatlarini to'raligicha saqlab qolishni ham uddasidan chiqilmadi. 1940-yillargacha qaynayotgan qozon Sharqiy va janubiy yevropalik immigrantlarda ozmi-ko'pmi ishlayotgan edi. Ammo u bashorat qilinganidan sal boshqacharoq tarzda ishlayotgan edi. Yangi aholi qo'shtirniqsiz amerikaliklarni shakllantirayotgan edi. Qo'shimchasiga, oq anglosakson protestant bo'lgan yuqori elita qatlami o'rniga tarkibida oq anglosakson protestant vakillari bo'lmagan yangi yuqori qatlam ham kelayotgan edi. Va nihoyat qaynayotgan qozon haqiqatdan ham "qaynay boshlagan" edi. Ba'zi muvaffaqiyatli insonlarni eslang, masalan, amerikalik korporativ ijrochi Li Yakkoka, Yel universiteti prezidenti va keyinroq Yuqori Beysbol Ligasi boshqaruvchisi bo'lgan A. Bartlet Jiamati. 1968-yil vitse-prezident saylovlarda ikkala yirik partiya a'zolari ham ikkinchi avlod immigrantlari bo'lgan Spayro Egnu (Grek) va Edvard Maski (polyak) larni ko'tarishdi. Bularga qo'shimcha ravishga 1988-yil prezident saylovlarida ikkinchi avlod italyanlar, greklar va basklar bor edi.

Shuningdek 4 yil Indoneziyada onasi va Indoneziyalik o'gay otasi bilan yashagan. Barak Obamaning Panamadagi Harbiy Havo Kuchlari stansiyasida amerikaliklar oilasida tug'ilgan, 2008-yilgi prezidentlik saylovlarida respublikachilar nomidan o'z nomzodini qo'ygan Jon MakKeyn III dan qanday kamchiligi bor? Qaynayotgan qozon yevropalik amerikanlar orasida ancha yaxshi ishlagan bo'lsada, ba'zi kamchiliklar sezilib qilingan. Ba'zi birovlar ongida hali ham ba'zi "millat"larni haqqoniy amerikalik deb tan olish borasida ikkilanish bor.

Bu XXI asr yillarida adaptatsiya yangi va yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Bugun, 80 % dan ortiq immigrantlar Osiyolik yoki loti amerikasidan. Bu bobning boshlarida aytganimizdek, 2050-yilga kelib AQShda etnik ko'pchilikni tashkil etuvchi aholining o'zi bo'lmaydi. Biz hammamiz ozchilik bo'lamiz. Qanday millat shakllanadi? Irqlararo nikohlar oshayotgan bo'lsada, ular hali ham kam kuzatiladigan hodisa hisoblanadi. Masalan, 2006-yilda bor yo'g'1 3 % qora ayollar oq erkaklarga turmushga chiqishgan va 1% oq ayollar qora erkaklarga turmushga chiqishgan. "choy rangli"

jamiyatga erishishimizga hali ancha bor shekilli. Bunday natija qandaydir olis kelajakda qo‘lga kiritilishi mumkin. Haqiqatdan ham buyuk Afrikan Amerikan sotsiologi V. E. B. Dyubua shunday degan edi “bir kun kelib, Amerika tuprog‘ida, ikki dunyo irqiqlari bir biriga ikkisi ham orziqib kutgan xususiyatlarni ulashishadi”. Dyubua irqiy soflikni faqat “negr xalqining bu missiyasi nihoyasiga yetkazilganidan, va insoniyat do‘stligi ideali ta‘minlangandan keyin” bo‘lishi mumkin degan.

Madaniy adaptatsiyaning usulini tahlil qilayotganimizda hisobga olishimiz zarur bo‘lgan yana bir usul bu hozirgi immigratsiya ko‘rsatkichlari to‘lqinlar emas. Oldingi immigratsiya harakatlari haqiqiy to‘lqinlar edi, ya‘ni ularda bosh va oxir bor edi. Bu Sharqiy va janubiy evropalik immigrantlarning muvaffaqiyatiga hissa qo‘shgan. To‘lqin tugaganidan keyin ular alohida qolish o‘rniga aralashishar edi. Bugun, bu holat kuzatilmaydi. Chunki bugun Amerikaga lotin Amerikasi va Osiyodan kelayotgan immigrantlarning shubxasiz oxiri yo‘q. Shunday qilib, oldingi immigrantlarga bo‘lganidek “nafas rostlab olish” uchun vaqt hozirgi immigrantlar uchun yo‘q. Endi biz XX asrda janubiy va Sharqiy evropalik immigrantlar erishgan yutuqlarni hozirgi va bundan keying immigratsiya uchun qo‘llab bo‘ladimi deb savol berishga majburmiz.

AQSH qanday qilib butun dunyodan kelgan turli xil qarashlarga ega bo‘lgan millatlarni birlashtirib tura oladi degan savolni uzoq vaqtgacha e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi. 1900-1990-yillardagi muvaffaqiyatli “qaynatilgan qozon” 2000-2010-yillar oralig‘ida ham shunday bo‘lishiga hech qanday kafolat yo‘q. Iqtisodiy tuzilmalardagi farqlar, irqilaloro nikohlar, guruhlar huquqlarini himoya qilish urg‘usining oshishi, va xususan, immigratsiya darajalari kelajakda yana bir “Qozonni qaynatish” uchun juda katta qiyinchilik tug‘diradi. Unda yana qanday muqobillar bor? Madaniy ayirmachilik o‘tmishda qoldi. Millatlar va xalqlar bir-biridan ajratilgan holda rivojlangan zamonlardan ancha o‘tib ketdik. shuningdek, to‘liq assimilyatsiya (immigrantlarning qadriyatleri va boshqalarining yagona hukmron madaniyat ta‘siriga olish) ham unchalik realistik maqsadga o‘xshamaydi. yaqin 40 yil ichida AQSHda ichiga assimilyatsiya

qilib qo‘shib olish uchun ko‘pchilikni tashkil etuvchi millatning o‘zi bo‘lmaydi. Haqiqatdan, yuqorida aytilganidek, 4 shtatlarda ko‘pchilikni tashkil etuvchi etnik guruhning o‘zi yo‘q va yana 5 shtat bu holatga bormoqda. Faktlarga ta yanadigan bo‘lsak, Ingliz yoki kelib chiqishiga ko‘ra ingliz bo‘lganlar 2005-yilda aholining 10 % dan ham kamrog‘ini tashkil etishgan.

O‘tgan o‘n yillilarda kelib chiqqan etnik va irqiy kelib chiqishdan xabardorlik va mamlakatning ba‘zi hududlarida muayyan hududlarida yangi immigrant anklavlarining shakllanishi Anglo madaniyatga assimilyatsiya jarayonini yuz berishini yanada qiyinlashtiradi. Buning ustiga, bunday assimilyatsiyaning sodir bo‘lishini kichik guruhlar ham ko‘pchilik aholi ham xohlashadimi yoki yo‘qmi, aniq emas.

Tanlovlar madaniy plyuralizm va plyuralistik assimilyatsiya orasida yotadi. Millatning qaysi yo‘nalishga yurishi Amerikaning bu asrdagi ko‘rinishini shakllantiradi. Madaniy plyuralizm shakllari har doim amerikacha hayotning bir bo‘lagi bo‘lib keldan. Katta shaharlarda hali ham etnik anklavlar bor. Ko‘plab amerikaliklar kalenarlaridan turli xil diniy va madaniy bayramlar hali ham o‘rin olgan. Ammo madaniy plyuralizm 1960-yillarda boshqacha ma‘noni anglatga boshladi. Ba‘zi odamlar uchun madaniy plyuralizm bu “odamlarning o‘z xohishi bilan biron millat yoki dinga tegishli ekanligini birinchi navbatda tan olishlari va ikkinchi navbatda o‘zlarini biron bir kattaroq mamlakat fuqarolari deb hisoblashlaridir”. Ko‘pincha amerikaliklar bizning madaniy plyuralizm an‘analarini qabul qilgan plyuralistik millat ekanligimizni adashtirib yuborishadi. Amerika millatida ko‘plab dinlar va etnoslar bor. shunda qaramay u asosiy manfaatlar va ideallar uchun shu barcha millat va elatlarni birlashtirishga harakat qilib kelgan.

Millatga qiyi bo‘lgan narsalardan biri bu uning hamma istiqomatchilari muvaffaqiyat uchun bir xil huquq va imkoniyatlarga ega va amerika madaniyatiga hissa qo‘shib borayotgan bir paytda uni o‘zlashtirib olish uchun barcha imkoniyatlarga ega ekanligini ta‘minlashdir. Bir vaqtning o‘zida bu millatlar butun amerika madaniyati ostida o‘zlarining sub-madaniyatlarini

rivojlantirish tanlovlari ham bor. Mamlakat ko'pmillatli bo'la brogan sari, u madaniy plyuralizm va assimilyatsiya kabi madaniy moslashishlarni qabul qilishi juda muhimdir. Sotsiolog J. Milton Yinger va tarixchi Jon Highem plyuralizm va assimilyatsiyani ham o'z ichiga oluvchi yangi moslashish yo'li haqida to'xtalishgan edi. Yinger yozishicha, assimilyatsiyadan sal pastroq darajadagi to'planish eng to'g'ri yo'l bo'lishi mumkin. Highemning aytishicha, plyuralistik assimilyatsiya etnik chegaralardan o'tmaydi ammo umumiy qadriyatlar va manfaatlar yagonaligini saqlashga imkon beradi. Ammo, na Yinger na Highem 2050-yilda AQSHda bo'lishi kuzatiladigan, haqiqiy plyuralistik assimilyatsiyada bo'ladigan jarayonlarni tekshirishmadi.

Agar jamiyatning maqsadi birlashish bo'lsa plyuralistik assimilyatsiya muqobil yo'ldir. Hamma guruhlar ham madaniy, ham strukturaviy jihatdan allaqachon xilma-xil bo'lgan amerika jamiyati ichiga assimilyatsiya qilinadi. Bu ingliz-amerikalashtirish ham, oq-amerikalashtirish ham emas. Bu hatto katta etnos ichiga assimilyatsiya emas balki etnoslarning bir-birlari bilan assimilyatsiyasidir. Bu "yangi Amerikalashtirishdir". Strukturaviy assimilyatsiya shuni anglatadiki, hamma guruhlar bir xil qudratga va imkoniyatga ega. Plyuralistik assimilyatsiyada esa, bu guruhlar o'z etnik birliklarini saqlab turgan holda, amerika jamiyatiga assimilyatsiya qilinadi. Plyuralistik assimilyatsiyaning ba'zi turlari Benjamin Franklin yozgan, Yevropaning 6 yirik millatini birlashtirgan oq aholidir. Mamlakat shiori ham buni tasdiqlaydi. Yapon-amerikaliklar va xitoy-amerikaliklarning muvaffaqiyatlari bu modelning ishlash uslubini ko'rsatadi. Ular amerika jamiyatiga madaniy va strukturaviy jihatdan ham assimilyatsiya qilingan bo'lsada, ularni oson tanib olish mumkin. Ular muvaffaqiyatining sabablaridan biri bu XIX asr dan tashqari Amerikaga bu ikki mamlakatdan 1980-yilgacha deyarli immigratsiya bo'lmaganligidir. Bu adaptatsiya jarayonini osonlashtiradi. Plyuralistik assimilyatsiya ketyapti va bu hamma millatlardan harakatni talab qiladi. shunga qaramay yapon va xitoy-amerikaliklarning muvaffaqiyati amerika jamiyatining bunday imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Plyuralistik assimilyatsiya uchun bi necha faktorlar mavjud bo'lishi kerak.

Birinchisi, Amerika jamiyati hamma amerikaliklarning rivojlanishi va oldinga chiqishi uchun harakat qilishi kerak. Bu oily ta'limga oson va arzon chiqish yo'llarining borligi va texnik ta'limning mavjudligidan dalolat beradi. Bu barch amerikaliklar uchun millatning barcha o'quv muassasalarida o'qish imkonini beradi. Internet va e-mail orqali tezlikda axborot almashinishning paydo bo'lishi bu maqsadni amalga oshirish mumkin bo'lgan maqsadga aylantirdi. XXI asr AQSH iqtisodi uchun yangi shakldagi strukturaviy faollik rivojlantirilishi zarur. Agar bu rejalar amalga oshmasa oqlar va osiyoliklar yuqori natijalarga erishayotgan bir paytda qoralar va lotin amerikaliklar o'zlarini juda qiyin iqtisodiy ahvolda qoladilar, konfliktidan qutulib bo'lmaydi va plyuralistik assimilyatsiya ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Ikkinchidan, bo'lajak immigrantlar jarayon davomida "biz" tushunchasini ma'nosini o'zgartirib, "bizlardan birimizga" aylanishi zarur. Huddi ko'pchilik XVIII-XIX-asr immigrantlari amerikalik bo'lishni xohlaganlaridek, hozirgi davr immigrantlari ham amerikalik bo'lishni xohlashlari zarur. Agar millat "E Pluribus Unum" ni ta'minlamoqchi bo'lsa, hech qanday madaniy separatizm va boshqalarga o'rin qolmaydi. Uchinchidan, diskriminatsiyaning barcha ko'rinishlari tugatilishi lozim. Bu juda qiyin to'siq. AQSH hali ham irqchi jamiyat va agar plyuralistik assimilyatsiya ro'y berishni istasa bundan voz kechish kerak. Agar plyuralistik assimilyatsiya kelajakka moslashishning ideal usuli sifatida qaraladigan bo'linsa, amerikaliklar eng yangi immigrantlarni "past darajadagi" kelgindilar sifatida hisoblashni bas qilishlari shart. Kelgindilar chin yurakdan xush qabul qilinishi kerak. Bu ruhlangan shaxslar darvoza ortidagi daydilar emas, amerikaliklar ularga amerikaning yangi kelganlarni iliq kutib olib ularga keng imkoniyatlar yaratuvchi ajoyib o'lka ekanliklarini isbotlashlari darkor. Har bir harakat yangi kelgan kishilarni bu dinamik jamiyatda to'liq ishtirok etib, uning to'laqonli a'zosiga aylanishiga yordam berishga qaratilishi zarur.

Bu uzoq muddatdan beri amerikada yashab kelayotgan ozchilik guruhlariga ham taalluqli. AQSH konstitutsiyasi va 1960-yildagi Fuqaro Huquqlari to'g'risidagi qonunda barcha fuqarolarga teng munosabatda bo'linadi deb yozilgan. Bu maqsad haligacha uzoq ufqdagidek go'yo. Hattoki, ozchilik guruhlar o'rtasidagi aloqalar ham qaltis. Eng yangi immigrantlarning aholi tarkibidagi foizi oshib borayotganligini hisobga oladigan bo'lsak, hamma guruhlarining bir birini ta'minlaydigan mehanizm toppish butun amerika jamiyati uchun hayot-mamotdek zarur. Plyuralistik assimilyatsiya, aloqa shakllari, madaniy assimilyatsiya, qaynayotgan qozon nazariyasi, madaniy arala shuv va guruhlar birlashuvi – bular hammasi sotsiologlar, demograflar va boshqa ijtimoiy olimlar tomonidan jamiyatdagi turli xil guruhlar o'rtasidagi aloqalarda ular bir birini yaxshiroq tushunishi uchun ishlab chiqilgan termin va konsepsiyalardir. Asosan, bu terminlarning barchasi bir faktga: agar bir guruh yoki xalq boshqa guruh yoki xalq tomonidan egallangan hududga ko'chib boradigan bo'lsa, ikkala guruh ham yangi vaziyatga moslashishi kerakligiga urg'u beradi.

Biz bu bobda AQSHga to'xtalgan bo'lsakda, madaniy adaptatsiya jarayoni qayerda va qachon bo'lishidan qat'iy nazar, ikki odamlar jamoasining bir yerni baham ko'rsa amalda bo'ladi. Haqiqatdan ham, bir tomondan olganda, Yevropadagi vaziyat AQSHdagiga qaraganda ancha og'irroq. 3-bobda to'xtalganimizdek, bu yerda tug'ilish darajasi shunday pastki, immigratsiyasi ba'zi mamlakatlar iqtisodiy kuchlar safidan tushib qolishi mumkin. Ammo, bu davlatlarning ko'pchiligi AQSh kabi turli xil millatdagi migrantlarning ommaviy ko'chib kelishiga uchragani yo'q. bu yerda ham ba'zi turdagi madaniy adaptatsiya jarayonlari hisobga olinadi. Ko'rinishidan, mahalliy aholi va yangi kelganlar o'rtasidagi tinch aloqalarga osonlikcha erishib bo'lmaydigandek ko'rinmoqda. Biz bu bobda ko'rib chiqqan barcha madaniy adaptatsiya usullari qo'llanilib ko'rilishi mumkin, ammo hozirgi aytadigan gapimiz - yakuniy natijani faqat vaqt ko'rsatadi.

Biz madaniy adaptatsiyani immigratsiya va past tug'ilish darajasi tufayli kelib chiqadigan muammolarni yechish kaliti sifatida tekshirib

chiqayotgan edik. Ammo immigratsiya aholida o'zgarishlarga ham sabab bo'ladi. Hatto immigratsiya darhol to'xtatilganiganida ham, aholi o'zgarishi (o'shish yoki qisqarish) baribir ro'y berar edi. Biz muhim demografik konsepsiya – aholi momentum haqida gapiryapmiz. Bu yerda immigratsiya kichik bir omil xolos. Aholi momentumiga, ya'ni pozitiv momentumga misol qilib AQSHning chaqaloqlar portlashidan keyingi holatini misol keltiramiz. To'liq tug'ilish darajasi (muayyan vaqtdagi yosh va xususiyat profili hisoblanib chiqarilgan bir ayol ko'ra oladigan farzandlar miqdori) 1960-va hozirgi payt oralig'ida 3.5 dan 2 ga tushib qoldi, ammo tug'ilishlar soni tushmadi. Bir necha yillar davomida u 4 million atrofidagi ko'rsatkichda qoldi. Lekin, bu qanday sodir bo'ldi?

Javob shuki, tug'ilishlar soni shunchaki ayolning farzandlari sonini emas balki bu farzandlarni dunyoga keltiruvchi zahiradagi ayollar (o'z bola ko'rish yoshlarida) sonini ham anglatadi. Bunday ayollarning ko'p qismi 1950-1960-yillardagi bebi-bumerlarga tegishli egi. Proporsional ravishda, ular ko'pchilik edilar. Shunday qilib, agar bu ayollar o'rtacha 2 farzandga ega bo'lsalar ham, juda ko'p bolalar tug'ilishar edi, chunki onalar ko'p edi. Shuning uchun tug'ilish pasaymadi. Bu pozitiv momentum deb atalgan. Shunchaki jo'mrakni burab qo'ya olmaysiz. Chunki daraja tushsa bu aholi soni ham shu zahoti tushadi degani emas. Haqiqatda, aholining yosh kompozitsiyasi mo'tadillashishi uchun kamida bir avlod vaqti ketadi.

Endi, kelinglar ko'pchilik Yevropa mamlakatlaridagi vaziyatga qaraylik. Bu yerda tug'ilish darajasi juda past bo'lib (1.2 va 1.5), agar tug'ilish darajasi pastligicha qolsa immigratsiyasiz, bu davlatlar yer yuzidan yo'qolib ketishadi. Bunday falokatdan qutulish uchun ayollarga ko'proq bola ko'rishni iltijo qilib, yolvorayotgan hukumatni bir ko'z oldingizga keltirib ko'ring-a: bonuslar taqdim qilinadi, vatanparvarlik chaqiriqlari nashr qilinadi. Keyin mamlakat aholishunoslari yomon xabarni e'lon qiliashadi: mamlakatning tug'ilish darajasi zo'rg'a o'syapdi, ammo qisqarishna hali ham nuqta qo'yilmayapti. Nimalar bo'lyapti o'zi? Bu AQSHdagi yuqorida hozirgina tasvirlagan vaziyatning g'irt chappasi. O'tgan o'n yilliklardagi juda past tug'ilish darajasi tufayli, bola ko'rish uchun

zahirada ayollar yetishmaydi. Bu negativ momentum deyiladi. Bu vaziyatda ayollar aholi o'sishini ta'minlash uchun taxminan 4 bola dunyoga keltirishlariga to'g'ri keladi. Bu bobda biz ikki muhim ijtimoiy va demografik fenomenni ko'rib chiqdik. Birinchisi, immigratsiya harakatlari tufayli, siyosatchilar madaniy adaptatsiyani tekshirishlari kerak. Agar jamiyat ichidan tinch bo'lsa bu usullardan biriga yergashish kerak bo'ladi. Bu, o'z navbatida bizni bob oxiridagi aholi momentum tushunchasiga yetaklaydi. Aholini xoh immigratsiya orqali bo'lsin, xoh tabiiy o'zgarish orqali bo'lsin, ijobiy yoki salbiy momentumni hisobga olmasdan tushunib bo'lmaydi.



NAZORAT VA MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlariga (turlari, aniqlash, hisoblash metodlari) nimalar kiradi?
2. Aholi tarkibining asosiy belgilari qanday?
3. Aholi migratsiyasi nima?
4. Aglomeratsiya, megopolis, suburbanizatsiya, rururbanizatsiyaning ko'rinishlarini keltiring.
5. Progressiv yosh tarkibi, regressiv yosh tarkibidan qanday farqlanadi?
6. Dunyodagi aholi zich joylashgan areallarni aniqlang?
7. Aholi takror barpo bo'lishi nima va uning turlari?
8. Demografik o'tish bosqichlarini ajrating.
9. Aholining qarishi va demografik siyosat ma'zmun-mohiyatini baholang?
10. Aholi yosh tarkibi klassifikatsiyasi qanday ajratiladi?

GLOSSARIY

Aholi migratsiyasi — bu odamlarning (migrantlarning) u yoki bu hududlar chegarasi orqali, yashash joyini doimiy o'zgartirayotgan yoki hisha yoxud uzoq muddatga yoki doimiy tarzda kelib ketishini anglatuvchi ko'chishidir.

Aglomeratsiya – aholi punktlarning bir-birlariga qo'shib ketib, ulkan shahar, yagona iqtisodiy hudud hosil qilishi. Aglomeratsiyalarda aholi zich o'rnatilgan, xilma-xil ishlab chiqarish tarmoqlari, xususan, sanoat korxonalari, ilmiy va o'quv muassasalari to'plangan bo'ladi

Demografik inqiroz — aholining takror barpo bo'lishidagi o'zgarishlar tufayli sodir bo'ladigan jarayon. Demografiya tarixida XIX asrning oxiriga qadar demografik inqirozga ocharchilik, epidemiya va urushlar sabab bo'lgan. Bu omillarga tayangan holda aholining o'limi ortgan va o'z-o'zidan aholi sonining kamayishiga, dunyoning ba'zi mamlakat va mintahalarida, alohida hududlarda unuman odamlarning hirilib ketishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida tug'ilish sonining keskin pasayishi aholi mutlaq sonining kamayishiga, ya'ni demografik inqirozga olib keldi.

Demografik o'tish — aholi takror barpo bo'lishining bir turidan ikkinchi turiga o'tishidir. Masalan, demografik jarayonlarning o'zgarishi tufayli aholi kengaygan takror barpo bo'lishdan oddiy yoki toraygan takror barpo bo'lishga o'tadi.

Demografik portlash — tutilishning juda yuqori darajada saqlanib turishi, o'limning esa keskin kamayishi natijasida aholi sonining yuqori sur'atda o'sishidir.

Depopulyatsiya — tug'ilishning darajasining pasayishi, o'limning ko'payishi natijasida aholi mutlaq sonining kamayish jarayonidir.

Mehnat migratsiyasi — mehnatga qobiliyatli aholining ishlab chiqarishni rivojlantirish va joylashtirishdagi o'zgarishlar bilan bog'liq makoniy ko'chib yurishidir.

Megapolis – shahar aglomeratsiyalarining o‘zaro qo‘shilib ketishidan hosil bo‘lgan shahar aholi punktlari urbanizatsiyalashgan zonalar.

Suburbanizatsiya — shahar aglomeratsiyalari o‘z chegarasidan tashqariga chiqishiga sabab bo‘ladigan jarayon.

Urbanizatsiya – (lotincha urbanus – shahar) shaharlashish, ya’ni shaharlarning o‘sishi va ko‘payishi. Bu jarayon fan-texnika inqilobi davrida keskin kuchayib, shahar aholisining ko‘payishiga, shahar turmush tarzining keng tarqalishiga sabab bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.

3. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - T.: “Tafakkur», 2011. – 160 bet.

4. Bo‘riyeva M.R., Egamova DDD.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: “Fan”, 2008. – 156 b.

5. Бутов В. И. Экономическая и социальная география зарубежного мира и Российской Федерации: Учебное пособие. – Москва: ИКЦ «МарТ», Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2003. – 192 с.

6. Dudley L. Poston, Jr. Population and Society: An Introduction to Demography.- Cambridge University Press, 2010-442 p.

7. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с.

8. Перцик Е. Н. География городов (геоурбанистика): Учебное пособие для геогр. спец. вузов. – Вышш. шк., 1991. – 319 с.

9. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2004. – 244 с.

10. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства / Под общ. ред. В.Г. Глушковой. – М.: КНОРУС, 2005. – 384 с.

11. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (Монография). – Т.: «Фан ва технология», 2010. – 276 б.

12. Population Reference Bureau. 2011- 2012. World Population Data Sheet.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR

1. Demografik jarayonlar qanday ifodalanadi?

- A. Demografik koeffitsiyentlar orqali.
- B. Tug‘ilish koeffitsiyenti orqali.
- C. O‘lim koeffitsiyenti orqali.
- D. Tabiiy o‘shish koeffitsiyenti orqali
- E. A, S javoblar.

2. Jumlani to‘ldiring; Tug‘ilish -

- A. Jamiyatning davomiyligini ta‘minlaydi, biologik jarayon. tabiiy ko‘payish
- B. Ma‘lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko‘rish jarayoni.
- C. A va V javoblar to‘g‘ri.
- D. A, V, S javoblar to‘g‘ri.

3. Har bir ayolning farzand ko‘rish yoshi davri qaysi davrni o‘z ichiga oladi ?

- A. 15 – 49 yosh
- B. 16 -50 yosh
- C. 15 – 55 yosh
- D. 16 – 49 yosh
- E. A va V javoblar to‘g‘ri.

4. O‘zbekistonda tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti necha promilleni (2002) tashkil etadi?

- A. 21‰
- B. 30‰
- C. 15‰
- D. 25‰
- E. 18‰

5. Reproduktiv yoshdagi ayollar tug‘ilish darajasi past davlatlarda qaysi yoshga nisbatan qo‘llaniladi ?

- A. 15 - 44
- B. 14 - 49
- C. 14 - 44
- D. 15 - 49
- E. 16 - 55

6. Onalar o‘limi nisbatan qaysi davlatlarda yuqoriroq ?

- A. Sust rivojlangan
- B. Rivojlanayotgan
- C. Uchinchi dunyo davlatlarida
- D. Tayanch mamlakatlarda
- E. Rivojlangan

7. Mutaxassislar aholi takror barpo bo‘lishini aholining qanday harakatlari yig‘indisi sifatida tahlil etadi ?

- A. Tabiiy, ijtimoiy – iqtisodiy
- B. Hududiy, iqtisodiy
- C. Hududiy, sotsial
- D. Tabiiy, hududiy
- E. Tabiiy, hududiy, sotsial

8. Demografiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosi:

- A. Ikki yunon so‘zlarining qo‘shilishidan iborat bo‘lib, “demos” – xalq, aholi, “ grafo” – tasvirlash, o‘rganish
- B. Aholi haqidagi fan
- C. Demografiya prognozlarni ishlab chiqish
- D. Aholi takror barpo bo‘lishining hududiy tahlili
- E. Aholining tabiiy o‘rishini o‘rganib borish

9. Demografik jarayonlarni o‘rganishdagi asosiy mezon:

- A. Yuqoridagi barcha javoblar to‘g‘ri
- B. aholining jinsiy tarkibi
- D. aholi tabiiy o‘rishi

E. oila

10. Dastlabki demografik ma'lumotlar qaysi davrlardan boshlanadi ?

- A. Eramizdan oldingi III – IV asrlardan boshlab.
- B. Eramizdan keyingi II – asrdan
- C. Eramizdan keyingi V asrdan
- D. Eramizdan keyingi XVI asrdan
- E. Eramizdan oldingi I asrdan boshlab

11. Demografik jarayonlar haqidagi dastlabki ma'lumotlar qaysi hududlarga tegishlidir ?

- A. Rim va Gretsiya
- B. Misr, Mesopotamiya, Hindiston
- C. Xitoy va Yaponiya
- D. Osiyo va Afrika davlatlar
- E. Yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

12. Dastlabki demografik tadqiqotlar olib borilgan shahar;

- A. London
- B Parij
- C. Vashington
- D. Moskva
- E. Rim

13. Aholining dastlabki ro'yxatga olish qanday maqsadlarda o'tkazilgan ?

- A. aholidan boj, soliqlar yig'ish.
- B. aholi salomatligini yaxshilash
- C. erkaklar sonini bilish
- D. aholi sonini bilish
- E. aholining bir hududdan boshqa hududga ko'chirish.

14. Eng qadimgi aholi ro'yxatlari qachon va qayerda o'tkazilgan ?

- A. Eramizdan oldingi VI asrda, Rimda.
- B. Eramizdan oldingi II asrda, Italiyada
- C. XVIII asrda, Fransiya.
- D. XIX asrda, AQSHda
- E. XVIII asrda, Rossiyada.

15. Mukammal aholi ro'yxati birinchi marotaba qayerda o'tkazilgan ?

- A. 1770-yili, AQSH da.
- B. 1500-yili, Angliyada.
- C. 1801-yili, Fransiya.
- D. 1900-yili, Rossiyada.
- E. XIX asrning boshida, Norvegiyada.

16. XX asrning boshlarida dunyo aholisining necha foizi ro'yxatga olingan ?

- A. 54 %
- B. 21 %
- C. 64%
- D. 80 %
- E. 50 %

17. Aholi ro'yxati necha yil oralig'ida o'tkazilib turiladi ?

- A. 5 – 10 yil
- B. 5 yil
- C. 20 yil
- D. 25 yil
- E. har yili

18. O'zbekistonda Chor Rossiyasi tomonidan dastlabki aholi ro'yxati qachon o'tkazilgan ?

- A. 1897-yilda
- B. 1900-yilda

- C. 1917-yilda
- D. 1861-yilda
- E. 1920-yilda

O‘zbekistonda XX asrda o‘tkazilgan aholi ro‘yxatlarini ko‘rsating.

- A. A, A, V, S.
- B. 1939, 1959-yillarda
- C. 1970, 1979, 1989-yillarda
- D. 1991-yilda
- E. 1926-yilda

19. O‘zbekistonda demografik jarayonlarni sotsiologik uslubda o‘rganish qachondan boshlangan ?

- A. V 1960 – 1965-yildan.
- B. XIX asrning ikkinchi yarmidan.
- C. 1920 – 1930-yillardan.
- D. 1897-yildan
- E. 1970-yildan.

20. Aholi soni turlari:

- A. A, V, S, D.
- B. mavjud aholi soni
- C. nazariy aholi soni
- D. o‘rtacha yillik aholi soni
- E. doimiy aholi soni

21. O‘rtacha yillik aholi soni qanday aniqlanadi ?

- A. Kalendar yilining boshidagi va keyingi kalendar yilining boshidagi aholi soni qo‘shilib, ikkiga bo‘linadi.
- B. ma‘lum kalendar yilining boshidagi aholi soni
- C. ma‘lum kalendar yilining o‘rtasidagi aholi soni
- D. ma‘lum kalendar yilining boshidagi va o‘rtasidagi soni
- E. barcha javoblar to‘g‘ri

22. Aholining jinsiy tarkibi:

- A. ma'lum hudud aholisining erkaklar va ayollarga bo'linishi
- B. aholi tarkibida erkaklar salmog'i
- C. aholi tarkibidagi oilalar soni
- D. ma'lum hudud aholisining yosh guruhlarga bo'linishi
- E. aholi tarkibida ayollar salmog'i.

23. Jahonda dastlabki rasmiy aholi ro'yxati qaysi mamlakatlarda va qachon o'tkazilgan ?

- A. AQSH da, 1790-yilda
- V. Hindistonda, 1637-yilda
- S. Xitoyda, 1457-yilda
- D. SHvetsiyada, 1800-yilda
- E. Rossiyada, 1897-yilda

24. O'zbekistonda qachon dastlabki to'liq aholi ro'yxati o'tkazilgan ?

- A.1926-yilda
- V.1920-yilda
- S.1922-yilda
- D.1897-yilda
- E.1939-yilda

25. Aholining takror barpo bo'lishida qanday omillar qatnashadi ?

- A.Hammasi
- V.Iqtisodiy
- S.Ijtimoiy
- D.Tabiiy - biologik
- E.Demografik

26. Demografik o'tishning birinchi bosqichi rivojlangan mamlakatlarda qachon kuzatildi?

- A.XX asr o'rtalarida
- V.XX asrning ikkinchi yarmida

- S.XX asrda
- D.XX asr boshida
- E.XV asrda

27. XX asr 20 -yillarida Oilaning ilmiy ta'rif

A.Oila insonlarning tabiiy biologik, nikoh qon qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarda asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik hislari orqali bog'lanagan ijtimoiy guruhidir

- V.Oila jamiyatning kichik bo'lagi
- S.Oila, jamiyat maxsuli
- D.Oila er xotin va ularning farzandlaridan tashkil topgan guruh
- E.Yuqoridagi barcha javoblar to'g'ri

28. Aholining turli maqsadlarda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi:

- A.migratsiya
- V.emmigratsiya
- S.migratsiya saldosi
- D.immigratsiya
- E.urbanizatsiya

29. Hozirgi kunda tashqi migratsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omil ...

- A.iqtisodiy
- V.etnik
- S.siyosiy
- D.V va S
- E.barchasi to'g'ri

30. Migratsiyada ishtirok etayotganlar...

- A.migrantlar
- V.emmigrantlar
- S.qochoqlar

D.ko‘chib yuruvchilar
E.immigrantlar

31. “Migratsiya” so‘zi qanday ma’noni bildiradi?

A.ko‘chish
V.ishlash
S.o‘qish
D.yashash
E.mehnat qilish

32. Bir davlatdan ikkinchi davlatga bir qit’adan ikkinchi qit’aga aholining ko‘chishi

A.tashqi migratsiya
V.ichki migratsiya
S.immigratsiya
D.emmigratsiya
E.mehnat migratsiyasi

33. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib, bir yildan ortiqroq yashab qolishi....

A.doimiy migratsiya
V.tashqi migratsiya
S.yuichki migratsiya
D.vaqtinchalik migratsiya
E.tebranma migratsiya

34. Aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib ma’lum muddat yashab qaytishi

A.reemigratsiya
V.doimiy migratsiya
S.tashqi migratsiya
D.ichki migratsiya
E.tebranma migratsiya

35. Bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishi

- A.ichki migratsiya
- V.doimiy migratsiya
- S.tashqi migratsiya
- D.vaqtinchalik migratsiya
- E.tebranma migratsiya

36. “Immigratsiya”.....

- A.aholining ko'chib kelishi
- V.aholining ko'chib ketishi
- S.aholining tabiiy o'sishi
- D.aholining tabiiy harakati
- E.aholining mexanik harakati

37. “ Emmigratsiya”.....

- A.ko'chib ketish
- V.ko'chib ketganlar
- S.ko'chib kelish
- D.ko'chib kelganlar
- E.qayta ko'chib ketish

38. Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni.....egallaydi

- A.mehnat migratsiyasi
- V.diniy migratsiya
- S.etnik migratsiya
- D.siyosiy migratsiya
- E.ekologik migratsiya

39. Migratsiyaning oqimi yo'nalgan hududlarda:

- A.aholi soni ko'payadi
- V.nikoh ko'payadi
- S.ajralish ko'payadi

- D.tug‘ilish kamayadi
- E.tug‘ilish ko‘payadi

40. Mamlakatda, hududda va jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar aholisining salmog‘ining oshishiga murakkab shaharlar tizimlari paydo bo‘lishi

- A.Urbanizatsiya
- V.Suburbanizatsiya
- S.Megapolis
- D.Aglomeratsiya
- E.Konurbanizatsiya

41. Tug‘ilish va o‘limning kamayishi aholi o‘rtacha umr ko‘rish muddatining uzayib borishi demografiyada nima deb ataladi ?

- A.Aholi qarishi
- V.Aholi kamayishi
- S..Demografik portlash
- D.Aholi ortiqchaligi
- E.Aholi o‘sishi

42. Demografik vaziyat birinchi navbatda nimada ifodalanadi ?

- A.Aholining soni va tarkibi
- V.Aholining ko‘payishi va kamayishi
- S.Aholini ko‘payishi va aholi soni
- D.Aholini ko‘payishi va tarkibi
- E.Aholini kamayishi va tarkibi

43. “Aholi ortiqchaligi” demografik muammo qanday sodir bo‘ladi ?

- A.aholining haddan ziyod ko‘payishi.
- V.o‘limning ortishi
- S.aholini kamayishi
- D.aholi qarishi
- E.aholining ko‘payishi va kamayishi.

44. Demografik vaziyat nechta muhim omil hisobida o'rganiladi ?

- A.4 ta
- V.6 ta
- S.2 ta
- D.8 ta
- E.5 ta

45. XX asrning boshlarida shved olimi G. Sundberg tomonidan aholi yosh tarkibining necha turi ajratilgan ?

- A.3
- V.4
- S.2
- D.6
- E.5

46. Sayyoramizda tug'ilishning hududiy farq qilishi nimalarga bog'liq ?

- A.Hamma javoblar to'g'ri
- V.Ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandligiga
- S.Xalqning milliy urf odatlariga
- D.Diniy qadriyatlariga
- E.Davlatning turmush darajasiga

47. Tug'ilishning darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy demografik omilni belgilang ?

- A.Aholining yosh - jins tarkibi
- V.Etnik tarkib
- S.Hududiy va diniy tarkib
- D.Aholining yosh tarkibi
- E.V va S javoblar to'g'ri

48. Tug'ilishga ta'sir etuvchi ijtimoiy- psixologik omillarga qanday omillar kiradi ?

- A.A va V javoblar to'g'ri

- V.Davlat tomonidan belgilangan demografik siyosat
- S.Aholining yosh jins tarkibi
- D.Aholining savodliligi, turmush darajasi
- E.A va S javoblar to'g'ri

49. Keyingi 20-25 yil ichida dunyoning hamma qismida...

- A,tug'ilish kamaymoqda
- V.o'rtacha umr ko'rish yoshi uzaygan
- S.aholining savodli tarkibi progressiv oshmoqda
- D.tug'ilishning ko'payishi kuzatilmoqda
- E.aholining jinsiy tarkibi o'zgarmoqda

50. Demografik siyosat faol olib borilayotgan davlatlarni toping.

- A.Hammasi
- V.Hindiston
- S.Fransiya
- D.Rossiya
- E.Xitoy

51. Quyida tug'ilishi kam bo'lgan davlatlarni ajrating ?

- A.Belarusiya, Moldava
- V.Rossiya, Keniya
- S.BAA, Quvayt
- D.Fransiya, Tojikiston
- E.Zoir, Zambiya

52. Tug'ilishning bugungi holatiga qarab hozirgi davlatlarni qanday guruhlash mumkin ?

- A.3ta ; yuqori, o'rta va past
- V.2ta yuqori va past
- S.3ta progressiv, statsionar regressiv
- D.2ta progressiv, regressiv
- E.4ta yuqori ,o'rta, o'rtadanpast past

53. 1950-1970-yillarda dunyo aholisining tabiiy ko'payishiga xos bo'lgan xususiyatini belgilang ?

- A.Tabiiy o'sishning yuqoriligi
- V.Optimal darajadaliği
- S.Tabiiy o'sishning pastligi
- D.A av V
- E.Tabiiy o'sishning harxilligi

54. Dunyo bo'yicha tug'ilish eng yuqori bo'lgan hududni ko'rsating.

- A.Afrika
- V.Xorijiy Osiyo
- S.Lotin Amerika
- D.Hindixitoy
- E.Yevropa

55. "Aholi ortiqchaligi" –

A.Insonni ehtiyoji uchun moddiy qiymatlar ishlab chiqarishga nisbatan aholi sonining tez ortishi.

- V.Aholi sonining juda tez oshishi
- S.Aholi sonining oshishi natijasida ishsizlikning vujudga kelishi
- D.Industurlashtirish oqibatida nafaol aholini ko'payishi
- E.Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining oshishi

56. 1960 – 1970-yillarda aholi tabiiy o'sishiga xos xususiyat nima deb

nomlanadi?

- A.Demografik portlash
- V.Pulsizlik – kulfat, bolasizlik – ikki barobar kulfat
- S.Yer bitta – tanho, ekologik muammo
- D.Biz yer deb atalmush ulkan kemanding yo'lovchilarimiz bir oilaga – bir bola

57. "Demografik o'tish" iborasini fanga kim kiritgan ?

- A.Noutstayn

V.Maltus
S.Sundberg
D.Urlanis
E.Broun

“Odamlar to‘lqinlari” konsepsiyasi muallifi kim ?

A.Mao Szedun
V.Javoharlal Neru
S.Indra Gandi
D.P. Bxarad
E.A va V

58. “Aholi ortiqchaligi” muammosi qaysi hududlarga xos ?

A.Xitoy va Hindiston
V.Lotin Amerikasi
S.Xorijiy Osiyo
D.Hindixitoy
E.Hammasi

59. Demografik qarish bo‘yicha hududlar ketma – ketligini belgilang.

A.Yevropa, Okeaniya, Amerika
V.Yevropa, Afrika, Osiyo
S.Amerika, Okeaniya, Afrika
D.A va S
E.V va S

60. Demografik qarishga xos xususiyatni aniqlang.

A.Qariyalar bumi
V.Qariyalar oshishi
S.Regrissiya
D.Progressiya
E.Aholining qarishi

61. Ayrim davlatlarda kutilayotgan depopulyasiya nimani hisobiga bartaraf etilishi kutilmoqda ?

- A.Immigratsiya
- V.Remigratsiya
- S.Migratsiya
- D.A va V
- E.A va S

62. 1960 – 1970-yillarda dunyo aholisinnng juda tez sur’at bilan o’sib borishi ga olib kelgan?

- A.Demografik portlash
- V.Demografik siyosat
- S.Aholining ko‘payishi
- D.Demografik bashorat
- E.A va D

63. Tug‘ilishning kamayib borishi ...jarayondir.

- A.tarixiy
- V.ijtimoiy
- S.siyosiy
- D.iqtisodiy
- E.A va V

64. Yer shari aholisining ko‘payishi 20 – 30 yil davomida

- A.sekinlashgan
- V.ko‘paygan
- S.o‘rtacha
- D.juda tez ko‘paygan
- E.kamaygan

65. Tug‘ilish va o‘lim jarayonidagi o‘zgarishlar dunyo aholisining ga ta’sir ko‘rsatadi?

- A.tabiiy ko‘payishga
- V.savodsizlikka

- S.savodliliga
- D.kamayishiga
- E. qariyalarni ortib borishiga

66. Tug‘ilishning past bo‘lishi va o‘limning kamayishi ga olib keladi ?

- A.Demografik qarishga
- V.demografik siyosatga
- S.Demografik portlashga
- D.Aholi ortiqchaligiga
- E.A va D

67. Ibtidoiy jamoa davrida kishilarning o‘rtacha umr ko‘rishi necha yoshni tashkil qilgan ?

- A.20 – 25
- V.15 – 20
- S.40 – 45
- D.33 – 42
- E.30 -35

68. Ibtidoiy jamoa davrida aholi o‘rtasida..... o‘limi yuqori bo‘lgan.

- A.ayollar o‘limi
- V.erkaklar o‘limi
- S.bolalar o‘limi
- D.yuqori yoshdagilar
- E.A va V

69. Aholi tarkibida ayollar salmog‘ining yuqoriligi iqtisodiy rivojlangan davlatlarida kuzatilad ?

- A.AQSH va Kanada
- V.Saudiya Arabiston va Yaponiya
- S.Germaniya va Yaponiya
- D.AQSH va Germaniya
- E.Iordaniya va Kanada

Hozirgi kunda tug‘ilishni cheklashga qaratilgan demografik siyosat ... olib keldi.

- A.Tug‘ilishni kamayishiga
- V.Bolalar sonini ortishiga
- S.Keksalarni ortishiga
- D.Tug‘ilishni ko‘payishiga
- E.ayollar soni kamayishiga

70. Bolalar (go‘daklar) o‘limi necha yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi ?

- A.1
- V.2
- S.3
- D.4
- E.5

71. Homiladorlikning 28 haftasidan to tug‘ilgan chaqaloqlarning 7 kunlik davrigacha o‘lganlar qanday o‘lim deb ataladi ?

- A.Perenatal
- V.Postneonatal
- S.Neonatal
- D.Protogenetik interval
- E.Intergenetik interval

72. Go‘dakning 28 kunligidan 1 yoshgacha bo‘lgan o‘limi nima deb ataladi ?

- A.Postneonatal
- V.Neonatal
- S.Perenatal
- D.O‘limning yosh guruhleri koeffitsiyenti
- E.O‘limning xususiy koeffitsiyenti

73. Chaqaloqning 7 kunlik davridan 28 kungacha o‘lganlari nima deb ataladi?

- A.Neonatal

- V.Postneonatal
- S.Perenatal
- D.Tabiiy o‘lim
- E.Hammasi

74. Oilada tug‘ilgan farzandlar orasidagi davr nima deb ataladi ?

- A.intergenetik interval (davr)
- V.protogenetik interval (davr)
- S.fertilnos
- D.reproduktiv davr
- E.hammasi

75. “Odamni unutdingiz !!!” bu tanqid kimga tegishli ?

- A.N.N. Baranskiy
- V.J.I. Kusto
- S.V.P. Maksakovskiy
- D.D.I. Valentey
- E.A.YA. Boyarskiy

76. Aholi tarkibida qariyalar salmog‘ining ko‘payishi va aholi sonining kamayib ketishi nima deb ataladi ?

- A.Depopulyatsiya
- V.Migratsiya
- S.Regressiya
- D.Urbanizatsiya
- E.Hammasi

77. Aholi ko‘payishining birinchi turi; demografik tanglik qayerlarda kuzatiladi?

- A.Yevropa
- V.Osiyo
- S.Lotin Amerika
- D.Afrika
- E.Hammasi

78. Aholi ko'payishining birinchi turi; demografik tang mamlakatlarga xos xususiyatlar....

- A.hammasi
- V.o'lim past
- S.Tabiiy ko'payish past
- D.Qariyalar ko'p
- E.Tug'ilish past

79. $F_{15-49} = \frac{N_{15-49}}{TW} \cdot 1000$ bu formula nimani ifodalaydi ?

- A.Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti
- V.Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti
- S.O'limning umumiy koeffitsiyenti
- D.O'limning maxsus koeffitsiyenti
- E.Nikoh koeffitsiyenti

80. $F_{x'y} = \frac{N_{x/x+y}}{TW_{x/x+y}} \cdot 1000$ bu formula nimani ifodalaydi?

- A.Tug'ilishning xususiy koeffitsiyenti
- V.Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti
- S.O'limning umumiy koeffitsiyenti
- D.O'limning maxsus koeffitsiyenti
- E.Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti

81. $n = \frac{N}{TP} \cdot 1000$ bu formulada N nimani ifodalaydi ?

- A.O'rganilayotgan davrda tug'ilgan bolalar soni
- V.Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti
- S.O'rganilayotgan davrdagi aholining o'rtacha soni
- D.Tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti
- E.O'rganilayotgan davr (yil)

82. $m = \frac{M}{TP} \cdot 1000$ bu formula yordamida nimalar aniqlanadi ?

- A.O‘limning umumiy koeffitsiyenti
- V.Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti
- S.nikohning umumiy koeffitsiyenti
- D.Ajralishning umumiy koeffitsiyenti
- E.Migratsiya koeffitsiyenti

83. $F_{x,x+z} = \frac{M_{x,x+z}}{TW_{x,x+z}} \cdot 1000$ bu nimani formulasi ?

- A.O‘limning yosh guruhlari koeffitsiyenti
- V.Tug‘ilishning maxsus koeffitsiyenti
- S.O‘limning umumiy koeffitsiyenti
- D.O‘limning maxsus koeffitsiyenti
- E.Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti

84. $R = \frac{B}{P} \cdot 1000$ bu formula nimani ifodalagan ?

- A.Nikohning umumiy koeffitsiyenti
- V.Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti
- S.O‘limning umumiy koeffitsiyenti
- D.Ajralishning umumiy koeffitsiyenti
- E.Migratsiya koeffitsiyenti

85. $a = \frac{A}{P} \cdot 1000$ bu formula nimani ifodalaydi ?

- A.Ajralishning umumiy koeffitsiyenti
- V.Tug‘ilishning umumiy koeffitsiyenti
- S.Nikohning umumiy koeffitsiyenti
- D.O‘limning umumiy koeffitsiyenti
- E.Migratsiya koeffitsiyenti

86. $R = \delta \sum_{15}^{49} \cdot fx$ bu formula nimani ifodasi ?

- A.Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti
- V.Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti
- S.Ajralishning umumiy koeffitsiyenti
- D.Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E.Xammasi to'g'ri

87. $R_0 = RL_x$ bu formula nimani ifodalaydi ?

- A.Aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsiyenti
- V.Aholi takror barpo bo'lishining brutto koeffitsiyenti
- S.Ajralishning umumiy koeffitsiyenti
- D.Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E.Xammasi to'g'ri

88. Oilada istiqomat qiluvchi oila a'zolari nechta bo'lsa katta oila deyiladi ?

- A.7 – 8
- V.5 – 6
- S.2 – 4
- D.4 – 5
- E.3 – 6

89. Demografiya fani nimani o'rganadi?

- A. Aholini tabiiy takror barpo bo'lishini
- B Demografik o'sishni
- V Aholini jinsiy va irqiy tarkibini
- D.Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E.Hammasi to'g'ri

90. Hozirgi davirda avlodlarning umr ko'rish davomiyligi necha yilga tug'ri keladi?

- A 32-35yilga
- B 48-50yilga

V 60-65yilga

D.Migratsiya saldosi koeffitsienti

E.Hammasi to'g'ri

91. Demografiya fanining otasi...?

A. J. Graund

B. D. I Valinten

V A. G Veshneveskie

D.Migratsiya saldosi koeffitsiyenti

E.Hammasi to'g'ri

92. Demografiyaning asosiy predmeti...?

A. Tug'ulish va o'lim

B. Aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini tahlili hisobida

V. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muvozanat

D. Migratsiya saldosi koeffitsiyenti

E. Hammasi to'g'ri

93. Demografik tahlil uslubi keltirilgan qatorni toping?

A. Unda mavhum usulidan keng foydalanish asosida aholii tarkibida kelgusida ruy beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari o'rganiladi.

B Jamiyatdagi taxlilij jarayonlar asosida o'rganiladi

V Jamiyat va inson prinsiplariga asoslanadi.

D.Migratsiya saldosi koeffitsiyenti

E.Hammasi to'g'ri

94. Demografik siyosat o'tkazish uslublari necha yo'nalishga bo'linadi va ular qaysilar?

A. 2 guruhga manaviy va marifiy yo'nalishga

B. Faqat siyosiy yo'nalishga

V. 3 guruhga iqtisodiy mamuriy-xuquqiy ijtimoiy-psixologik

D. Migratsiya saldosi koeffitsiyenti

E. Hammasi to'g'ri

95. Demografiya faniga “qarish indekisi” tushunchasini qaysi demograf olim kiritgan?

- A. Jaklen, Bojyo-Garnelar tomonidan
- B. A.Sovi
- V. E.Rosset
- D. Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E. Hammasi to‘g‘ri

96. Aholining takror barpo bo‘lish jarayonida qanday xodisalar ishtiroki bir marta sodir bo‘ladi?

- A. Emigratsiya
- B. Miratsiya
- V. O‘lim va tug‘ilish
- D. Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E. Hammasi to‘g‘ri

97. Depopulyatsiya jarayoni qanday hodisalarni keltirib chiqaradi?

- A. Migratsiya jarayonini
- B. Ochlik va o‘lim holatlarini
- V. Ishchi kuchi va mehnat salohiyatining qisqarishiga iqtisodiy faollikni kamayishiga va aholini keksayishiga olib keladi
- D. Migratsiya saldosi koeffitsiyenti
- E. Hammasi to‘g‘ri

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. ASOSIY:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O‘zbekiston» NMIU, 2017. – 484 b.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi”ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1998 yil 30 aprel, № 607-1.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 13 mart 2009 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi aholi punktlarining ma‘muriy-hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” № 68-son qarori. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009 y., 12-son, 130-modda.

5. Abdalova Z.T., Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy geografiya. O‘quv qo‘llanma / O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, TMI. – T.: «IQTISOD MOLIIYA», 2013. -212 bet.

6. Abduraxmanov Q.X., va boshqalar. Demografiya. Darslik. - T.: «Fan va texnologiya», 2014. - 368 b.

7. Айрапетов А.М. Таблицы исчисления и среднегодовых темпов роста, прироста и снижения (2-е дополненное издание). – М.: Статистика, 1967. – 158 с.

8. Алисов Н. В., Хорее Б. С. Экономическая и социальная география мира {общий обзор}. - М., 2001.

9. Анохин А.А., Житин Д.В. География населения с основами демографии: Учебное пособие. – СПб. Изд-во СПбГУ, 2013. – 307 с.

10. Asanov G, Nabixanov M, Safarov I. O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo‘g‘rofiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1994. – 209 b.

11. Ата-Мирзаев О, Гентшке В, Муртазаева Р, Салиев А. Историко-демографическое очерки урбанизации Узбекистана. – Т., 2002. – 125 б.

12. Ата-Мирзаев О. Б. Народонаселение Узбекистана: история и современность. – Т., 2009. – 223 с.

13. Axmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. – T.: Abu Ali Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti, 2002.

14. Axmedov E., Saydaminova Z. O‘zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma’lumotnoma. – T.: “O‘zbekiston”, 2006.

15. Bo‘riyeva M.R., Tojiyeva Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. - Toshkent., “Tafakkur», 2011. – 160 bet.

16. Bo‘riyeva M.R., Egamova D.N. Dunyo aholisi: Rivojlanish jarayonlari (o‘quv qo‘llanma). – T.: Fan, 2008. – 156 b.

17. Bo‘riyeva M. R. O‘zbekistonda oila demografiyasi. – T.,Universitet, 1997. -157 b.

18. Боярский А.Я. Курс демографии: Учеб. Пособие. – М.: Финансы и статистика, 1985. – 391 с., ил.

19. Борисов В. А. Демография. – М.:Издательский дом НОТАБЕНЕ, 1999, 2001. – 272 с.

20. Бункина М.К., Семенов В.А. Макроэкономика (основы экономической политики): Учебник. – М.: Издательство «ДИС*», 1997. – 320 с.

21.Бутов В.И. Демография: Учебное пособие. Под.ред.В.Г.Игнатова. Второе изд., перераб и доп. – М.:ИКЦ. Март; Ростов н/д: Издательский центр “Март”, 2005. – 576 с.

22. Бутов В. И. Экономическая и социальная география зарубежного мира и Российской Федерации: Учебное пособие. – Москва: ИКЦ «МарТ», Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2003. – 192 с.

23. Валентей Д.И. Основы теории народонаселения: Учебное пособие для экон. спец. вузов/ Д.И. Валентей, В.И. Козлов, Н.В. Панкратьева и др. – М.: Высшая школа, 1986. – 376 с.

24. Валентей Д.И., Кваша А.Я. Основы демографии. – М.: Мысль, 1989. – 286 с.

25. Гендерные проблемы и развитие. – М: Издательство «Весь мир», 2005. - 408 с.

26. Глущенко Г.И. Миграция и развитие: Мировые тенденции // Вопросы статистики, 2/2008. – М., 2008. – С. 65 – 79.

27. Демографическое развитие: вызовы глобализации. Седьмые Валентеевские чтения. Материалы международной конференции. – Москва., Макс – Пресс, 2012. – 695 с.

28. Детерминация демографических процессов: сборник статей / Под ред. Зверевой Н.В. и Архангельского В.Н.: Экономический факультет МГУ имени М.В. Ломоносова. – М.: МАКС Пресс, 2012. – 384 с.

29. Доклад о развитие человека 2010, 20-е юбилейное издание. Реальное богатство народов: пути к развитию человека, ПРООН. – Москва.: Вес Мир, 2010.

30. Демографический энциклопедический словарь/ Редкол.: Валентей Д.И. (гл.ред.) и др. – М.: Сов. Энциклопедия, 1985. – 608 с., ил.

31. Dudley L. Poston, Jr. Demography. – Cambridge University Press, 2010-442 p.

32. Доклад о человеческом развитии Узбекистана – 2003 г. - Ташкент.: Ўзбекистон, 2004.

33. Кильдишев Г.С., Козлова Л.Л., Ананьева С.П. Статистика населения с основами демографии: Учебник/ Г.С.Кильдишев, Л.Л. Козлова, С.П. Ананьева и др. – М.: “Финансы и статистика”, 1990. – 312 с.: ил.

34. Клулт М.А. Демография регионов Земли. – СПб.: Питер, 2008. – 347 с.: ил.

35. Копылов В.А. География населения. Учебное пособие.– М.: 1999. – 124 с. Либанова Э.М. Продолжительность жизни населения: (Опыт комплексного регионального исследования). – Киев.: Наукова Думка, 1991. – 200 с.

36. Максаковский В. П. Общая экономическая и социальная география. Курс лекций. В двух частях. Часть.: - Гуманитар. Изд. Цент ВЛАДОС, 2009. – 367 с.

37. Медков В.М. Демография. – М., 2004.

38. Международная миграция населения на постсоветском пространстве в эпоху глобализации / Гл.ред.серии В.А. Ионцев. – М.: Издательство Московского университета, 2012. – 88 с.

39. Моисеенко В.М. Внутренняя миграция населения. – М.: Экономический факультет МГУ, ТЕИС, 2004. – 285 с.

40. Nazarov M., Tojiyeva Z. Ijtimoiy geografiya. O'quv qo'llanma. – T., 2003.

41. Народонаселение мира в 2004 г. UNFPA – New York. 2004. – 139 с.

42. Народонаселение мира в 2005 г. UNFPA – New York. 2005. – 139 с.

43. Народонаселение мира в 2009 г. Перед лицом меняющегося мира: женщины, народонаселение и климат. UNFPA – New York. 2009. – 106 с.

44. Народонаселение мира в 2010 г. От конфликта и кризиса к возрождению: поколения перемен. UNFPA – New York. 2010. – 116 с.

45. Народонаселение мира в 2012 г. Дело выбора, а не случая. Планирование семьи, права человека и развитие. Анализ данных и тенденций для понимания проблем. UNFPA – New York. 2012. – С.17.

46. Народонаселение / Ежеквартальный научный журнал, 1 - 2006. – Москва, 2006. – 144 с.

47. Основы демографии: Учебно-методические материалы по курсу/ Под ред. Ионцева В.А., Ананьевой Г.Е. – М.: МАКС Пресс, 2010. – 116 с.

48. Перцик Е. Н. География городов (геоурбанистика): Учебное пособие для геогр. спец. вузов.–Высш. шк.,1991.–319 с.

49. Пирожков С.И. Внешние трудовые миграции в Украине: Социально – экономический аспект. – Киев, 2003. – 133 с.

50. Расселение населения. Памяти Б.С.Хорева (1932-2003 гг.). Сборник статей/ Под ред. И.А.Даниловой, Н.Г. Джанаевой и Р.В. Дмитриева. – М.: 2012. – 328с.

51. Рыбаковский Л.Л. Программа действий по улучшению демографической ситуации. – М.: МАКС Пресс, 2006. – 151 с.

52. Садовская Е.Ю. Миграция В Казахстане на рубеже XXI века: основные тенденции и перспективы/Е.Ю. Садовская. – Алма-Ата: Галым, 2001. – 259 с.

53. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения. – М.: Издательско-торговая корпорация “Дашков и К”, 2004. – 244 с.

54. Симагин Ю.А. Территориальная организация населения и хозяйства / Под общ. ред. В.Г. Глушковой. – М.: КНОРУС, 2005. – 384 с.

55. Ситаров В.А., Пустовойтов В.В. Социальная экология: Учебное пособ.для студ. Высшее. пед. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2000. – 280 с.

56. Соболева С.В., Чудаева О.В. Демографическая безопасность России и ее регионов: факторы, проблемы, индикаторы // Регион: экономика и социология, 2008, № 3. – С. 147 – 167.

57. Soliyev A.S., Bo'riyeva M.R va boshqalar. Qishloq joylar demografiyasi. – T., 2005. – 140 b.

58. Tojiyeva Z.N. Statistikaning umumiy nazariyasi. – T., 2000. – 58 b.

59. Tojiyeva Z.N. Iqtisodiy va demografik statistika. – T., 2002. – 160 b.

60. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston aholisi: o'sishi va joylanishi (Monografiya). – T.: «Fan va texnologiya», 2010. – 276 b.

61. Tojiyeva Z.N. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi.- T., 2017. – 224 b.

62. Qayumov A.A., Yakubov O'.Sh., Abdullayev A.G. Aholi geografiyasi va Demografiya asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2011. – 160 b..

63. Щербаков А.И. Основы демографии и государственной политики народонаселения. – М.: Академический проект, 2005. – 206 с.

64. Ubaydullayeva R, Ata-Mirzayev O, Umarova N. O‘zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. – T., 2006. – 95 b.

65. Хомра А.У. Воспроизводство населения (территориально- организационный аспект). – Киев: Наука думка, 1990. – 172 с.

66. G‘ulomov S., Ubaydullayeva R., Axmedov E. Mustaqil O‘zbekiston. – T.: Mehnat, 2001. – 248 b.

67. Шахотько Л.П., Привалова Н.Н. Демографическая безопасность: сущность, задачи, система показателей и механизм реализации // Вопросы статистики. – М., 2001. - №7. – С.16 – 21.

68. Щербаков А.И. Основы демографии и государственной политики народонаселения. – М.: Академический проект, 2005. – 206 с.

69. Экономическая география/В.П. Желтиков, Н.Г. Кузнецов, С.Г. Тяглов. Серия «Учебники и учебные пособия». Ростов н/ Д: Феникс, 2001. – 384 с.

70. Экология и экономика природопользования: Учебник для вузов / Под ред. проф. Э.В. Гирусоза, проф. В.Н. Лопатина. - 2-е изд., перераб. и доп. – М: ЮНИТИ-ДАНА, Единство, 2002. – 519 с.

II. STATISTIK VA HISOBOT MATERIALLARI:

71. Гендерное равенство в Узбекистане: Факты и цифры 2000-2004. Статистический сборник. – Т., 2005. – 90 с.

72. Демографический ежегодник. 1990: Госкомстат. – М.: «Финансы и статистика», 1990. – 639 с.

73. Демографический ежегодник Узбекистана 1991-2003 годы. Статистический сборник. – Ташкент., 2004. – 300 с.

74. Население Узбекистана 1991-2001. Статистический сборник. – Т., 2002. – 256 с.

75. Население Узбекистана 2012. Статистический сборник. – Т., 2012. – 118 с.

76. Основные тенденции и показатели экономического и социального развития республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010 гг.) и прогноз на 2011-2015 гг. Статистический сборник. – Т.: Узбекистан, 2011. 229 с.

77. Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2011 год. Государственный Комитет по статистике Республики Узбекистан. – Т., 2012.

III. ELEKTRON MANBALAR:

78. [http:// Unpopulation.org](http://Unpopulation.org).

79. <http:// Population Reference Bureau. 2009-2017 World Population Data Sheet>.

80. <http:// www.undp.org>.

81. <http:// www.demoscope.ru>.

82. <http:// www.unep.org>.

83. <http:// www.religare.ru>.

84. <http:// www.stat.uz>.

85. <http:// www.unfpa.uz>.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
-------------	---

I-BOB.DEMOGRAFIYA FANINING NAZARIY ASOSLARI: OBYEKTI, PREDMETI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

§ 1.1. Demografiyaning obyekti, predmeti va vazifalari.....	5
§ 1.2. Aholishunoslik fanlari tizimi.....	13
§ 1.3. Demografiyaning boshqa fanlar bilan aloqalari.....	16

II BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLAR VA AHOLI XAQIDA MA'LUMOTLARNI O'RGANISH MANBALARI

§ 2.1. Demografik ma'lumotlar manbalariga umumiy tavsif.....	23
§ 2.2. Aholi ro'yxati: dasturlari, tamoyillari va vazifalari.....	25
§ 2.3. Demografik jarayonlarni joriy hisobga olish maxsus va tanlama tadqiqotlar.....	38

III BOB. AHOLI SONI DINAMIKASI

§ 3.1. Aholi soni dinamikasining mutloq ko'rsatkichlari.....	46
§ 3.2. Aholi soni dinamikasining nisbiy ko'rsatkichlari.....	49
§ 3.3. Dunyo mamlakatlari aholi soni dinamikasidagi o'zgarishlar.....	50

IV BOB. AHOLINING TARKIBI. AHOLINING YOSH-JINS TARKIBI

§ 4.1. Aholi tarkibi va tuzilishining mohiyati, ma'zmoni.....	68
§ 4.2. Aholi yosh tarkibi xususiyatlari.....	69

§ 4.3. Aholining jins tarkibi va uning shakllanishidagi omillar.....	77
--	----

V BOB. AHOLINING QARISHI

§ 5.1. Aholining qarishi va uning demografik omillari.....	85
§ 5.2. Demografik qarish shkalasi (J.Boje–Rarne–E. Rosset.....	86
§ 5.3. Dunyo aholisi qarishining hududiy xususiyatlari.....	88

VI BOB. AHOLINING OILAVIY TARKIBI

§ 6.1. Oila va uning turlar, aholining oilaviy holati.....	97
§ 6.2. Aholining oilaviy tarkibi va aholining oilalar bo'yicha taqsimlanishi (O'zbekiston misolida).....	104
§ 6.3. Aholining uy xo'jaligi bo'yicha taqsimlanishi.....	110

VII BOB. AHOLINING TAKROR BARPO BO'LISHI

§ 7.1. Aholi takror barpo bo'lishi mohiyati va unga ta'sir qiluvchi omillar.....	115
§ 7.2. Aholi takror barpo bo'lishini ifodalovchi ko'rsatkichlari.....	122
§ 7.3. Demografik o'tish konsepsiyasi.....	127

VIII BOB. TUG'ILISH VA AHOLINING REPRODUKTIV MAYLI

§ 8.1. Tug'ilish va unga ta'sir etuvchi omillar.....	131
§ 8.2. Tug'ilish jarayonini ifodalovchi ko'rsatkichlar.....	141
§ 8.3. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida O'zbekistonda tug'ilish jarayoni dagi o'zgarishlar.....	155

IX BOB. AHOLI O'LIMI VA O'RTACHA UMR KO'RISH DAVOMIYLIGI

- § 9.1. Aholi o'limi va unga ta'sir etuvchi omillar..... 166
- § 9.2. Aholi o'limining umumiy va xususiy ko'rsatkichlari..... 172
- § 9.3. Dunyo mamlakatlarida aholi o'limi va o'rtacha umr ko'rish davomiyligining hududiy xususiyatlari..... 176

X BOB. NIKOH VA AJRALISH JARAYONLARI

- § 10.1. Nikoh- sotsiologik va demografik kategoriya sifatida. 199
- § 10.2. Aholining nikoh-oila tarkibi va nikoh yoshi..... 203
- § 10.3. Nikoh va ajralishni qayd etish va uning koeffitsiyentlari..... 207

XI BOB. AHOLI MIGRATSIYASINING MOHIYATI VA UNI O'RGANISHNING NAZARY JIHATLARI

- § 11.1. Aholi migratsiyasining mohiyati, omillari, turlari va uni ifodalovchi ko'rsatkichlar..... 218
- § 11.2. Migratsiya qonunlari (E. Ravenshtayn)..... 228
- § 11.3. Aholi migratsiyasini o'rganish borasidagi ilmiy yondo shuv, nazariya va konsepsiyalar..... 230
- § 11.4. Xalqaro migratsiya jarayoni va undagi o'zgarishlar..... 240

XII BOB. DEMOGRAFIK PROGNOZLASHTIRISH

- § 12.1. Aholi prognozining ahamiyati..... 248
- § 12.2. Aholi prognozining vazifalari va qo'llaniladigan usullar..... 260
- § 12.3. Demografik prognoz va dunyoda demografik rivojlanishning global muammolari..... 265

XIII BOB. DEMOGRAFIK SIYOSAT

- § 13.1. Demografik siyosatning mazmuni va uni o‘tkazish usullari..... 282
- § 13.2. Tug‘ilish va oila sohasidagi demografik siyosat..... 285
- § 13.3. Migratsion siyosatning mohiyati, migratsion jaryonlarni xalqaro miqyosda boshqarish..... 289

XIV BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING RIVOJLANISHI VA JOYLANISHI

- § 14.1. O‘zbekistonda aholi soni dinamikasi va joylanishi..... 301
- § 14.2. Aholining demografik tarkibi..... 305
- § 14.3. Respublika aholisining demografik vaziyati..... 309

XV BOB. DUNYO AHOLISINING RIVOJLANISHI VA JOYLANISHI

- § 15.1. Dunyo aholisining soni va dinamikasi..... 317
- § 15.2. Dunyo aholisining etno-demografik tarkibi..... 331
- § 15.3. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiyasi..... 340
- NAZORAT UCHUN SAVOLLAR..... 288**
- FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR..... 411**

Z.N. TOJIYEVA, F.A. DO'SMONOV

DEMOGRAFIYA

Ташкент – «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи» – 2020

Muharrir:	SH. Kuserbayeva
Tex. muharrir:	A.Moydinov
Musavvir:	A.Shushunov
Musahhih:	Sh.Mirqosimova
Kompyuterda sahifalovchi:	M.Zoyirova

E-mail: nashr2019@inbox.ru

Nashr.lits. AL№009, 20.07.2018. Bosishga ruxsat etildi 09.11.2020.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 26,0 . Nashriyot bosma tabog'i 26,5.

Tiraji 200. Buyurtma № 147.